O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

“XALQ KONSTITUSIYASI BILAN HUQUQIY, IJTIMOIY, DUNYOVIY DAVLAT SARI: ILMIY TAHLIL VA AMALIY YECHIMLAR”

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI

МАТЕРИАЛЫ

международной научно-практической конференции
К ПРАВОВОМУ, СОЦИАЛЬНОМУ, СВЕТСКОМУ ГОСУДАРСТВУ С НАРОДНОЙ КОНСТИТУЦИЕЙ: НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ

MATERIALS

of the international scientific and practical conference
“TOWARDS A LEGAL, SOCIAL, SECULAR STATE WITH THE PEOPLE'S CONSTITUTION: SCIENTIFIC ANALYSIS AND PRACTICAL SOLUTIONS”



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi
qabul qilinganligining
31 yilligiga bag‘ishlanadi

“XALQ KONSTITUSIYASI BILAN HUQUQIY, IJTIMOIY, DUNYOVIY DAVLAT SARI: ILMIY TAHLIL VA AMALIY YECHIMLAR”

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

2023-yil 4-dekabr

МАТЕРИАЛЫ

международной научно-практической конференции

“К ПРАВОВОМУ, СОЦИАЛЬНОМУ, СВЕТСКОМУ ГОСУДАРСТВУ С НАРОДНОЙ КОНСТИТУЦИЕЙ: НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ”

MATERIALS

of the international scientific and practical conference

“TOWARDS A LEGAL, SOCIAL, SECULAR STATE WITH THE PEOPLE'S CONSTITUTION: SCIENTIFIC ANALYSIS AND PRACTICAL SOLUTIONS”

TOSHKENT

KBK- 67.400
K-64

“Xalq Konstitusiyasi bilan huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat sari: ilmiy tahlil va amaliy yechimlar” // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. –Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023, – 523 b.

Mazkur “**Xalq Konstitusiyasi bilan huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat sari: ilmiy tahlil va amaliy yechimlar**” nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya natijasida tayyorlangan to‘plamda, konstitusiyaviy - huquqiy islohotlarning rivojlanishi, yangi tahrirdagi Bosh qomusimiz normalarining mazmun-mohiyati, ko‘p millatli O‘zbekiston davlatida yangilangan Konstitusiyaning o‘rni, inson huquq va manfaatlarining ustuvorligi, Konstitusiyaviy davlat organlari faoliyatining takomillashuvi bilan bog‘liq soha va amaliyotda mavjud bo‘lgan muammolarni aniqlash, ularning yechimini topish maqsadida tayyorlangan ilmiy va amaliy tahliliy maqolalar joy olgan.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti va boshqa oliy (harbiy) ta’lim muassasalari doktaranlari, magistrlari, tinglovchi - kursantlari, talabalari, professor-o‘qituvchilari, doktorant va mustaqil izlanuvchilari, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari hamda sohaga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir: M.X.Rustambayev, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, polkovnik, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, yuridik fanlar doktori, professor.

Tahrir hay’ati:

Turg‘unov O.K., y.f.d. prof., podpolkovnik;
Zulfiqorov Sh.X., y.f.d. professor, mayor;
Usmonov M.B., y.f.d., professor
Yuldashov S.O., y.f.b.f.d.(PhD)
Xomidov E.O., y.f.b.f.d.(PhD), dotsent, kapitan.

To‘plamga kiritilgan maqolalarning mazmuni va mazkur maqolalarda keltirib o‘tilgan ma’lumotlarning aniqligi uchun mualliflar mas’ulligi belgilangan.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 30 yilligi munosabati bilan yo‘llagan tabrigida ta’kidlaganidek, “Xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi, inson huquq va erkinliklarining qonuniy kafolati bo‘lgan, biz uchun ozod va obod hayot qurish yo‘lini ochib bergan Konstitutsiyamiz bilan shu bois har qancha faxrlansak, g‘ururlansak, arziydi, albatta ”.

Darhaqiqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar zamirida konstitutsiyamiz turganligini alohida ta’kidlash lozim. Yangi O‘zbekiston – yangi islohotlar sharoitida inson huquq va erkinliklarining oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi, davlat organlarining xalq manfaatlariga xizmat qilishi taraqqiyotimizning yuksalish mezonini belgilab beruvchi muhim omildir.

Konstitutsiya - Asosiy qonun sifatida barcha qonunchilik sohalarining bosh manbai hisoblanadi, chunki Konstitutsiyada xalqning oliy irodasi o‘zining qonuniy ifodasi hamda muxtasar bayonini topadi.

Dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir shaxs, hech bir fuqaro o‘z ijtimoiy-shaxsiy hayotini, o‘zining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur qila olmaydi. Bu haqda davlatimiz Rahbari ta’kidlab o‘tganidek, “O‘zbekiston fuqarolari hamisha o‘z davlati va Konstitutsiyasi himoyasida bo‘ladi va biz bu tamoyilni bundan buyon ham qat’iy amalga oshiramiz”.

Chunki, har bir shaxs kundalik hayotida Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklariga bevosita murojaat qiladi hamda ushbu Asosiy qonunga o‘zining huquq va erkinliklarini kafolatlab beruvchi oliy yuridik hujjat sifatida qaraydi. Shuning uchun ham demokratik jamiyatda yashayotgan har bir shaxs Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishi hamda shaxsiy hayotida uchrab turadigan muammolarning yechimini aynan Konstitutsiyadan topa bilishi zarur.

Yangi O‘zbekiston sharoitida konstitutsiyaviy islohotlar davlat va jamiyat boshqaruvi tizimidagi yondashuvni va faoliyat tamoyillarini tubdan o‘zgartirishga, Yangi O‘zbekistonda o‘zaro munosabatlarning asosi

sifatida “davlat-jamiyat-inson” tamoyili o‘rniga “inson-jamiyat-davlat” g‘oyasini asos qilib qo‘yishga qaratilgan.

Ta’kidlash joizki, Konstitutsiya 1992-yilda qabul qilinganidan buyon unga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarning deyarli barchasi asosan davlat va jamiyat qurilishi, jumladan Prezident, Parlament, Hukumat faoliyati, saylov tizimi va boshqalarga taalluqli bo‘lgan.

O‘z navbatida, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan normalarning yarmidan ko‘pi insonning huquq va erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish va mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan. Konstitutsiyada aholining barcha qatlamlari manfaatlari aks ettirilganligini inobatga olib, har bir O‘zbekiston fuqarosi ishonch bilan “Bu mening Konstitutsiyam” deb ayta oladi, deyish uchun barcha asoslar mavjud.

Muxtasar qilib aytganda, Konstitutsiya biz uchun nafaqat muhim hayotiy qo‘llanma, balki g‘urur-iftixor, shu zaminda istiqomat qilayotgan, millati, tili, dinidan qat’i nazar, barcha insonlar uchun mustahkam bir himoya demakdir. Shubhasiz, Konstitutsiyamiz demokratik va umuminsoniy qadriyatlar yuksak darajada qadrlanayotgan mustaqil davlatimizda inson huquqlarini samarali himoya qilish kafolatlarini ta’minlashga bevosita xizmat qiladi.

МИРЗАЮСУП РУСТАМБАЕВ,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети бошлиғи,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган юрист, юридик фанлар доктори, профессор

ИНСОН ҲУҚУҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ АСОСЛАРИ

Аннотация. Мақолада бугунги кун янги ислоҳотлар босқичида мамлакатимизда инсон ҳуқуқини таминлаш соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотлар, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг инсон ҳуқуқини ҳимоя қилиш тизимини ривожлантиришдаги ўрни ва роли ёритилган.

Калит сўзлар: Конституция, ҳуқуқ, инсон ҳуқуқи, сиёсий ҳуқуқ, ижтимоий ҳуқуқ, маданий ҳуқуқ, ислоҳот, қонун, фармон, қарор, дастур.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы обеспечения прав человека на новом этапе развития нашего государства, место и роль Конституции Республики Узбекистан по развитию системы защиты прав человека.

Ключевые слова: Конституция, право, права человека, политическое право, социальное право, культурное право, реформа, закон, указ, постановление, программа.

CONSTITUTIONAL FOUNDATIONS FOR THE IMPROVEMENT OF HUMAN RIGHTS

Annotation. The article covers the reforms carried out in the field of ensuring human rights in our country at the stage of today's new reforms, the role and role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in the development of the system of protection of human rights.

Keywords: Constitution, Law, Human Law, Political Law, Social law, cultural Law, Reform, Law, Decree, decision, Program.

Миллий тараққиётимизнинг бугунги кун янги ислоҳотлар босқичида янги Ўзбекистонни бунёд этиш жараёнида инсон ҳуқуқини ҳимоя қилиш амалга оширилаётган туб ўзгаришларнинг марказида турувчи энг устувор, давлат сиёсати даражасига кўтарилган асосий масалага айланди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон ҳалқига Мурожаатномада 2023 йилга юртимизда “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”, дея ном берилди ва “Ўзбекистонда давлат сиёсатининг марказида инсон ва унинг манфаатлари устувор вазифа эканлиги, ҳар бир инсоннинг тинч ва бахтли ҳаёт кечириши, яхши таълим олиши, унга оиласини тебратиши учун қандай шароит керак бўлса, ҳаммаси яратиб берилиши” [1] алоҳида таъкидланди.

Юртбошимиз томонидан инсон ҳуқуқини ҳимоя қилишни янада такомиллаштиришнинг янги йўналишлари белгилаб берилди. Булар: инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш давлатнинг конституциявий мажбурияти сифатида белгиланиши лозимлиги, одамларнинг судма-суд сарсон бўлиб юришига барҳам бериш учун адолатли ҳукм ва қарор чиқариш бўйича вилоят судларининг ваколати, масъулиятини ошириш кераклиги, тинтув ўтказиш, телефон сўзлашувини эшитиш ва мулкни хатлашга санкцияни прокурордан судга ўтказиш муҳимлиги, мулк ҳуқуқини чеклашга оид ҳар қандай ҳаракат фақат суд орқали бўлиши зарурлиги, тергов шахсни айблаш учун эмас, жиноятни фош этиш орқали ҳақиқатни аниқлаш учун ишлаши кераклиги, судда ишларни кўришда қатнашадиган алоҳида прокурорлар корпусини шакллантириш лозимлиги, одил судловни таъминлашда ҳимоячининг ҳуқуқлари кенгайтирилиши, илғор хорижий тажрибалар асосида маъмурий судлар фаолиятини янги босқичга олиб чиқиш кераклиги ва ҳ.к.

Янги таҳрирда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясида инсон ҳуқуқини таминлашга бағишланган нормалар уч бароварга кўпайтирилиб, уларнинг ижросини амалга ошириш ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларидан чуқур

билим, куч ва амалий кўникмаларнинг шаклланганлигини талаб этади.

Конституцияда Ўзбекистон – ҳуқуқий давлат, деб белгиланди. Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари қонунларимизнинг, ҳар бир вазирлик ва идора ва мансабдор шахслар фаолиятининг мазмунига айланиши қатъий талаб сифатида кўрсатилди.

Инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг кафолатлари сезиларли даражада кучайтирилди. Хусусан, Ўзбекистонда ўлим жазоси тақиқланди. Ўлим жазосини тақиқлашни конституциявий даражада белгиланиши инсонни ҳаётдан ҳатто давлат ҳам маҳрум этишга ҳақли эмаслигини кафолатлайди. Бундан ташқари, шахсни суднинг қарорисиз 48 соатдан ортиқ муддат ушлаб туриш мумкин эмаслиги белгиланди [2]. Яъни, шахснинг эркинлигини чеклаш билан боғлиқ ҳар қандай ҳаракат фақатгина суд қарори асосида амалга оширилиши шарт. Ушбу қоида тергов органлари томонидан инсонларни ноқонуний ҳибсга олиш, асоссиз қамоққа олиш ва сақлашга йўл қўймасликка қаратилгандир. Бу орқали ҳалқаро эътироф этилган “Хабеас корпус” институтини қўллаш кўлами янада кенгайди.

Илк бор шахсни ушлаш чоғида унга тушунарли тилда унинг ҳуқуқлари ва ушлаб турилиши асослари тушунтирилиши кераклиги айбланувчи ва судланувчиларга ўзига қарши кўрсатма бермаслик (ҳалқаро эътироф этилган “Миранда қоидаси”), сукут сақлаш ҳуқуқи берилди.

Конституциявий ҳуқуқ ва эркинликлар доираси кенгайди. Биринчи марта ҳар кимнинг Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига ва ҳалқаро шартномаларига мувофиқ инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилувчи ҳалқаро органларга, агар давлатнинг ҳуқуқий ҳимояга доир барча мавжуд ички воситаларидан фойдаланиб бўлинган бўлса, мурожаат этишга ҳақлилиги мустаҳкамланди. Бу фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳимояси нафақат миллий қонунчиликда белгиланган нормалар, балки ҳалқаро ҳуқуқ асосида ҳам ҳимояланишини таъминлайди. Бундан ташқари, ҳар ким давлат органларининг ёхуд улар мансабдор шахсларининг қонунга хилоф қарорлари, ҳаракатлари ёки ҳаракатсизлиги туфайли

етказилган зарарнинг ўрни давлат томонидан қопланиши ҳуқуқига эгалиги қайд этилди.

Конституцияда айбдорликка оид барча шубҳалар, агар уларни бартараф этиш имкониятлари тугаган бўлса, гумон қилинувчининг, айбланувчининг, судланувчининг ёки маҳкумнинг фойдасига ҳал қилиниши кераклиги қайд этилди. Мазкур норма тўғридан-тўғри амал қилувчи қоида бўлиб, тергов ва суд жараёнида фақат ишончли ва қонуний далиллардан фойдаланишни таъминлайди ҳамда шахсни асоссиз равишда жавобгарликка тортилишдан ҳимоя қилади.

Қолаверса, гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланувчи ўзининг айбсизлигини исботлаб бериши шарт эмаслиги мустаҳкамланди, ҳеч ким ўзига ва яқин қариндошларига қарши гувоҳлик беришга мажбур эмаслиги белгиланди. Бу қоидаларнинг Конституцияда белгиланиши жиноий таъқиб остидаги ҳар қандай шахсга ёки унинг яқин қариндошларига руҳий босим ва турли таҳдидлар ўтказиш, унинг шаъни ва қадр-қимматни камситиш каби бошқа ноқонуний усуллар қўлланишини олдини олишга хизмат қилади.

Яна бир муҳим норма – агар шахснинг ўз айбини тан олганлиги унга қарши ягона далил бўлса, у айбдор деб топилиши ёки жазога тортилиши мумкин эмаслиги кафолатланди. Бу ҳол жиноят бўйича ҳақиқатни аниқлаш, шунингдек, айбсиз инсонларнинг жавобгарликка тортилишини олдини олишга, айни пайтда, жиноят содир этган ҳақиқий айбдор шахс ёки шахсларни аниқлашга хизмат қилади.

Шахснинг судланганлиги ва бундан келиб чиқадиган ҳуқуқий оқибатлар унинг қариндошлари ҳуқуқларини чеклаш учун асос бўлиши мумкин эмаслиги [3] белгиландики, буларнинг ҳаммаси мустабид тузумдан қолган иллатга, қанча ёшларимизни ўз орзу-умидларидан воз кечишга мажбур қилган ноинсоний тақиқларга чек қўяди.

Кучли ижтимоий ҳимоя ва муҳтожларга ғамхўрлик – давлат сиёсатининг муҳим йўналиши ҳисобланиб, тарихимизда илк бор Асосий қонунда Ўзбекистон – ижтимоий давлат, деб белгиланди. Конституцияда камбағалликни қисқартириш, бандликни таъминлаш,

ишсизликдан ҳимоя қилиш бўйича давлат ўзига қатор янги мажбуриятлар олиши белгиланди. Умуман давлатнинг ижтимоий соҳадаги мажбуриятлари билан боғлиқ Конституциядаги нормалар 3 баробар кўпайтирилди. Хусусан, Конституцияда ҳар кимнинг уй-жойли бўлиш ҳуқуқи белгиланди. Ушбу норманинг амал қилиши ҳар бир фуқаро, жумладан, ёш оилаларнинг ўз бошпанасига эга бўлишини таъминлаб, кишиларнинг ҳаётдан розилик даражасини оширади. Маълумотларга қараганда ўтган йили мамлакатимизда 50 минг оила учун янги квартиралар олишга шароит яратиб берилган бўлса, бу йил 90 минг оилани уй-жойли қилиш марраси олинган. Яқин 2-3 йилда эса бу рақамни 200 мингга етказиш устида ишланмоқда.

Бундан ташқари, Конституцияда ҳеч ким суднинг қарорисиз ва қонунга номувофиқ ҳолда уй-жойидан маҳрум этилиши мумкин эмаслиги, уй-жойидан маҳрум этилган мулкдорга уй-жойнинг қиймати ҳамда у кўрган зарарларнинг ўрни қонунда назарда тутилган ҳолларда ва тартибда олдиндан ҳамда тенг қийматда (бозор қийматида) қопланиши таъминланиши кафолатланди.

Аҳоли ҳаёти ва саломатлик даражасини яхшилашнинг зарурий шарти сифатида Конституцияда атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бўйича комплекс чоралар белгиланди. Сўнгги уч йилда қурилишлардан норози бўлиб, аҳолидан 15 мингта мурожаат келиб тушган, судлар томонидан биргина Тошкент шаҳрида 200 дан ортиқ қурилишлар тўхтатиб қўйилган, автомобиллар сони 1,3 миллионга кўпайиб, 3,6 миллионга етган, ҳар йили атмосфера ҳавосига 2,2 миллион тонна саноат ва транспорт ташланмалари чиқарилаётгани ҳам ушбу масала тобора долзарб аҳамият касб этаётганлигидан далолат беради. Асосий қонунимизда ҳар ким қулай атроф-муҳитга, унинг ҳолати тўғрисидаги ишончли ахборотга эга бўлиш ҳуқуқига эгалиги белгиланди. Аҳолимиз ва келажак авлод учун экологик тоза ҳудудни сақлаб қолишнинг конституциявий кафолатлари яратилди.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясида таълим олиш ҳуқуқи ва имконияти янада кенгайтирилди, ўқитувчилар конституциявий мақомга эга бўлди. Таълим ва илм-фанга оид

нормалар қарийб 2 баробарга ошди. Жумладан, фуқароларнинг олий таълим муассасаларида давлат гранти ҳисобидан ўқиш ҳуқуқи қатъий белгилаб қўйилди. Маълумот тариқасида айтиш мумкинки, 2017 йилгача олийгоҳларда ўқиш учун давлат грантлари сони фақат қисқариб келган бўлса, охирги олти йилда бу борадаги аҳвол бутунлай ўзгарди. Грантлар сони 2 баравар кўпайиб, 40 мингтага етди. Магистратура учун эса 5 баравар кўпайди. Асосий қонунда фуқароларнинг бепул бошланғич касб-ҳунарга ўқитилиши ҳам белгиланди.

Конституцияда давлатнинг ўқитувчилар шаъни ва қадр-қимматини ҳимоя қилиш, уларнинг ижтимоий ва моддий фаровонлиги, касбий жиҳатдан ўсиши тўғрисида ғамхўрлик қилиш мажбурияти кучайтирилди. Бу қоидалар мамлакатимиздаги 685 минг нафардан ортиқ ўқитувчиларнинг профессионал ўсиши ҳамда ижтимоий ва моддий қўллаб-қувватланиши уларнинг жамиятдаги ижтимоий мақоми, обрўсини янада оширишга хизмат қилади.

Энди фарзандлар тарбияси, уларга таълим бериш, баркамол вояга етказиш ота-она мажбурияти сифатида белгиланди. Боланинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш ҳамда ҳимоя қилиш, унинг жисмоний, ақлий ва маданий жиҳатдан тўлақонли ривожланиши учун энг яхши шарт-шароитларни яратиш эса давлатнинг бурчи сифатида ўрнатилди.

Янги Ўзбекистонни барпо этиш жараёнида Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан дунё давлатчилиги амалиёти ва тажрибасида учрамаган, кишилик жамияти тараққиёти учун бутунлай янги ҳисобланган "инсон қадри улуғланадиган ҳалқпарвар давлат" барпо этиш ғояси илгари сурилди. Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан "инсон қадри учун" ғояси илгари сурилар экан, унинг мазмуни ва асосий белгилари сифатида ҳар бир фуқаронинг тинч ва хавфсиз ҳаёт кечириши, унинг фундаментал ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, ҳар бир фуқаро учун муносиб турмуш шароити ва замонавий инфратузилма ташкил этиш, малакали тиббий хизмат кўрсатиш, ижтимоий ҳимоя тизими, соғлом экологик муҳит яратиб бериш, сифатли таълим олиш зарурияти кўрсатиб

берилди. Шуни айтиш керакки, инсон қадри улуғланадиган ижтимоий ҳалқпарвар давлатни барпо этиш янги Ўзбекистонни шакллантиришга асос бўлади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан янги Ўзбекистоннинг белгилари сифатида ҳар бир фуқаронинг ҳаётини янада яхшилаш мақсадида давлат хизматларидан фойдаланиш учун кенг имкониятлар яратадиган, одамлар ўз муаммолари ҳақида очиқ гапириши ва уларнинг ечими учун биргаликда ҳаракат қилишларига барча шароитлар мавжуд бўлган, ҳамма учун адолатни сўзсиз таъминлаш имкониятини берадиган ҳамда фуқаролари ижтимоий мавқеидан қатъи назар, қонун олдида тенг бўлган, тадбиркорликнинг ривожланиши учун зарур шароитлар яратилган давлат кўрсатиб берилди. Бир сўз билан айтганда, Янги Ўзбекистон деганда, ҳар бир фуқароси учун ғамхўрлик қиладиган, очиқ ва адолатли жамият тушунилади.

Айниқса, кейинги олти-етти йилда амалга оширилаётган туб ислоқотлар - давлат органлари ва мансабдор шахсларнинг амалда чинакам ҳалққа хизмат қилиши, Ҳалқ қабулхоналари орқали ҳалқнинг дарди ва муаммоларининг тўғридан-тўғри эшитилиши, мавжуд муаммоларнинг жойида ҳал этилиши, давлат хизматларининг йўлга қўйилиши, ҳалқ давлат идораларига эмас, давлат органлари ва мансабдор шахсларнинг ҳалққа хизмат қилиши тамойилининг амалиётга тўла жорий этилиши Ўзбекистон чинакам инсон қадри улуғланадиган ҳалқпарвар, ижтимоий, демократик, дунёвий давлат барпо этиш йўлида эканлигини кўрсатмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон ҳалқига Мурожаатномаси //Ҳалқ сўзи, 2022 йил 21 декабрь;

2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2023;

3. Қонунчилик маълумотлар миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.

РОБАХОН МАХМУДОВА,
Ўзбекистон Республикаси Олий суди раисининг биринчи ўринбосари

ОДИЛ СУДЛОВНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИ НОРМАЛАРИНИНГ ТЎҒРИДАН-ТЎҒРИ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ: ДАСТЛАБКИ НАТИЖАЛАР ТАҲЛИЛИ

Аннотация: Мақолада Конституциямизнинг янгиликларидан бири – унинг нормаларини тўғридан-тўғри қўллашнинг аҳамияти ва бу жараённи одил судловни амалга оширишда қўллашнинг дастлабки натижаларининг таҳлили келтирилмоқда.

Калит сўзлар: Конституция, одил судлов, ҳуқуқ нормалари, тўғридан-тўғри қўллаш, таҳлил, натижалар.

ТЕНДЕНЦИИ ПРЯМОГО ПРИМЕНЕНИЯ НОРМ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПРИ ОСУЩЕСТВЛЕНИИ ПРАВОСУДИЯ: АНАЛИЗ ПЕРВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ

Аннотация: В статье приводится значение одного из новшеств нашей Конституции – прямое применение её норм и анализ первых результатов осуществления этого процесса в отправлении правосудия.

Ключевые слова: Конституция, правосудие, нормы права, прямое применение, анализ, результаты.

TRENDS IN THE DIRECT APPLICATION OF THE NORMS OF THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE ADMINISTRATION OF JUSTICE: ANALYSIS OF THE FIRST RESULTS

Annotation: The article gives the meaning of one of the innovations of our Constitution - direct application of its norms and analyzes the first

results
of the implementation of this process in the administration of justice.

Keywords: Constitution, justice, norms of law, direct application, analysis, results.

Соҳибқирон Амир Темур бобомиз ***“Давлат қонунлар асосида қурилмас экан, ундай салтанатнинг шукуҳи, қудрати ва таркиби йўқолади”***, деб таъкидлаганлар.

Дарҳақиқат, **ҳар бир давлат** ўз тараққиёт йўлини танлар экан, фуқаролар фаровонлигини таъминлашга хизмат қиладиган **энг муҳим мақсад ва вазифаларини ўзининг Конституцияси – Асосий қонунида** мустаҳкамлаб олади.

Айнан шу нуқтаи назардан, жорий йилнинг **30 апрель куни бўлиб ўтган умумхалқ референдумида Конституциямизнинг янгиланиши** – олдимизга қўйган юксак марраларга эришишнинг сиёсий-ҳуқуқий асосларини яратиб, давлат ва жамиятимизни янада ривожлантиришнинг устувор йўналишларини белгилаб берди.

Конституциямизда мустаҳкамланган **янги ғоялар кенг камровли** бўлиб, инсоннинг шахсий, сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ҳуқуқ ва эркинликлари конституциявий ҳимоя қилишдан бошлаб, фуқароларнинг экологик ҳуқуқларини таъминлашга қаратилган махсус нормаларгача ва уларни **Конституциянинг тўғридан-тўғри қўлланилиши орқали кафолатлашда** давом этмоқда.

Хусусан, янги таҳрирдаги Конституциямизнинг **15-моддасига кўра**, Ўзбекистон Республикасида **Конституция ва қонунларнинг устунлиги сўзсиз тан олинади**. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси мамлакатнинг бутун ҳудудида **олий юридик кучга эга, тўғридан-тўғри амал қилади** ва **ягона ҳуқуқий маконнинг асосини ташкил этади**.

Давлат ва унинг органлари, бошқа ташкилотлар, мансабдор шахслар, фуқаролик жамияти институтлари ҳамда фуқаролар Конституция ва қонунларга мувофиқ иш юритадилар.

Ушбу қоидага **Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 8 майдаги** *“Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги* **ПФ-67 сонли Фармонида** янада кенгроқ тушунтириш берилган бўлиб, унга асосан:

янги таҳрирдаги Конституция олий юридик кучга эга эканлигидан келиб чиқиб, давлат органлари ва ташкилотлари, шу жумладан, **суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятида тўғридан-тўғри ва сўзсиз қўлланилиши**;

Конституция нормаларини амалга ошириш учун бошқа қонунчилик ҳужжатларининг мавжуд эмаслиги ёки қонунларга Конституцияга мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилмаганлиги важи билан **қўллашни рад этиш қатъиян тақиқланиши** белгиланди.

Шу ўринда, энг муҳим масалалардан бири – мазкур кафолатларни **одил судловни амалга ошириш жараёнида таъминлаш**дир.

Конституциянинг тўғридан-тўғри амал қилиши ҳақидаги нормани ва унинг нормаларини амалиётда қўллаш борасида **Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2023 йил 23 июндаги** *“Одил судловни амалга оширишда Ўзбекистон Республикаси Конституцияси нормаларини тўғридан-тўғри қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида”ги* **16-сонли Қарори** қабул қилинди.

Ушбу Пленум қарорида **судлар** кўриб чиқилаётган ҳуқуқий муносабатларни тартибга солувчи қонун ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг мазмунини баҳолаши ва Конституция нормаларини тўғридан-тўғри амал қилувчи олий юридик кучга эга **норматив-ҳуқуқий асос сифатида қўллаши лозимлиги** асосий ғоя сифатида акс эттирилган.

Фурсатдан фойдаланиб, судлар **томонидан конституциявий нормаларни тўғридан-тўғри қўллаш амалиёти бўйича дастлабки таҳлиллари** қўйидагиларни кўрсатмоқда.

Ўтган қисқа даврда, жиноят ишлари бўйича судлар томонидан **29 мингдан ортиқ шахсга нисбатан** жами **24 мингта иш бўйича** суд қарорларини қабул қилишда Конституция нормалари қўлланилган.

Хусусан, **Конституциянинг 26-моддасида инсоннинг шаъни ва қадр-қиммати дахлсизлиги, ҳеч нарса уларни камситиш учун асос бўлиши мумкин эмаслиги** белгиланган бўлиб, судлар **5200 дан ортиқ** шахсга нисбатан **3600 та ишларни кўришда ушбу нормага асосланган**.

Одил судловни амалга оширишда **айбсизлик презумпцияси** энг муҳим принциплардан бири саналади ва **Конституциямизнинг 28-моддасида** ҳам айни шу принципнинг мазмун-моҳияти ёритилган.

Шу билан бирга, *айбдорликка оид барча шубҳалар, агар уларни бартараф этиш имкониятлари тугаган бўлса, унинг фойдасига ҳал қилиниши кераклиги белгиланган* бўлиб, судлар томонидан **айбдорлик масаласини ҳал қилишда Конституциямизнинг мазкур моддаси 1257 та жиноят иши** бўйича **1740 нафар шахсга** нисбатан қарор қабул қилишда тўғридан-тўғри қўлланилганлиги ушбу принципнинг аҳамияти қай даражада юқори эканлигидан далолат беради.

Шунингдек, **“Хабеас корпус” институти** кафолатлари, яъни *ҳеч ким асоссиз қамоққа олиниши ёки унинг озодлиги бошқача тарзда чекланиши мумкин эмаслиги ҳамда шахсга тушунарли тилда унинг ҳуқуқлари ва ушлаб турилиши асослари тушунтирилиши шартлиги* ҳақидаги **“Миранда қоидаси” Конституциянинг 27-моддасида** белгиланган бўлиб, ҳозирги кунга қадар **900 дан ортиқ** суд қарорларида мазкур норма тўғридан-тўғри қўлланилган.

Бундан ташқари, жиноят ишлари бўйича судлар томонидан **Конституциямизнинг 29, 30, 31, 34, 35 ва бошқа моддалари** ҳам тўғридан-тўғри кенг қўлланилмоқда.

Конституциянинг нормалари нафақат жиноят судлари томонидан, балки оммавий ҳуқуқий муносабатларга оид низоларни кўришда – **маъмурий судлар томонидан** ҳам тўғридан-тўғри қўлланиб келинаётганлигини айтиб ўтиш жоиз.

Ҳар ким ўзининг ҳуқуқ ва эркинлари бузилган деб ҳисобласа, ҳеч қандай тусиқларсиз, судга мурожаат қилиш кафолати Конституциямизнинг 55-моддасида белгилаб қуйилган бўлиб, бугунги кунда фуқаролар бу конституциявий ҳуқуқидан тўлиқ фойдаланиб келмоқда.

Жумладан, давлат органлари билан ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиққан низолар юзасидан **маъмурий судларга 2023 йилнинг 9 ойи давомида** давлат ва маъмурий органлар устидан **12 мингга яқин** ариза билан мурожаат қилинган бўлиб, шундан **6 ярим мингдан ортиқ** талаб ёки **60 фоиз** аризалар **қаноатлантирилган**.

Эътиборлиси, **бир ярим мингга яқин** маъмурий **суд қарорларида** Конституциямизнинг нормалари тўғридан-тўғри қўлланилган.

Хусусан, **маъмурий судларнинг амалиётида** айрим низоларни ечимини топишда **бевосита қўлланилиб келинаётган конституциявий нормаларимиз** ҳам учрамоқда. Жумладан, таҳлилларга кўра, маъмурий судлар томонидан:

- **270 та** ҳолатда, Конституциянинг **фуқаролар пенсия таъминоти кафолати** билан боғлиқ **46-моддаси**;

- **180 га яқин** ҳолатда, **ҳуқуқий таъсир чоралари мутаносиблик принципига асосланиши ва қонунчиликдаги барча зиддиятлар ва ноаниқликлар инсон фойдасига талқин этилиши ҳақидаги**, Конституциямизнинг **20-моддаси**;

- **50 дан ортиқ** ҳолатда, **хусусий мулк дахлсизлигини кафолатловчи**, Конституциянинг **65-моддаси** қўлланилган.

Шунингдек, кўплаб маъмурий ишларда, **судлар**:

- солиқ ва йиғимлар адолатли бўлиши ҳамда фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқларини амалга оширишига тўсқинлик қилмаслиги кераклиги тўғрисидаги – **63-модда**;

- мол-мулкдан фойдаланиш атроф-муҳитга зарар етказмаслиги, бошқаларнинг ҳуқуқлари ҳамда манфаатларини бузмаслиги кераклиги ҳақидаги – **66-модда**;

- ер ва табиий ресурсларни муҳофаза қилиш, шаҳарсозлик нормаларига риоя қилиш, монопол фаолиятга йўл қўймаслик, атроф-муҳитни ва маданий меросларни асраш билан боғлиқ **конституциявий нормаларга асосланиб келишмоқда**.

Маъмурий судлар ҳар бир низонинг далиллар мажмуи ва индивидуал ҳолатларидан келиб чиқиб, Конституциянинг юқоридаги нормаларини қўллашмоқда.

Фуқаролик ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган инсоннинг шахсий, сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ҳуқуқлари ва эркинликларини, корхона ва ташкилотларнинг ҳуқуқлари ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш **фуқаролик ва иқтисодий** суднинг вазифаларига киради.

Бу борада ҳам **Конституциямизга** бир мунча янгиликлар киритилган. Хусусан, аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож тоифаларини қўллаб-қувватлаш, муносиб турмуш шароитларини яратиш, ҳеч ким эътибордан четда қолмаслиги учун давлатнинг фуқаролар олдидаги ижтимоий масъулиятини кучайтиришга қаратилган нормалар мустаҳкамланди. **Илк бор ҳар кимнинг уй-жойли бўлиш ҳуқуқи белгиланди**.

Ушбу кафолатлардан одил судловни амалга оширишда кенг фойдаланилмоқда.

Хусусан, **фуқаролик ишлари бўйича судларда** ҳозирги кунга қадар **9 мингга яқин** низоларни ҳал этишда Конституциянинг нормалари тўғридан-тўғри қўлланган.

Жумладан, таҳлилларга кўра, мазкур судлар томонидан:

- **3800 дан ортиқ** никоҳни бекор қилиш билан боғлиқ низоларни ҳал этишда, оилаларни яраштириш учун Конституциянинг **оила жамият ва давлат муҳофазасида эканлиги мустаҳкамаланган 76-моддаси**;

- **1300 дан ортиқ** ҳолатда, алимент ва васийлик билан боғлиқ масалаларда, **ота-оналар фарзандларини таъминлаши мажбурияти ҳамда бола ҳуқуқларининг кафолатлари ҳақидаги** Конституциямизнинг **77-моддаси**;

- **450 дан ортиқ** ҳолатда, **хусусий мулк дахлсизлигини кафолатловчи**, Конституциянинг **65-моддаси;**

- **270 га яқин** ҳолатда, **фуқароларнинг меҳнат ҳуқуқлари билан боғлиқ**, Конституциянинг **42-моддаси;**

- **320 та** ҳолатда, **мерос ҳуқуқи билан боғлиқ**, Конституциянинг **41-моддаси;**

- шунингдек, Бош қомусимизнинг **15, 20, 47, 55 ва бошқа моддалари** кенг қўлланилган.

Шунингдек, Конституциямизда *бозор муносабатларини ривожлантириш, хусусий мулк, тадбиркорликни ҳимоя қилиш ва бозор иқтисодиёти ижтимоий йўналтирилганлигини таъминлашга қаратилган* конституциявий механизмлар ҳам янада мустаҳкамланди.

Таҳлилларга кўра, тадбиркорларнинг ҳуқуқлари билан боғлиқ низолар кўриб чиқадиган **иқтисодий судлар томонидан**, ҳозирги кунга қадар **3 ярим мингдан ортиқ** низоларни ҳал этишда тўғридан-тўғри конституциявий нормаларга асосланилган.

Хусусан, иқтисодий судлар томонидан:

- **340 дан ортиқ** ҳолатда, *хусусий мулк дахлсизлигини кафолатловчи*, Конституциянинг **65-моддаси;**

- **120 га яқин** ҳолатда, *ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий ресурслар умуммиллий бойликлиги, улардан оқилона фойдаланиш зарурлиги ва улар давлат муҳофазасида эканлиги қайд этилган*, **68-модда;**

- **100 дан ортиқ** ҳолатда, *мол-мулкдан фойдаланиш атроф-муҳитга зарар етказмаслиги, бошқаларнинг ҳуқуқлари ҳамда манфаатларини бузмаслиги кераклиги ҳақидаги*, **66-модда;**

- шунингдек, Бош қомусимизнинг **15, 16, 55, 67 ва бошқа моддалари** қўлланилган.

Хулоса ўрнида айтадиган бўлсак, Конституциямиз нормаларини тўғридан – тўғри қўллаш амалиёти нафақат судлар ёки ҳуқуқни

муҳофаза қилиш органлари учун, балки тартиб-таомил билан ишлайдиган барча давлат идораларига мажбурийдир ва бу борада судлар ўз амалиёти билан давлат органларида қонунийликни таъминлашга ундашни мақсад қилган.

ЭРКИН САЛИХОВ
председатель Комитета Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан по вопросам обороны и безопасности

ГРАЖДАНСКИЙ КОНТРОЛЬ НАД ВООРУЖЕННЫМИ СИЛАМИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НАЦИОНАЛЬНЫЙ ОПЫТ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ

Аннотация: *В статье сформулированы принципы гражданского контроля над вооруженными силами. Рассмотрены правовые основы осуществления гражданского контроля над Вооруженными Силами Республики Узбекистан.*

Ключевые слова: *Конституция, Вооруженные Силы, гражданский контроль, парламент, общественный совет.*

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРОЛЛИ КУЧЛАРИ УСТИДАН ФУҚАРОЛИК НАЗОРАТИ: ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШГА ОИД МИЛЛИЙ ТАЖРИБАСИ

Аннотация: *Мақолада қуролли кучлар устидан фуқаролик назоратининг тамойиллари ифода этилган. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари устидан фуқаролик назоратини амалга оширишнинг ҳуқуқий асослари кўриб чиқилган.*

Калит сўзлар: *Конституция, Қуролли Кучлар, фуқаролик назорати, парламент, жамоатчилик кенгаши.*

CIVIL CONTROL OVER THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: NATIONAL EXPERIENCE OF LEGAL REGULATION

Annotation: *The article formulates the principles of civilian control over the armed forces. The legal basis for the implementation of civilian control over the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan is considered.*

Keywords: *Constitution, Armed Forces, civilian control, parliament, public council.*

Общеизвестно, что вооруженные силы являются важнейшим инструментом обеспечения безопасности любого государства и общества. Будучи созданными за счет граждан, вооруженные силы имеют существенные отличия от других институтов государства, главное из которых – право применять силу для защиты общества от внешних и внутренних угроз. Вместе с тем, вооруженные силы могут представлять угрозу для самого государства. История знает немало случаев, когда армия захватывала власть и управление государством или служила инструментом в руках тех или иных антиобщественных сил.

Извечный вопрос «кто устережёт самих сторожей», применительно к вооруженным силам всегда волновала умы, как правителей, так и мыслителей прошлого и настоящего времени. Так, еще древнегреческий философ Аристотель в своей книге «Политика» утверждал: «немыслимо, чтобы люди, имеющие возможность проявлять силу и оказывать сопротивление, постоянно мирились со своим подчиненным положением», «ведь во власти людей, владеющих оружием, сохранить или отменить государственный строй» [1].

Размышления о потенциальных угрозах для государства и правителя, исходящих от собственной армии и путях решения этой проблемы, также прослеживаются в трудах таких известных авторов, как Платон, Каутилья, Низам ал-Мульк, Амир Темур, Никколо Макиавелли, Карл фон Клаузевиц.

Американский политолог П. Фивер, специализирующийся на изучении проблемы гражданского контроля над вооруженными силами, сформулировал ее суть в виде следующего вопроса: «как вы можете гарантировать, что ваш агент исполняет вашу волю, особенно если у вашего агента есть оружие и поэтому он может пользоваться большей силой принуждения, чем вы?» [2].

До настоящего времени какого-либо устоявшегося и общепринятого определения сути и содержания гражданского

контроля над вооруженными силами не выработано. Большинство исследователей к субъектам гражданского контроля над вооруженными силами, как правило, относят главу государства, правительство, парламент, общественные организации, СМИ и отдельных граждан. При этом каждый из этих субъектов обладает своим объемом функций и полномочий, закрепленных законодательством.

Вместе с тем, обобщение и анализ различных подходов к данному вопросу позволяют утверждать, что эффективный гражданский контроль над вооруженными силами подразумевает соблюдение следующих основных принципов:

1) исключительное право гражданских органов (высших органов законодательной и исполнительной власти) разрабатывать и принимать законы и основополагающие документы в сфере обороны и безопасности, утверждать оборонный бюджет;

2) право гражданских органов (высших органов законодательной и исполнительной власти) назначать на должности и освобождать от должности высшее командование вооруженных сил;

3) политический нейтралитет вооруженных сил, их подчинение законно избранной власти, запрет военнослужащим на занятие активной политической деятельностью;

4) прерогатива высших органов законодательной и исполнительной власти по принятию решений об объявлении войны и использовании вооруженных сил в кризисных ситуациях;

5) право гражданских институтов осуществлять контроль деятельности вооруженных сил по исполнению ими законов, утвержденных бюджетов и решению возложенных задач;

6) максимально допустимая открытость деятельности вооруженных сил, информированность общественности о состоянии дел в вооруженных силах.

Рассматривая в этом плане отечественный опыт, следует отметить, что первоочередные задачи, которые по своей сути направлены на усиление гражданского контроля над деятельностью Вооруженных Сил Республики Узбекистан (далее – Вооруженные

Силы), неоднократно обозначались на уровне Президента Республики Узбекистан. Так, в своем выступлении по случаю 25-летия образования Вооруженных Сил глава государства, отметив достигнутые результаты по внедрению механизмов гражданского контроля над Вооруженными Силами, определил в качестве приоритетной задачи повышение эффективности законодательного регулирования сферы национальной безопасности [3].

Следует отметить, что в Узбекистане созданы правовые основы гражданского контроля над Вооруженными Силами. Так, правовой фундамент для осуществления гражданского контроля над деятельностью Вооруженных Сил закреплен в соответствующих статьях Конституции Республики Узбекистан [4]. В частности, в них предусматривается обязанность государственных органов действовать в соответствии с Конституцией и законами, а также их ответственность перед обществом и гражданами. Наряду с этим в статье 36 Конституции Республики Узбекистан предусмотрено, что граждане Республики Узбекистан имеют право участвовать в управлении делами общества и государства как непосредственно, так и через своих представителей. Такое участие может осуществляться, в том числе посредством общественного контроля над деятельностью государственных органов.

В соответствии с Конституцией ведущая роль в решении вопросов обороноспособности страны и управлении вооруженными силами отведена Президенту Республики Узбекистан. Так, в соответствии с Основным законом глава государства выступает гарантом безопасности и территориальной целостности страны, является Верховным главнокомандующим Вооруженными Силами, образует и возглавляет Совет безопасности, имеет право назначать и освобождать от должности высшее командование Вооруженных Сил. Президент Республики Узбекистан также вправе принимать решения об объявлении состояния войны или о введении чрезвычайного положения с последующим внесением принятых решений на утверждение палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан.

В свою очередь, Основной закон наделяет парламент полномочиями по принятию законов, в том числе касающихся вопросов обороноспособности страны, организации и управления Вооруженными Силами, прохождения гражданами военной службы, принятия Государственного бюджета, составной частью которого является оборонный бюджет. Парламент также наделен полномочиями по проведению парламентского расследования, использованию других форм парламентского контроля над деятельностью государственных органов.

Конституционные нормы по осуществлению гражданского контроля над Вооруженными Силами развиты и подробно раскрыты в ряде законов и подзаконных актах. Закон Республики Узбекистан «О парламентском контроле» регулирует отношения в области организации и осуществления парламентского контроля [5]. В частности, объектами парламентского контроля является деятельность государственных органов и их должностных лиц по исполнению ими Конституции и законов Республики Узбекистан, решений палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан и их органов, государственных программ, а также по реализации возложенных на них задач и функций.

Утвержденная в 2018 году Оборонная доктрина Республики Узбекистан [6], определила принципы и подходы к обеспечению национальной безопасности страны в военной сфере. В соответствии с Оборонной доктриной Республики Узбекистан, Вооруженные Силы являются основой военной организации государства и системы обороны страны, предназначены для сдерживания и предотвращения военных конфликтов, а также обеспечения военной безопасности государства. Определены министерства и ведомства, соответствующие органы управления, войска, воинские формирования и учреждения которых входят в состав Вооруженных Сил, а также перечислены цели, для достижения которых могут применяться Вооруженные Силы. Наряду с этим, в оборонной доктрине закреплено, что применение Вооруженных Сил организуется и осуществляется в соответствии с Конституцией

Республики Узбекистан, законами Республики Узбекистан, указами, постановлениями и распоряжениями Президента Республики Узбекистан.

В последние годы также принят ряд законов, регулирующих деятельность силовых структур – «Об органах внутренних дел», «О Службе государственной безопасности Республики Узбекистан», «О Национальной гвардии Республики Узбекистан» и другие. Указанные законы закрепили основные принципы их деятельности, в том числе такие, как законность, соблюдение и уважение прав, свобод и законных интересов граждан. В них также определены цели и задачи силовых структур, их права и обязанности, условия применения военнослужащими и сотрудниками физической силы, специальных средств и огнестрельного оружия.

В 2021 году принят Конституционный Закон Республики Узбекистан «О чрезвычайном положении», определяющий условия и порядок введения чрезвычайного положения на всей территории или в отдельных местностях республики [7]. Для обеспечения режима чрезвычайного положения законом предусмотрено использование сил и средств Министерства внутренних дел, Национальной гвардии, Службы государственной безопасности и Министерства по чрезвычайным ситуациям Республики Узбекистан, а также других государственных органов и организаций. При этом лишь в исключительных случаях на основании указа Президента Республики Узбекистан для поддержания режима чрезвычайного положения могут привлекаться силы и средства Министерства обороны Республики Узбекистан.

Особо следует отметить, что законодательство Узбекистана содержит ряд норм, направленных на обеспечение политического нейтралитета Вооруженных Сил. Так, Закон Республики Узбекистан «О политических партиях» предусматривает запрет на членство в политических партиях военнослужащим, а также сотрудникам органов внутренних дел, Национальной гвардии Республики Узбекистан, Службы государственной безопасности. Ряд ограничений и запретов также предусматривает Избирательный

кодекс Республики Узбекистан. В частности, военнослужащие не могут быть членами Центральной избирательной комиссии, им также запрещено вести предвыборную агитацию, они не подлежат регистрации в качестве кандидатов в депутаты в органы представительной власти всех уровней.

Наглядным примером налаживания механизма осуществления общественного контроля над деятельностью государственных органов является деятельность Общественного совета при Министерстве обороны Республики Узбекистан, созданного в соответствии с Постановлением Президента Республики Узбекистан в 2012 году. В последующем в указанное Постановление главы государства вносился ряд изменений и дополнений, связанных с утверждением обновленного состава Общественного совета, организацией деятельности Общественного совета и его региональных подразделений [8]. В числе наиболее значимых задач Общественного совета, определенных в Постановлении главы государства, следует указать на такие, как организация мониторинга и анализа общественного мнения по актуальным вопросам государственной политики в области обороны и военного строительства, а также осуществление общественного контроля за реализацией государственных программ, направленных на социальную защиту военнослужащих.

В заключении следует отметить, что реализуемые в Узбекистане меры по развитию правовых основ гражданского контроля над Вооруженными силами являются важным фактором обеспечения законности в деятельности Вооруженных Сил, укрепления связей между обществом и армией, повышения информированности широкой общественности о проводимых реформах в сфере военного строительства.

Использованное литературы

1. Аристотель. Политика. Москва: АСТ, 2022 г. – 326 с.

2. Peter D. Feaver, «The Civil-Military Problematique: Huntington, Janowitz, and the Question of Civilian Control», Armed Forces and Society, Vol. 23, No. 2 (Winter 1996), pp. 149-50.

3. Мирзиёев Ш.М. Праздничное поздравление защитникам Родины по случаю 25-летия образования Вооруженных Сил Республики Узбекистан//«Народное слово». – 2017. – №10 (6674).

4. Конституция Республики Узбекистан, Ташкент: O‘zbekiston, 2023 г.

5. Закон Республики Узбекистан «О парламентском контроле», www.lex.uz/ru/docs/2929475

6. Закон Республики Узбекистан «Об оборонной доктрине Республики Узбекистан», www.lex.uz/ru/docs/3495906.

7. Конституционный Закон Республики Узбекистан «О чрезвычайном положении», www.lex.uz/ru/docs/5774847.

8. Указ Президента Республики Узбекистан от 11 апреля 2023 года «О мерах по повышению эффективности деятельности Общественного совета при Министерстве обороны Республики Узбекистан» №УП–49, www.lex.uz/ru/docs/6433066

ДЖАХОНГИР ШИРИНОВ

Олий Мажлис Қонунчилик палатаси қўмита раиси

НОДАВЛАТ НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРИ ҲУҚУҚЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Аннотация. Мақолада нодавлат нотижорат ташкилотлари ҳуқуқлари манбаалари, улар ҳуқуқларининг умумий ва махсус турларга бўлиниши ҳамда ҳар бир ҳуқуқдан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари очиб берилган, шунингдек нодавлат нотижорат ташкилотларига махсус ҳуқуқларни бериш зарурати, Ўзбекистон Республикаси янги таҳрирдаги Конституциясидан келиб нодавлат нотижорат ташкилотларининг умумий ҳуқуқлари доирасини янада кенгайтириш масалалари чуқур таҳлил этилган ҳамда мавзуга оид муаллифлик таклифлари берилган.

Калит сўзлар: нодавлат нотижорат ташкилотлари, ҳуқуқ, қонун, устав, умумий ҳуқуқ, махсус ҳуқуқ, ташаббус, таклиф, фойда олиш, тадбиркорлик, мурожаат қилиш, мулкка эга бўлиш, жамоатчилик

назорати, ер эгалари, қонун ижодкорлиги, қонун лойиҳалари, муҳокама.

CONSTITUTIONAL AND LEGAL BASIS FOR THE IMPLEMENTATION OF THE RIGHTS OF NON-GOVERNMENTALNON-PROFIT ORGANIZATIONS

Annotation. The article reveals the sources of the rights of non-state non-profit organizations, the division of their rights into general and special, types and features of the use of each right, as well as the need to provide special rights to non-state non-profit organizations, based on the new version of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, issues of further expanding the scope of general rights of non-state non-profit organizations and author's proposals are given.

Keywords: non-governmental non-profit organizations, law, charter, common law, special law, initiative, proposal, profit, entrepreneurship, circulation, property, public control, landowners, legislation, bills, discussion.

Ҳуқуқ – инсонларнинг жамиятдаги муносабатларини тартибга соладиган, давлат томонидан ўрнатиладиган ва муҳофаза қилинадиган норма ва қоидалар мажмуидир. Одамлар айнан ҳуқуқлари ёрдамида ўзларининг турли манфаатларини қондириб борадилар.

Ҳуқуқнинг давлат томонидан ўрнатилган нормалардан иборат бўлиши аслида деярли барча юридик адабиётлар ва луғатларда акс этган. Дарҳақиқат, Ўзбекистон Республикасида фуқаролар ва ташкилотларнинг турли соҳадаги ҳуқуқлари Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунларида, қатор қонуности ҳужжатларида акс этган.

Шу билан бирга А.Ю.Соколованинг фикрича, ташкилотнинг ҳуқуқлари орасида қонунда белгиланган ҳуқуқлар билан биргаликда, қонунда белгиланмасдан ташкилотнинг устав қоидаларида назарда тутилган ҳуқуқларни ҳам алоҳида ажратиб кўрсатиш лозим. Албатта, уставнинг бундай қоидалари қонунларга зид бўлмаслиги лозим, бу эса ташкилотни давлат рўйхатидан ўтказиш жараёнида текшириб кўрилади [1].

Дарҳақиқат, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланмаган ҳуқуқлар ҳам бўлиши мумкин. Масалан, “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 17-моддасига мувофиқ, нодавлат нотижорат ташкилотлари аъзоларининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари тегишли нодавлат нотижорат ташкилоти уставида кўрсатилади [2].

Худди шундай, “Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 15-моддасига мувофиқ, жамоат бирлашмаларининг ҳуқуқлари уларнинг уставларида қайд этилади [3].

Таъкидлаш жоизки, нодавлат нотижорат ташкилотларининг ҳуқуқларини қуйидаги 2 тургa бўлиш мумкин:

биринчиси, нодавлат нотижорат ташкилотларининг *умумий ҳуқуқлари*;

иккинчиси, нодавлат нотижорат ташкилотларининг *махсус ҳуқуқлари*.

Нодавлат нотижорат ташкилотларининг умумий ҳуқуқларидан барча нодавлат нотижорат ташкилотлари фойдалана олади. Масалан, “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 7-моддасига мувофиқ, нодавлат нотижорат ташкилоти қуйидаги ҳуқуқларга эга:

ўз аъзолари ва қатнашчиларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ифодалаш ҳамда ҳимоя қилиш;

ижтимоий ҳаётнинг турли масалаларига доир ташаббуслар билан чиқиш, давлат ҳокимияти ва бошқарув органларига таклифлар киритиш;

давлат ҳокимияти ва бошқарув органларининг қарорларини ишлаб чиқишда қонунчиликда назарда тутилган тартибда иштирок этиш;

ўз фаолияти тўғрисида ахборот тарқатиш;

оммавий ахборот воситаларини таъсис этиш ҳамда белгиланган тартибда ноширлик фаолиятини амалга ошириш;

уставда белгиланган вазифаларни бажариш учун тадбиркорлик тузилмаларини ташкил этиш;

ўз рамзий белгиларини таъсис этиш;

ўз фаолиятига тааллуқли масалалар юзасидан йиғилишлар, конференциялар ўтказиш;

қонунчиликка мувофиқ ваколатхоналар очиш ва филиаллар ташкил этиш.

Нодавлат нотижорат ташкилотларининг ўз аъзолари ва қатнашчиларининг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ифодалаш ҳамда ҳимоя қилиш тартиблари асосан уларнинг уставларида белгиланади. Шу билан бирга айрим нодавлат нотижорат ташкилотлари томонидан ўз аъзолари ва қатнашчилари ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ифодалаш ҳамда ҳимоя қилишнинг ўзига хос хусусиятлари алоҳида қонунлар билан тартибга солинган. Масалан, касаба уюшмалари томонидан ўз аъзоларининг ҳуқуқларини ифодалаш ҳамда ҳимоя қилиши билан боғлиқ қоидалар “Касаба уюшмалари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунида [4] ва Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодексида [5] ўз аксини топган.

Нодавлат нотижорат ташкилотларининг ижтимоий ҳаётнинг турли масалаларига доир ташаббуслар билан чиқиш, давлат органларига таклифлар киритиш, давлат органларининг қарорларини ишлаб чиқишда иштирок этишга оид ҳуқуқлари улар фаолиятида муҳим аҳамият касб этади. Мазкур ҳуқуқлардан нечоғли самарали фойдалана олиш қобилияти нодавлат нотижорат ташкилотининг ижтимоий ҳаётдаги фаоллиги динамикасини кўрсатиб туради.

Миллий қонунчиликда нодавлат нотижорат ташкилотларининг давлат органларига таклифлар киритиши, давлат органларининг қарорларини ишлаб чиқишда иштирок этиши тартиблари “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги Қонунда [6], “Ижтимоий шериклик тўғрисида”ги Қонунда [7], “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Қонунда [8] ва бошқа қатор қонунларда ўз аксини топган.

Айтиш жоизки, нодавлат нотижорат ташкилотининг ўз фаолияти тўғрисида ахборот тарқатиши, унинг конституциявий ҳуқуқларидан бири ҳисобланади. Жумладан, янги таҳрирдаги

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 33-моддасига мувофиқ ҳар ким исталган ахборотни излаш, олиш ва тарқатиш ҳуқуқига эга. Қолаверса, Конституциянинг ушбу моддасига мувофиқ давлат Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланишни таъминлаш учун шарт-шароитлар яратиш мажбуриятини зиммасига олган [9].

Навбатдаги масала, нодавлат нотижорат ташкилотларининг тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини рўёбга чиқариш билан боғлиқ. Бунда нодавлат нотижорат ташкилотлари 2 та усул орқали тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйиши мумкин.

Биринчиси, нодавлат нотижорат ташкилотлари алоҳида тадбиркорлик субъектини ташкил этмасдан ҳам бевосита фойда олиш фаолияти билан шуғулланиши мумкин. Бироқ, улар ўз устав мақсадларига мос келадиган доиралардагина тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиши мумкин. Масалан, тиббиёт ходимларининг ҳуқуқ ва эркинларини ифода этиш учун тузилган жамоат бирлашмаси соҳага тааллуқли пулли ўқув курсларини ташкил этиши, маслаҳатлар бериши, тиббий журналларда белгиланган тартибда рекламалар жойлаштириб бориши ва ҳоказоларни амалга ошириши мумкин, бироқ ҳеч қачон пулли “автопойгалар ёки яккакурашлар шоуси”ни ташкил этиш билан шуғулланмаслиги лозим. Чунончи, фойда олиш (тадбиркорлик) нодавлат нотижорат ташкилоти учун қўшимча фаолият тури бўлиб, у нодавлат нотижорат ташкилотининг асосий мақсад ва вазифалари сирасига кирмайди. Шу боис, қўшимча фаолият тури ҳам ташкилотнинг асосий мақсадига мувофиқ келиши керак.

Иккинчиси, нодавлат нотижорат ташкилотлари томонидан тадбиркорлик тузилмаларини ташкил этиш ҳуқуқидир. Бунда нодавлат нотижорат ташкилотлари бошқа таъсисчилар каби умумий тартибда Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси [10], “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонун [11], Тадбиркорлик субъектларини давлат рўйхатидан ўтказиш тартиби тўғрисида Низом [12] ҳамда бошқа қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар талабига тўлиқ риоя этган ҳолда тадбиркорлик субъектини ташкил этиши мумкин.

Шу билан бирга, назаримизда Қонунда нодавлат нотижорат ташкилотларининг умумий ҳуқуқлари тўлиқ санаб ўтилмаган. Бинобарин, янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясида барча шахсларнинг ҳеч қандай тўсиқсиз фойдаланиши мумкин бўлган ҳуқуқлари мавжуд. Мисол учун, давлат органларига мурожаат қилиш, ўз ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш ва ҳоказо [13]. Аслида бундай ҳуқуқлардан ҳар қандай нодавлат нотижорат ташкилотлари ҳам эркин фойдаланиши мумкин.

Бундан ташқари, “Давлат божи тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига мувофиқ барча нодавлат нотижорат ташкилотлари – ўз ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини бузаётган давлат органларининг ғайриқонуний қарорлари, улар мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан судга давлат божини тўламасдан шикоят қилиш ҳуқуқига эга [14].

Қолаверса, “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига мувофиқ нодавлат нотижорат ташкилотлари давлат органларининг ва улар мансабдор шахсларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини олиб бориш ҳуқуқига эга.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, нодавлат нотижорат ташкилотларининг қонунчилигимизда санаб ўтилган умумий ҳуқуқлари доирасини қуйидагилар асосида янада кенгайтириш лозим:

давлат органларига ҳамда ташкилотларига, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига, мансабдор шахсларга ёки халқ вакилларига аризалар, таклифлар ва шикоятлар билан мурожаат қилиш;

судда, бошқа органлар ва ташкилотларда ўз манфаатларини ифода этиш ҳамда ҳимоя қилиш;

ўз ҳуқуқ ва эркинликларини қонунда тақиқланмаган барча усуллар билан ҳимоя қилиш;

мулк ҳуқуқи ва бошқа ашёвий ҳуқуқлар асосида мулкка эга бўлиш;

қулай атроф-муҳитга, унинг ҳолати тўғрисидаги ишончли ахборотга эга бўлиш;

давлат органлари ва улар мансабдор шахсларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини олиб бориш;

халқаро алоқалар ўрнатиш, ҳамкорлик тўғрисида битимлар тузиш ҳамда халқаро дастурлар ва лойиҳаларда иштирок этиш.

Айрим нодавлат нотижорат ташкилотлари умумий ҳуқуқлар билан бир қаторда *махсус ҳуқуқларга* ҳам эга бўлишади. Махсус ҳуқуқлар нодавлат нотижорат ташкилотларига уларнинг фаолият соҳаси ва бошқа белгиларидан келиб чиқиб алоҳида қонунлар билан берилади. Масалан, Ўзбекистон Республикаси Сайлов кодексига мувофиқ депутатликка номзодлар кўрсатиш ҳуқуқига фақат сиёсий партиялар эгадир [15].

Худди шундай, “Томорқа хўжалиги тўғрисида”ги Қонунга мувофиқ Ўзбекистон фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига бўлган талабни ҳисобга олган ҳолда уларни етиштириш (қайта ишлаш) масалаларига доир тавсияларни ишлаб чиқиши ҳамда бепул ва пулли асосда томорқа хўжаликларига тақдим этиши мумкин [16]. Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Ер кодексига мувофиқ Ўзбекистон фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгашлари ўз аъзолари бўлган фермер, деҳқон хўжаликларига ҳамда томорқа ер эгаларига тегишли ер участкаларидан мақсадли ва самарали фойдаланиш зарурлиги тўғрисида кўрсатмалар беришга ҳақли [17].

Айрим олимлар нодавлат нотижорат ташкилотларининг қонун ижодкорлиги жараёнида иштирок этиш ҳуқуқини эътироф этиб, уни қуйидаги шаклларда намоён бўлишини таъкидлашган:

– қонунчилик ташаббуси ҳуқуқи субъектига мурожаат қилган ҳолда муайян қонунни қабул қилишни таклиф этиш ҳамда унинг лойиҳасини тақдим этиш;

– парламентдаги экспертлик ва ишчи гуруҳлари таркибида иштирок этиш;

– халқ вакиллари орқали муайян қонунни қабул қилиш масаласини кўтариб чиқиш;

– қонун лойиҳаларини жамоатчилик экспертизасини ўтказиш [18].

Айтиш жоизки, Ўзбекистонда нодавлат нотижорат ташкилотларининг қонун ижодкорлиги жараёнидаги ҳуқуқларини амалга оширишнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд. Масалан, “Адвокатура тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига мувофиқ Адвокатлар палатасининг раиси Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг қонун лойиҳаларини муҳокама қилиш бўйича мажлисларида иштирок этишга ва улар юзасидан фикр-мулоҳазалар билдиришга ҳақли [19].

Худди шундай, “Ўзбекистон Республикаси Савдо-саноат палатаси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига мувофиқ тадбиркорлик фаолиятини амалга оширишга таъсир қиладиган масалаларга доир норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг лойиҳалари мажбурий тартибда Савдо-саноат палатаси билан келишилади. Бунда, Савдо-саноат палатаси норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасининг мазмунига умуман ёки унинг бирор қисмига рози бўлмаган тақдирда, норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қабул қиладиган органга тегишли хулоса киритишга ҳақли.

Таъкидлаш жоизки, нодавлат нотижорат ташкилотларига алоҳида қонунлар билан махсус ҳуқуқларнинг берилиши давлат зиммасидаги айрим вазифаларни ҳам холис, шаффоф, сифатли, самарали ҳамда камхарж тарзда амалга ошириш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Административное право Российской Федерации: учебник / под ред. А.Ю. Соколова. М., 2018. С. 170.

2. “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни/ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 йил, № 5, 115-модда.

3. “Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни/ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1991 й., 4-сон, 76-модда

4. “Касаба уюшмалари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни/Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 07.12.2019 й., 03/19/588/4115-сон

5. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси/ Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.10.2022 й., 02/22/798/0972-сон

6. “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни /«Халқ сўзи» 2017 йил 12 сентябрдаги 182 (6876)-сон.

7. “Ижтимоий шериклик тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни/ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 39-сон, 488-модда

8. “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни //Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.04.2018 й., 03/18/474/1062-сон;

9. “Ўзбекистон Республикаси Конституцияси тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Конституциявий Қонуни/Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон;

10. “Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг биринчи қисмини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 йил, 2-сонга илова

11. “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни/ «Халқ сўзи» газетасининг 2012 йил 3 майдаги 86 (5506)-сони

12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Тадбиркорлик субъектларини давлат рўйхатидан ўтказиш ва ҳисобга қўйиш тизимини такомиллаштириш тўғрисида» 2016 йил 28 октябрдаги ПҚ-2646-сон қарорини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 9 февралдаги 66-сон қарорига 1-илова/ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 7-сон, 89-модда, 29-сон, 693-модда, 33-сон, 863-модда, 38-сон, 1049-модда;

13. “Ўзбекистон Республикаси Конституцияси тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Конституциявий Қонуни/Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон;

14. “Давлат божи тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 07.01.2020 й., 03/20/600/0023-сон;

15. Ўзбекистон Республикаси Сайлов кодекси /Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.06.2019 й., 03/19/544/3337-сон;

16. “Томорқа хўжалиги тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни/Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 02.04.2021 й., 03/21/681/0264-сон;

17. “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни/ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.04.2019 й., 03/19/533/2885-сон;

18. Бочарова С.Н. Роль общественных объединений в защите прав человека // Вестник Московского университета. Сер.11: Право. 1997. № 1. С. 103–104.

19. “Адвокатура тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни /Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 2-сон, 48-модда;

OYBEK TURG‘UNOV

Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, yu.f.d, professor

KONSTITUTSIYA – FUQAROLARNING SIYOSIY HUQUQLARI KAFOLATI

Annontatsiya: maqolada fuqarolarning siyosiy huquqlari va ularning konstitutsiyaviy kafolatlanishi, fuqarolar tomonidan siyosiy huquqlardan foydalanish asoslari hamda har bir fuqaroning qonunchilikda belgilangan tartibda o‘zlarining siyosiy huquqlaridan foydalanishlari tahlil qilib yoritib berilgan.

Kalit sO‘zlar: Konsitutsiya, siyosiy huquqlar, inson, fuqaro, qonun,

kafolat, siyosiy partiya, kasaba uyushma, saylov, referendum.

КОНСТИТУЦИЯ – ГАРАНТИЯ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРАВ ГРАЖДАН

Аннотация: в статье анализируются и освещаются политические права граждан и их конституционные гарантии, основы использования политических прав гражданами, а также использования политических прав каждым гражданином в соответствии с законом.

Ключевые слова: Конституция, политические права, человек, гражданин, закон, гарантия, политическая партия, профсоюз, выборы, референдум.

CONSTITUTION - GUARANTEE OF POLITICAL RIGHTS OF CITIZENS

Abstract: the article analyzes and illuminates the political rights of citizens and their constitutional guarantee, the basis of the use of political rights by citizens, and the use of political rights by every citizen in accordance with the law.

Key words: Constitution, political rights, human, citizen, law, guarantee, political party, trade union, election, referendum.

Inson huquq va erkinliklari tizimida siyosiy huquqlar alohida o‘rin egallaydi. Chunki, bu huquq fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki bilan bog‘liq bo‘lib, siyosiy huquqlarning to‘la-to‘kis amalga oshirilishi barobarida boshqa huquq va erkinliklarni ta’minlash uchun shart-sharoitlar va ularni amalga oshirish mexanizmi yaratiladi. Shu bois, siyosiy huquq xalqaro huquqiy hujjatlarda va milliy qonunchilikda mustahkamlab qo‘yilgan.

Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyaning 21-moddasida[1] “Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar vositasi orqali o‘z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega. Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo‘lishi lozim; bu iroda davriy va soxtalashtirilmagan, yalpi va teng saylov huquqidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta’minlaydigan boshqa teng

qiymatli shakllar vositasida o‘tkaziladigan saylovlarda o‘z aksini topishi lozim”, degan qoida beligilangan.

Shuningdek, siyosiy va jamiyat hayotida ishtirok etish “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”ning 25-moddasi[2] hamda BMT tomonidan 1990-yildan e’lon qilingan inson taraqqiyoti dasturida inson taraqqiyotiga sharoit yaratuvchi muhim omillardan biri sifatida e’tirof etilgan .

Siyosiy huquq har bir mamlakat fuqarosining muhim huquqlaridan biri hisoblanib, bu huquqni ta’minlanishi har qanday davlatning siyosiy maydonda obro‘ini oshirishga va jamiyatning yuksak salohiyatga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki davrlaridanoq, xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda Asosiy qonunimizga “Siyosiy huquqlar” deb nomlangan alohida VIII bob kiritilib, unda fuqarolarning siyosiy huquqlariga doir umuminsoniy qoidalar belgilab qo‘yildi.

Siyosiy huquqlar fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish; davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega bo‘lish; fuqarolarning o‘z ijtimoiy faolliklarini namoyon etish; kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish va davlat organlariga murojaat qilishda ifodalanadi.

Siyosiy huquqlar deyilganda, fuqarolarning bevosita siyosiy manfaatlariga tegishli huquqlari tushunilib, bu huquqlar orqali ular o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish, davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, davlat organlarining faoliyatini nazorat qilish, davlat organlariga murojaat qilish kabi huquqlarini amalga oshiradilar.

Siyosiy huquqning ahamiyatli tomoni shundaki, u shaxs - jamiyat-davlat o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Demak, har bir fuqaro o‘zining siyosiy huquqlaridan foydalangan holda, davlat va jamiyat hayotiga bog‘liq masalalar yuzasidan o‘z qarashlarini erkin bildira olishlari mamlakatda demokratiyaning nechog‘liq rivojlanganligini anglatadi. Bu, avvalambor,

fuqarolarnirng siyosiy-huquqiy madaniyatining yuksakligida namoyon bo‘ladi.

Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin egallaydi. Shu bois, ushbu qoida Asosiy qonunda mustahkamlab qo‘yilgan.

Bu huquq birinchidan, fuqarolarga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish, ikkinchidan, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyatlarini beradi.

Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini shakllantirishda hamda o‘zini o‘zi boshqarishda namoyon bo‘ladi. Bunda fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita va o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqi markaziy o‘rinni egallaydi.

Davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish fuqorolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishning muhim shartidir. Bunda, saylov huquqini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Saylovlar demokratik taraqqiyot yo‘lini tanlagan har qanday davlat amaliyotida va fuqarolarning siyosiy huquqlari tizimida muhim huquqiy institut sifatida markaziy o‘rinni egallaydi, shuningdek mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy va ma’muriy islohotlarni samarali kechishini hal qiluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Odatda, davlat hokimiyati organlari ikki uslubda: saylash va tayinlash yo‘li bilan shakllantiriladi. Umum e’tirof etilgan tamoyillarga muvofiq, ijro etuvchi hokimiyat va sudlov hokimiyati organlarining shakllantirilishi saylanadigan organlar tomonidan amalga oshiriladi. Shu asosda, saylovlar davlat hokimiyati organlarining butun tuzilmasiga oliy boshlang‘ich legitimlik (qonuniy)ni ta’minlaydi .

Saylov dunyo mamlakatlari Konstitutsiyalarida ham o‘z ifodasini topgan. Masalan, Fransiya Respublikasi Konstitutsiyasining 3-moddasida “Saylovlar Konstitutsiyada belgilangan shartlarga muvofiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita bo‘lishi mumkin. Ular hammavaqt umumiy, teng va yashirin ovoz berish yo‘li bilan amalga oshiriladi” , deb belgilangan. Germaniya Konstitutsiyasining III bo‘limi, 38-moddasi 1-qismida “Germaniya Bundestagining deputatlari umumiy, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, erkin,

teng va yashirin saylov yo‘li bilan saylanadi” , degan norma mavjud. AQSH Konstitutsiyasining 1-moddasi, 2-bo‘limi va 2-moddasi 1-bo‘limida parlament va ijro etuvchi organlarni saylov asosida tashkil etish normalari qayd etilgan .

Saylov O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «Saylov tizimi» deb nomlangan XXII bobining 128 va 129-moddalarida [3] nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi.

Saylovlarni o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tuzilgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Saylov o‘tkazishga taalluqli masalalar O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Demokratiyaning asosiy shakllaridan biri bu – davlat va jamiyat hayotining muhim muammolarini umumxalq muhokamasida o‘z yechimini topishi referendum shaklida amalga oshiriladi. Aslida, referendum atamasi lotin tilidagi “Referendum” so‘zidan olingan bo‘lib “xabar berilishi lozim bo‘lgan” degan ma’noni anglatadi. Uning hozirgi mohiyati fuqarolarni davlat va jamiyat hayotida bevosita ishtirok etishini bildiradi.

O‘zbekistonda referendum o‘tkazishga doir masalalar 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi «O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida»gi qonuni bilan tartibga solinadi.

Referendum saylovlar bilan bir qatorda xalq irodasining bevosita ifodasi bo‘lib, unda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo‘ladi. Agar referendumda qabul qilingan qarorlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, referendumda qabul qilingan qarorlar faqat referendum yo‘li bilan bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin.

Referendum O‘zbekiston Respublikasining butun hududida O‘tkazilib, quyidagi masalalar uning predmeti bo‘lishi mumkin emas:

O‘z vakillari orqali (bilvosita) ishtirok etish - xalq hokimiyatni o‘zining saylab qo‘yilgan muxtor vakillari orqali amalga oshirib, vakillar o‘zlariga vakolat bergan subyektlar - butun xalq, u yoki bu hududda yashovchi ahaolining xohish-irodasi va manfaatlarini ifoda etuvchi qonunlar qabul qiladilar va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etadilar.

O‘zini o‘zi boshqarish fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida namoyon bo‘ladi. Bu institut davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tizimiga kirmaydigan alohida turdagi hokimiyatni amalga oshiradi. Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular raisni saylaydi.

O‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqiy maqomi Konstitutsiyaning 127-moddasi hamda 2013-yil 22-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan.

Inson huquq va erkinliklari so‘zsiz ta’minlanadigan fuqarolik jamiyatining muhim sharti - jamoatchilik nazorati institutlarining roli va ahamiyatini oshirish Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari so‘rilgan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan ezgu g‘oyani amalda ro‘yobga chiqarish, ya’ni mamlakatda amalda bo‘lgan va joriy etilayotgan qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minlash, davlat hokimiyati organlari faoliyatini nazorat qilish, islohotlar jarayonini tez sur’atlarda amalga oshirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va boshqa davlat hamda jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarni samarali kechishini ta’minlashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning 1.3-bandida Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish maqsadida:

davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi qayd etilgan.

Jahon tajribasi jamoatchilik nazoratidan shaxs - jamiyat - davlat birgalikda manfaatdor ekanligini ko‘rsatadi. Haqiqatan ham bu huquq davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’ul ekanligini anglatadi, insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlash borasida samarali ish olib borishga majbur qiladi.

Jamoatchilik nazoratining ahamiyatli tomoni shundaki, davlat organlari xizmatchilari tomonidan O‘z vazifalariga mas’uliyat bilan yondashishlari, kO‘rsatilayotgan xizmatlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarishlari imkonini beradi. Ya’ni,

birinchidan, jamoatchilik nazorati davlat xizmatchilarining davlat hokimiyati tabiati tufayli ularga hamisha xos bo‘lgan noqonuniy va adolatsiz qarorlar qabul qilishdan tiyilib turishiga da’vat etadigan ta’sirchan kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki, nazoratning bosimi yoki ta’siri tufayli vakolatli shaxslar o‘z ustida ishlaydi, malaka ko‘nikmalarini oshiradi, xulq-atvorini yaxshilaydi va xizmat vazifasiga mas’uliyat bilan yondashadi;

ikkinchidan, jamoatchilik nazorati joylardagi kamchilik va nuqsonlarni hamda yechimini ko‘tayotgan masalalarni bartaraf etish imkoniyatini beradi;

uchinchidan, jamoatchilik nazorati davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “fuqarolarga xizmat qilishga yo‘naltirish” tamoyili asosida yo‘naltiradi;

to‘rtinchidan, jamoatchilik nazorati jamiyatning hokimiyat va boshqaruv organlari bilan aloqa qilish vositasi sifatida namoyon bo‘lib, fuqarolarga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda hokimiyat bilan halol va ochiq muloqot olib borishga yordam beradi. Davlat hokimiyati jamiyat bilan bunday o‘zaro aloqa qilish yordamida mavjud muammolardan xabardor bo‘ladi va fuqarolarning mamlakatda demokratik islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan talablarini qo‘llab-quvvatlaydi;

beshinchidan, jamoat ta’siri ostida davlat samaraliroq ish olib boradi, bu bilan jamoatchilik nazorati fuqarolarning davlatga ishonchini va uni qo‘llab- quvvatlashlarini ta’minlaydi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish sohasida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada, 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonuni muhim ahamiyat kasb etib, ushbu qonunning maqsadi davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Ta’kidlash lozimki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning “Siyosiy huquqlar” deb nomlangan VIII bobining 37-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar. Davlat xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar qonun bilan belgilanadi”, degan qoidani belgilab qo‘yilishi mamlakatda inson qadri demokratik umuminsoniy prinsiplarga asoslanganligini ifoda etadi.

Konstitutsiyaga mazkur qoidaning kiritilishi natijasida «davlat xizmati» degan tushuncha va bu orqali davlat xizmati tizimi Asosiy qonun darajasida huquqiy asosga va konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat xizmatiga kirishda teng huquqlilikni kafolatlash yo‘li bilan meritokratiya tamoyilining yanada kengroq ro‘yobga chiqishiga zamin yaratilmoqda.

Davlat xizmati tizimiga salohiyatli kadrlarni keng jalb qilish orqali davlat boshqaruvining samaradorligi va barqarorligini ta’minlashga sharoit yaratiladi.

Hozirgi globallashuv sharoitida, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonda inson resurslarining qiymati ortib bormoqda, davlat xizmatiga yuqori salohiyatli kadrlarni saralab olish tizimi joriy etilmoqda.

Bugungi kunda meritokratiya tamoyili asosida, ya’ni eng munosib nomzodlarning tanlov asosda saralab olish yo‘li bilan davlat xizmatiga jalb qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

Muxtasar aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga ushbu normani kiritilishi davlat xizmatiga kirishda barcha fuqarolarga teng shart-sharoitlar yaratadi. Kadrlarni mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, tanish-bilishchilik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo‘yicha tanlash kabi salbiy illatlar bekor bo‘ladi. Kadrlarning bilim va salohiyatini zamonaviy uslublar asosida

baholash yo‘li bilan eng munosiblarini xizmatga tizimli jalb qilishga asos yaratiladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyaning 21-moddasi. Inson huququlari darsligi. B.36.
2. “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”ning 25-moddasi. Inson huququlari darsligi. B.73.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023;
4. 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonuni. Qonun hujjatlari to‘plami 2018 yil.

ОЗОД ХУСАНОВ

Ўзбекистон Республикаси Президент хузуридаги Давлат бошқаруви академияси профессори

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЯНГИ ТАҲРИРДАГИ КОНСТИТУЦИЯСИ ВА “КОНСТИТУЦИЯВИЙ ҲУҚУҚ” ФАНИ ОЛДИДАГИ ВАЗИФАЛАР.

Аннотация: мазкур мақолада конституциявий ҳуқуқ фани олдидаги вазифалар, конституциявий ҳуқуқ соҳасида илмий тадқиқотлар фаолиятини такомиллаштириш, конституциянинг тўғридан-тўғри ишлаш масаласи, давлат ҳокимияти фаолиятини такомиллаштириш каби масалалар илмий - амалий жиҳатдан таҳлил қилинган

Калит сўзлар: Конституция, фуқаролик жамияти, “Конституциявий ҳуқуқ”, сайлов тизими, маҳаллий давлат ҳокимияти, парламент.

УЗБЕКИСТАН В НОВОЙ ВЕРСИИ ЗАДАЧИ ПЕРЕД КОНСТИТУЦИЕЙ И НАУКА «КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО».

Аннотация: в данной статье научно и практически анализируются задачи, стоящие перед наукой конституционного права, совершенствование научных исследований в области

конституционного права, вопрос непосредственного действия конституции, совершенствование государственной власти.

Ключевые слова: Конституция, гражданское общество, «Конституционное право», избирательная система, местное самоуправление, парламент.

UZBEKISTAN IN A NEW VERSION OF THE TASK BEFORE THE CONSTITUTION AND THE SCIENCE OF "CONSTITUTIONAL LAW".

Abstract: this article scientifically and practically analyzes the tasks facing the science of constitutional law, improving scientific research in the field of constitutional law, the issue of the direct effect of the constitution, and improving state power.

Key words: Constitution, civil society, "Constitutional law", electoral system, local government, parliament.

Ўзбекистоннинг янги таҳрирдаги Конституцияси, кўплаб ижтимоий муносабатларни: фуқаро ва давлат муносабатини, ҳокимиятни ташкил этиш, фуқаролик жамияти институтларини янгича, замон талабларига ва ҳалқаро тажрибага мос равишда белгилаш билан характерланади. Конституцияда янги моддалар, кўплаб янги нормаларни, янги бобни вужудга келиши ва айрим бобларни янгича номланиши, ҳуқуқ фанлари олдига, жумладан, "Конституциявий ҳуқуқ" фани олдига, тадқиқотчилар олдига янги вазифаларни қўяди.

"Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида"ги 2023 йил 8 майдаги Президент Фармони эса бу масалага жиддий ёндошишни тақозо этади.

Фармоннинг кўплаб бандларидаги кўрсатмаларини бажариш "Конституциявий ҳуқуқ" олдига қатъий вазифаларни қўяди. Бу вазифаларни муваффақиятли бажаришнинг мухим омилларидан бири – "Конституциявий ҳуқуқ" фанининг ўзи мукаммал бўлиши, фаннинг мукаммал бўлишида эса янги, мукаммал ўқув дастурлари, дарсликлар

ва бошқа қўлланмалар бўлиши керак. Бу хақда фармоннинг 7-бандида тегишли кўрсатма берилган.

“Конституциявий ҳуқуқ”фани бўйича тадқиқотлар мавзусини аниқлаш ва улар асосида тадқиқотлар олиб боришни йўлга кўйиш ҳозирги куннинг энг долзарб масалаларидан хисобланади. Қуйидаги масалалар “Конституциявий ҳуқуқ” фани тадқиқотининг устувор масалалари бўлиши зарур:

1. Конституцияда (1-модда) Ўзбекистон суверен, демократик, ҳуқуқий, ижтимоий, дунёвий давлат деб белгиланди. Тадқиқотчилар демократик давлат, ҳуқуқий давлат, ижтимоий давлат, дунёвий давлат тушунчаларини, хусусиятини, улардан фуқаролар қандай манфаат кўришини, шу давлат хусусиятини ривожланган даражасига эришиш йўлларини, бу борадаги жахон давлатчилиги тажрибасини ўрганишга қаратилиши зарур.

2. Конституцияда аввалдан давлат ўз фаолиятининг қонунийлик ва адолат принциплари асосида амалга ошириши кўрсатилган эди. Янги таҳрирдаги конституцияда “қонунийлик” ва “ижтимоий адолат” принципига “бирдамлик” принципи қўшилди. Хозирги ғала-ғовур дунёда бирдамликни ўрни катта. Қонунийлик, ижтимоий адолат у ёки бу даражада илмий ўрганилган, лекин “бирдамлик” янги конституциявий принцип бўлгани учун у бўлажак тадқиқотлар предмети бўлиши керак.

3. Янги таҳрирдаги Конституцияда конституцияга хос мухим жихат унинг нормаларини тўғридан-тўғри амал қилиш кучига эга эканлиги ва у ягона ҳуқуқий маконнинг асосини ташкил қилиш белгиланди. Бу ҳолат чуқур илмий тадқиқотлар олиб боришни тақозо этади. Тадқиқотларда конституциянинг тўғридан-тўғри амал қилишининг ахамияти, механизмлари, бу принцип бузилиш оқибатлари очиб берилиши керак.

4. Янги таҳрирдаги Конституцияга қиритилган энг мухим ўзгариш ва қўшимча бу – унда инсон ҳуқуқ ва эркинликларини химоя қилишнинг мутлақо янги механизмларини назарда тутувчи конституциявий асосларни белгиланишида кўринади. Фуқаро ва инсоннинг шахсий ҳуқуқлари, сиёсий ҳуқуқлари кенгайтирилади.

Янги ҳуқуқлар ўрнатилди. Иқтисодий, ижтимоий ҳуқуқлар қаторига маданий, экологик ҳуқуқлар қўшилди. Юқоридагиларни мазмун-мохиятини очиб бериши учун “Конституциявий ҳуқуқ” катта ва кенг кўламли ишларни олиб бориши давр тақозосидир.

5. Шу билан боғлиқ лекин алохида ахамиятга эга ва албатта тадқиқотлар этиборида бўладиган масала бу давлатни, давлат органлари ва мансабдор шахсларнинг мажбуриятлар доирасини кенг миқдорда конститутциявий асосда белгиланишидир. Конститутциянинг кўплаб моддаларида давлат “ғамхўрлик қилади”, “таъминлайди”, “давлат хисобидан кўрсатилади”, “шарт-шароитлар яратади”, “таьминлаш шарт”, “йўл қўймайди”, “чораларини кўради”, “рағбатлантиради”, деган атамаларни учратамиз. Буларни қандай амалга оширилиш йўллари, механизмларини кўрсатиш тадқиқотчилар вазифасидир.

Юқорида тилга олинган Президент Фармонида “Янги таҳрирдаги Конститутцияни сўзсиз ва тўлиқ амалга ошириш барча даражадаги давлат органлари ва ташкилотларининг биринчи навбатдаги устивор вазифаси этиб белгилансин”, деган кўрсатма хам давлат органлари мажбуриятини кучайтиради. Шу фармонда Конститутцияни амалга ошириш бўйича чора-тадбирлар ижросини ўз вақтида таъминлаш учун давлат органлари ва ташкилотларини рахбарлари шахсан жавобгар, деб белгиланган. Бу билан жавобгарлик янада кучаймоқда.

6. Янги таҳрирдаги конститутцияда “Фуқаролик жамияти институтларининг мақоми алоҳида мустахкамланди. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фуқаролик жамияти институтлари тизимига киритилди. Уларнинг роли давлат ва давлат органлари билан муносабатининг конститутциявий асослари тадқиқотлар учун обьект бўлади”.

7. Ҳар қандай мамлакатда, мамлакат, жамият ривожида ҳокимиятни, давлат бошқарувини ташкил қилиш мухимдир. Шунинг учун конститутцияни янгилашда бу масалага алохида эътибор берилди.

Конститутциянинг бош масаласи – ҳокимиятни ташкил этиш бўлса, бу мухим масала давлат бошқарув билан боғлиқдир. Давлат бошқаруви тизими, Президент таъкидлаганидек, барча қўйилган вазифаларнинг самарали бошқаришнинг асосий шартидир. Шунинг учун:

а) Янги таҳрирдаги Конституцияда Парламент фаолиятини кучайтиришга, уни ихчамлаштиришга, палаталар ваколатларини кенгайтиришга, Президент ва хукумат муносабатларини тартибга солиш масаласига, қонунчилик жараёнини такомиллаштириш, қонунчилик жараёнида фуқаролар иштирокини кенгайтиришга алоҳида эътибор берилди ва бу масалалар бўйича Конституция нормалари кенгайтирилди. Бу борадаги принциплар, ҳуқуқий нормаларни мазмун мохиятини очиб бериш уларни амал қилишининг ҳуқуқий механизмларини ишлаб чиқиш “Конституциявий фан”нинг устувор вазифасидир.

б) 1992 йил 8 декабрдаги Конституцияда Вазирлар Махкамаси фаолияти битта модда билан тартибга солинган эди. Янги таҳрирдаги Конституцияда Вазирлар Маҳкамасига 6 та модда бағишланди. Улардаги нормалар билан Вазирлар Махкамаси таркиби ихчамлаштирилди, Вазирлар Махкамаси таркибини шакиллантириш такомиллаштирилди. Вазирлар Махкамаси вазифа, ваколатлари, Бош вазирнинг вазифалари, уларнинг хисобдорлиги Бош вазирни истефога чиқариш, унга ишончсизлик вотумини билдириш каби масалалар Конституциявий асосда белгиланди ва улар эндиги тадқиқот мавзулари бўлиши керак.

в) Янги таҳрирдаги Конституцияда маҳалий давлат ҳокимияти органлари тизими, фаолиятига янгича ёндашувни қўриш мумкин. Унинг нормалари ҳокимларни маҳаллий вакиллик ҳокимияти органларига бошчилик қилиши хақидаги қоидани бекор қилди. Унинг 120-моддасига асосан энди ҳалқ депутатлари Кенгашларига депутатлар орасидан сайланадиган Раис бошчилик қиладиган бўлди.

Конституцияда ҳалқ депутатлари Кенгашлари билан ҳокимларнинг ваколатларининг асослари белгиланиб қўйилди. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ҳокимият органлари

тизимига кирмаслиги конститутциявий асосда ҳал қилинди. Кенгаш раиси қандай ваколатларга эга бўлади? Ҳудудда икки ҳокимиятчилик вужудга келмайдими? – деган саволларга жавоб топишда илмий изланишлар ёрдам бериши мумкин.

г) Янги таҳрирдаги Конституцияда сайлов тизимига оид қўшимчалар ҳам киритилди. Жумладан, Президентга муддатидан аввал сайлов тайинлаш ҳуқуқини берилди. Бундан ташқари, суд томонидан муомлага лаёқатсиз деб топилган фуқаролар, шунингдек, оғир ва ўта оғир жиноятлар содир этгани учун суднинг хукмига кўра озодликдан махрум этиш жойларида сақланаётган шахслар сайловларда иштирок этиш ҳуқуқидан фақат қонунга мувофиқ хамда суднинг қарори асосида махрум этилиши мумкин, деган қоида ўрнатилди. Сайлов қонунчилигига ўзгартириш киритиш ҳақидаги Конституциявий қонунни биринчи ўқишда қабул қилиниши, унда аралаш сайлов принципини (мажоритар, пропорционал) кўзда тутилиши ва бошқа ҳолатлар “Конституциявий ҳуқуқ” олдига шу борадаги тадқиқотларни кенгайтириш вазифасини қўяди.

д) Янги таҳрирдаги Конституцияда суд тизими ва фаолиятига, Конституциявий суднинг ваколатларига тааллуқли масалалар хам мавжуд бўлиб улар албатта илмий изланишларни тақозо этади. Конституцияда “Фуқаролар ва юридик шахслар агар суд орқали химоя қилишнинг бошқа барча воситаларидан фойдаланиб бўлинган бўлса судда кўриб чиқилиши тугалланган муаян ишда суд томонидан ўзига нисбатан қўлланилган қонуннинг Конституцияга мувофиқлиги тўғрисидаги шикоят билан судга мурожат қилишга хақли”, деган қоида ўрнатилди.

Бу бир томондан фуқаронинг ҳуқуқини химоя қилишга қаратилган бўлса, иккинчи томондан конституцияни химоясини хам таъминлашига хизмат қилади. Шу масалалар ва “Конституциявий судни қарори қатий ва уни устидан шикоят қилиниши мумкин эмас”, деган қоидалар илмий изланиш орқали тадқиқ қилиниб муаммолар ечими топилиши мумкин.

Мазкур мақолада “Конституциявий ҳуқуқ” олдидаги кўриниб турган яққол вазифалар хақида қисқача фикр юритилди.

Конститутцияни чуқур ўрганиш, қиёсий тахлил қилиш ҳали кўплаб “Конститутциявий ҳуқуқ” фани тадқиқотлари учун мавзу бўладиган масалаларни аниқлаш имкониятини беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: Ўқитувчи, 2023 йил.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида” 2023 йил 8 майдаги Президент Фармони. “Халқ сўзи”, 2023 йил 9 май.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Конституциявий комиссия аъзолари билан учрашувдаги нутқи. “Халқ сўзи”, 2022 йил 21 июнь.

DAVRON AXMEDOV

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yuridik fanlar doktori

YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA DEMOKRATIK PRINSIPLARNING USTUVORLIGI VA XALQ MANFAATLARI BEVOSITA OLIY QADRIYAT SIFATIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangi tahrirdagi Konstitutsiyada demokratiyaning muhim printsip sifatidagi o‘rni, davlat organlarining xalq manfaatlari oldidagi mas'uliyatini kuchaytirish, referundum demokratiyaning muhim ko‘rinishi ekanligi, xalq nomidan faoliyat yuritish kabi masalalar atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: demokratiya, saylov, xalq, referendum, Oliy Majlis, Prezident, hokimiyat

В ОБНОВЛЕННОЙ КОНСТИТУЦИИ ПРИОРИТЕТ ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ И ИНТЕРЕСОВ НАРОДА КАК ВЫСШЕЙ ЦЕННОСТИ

Аннотация: В данной статье подробно проанализированы такие вопросы, как роль демократии как важного принципа в Конституции в новой редакции, усиление ответственности

государственных органов перед интересами народа, референдум как важное проявление демократии, деятельность от имени народа.

Ключевые слова: демократия, выборы, народ, референдум, Олий Мажлис, президент, власть

IN THE UPDATED CONSTITUTION, THE PRIORITY OF DEMOCRATIC PRINCIPLES AND THE INTERESTS OF THE PEOPLE AS A DIRECT SUPREME VALUE

Annotation: in this article, issues such as the role of democracy as an important principle in the Constitution of the new edition, strengthening the responsibility of state bodies to the interests of the people, the fact that the referundum is an important manifestation of democracy, functioning on behalf of the people are analyzed in detail.

Keywords: democracy, election, people, referendum, House of Commons, president, power

Ma’lumki, har qanday Konstitutsiya konstitutsiyaviy tuzumning asosiy shartlaridan biri bo‘lmish xalq hokimiyatchiligi prinsipini mustahkamlab beradi. Ilk bor yunon shahar-davlatida paydo bo‘lgan “demokratiya” atamasi butun dunyoga tarqalgan va siyosiy lug‘atdan mustahkam o‘rin olgan. Jahondagi demokratik davlatlarning Konstitutsiyalari “butun hokimiyat xalqqa tegishli” yoki “butun hokimiyat xalq tomonidan amalga oshiriladi” degan tushunchani o‘zida mujassamlashtirgan.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligi munosabati bilan so‘zlagan ma’ruzasida to‘xtalib o‘tgan quyidagi muhim konseptual ahamiyatga ega hisoblanadi: “o‘tgan davrda ijro etuvchi hokimiyatni demokratlashtirish ishlari ham izchil olib borildi. Hukumatning vazifa va vakolatlar doirasi kengaytirilib, parlament oldida hisob berish darajasi va mas’uliyati kuchaytirildi. Bu Konstitutsiyaning 7-moddasida mustahkamlangan “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir” degan ulug‘vor g‘oyaning amaliy ifodasi, desak, har tomonlama tO‘g‘ri bo‘ladi” [1].

Ahamiyatli jihati, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-bobidan o‘rin olgan “xalq hokimiyatchiligi” atamasi “hokimiyat manbai”

degan tushuncha bilan uzviy bog‘langan. Demokratiyaning asl mohiyati o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z hayotini o‘z qobiliyatiga, o‘z tafakkuriga va O‘z vijdoniga ko‘ra qurishdir va buning oqibati uchun ma’suliyatini ham o‘ziga olishdir.

Zero, o‘z hayotini erkin boshqarishgina insonni shaxs darajasiga ko‘taradi. Qolaversa, demokratiyaning avtoritar tuzum kabi shaxsni boshqarish bahonasida cheklash, bo‘ysundirish va ezish mexanizmi ham yo‘q. Shaxsning o‘ziga ko‘proq huquq bergani va mas’uliyat yuklagani sari tuzum demokratlashaveradi, davlatning yuki ham yengillashaveradi.

Insoniyat tajribasi demokratiyaning **ikki asosiy shaklini** ishlab chiqqan: **to‘g‘ridan-to‘g‘ri,** ya’ni bevosita demokratiya hamda **vakillik demokratiyasi** – organlar, avvalo vakillik va boshqa saylab qo‘yiladigan organlar orqali amalga oshiriladigan demokratiya, ya’ni saylov demokratiyasi. Demokratiyaning mazkur shakllarini bir-biriga aslo qarshi qo‘ymaslik lozim, chunki bu ikkala shakl o‘ziga xos ahamiyatga ega va o‘zaro uzviy bog‘liqdir.

to‘g‘ridan-to‘g‘ri demokratiya– insonning davlat ishlarini hal qilishda yashirin ovoz berish orqali yoki boshqa shaklda bevosita ishtirok etishi. Vakillik demokratiyasi deb insonning davlat ishlarini hal etishda o‘zi saylagan vakillari, ya’ni deputatlar yoki boshqa saylab qo‘yiladigan lavozimlar orqali ishtirok etishiga aytiladi.

Bevosita demokratiya– (asosiy qarorlar fuqarolar tomonidan referendum, yig‘in kabi tashkiliy - huquqiy shakllarda qabul qilinadi) va **bilvosita demokratiya** (qarorlar saylab qo‘yiladigan muassasalar – parlament yoki boshqalar organlar tomonidan qabul qilinadi) farqlanadi. Demokratiya institutlari huquqiy davlatda to‘la rivojlanadi.

Darhaqiqat, biz demokratiyani fuqarolarning saylovlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlari xohlagan nomzodlar yoki partiyalarga ovoz berishlarida ko‘rishimiz mumkin.

O‘zi, **“**Demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi ular birlashib ketgan. Saylov – demokratiya degani. Demokratiya bu saylov degani. Chunki har qaysi partiya aynan saylov orqali o‘zining tarafdorlarini aniqlaydi, kim unga ovoz beryapti, kim uning g‘oya va

dasturlarini qo‘llab - quvvatlayapti-bularning barchasini amalda ko‘rishga muvaffaq bo‘ladi” .

Darhaqiqat, biz demokratiyani fuqarolarning saylovlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlari xohlagan va munosib deb topgan nomzodlariga yoki siyosiy partiyalarga ovoz berishlarida ko‘rishimiz mumkin. Demokratik tuzumda xalqqa ko‘p narsa bog‘liq, zero bu tuzum xalqning ijodkorligiga asoslanadi.

Fuqarolar o‘z nomlaridan faoliyat yurituvchi va qaror qabul qiluvchi vakillarini saylaydilar. Buni **vakillik demokratiyasi** yoki, boshqacha aytganda, **bilvosita demokratiya** deb ataydilar. **Vakillik demokratiyasining asosida** doimiy o‘tkaziladigan, haqqoniy, halol va muqobil saylovlar yotadi. Bunday saylovlarning izchil o‘tkazilishi hokimiyatni xalqqa bog‘lab turadi.

Boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashishi mutlaqo xalqaro normalarga to‘g‘ri kelmaydi. Bunga oid normalar Asosiy Qonunimizda o‘z yechimini topgan. Jumladan, Konstitutsiyamizning 17-moddasida shunday deyiladi, “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir...”.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining 18-moddasida shunday deyiladi, “O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi”[2].

Shundan ham ko‘rinib turibdiki, har bir davlat o‘zining ichki va tashqi siyosatini amalga oshirar ekan, albatta umume’tirof qilingan xalqaro normalarga sO‘zsiz rioya etishlari shart.

Garchand demokratiya azaliy qadriyat bo‘lsa-da, faqat XX asr o‘rtalariga kelib umuminsoniy qadriyat sifatida e’tirof etildi va bugun – XXI asrda umumjahon maqomiga ega bo ‘lmoqda. Shu bois ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda bunga katta ahamiyat berildi.

Fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarida, shuningdek qonun loyihalarini muhokama qilishdagi ishtiroklari normativ-huquqiy hujjatlarda bevosita o‘z ifodasini topgan. Jumladan, 2000-yil 14-dekabrda

qabul qilingan “Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to‘g‘risida”gi qonunda fuqarolarning qonun loyihalarini muhokama qilishdagi ishtiroklari bevosita ko‘rsatib o‘tilgan. Unga ko‘ra, “Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida fuqarolarning ishtirok etishi ixtiyoriydir hamda fuqarolarni qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida ishtirok etishga majburlash taqiqlanadi. Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida ishtirok etishda fuqarolar teng huquqdan foydalanadilar.

Olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, siyosiy-huquqiy islohotlarning izchil davomi bo‘lib, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida ko‘rsatilgan 7 ta yo‘nalishlardagi masalalar O‘zbekistonning xalq hokimiyatchiligi va insonning qadri, uning manfaatlarining hamma narsadan ustun ekanligini namoyon qilmoqda.

Fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyiga qarab qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida ishtirok etish huquqlarini cheklash taqiqlanadi. Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi jarayonida fuqarolar qonun loyihalari bo‘yicha o‘z fikrini erkin bildirish huquqiga egadirlar hamda hech kim qonun loyihalari yuzasidan o‘z fikrini bildirishga majbur qilinishi mumkin emas”[3].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat strategik taraqqiyotining yo‘nalishlarini, insonning siyosiy huquqlarini xalqaro andozalar miqyosida belgilab beradi, xalqaro huquq ustunligini, hokimiyatlar taqsimlanishini o‘zida aks ettiradi. Xalq davlat hokimiyatini Konstitutsiya asosida bevosita yoki o‘zi saylab qo‘yadigan organlari orqali amalga oshiradi.

Fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari va erkinliklari hamda ularning konstitutsiyaviy kafolatlanganligi jamiyatimizning demokratik mohiyatini ifodalaydi. Shu bilan birga demokratiya shaxsga imkon qadar ko‘p erkinlik beradi va shunga yarasha katta mas’uliyat yuklaydi, insonni o‘z taqdiriga ega etadi hamda qadr-qimmatini ko‘taradi.

Har bir xalq, har qanday jamiyat o‘z milliy davlatchiligini qurishda o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tadi. Shu bois ham dunyoda

taraqqiyot yo‘li aynan bir biriga o‘xshash, bir xil davlatlar yo‘q. Zero, muayyan davlatning barpo etilishi uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo‘lib, u bevosita bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir qator omillar ta’sirida vujudga keladi. Bu – geografik, tarixiy, etnik, demografik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy omillardan iboratdir.

Ona zaminimiz – O‘zbekistonda ham dunyoning eng ilg‘or xalqlari o‘rgansa arziydigan davlatchilik an’analari borki, o‘tgan yillar davomida ularga tayanib milliy davlatchiligimizni barpo etmoqdamiz. Biz uchun ulug‘ va muqaddas bu mustaqil davlat – uchta asosiy tayanch, ya’ni o‘zbek davlatchiligining tarixiy tajribasi, demokratiya va ijtimoiy adolat, xalqaro huquq qoidalarining ustunligi asosida insonparvar demokratik davlat barpo etish yo‘lida yuksalib bormoqda.

Binobarin, mamlakatimizning mustaqillikka erishgan ilk yillaridan boshlab bugungi kungacha bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, yurtimizda demokratik andozalarga to‘liq javob beradigan zamonaviy siyosiy tizim barpo etish borasida jamiyat hayotining izchillik bilan, bosqichma-bosqich erkinlashuvini ta’minlovchi mustahkam tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilganini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lumki, Konstitutsiyaning 4-moddasida O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi belgilab qo‘yilgan. Maktab ta’limi o‘zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, turkman va tojik tillarida olib borilayotgani ushbu norma to‘liq tatbiq etilayotganining yorqin ifodasidir.

O‘zbekiston tarixida qabul qilingan avvalgi Konstitutsiyalardan farqli ravishda mazkur Konstitutsiya O‘zbekiston xalqini ishchilar, dehqonlar, ziyolilar, musulmonlar, askarlar va hokazolarga ajratmaydi. Uning “nazarida” kim qanday kasbni egallashidan, qanday mashg‘ulot turi bilan shug‘ullanishidan, jamiyatda qanday o‘rin tutishidan, ijtimoiy kelib chiqishidan va boshqa holatlaridan qat’i nazar inson hisoblanadi. ya’ni, boshqacha so‘z bilan aytganda, O‘zbekistonda tug‘ilib, shu yerda istiqomat qiladigan har bir kishi kim bo‘lishidan qat’i nazar insondir va O‘zbekiston Respublikasi fuqarosidir.

Shaxs siyosiy-yuridik ma’noda ko‘pincha fuqaro deb ataladi. Shuni aytib o‘tish kerakki, ilgarigi Konstitutsiyalarda “fuqaro” atamasi o‘rnida “grajdanin” degan atama ishlatilib kelgan. Birinchi marta ushbu Konstitutsiyada “fuqaro” degan atamasi qo‘llanilgan. Lekin “fuqaro” iborasi kelib chiqishining o‘ziga xos tarixi bor. Umuman “fuqaro” iborasi insonning mazkur davlatga taalluqligi ma’nosida ishlatiladi. Shu tufayli fuqarolar davlat tomonidan o‘rnatilgan burchlarni bajaradi. Konstitutsiyaning eng muhim demokratik jihatlaridan biri shundaki, unda inson huquqlari fuqarolar huquqlariga qarshi qo‘yilmagan, balki, aksincha inson va fuqaro huquqlari o‘zaro uyg‘unlashib ketgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Konstitutsiyaning 8-moddasida belgilangan yana bir muhim demokratik ruhdagi qoida O‘zbekiston fuqarolarining milliy tengligi tamoyilining mustahkamlanishidan iborat. Bu esa inson huquqlari haqidagi xalqaro huquq me’yorlariga to‘la mos tushadi. Masalan, “Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi”ning 2-moddasida shunday deyiladi: “Har bir inson, biror-bir ayrimachiliksiz, irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy e’tiqodi yoki boshqa e’tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan, mulkiy ahvoli, qaysi tabaqaga mansubligi va boshqa holatlardan qat’i nazar, mazkur deklaratsiyada e’lon qilingan barcha huquqlar va erkinliklar sohibi bo‘lishi kerak”.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining 19-moddasida “Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘lishi” haqidagi Yangi normaning aks ettirilishi huquqiy demokratik davlat tamoyillariga to‘la mos keladi.

Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘lishi O‘zbekiston ishtirokchisi bo‘lgan inson huquqlariga oid **80 dan ortiq** yaqin xalqaro hujjatlarda ham belgilangan. Bu asosiy huquq va erkinliklar insonning tug‘ilishi va uning umri davomida u bilan doimo birga bo‘ladi. Ayni shu maqsadda Konstitutsiyamizga insonning asosiy huquq va erkinliklari ajralmasdir hamda ular har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi, degan muhim qoida kiritilmoqda. Ushbu qoida bilan insonning fundamental va ajralmas huquqlarini ta’minlash davlat va

jamiyatning eng asosiy vazifasi sifatida Konstitutsiya darajasida mustahkamlanmoqda.

Mazkur normaning Konstitutsiyaga kiritilishi “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” g‘oyasiga mos bO‘lib, insonni jamiyatda emin-erkin va xavfsiz yashashiga, o‘z qobiliyat va iste’dodini to‘liq namoyon etishiga xizmat qiladi[4].

O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi va Prezidentidan tashqari jamiyatdagi hech bir guruh, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi yoki alohida shaxs O‘zbekiston xalqi nomidan ish olib borishi mumkin emas.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini O‘zlashtirish qonunga xilof hisoblanadi va tegishlicha javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi. Bunday harakatlar ko‘pincha davlatga qarshi qaratilgan jinoyat sifatida ko‘riladi.

Umuman olganda, o‘zbek xalqi o‘ziga mos bo‘lgan demokratik jamiyat qurish yo‘lini tanlab oldiki, bunga hozirgi kunda butun jahon mamlakatimizda amalga oshirilayotgan turli xil islohotlarni kuzatish orqali tan berib kelmoqda. O‘zbek xalqi tanlagan demokratik yo‘l juda ham katta va o‘z o‘rnida turli sohalarda muhim islohotlarni amalga oshirishni talab qilardi.

Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasida bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lish qoidasi Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi qoidalariga to‘la-to‘kis mos keladi. Shu bilan bir qatorda, barcha fuqarolar bir-birlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lishlari va tinch-totuv yashashlarining zaminida inson huquqlari turishi va bu birinchi navbatda, konstitutsiyaviy huquq bilan himoya qilinishi zarur.

Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ushbu moddasida aniq va ravshan qilib inson huquq va erkinliklarining tengligi belgilab qo‘yilganki, mamlakatda odamlar o‘rtasida biron-bir ayirmachilikka, ya’ni ular o‘rtasida irqiy, milliy, jinsiy, diniy nizolarning kelib chiqishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mazkur moddaga binoan, qabul qilingan joriy qonunlarda esa har qanday ko‘rinishdagi irqiy, milliy, diniy nizolar, tenglik prinsipiga zid keluvchi harakatlar qoralanadi va zarur hollarda jinoiy javobgarlikka tortiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining

141-moddasida fuqarolarning teng huquqligini buzish, ya’ni jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi yoki ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar fuqarolarning huquqlariga qarshi bevosita yoki bilvosita afzalliklar berish jinoyat hisoblanib, javobgarlikka tortish uchun sabab bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Demak, O‘zbekiston xalqini bu yerda istiqomat qiladigan yuzdan ziyod millat va elatlar tashkil qiladi. Ularning barchasi teng huquqli O‘zbekiston fuqarolaridir.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining 9-moddasida “Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo‘yiladi. Referendum o‘tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi” degan qoida esa fuqarolarimizning jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalarini hal etishda bevosita ishtirokini kafolatlaydi. Mazkur qoida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining xalq hokimiyatchiligi tamoyiliga asoslanganligini yana bir karra yaqqol ko‘rsatadi. Ta’kidlash kerakki, referendum demokratiyaning eng muhim belgisi hisoblanadi, ya’ni referendum jarayonlari orqali mamlakatdagi demokratiya darajasi va ochiqlik siyosatiga baho berish mumkin. Shuningdek, referendumni demokratiyaning “to‘g‘ridan-to‘g‘ri instituti” hamda xalq hokimiyatchiligining asosiy elementi deb ta’rif berish mumkin.

Majburiy referendumda tegishli qonun loyihasi butun saylovchilar korpusi tomonidan ratifikatsiya qilinishi (rasman tasdiqlanishi) shart.

Fakultativ (majburiy bo‘lmagan) referendum. Bunda oliy qonun chiqaruvchi organ muayyan masalani xohlasa umumxalq ovoziga qo‘yish orqali, xohlasa xalq vakillik organlari orqali hal qilishi mumkin. Fakultativ (majburiy bo‘lmagan) referendum o‘tkazish tashabbusi bilan saylov korpusi (masalan, Italiyada), federativ tuzilishiga ega bo‘lgan davlatlarda federatsiyaning alohida subyektlari (masalan, Shvetsariyada) yoki markaziy hokimiyat (masalan, Fransiyada) chiqishi mumkin.

Referendum saylovlar bilan bir qatorda xalq irodasining bevosita ifodasidir. Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo‘lib, faqat referendum o‘tkazish yo‘li bilan bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish huquqiga faqat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi egadir. Agar Oliy Majlis referendum tayyorlash to‘g‘risida qaror qabul qilsa, unda uni o‘tkazish sanasi aniqlanadi, bunda ovoz berish Oliy Majlis palatalari qarori e’lon qilingan kundan e’tiboran bir yarim oydan uch oygacha bo‘lgan davrda istalgan kunga tayinlanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish tashabbusi bilan:

⇒ O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;

⇒ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari;

⇒ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti chiqishi mumkin.

Yangi tahrirdagi “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari referendum o‘tkazilishini yoqlab yoki unga qarshi, referendumga qo‘yilayotgan qonun loyihasi, amaldagi qonun yoki boshqa masalani yoqlab yohud unga qarshi moneliksiz tashviqot olib borishga haqlidirlar.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, Har bir fuqaro kundalik hayotida o‘z haq-huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda Konstitutsiyamizdan kuch-quvvat olib harakat qilishi, unga tayanishi lozim”. Bugungi kunda demokratiya – jahon taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri, nafaqat siyosiy-huquqiy, balki ma’naviy qadriyat hamdir. Bugun jahonda demokratiyani tan olgan mamlakatgina e’tibor qozonadi. Demokratik tamoyillari va me’yorlarni oyoq osti qilgan mamlakatni jahon hamjamiyati o‘z qatoriga qo‘shmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ш.М.Мирзиёев. Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. //Халқ сўзи, 2017 йил 9 декабрь.

2. https://meningkonstitutsiyam.uz.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Қонун лойиҳаларининг умумхалқ муҳокамаси тўғрисида”ги Қонуни. 2000 й., Ўзбекистон

Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси. 2001 й., № 1–2, 14-модда.

4. https://meningkonstitutsiyam.uz.

МУҲАММАДИ УСМОНОВ,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети профессори,
юридик фанлар доктори

ФУҚАРОЛАРНИНГ ҚУЛАЙ АТРОФ ТАБИИЙ МУҲИТГА ЭГА БЎЛИШ ҲУҚУҚИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ КАФОЛАТЛАРИ

Аннотация: Мақолада бугунги кун янги ислоҳотлар босқичида мамлакатимизда атроф табиий муҳитни конституциявий нормалар асосида муҳофаза қилиш кафолатлари, ушбу муаммони ҳал этишга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорларининг мазмуни хусусида фикр-мулоҳазалар юритилган.

Калит сўзлар: конституция, ҳуқуқ, қонун, фармон, қарор, табиат, атроф муҳит, экология, сув, экология қонунчилиги.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ ГАРАНТИИ ПРАВА ГРАЖДАН НА КОМФОРТНУЮ ПРИРОДНУЮ СРЕДУ

Аннотация: В статье на новом этапе сегодняшних преобразований анализируются конституционные гарантии по охране окружающей природной среды, содержание указов и постановлений Президента Республики Узбекистан, посвященных решению этих проблем.

Ключеые слова: конституция, право, закон, указ, постановление, природа, окружающая среда, экология, вода, экологическое законодательство.

CONSTITUTIONAL GUARANTEES OF THE RIGHT OF CITIZENS TO HAVE A COMFORTABLE NATURAL ENVIRONMENT

Annotation: The article at the new stage of today's transformations analyzes issues of environmental protection with constitutional norms, the

content of decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan, dedicated to solving these problems.

Key words: constitution, law, law, decree, decree, nature, environment, ecology, water, environmental legislation.

Маълумки, экологик хавф-хатарлар миллий ва жамоат хавфсизлигининг муҳим таркибий қисми бўлиб, улар ҳозирги пайтда инсониятнинг қулай атроф табиий муҳитда яшаши учун глобал муаммоларни келтириб чиқармоқда. Шундай фожеали глобал экологик хавф-хатарлар сирасига иқлим ўзгариши, атроф табиий муҳитнинг ифлосланиши, биохилмахилликнинг қисқариши, чиқиндилар билан муомалада бўлиш муносабатларининг тўғри йўлга қўйилмаганлиги, санитария-эпидимиологик ҳолатнинг ёмонлашуви, турли инфекциялар (масалан, шохдор кароновирус)нинг кенг тарқалиши оқибатида одамларнинг касалланиши даражасининг ўсиши, сув тақчиллиги хавфининг ортиб бориши кабиларни кўрсатиш мумкин.

Ушбу глобал экологик муаммолар таъсирида бугунги кунда дунёда ҳайвонот ва ўсимлик дунёсининг қирилиб кетиши, уларнинг ноёб турларининг йўқолиб бориши, инсон ўртача умр кўриш ёшининг камайиши, инсон организмида модда алмашинувининг бузилиши, юрак-қон, рак каби касалликларнинг кўпайиши юз бермоқда. Бугунги кунда экотизмдаги мувозанатнинг бузилиши шу даражада оғир кўриниш олганки, бунинг натижасида инсонларнинг қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқини амалда таъминлаш жиддий муаммога айланиб бормоқда.

Шундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, экологик хавф-хатарлар таъсиридан жамоат хавфсизлигини таъминлаш атроф табиий муҳитни соғломлаштириш, сувни ифлослантирмаслик, атмосфера ҳавоси мусаффолигини сақлаш, чиқиндиларни ташиш, сақлаш, утилизация қилиш ва кўмиб ташлаш жараёнида экологик талабларга риоя қилиш, турли хил экологик касалликлар келиб чиқишининг олдини олиш, фуқароларнинг қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқини кафолатлаш дунёдаги барча давлатлар олдида турган долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев ҳақли равишда таъкидлаганидек, “атроф-муҳит мувозанатининг бузилиши, табиий ресурслардан номутаносиб фойдаланиш, чиқиндиларга бепарво муносабатда бўлиш ва ифлосланиш экотизимларга ва аҳоли саломатлиги ва фаровонлигига, барқарорлик ва давлатлар хавфсизлигига таъсир қилиб, салбий оқибатларга олиб келмоқда. Тупроқ, сув ва ҳавонинг ҳаддан зиёд ифлосланиши, иқлим ўзгариши, ўсимликлар ва ҳайвонот дунёсидаги ташвишли ўзгаришлар экологик муаммони тараққиётга юз тутаётган мамлакатларнинг хавфсизлигига жиддий таҳдид солаётган омиллардан бирига айлантирмоқда” [1].

Юртбошимизнинг “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги фармонида аҳоли саломатлиги ва генофондига зиён етказадиган мавжуд экологик муаммоларни бартараф этиш, атроф муҳитнинг ифлосланиш даражасини баҳолаш механизмларини такомиллаштириш, ифлослантирувчи манбаларнинг ҳолати ва атроф муҳитга таъсири устидан мониторингни амалга ошириш, «Яшил макон» умуммиллий лойиҳасини амалга ошириш каби чора-тадбирлар [2]нинг белгиланиши мамлакатимизда экологик хавфсизликни таъминлашда муҳим роль ўйнайди.

Фуқароларнинг қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқини таъминлашга жиддий хавф солаётган экологик таҳдидлардан бири сув ресурсларининг тақчиллиги, унинг саноат чиқиндилари, оқова сувлар билан ифлосланишидир. Маълумки, чучук сув танкислигининг асосий сабаби ундан нооқилона фойдаланиш, саноат корхоналари ва аҳолининг маиший турмушидан чикаётган оқова сувларнинг етарлича тозаланмасдан дарё ва кўлларга ташланишидадир. Ичимлик суви эпидемиологик ва радиацион жиҳатдан хавфсиз, кимёвий таркибига кўра зарарсиз бўлиши ва мақбул хоссаларга эга бўлиши лозим.

Фуқароларнинг экологик ҳуқуқларига салбий таъсир этаётган хавф-хатарлардан яна бири чиқиндиларни ташиш, сақлаш, зарарсизлантириш, утилизация қилиш ҳамда кўмиб ташлаш билан боғлиқ муносабатларнинг тўғри йўлга қўйилмаганлигидир.

Ўзбекистон Республикаси “Чиқиндилар тўғрисида”ги қонунининг 21-моддасида белгиланишича, Ўзбекистон Республикаси ҳудудига чиқиндиларни, шу жумладан, чет элга мансуб радиоактив чиқиндиларнинг ҳар қандай турларини сақлаш ва кўмиб ташлаш мақсадида олиб кириш таъқиқланади. Фуқароларнинг ҳаёти ва соғлиғи, атроф табиий муҳитнинг хавфсизлиги таъмин этилиши шарти билан чиқиндилар фақат қайта ишлаш ва утиллаштириш учун қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда олиб кирилишига йўл қўйилади. Чиқиндиларни сақлаш санитария нормалари ва қоидаларига, экологик хавфсизлик талабларига мувофиқ ҳамда чиқиндилардан оқилона фойдаланилишини ёки уларнинг бошқа шахсларга берилишини таъминловчи усулларда амалга оширилади [3].

Ҳаракатдаги қонунчиликда алоҳида экологик талаб сифатида радиациявий чиқиндиларни кўмишнинг қаттиқ режими ўрнатилган. Чиқиндиларни аҳоли пунктлари ерларида, табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш, рекреация мақсадларига мўлжалланган ва тарихий-маданий аҳамиятга молик ерларда, сувни муҳофаза қилиш зоналари ва сув объектларининг санитария муҳофазаси зоналари атрофида, фуқаролар ҳаёти ва соғлиғига, шунингдек, алоҳида муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар ҳамда объектларга таҳдид келиб чиқиши мумкин бўлган бошқа жойларда сақлаш ва кўмиб ташлаш таъқиқланади.

Юридик ва жисмоний шахслар кимёвий моддаларни, биологик воситаларни ва материалларни ташиш, сақлаш, қўллаш, зарарсизлантириш, утилизация қилиш ҳамда кўмиб ташлаш пайтида аҳолининг санитария-эпидемиологик осойишталигини таъминлаш мақсадида санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативларига риоя этишлари талаб этилади. Юридик ва жисмоний шахслар радиоактив моддаларни ҳамда бошқа ионлаштирувчи нурланиш манбаларини қазиб олиш, ишлаб чиқариш, ҳосил қилиш, қайта ишлаш, улардан фойдаланиш, уларни сақлаш, уларга хизмат кўрсатиш, уларни ташиш, зарарсизлантириш, утилизация қилиш ва

кўмиб ташлаш пайтида санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативларига риоя этиши шарт.

Экология қонунчилигида фуқароларнинг экологик ҳуқуқларини ҳимоя қилишга қаратилган бу каби талаблар ўрнатилишининг асосий сабабини мамлакатимиз ҳудидида кўп миқдорда қаттиқ чиқиндилар тўпланиб қолганлиги сабабли тупроқ таркибида юқори миқдорда кимёвий эълементлар ва радионуклидлар йиғилиб қолганлиги билан изоҳлаш мумкин. Маълумки, Ўзбекистон худудининг марказий ва шарқий қисмлари жаҳонда уран конлари бўйича энг йирик хисобланган Тянь-шань уран-руда мегопровинцияси таркибига киради, радиоактив рудаларни қазиб олиш, ҳарбий, энергетика, тиббиёт, илм-фан ва техника соҳаларида радионуклидлардан фойдаланиш жараёнида пайдо бўладиган радиоактив чиқиндилар, рудаларнинг ағдарма ҳандақлари, қазилмаларни бойитиш ва сақлаш жойлари маълум даражада радиацион хавфли ўчоқлар саналиб атроф табиий муҳит софлиги, инсон ҳаёти ва соғлиғи учун катта хавф туғдиради.

Мустақиллик йилларида юртимизда радиациявий хавфсизликни таъминлаш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилган бўлсада, бу борада ўз ечимини кутаётган муаммолар талайгина. Хусусан, кимёвий ашёларни ишлатиш ҳажми сезиларли даражада қисқарганлигига қарамасдан тупроқни ва сувни қолдиқ токсик моддалар билан ифлослантириш муаммоси ҳали ўз ечимини топганича йўқ, мамлакатимиз ҳудудида жойлашган 13 та заҳарли кимёвий моддаларни кўмадиган жарликларда фойдаланиши ман қилинган жами 9 минг тонна заҳарли кимёвий ва радиациявий моддалар кўмилган, заҳарли кимёвий моддалар кўмилган жойларни сақлаш шароити белгиланган талабларга тўла жавоб бермайди. Республикамиз ҳудудида уран қазиб олиш жараёнида кўплаб уюмлар тўпланиб қолган, жумладан, бугунги кунда 150 та участка радиоактив ифлосланган бўлиб, улар махсус дастур асосида режали тарзда дезактивация ва рекультивация қилишни талаб этади.

Маълумки, инсон ўз фаолиятида табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш билан боғлиқ қонуниятларни эътиборга олиши ҳамда

ҳозирги ва келажак авлод манфаати йўлида табиатга ва унинг биологик ресурсларига зарар етказмаслиги талаб этилади. Ушбу талабни таъминлашни бугунги кунда табиат ва жамият ўртасидаги муносабатларнинг ўзаро мутаносиб уйғун ривожланишини кафолатловчи конституциявий нормаларсиз тасаввур этиш қийин.

Шу сабабдан, Ўзбекистон Республикаси Конституциясида бош ғоя сифатида, энг аввало, жамоат хавфсизлиги, атроф табиий муҳитнинг софлиги, инсоннинг ҳаёти ва соғлиғи учун қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқини ҳимоя қилишни таъминлаш ётиши талаб этилади. Демак, фуқаролар нормал ҳаёт кечиришлари, соғлом турмуш тарзини амалга оширишлари, меҳнат фаолияти билан шуғулланишлари учун уларни ўраб турган атроф табиий муҳит - атмосфера ҳавоси, сув, ўсимлик дунёси, тупроқ тоза, инсон соғлиғига зарарли таъсир этмайдиган сифат ва ҳолатда бўлиши лозим. Маълумки, мустабид тузум даврида қабул қилинган атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш қонунларида экологик-иқтисодий тизимда табиий ресурслардан фойдаланиш бош вазифа, уларни муҳофаза қилиш эса иккинчи даражали сифатида қараларди. Бундай шароитда инсонлар ҳаёти ва соғлиғини ҳимоя қилишнинг иқтисодий фаолиятдан устуворлигини таъминлаш, фуқароларнинг қулай атроф табиий муҳит шароитида яшаш, меҳнат қилиш ва дам олиш ҳуқуқини кафолатлаш иккинчи даражага суриб қўйилган эди.

Шундай қилиб, фуқароларнинг қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқи, атроф табиий муҳитни муҳофаза этиш билан боғлиқ бўлган мажбуриятлари, давлат органларининг атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш соҳасидаги ваколатлари билан боғлиқ вазифалар Конституция асосида тартибга солиниши лозим бўлган энг муҳим ижтимоий муносабатлардир. Шундан келиб чиққан ҳолда Ўзбекистон Республикасининг Асосий қонуни нормаларида атроф табиий муҳитни асраб-авайлаш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, давлатнинг атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш, экологик тизим барқарорлигини ва уларнинг мувозанатини таъминлаш функцияси, фуқароларнинг экологик ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, корхона, муассаса, ташкилотлар ва фуқароларнинг атроф табиий муҳитни

муҳофаза қилиш соҳасидаги мажбуриятлари каби ҳуқуқий муносабатлар атрофлича тартибга солинди.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг преамбуласида дунё конституциялари преамбуласи амалиётида учрамайдиган қоида, яъни “мамлакатимизнинг бебаҳо табиий бойликларини кўпайтириш ҳамда ҳозирги ва келажак авлодлар учун асраб-авайлаш ҳамда атроф-муҳит мусаффолигини сақлашга астойдил аҳд қилиб, ушбу Конституцияни қабул қиламиз ва эълон қиламиз” [4] таҳриридаги норма ўрнатилган. Ушбу норма миллатимизнинг она табиатга бўлган эътиборининг ёрқин ифодаси, унга Асосий қонуннинг преамбуласиданоқ конституциявий мақом берилишидир.

Экологик муносабатларни тартибга солувчи конституциявий қоидаларда табиат объектларига нисбатан мулкчилик муносабатларини аниқ ва мукаммал, бугунги кун ижтимоий-иқтисодий туб ислоҳотлар ва бозор муносабатлари талабларидан келиб чиқиб белгилашга алоҳида аҳамият берилди. Аҳоли фаровонлигини таъминлаш, миллий иқтисодиётни ривожлантириш, инсоннинг иқтисодий ҳуқуқларини рўёбга чиқаришнинг энг муҳим шартларидан бири ер ресурсларига нисбатан хусусий мулкчиликни ўрнатиш ва ҳуқуқий ҳимоясини таъминлаш ҳисобланади. Ер ресурсларига нисбатан хусусий мулк ҳуқуқининг конституциявий кафолатлари жамият тараққиётини ҳаракатга келтирувчи муҳим омиллардан саналади.

Шу сабабдан, Конституцияда ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, атмосфера ҳавосига умуммиллий бойлик сифатида давлат мулкчилиги ўрнатилиши билан бир қаторда томорқа ерлари, аҳолига хизмат кўрсатадиган бинолар (кафе, ресторан, сартарошхона, кичик ишлаб чиқариш бинолари, магазинлар жойлашган ер участкалари) жойлашган ер участкалари, чет эл элчихоналари жойлашган ер участкаларига хусусий мулкчиликнинг белгиланганлиги алоҳида аҳамият касб этади.

Чунончи, Конституциянинг 66-моддасида “Ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий ресурслар умуммиллий бойликдир, улардан оқилона фойдаланиш

зарур ва улар давлат муҳофазасидадир. Ер оқилона фойдаланиш ва уни умуммиллий бойлик сифатида муҳофаза қилишни таъминловчи шартлар асосида хусусий мулк бўлиши мумкин” [5], мазмунидаги қоида ўрнатилган.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясида Ўзбекистон Республикаси Президентининг табиий офат рўй берган ҳолатларда ваколатлари белгиланган. Чунончи, Асосий қонуннинг 109-моддасига кўра, Ўзбекистон Республикаси Президенти фавқулодда вазиятлар (реал ташқи хавф, оммавий тартибсизликлар, йирик ҳалокат, табиий офат, эпидемиялар) юз берган тақдирда фуқароларнинг хавфсизлигини таъминлашни кўзлаб, Ўзбекистон Республикасининг бутун ҳудудида ёки унинг айрим жойларида фавқулодда ҳолат жорий этади ва қабул қилган қарорини уч кун ичида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг палаталари тасдиғига киритади.

Мамлакатимизда давлатнинг экологик назорат функциясини кучайтириш, иқтисодиётнинг табиий ресурслардан оқилона фойдаланишга кўрсатаётган салбий таъсирини бартараф этиш каби муаммоларни ҳал этиш муҳим аҳамият касб этади. Шу мақсадда, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 49-моддасида “давлат фуқароларнинг экологик ҳуқуқини таъминлаш ва атроф муҳитга зарарли таъсир кўрсатилишига йўл қўймаслик мақсадида шаҳарсозлик фаолияти соҳасида жамоатчилик назоратини амалга ошириш учун шарт-шароит яратиши, шаҳарсозлик ҳужжатларининг лойиҳалари қонунда белгиланган тартибда жамоатчилик муҳокамасидан ўтказилиши, давлат барқарор ривожланиш принципига мувофиқ, атроф-муҳитни яхшилаш, тиклаш ва муҳофаза қилиш, экологик мувозанатни сақлаш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириши юзасидан чоралар кўриши” [6], таҳриридаги қоидалар мустаҳкамланди.

Бундан ташқари, фуқароларнинг қулай атроф табиий муҳитга эга бўлиш ҳуқуқи, атроф табиий муҳитни муҳофаза этиш билан боғлиқ бўлган мажбуриятлари, давлат органларининг атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш соҳасидаги ваколатлари билан боғлиқ вазифалар Конституция асосида тартибга солишга асосий эътибор

берилган бўлиб, унинг бир қатор нормаларида “ҳар ким қулай атроф-муҳитга, унинг ҳолати тўғрисидаги ишончли ахборотга эга бўлиш ҳуқуқига эга (49-модда), фуқаролар Ўзбекистон халқининг тарихий, маънавий, маданий, илмий ва табиий меросини асраб-авайлаши шарт, тарихий, маънавий, маданий, илмий ва табиий мерос давлат томонидан муҳофаза қилинади (61-модда), фуқаролар атроф табиий муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлишга мажбурдирлар (61-модда), мол-мулкдан фойдаланиш атроф-муҳитга зарар етказмаслиги, бошқа шахсларнинг, жамият ва давлатнинг ҳуқуқларини ҳамда қонуний манфаатларини бузмаслиги керак (66-модда), давлат ёшларнинг маданий, экологик ҳуқуқлари ҳимоя қилинишини таъминлайди” (79-модда) таҳриридаги нормаларнинг жой олганлиги давлат томонидан инсоннинг яшаш муҳити бўлмиш биосфера ва экология тизимлари барқарорлигини сақлаб қолиш, одамларнинг экологик жиҳатдан хавфсизлиги, инсон ва унинг келгуси авлодлари генетик фонди ҳақида ғамхўрлик қилишини таъминлашда муҳим роль ўйнайди.

Конституцияда ижро органларининг экологик функциясига алоҳида эътибор қаратилган бўлиб, унга кўра “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, табиий бойликларни ва биологик хилма-хилликни сақлаш, иқлим ўзгаришига, эпидемияларга, пандемияларга қарши курашиш ҳамда уларнинг оқибатларини юмшатиш соҳаларида ягона давлат сиёсати амалга оширилишини таъминлаши (115-модда), вилоятлар, туманлар, шаҳарлар ҳокимлари ҳудудларни иқтисодий, ижтимоий, маданий ва экологик жиҳатдан ривожлантиришни таъминлашга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириши (123-модда)” [7], мазмунидаги қоидаларнинг ўрин эгаллаганлиги ҳам шу мақсадларнинг рўёбга чиқишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021, 383-бет;

2. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082;

3. Ўзбекистон Республикасининг “Чиқиндилар тўғрисида”ги қонуни //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 2002, 4-5-сон, 72-модда;

4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2023;

5. Қонунчилик маълумотлар миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон;

6.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2023;

7. Ўша жойда.

АХТАМ ТУРСУНОВ,

Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси профессори, ю.ф.д., профессор

ШЕРЗОД ЗУЛФИҚАРОВ,

Давлат ҳуқуқий фанлар ва инсон ҳуқуқлари кафедраси бошлиғи, ю.ф.д., профессор, майор

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИДА САЙЛОВ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация: Мазкур мақолада охирги йилларда Янги Ўзбекистонда сайлов жараёнларида олиб борилаётган ислоҳотлар, сайлов тизимини аралаш тизимга ўтказиш, мажоритар ва пропорционал сайлов тизимлари афзаллик ва камчиликлари, ривожланган давлатлар сайлов тизими тажрибалари таҳили, якунда бу тизимнинг ижобий жиҳатлари каби масалалар атрофлича таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Стртегия, фармон, сайлов тизими, сиёсий партиялар, мандат, можаритар, пропорционал, квота, рўйхат, овоз

ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИЗБИРАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ В КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: В данной статье рассматриваются реформы, проведенные в избирательном процессе в Новом Узбекистане за последние годы, переход избирательной системы к смешанной системе, преимущества и недостатки мажоритарной и пропорциональной избирательных систем, опыт избирательной системы развитых странах, и наконец подробно анализируются положительные стороны этой системы.

Ключевые слова: Стратегия, указ, избирательная система, политические партии, мандат, большинство, пропорциональное, квота, список, голосование.

FEATURES OF IMPROVING THE ELECTORAL SYSTEM IN THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: This article examines the reforms carried out in the electoral process in New Uzbekistan in recent years, the transition of the electoral system to a mixed system, the advantages and disadvantages of the majoritarian and proportional electoral systems, the experience of the electoral system in developed countries, and finally, the positive aspects of this system are analyzed in detail.

Key words: Strategy, decree, electoral system, political parties, mandate, majority, proportional, quota, list, voting.

Алоҳида таъкидлаб ўтиш лозимки, сўнги йилларда Янги Ўзбекистон шароитида ҳар бир соҳада улкан ўзгаришлар ва янгиланишларни алоҳида қайд этиб ўтиш лозим. Биргина, “Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси”, “Янги Ўзбекистон маъмурий ислоҳотларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Президент фармони, “Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Президент фармони, “Ўзбекистон – 2030” Стратегияси ва унда белгиланган вазифаларни алоҳида таъкидлаш мумкин. Мазкур вазифаларни бажариш ҳозирги ислоҳотлар жаарёнида муҳим ва айни вақтда долзарб вазифадир.

Қолаверса, парламент ҳамда маҳаллий вакиллик органларининг фаолиятида сиёсий партияларнинг ролини янада кенгайтириш, вакиллик органларига сайланган депутатлар ва сенаторларнинг парламент ҳамда маҳаллий вакиллик органлари фаолиятидаги масъулияти ва фаоллигини ошириш, Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси фаолиятини такомиллаштириш ҳамда самарадорлигини ошириш, сайлов комиссиялари тизимини мақбуллаштириш ва марказлашган сайлов органлари тизимини шакллантириш, уларнинг профессионал тайёргарлигини таъминлаш зарурияти юзага келмоқда.

“Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига сайлов ва референдум ўтказиш тартибини янада такомиллаштиришга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Конституциявий қонун лойиҳаси[1], битта кодекс ва 7 та жорий қонунларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритишни назарда тутияпти. Дарҳақиқат, референдум ва сайловлар демократиянинг муҳим кўриниши ҳисбланади. Демак, доимий тарзда демократик тамойилларни, уни амалда тадбиқ этиш омилларни кенгайтириб бориш зарур ҳисобланади.

Ҳозирги демократик янгиланишларда сиёсий партияларнинг янада фаоллашуви, улар ўртасидаги ўзаро рақобатнинг кучайиши, партия ғоя ва мақсадларининг халқ ўртасида устуворлигини таъминлаш бўйича сайлов тизимининг аралаш усулига ўтилиши, бизнинг назаримизда сиёсий тизимда муҳим ўзгаришлардан бири бўлияпти десак хато қилмаган бўламиз. Бу янги тизим халқ вакиллиги институтини шакллантиришда муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Биз буни илгари ўзимиз олиб борган илмий тадқиқотларимизда ҳам алоҳида қайд этиб ўтганмиз.

Мазкур конституциявий қонун лойиҳасидаги муҳим ўзгаришлар сифатида қуйидагиларни алоҳида қайд этиб ўтиш лозим: Референдумни ташкил қилиш ва ўтказишдаги ўзгаришлар; Марказий сайлов комиссияларини шакллантириш, ваколат ва функцияларини кенгайтиришдаги янги нормалар; ҳудудий сайлов комиссиялар фаолиятини белгилаш; партиялар рўйхатини шакллантириш; партия

рўйхатидаги вакилларнинг сайловларда иштирокини ҳуқуқий кафолатлаш; сиёсий партия фракцияларини тузишдаги қулайликлар яратиш; халқ депутатлари вилоятлар ва Тошкент шаҳар Кенгашларидаги депутатлик ўринлари сонини аҳоли сонидан келиб чиққан ҳолда белгилаш; депутатнинг сайловчилар билан, сиёсий партия билан алоқасини янада мустаҳкамлаш каби ўзгаришлар, назаримизда жуда муҳим ва ҳар томонлама чуқур таҳлилдан ўтиб, кенг жамоатчиликка тақдим этилган лойиҳа сифатида баҳолашимизга имкон беради, десак адашмаган бўламиз.

Эътибор қаратадиган бўлсак, Янги таҳрирдаги Конституциямизнинг XXII боби [2] (илгари 23-боб эди), айнан Сайлов тизимига бағишланган. Мазкур бобда Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари давлат ҳокимияти вакиллик органларига сайлаш ва сайланиш ҳуқуқига эгалиги; Сайловлар ўтказиш муддати, сайлов ҳуқуқинеинг асосий принциплари; фуқароларнинг сайлов ҳуқуқларини тўғридан-тўғри ёки билвосита чеклашга йўл қўйилмаслиги; Ўзбекистон Республикаси фуқароси бир вақтнинг ўзида иккидан ортиқ давлат ҳокимияти вакиллик органининг депутати бўлиши мумкин эмаслиги; сайлов ўтказиш тартиби қонун билан белгиланиши каби муҳим масалалар белгилаб қўйилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 8 майдаги «Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ–67-сонли Фармонининг 8-бандида [3] Олий Мажлис палаталари ва сиёсий партияларнинг Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва маҳллий Кенгашлар депутатлари корпусини шакллантиришнинг мажоритар-пропорционал шаклига асосланган сайлов тизимини жорий этиш ҳақидага таклифи мақулланган ҳамда Олий Мажлис Қонунчилик палатасига бир ой муддатда мажоритар-пропорционал шаклига асосланган сайлов тизимига ўтишни назарда тутувчи қонун лойиҳасини ишлаб чиқиш тавсия этилган.

Қолаверса, 2023 йил сентябрь ойида қабул қилинган “Ўзбекистон – 2030” стратегиясининг тўртинчи йўналиш, 4.1 банди (“Халқ

хизматидаги давлат бошқарувини ташкил этиш ва жамоатчилик бошқарувини такомиллаштириш бўйича ислоҳотлар”)нинг 79-мақсади сифатида, “Демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш ва мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини янада кучайтириш мақсадида вакиллик органларига сайловнинг аралаш (мажоритар-пропорционал) тизимини жорий қилиш” вазифаси қўйилган. Албатта мазкур мақсад, сиёсий партияларнинг янада фаоллашувига, сайловлар жараёнида ўзининг ҳақиқий ўрни ва ғоявий устуворлигини намоён қилишига муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Шуни алоҳида қайд этиш лозимки, давлат ҳокимияти вакиллик органларини шакллантиришда, улар аъзоларининг фаолиятида сайлов тизимининг ўрни ва аҳамияти жуда каттадир. Сайлов тизими бу фуқаролик жамиятида давлатнинг вакиллик органларини сайлаш йўли билан юзага келувчи давлат ва жамият муносабатлари тизимидир.Сайловнинг ўзига хос жиҳатларидан бири сиёсий партиялар ролининг ортиши ва фуқароларнинг ўз хоҳиш-иродаларини изҳор этишларидир. Ўз навбатида, депутатлик мандатларига кимлар номзодларини таклиф этиши, депутатни сайлашда сайловчиларнинг қай миқдордаги овозлари зарур эканлиги, номзодларни таклиф этган сиёсий партиялар орасида депутатлик мандатлари қандай тақсимланиши, сайловларни ташкил қилиш тартиби ва натижаларини аниқлашнинг қонунийлиги кафолати ҳисобланади.

Мажоритар сайлов тизими – французча «majorite» сўзидан олинган бўлиб, кўпчилик деган маънони англатади. Сайлов тизимининг ушбу турида қонун билан белгиланган сайловчиларнинг кўпчилик овозини олган номзод мазкур округ бўйича депутат сифатида сайланган ҳисобланади. Ўзбекистондаги каби Буюк Британия, АҚШ, Мексика ва бошқа давлатларда ҳам мажоритар сайлов тизими амал қилади.

Нисбий кўпчиликка ва мутлақ кўпчиликка асосланган мажаритар сайлов тизимлари:

Нисбий кўпчилик сайлов тизими бошқа сайлов тизимларига нисбатан анча содда ҳисобланиб, бундай тизим амалда бўлган мамлакатларда, сайловда қатнашаётган номзодлардан қайси бири рақибларига нисбатан кўпроқ овоз олса, у сайланган ҳисобланади. Ушбу тизим ўзининг хусусиятига кўра, фақат бир турда натижа беришлиги билан самаралидир. Нисбий кўпчилик сайлов тизимида фақат бир ҳолатда икки ёки ундан ортиқ номзоднинг бир хил овоз олганларидагина ғолиб аниқланмай қолиши мумкин, лекин бундай ҳолат жуда ҳам кам учрайди. Ушбу тизим жаҳоннинг 150 мамлакатида қўлланиб, одатда, сайлов бўлиб ўтганлиги учун асос сифатидаги сайловчиларнинг қатнашиш меъёри белгиланмайди: агар сайловда биргина сайловчи қатнашган бўлса ҳам сайловлар бўлиб ўтган ҳисобланади. Нисбий кўпчилик сайлов тизимининг камчилик томони шундаки, таъсир жиҳатдан ўрта ва кичик партияларга давлат миқёси даражасига чиқишга имконият кам яратади. Мисол тариқасида эллик минг сайловчи бор бўлган муайян сайлов округидан тўртта номзод кўрсатилганда, А партия номзоди 19 минг, Б партия номзоди 12 минг, В партия номзоди 10 минг, Г партия номзоди 9 минг овоз олганда депутатлик мандати А номзод партиясига тегишли бўлади, ваҳоланки, унга қарши сайловчиларнинг ярмидан кўпи (31 мингта) овоз берган.

Мутлақ кўпчилик сайлов тизими шундан иборатки, номзод сайланган деб ҳисоблаш учун у сайловчиларнинг ярмидан кўпининг қўллаб-қувватланишига, яъни 50%+1сайловчилар овозини олиши лозим. Масалан, сайлов мавзесида сайланиш учун 3 та номзод қўйилган (А,Б,В). Берилган 10.000 овоз қуйидагича тақсимланди: А- 3000, Б- 1990, В -5010. Бунда 5010 овоз олган В мутлақ кўпчилик овозини олган ҳисобланиб, сайланади.

Ушбу тизим амалда бўлган мамлакатларда, одатда сайловлар бўлиб ўтганлигини тасдиқлаш учун асос бўладиган сайловда сайловчиларнинг қатнашганлигининг қуйи фоизи белгиланган бўлади. Агар қонун ёки бошқа норматив хужжатларда белгиланган миқдорда овоз берувчилар сайловларда қатнашмаса, сайловлар ўтмаган ҳисобланади.

Мутлақ кўпчилик овозига асосланган мажоритар тизимнинг ўзига хослиги шундан иборатки, юқорида келтирилган мисолимизда мутлақ кўпчилик (5010) овозини олган В номзод сайланди, қолган икки номзодга берилган (4990, салкам 50%) овоз эса «йўқолиб» кетади ва натижада А ва Б номзодларга овоз берган сайловчилар ўз вакилларини парламентга ўтказа олмайдилар.

Тарихда 20-асргача сайловлар институти соф мажоритар шаклда мавжуд бўлган. Партия рўйхати бўйича сайловлар биринчи марта 1899-йилда Белгияда жорий этилган бўлиб, икки даврали мажоритар тизим ўрнига; 1906 йилда улар Финляндияда синфий сайловларни алмаштирдилар; 1909 йилда Швециядаги малака сайловларини алмаштириш; 1919 йилда Германия, Австрия, Италияда бир мандатли сайлов округларидаги сайловларни икки турда алмаштириш; 1921 йилда Латвия ва Эстонияда синфий сайловлар ўрнига; Дания ва Норвегияда бир мандатли округ сайловларини бир турга алмаштириш; кейин Польша, Литва ва Чехословакияда жорий этилди.

Очиқ рўйхатлар билан пропорционал тизим (сайловчилар нафақат партияни, балки ундан ўзлари маъқул кўрган номзодларни ҳам танлашлари мумкин) – Белгия, Нидерландия, Люксембург Дания, Швеция, Норвегия, Исландия, Финляндия, Австрия, Швейтсария, Греция, Полша, Словакия, Словения, Хорватия, Латвия, Эстония, Босния ва Гертсеговина.

• ёпиқ рўйхатлар билан пропорционал тизим - Италия, Испания, Португалия, Черногория, Македония, Сербия, Исроил, Албания, Туркия.

Сайлов округларига қараб:

• Ягона кўп мандатли сайлов округида – Россия, Исроилда сайловлар.

• Кўп мандатли сайлов округлари бўйича сайловлар - 1919-1933 йилларда Германия, Австрия, Полша, Чехия, Швеция, Финляндия, Дания, Норвегия, Белгия.

Бу тизимнинг асосий мақсади сайловларда олинган овозлар билан амалда парламентда эгалланган мандатлар мутаносиблигини таъминлашдир. Яъни, масалан, бир партия сайловда 30% овоз олган

бўлса, парламентда 30% мандатга эга бўлиши, сайловда 15% овоз олган партия эса тегишлича 15% мандатга эга бўлиши керак.

Сайловлар натижасини аниқлашда ҳар бир депутатлик мандатини олиш учун зарур бўлган овозлар миқдори белгиланади. Бу миқдор ҳар бир сайлов округи учун алоҳида қилиб белгиланиши ёки бутун давлат ҳудуди учун бир хил бўлиши ҳам мумкин. Пропорционал сайлов тизимида мандатларни тақсимлашда, олинган овозларни санаб чиқиш усули жуда муҳим ўрин тутади. Овозларни ҳисоблаб чиқишда, турли математик усулларни қўллаш билан боғлиқ бўлган бир нечта усуллар бўлиб, булардан энг осони инглиз олими Т.Хэр томонидан таклиф қилинган усулдир. Бунга кўра, мандатлар ҳиссасини (квота-Q) аниқлаш учун сайловда берилган умумий овозни (Х) сайлов округидаги мандатлар сонига (У) бўламиз. Буни қўйидагича шартли ифода билан бериш мумкин: Q =Х : У.

Квотани аниқлаб олгач, ҳар бир партия томонидан тўпланган овозларни квотага бўламиз. Шунда ҳар бир партиянинг қанча мандатга эга бўлиши келиб чиқади. Агар шундан кейин яна тақсимланмаган мандатлар қоладиган бўлса, улар энг кўп овозлар қолдиғи бўлган партияларга тақсимланиб берилади ва шу тариқа, барча мандатлар тақсимланади. Бу тақсимлашни қўйидаги мисолда кўрсатиш мумкин.

Пропорционал сайлов тизимининг афзалликлари ва камчиликлари:

-тизим ҳар бир сиёсий партияга овозлар сонига мутаносиб равишда бир қатор ўринларни олиш имконини беради;

-аҳоли манфаатларини акс эттирувчи партиялар, жумладан, ўрта ва кичик партияларнинг парламентга кириш имконияти, бу эса сиёсий тизимга ишончни оширади;

-парламентнинг бўлинишини бартараф этиш, шунингдек, унга радикал шахслар кириб келишининг олдини олиш имконини беради.

Бунинг шарофати билан мамлакат аҳолисининг аксарият қисмининг манфаатлари ифода этилмоқда.

Қолаверса, пропорционал тизимнинг камчиликлари ҳам мавжуд. Бу нобарқарор ҳукуматнинг фаолият юртишидир. Сиёсий кучлар, бу

ҳеч бир партиянинг барқарор кўпчиликка эга бўлишига имкон бермайди ва шаклланишига олиб келади, ҳар қандай блоклар. Ушбу уюшмалар (блоклар) асосан турли хил бўлиб, кўпинча ҳукуматни инқирозга олиб келади. Мажоритар ва пропорционал тизим камчиликларидан қутулиш учун улар аралаш тизимни туздилар ва ривожлантирдилар.

Аралаш сайлов тизими мажоритар ва пропорционал сайлов тизимларини бирлаштириш принципига асосланган жараёндир. Аралаш тизимнинг қўлланилиши икки тоифадаги депутатларнинг сайланишига олиб келади. Биринчиси, сайлов округидаги сайловчилар билан анча боғлиқ бўлган депутат бўлиб ўз сайловчилари олдида ўз масъулиятини сезади. Иккинчиси, партия рўйхати воситасида сайланган депутат бўлиб, у маълум округ сайловчиларига унча таниш бўлмаслиги мумкин, чунки, сайловчи овоз берганда, алоҳида номзод учун эмас, балки партия рўйхати учун овоз беради. Натижада, сайланган депутат ўзини муайян сайлов округи сайловчилари олдида эмас, балки уни рўйхатга киритган партия раҳбарлари олдида ҳисобдор сезади.

Эътибор қаратадиган бўлсак, қўшни давлатларимиз Россия, Қозоғистон, Тожикистон, Ўзбекистон, Грузия давлатларида аралаш сайлов тизимидан; Армения, Украина, Қирғизистон давлатлари пропорционал тизимдан; Беларусь, Озарбайжон, Туркманистон давлатларида эса можаритар сайлов тизимидан фойдаланилади.

Бизнинг назаримизда, истиқболда мазкур халқаро тажрибалардан келиб чиққан ҳолда давлат ҳокимияти вакиллик органларини шакллантиришда аралаш сайлов тизимидан фойдаланилса, мақсадга мувофиқ бўлар эди. Муҳтарам Президентмиз Ш.М.Мирзиёев ҳам ўзининг маърузаларида сиёсий партияларнинг жамиятда етакчи куч сифатида ўз ролини оширишга, ўз электоратининг манфаатларини ҳимоя қилишда, давлат бошқарувидаги иштироки ўрнини кучайтиришга алоҳида эътибор қаратмоқдалар. Бу тизим фуқароларимизга сайловларда иштирок этаётган сиёсий партияларнинг дастур ва сайловолди платформалари билан яқиндан танишиш имкониятини, партиялар ўртасида ўзаро рақобатлашув

кайфиятининг ошишига, бир сўз билан айтганда жамиятда ўз ўрини мустаҳкамлашга, ўз сўзини айтиш имкониятини яратиб беради.

2023 йил октябрда эълон қилинган "Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига сайлов ва референдум ўтказиш тартибини янада такомиллаштиришга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида"ги Конституциявий қонун лойиҳасидан келиб чиқиб, сайлов тизими билан боғлиқ қуйидаги ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш назарда тутилмоқда:

I. Сайлов кодексига қуйидаги ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш таклиф этилмоқда: 1) Қонунчилик палатаси сайловини аралаш (мажоритар, пропорционал) сайлов тизими асосида ўтказиш таклиф этилмоқда. Жумладан:

а) сайлов округлари бир мандатли ва ягона сайлов округларига ажратилмоқда;

б) Қонунчилик палатасининг 75 нафар депутати мажоритар сайлов тизими асосида бир мандатли сайлов округларидан, қолган 75 нафари пропорционал сайлов тизими (номзодлар рўйхати) асосида сиёсий партияларга берилган овозлар бўйича ягона сайлов округидан сайланиши белгиланмоқда;

в) ягона сайлов округида депутатликка номзодлар сиёсий партиялар томонидан номзодлар рўйхати асосида тақдим этилиши назарда тутилмоқда; д) партия рўйхатини рўйхатга олиш муддатлари ва тартиботлари белгиланмоқда;

е) партия рўйхатидан депутатликка номзодни чиқариш, Партия рўйхати асосида шакллантирилган ва бўшаб қолган Қонунчилик палатаси депутатлари ўрнини тўлдиришга доир нормалар белгиланмоқда;

ж) ягона сайлов округи бўйича Қонунчилик палатаси депутатлигига сайлов натижаларини аниқлаш ва депутатлик ўринларини тақсимлаш тартиби белгиланмоқда.

Мазкур ўзгартиришларга алоҳида тўхталиб ўтадиган бўлсак, Конституциявий қонун лойиҳасида қуйидаги масалаларга ҳам алоҳида эътибор қаратилган. Хусусан:

Сиёсий партиялар:

- Бир мандатли сайлов округлари бўйича депутатликка етмиш беш нафар номзод, яъни ҳар бир сайлов округидан биттадан депутатликка номзод кўрсатишга;

- партия рўйхати бўйича етмиш беш нафардан кам бўлмаган, юз нафардан кўп бўлмаган депутатликка номзодлар кўрсатишга ваколатлидир.

Бир мандатли сайлов округларида айни бир шахс фақат битта сайлов округидан депутатликка номзод этиб кўрсатилиши мумкин. Партия рўйхатига киритилган номзодлар ушбу сиёсий партиянинг аъзолари ёки партиясиз бўлиши мумкин. Бошқа сиёсий партиянинг аъзолари ушбу рўйхатга киритилиши мумкин эмас. Айни бир номзод фақат битта партия рўйхатига киритилиши мумкин. Бир мандатли сайлов округлари бўйича кўрсатилган номзодлар партия рўйхатига киритилиши мумкин эмас. Депутатликка номзодларни танлаш тартиби сиёсий партиялар томонидан белгиланади. Аёлларнинг сони сиёсий партиядан кўрсатилган депутатликка номзодлар умумий сонининг камида ўттиз фоизини ташкил этиши керак, шунингдек партия рўйхатидаги кетмакетликда камида ҳар учта номзоднинг бир нафари аёл киши бўлиши лозим.

Сайлов кодексига киритилиши назарда тутилаётган янги, **40^1-моддада,** Партия рўйхатини рўйхатга олиш Партия рўйхати Марказий сайлов комиссияси томонидан рўйхатга олинади. Партия рўйхатини рўйхатга олиш учун тегишли ҳужжатлар сиёсий партиянинг ваколатли вакили томонидан рўйхатга олиш муддати тугашига камида етти кун қолгунга қадар Марказий сайлов комиссиясига тақдим этилади. Партия рўйхатини белгиланган тартибда рўйхатга олиш сайловга ўттиз беш кун қолганида тугалланади. Партия рўйхати белгиланган тартибда рўйхатга олинганидан кейин беш кунлик муддатда Марказий сайлов комиссияси рўйхатга олинганлик тўғрисидаги хабарни сиёсий партиянинг номи, рўйхатдаги номзодларнинг фамилияси, исми, отасининг исми, туғилган санаси, эгаллаб турган лавозими (машғулотининг тури), иш ва яшаш жойини кўрсатган ҳолда эълон

қилади. Партия рўйхати белгиланган тартибда рўйхатга олинганидан сўнг, ушбу рўйхатга киритилганлар депутатликка номзод мақомини олади ва уларга гувоҳнома берилади.

Сайлов кодексига киритилиши назарда тутилаётган янги **96-моддада:**

«Сайловда: бир мандатли сайлов округлари бўйича овоз беришда иштирок этган сайловчиларнинг бошқа номзодларга нисбатан кўпроқ овозини олган номзод сайланган деб ҳисобланади; Қонунчилик палатасига сайловда ягона сайлов округи бўйича овоз беришда иштирок этган сайловчиларнинг камида етти фоиз овозини олган сиёсий партиялар белгиланган тартибда мандатга эга бўлади. Сайлов қуйидаги ҳолларда ўтмаган деб топилади: агар унда сайловчилар рўйхатига киритилган сайловчиларнинг ўттиз уч фоизидан ками иштирок этган бўлса; агар Қонунчилик палатасига ягона сайлов округи бўйича ўтказилган сайловда иштирок этган сиёсий партияларнинг ҳеч бири сайловда иштирок этган сайловчиларнинг камида етти фоиз овозини тўпламаган бўлса.

Сайлов кодексига киритилиши назарда тутилаётган янги **«96[1] - моддада,** Ягона сайлов округи бўйича Қонунчилик палатаси сайлови натижаларини аниқлаш ва депутатлик ўринларини тақсимлаш тартиби Ягона сайлов округи бўйича сайланадиган Қонунчилик палатасининг депутатлик ўринлари ушбу сайловда иштирок этган сайловчиларнинг етти фоизи ва ундан кўпроқ овозини тўплаган сиёсий партиялар ўртасида тақсимланади. Ягона сайлов округи бўйича сайланадиган Қонунчилик палатасининг депутатлик ўринлари сайловда иштирок этган сайловчиларнинг етти фоизидан камроғи ёқлаб овоз берган сиёсий партиялар ўртасида тақсимланишига йўл қўйилмайди, бундан ушбу модданинг учинчи қисмида назарда тутилган ҳоллар мустасно. Агар сайловда иштирок этган сайловчиларнинг етти ва ундан кўпроқ фоиз овозини фақат битта сиёсий партия тўплаган бўлса, унда депутатлик ўринлари сайловда сайловчиларнинг овозини энг кўп тўплаган иккинчи сиёсий партияга ҳам тақсимланади.

Тақсимланадиган депутатлик ўринлари қуйидаги кетма-кетликда ҳисобланади: 1) ушбу модданинг биринчи, иккинчи ва учинчи қисмларига мувофиқ депутатлик ўринлари тақсимланадиган сиёсий партияларга ёқлаб берилган умумий овозлар сони аниқланади; 2) ушбу қисмнинг 1-бандига мувофиқ аниқланган овозлар сони етмиш бешга бўлинади. Олинган натижа сайлов коэффициенти ҳисобланади; 3) ушбу модданинг биринчи, иккинчи ва учинчи қисмларига мувофиқ депутатлик ўринлари тақсимланадиган ҳар бир сиёсий партияга ёқлаб берилган овозлар сони сайлов коэффициентига бўлинади ва шу орқали аниқланган соннинг бутун қисми ҳар бир сиёсий партияга тақдим этиладиган депутатлик ўрнига тенг бўлади. Агар ушбу модданинг тўртинчи қисмида белгиланган тартибда депутатлик ўринлари тақсимлангандан сўнг, тақсимланмаган депутатлик ўринлари мавжуд бўлса, қолган депутатлик ўринлари ушбу модданинг олтинчи қисмида назарда тутилган тартибда тақсимланади.

Тақсимланмаган депутатлик ўринлари ушбу модда тўртинчи қисмининг 3-бандида аниқланган соннинг қолдиқ қисми (вергулдан кейин олтита рақамгача) юқори бўлган сиёсий партияларга биттадан мандат бериш орқали тақсимланади. Қолдиқ қисми тенг бўлган тақдирда, устуворлик кўпроқ овоз тўплаган сиёсий партияга берилади. Марказий сайлов комиссияси депутатлик мандатларини сиёсий партиялар ўртасида тақсимлаш тўғрисида баённома тузади. Партия рўйхати бўйича сайланган депутатлар ўртасида депутатлик мандатларини тақсимлаш Марказий сайлов комиссияси томонидан рўйхатга олинган партия рўйхатига киритилган депутатликка номзодлар кетма-кетлигига мувофиқ амалга оширилади.

Марказий сайлов комиссияси сайлов якунлари тўғрисидаги баённомани имзолаганидан сўнг бу ҳақда депутатлик мандатлари тақсимланган сиёсий партияларни ва сайланган депутатларни дарҳол хабардор қилади. Қонунчилик палатаси депутати этиб сайланган шахслар хабарни олгандан сўнг уч кун ичида Марказий сайлов комиссиясига Қонунчилик палатаси депутатининг мақомига тўғри келмайдиган вазифаларни ўз зиммасидан соқит қилганлиги тўғрисида

ёзма шаклда маълум қилиши шарт. Партия рўйхати бўйича сайланиб, мандатга эга бўлган депутат ушбу модданинг ўнинчи қисмида назарда тутилган талабни бажармаган ёки мандатдан ихтиёрий равишда воз кечган тақдирда, Марказий сайлов комиссияси партия рўйхатидаги тартиб рақам бўйича кейинги номзодга бир кунлик муддатда хабар беради. Кейинги номзод ушбу модданинг ўнинчи қисмида назарда тутилган талабларни бажарган тақдирда, Марказий сайлов комиссияси номзодни Қонунчилик палатасига депутат сифатида рўйхатга олади. Ушбу модданинг ўнинчи ва ўн биринчи қисмларида назарда тутилган тартиб рўйхат бўйича тақсимланган депутатлик ўрни тўлдирилгунга қадар амалга оширилади»;

Юқорида билдирилган фикр ва мулоҳазалар ҳамда келтирилган аниқ манбаларга таянга ҳолда қуйидаги таклифларни илгари суриш мумкин:

Биринчидан, алоҳида мазкур Конституциявий қонун лойиҳаси асосида бир мандатли сайлов округида натижаларни ҳисоблаб чиқиш нисбий кўпчилик овози асосида амалга ошириши илгар сурилмоқда. Ҳозирги амалда бўлган мутлоқ кўпчилик овозига таянилган жараёнда бир нечта муаммолар кўзга ташаланди. Хусусан, мазкур тартибда сайловларнинг 2 тургa қолиши; ортиқча харажат ва вақтнинг; талаб этилиши; табиий равишда сайловларда фуқароларнинг сиёсий фаоллигининг сусайиши, очиқ айтганда кўпчиликнинг сайловларда иштипок этмаслиги; халқаро кузатувчиларнинг кўпчилиги биринчи босқич тугвш билан қайтиб кетиши қайтиб кетиши (изоҳ сифатида, такрорий овоз бериш 2 ҳафта муддат ичида ўтиши); кенг жамоатчиликнинг сайловларга қизиқишнинг пасайиши.

Иккинчидан, янги сайлов тизими сифатида номзодлар рўйхати бўйича партия рўйхатини шакллантириш механизмини ишлаб чиқиш тенглик, қонунийлик, адолатлилик ва шаффофли тамойилларига таянга ҳолда ишлаб чиқиш лозим. Ҳар бир партияга қонунчиликда номзодлар рўйхатини мустақил шакллантириш ваколати берилмоқда. Шу нуқтаи назардан партиялар ҳар бир номзодни партия рўйхатига киритишда етти ўлчаб бир кесмоғи лозим;

Учинчидан, Европа давлатлари тажрибасида парламент сайловлари жараёни жуда қизғин, рақобатда ва кўтаринки кайфмиятда бўлиб ўтади. Бундай ижобий жараённин юзага келтириш биринчи навбатда сиёсий партияларга боғдиқ. Сиёсий партиялар жамиятда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг ташаббусорк бўлиши ва буни сайлволарда ўзининг фаоллиги билан намоён қилиш лозим бўлади. Шундай экан, сайловлар жараёнида иштирок этувчи сиёси партиялар ҳам ўзинин то маънодаги ҳақиқий электротига, қўллаб – қувватловчи кучига эга бўлиши лозим. Янги тизим орқали сиёсий партиялар ўзининг сўзини айтиши, ўрнини билдириши, сиёсий менлик руҳиятини акс эттириш лозим бўлади. Бу аралаш тизимнинг муҳим жиҳати ҳам шуки, сиёсий партияларнинг валиик органида ўринларни олишда имконият юқори ҳисобланади, яъниким, қанча овоз олса, шунча ўринга эга бўлади**.**

Хулоса қилиб айтганмизда, мазкур янги сайлов тизими орқали сиёсий жараёнларга янада рақобатлашув руҳияти киради, сиёси йпартияларнинг янада фаоллашувига, жамиятда ўзининг нуфузини кўрсатиш имконияти кенгаяди.

Фойдланилган адабиётлар:

1. project.gov.uz. 2023 йил 10 октябрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот тизими, 2023 й. – Б.96.
3. “Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Президент фармони. Халқ сўзи. 2023 йил, 8 май.

РУСТАМ РЎЗИЕВ,

Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети профессори, юридик фанлар доктори

ХУСУСИЙ МУЛК ДАХЛСИЗЛИГИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ ҲУҚУҚИЙ КАФОЛАТИ ХУСУСИДА

Аннотация. Мақолада янги таҳрирдаги Ўзбекистон

Республикаси Конституциясининг 12-боби нормалари кесимида мулк, мулк шакллари тенглиги ва ҳимояланганлиги ҳамда хусусий мулк дахлсизлиги масалалари ёритилган.

Калит сўзлар. Мулк ва мулкчилик муносабатлари; мулкнинг ҳуқуқий ҳолати; мулк шаклларининг тенглиги ва ҳимояланганлиги; шахсий ва ижтимоий-иқтисодий ҳуқуқлар; хусусий мулк дахлсизлиги.

О КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВОЙ ГАРАНТИИ НЕПРИКОСНОВЕННОСТИ ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ

Аннотация. В статье освещены вопросы собственности, равенства и защищенности форм собственности, а также неприкосновенности частной собственности в контексте норм главы 12 Конституции Республики Узбекистан в новой редакции.

Ключевые слова. Собственность и отношения собственности; правовое положение собственности; равенство и защита форм собственности; личные и социально-экономические права; неприкосновенность частной собственности.

ON THE CONSTITUTIONAL LEGAL GUARANTEE OF THE INVIOLABILITY OF PRIVATE PROPERTY

Annotation. The article highlights issues of property, equality and protection of forms of ownership, as well as the inviolability of private property in the context of the norms of Charter 12 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in the new edition.

Key words. Property and relations of property; legal status of property; equality and protection of forms of ownership; personal and socio-economic rights; inviolability of private property.

Шубҳасиз, амалга оширилаётган янгиланишларнинг ҳуқуқий кафолати сифатида, авваламбор, юксак инсонпарварлик ғояларини ўзига сингдирган Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ҳисобланади. Зеро, Конституция иқтисодиётимизнинг манбаи сифатида мулк ва унинг ҳуқуқий асослари, жамият ва фуқаролар фаровонлигини таъминлаш, мамлакатимиз тараққиёти ва иқтисодий ҳаётида олиб борилаётган ислоҳотларни амалга оширишдек улуғ мақсадга хизмат қилади. Бунда Юртбошимизнинг ”Янгиланган

Конституция мамлакатимизнинг узоқ муддатли стратегиялари, умуман, ватанимиз ва халқимизнинг эртанги фаровон ҳаёти учун мустаҳкам ҳуқуқий асос ҳамда ишончли кафолат яратиши лозимлиги”[1] хусусидаги пурмаъно сўзларини эслаш ўринли.

Иқтисодиётнинг самарали амал қилиши ва халқ фаровонлиги ўсишига имконият яратувчи омил мулк ҳисобланиб, мамлакатимиз қонунчилигида мулкнинг ҳар қандай шаклларига рухсат берилган. Бунинг тасдиғи сифатида Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 65-моддасида “Фуқаролар фаровонлигини оширишга қаратилган Ўзбекистон иқтисодиётининг негизини хилма-хил шакллардаги мулк ташкил этади” деб белгилаб қўйилганлигини эътироф этиш лозим.

Эътиборли жиҳати, давлат мулкнинг хилма-хил шакллари замирида бозор муносабатларини ривожлантириш, ҳалол рақобат учун шарт-шароит яратиш, истеъмолчиларнинг ҳуқуқлари устуворлигини таъминлаш, иқтисодий фаолият, тадбиркорлик ва меҳнат қилиш эркинлигини кафолатлаш орқали фуқаролар фаровонлигини оширишга эришишни ўз олдига мақсад қилиб қўйганлигидир.

Жамиятнинг иқтисодий негизи ундаги мавжуд мулкчилик муносабатларига асосланиши нуқтаи-назариданм мулк нафақат ҳуқуқий мазмунга, балки иқтисодий маънога ҳам эга. Мулк инсонларнинг эрки-иродасидан ташқарида вужудга келади. Кишилар меҳнати билан яратилган ёки табиат томонидан инсонларга берилган бойликлар ҳар доим мулк бўлиб келган. Мулк биринчидан, кишининг ашёга нисбатан эгалик ҳис-туйғуси билан боғлиқ бўлса, иккинчидан, ушбу ашё хусусида кишилар ўртасида вужудга келадиган муносабатдир. Демак, бир сўз билан айтганда, мулк ашё ва унга нисбатан эгалик ҳисси билан боғлиқ муносабатлардан иборат. Ўз навбатида, мулкий муносабатлар қонунлар билан тартибга солинади ва уларнинг таъсири остида мулкий ҳуқуқий муносабатлар сифатида намоён бўлади.

Қоида тариқасида мулк иқтисодий ва юридик маънолардаги шаклларга бўлинади. Иқтисодий маънодаги мулк шакллари

дейилганда, моддий неъматларни ўзлаштириш усулларининг йиғиндиси тушунилади ва бундай усуллар якка тартибда ёки жамоат бўлиб ёхуд давлат томонидан амалга оширилади. Юридик маънодаги мулк шакли эса – моддий неъматларни муайян субъектларга тегишли бўлишини мустаҳкамловчи ва тегишли мулкнинг ҳуқуқий режимини белгиловчи ҳуқуқий меъёрлар йиғиндисини англатади.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг юқорида тилга олинган 65-моддаси мамлакатимизда мулк шаклларининг турли хил бўлиши мумкинлигини ўзида ифодалаш билан бирга қонунда белгиланган асослар ва тартибга мувофиқ вужудга келган мол-мулкнинг миқдорини чегараламайди. Таъкидлаш жоизки, ушбу норма ҳалол рақобат шароитида истеъмолчиларнинг ҳуқуқлари устуворлигини таъминлаган ҳолда қонуний тадбиркорлик ва меҳнат қилиш натижасида орттирилган мол-мулкнинг ҳажми, сони, миқдори чекланмаслигини назарда тутади.

Ўзбекистон Республикасида юридик маънодаги мулкнинг хусусий ва оммавий шакллари мавжуд бўлиб, ўз навбатида, хусусий мулк якка шахсга тегишли мулк (фуқаролар мулки) ва нодавлат юридик шахслар мулки кўринишига бўлинади. Оммавий мулк таркибига эса Ўзбекистон Республикаси мулки ва маъмурий-ҳудудий тузилмалар мулки (муниципал мулк) киради.

Мулк шаклларининг бундай туркумланишида мулк субъекти мақоми ва мол-мулк режимининг узвий бирлиги асосий мезон бўлиб ҳисобланади. Бундан ташқари Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 65-моддаси мулкнинг бошқа шакл ва кўринишларда ҳам бўлиши мумкинлигини эътироф этади. Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида мулкчилик тўғрисида”ги Қонуни 5-моддасида мулкнинг анъанавий икки шаклидан ташқари жамоа мулки, аралаш мулк, бошқа давлатлар ҳамда халқаро ташкилотлар юридик ва жисмоний шахсларининг мулки каби кўринишларда бўлиши ҳам кўзда тутилган. Ҳар қандай ҳолларда ҳам давлат мулкнинг хилма-хил шаклларини ривожлантириш учун уларнинг қонуний тенглигини таъминлайди ва ҳимоясини кафолатлайди.

Мамлакатимизда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар асосини ташкил этувчи мулк шаклларидан бири бўлган хусусий мулк қонун ҳужжатларига мувофиқ тарзда қўлга киритилган ҳар қандай нарсалар бўлиши мумкин. Хусусий мулк ҳуқуқи шахснинг қонун ҳужжатларига мувофиқ тарзда қўлга киритган мол-мулкка эгалик қилиш, ундан фойдаланиш ва уни тасарруф этиш ҳуқуқи бўлиб, унинг миқдори ва қиймати чекланмайди. Фуқаролар, хўжалик ширкатлари ва жамиятлари, кооперативлар, жамоат бирлашмалари, жамоат фондлари ва давлатга қарашли бўлмаган бошқа юридик шахслар хусусий мулк ҳуқуқининг субъектлари ҳисобланади. Қонун билан ман этилган айрим ашёлардан ташқари ҳар қандай мол-мулк хусусий мулк бўлиши мумкин.

Юқорида таъкидлаганимиздек, оммавий мулк республика ва маъмурий-ҳудудий тузилмалар мулкидан (муниципал мулк) иборат бўлиб, республика мулкига – ер, ер ости бойликлари, сув, ҳаво бўшлиғи, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий бойликлар, давлат ҳокимияти ва бошқаруви республика органларининг мол-мулки, давлат аҳамиятига эга бўлган маданий ва тарихий бойликлар, республика бюджетининг маблағлари, олтин захираси, давлатнинг валюта фонди ва бошқа фондлари киради. Шунингдек, корхоналар ва бошқа мулкий комплекслар, ўқув, илмий, илмий-тадқиқот муассасалари ва ташкилотлари, интеллектуал фаолият натижалари, башарти булар бюджет ёки давлатнинг ўзга маблағлари ҳисобидан яратилган ёки сотиб олинган бўлса ва бошқа айрим мол-мулклар ҳам республика мулки бўлиши мумкин.

Республика мулки – республика бюджетига тушадиган солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар ҳисобидан, шунингдек, қонунларда назарда тутилган асосларга кўра бошқа тушумлар ҳисобидан ташкил этилиб, қонун ҳужжатларида белгилаб қўйилган тартиб ва шартлар асосида хусусий мулк қилиб берилиши мумкин. Республика мулки бўлган мол-мулкни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси, Ўзбекистон Республикаси Президенти, Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати ёки улар махсус вакил қилган органлар, агар қонунда бошқача тартиб назарда тутилмаган бўлса, тасарруф қилиш ҳуқуқига

эгадирлар.

Муниципал мулк эса – давлат ҳокимияти маҳаллий органларининг мол-мулки, маҳаллий бюджет маблағлари, муниципал уй-жой фонди ва коммунал хўжалик, корхоналар ва бошқа мулкий комплекслар, халқ таълими, маданият, соғлиқни сақлаш муассасалари, шунингдек, бошқа мол-мулклардан иборат бўлади. Ушбу мулк тури маҳаллий бюджетга тушадиган солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар ҳисобидан, шунингдек, қонун ҳужжатларида назарда тутилган асосларга мувофиқ, бошқа тушумлар ҳисобидан ташкил этилади. Муниципал мулк бўлган мол-мулкни, агар қонун ҳужжатларида бошқача тартиб назарда тутилмаган бўлса, давлат ҳокимияти маҳаллий органлари ёки улар вакил қилган органлар тасарруф этадилар. Ўз навбатида, муниципал мулк объектлари ҳам хусусий мулк қилиб берилиши мумкин.

Давлат жамиятимизнинг иқтисодий негизини ташкил этишда мулк шаклларининг эркин шароитини ва мулкдорлар ҳуқуқларини таъминлаш мақсадида иқтисодий муносабатларнинг ўзига хос жиҳатларини белгилаб беради. Бу жиҳатлар:

биринчидан, иқтисодий фаолият, тадбиркорлик ва меҳнат қилиш эркинлиги;

иккинчидан, истеъмолчилар ҳуқуқлари устуворлиги;

учинчидан, ҳалол рақобат муҳити яратилганлиги;

тўртинчидан, барча мулк шаклларининг тенг ҳуқуқлилиги;

бешинчидан, мулк шаклларининг ҳуқуқий жиҳатдан баб-баравар муҳофаза этилганлигида ўз ифодасини топади.

Айни вақтда, давлат Конституция, қонунлар ва уларнинг ижросини таъминловчи механизмлар ёрдамида хилма-хил шаклдаги мулк эгалари ва тадбиркорлик субъектларининг ўз фаолиятларини амалга оширишларида, авваламбор, истеъмолчилар ҳуқуқлари устунлиги, уларнинг талаб ва таклифлари иқтисодий фаолиятни ҳаракатга келтирувчи, тартибга солиб турувчи жараён эканлигини ҳисобга олиб шарт-шароитлар яратади.

Ўзбекистон Республикаси “Истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонунининг 23-моддасида

конституциявий қоида асосида истеъмолчилар ҳуқуқларининг давлат томонидан ҳимоя қилинишини таъминлаш механизмлари белгиланган. Унга кўра давлат Конституция ва қонун ҳужжатлари орқали истеъмолчиларнинг товар сотиб олиш, ишлар бажариш, хизматлар кўрсатиш ва улардан фойдаланиш чоғидаги ҳуқуқлари ҳамда қонун билан қўриқланадиган манфаатлари ҳимоясини кафолатлайди ва амалга оширади.

Истеъмолчилар ҳуқуқларининг устунлиги уларнинг ишлаб чиқарувчи, хизмат кўрсатувчи, сотувчидан фарқли равишда фойда олиш мақсадини кўзламаслиги, асосан, шахсий истеъмол ёки бошқа эҳтиёжларини қондириш учун товарлар сотиб олиши, иш ва хизматга буюртма беришида ҳамда уларнинг сифат ва хавфсизлиги кафолатланганлигини, шунингдек, қонун ҳужжатларида белгиланган бошқа талабларини қўйишда акс этади.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясида хусусий мулкнинг барча мулк шакллари қаторида тенг ҳуқуқлилиги ва ҳуқуқий жиҳатдан ҳимоя этилганлиги мустаҳкамлаб қўйилган бўлиб, унинг 65-моддаси 3-қисмида “Хусусий мулк дахлсиздир. Мулкдор фақат қонунда назарда тутилган ҳолларда ва тартибда мулкидан маҳрум этилиши мумкин” деб белгилаб қўйилган. Ижтимоий-иқтисодий ҳаётимизда содир бўлган янгиланишлар акс садоси талқинида хусусий мулк нафақат шахсларнинг (фуқароларнинг) бойлиги ва моддий мустақиллиги, балки шу билан бирга маънавий эркинлигининг ҳам манбаи сифатида баҳоланди.

“2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”да таъкидланганидек, Конституцияда давлат томонидан хусусий мулк дахлсизлиги ва ҳимоясининг, биринчидан, иқтисодиёт тармоқлари ва ҳудудлари уйғунлиги, иккинчидан, иқтисодий ресурсларнинг адолатли тақсимоти, учинчидан, инвестициявий ва ишбилармонлик муҳитининг яратилиши, тўртинчидан, товарлар, хизматлар, меҳнат ресурслари ва молиявий маблағларнинг эркин ҳаракатланиши, бешинчидан, тадбиркорлик фаолияти йўналишини эркин ҳалол рақобат ва монопол фаолиятга йўл қўйилмаслиги кафолатганлиги кесимида мустаҳкам ва ишончли

тизими яратилди.

Хусусий мулкка нисбатан белгиланган “дахлсизлик ва давлат ҳимоясида бўлишлик” хусусий мулк ҳуқуқини ҳимоя қилиш чоралари орасида ўзига хос ўринга эга. Биринчи навбатда, “дахлсизлик” деганда, шахснинг ўзига ёки муайян ҳуқуқларига нисбатан қонунга зид бўлган хатти-ҳаракатлар билан у ёки бу даражада таъсир ўтказишни тақиқловчи қонуний чоралар мажмуи назарда тутилади. Иккинчидан, “дахлсизлик” – ҳуқуқ субъектига тегишли ва унинг ваколатлари остида ҳамда хўжалик ҳукмронлигидаги объектнинг ҳар қандай ҳуқуқбузарликлардан ҳоли бўлишини қонун билан таъминланганлигини ҳам англатади. Конституциянинг 65-моддасида белгиланган хусусий мулкнинг дахлсизлиги ҳам, мулкдорга тегишли бўлган мол-мулкка нисбатан ҳуқуқларнинг ҳар қандай бузилиши ва у билан боғлиқ манфаатларга ҳар қандай путур етказилишининг тақиқланишини ҳамда хусусий мулк ҳуқуқи у кимга тегишли бўлишидан қатъи назар фақатгина қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳоллардаги бекор қилиниши мумкинлиги қоидаси ҳам хусусий мулк дахлсизлигининг мазмунини ифодалайди.

Конституциянинг мазкур нормасини ҳаётга бевосита жорий этишнинг моддий ва процессуал механизмлари сифатида Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик, фуқаролик процессуал ва иқтисодий процессуал кодекслари тегишли қоидалари, мулк ва мулкчиликка оид бир қатор қонун ҳужжатлари, жумладан Ўзбекистон Республикасининг “Хусусий мулкни ҳимоя қилиш ва мулкдорлар ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”[2]ги ва бошқарув тизимини такомиллаштириш, ортиқча бюрократик тўсиқларни бартараф этиш мақсадида 2021 йил 14 июлда қабул қилинган ЎРҚ-701 сонли “Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-тамойиллари тўғрисида”[3]ги қонунлари, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 24 августдаги ПФ-198-сон “Мулк ҳуқуқининг дахлсизлигини ишончли ҳимоя қилиш, мулкий муносабатларга асоссиз аралашувга йўл қўйилмаслик, хусусий мулкнинг капиталлашув даражасини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони муҳим амалий аҳамият касб этади.

Барча мулк шаклларининг тенг ҳуқуқлилиги ҳамда мулк дахлсизлиги тамойили олий юридик кучга эга бўлиб, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 65-моддаси 2 ва 3-қисмларида бу борадаги нормалар эътироф этилган. Дарҳақиқат, мазкур нормалар асосий мақсади – мулк шаклларининг тенглиги, мулк дахлсизлигини таъминлашдир. Гарчи, Конституциянинг айрим нормалари мақсади тўғридан-тўғри мулк ҳуқуқини ҳимоя қилишга ёки мулк дахлсизлигини таъминлашга қаратилмаган бўлсада, уларнинг амалга оширилиши натижасида шахснинг мулк ҳуқуқлари таъминланади. Бунинг яққол мисоли сифатида Конституциянинг 20-моддасининг 2-3-қисмларини (инсон ҳуқуқлари ва эркинликларининг амал қилиши, бошқа шахслар ҳуқуқ ва эркинликларига путур етказмасликнинг шартлиги), 41-моддаси 1-қисмини (ҳар бир шахс мулкдор бўлиш ҳуқуқига эгалиги), ва 47-моддаси 1-қисмини (ҳар ким уй жойли бўлиш ҳуқуқига эгалиги) келтириб ўтиш ўринли. Зеро, ҳар учта ҳолатда ҳам мулк дахлсизлиги элементлари ифода этилмоқда. Демак, айтиш мумкинки, Конституциянинг 65-68-моддаларигина эмас, балки 20, 41, 47-моддалари нормаларида ҳам мулк дахлсизлигининг мазмун-моҳияти акс эттирилган.

Мулкнинг дахлсизлиги мулкдорга қарши турган барча субъектларнинг мулк ҳуқуқини бузишдан ўзларини тийишлари ва сақлашларидан иборат бўлиб, мулк давлат ҳимоясидадир. Мулкдор ўзининг мулк ҳуқуқи ким томонидан бўлмасин, ҳар қандай бузилишини бартараф этишни, шунингдек бузилган ҳуқуқларини тиклашни талаб қилиш ҳуқуқига эга. Мулк дахлсизлигига оид конституциявий нормалар жорий қонунчилигимизда, жумладан, фуқаровий-ҳуқуқий, маъмурий-ҳуқуқий, жиноий-ҳуқуқий нормаларда ўз аксини топган бўлиб, ушбу тамойилнинг ижросида амалий аҳамиятга эга.

Мулкдор мулкидан фақат қонунда назарда тутилган ҳолларда ва тартибдагина, яъни мулкдорнинг ихтиёрий суратда мажбуриятни бажариши, мулкдорнинг мол-мулк тақдирини ҳал қиладиган бир томонлама қарор қабул қилиши, суд қарори ёки давлат ҳокимияти органи қарори асосида мол-мулкни олиб қўйиш (сотиб олиш) йўли

билан (масалан, мусодара, реквизиция), шунингдек мулк ҳуқуқини бекор қилувчи қонун ҳужжатларига асосан (масалан, национализация) маҳрум этилиши мумкин.

Мухтасар қилиб айтганда, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва у асосида қабул қилинган қонунлар Янги Ўзбекистон тараққиёт йўлининг иқтисодий негизларини белгилаб беради, давлат иқтисодиётнинг асосини ташкил қилувчи хилма-хил мулк шакллари, жумладан хусусий мулк дахлсизлигини кафолатлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Ўзбекистон янгиликлари. Расмий сайт www.gazeta.uz/uz.
2.ЎР ҚММБ, 30.06.2022й., 03/22/782/0576-сон.
3.ЎР ҚММБ, 25.05.2022й., 03/22/771/0448-сон.

ШУҲРАТ ЁҚУБОВ,
Олий таълимни ривожлантириш тадқиқотлари ва илғор технологияларни татбиқ этиш маркази директори, юридик фанлар доктори, профессор

КОНСТИТУЦИЯВИЙ ИСЛОҲОТЛАР: ИНСОН КАПИТАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ДАВЛАТНИНГ ИШТИРОКИ

Аннотация: Мазкур мақолада таълим соҳасидаги ислоҳотлар, уларнинг ташкилий- ҳуқуқий асослари, конституциявий ислоҳотлар асосида олий таълимга эътиборнинг кучайтирилиши илмий таҳлил қилинган. Ўзбекистон Республикаси Конституциясига олий таълимга оид алоҳида норманинг киритилиши, унинг амалий аҳамияти ёритилган. Шунингдек, олий таълим муассасаларига академик эркинлик берилиши, уларнинг бошқарув ҳамда илмий-тадқиқот фаолиятида мустақил бўлишининг истиқболлари ҳақида мулоҳазалар билдирилган.

Таянч сўзлар: олий таълим, инсон капитали, академик эркинлик, конституциявий нормалар, ташкий-ҳуқуқий асослар, олий таълимда бошқарув, илмий-тадқиқот эркинлиги.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ РЕФОРМЫ: В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

УЧАСТИЕ ГОСУДАРСТВА

Аннотация: В данной статье научно анализируются реформы в сфере образования, их организационно-правовые основы, усиление внимания к высшему образованию на основе конституционных реформ. Освещено внесение в Конституцию Республики Узбекистан специальной нормы о высшем образовании, ее практическое значение. Также были высказаны мнения о перспективах предоставления академической свободы высшим учебным заведениям, их самостоятельности в управленческой и исследовательской деятельности.

Ключевые слова: высшее образование, человеческий капитал, академическая свобода, конституционные нормы, организационно-правовые основы, управление в высшей школе, свобода научных исследований.

CONSTITUTIONAL REFORMS:
IN HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT
STATE INVOLVEMENT

Abstract: This article scientifically analyzes reforms in the field of education, their organizational and legal foundations, increased attention to higher education on the basis of constitutional reforms. The introduction of a special norm on higher education into the Constitution of the Republic of Uzbekistan, its practical significance is highlighted. Opinions were also expressed on the prospects for granting academic freedom to higher educational institutions, their independence in managerial and research activities.

Keywords: higher education, human capital, academic freedom, constitutional norms, organizational and legal framework, management in higher education, freedom of scientific research.

Ўзбекистонда давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларида жадал ислоҳотлар давом этмоқдаки, бу ўзгаришлар негизи инсон, унинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини таъминлашга қаратилган. Инсон капиталини ривожлантиришда инвестициялар ва янги технологиялар иқтисодий ривожланишнинг устувор йўналишларидан бири сифатида унинг рақобатбардошлигини

ошириш ва мамлакатнинг барқарор ривожланиш шарти эканлигига эътибор янада кучайтирилмоқда.

Президент Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, “кейинги йилларда масалага мана шундай ёндашув бизнинг ушбу соҳадаги фаолиятимиз мезонига айланди. Чиндан ҳам, агар биз таълимни ўзгартирсак, таълим инсонни ўзгартиради. Инсон ўзгарса – бутун жамиятимиз ўзгаради.

Шу боис биз узлуксиз таълимни такомиллаштириш, фарзандлари-мизни ҳар томонлама баркамол инсонлар этиб тарбиялаш, юқори малакали педагог кадрлар тайёрлашни тубдан яхшилашга алоҳида аҳамият қаратмоқдамиз” [1, – Б. 7-8].

“Биз **таълим, илм-фан ва инсон капиталини** ривожлантиришга устувор вазифа сифатида эътибор беришимиз лозим. Чунки, бугунги шиддатли рақобат замонида фақат билимли, маърифатли миллат ва давлат муносиб тараққиётга эриша олади.

Янги баркамол авлодини тарбиялаб вояга етказмоқчи эканмиз, бунинг учун боғча, мактаб, олий таълим ва илм-фан соҳаларини устувор тараққий эттиришни конституциявий даражада мустаҳкамлаб қўйишимиз шарт”.

Жумладан, **инсон капиталини** ривожлантиришнинг асосий шарти бу – таълим ва аҳолини интеллектуал салоҳиятини оширишдан иборат.

Таълим соҳасининг асосий вазифаларидан бири бугунги кун учун зарур бўлган янги авлодни, илм-фан ўз ихтисослиги асосларини пухта эгаллаган, билимли ёшларни тарбиялашдир.

Кенг қамровли ислоҳотлар даврида аниқ фуқаролик позициясига эга бўлган, жамият, давлат манфаатларини ҳимоя қиладиган, халқ ҳаётидаги ўзгаришлар ва ислоҳотларда фаол қатнашадиган, замонавий ва кенг тафаккурли ёшлар авлодини шакллантириш вазифаси таълим соҳасидаги давлат сиёсатида муҳим ўрин эгаллайди [2, – Б. 4].

Таълим соҳасида 2017-2023 йиллар мобайнида мустаҳкам ҳуқуқий асосларини яратиш йўлида **2 та** Ўзбекистон Республикаси Қонуни, **15 та** Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони, **65 та**

Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори, **60 ортиқ** Вазирлар Маҳкамаси Қарорлари қабул қилинди.

Жумладан Ўзбекистон Республикасининг **“Таълим тўғрисида”**ги Қонуни янги таҳрирда қабул қилинган бўлса, мактабгача таълим соҳасини ислоҳ қилиш асносида Ўзбекистон Республикасининг **“Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида”**ги янги Қонуни қабул қилинди.

Халқ таълими тизимини бошқаришнинг самарали механизмларини жорий этиш ўсиб келаётган ёш авлодни маънавий-ахлоқий ва интеллектуал ривожлантиришни сифат жиҳатидан янги босқичга олиш чиқиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Президентининг **“Халқ таълимини бошқариш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”**ги Фармони ҳамда олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат ташкил этиш, олий таълимни модернизация қилиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “**Олий ва ўрта махсус таълим соҳасида бошқарувни ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тўғрисида**” ва “**Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”**ги Фармонлари имзоланди.

Шунингдек, таълим соҳасидаги бошқарув механизмларининг самарадорлиги ва аҳамиятини ошириш мақсадида муҳим ҳуқуқий институционал асослари ишлаб чиқилган бўлса, амалда мавжуд бўлганларининг фаолияти ва мазмуни тубдан такомиллаштирилди.

2017-2023 йиллар давомида **100 дан ортиқ** турли шаклдаги норматив ҳамда идоравий ҳужжатлар қабул қилинди. Мактабгача таълимнинг турли шаклларини, жумладан, **давлат-хусусий шериклик, оилавий, муқобил** каби шаклларини жорий этилиши натижасида мактабгача таълим билан қамров даражаси 2017 йилда **27 фоизни** ташкил этган бўлса, 2023 йилга келиб бу кўрсаткич **70 фоизга** етди. Яъни қамров даражаси қарийб 3 барабарга ошди. 2025

йилга бориб бу кўрсаткични **100 фоизгача** ошириш режалаштирилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг **“Халқ таълимини бошқариш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”**ги Фармонига мувофиқ Халқ таълими тизими фаолияти янги босқичга кўтарилди. Узлуксиз таълим тизими мазмунини сифат жиҳатидан янгилаш борасида халқаро тажриба асосида **Миллий ўқув дастури** ишлаб чиқилди.

2023 йил 26 майда “Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги ҳамда унинг тизимидаги ташкилотлар фаолиятини самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-79-сон Фармони ёки 2023 йил 20 апрелдаги “Илмий-методик ва тадқиқот ишлари сифатини ошириш орқали таълим тизимини комплекс ривожлантиришни жадаллаштириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарорининг эълон қилингани таълим тизимини янада ривожлантиришга ҳаракат қилинаётганини англатади [3, – Б. 15].

Мактабларга кўмак бериш масаласи умуммиллий ҳаракатга айланиши натижасида, охирги беш йил давомида умумтаълим мактабларнинг моддий-техника базасини яхшилаш йўлида **139 та** мактаб қурилди, **2965 та** мактаб қайта реконструкция қилинди ва таъмирланди.

Бундан ташқари мамлакатимизнинг келгусидаги жадал тараққиёти йўлида ёш истеъдодларни аниқлаш, иқтидорли болаларни танлаб олиш ва ўқитиш тизимини ташкил қилиш, ўсиб келаётган авлоднинг интеллектуал имкониятларини намоён этишга ёрдам берувчи кўп тармоқли таълим муҳитини яратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 февралдаги ПҚ-4199-сон қарори билан **Президент мактаблари** ташкил этилди.

Президент мактабларининг ташкил этилиши иқтидорли болаларни аниқлаш, таълим жараёнида илғор технологияларни қўллаган ҳолда уларни ўқитиш ва тарбиялаш бўйича яхлит тизим яратиш, истеъдодли ёшларни янада қўллаб-қувватлаш ва

рағбатлантириш, маънан етук ва интеллектуал жиҳатдан баркамол авлодни шакллантиришга имкон яратди.

Шунингдек, соҳа ходимларни малакасини ошириш бўйича **узлуксиз касбий ривожлантириш тизими** такомиллаштирилиб, **Халқаро баҳолаш тадқиқотларида** (PISA ва PIRLS) иштирок этиш бўйича ташкилий ишлар амалга оширилди.

Бугунги кунда халқ таълими ходимларини қўшимча **ижтимоий рағбатлантиришни йўлга қўйишда уй-жой билан таъминлаш** ва моддий қўллаб-қувватлаш юзасидан шароитлар яратиш мақсадида **олий малака тоифасига эга ўқитувчиларига камайтирилган фоиз ставкаларда ипотека кредитларини тақдим этиш** ҳамда **бошланғич бадал тўловларини қоплаб бериш** бўйича янги тизим амалга жорий этилмоқда.

Айни пайтда Ўзбекистонда умумий, бошланғич ва ўрта таълимда қамров даражаси **99 фоизни** ташкил этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори асосида ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг устувор йўналишларига ҳамда халқаро стандартлар талабларига мос келадиган олий таълим тизимини яратиш бўйича ҳаракатлар бошланди.

Бинобарин, сўнгги беш йилда Олий таълим муассасалари сони **2,5 баробарга ортди**, яъни янги **132 та** ОТМлар ташкил этилиб, ҳозирги келиб, уларнинг сони **210** тага етказилди. Республикамизда **31 та** хорижий олий таълим муассасаларининг филиаллари, **65 та** хорижий ва нодавлат ОТМлар ташкил этилди. Олий таълимда рақобат муҳитини яратиш, олий таълим билан қамровни кенгайтириш мақсадида **янги олий таълим муассасалари ва уларнинг филиаллари ташкил этилди.**

Олий таълим билан қамров даражаси **2016 йилдаги 9 фоиздан 2022 йилда 38 фоизга** етказилди. 2026 йилда олий таълим билан қамров даражасини **50 фоизга** етказиш мақсад қилинган.

Шунингдек, ОТМларда сиртқи (махсус сиртқи) ва кечки таълим қабул квоталари охирги уч йилда **3,5 баробарга ортди.** Ҳудудлардаги

олий таълим муассасалари учун илмий-педагогик кадрлар захирасини яратиш мақсадида таянч олий таълим муассасаларида магистратурага **мақсадли қабул квоталари жорий этилди.** Олий таълим муассасаларининг илмий-педагогик захираси шакллантириш ишлари ривожлантирилди, **магистратура қабул кўрсаткичлари 2,5 баробарга** оширилди.

Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифат жиҳатдан янги босқичга кўтарилди. **10 дан ортиқ хорижий мамлакатларнинг** (жумладан, АҚШ, Буюк Британия, Япония, Россия, Туркия, Белорусь, Латвия, Ҳиндистон ва б.) **нуфузли олий таълим муассасалари** филиаллари **фаолиятини ташкил этиш** орқали олий таълим билан қамров даражасини ошириш ҳамда олий таълимда рақобат муҳитини яратиш ишлари амалга оширилди.

Ўзбекистон ва **60 дан ортиқ хорижий олий таълим муассасаларининг** ўзаро келишуви ҳамда **қўшма таълим дастурлари** асосида талабаларни ўқитишни ташкил этиш ва икки томонлама тан олинадиган диплом бериш амалиёти **жорий этилди.**

Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси ва Вазирлар Маҳкамасининг “Олий таълим муассасаларида таълим жараёнини ташкил этиш билан боғлиқ тизимни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорига биноан Олий таълим муассасалари ўқув жараёнини кредит-модуль тизимига ўтказилди.

Бундан ташқари, **“Давлат олий таълим муассасаларининг академик ва ташкилий-бошқарув мустақиллигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”**ги Президент Қарорига мувофиқ, **41 та** олий таълим муассасаларига **академик ва молиявий мустақиллик** берилди. Тизимга халқаро стандартлар ва тамойиллар жорий этилди.

Олий таълим тизимини рақамлаштириш мақсадида “Олий таълим жараёнларини бошқариш – HEMIS” ахборот тизими ишлаб чиқилди ҳамда 2020/2021 ўқув йилидан бошлаб олий таълим муассаса-ларида фойдаланила бошланди.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, **давлат грантлари** асосида

қабул параметрларини Ўзбекистон Республикаси таълим муассасаларига ўқишга қабул қилиш бўйича давлат комиссияси томонидан, **тўлов-контракт** асосидаги қабул параметрларини Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги билан келишув асосида, тўлов-контракт миқдорларини бир талабани харажатини ҳисобга олган ҳолда белгилаш олий таълим муассасаси томонидан мустақил тасдиқлаш амалиётини жорий этиш масаласини кўриб чиқиш керак.

Ёшларнинг олий маълумот олишга бўлган эҳтиёжларини инобатга олиб, уларга ўқишга кириш учун самарали тайёргарлик кўриш бўйича кўмаклашиш, шунингдек касбга йўналтириш ва селекция ишларини янада самарали ташкил этишни кўзда тутган ҳолда барча давлат олий таълим муассасаларида абитуриентлар учун янгича тизимдаги **мақсадли тайёрлов курслар** фаолиятини йўлга қўйиш лозим.

Давлат олий таълим муассасаларини молиялаштиришнинг замонавий муқобил имкониятларини янада такомиллаштириш мақсадида ҳар бир олий таълим муассасасида нодавлат нотижорат ташкилоти кўринишида мақсадли капитал жамғармалари **(эндаумент фонд)** ташкил этилиши мақсадга мувофиқ [4, – Б. 11].

Айни пайтда мамлакатимизда конституциявий ислоҳотлар давомида таълим соҳасида олиб борилаётган ўзгаришларни, жумладан инсон капиталини ривожлантиришда ёшларни **касбга йўналтириш ва селекция ишларини** янада самарали ташкил этиш бўйича тизим яратиш керак.

Шу жиҳатдан, Олий таълим тизимининг вазифаси фақат талабаларга дарс бериш эмаслигини англаган ҳолда, ОТМлар илм-фан соҳасида ҳам фаол ишлаши, ёшларни илмий ишларга, йирик лойиҳаларга янада кўпроқ жалб этиш бўйича нормаларни Асосий Қонун даражасида мустаҳкамлаш зарурияти мавжуд эди.

2023 йил 1 майдан кучга кирган Ўзбекистон Республикаси Конституциясига олий таълимга оид қуйидаги мазмундаги янги модда киритилгани алоҳида эътиборга молик:

*“**51-модда.***

Фуқаролар давлат таълим ташкилотларида танлов асосида

давлат ҳисобидан олий маълумот олишга ҳақли.

Олий таълим ташкилотлари қонунга мувофиқ академик эркинлик, ўзини ўзи бошқариш, тадқиқотлар ўтказиш ва ўқитиш эркинлиги ҳуқуқига эга”.

Аҳолининг кенг қатламларини олий таълим билан қамраб олиш масаласи Президентимиз томонидан БМТ минбарида ҳам кўтарилган ва 2030 йилгача Ўзбекистонда 50% ёш аҳоли олий маълумотга эга бўлиши режалаштирилган. Шу сабабли олий таълимга оид норма Конституция даражасида мустаҳкамланди.

Ҳамма ҳам контрактда катта пул тўлаб ўқий олмаслиги мумкин. Шу сабабли Конституцияда танлов асосида давлат бюджети ҳисобидан ўқиш имконияти қатъий белгиланди.

Бундан ташқари, олий таълим ташкилотларига академик эркинлик, ўзини ўзи бошқариш, тадқиқотлар ўтказиш ва ўқитиш эркинлиги ҳуқуқи тақдим этилди. Нодавлат олий таълим муассасалари очилмоқда, хорижий университетлар филиаллари сони ортмоқда, олис ҳудудларда ҳам университет филиаллари ташкил этилмоқда, давлат олий ўқув юртларига ташкилий ва молиявий мустақиллик берилмоқда [5, – Б. 10-15].

Демак, олий таълим ташкилотлари ўз фаолиятининг асосий йўналишларини амалга ошириш эркинлиги, таълим йўналишининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб таълим тартибини белгилаш бўйича қарорлар қабул қилишда мустақил бўлиш ҳуқуқлари конституциявий норма даражасида мустаҳкамлангани уларга қўшимча имкониятлар яратади. Бу давлат органлари ва уларнинг мансабдор шахслари олий таълим муассасаларида ўқишни олиб бориш учун турли шартлар ва кўрсатмалар бера олмаслигини кафолатлайди.

Бугунги кунга қадар Ўзбекистондаги **40 дан ортиқ** давлат олий таълим муассасаларига академик ва молиявий мустақиллик берилган ҳамда бу борадаги ишлар давом этмоқда.

Олий таълим тизими билан боғлиқ масалаларнинг Конституция даражасида белгиланаётгани таълим ислоҳотларининг ўзгармас ва ортга қайтмас кўриниш олишини таъминлайди. Айниқса, таълим

муассасаларига академик эркинлик бериш масаласи — дунё тажрибаси. Ушбу ҳуқуқнинг кафолатланиши олий таълим сифатини оширишга хизмат қилади.

Мазкур ўзгартишлар туфайли олий таълимга алоҳида эътибор қаратиш давлат мажбуриятига айланмоқда. Ҳар бир фуқаро олий таълим олиш орқали фаровон ҳаёт кечиришига мустаҳкам асос яратади. Бундан ташқари Конституцияга киритилган мазкур ўзгариш бир хил андозага тушиб қолган, эскича қарашлар билан ишлаётган институт ва университетларни замонавий тенденциялар орқали ривожланишига туртки бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз мустақиллиги – биз учун куч-қудрат ва илҳом манбаи, тараққиёт ва фаровонлик асоси. “Халқ сўзи” газетасининг расмий-веб сайти. **https://xs.uz**.
2. Салохўжаев Р. Инсон капитали тараққиёти замонавий иқтисодиётни ривожлантиришнинг ягона йўли. https: www.uzanalytics. com; Қодирова Л. Инсон капиталига эътибор – асосий вазифа. https://yuz.uz.
3. Ўзбекистон Республикасининг Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.04.2023 й., 07/23/128/0224-сон.
4. Хижняк В, Новикова О. Развитие эндаумент-фонда высшего учебного заведения // π-Economy. 2014. №1 (187). URL: https: //cyberleninka.ru/article/n/razvitie-endaument-fonda-vysshego-uchebnogo-zavedeniya (дата обращения: 08.06.2023).
5. Хакимов Р. Олий таълим муассасаларига академик бошқарув мустақиллиги берилди. «Ўзбекистонда олий таълим» журнали. 2022 й. № 1. –Б. 10-15.

МУБОРАК УСМАНОВА,

Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети профессори, юридик фанлар доктори

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИ – ИЖТИМОИЙ ДАВЛАТНИНГ ҲУҚУҚИЙ КАФОЛАТИ

Аннотация: ушбу мақолада ижтимоий таъминот соҳасида янги тахрирдаги конституцияда белгиланган кафолатлар, 2017-2022 йилларда амалга оширилган ижтимоий ислоҳотлар, пенсия миқдорларини оширилиши, пенсия ҳисоблаб чиқишда инобатга олинадиган иш стажи институтини тубдан ўзгарганлиги, пенсия ва нафақаларни тайинлаш соҳасида қатор имтиёзлар жорий қилинганлиги масалалари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: ижтимоий ҳимоя, ижтимоий таъминот, пенсия, мехнат стажи, иш ҳақи, пенсия фонди, болаликдан ногирон, устама, пенсия миқдорлари, ўзини ўзи банд қилган шахслар, жамғариб бориладиган пенсия тизими, боқувчисини йўқотганлик ва ногиронлик пенсиялари.

КОНСТИТУЦИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН - ПРАВОВАЯ ГАРАНТИЯ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА

Аннотация: В данной статье рассматриваются гарантии в сфере социального обеспечения в конституции новой редакции, социальные реформы проведенные в 2017-2022 годах, повышение размеров пенсий, радикальное изменение института трудового стажа, который учитывается при расчете пенсий, было подчеркнуто, что в пенсионном секторе было введено ряд льгот.

Ключевые слова: социальная защита, социальное обеспечение, пенсия, трудовой стаж, заработная плата, пенсионный фонд, инвалидность с детства, пособие, размеры пенсии, самозанятые лица, накопительная пенсионная система, пенсии по инвалидности.

THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IS A LEGAL GUARANTEE OF THE SOCIAL STATE

Abstract: This article discusses the guarantees in the field of social security in the new version of the constitution, the social reforms carried out in 2017-2022, the increase in pensions, a radical change in the institution of seniority, which is taken into account when calculating

pensions, it was emphasized that a number of benefits were introduced in the pension sector.

Keywords: social protection, social security, pension, work experience, salary, pension fund, disability since childhood, allowance, pension amounts, self-employed persons, accumulative pension system, disability pensions.

Ўзбекистон Республикаси давлат ижтимоий сиёсатининг моҳиятини белгилаб берувчи асосий қоидалар Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида ўз аксини топган.

Юртимизда инсон – энг олий қадрият ва унинг қонуний манфаатлари устувор аҳамиятга эга эканлиги Конституция, тегишли қонунлар, Президент фармонлари ва Ҳукумат қарорларида ўз ифодасини топган.

“2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”да аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш фаоллигини оширишни янада ривожлантириш ва такомиллаштириш” бўйича аниқ вазифалар белгилаб берилди [1].

Мамлакатимизда ҳар йили Давлат бюджетини қабул қилишда айни ижтимоий соҳани ривожлантиришга алоҳида аҳамият берилади. 2022 йил йилда тарихимизда илк бор пенсия ва ижтимоий нафақалар миқдори минимал истеъмол ҳаражатларидан кам бўлмаган даражага олиб чиқилди. Мисол учун, 2017 йилда кам таъминланган 500 минг оила ижтимоий ёрдам олган бўлса, бугунга келиб 2 миллиондан ортиқ оилаларга кўмак берилмоқда. Ажратилаётган маблағлар эса, 7 баробар кўпайтирилиб, йилига 11 триллион сўмга етди [2].

Мамлакатимизда юритиб келинаётган ижтимоий сиёсатнинг инсон манфаатлари томон йўналтирилганлиги энг аввало, фуқароларни ижтимоий таъминотга бўлган ҳуқуқлари Конституциямизда кафолатланиши билан бирга улардан амалда тўлиқ фойдаланиш учун зарур ҳуқуқий воситалар барпо этилганлиги, моддий ва ижтимоий ёрдамлар олишнинг ташкилий жиҳатдан таъминланганлигида яққол кўзга ташланади. Бу соҳадаги қонунчиликни такомиллаштирилиши ва ривожлантирилишида халқимизнинг меҳр-мурувват ва саховат кўрсатиш борасидаги

қадимий миллий анъаналаримиз ҳамда қадриятларимиз билан бир қаторда ижтимоий таъминот олиш ҳуқуқига доир жаҳон стандартларига ҳам таяниб иш кўрилаётгани давлатимизнинг демократик ва инсонпарвар қиёфасини янада яққол намоён қилмоқда. Хусусан, БМТ томонидан қабул қилинган “Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси”, “Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисида”ги халқаро Пактда ва уларнинг факультатив протоколларида фуқароларнинг ижтимоий таъминот олишга бўлган ҳуқуқи ва давлатнинг мазкур ҳуқуқни таъминлаш билан боғлиқ мажбуриятлари мустаҳкамлаб қўйилган.

“Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси”нинг 25-моддасида таъкидланишича, ҳар бир инсон ўзи ва оиласининг сиҳат-саломатлигини ва фаровонлигини асраш учун зарур бўлган турмуш даражасига, шу жумладан озиқ-овқат, либос, уй-жой, тиббий қаров ва зарур ижтимоий хизмат ҳуқуқига ҳамда ишсиз қолганида, бетоблигида, ногиронлигида, бева бўлиб қолганида, қариганида ёки ўзига боғлиқ бўлмаган ҳолатларга кўра тирикчилик учун маблағи бўлмай қолганида таъминланиш ҳуқуқига эгадир[3].

Ўзбекистон Республикасининг “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги, “Фуқароларнинг жамғариб бориладиган пенсия таъминоти тўғрисида”ги, “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида”ги, “Кексалар, ногиронлар ва аҳолининг бошқа ижтимоий эҳтиёжманд тоифалари учун ижтимоий хизматлар тўғрисида”ги қонунлар ва бошқа қонун ҳужжатларида Конституциянинг ушбу моддаси тўлиқ ўз ифодасини топган. Жумладан, 1993 йил 3 сентябрда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги Қонуни фуқароларни қариганда, меҳнат қобилиятини тўлиқ ёки қисман йўқотганда, боқувчисиз қолганда ижтимоий таъминланишдан иборат конституциявий ҳуқуқларини рўёбга чиқариш, давлат пенсияларининг ягона тизимини, уларни тайинлаш, ҳисоблаш, қайта ҳисоблаш ва тўлаш тартибини белгилайди [4].

Қонуннинг 2-моддасига асосан давлат пенсияларининг ёшга доир, ногиронлик, боқувчисини йўқотганлик турлари мавжуд.

Фуқаролар пенсия олиш ҳуқуқи пайдо бўлганидан сўнг исталган пайтда пенсия тайинлашни сўраб мурожаат этишлари мумкин. Давлат пенсияларининг турли хилларини олиш ҳуқуқига эга бўлган фуқароларга уларнинг ўзлари танлаган битта пенсия тайинланади.

Ёшга доир пенсия суғурта қилинган ходимларга умумий асосларда: эркаклар - 60 ёшга тўлган бўлиб, умумий меҳнат стажи 25 йилдан кам бўлмаган тақдирда, аёллар – 55 ёшга тўлган бўлиб, умумий меҳнат стажи 20 йилдан кам бўлмаган тақдирда тайинланади.

Пенсия суғурта қилинган ходимларнинг айрим тоифаларига пенсия ёши кам бўлганда, тегишли ҳолларда эса меҳнат стажи кам бўлганда ҳам тайинланади.

Фуқароларга уларнинг касби, меҳнат шароитларининг хусусиятлари ва бошқа омиллар эътиборга олингани ҳолда имтиёзли шартларда ёшга доир пенсия тайинланади. Ушбу пенсия тури Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 12 майдаги 250-сонли “Имтиёзли шартларда пенсияга чиқиш ҳуқуқини берувчи ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичларнинг Рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарорига биноан 1- 2- 3-Рўйхат асосида тайинланади.

Бюджетдан ташқари пенсия жамғармаси маълумотларига кўра бугунги кунда 3.1млн.дан ортиқ фуқаро ёшга доир пенсия олади [5].

Ногиронларни тўлақонли ҳаёт кечиришлари, жамият ҳаётида фаол қатнашишларига имкон бериш ҳамда уларга жамият ҳаётида бошқа фуқаролар билан тенг иштирок этиш имкониятларини яратиш мақсадида 2020 йил 22 июлда “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида”ги Қонун янги таҳрирда қабул қилинди. Қонунга кўра: давлат ногиронлиги бўлган шахсларнинг қадр-қимматини, уларнинг мустақиллигини, танлаш эркинлигини хурмат қилиш, камситилишига йўл қўймаслик, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини амалга оширишдаги имкониятлар тенглиги, ногиронлиги бўлган болаларнинг ривожланаётган қобилиятни ва ўз индивидуаллигини сақлаб қолиш ҳуқуқини ҳурмат қилиш, объектлар ва хизматларнинг қулайлиги, ногиронлиги бўлган шахсларни жамият ва давлат хаётига жалб этиш учун шароитлар яратилишини, уларни

ҳимоя қилишни таъминлаш юзасидан зарур чора-тадбирлар кўрилишини таъминлайди”.

Фуқароларни ногиронлик пенсияси билан таъминлаш “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги Қонуннинг 15-18-моддалари асосида тартибга солинади.

Ногиронлик пенсияларига чиқиш ҳуқуқига икки хил сабабга кўра ногирон бўлиб қолган ва белгиланган тартибда I ёки II гуруҳ ногирони эканлиги тасдиқланган фуқаролар эга бўладилар. Амалдаги қонунчилик III гуруҳ ногиронларига пенсия тайинлашни назарда тутмайди. Булар: биринчидан, меҳнатда майибланиш ёки касб касаллигига чалиниш, ушбу сабабларга тенглаштирилган ҳолдаги (уруш ногиронлари, ҳарбий хизмат бурчини бажариш пайтида юз берган ва бошқа сабабларга кўра содир бўлган ногиронликлар бўлса; иккинчидан, турмушда олинган жароҳатлар (маиший сабабларга кўра майибланиш) ёки умумий касалликлар (иш билан боғлиқ бўлмаган) оқибатидаги ногиронликлардан иборатдир.

Ногиронлик сабаблари ва гуруҳлари, шунингдек ногиронлик бошланган вақт ва ногиронликнинг қанча муддатга белгиланиши ТИЭК томонидан аниқланади. Бугунги кунда 419 минг нафар фуқаролар ногиронлик пенсияси олади [5].

Фуқароларга тайинланадиган ва тўланадиган боқувчисини йўқотганлик пенсияси давлат ижтимоий қўллаб-қувватлашининг муҳим шаклларидан саналади.

Боқувчисини йўқотганлик пенсияси давлат пенсия турларидан бири бўлиб, марҳум боқувчи шахснинг олдинги меҳнат фаолияти ва унинг учун бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасига ижтимоий суғурта бадаллари тўлаб борилганлиги билан боғлиқ равишда тайинланадиган меҳнат пенсияларининг бир тури саналади ва унинг тайинланиш шартлари амалдаги қонун ҳужжатлари билан аниқ белгилаб қўйилган.

“Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги Қонуннинг 19-моддасига кўра вафот этган боқувчининг қарамоғида бўлиб келган меҳнатга қобилиятсиз оила аъзоларига қонун ҳужжатларида белгилаб қўйилган тартибда, шартларда ва

миқдорларда улар вояга етгунларига қадар, меҳнат қилиш қобилиятлари қайта тиклангунича ёки бўлмаса тегишли ҳолларда бутун умрга давлат ижтимоий таъминоти маблағлари ҳисобидан боқувчисини йўқотганлик пенсияси тайинланади. Бунда фарзандларга ва белгиланган шахсларга пенсия, улар боқувчининг қарамоғида турган-турмаганидан қатъи назар, тайинланади. Вафот этганлар оилаларига тааллуқли ҳамма қоидалар бедарак йўқолган ёки ўлган деб эълон қилинган шахсларнинг оила аъзоларига ҳам тегишли тартибда жорий қилинади [6].

Бугунги кунда 221минг нафар оила боқувчисини йўқотганлик пенсияси олади [5].

Ўзбекистонда пенсия қонунчилигини ислоҳ қилиш ва янги пенсия турларини жорий қилиш мақсадида 2005 йил 1 январдан бошлаб жамғариб бориладиган пенсия таъминоти шакли жорий қилинди.

Ўзбекистон Республикасининг 2004 йил 2 декабрида қабул қилинган “Фуқароларнинг жамғариб бориладиган пенсия таъминоти тўғрисида”ги Қонунига кўра Ўзбекистон Республикаси фуқаролари, шунингдек Ўзбекистон Республикаси ҳудудида доимий яшовчи чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар жамғариб бориладиган пенсия таъминоти олиш ҳуқуқига эга.

Қонуннинг 5-моддасига мувофиқ давлат жамғариб бориладиган пенсия тизимида иштирок этувчи фуқароларга шахсий жамғариб бориладиган пенсия ҳисобварақларида жамғарилган маблағлари сақланиши ҳамда тўланишини кафолатлайди.

Жамғариб бориладиган пенсия таъминоти билан боғлиқ бўлган муносабатларда пенсия тўловларини олувчи фуқаролар (ҳисоб рақами эгаси ёки унинг ворислари, қонуний вакиллари ва бошқалар), бадал тўланишини амалга оширувчи корхона ва ташкилотлар, Халқ банки муассасалари иштирок этадилар.

2016 йил 6 октябрда қабул қилинган “Кексалар, ногиронлар ва аҳолининг бошқа ижтимоий эҳтиёжманд тоифалари учун ижтимоий хизматлар тўғрисида”ги Қонун аҳолининг ижтимоий эҳтиёжманд тоифаларининг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини

таъминлашга оид давлат сиёсати, кексалар, ногиронлар ва аҳолининг бошқа ижтимоий эҳтиёжманд тоифалари турмуши сифатини ошириш, уларга жамият ҳаётида иштирок этишнинг бошқа фуқаролар билан тенг бўлган имкониятларини яратиш, ҳуқуқий, иқтисодий, психологик, таълимга оид, тиббий, реабилитация ва бошқа ижтимоий ёрдамларни амалга оширишни назарда тутади.

Қонунга кўра ижтимоий хизматлар ўзгаларнинг парваришига муҳтож бўлган ёлғиз кексалар ва ёлғиз яшовчи кексалар, I ва II гуруҳ ногиронлари, ногирон болалар, муомалага лаёқатсиз ва муомала лаёқати чекланган фуқаролар, ижтимоий аҳамиятга молик касалликларга чалинган шахслар, етим болалар ва ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларга кўрсатилади.

Ижтимоий хизматлар давлат бошқаруви органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, нодавлат нотижорат ташкилотлари, ижтимоий хизматлар кўрсатувчи тадбиркорлик субъектлари орқали амалга оширилади.

Қонуннинг 28-моддасида ижтимоий хизматлар тўғрисидаги қонун хужжатларини бузганликда айбдор шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўлади.

“Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисида”ги Халқаро Пактнинг 11-моддасида: “Ушбу Пактда иштирок этувчи давлатлар ҳар бир киши ўзи ва оиласи учун етарлича озиқ-овқат, кийим-кечак ва уй-жой ҳамда турмуш шароити тўхтовсиз яхшиланиб боришини ўз ичига оладиган етарли турмуш даражаси бўлиш ҳуқуқини эътироф этади” деб белгиланган ва мазкур норма шарҳланаётган модданинг 2-қисмида ўз ифодасини топган.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармонига кўра аҳолининг даромадлари ва турмуш даражасини муттасил ошириб бориш, фуқароларга ижтимоий мададни кучайтириш мақсадида иш ҳақи, пенсиялар, нафақалар ва ижтимоий ёрдам миқдорини ошириш билан бирга, иш ҳақи, пенсия, нафақаларнинг энг кам миқдори ҳам белгилаб қўйилади.

Мамлакатимизда инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишга қаратилган қонунчилик тизими барпо этилди, фуқароларнинг сиёсий, ижтимоий-

иқтисодий ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг халқаро демократик стандартларга мос келувчи ҳуқуқий механизмлари яратилди, жамиятимизда эркинлаштириш, ҳуқуқлар кафолатларини янада кучайтиришга қаратилган ҳуқуқий ислоҳотлар амалга оширилди. Барча иқтисодий, демократик, сиёсий, ҳуқуқий ислоҳотларнинг асл мақсади инсонга муносиб турмуш ва фаолият шароитларини вужудга келтиришдан иборатдир.

Юқоридаги амалга оширилган ислоҳотлар самарадорлигини янада ошириш ва пенсия таъминотини такомиллаштириш мақсадида:

- Ўзбекистон Республикаси “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги қонунига қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш ;

- МДҲ иштирокчиси бўлган давлатлар фуқароларининг пенсия таъминоти соҳасидаги ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисидаги 1992 йил 13 мартда қабул қилинган БИТИМга бугунги кун талабларидан келиб чиқиб ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш мақсадга мувофиқдир.

Ижтимоий ҳимоя-давлатимиз томонидан юритилаётган ижтимоий сиёсатнинг муҳим ва устувор йўналишларидан бўлганлиги сабабли унинг ҳуқуқий асослари ҳам ушбу устуворликка тўла мос бўлиши, мамлакатимизда юз бераётган барча ижобий ўзгаришлар ва эришаётган ютуқларимизни ўзида акс эттириши, энг муҳими, инсон, унинг ҳуқуқ ва манфаатлари энг олий қадрият экани ҳақидаги ғояларимизга асосланган бўлиши лозим.

Зеро, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Янги Ўзбекистонда ижтимоий соҳадаги ислоҳотлар, халқимизнинг ҳаёт даражаси ва сифатини оширишга қаратилганлигидан далолатдир [1].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони

//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси,www.lex.uz.

2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. www.xs.uz расмий сайти. 20.12.2022.

3. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/disabled.shtml.

4. //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси,www.lex.uz.

5. Бюджетдан ташқари пенсия жамғармасининг 2023 йил учун тезкор маълумотлари.- Т., 2023 йил.

6.Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 33, 34, 36-моддалари; Фуқаролик процессуал кодексининг 286-290-моддалари.

М.Б.ЮСУПОВ,

Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Қорақалпоғистон Республикаси бўйича бошқармаси бошлиғи, полковник

КОНСТИТУЦИЯ УСТУНЛИГИ ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ КАФОЛАТИ СИФАТИДА

Аннотация: Ушбу мақолада жамоат хавфсизлигининг асоси, конституциявий ҳуқуқий тузум билан боғлиқ бўлган назарий масалалар кўриб чиқилган. Конституциявий устунликни таъминлаш натижаси, яъни барча ҳуқуқ субъектлари томонидан конституция талабларининг бажарилиши, уларнинг конституция асосида ўз ҳаракатларини амалга ошириши орқали жамоат хавфсизлиги таъминланиши ўрганилган.

Таянч сўзлар: конституция, конституциявий ҳуқуқ, жамоат хавфсизлиги, жамоат тартиби, конституциявий тартибга солиш, хавфсизлик, фаолият, давлат органи, қонунчилик.

ВЕРХОВЕНСТВО КОНСТИТУЦИИ КАК ГАРАНТИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются основы общественной безопасности, теоретические вопросы, связанные с конституционно-правовой системой. Исследован результат

обеспечения конституционного приоритета, то есть выполнение требований конституции всеми субъектами права, обеспечение общественной безопасности своими действиями на основе конституции.

Ключевые слова: конституция, конституционное право, общественная безопасность, общественный порядок, конституционное регулирование, безопасность, деятельность, государственный орган, законодательство.

THE SUPREMACY OF THE CONSTITUTION AS A GUARANTEE OF PUBLIC SECURITY

Annotation: This article discusses the basics of public safety, theoretical issues related to the constitutional and legal system. The result of ensuring constitutional priority is studied, that is, the fulfillment of the requirements of the constitution by all subjects of law, ensuring public safety by their actions on the basis of the constitution.

Keywords: constitution, constitutional law, public safety, public order, constitutional regulation, security, activity, government body, legislation.

Конституция мамлакатнинг асосий норматив-ҳуқуқий ҳужжати ҳисобланади. Конституция ҳар қандай жамият ва давлатнинг ривожланиши давомида ижтимоий ҳаётнинг турли соҳаларида ҳуқуқий муносабатларни тартибга солишнинг меъёрий механизмларини шакллантирадиган асосий қоидаларни белгилайди. Жамоат хавфсизлиги ҳам бундан мустасно эмас. Мамлакатимизда жамоат тартибини сақлаш ва фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш бўйича фаолиятни тартибга солувчи нормалар тизимининг асоси Ўзбекистон Республикаси Конституциясидир.

Агар конституциявий тузумнинг устунлигини жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг кафолати сифатида қарайдиган бўлсак, “конституций тузум устунлиги ўзи нима” деган саволга жавоб беришга тўғри келади.

Конституциянинг ҳуқуқий устунлиги тамойили АҚШдаги конституциявий ривожланиш тажрибасига бориб тақалади, урушдан кейинги Европа доктринаси ва амалиёти томонидан сезиларли

даражада кенгайтирилган. Бу тамойил, биринчидан, конституцияга зид бўлган ҳар қандай фаолиятни, шу жумладан қонунчилик фаолиятини тақиқлашни англатади.

Иккинчидан, конституциявий нормалар қонунни анъанавий мезонларга нисбатан талқин қилиш ва қўллашнинг асосий воситасидир.

Учинчидан, барча норма ижодкорлик органлари конституциявий қоидаларни ишлаб чиқишда ҳаракат қилишлари шарт.

Тўртинчидан, конституцияни қабул қилишнинг ўзига хос хусусияти ва конституциявий қайта кўриб чиқиш тартибининг мураккаблиги Асосий қонунни анча барқарор қилади.

Бешинчидан, конституциянинг алоҳида муҳофазаси, бошқача айтганда, конституциявий назоратнинг мавжудлиги [1].

Конституциявий ҳуқуқий тузум устунлиги конституциявий қонунийликни амалга ошириш, яъни барча ҳуқуқ субъектлари томонидан конституция талабларини бажариш, уларнинг конституция асосида ва унга мувофиқ ҳаракатларни амалга ошириш натижасидир. М.С.Басиевнинг ёзишича, конституциявий ҳуқуқий тузум - бу конституцияда белгиланган ва конституциявий қонун ҳужжатлари қоидаларини ишлаб чиқувчи мавжуд ижтимоий муносабатлар ҳолатидир [2].

Конституциявий ҳуқуқий тузум устунлиги ҳуқуқий тартибнинг ўзагини ифодалайди, А.В.Безруковнин фикрига кўра, “Конституциявий ҳуқуқий тузум” тушунчаси кенг маънода кўриб чиқилиши ва амалдаги ҳуқуқий ҳужжатларга мос келадиган ва мос келмайдиган барча кўринишларни ўз ичига олади, уларнинг асоси конституциявий қонунчилик нормалари ҳисобланади.

Бошқача қилиб айтганда, ҳар қандай ғайриқонуний кўриниш (ҳуқуқ-тартиботнинг бузилиши) конституциявий қонунчилик ва тартибни бузиш деб баҳоланиши керак [3].

Бинобарин, конституциявий ҳуқуқий тузум мезонларига нафақат конституциянинг устунлиги ва бевосита таъсири, балки давлат органларининг жамият тараққиёти, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини амалга ошириш, жамоат хавфсизлигини таъминлаш

учун қулай шарт-шароитлар яратиш ва уларнинг бирлашмалари, қонуний мажбуриятларини бажариш борасидаги самарали фаолияти ҳам киради, шунингдек, ҳуқуқбузарларни қонуний жавобгарликка тортишнинг муқаррарлигини таъминлаш ҳам зарур бўлади.

Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий суди тўғрисидаги қонунда “Конституциявий суд ва унинг судьялари ўз фаолиятида мустақилдир ҳамда фақат Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига бўйсунади. Конституциявий суднинг судьялари қарор қабул қилар экан, ўзининг ҳуқуқий нуқтаи назарини амалий мақсадга мувофиқлик мулоҳазаларидан, сиёсий мойилликлар ва бошқа ташқи таъсирлардан ҳоли бўлган ҳолда ифодалайди. Конституциявий суднинг фаолиятига аралашишга йўл қўйилмайди ва бундай аралашиш қонунга мувофиқ жавобгарликка сабаб бўлади” [4] деб кўрсатилган.

Бундан тушиниш мумкинки, конституциявий ҳуқуқий тартиб, биринчи навбатда, Ўзбекистон Республикасининг бутун ҳудудида Ўзбекистон Республикаси конституциясининг устунлиги тамойилининг барқарор амалга оширилиши билан таъминланади.

Ўзбекистон конституциявий ҳуқуқий тузуми давлат суверенитети, халқ ҳокимиятчилиги, конституция ва қонуннинг устунлиги ва ташқи сиёсатнинг [5] умумий ҳуқуқий тамойилларига асосланади.

Конституциянинг устунлигини икки жиҳат – моддий ва расмий жиҳатдан кўриб чиқиш мумкин. Конституция устунлигининг моддий жиҳати унинг матнининг мазмунини ифодалайди, у адолат ва инсонпарварлик ғояларига жавоб бериши керак.

А.С.Алексеев, ҳуқуқий давлатда қонуннинг давлат ҳокимиятининг бошқа тизимларидан устунлигигина эмас, балки ҳуқуқнинг қонундан устунлиги ҳам амалга ошишини таъкидлаган эди [6]. У “ҳуқуққа куч берадиган қонун эмас, балки ҳуқуқ қонунга куч беради ва қонун чиқарувчи қонунни яратмасдан, балки жамият онгида ишлаб чиқилган қонунни топиши керак” деган фикрни илгари сурди. Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб, Ўзбекистон конституциясининг қадр-қиммати унинг адолат ғоялари - демократия,

тенглик, инсонпарварлик ғояларини ўзида акс эттирганлиги билан боғлиқлигини кўриш мумкин. Конституция муқаддимасида, биринчи ва иккинчи бобларда жамланган моддаларнинг мазмун-моҳияти, Ўзбекистон ҳуқуқий тартибининг асосини демократик, инсон ва фуқаронинг ҳуқуқ ва эркинликлари тан олиниши, уларга риоя қилиниши, ҳуқуқни ҳимоя қилиш давлат зиммасига юкланган ва унинг барча органлари фаолиятининг мазмуни ва моҳиятини белгилаши, ҳуқуқий ижтимоий давлат қадриятлари ташкил этиши аниқ кўрсатилган. Бу ерда Н.А.Михаилеванинг “Конституция жаҳон либерал-демократик доктринасининг ютуқларини ва мамлакатнинг ўтмишдаги конституциявий ривожланиши тажрибасидан энг яхшисини олиш керак” [7] деган фикрлари ўринлидир.

Шунинг учун ҳам конституцияда “Конституцияни ҳурмат қилиш ва унга риоя қилишнинг қатъий талаби”, яъни конституциявий ҳуқуқий тузум устунлигини амалга оширишга қаратилган талабларни белгиловчи асосий мақсад ва қадриятлар белгилаб берилган. Конституция устунлигининг расмий жиҳати унда асосий ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи ва фуқаролар ҳам, давлат ҳам истисносиз бўйсунадиган нормаларнинг мавжудлигини англатади. Бу дегани конституцияда ифодаланган давлат ва жамият тамойиллари ва асослари ҳеч қандай асоссиз имтиёз ва истисноларсиз ҳаммага бирдек татбиқ этилиши, бузилмас бўлиши шарт.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятининг барча норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари устидан устунликка эга, чунки у кўп миллатли халқ давлат, шахс ва жамият ўртасидаги муносабатларнинг асосий тамойилларини ўрнатган махсус норматив-ҳуқуқий ҳужжат бўлиб, давлат ҳокимиятини ташкил этилишини белгилайди. Конституциянинг устунлиги Ўзбекистон ягона суверен давлат сифатида фаолият юритишининг шарти бўлиб, унда тарихан бирлашган халқларнинг манфаатларини ифодалайди.

Бироқ, Конституциянинг идеал матни ҳам конституциявий ҳуқуқий тартибга солинмасдан туриб, унинг устунлигини кафолатлай

олмайди, янада тор маънода айтадиган бўлсак жамоат хавфсизлигини таъминлашга жавоб бера олмайди.

Конституциянинг устунлиги орқали “жамият ҳаётида, унинг барча жабҳаларида, барча сиёсий институтларда олий ҳуқуқий тамойиллар, қонунчилик руҳи мужассамланади. Бу фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларининг реаллиги ва дахлсизлигини, уларнинг ишончли ҳуқуқий мақоми ва ҳуқуқий хавфсизлигидир” [8].

Замонавий конституция Т.Я.Хабриева ва В.Е.Чиркинларнинг фикрича ҳуқуқий ҳужжат, давлатнинг асосий қонуни бўлиб, мураккаб тарзда қабул қилинадиган ва ўзгартириладиган, замонавий шароитда алоҳида тартибга солиш объектига, олий юридик кучга эга бўлган ҳуқуқий асос ҳисобланади [9]. Демак, бундан келиб чиқади конституциянинг устунлиги жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг асоси, кафолати сифатида қараш мумкин.

Конституциямизни жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг кафолати сифатида қарашимизнинг яна бир мисоли, бу миллий конституциямизнинг ҳуқуқий таҳлили шуни кўрсатадики, “хавфсизлик” атамаси бир неча марта қўлланилишига қарамай, Асосий қонуннинг деярли барча моддалари бевосита ёки билвосита жамоат хавфсизлигини таъминлаш билан боғлиқ.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясида “хавфсизлик” атамаси ўн тўққиз маротаба ишлатилган. Конституциямизнинг 18-моддасида давлат ва ҳалқ манфаатларининг хавфсизлиги тўғрисида, 21, 33, 38-моддаларида жамоат хавфсизлиги тўғрисида, 42, 44-моддаларида меҳнат хавфсизлиги, 71, 103, 109-моддаларида давлат хавфсизлиги, 95 -моддасида Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан таклиф этилган Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати раиси лавозимига номзод юзасидан маслаҳатлашувлар ўтказиш, лавозимга тайинлаш ва озод қилиш тўғрисида, 115-моддасида озиқ-овқат хавфсизлиги тўғрисида кўрсатиб ўтилган.

Конституциянинг кўпгина моддаларида “хавфсизлик” атамасидан ташқари, маъно жиҳатидан ўхшаш тушунчалар ва иборалар жуда кўп маротаба қўлланилади, масалан: яшаш ҳуқуқи;

эркинлик ва шахсий дахлсизлик ҳуқуқи; инсон ва фуқаронинг ҳуқуқ ва эркинликларини давлат томонидан ҳимоя қилиниши; мудофаани таъминлаш; конституциявий тузумни ҳимоя қилиш; фавқулодда ҳолат; ҳарбий ҳолат; уруш ва тинчлик масалалари; офатларга қарши курашиш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш; давлат суверенитетини ҳимоя қилиш чоралари; давлатимиз ҳудудининг яхлитлиги ва дахлсизлигини таъминлаш; давлат чегарасини ҳимоя қилиш тушунчалари шулар жумласидандир.

Конституция моддаларида хавфсизлик масалаларига жиддий эътибор қаратилган. Мамлакатимиз Асосий қонуни миллий хавфсизликни ҳуқуқий таъминлашнинг асосий муаммоларини ҳал қилади, яъни фуқаролар хавфсизлиги, жамоат хавфсизлиги, давлат хавфсизлигини таъминлайди ва кафотлайди.

Ҳаттоки “жамоат хавфсизлиги” тушунчасининг ўзини бутунлай конституциявий термин сифатида қараш мумкин. Мамлакатимиз Конституциясининг 21 ва 33-моддаларида жамоат хавфсизлигига доир масалалар кўрсатилган. Масалан Конституциямизнинг 21-моддасида “Ҳар бир инсон ўз шахсини эркин камол топтириш ҳуқуқига эга. Ҳеч кимга унинг розилигисиз қонунчиликда белгиланмаган мажбурият юклатилиши мумкин эмас. Инсон ўз ҳуқуқ ва эркинликларини амалга оширишда бошқа шахсларнинг, жамият ҳамда давлатнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига путур етказмаслиги шарт. Инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари фақат қонунга мувофиқ ва фақат конституциявий тузумни, аҳолининг соғлиғини, ижтимоий ахлоқни, бошқа шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, жамоат хавфсизлигини ҳамда жамоат тартибини таъминлаш мақсадида зарур бўлган доирада чекланиши мумкин” деб кўрсатилган бўлса, 33-моддасида “Ҳар ким фикрлаш, сўз ва эътиқод эркинлиги ҳуқуқига эга. Ҳар ким исталган ахборотни излаш, олиш ва тарқатиш ҳуқуқига эга. Давлат Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланишни таъминлаш учун шарт-шароитлар яратади. Ахборотни излаш, олиш ва тарқатишга бўлган ҳуқуқни чеклашга фақат қонунга мувофиқ ҳамда фақат конституциявий тузумни, аҳолининг соғлиғини,

ижтимоий ахлоқни, бошқа шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, жамоат хавфсизлигини ҳамда жамоат тартибини таъминлаш, шунингдек давлат сирлари ёки қонун билан қўриқланадиган бошқа сир ошкор этилишининг олдини олиш мақсадида зарур бўлган доирада йўл қўйилади" [10] деб кўрсатилган. Ўзининг аҳамиятига кўра, ушбу моддалар маъноси ва аҳамиятига кўра "жамоат хавфсизлиги" алоҳида, мустақил боб бўлишига лойиқдир. Шундай қилиб, Конституциямизнинг муқаддимасида кўрсатилганидек, Ўзбекистон Республикасини инсонпарвар демократик давлат деб эълон қилган ҳолда, жамоат хавфсизлигининг устуворлигини, унда давлатнинг хизмат ролини ҳам алоҳида кўрсатиб ўтиш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Мамлакатимиз Конституцияси жамиятнинг барча тоифасига у ёки бу даражада хавфсиз, нормал фаолият юритиш ва ривожланиш имкониятини кафолатлайди. Яъни бошқача қилиб айтадиган бўлсак, давлат жамиятга ҳомийлик қилиш орқали, жамоат хавфсизлигини таъминлайди. Жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг асосий усулларидан бири - бу жамиятга референдум, сайловлар, ҳохиш-иродани тўғридан-тўғри ифода этишнинг бошқа шакллари (масалан, намойишлар, митинглар, юришлар), маҳаллий сайланган депутат ва сенаторлар орқали давлатни бошқариш амалиётига таъсир ўтказиш имконини берадиган конституциявий тузумдир, бу томонидан кафолатланган, масалан "Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари жамият ва давлат ишларини бошқаришда бевосита ҳамда ўз вакиллари орқали иштирок этиш ҳуқуқига эга" [11], "Фуқаролар ўз ижтимоий фаолликларини Ўзбекистон Республикаси қонунларига мувофиқ митинглар, йиғилишлар ва намойишлар шаклида амалга ошириш ҳуқуқига эга" [12], "Ўзбекистон Республикаси фуқаролари касаба уюшмаларига, сиёсий партияларга ва бошқа жамоат бирлашмаларига уюшиш, оммавий ҳаракатларда иштирок этиш ҳуқуқига эга" [13] эканлиги кўрсатилган.

Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришгач, халққа садоқат билан хизмат қилишга қасамёд қилади (108-модда),

давлат бошлиғи сифатида у жамоат хавфсизлигининг кафолати сифатида ишлайди.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш керакки, конституциянинг устунлиги жамоат хавфсизлигини таъминлашни маъмурий-ҳуқуқий тартибга солинишининг асоси ҳисобланади. Шунингдек, жамоат хавфсизлигининг конституциявий тартибга солиниши, ўз навбатида жамиятдаги институционал ва таркибий ўзгаришлар турмуш даражасининг яхшиланишига олиб келиши ва инсон салоҳияти сифатига ижобий таъсир кўрсатиб, вужудга келган қийинчиликларни енгиш, сиёсий-ҳуқуқий ва ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг салбий тенденцияларини бартараф этиш ва жамоат хавфсизлигини инсон ҳуқуқларига хос қадриятлар асосида таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 2023 йил 30 апрель.
2. “Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий суди тўғрисида қонун”нинг 22-моддаси. 2021 йил 27 апрель, ЎРҚ-687-сон.
3. Таджиханов У., А.Х.Саидов. Конституции мира. (Сборник конституции мира. том-1) Ташкент. 1997. С-8.
4. Басиев М. С. Институт федерального вмешательства как чрезвычайный механизм обеспечения конституционного правопорядка на территории федеративного государства: сравнительно-правовой анализ: дис. ... канд. юрид. наук. М.: РУДН, 2007. 2013 с.
5. Безруков А. В. Конституционализация правопорядка: сущность, реализация, условия // Российская юстиция. 2016. № 5. С. 12–14.
6. Алексеев С. С. Государство и право: начальный курс: учеб.-конспект. М.: Юрид. лит., 1993. 192 с.
7. Михалева Н. А. Конституция 1993 г. – юридическая модель настоящего и будущего России // Lex russica. 2013. № 12. С. 1307–1317.
8. Кутафин О. Е. Российский конституционализм. М.: Норма, 2008. 544 с.

9. Хабриева Т.Я., Чиркин В.Е. Теория современной конституции. – М.: Норма, 2005. – 319 с.

10. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 36-моддаси. 2023 йил 30 апрель.

11. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 38-моддаси. 2023 йил 30 апрель.

12. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 39-моддаси. 2023 йил 30 апрель.

AYUB MUXAMMADIYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yuridik fanlar doktori

YETIM VA OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARNING HUQUQ VA MANFAATLARI JAMIYAT VA DAVLAT HIMOYASIDA

Annatatsiya. Mazkur moqolada ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan bolalar va yetim bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, o‘qitish, tarbiyalash, ta’minlashga jamiyat va davlat tomonidan alohida e’tibor berilib kelinayotganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ota-ona, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, ijtimoiy himoya, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan bolalar, yetim bola, huquq, manfaat, himoya qilish, o‘qitish, tarbiyalash, ta’minlash, jamiyat, davlat.

ПРАВА И ИНТЕРЕСЫ ДЕТЕЙ-СИРОТ И ДЕТЕЙ, ОСТАВШИХСЯ БЕЗ ПОПЕЧЕНИЯ РОДИТЕЛЕЙ, НАХОДЯТСЯ ПОД ЗАЩИТОЙ ОБЩЕСТВА И ГОСУДАРСТВА

Аннотация. В данной статье освящено систематическое удиление со стороны общества и государства особого внимания защиты прав и интересов, обучению, воспитанию, обеспечению детей сирот и детей лишенных родительской опеки.

Ключевые слова: родители, лишенные родительской опеки, социальная защита, дети нуждающиеся в социальной защите, сирота, интерес, защита, обучение, воспитание, обеспечение, общество,

государство.

THE RIGHTS AND INTERESTS OF ORPHANS AND CHILDREN DEPRIVED OF PARENTAL CARE ARE UNDER THE PROTECTION OF SOCIETY AND THE STATE

Annotion. This article highlights the simultaneous emphasis on the part of society and the state in protecting the rights and interests, training, education, and providing for orphans and children deprived of parental care.

Key words: parents deprived of parental care, social protection, children in need of social protection, orphans, interest, protection, training, education, provision, society, state.

Mamalakatimizda ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan bolalar va yetim bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, o‘qitish, tarbiyalash, ta’minlashga jamiyat va davlat tomonidan alohida e’tibor berilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning bolalar haqidagi g‘amxo‘rligi, ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburliklari, yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarini rag‘batlantirish alohida belgilab qo‘yilgan (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasi).[1]

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuniga, shuningdek, oila qonunchiligi normalariga muvofiq, ota-onasi vafot etgan, ota-onalik huquqi cheklangan yoki mahrum etilgan hollarda, ularni muomalaga layoqatsiz deb topilgan hollarda, uzoq vaqt bo‘lmasligi, kasalligi, ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan hamda ota-onalarning tarbiyaviy, ijtimoiy, davolanish maskanlari va boshqa shunga o‘xshash muassasalardan farzandlarini olishdan bo‘yin tovlaganida, shuningdek, bolaning ota-onasi bo‘lmaganda yoki ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda va bolaota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan boshqa hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta’minlanadi (Oila kodeksi 65-moddasi).[2]

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar oilaga farzandlikka

olinishi, vasiylik, homiylik belgilanishi yoki tutingan oilaga berilishi, bunday imkoniyat bo‘lmaganda esa, yetim bolalar yoxud ota-onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalar, ya’ni tarbiya, davolash, aholiniijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o‘xshash boshqa muassasalarga tarbiyaga berilishi lozim (Oila kodeksi 150-moddasi).[2]

O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasiga binoan, yetim bola deganda otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga ko‘ra vafot etgan deb e’lon qilingan bola tushuniladi.[4] “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 30-moddasiga binoan esa, voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi olishlari uchun javobgardirlar. Ushbu qonunning 22-moddasida esa yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o‘qitish va ularni boqish davlatning to‘la ta’minoti asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi ko‘rsatib qo‘yilgan.[5]

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 106-moddasida ota-onasi vafot etganligi oqibatida yetim qolgan voyaga yetmagan bolalarga ta’minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta’lim berish davlat tomonidan to‘liq amalga oshiriladi.

2017-yil 13-iyunda qabul qilingan O‘zgartirishlar asosida O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni 271-moddasi “to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar huquqlarining kafolatlari” bilan to‘ldirilgan. Ushbu moddaga ko‘ra, yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar davlat tarbiya, davolash-sog‘lomlashtirish, tibbiy-ijtimoiy muassasa-lariga, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalariga tarbiyaga berilgan kundan e’tiboran to‘liq davlat ta’minotida bo‘ladi.[4]

to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan yetim bolalarga va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan

bolalarga ta’lim berish, ularni uy-joy, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa ashyoviy buyumlar bilan ta’minlash, ular ta’lim muassasalarini bitirayotganda, ishga qabul qilinayotganda kiyim-bosh, poyabzal va boshqa ashyoviy buyumlar sotib olish uchun nafaqa to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yetim bolalar va ota-onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning tarbiyalanishi, ta’minoti, ta’lim olishini ta’minlash uchun Konstitutsiyaning 64-moddasiga binoan jamiyatga javobgarlik yuklangan. Shu nuqtai nazardan, Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda va himoya qilishda ko‘maklashadi, bolaga yoki uning qonuniy vakiliga huquqiy, uslubiy, axborotga oid va boshqa yordam ko‘rsatadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha davlat dasturlari va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda hamda ro‘yobga chiqarishda ishtirok etishi, bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga doir vakolatlarni amalga oshirishda davlatdan va xalqaro tashkilotlardan uslubiy, tashkiliy hamda moliyaviy yordam olishi mumkin (“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasi).[4]

Bundan tashqari, fuqarolar yig‘inining raisi (oqsoqoli) ushbu maqsad yo‘lida:

–ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalarida yoki vasiylik va homiylikda turgan, oilaga tarbiyaga topshirilgan yetim bolalarning, ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning mol-mulkini saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘radi;

–yetim bolalarning, ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning moddiy va uy-joy, maishiy sharoitlarini yaxshilash to‘g‘risida tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi;

–voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha jamoatchilik ishlarini tashkil etadi, yetim bolalar, ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar haqidagi ma’lumotlarni vasiylik va

homiylik organlariga taqdim etadi, shuningdek, bunday bolalarni tegishli davlat muassasalariga joylashtirishga ko‘maklashadi (“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 14-moddasi) [3].

Konstitutsiyaning 64-moddasidagi qoidalarini izchil amalga oshirilishi Respublikada jismoniy va ruhan sog‘lom har taraflama rivojlangan yosh avlodni tarbiyalashda ulkan natijalarga erishishga va bu sohadagi yuqori natijalar xalqaro ekspertlar tomonidan bir necha bor e’tirof etilishiga olib keldi. Masalan, 2013-yilda BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi O‘zbekistonning bola huquqlari bo‘yicha BMT konvensiyasini bajarish yuzasidan ma’ruzasini ko‘rib chiqish jarayonida mamlakatimizda bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha erishilgan yutuqlar va choralarni yuqori baholadi, qo‘mita va uning a’zolari tomonidan bola huquqlarining huquqiy asoslari mavjudligi e’tirof etildi, hamda sohadagi xalqaro hujjatlarni O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilinishiga yuqori baho berildi.

Mamlakatimizdagi bola huquqlarini va qonuniy manfaatlarini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat va jamoat birlashmalarining javobgarligini kuchaytirish sog‘lom ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 25 oktyabrdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 656-son qarorining yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, turarjoylar bilan ta’minlash, ularni oilaviy bolalar uylariga joylashtirish, hayotga tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish tizimini takomillashtirshga qaratilganligi jamiyat va davlatning bolalar to‘g‘risidagi otalarcha g‘amxo‘rligining yana bir isboti desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, “ЎЗБЕКИСТОН” НМИУ, 2023.

2. Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси, ҚҲМБ, 18.05.2022,03/22/770/-1321-сон.

3.Ўзбекистон Республикасининг “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги қонуни, “Ўзбекистоннинг янги қонунлари”, 21- сон,Т., “Адолат”, 1999.

4.Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги қонуни, ҚҲМБ, 18.05.2022,03/22/-770/0424-сон.

5.Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги қонуни. ҚҲМБ, 12.10.2021,03.21.-771/0952-сон.

ЭШМУҲАММАД ҚОДИРОВ,

Тошкент давлат юридик университети профессори, юридик фанлар доктори

КОНСТИТУЦИЯВИЙ ИСЛОҲОТЛАР - ЁШЛАРГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСИ

Мазкур мақолада Янги Ўзбекистонда Конституциявий ислоҳотлар ёшларга оид давлат сиёсатининг муҳим ҳуқуқий асоси эканлиги конституциявий илмий назарий жиҳатдан таҳлил этилган. Шунингдек, мавжуд илмий амалий муаммолар таҳлил этилиб, уларни баратараф этишнинг конституциявий ҳуқуқий механизмлари тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: ёшлар, ёшларга оид давлат сиёсати, Конституция, конституциявий ислоҳот, конституциявий ҳуқуқий механизм, ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданият, ҳуқуқий таълим.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ РЕФОРМЫ - ПРАВОВАЯ ОСНОВА ГОСУДАРСТВЕННОЙ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ

В данной статье с точки зрения конституционной доктрины дается анализ конституционных реформ в Новом Узбекистане в качестве важной правовой основы государственной политики в отношении молодежи. Также анализируются существующие научно-практические проблемы, исследуются конституционно-правовые механизмы их устранения.

Ключевые слова: молодежь, молодежная государственная политика, Конституция, конституционная реформа, конституционно-правовой механизм, правосознание и правовая культура, юридическое образование.

CONSTITUTIONAL REFORM - LEGAL BASIS OF STATE YOUTH POLICY

This article, from the point of view of constitutional doctrine, provides an analysis of constitutional reforms in New Uzbekistan as an important legal basis for state policy towards youth. Existing scientific and practical problems are also analyzed, and constitutional and legal mechanisms for their elimination are explored.

Key words: youth, youth state policy, Constitution, constitutional reform, constitutional and legal mechanism, legal consciousness and legal culture, legal education.

Янги Ўзбекистон ўз олдига ҳозирги ва келажак авлодлар олдидаги юксак масъулиятини англаб, инсон қадри юксалган – инсонпарвар – демократик ва адолатли жамият қуришни мақсад қилар экан бунда табиийки ёшларга оид давлат сиёсатининг ташкилий-ҳуқуқий асосларига эътибор қаратиши шубҳасиз. Зеро, давлат сиёсатининг устувор йўналиши саналмиш ёшлар сиёсати конституциявий даражада мустаҳкамландими, демак у истиқболли саналади. Агар масаланинг мантиғига биз ўзбек халқининг менталитети ҳамда Конституция давлатнинг олий юридик кучга эга қонуни эканлиги принципидан келиб чиқсак, унинг моҳияти янада ойдинлашади.

Мамлакатимизда жорий йилнинг 30 апрелида референдум йўли билан янги таҳрирдаги Конституциянинг қабул қилингани муҳим тарихий воқеа бўлди. Республикамизда Конституциявий ислоҳотнинг амалга оширилгани биринчидан, инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг таъминланиши ва унинг кафолатланиши, иккинчидан, давлат органлари ва мансабдор шахсларнинг масъулияти оширилиши, учинчидан, фуқаролик жамияти институтларига имкониятнинг кенгайтирилиши билан боғлиқлигида кўринади. Асосий қонунимизнинг ислоҳ этилиши шу ўринда, мамлакатимиз сиёсий ва

ҳуқуқий тизими ҳамда иқтисодиёт, ижтимоий ёхуд маданий соҳанинг ривожланиши билан ҳам боғлиқлигини назардан қочирмаслик лозим.

Бинобарин, Ўзбекистон аҳолисининг ярмини айнан ёшлар ташкил этгани ёхуд Янги Ўзбекистонни қуришда ёшлар янги куч, янги ғоя, замонавий илм ва инновацион технология соҳиблари сифатида намоён бўлиши амалга оширилаётган Конституциявий ислоҳотларнинг асосий ядросини ташкил этади. Шу нуқтаи назардан ёшларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатлари Конституция даражасида мустаҳкамланди [1]. Давлат ўз олдига халқни рози қилишдек концептуал масалани қўяётгани ҳам бевосита муҳим ижтимоий қатлам саналмиш ёшлар билан ўзаро боғлиқ ҳисобланади. Шу ўринда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 8 майдаги “Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-67-сон фармонининг [2] аҳамияти ҳам юқори эканлигини таъкидлаш жоиз, деб ҳисоблаймиз.

Фан ва илмий назарий жиҳатдан давлатнинг ёшларга оид сиёсати билан боғлиқ амалда қандай муаммолар борлигига эътибор қаратилса, бу борада жамият ва давлат олдида қатор муаммолар борлиги аниқ бўлади. Бу эса давлатнинг “фаол фуқарони тарбиялаш” концепциясига ўз салбий таъсирини кўрсатади.

Биринчидан, Конституциямизнинг мазмун моҳиятини ва аҳамиятини тўғри тушунишда реал, амалий муаммолар мавжуд. Яъни мазкур ҳолат узлуксиз таълим тизимида мактабгача таълим муассалари, умумтаълим мактаблари, академик лицей, коллеж ва техникумларда Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг фан сифатида ўқитилишида намоён бўлади. Зотан, Конституциявий ҳуқуқ фани афсуски, барча таълим муассасаларида ҳам мутахассислар томонидан белгиланган талаб ва етарли даражада ўқтилмайди. Аксарият ҳолларда масалага юзаки ёндашилиб, вазиятдан чиқиш асосий вазифа сифатида кўрилади. Мазкур фан таълим муассасаларида бошқа соҳа вакиллари томонидан ўқитилади. Маълум бўладики, ўқувчилар Конституция тўғрисида дастлабки етарли, тўғри тасаввурга эга бўлмайди. Ёшлар инсон ҳуқуқлари, бурчлари, давлат

ҳокимияти органлари, фуқаролик жамияти институтлари, шахс – жамият – давлатнинг манфаатлари уфғунлиги каби ҳуқуқий ва сиёсий билимларни ўзлаштирмайди. Таассуфки, натижа ўзининг салбий таъсирини ёшларнинг ҳаётида кенг кўламда узоқ муддатларга кўрсатади. Мазкур ҳолатда давлатнинг маърифатли шахсни тарбиялашдек устувор вазифаси амалга ошмай қолади. Ёшларга оид давлат сиёсати ҳам дарз кетади.

Иккинчидан, мамлакатимизда ёшлар, айниқса ўспиринларнинг амалий ҳуқуқий билимларини ўзлаштириш каби самарали хорижий тажрибадан унунмли фойдаланилмайди. Борлари ҳам жуда кам ва тўлиқ мамлакат ёшлари доирасини қамраб ололмайди. Тараққий этган давлатларда ёшларнинг мазкур тоифаси учун “Юридик клиника” (амалий ҳуқуқ)дан фойдаланишади ва у ўз самарасини бериши реал ҳаётдан маълум. Натижада хориж ёшларининг кўпчилиги ўз ҳуқуқлари билан бирга бурчларини ҳам тенг англайдиган бўлиб етишишади. Сиёсий ва ҳуқуқий жиҳатдан фаол фуқаро сифатида шаклланишади. Масалан, амалий ҳуқуқ бизда фуқаролик паспортини олиш, ўқиган маълумоти ҳақида диплом олиш, дастлабки меҳнат муносабатларига киришиш, ўспиринлар ўз ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини амалга оширишда олган назарий билимларидан амалий фойдаланиши кабилар тушунилади. Афсуски, бизнинг ёшларимиз бундай амалий жараёнларга қачонки ўзлари шахсан муаммога дуч келгандагина зарурат сезишади.

Учинчидан, юртимиз ёшлари орасида учрайдиган яна бир салбий ҳолат, бу уларнинг аксарияти ўз ҳуқуқларини англаши бироқ конституциявий бурчларидан хабардор эмаслигидир. Инсон ҳуқуқлари фақат шахсга ҳуқуқни белгиламайди, ўз ўрнида унга муайян бурчларга риоя қилишини ҳам юклайди. Ана шундагина юридик жиҳатдан ҳуқуқ тўлиқ бўлади. Демак ёшларнинг ўз ҳуқуқ ва бурчларини тенг англаши нафақат ҳуқуқий фаол бўлишига балки юриспруденциянинг моҳиятини тўғри тушунишига ҳам хизмат қилади. Ёшларда бурчдорлик ҳиссининг шаклланиши уларнинг оиласига, маҳалласига, қишлоқ ёки шаҳрига, вилоятига ҳамда ватани

олдидаги масъулиятининг ошишига замин яратади. Шу ўринда қайд этиш жоизки, конституциявий ҳуқуқ ва бурчларини тенг англайдиган ёшларнинг кўпайиши, боқи беғам, лоқайд ва худбин шахсларнинг шаклланишининг олдини олади.

Тўртинчидан, ҳуқуқий тарбия ёки ҳуқуқий маърифатга ижтимоий тарбиянинг ажралмас, муҳим таркибий қисми сифатида эътибор қаратилмаслигидадир. Тўғри. Ҳуқуқий тарбия масаласида жамият ва давлат миқёсида расмий тарзда бўлса-да, муайян норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиниб қатор ишлар амалга оширилади. Буни инкор этиб бўлмайди. Лекин масаланинг индивидуал ва оилавий жиҳатлари қониқарсиз ҳолатда қолаётганидан кўз юмиб бўлмайди. Мазкур ҳолат жамият ва давлат миқёсида ҳуқуқий тарбия билан боғлиқ ишларнинг манзилли равишда аниқ субъектларга етиб бормаслигида ёки улар томонидан ўзлашмаслигида ҳам кўринади. Ҳар бир ёш авлод вакили ҳуқуқий тарбия унинг шахсий манфаати, жамият ва давлат манфаати билан уйғун бўлганда натижа беришини билиши керак. Шунингдек, ҳуқуқий тарбия фақат ҳуқуқни қўлловчи давлат органлари ва мансабдор шахсларнинг иши деган жамиятдаги нотўғри ва тор тушунчадан воз кечиш вақти аллақачон келганини тушуниш лозим. Зеро, бугунги ёшлар давлат ва жамият бошқаруви учун фаол ворислар экани ёхуд улар доимий равишда ушбу ижтимоий қатлам вакили сифатида қолмаслигини назардан қочирмаслик лозим. Вақти келиб, улар мазкур категориядан чиқиб, фаол фуқарога айланишини, давлат ва жамият бошқарувининг қонунийлиги ёки адолатлилиги айнан ёшларга боғлиқлигини тушунушимиз ва тушунтиришимиз зарур. Яна бир муҳим жиҳат бугунги даврда ҳуқуқий тарбияни амалга оширишда шахсий ибрат масаласи нақадар долзарблигини ҳам унутишга ҳаққимиз йўқ. Чунки бугунги ёшлар интеллектуал аср ёшлари эканини, улар фақат айтилганни қиладиган эмас, аксарият ҳолатда ўз кўзи билан кўрганини ҳамда ўзи гувоҳ бўлган реал ҳаракатни амалга оширишини назардан қочирмаслик керак.

Бешинчидан, ёшларда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятнинг юксалтирилишида тизимлиликка амал қилинмаётганлиги ҳам муҳим

сабаб сифатида намоён бўлмоқда. Дарҳақиқат, мазкур йўналишда алоҳида норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилиниб, унда “Юксак ҳуқуқий маданият – мамлакат тараққиёти кафолати” деган концептуал ғоя асосида ҳуқуқий билимларни кундалик ҳаётда тизимли қўллай олиш устувор вазифа сифатида белгиланган[3] бўлса-да, уни реал ҳаётда тўлиқ амалга оширилаяпди, деб бўлмайди. Умумий аҳолимизнинг ярмини ташкил этувчи ёшлар учун ҳуқуқий маърифат бугунги кунда зарурат саналса-да, у ҳали реал воқеликка айланиб улгургани йўқ. Ваҳоланки, ушбу фармонда жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш “шахс – оила – маҳалла – таълим муассаси – ташкилот – жамият” принципи бўйича тизимли ва узвий равишда амалга оширилиши мустаҳкамланган. Натижада, айрим ёшларимиз республикамиз ичкариси ёхуд унинг ташқарисида ҳам муайян ҳуқуқий муаммоларга дуч келиб сарсон бўлишмоқда. Бу эса табиийки маълум маънода мамлакатнинг нуфузига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Фикримизча, бунда асосий сабаб ёшларда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтиришнинг ҳуқуқий базаси саналмиш мазкур норматив ҳуқуқий ҳужжат талабларини баъзи давлат органлари ва мансабдор шахслар ёки таълим муассасаси, ташкилот ва айрим шахсларнинг талаб даражасида билмасликлари билан ҳам изоҳлаш мумкин.

Янги Ўзбекистоннинг маърифатли шахсни тарбиялаш билан боғлиқ ёшларга оид давлат сиёсатининг конституциявий асосларининг ечими нималарда кўринади? деган Конституциявий илмий назарий саволга қуйидаги жавобларни бериш мумкин.

Биринчидан, янги таҳрирдаги Конституциямизда ёшларга оид давлат сиёсатига бевосита тегишли нормаларнинг мустаҳкамланганида кўринади. Унга кўра, асосоий қонунимизда оила, болалар ва ёшларга дахлдор алоҳида янги боб киритилди. Шу пайтгача амалда бўлган Конституциямизда эса мазкур нормалар фақат унинг муқаддимаси, 41 ва 45-моддаларида [4] мавжуд эди холос. Хусусан, янги таҳрирдаги Конституциянинг 78-моддасида боланинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш ҳамда ҳимоя қилиш, унинг жисмоний, ақлий ва маданий

жиҳатдан тўлақонли ривожланиши учун энг яхши шароитларни яратиш давлатнинг мажбурияти [5] сифатида мустаҳкамланган. Бизнингча, мазкур норманинг Конституция даражасида белгиланиши давлатнинг маърифатли шахсларни айнан ҳуқуқ асосида, дастлаб давлат институтларининг, фуқаролик жамияти ва ижтимоий институтлар билан мустаҳкам ҳамкорликда масъулиятни зиммасига олиб асосий қонунимизнинг мазмун моҳияти ва аҳамиятини жамият аъзолари, айниқса, ёшлар онгига муҳим қадрият сифпатида сингдиришни амалга ошириш мажбуриятига кенг имконият яратади. Ва ушбу ҳуқуқий механизм ёшларга оид давлат сиёсатининг Конституциявий асосини такомиллаштиришга хизмат қилади.

Иккинчидан, айнан шу конституциявий модданинг иккинчи қисмида давлат ва жамият болаларда ёхуд ёшларда миллий ва умуминсоний қадриятларга содиқликни, мамлакатдан ёки халқнинг бой маданий меросидан фахрланишни, ватанпарварлик ва Ватанга меҳр-муҳаббат туйғуларини шакллантириш ҳақида ғамхўрлик қилиши ҳам мустаҳкамланган. Фикримизча, маърифатли шахсга хос бўлган мазкур ижобий сифатлар давлат ва жамият бошқарувида олган назарий ҳуқуқий-сиёсий билимларини амалда қўллай оладиган, ўз эркин шахсий позициясига эга, эркин тафаккурли ва мустақил ҳамда дахлдорлик ҳиссини туйувчи ижтимоий, сиёсий ва ҳуқуқий фаол фуқароларнинг ҳамда муносиб ворисларнинг тарбияланишига замин яратади.

Учинчидан, асосий қонунимизнинг 79-моддасининг биринчи қисмида давлат ёшларнинг шахсий, сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ҳамда маданий ёхуд экологик ҳуқуқлари ҳимоя қилинишини таъминлаши ёки уларнинг жамият ва давлат ҳаётида фаол иштирокини рағбатлантириши ҳам ўз ифодасини топган. Мазкур янги конституциявий норманинг белгиланиши ҳам ўз навбатида ёш авлод вакилларининг нафақат ўз ҳуқуқларини балки конституциявий бурчларини ҳам тенг ўзлаштиришига хизмат қилиши шубҳасиз. Сабаби давлат фақат шахснинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳимоя қилинишини эмас балки унинг жамият ва давлат олдидаги бурчларга амал қилинишини ҳам рағбатлантиради. Натижада мамлакатимизда

бу борада мкавжуд муаммолар ушбу конституциявий ҳуқуқий механизмлар асосида барҳам топади.

Тўртинчидан, Конституциянинг 50-моддасида давлат узлуксиз таълим тизими, унинг ҳар хил турлари ҳамда шакллари ёки давлат ва нодавлат таълим ташкилотлари ривожланишини таъминлаши, мактабгача таълим ва тарбия ҳамда умумий ўрта таълим давлат назоратида эканлиги ёхуд таълим ташкилотларида алоҳида таълим эҳтиёжларига эга бўлган болалар учун инклюзив таълим ва тарбияни таъминлаши мустаҳкамланган. Мазкур конституциявий механизм орқали давлат ҳуқуқий таълимнинг амалда умумий таълимнинг ажралмас таркибий қисмига айланиши шунингдек, ҳуқуқий тарбия ва ҳуқуқий маърифатнинг ёшлар учун асосий қадриятга айланишига эришади. Ва бу ўз ўрнида ҳуқуқий маърифат жараёнида “шахсий намуна” усулининг оммалашишига, ёшларнинг айнан эрта болаликдан ҳуқуқ асосида тарбияланишининг самарали бўлишини таъминлашга хизмат қилиши билан ҳам аҳамиятли саналади.

Бешинчидан, Конституциянинг 79-моддасининг иккинчи қисмида давлат ёшларнинг интеллектуал, ижодий, жисмоний ва ахлоқий томондан шаклланиши ҳамда ривожланиши, таълим олишига, соғлиғини сақлашга, уй-жойга, ишга жойлашишга, бандлик ва дам олишига бўлган ҳуқуқларини амалга оширшга шароит яратиши белгиланган. Демак, ҳуқуқий маданияти юксак ёшларнинг кўплиги давлатнинг ҳар томонлама тараққиётини белгилар экан. Яъни қайд этилган давлат ва ёшлар ўртасидаги ўзаро муносабат бевосита ҳуқуққа асосланади. Инчунун, мазкур ҳуқуқий механизм ёшларнинг ҳуқуқий ва сиёсий жиҳатдан фаоллашиб уларнинг давлат билан ўзаро муносабати самарали бўлишига имконият яратади. Шу нуқтаи назардан ёшларнинг ҳаёти давомида ҳуқуқий маданиятининг босқичма-босқичлик асосида юксалиб бориши дастлаб фаол фуқаро сифатида ўзи учун ҳамда маърифатли шахсни тарбиялашда давлат учун ҳам бирдек манфаатли ҳисобланади. Ва ушбу ҳуқуқий норма давлатнинг бош йўналтирувчи субъект сифатида жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятнинг юксалишида самарадорлигини таъминлашга ҳамда мазкур йўналишда мавжуд муаммоларни ҳал

этишга хизмат қилиши билан аҳамиятли саналади. Бизнингча, ёшларнинг деярли барчаси ушбу муносабатларнинг мантиғига кўра ҳам ҳуқуқий маданияти юксак бўлишдан манфаатдор ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, Янги Ўзбекистонда маърифатли шахсни тарбиялашда ҳуқуқ беназир қадрият саналади. Конституция эса миллий ҳуқуқий тизимнинг асосий манбаидир. Шу нуқтаи назардан халқимизнинг хоҳиш иродаси асосида референдум йўли билан қабул қилинган янги таҳрирдаги конституциямиз ва унинг асосидаги конституциявий ислоҳотлар ушбу мақсадга эришишда ҳамда ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштиришда муҳим ҳуқуқий асос ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасини Конституцияси. Расмий нашр. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2023. – 80 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 8 майдаги “Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-67-сон фармони. Миллий қонунчилик базаси маълумотлари, 10.05.2023 й., №0/623/67/0269.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 9 январдаги «Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-5618-сон Фармони. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.01.2019 й., 06/19/5618/2452-сон).
4. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 16-17-бетлар.
5. Ўзбекистон Республикасини Конституцияси. Расмий нашр. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2023. – 29-31-бетлар.

МАВЛЮДА АБДУЛЛАЕВА,
профессор университета общественной безопасности Республики Узбекистан

ОСОБЕННОСТИ ЭКОНОМИКИ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА

Аннотация: в статье приводятся истоки возникновения понятия «социальное государство», раскрывается сущность, эволюция и особенности экономики социального государства. а также идёт рассуждение о формировании социального государства в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: конституция, государство, социальное государство, социальное обеспечение, социальное страхование.

IJTIMOIY DAVLAT IQTISODIYOTI XUSUSIYATLARI

Аннотация: maqolada “Farovonlik davlati” tushunchasining kelib chiqishi, ijtimoiy davlat iqtisodiyotining mohiyati, evolyutsiyasi va xususiyatlari ochib berilgan. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy davlatning shakllanishi haqida ham sO‘z boradi.

Kalit so`zlar: konstitutciya, davlat, ijtimoiy davlat, ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy kafolat.

FEATURES OF THE ECONOMY OF A SOCIAL STATE

Abstract: the article provides the origins of the concept of “welfare state”, reveals the essence, evolution and features of the economy of the social state. and there is also discussion about the formation of a social state in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: constitution, state, social state, social security, social insurance.

Понятие «социальное государство» впервые было введено в середине XIX века немецким экономистом Лоренцем фон Штейном. Его идея заключается в восстановлении равенства и свободы, поднятии низших, обездоленных классов до уровня богатых и сильных [2]. Впервые социальное государство в качестве конституционного принципа было зафиксировано в Конституции ФРГ 1949 года. В настоящее время все развитые страны мира,

независимо от наличия или отсутствия в их законах соответствующих положений, в большей или меньшей степени де-факто являются социальными государствами. В новой редакции Конституции Республики Узбекистан данный вопрос нашёл своё отражение в первой статье.

Как показывает анализ конституционного обеспечения и реального функционирования современного социального государства, ему свойственны не только наличие соответствующего принципа в Конституции, продуманная стратегия социальной политики и весомые достижения в ее реализации, но и целый ряд других конституционных положений, раскрывающих принцип социального государства и обеспечивающих его реализацию. Этим и отличается экономика социального государства от других форм организации экономической системы, что придаёт большое значение социальной защите, справедливости и равенству.

Основные особенности экономики социального государства включают:

- **социальная защита:** государство активно вмешивается в социальные процессы с целью обеспечения минимального уровня жизни для всех граждан. Это включает в себя предоставление социальных пособий, медицинского обслуживания, пенсий и других форм финансовой поддержки;
- **равенство и справедливость:** экономика социального государства стремится к сокращению социальных неравенств. Это может включать в себя прогрессивную систему налогообложения, регулирование заработной платы, поддержку малоимущих слоев населения и другие меры;
- **государственное регулирование рынка:** экономика социального государства предполагает активное участие государства в регулировании рыночных процессов. Это может включать в себя контроль над ценами, защиту прав потребителей, антимонопольное регулирование и другие меры, направленные на предотвращение эксплуатации и недопустимость чрезмерной концентрации ресурсов в руках небольшого числа лиц;

- **государственное участие в образовании и здравоохранении:** экономика социального государства обеспечивает доступность и качество образования и здравоохранения для всех граждан. государство инвестирует в социальные сферы, чтобы обеспечить равные возможности и уровень стандартов жизни;
- **система социального страхования:** экономика социального государства включает систему социального страхования, предоставляющую гражданам защиту от социальных рисков, таких как безработица, болезнь, инвалидность. Эти программы поддерживаются взносами работников и работодателей;
- **сбалансированный механизм налогообложения:** система налогообложения в экономике социального государства может быть выстроена таким образом, чтобы облагать налогами более обеспеченных граждан и компании, при этом обеспечивая социальные нужды менее обеспеченных слоев общества.

Эти основные особенности создают основу для устойчивого и справедливого общества, где государство принимает на себя ответственность за благосостояние своих граждан и старается минимизировать социальные и экономические неравенства.

В экономической политике социального государства требуется сочетание мер государственного регулирования, поощрения конкуренции, развития личной инициативы граждан по обеспечению своего собственного благосостояния. Отсюда следует, что социальное государство представляет собой особый тип высокоразвитого государства, в котором обеспечивается высокий уровень социальной защищенности всех граждан посредством активной деятельности государства по регулированию социальной, экономической и других сфер жизнедеятельности общества, установлению в нем социальной справедливости и солидарности.

Формирование социального государства в Республике Узбекистан находится на самом раннем этапе на всех уровнях: концептуальном, нормативном, практическом. Научная разработка его проблем фактически только начинается. В главе IX ст.43,44,46,48 и ряде других статьях Конституции Республики Узбекистан

перечислены лишь некоторые из основных направлений деятельности государства в социальной сфере: охрана труда и здоровья людей; установление минимального размера оплаты труда; поддержка семьи, материнства, отцовства и детства, инвалидов и пожилых граждан; развитие системы социальных служб; установление государственных пенсий, пособий и иных гарантий социальной защиты. Более конкретно эти и другие обязанности государства и формы их исполнения раскрыты в статьях 54-58 главы X «Гарантии прав и свобод человека и гражданина» [1].

Последние годы в Узбекистане ведется интенсивный поиск объединяющей идеи, оптимальной модели будущего, приемлемой для большинства обществ. В этих целях ведется целенаправленная работа по адресной поддержке социально уязвимых слоев населения. Добавление пункта в статью 57 о принятии государством мер, направленных на повышение качества жизни социально уязвимых категорий, создание им условий для равного с другими гражданами участия в общественной и государственной жизни и расширение их возможностей самостоятельно обеспечивать свои базовые жизненные потребности [1], доказывает, что в дальнейшем внимание к социальным выплатам будет повышенное. Естественно, государство гарантирует их рост через работодателей. Вероятно, стоит ждать увеличения отчисления в фонды и введения новых социальных выплат.

Социальное государство в Республике Узбекистан должно иметь свои специфические черты. Поэтому, выработка и реализация именно узбекской модели социального государства является оптимальным вариантом общественного развития нашей страны в современных условиях.

В качестве одного из вариантов подхода к решению этой задачи могли бы послужить следующие основные положения.

Используя опыт создания и функционирования социального государства в развитых странах, учитывая исторические традиции, менталитет народа, а также геополитическое положение и природно-климатические условия нашей страны, принцип социального

государства в узбекской модели должен рассматриваться как методологический, главный и определяющий компонент строения всей системы деятельности государства. По сравнению с западными демократиями термин «социальный» предлагается использовать не в узком, а в широком смысле слова. При такой трактовке понятие социального государства будет обозначать не только обязательства по решению сугубо социальных проблем, но и предопределять социальную направленность, цели и задачи деятельности во всех других сферах жизни общества, характер отношений с гражданами. В плане своего социально-политического назначения как института социальное государство в Узбекистане должно стать общенародным государством большинства и для большинства, гарантирующего и соблюдающего установленные законом права и свободы каждого отдельного гражданина.

Экономический фундамент социального государства Республики Узбекистан должна составлять высокоразвитая, социально ориентированная смешанная экономика, обеспечивающая как удовлетворение материальных и духовных потребностей населения, так и сохранение среды обитания и гармонии природы и общества.

Одной из важнейших составляющих социальной сферы должна стать эффективная и гибкая система социального обеспечения граждан. Неотъемлемой составной частью социального обеспечения является пенсионное обеспечение, четкое терминологическое определение которого отсутствует в экономической литературе и дореформенного, и современного периода. По мнению автора, во многом это связано, с тем, что среди экономистов нет единого мнения по вопросу содержания общих категорий - социального обеспечения и социального страхования. Одни авторы, считают, что существует единое социальное обеспечение, включающее различные формы и виды обеспечения нетрудоспособных, в том числе и социальное страхование. Иными словами, они полагают, что нет оснований считать социальное страхование самостоятельной категорией, существующей параллельно и независимо от социального

обеспечения. Наоборот, социальное страхование относится к социальному обеспечению как частное к целому, является одной из форм осуществления социального обеспечения. Другие же, напротив, социальное обеспечение и социальное страхование считают одно-порядковыми экономическими категориями. Третьи предлагают трактовку социального обеспечения «в узком смысле», относя к нему виды обеспечения, не охватываемые социальным страхованием. Наконец, некоторые экономисты рассматривают социальное обеспечение «в широком смысле», включают в него совокупность определенных социально-экономических мероприятий, связанных с обеспечением в старости и в случае нетрудоспособности, с бесплатным медицинским обслуживанием и лечением, с обеспечением матери и ребенка, с бесплатным образованием и пользованием достижениями культуры. В связи с установившейся неопределённостью, есть необходимость более глубокого изучения этих категорий, с целью дальнейшего их разделения для удобства принятия соответствующих решений.

Этот и некоторые другие факты, свидетельствуют о том, что нынешняя экономическая ситуация пока не позволяет утверждать, что в Узбекистане сформировано социальное государство. Тем не менее факт закрепления на конституционном уровне принципа социального государства говорит о том, что вопросы социальной защиты населения в недалёком будущем выйдут на новый уровень и будут в приоритете государственной политики.

Литература

1. Конституция Республики Узбекистан. Т.:«Узбекистон» 2023

2. Гёсты Эспинг-Андерсен. "The Three Worlds of Welfare Capitalism". Polity Press.1990

3. www.booksite.ru

TO‘LQIN KARIMOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi a’zosi, siyosiy fanlar nomzodi

PARLAMENT NAZORATI INSTITUTI HUQUQIY ASOSLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasida parlament nazorati institutining huquqiy asoslarini milliy qonunchilikdagi rivojlanish davri, davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi islohotlarda asosiy o‘rin tutgan parlamentarizmni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar hususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Huquqiy davlat, qonun ustuvorligi, parlament, parlament nazorati, jamoatchilik nazorati, islohot, siyosiy tizim, saylov tizimi, ijtimoiy barqarorlik, huquqiy va konstitutsiyaviy normalar.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПРАВОВОЙ БАЗЫ ИНСТИТУТА ПАРЛАМЕНТСКОГО КОНТРОЛЯ

Аннотация: Освещен период развития правовой основы института парламентского контроля в Республике Узбекистан в национальном законодательстве. Поэтапно анализируются реформы, направленные на развитие парламентаризма, сыгравшего ключевую роль в реформах в сфере государственного строительства и управления.

Ключевые слова: правовое государство, верховенство закона, парламент, парламентский контроль, общественный контроль, реформа, политическая система, избирательная система, социальная стабильность, правовые и конституционные нормы.

STAGES OF DEVELOPMENT OF THE LEGAL FRAMEWORK OF THE INSTITUTE OF PARLIAMENTARY CONTROL

Annotation: The period of development of the legal basis of the institution of parliamentary control in the Republic of Uzbekistan in national legislation is covered. Reforms aimed at the development of parliamentarism, which played a key role in reforms in the field of state building and management, are analyzed step by step.

Key words: rule of law, rule of law, parliament, parliamentary control, public control, reform, political system, electoral system, social stability, legal and constitutional norms.

Parlament qonunchilik organi sifatida davlat hokimiyati organlari tizimida alohida o‘rin tutadi. Parlamentning davlat hokimiyati organlari tizimidagi boshqa bo‘g‘inlarga nisbatan o‘ziga xos xususiyati shundaki, parlament (xalq vakilligi orqali) mamlakatning barcha ijtimoiy guruhlari va aholi qatlamlari manfaatlari ifodalanadigan; davlatda eng ko‘p talab qilinadigan g‘oyalarni amalga oshirish uchun sharoitlar yaratilgan (siyosiy partiyalar orqali); mamlakatning huquqiy bazasi shakllanadigan (parlamentning qonun chiqaruvchi funksiyasi orqali); ijro hokimiyatini cheklash va nazorat qilishning tegishli mexanizmlari (parlamentning nazorat funksiyasi orqali) mavjud yagona kollegial organ hisoblanadi [9.7].

O‘zbekistonda davlat qurilish va boshqaruvi sohasidagi islohotlarda asosiy o‘rin tutgan parlamentarizmni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni bosqichlarga bo‘lganda mamlakatimiz mustaqillikka erishgan 1991-yildan 2004-yilgacha bo‘lgan bir palatali parlamentning shakllanishi, rivojlanishi, faoliyatining huquqiy asoslari yaratilishini o‘z ichiga olgan davrni shartli ravishda birinchi bosqich deb olishimiz mumkin. Ikkinchi bosqich mamlakatimizda ikki palatali parlament shakllanishi xamda davlat va jamiyat boshqaruviga demokratik tamoyillar izchil joriy qilingan 2005–2016- yillarni qamrab oladi. Uchinchi bosqich 2016-yildan boshlanib, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish vazifalarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Birinchi bosqich islohotlarning (1991–2004) vazifalari:

- davlat boshqaruv tizimini shakllantirib olish;
- hokimiyatni tarmoqlarga ajratish asosida milliy davlatchilik poydevorini barpo etish;
- davlat qurilishi va boshqaruvi bo‘yicha islohotlarning huquqiy negizini yaratish;
- demokratik saylov tizimini shakllantirish;

- koʻppartiyaviylikni shakllantirish;

- demokratik saylov tizimi asosida parlamentni shakllantirishdan iborat boʻldi.

Konstitutsiya qabul qilinguniga qadar Oʻzbekiston huquq tizimida roʻy bergan oʻzgarishlarga asos soluvchi, tizim hosil qiluvchi qonunlar yaratildi. 12-chaqiriq Oliy Kengash oʻz faoliyati mobaynida 182 ta qonun, 4 ta kodeks, 509 ta qaror qabul qilgan [2.65]. Oʻzbekiston mustaqilligining huquqiy asoslari yaratilganligi, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlarining vakolatlarini belgilovchi qonunlar qabul qilindi.

Mamlakatimizning mustaqillik Konstitutsiyasi (8.12.1992 y.) davlat va jamiyat taraqqiyotining demokratik tamoyillarini huquqiy mustahkamlab, hokimiyatlar boʻlinish prinsipi normalarini amalga kiritdi (11-modda) [3].

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining nazorat funksiyasi mohiyatini 1992-yil konstitutsiyasining 78-moddasida mustahkamlangan. Parlament nazorat vakolatlarining konstitutsiyaviy asoslari Davlat budjetini tasdiqlashda, uning ijrosi ustidan nazorat qilishda, tayinlanadigan va saylanadigan mansabdor shaxslarning axborotlarini eshitib borishda, ijro etuvchi hokimiyat organlariga va ularning mansabdor shaxslariga sOʻrov berish huquqida mujassamlashgan. Oliy Majlisning Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarini tasdiqlashga, tayinlashlarga, saylashlarga, konstitutsiyada nazarda tutilgan masalalar yuzasidan tayinlashalar uchun rozilik berish vakolatlarini ham parlament nazoratining shakllaridan biri sifatida koʻrish mumkin.

“Oʻzbekiston Respublikasining Oliy Majlisi toʻgʻrisida”gi Qonunning (№2011–XII-sonli qonun, kuchga kirish sanasi 16.10.1994, hujjat kuchini yoʻqotgan sana 14.01.2005 y.) 11-moddasida “Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunlarning va Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi boshqa hujjatlarining ijrosini nazorat qiladi” deb belgilandi. Qonunda qoʻmitalar va komissiyalar qonun loyihalarini tayyorlash ishlarini olib borishi, Oliy Majlis muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda koʻrib chiqishi va tayyorlashi, qonunlarning va Oliy Majlis boshqa hujjatlari ijrosini nazorat qilishligi (18-,23-moddalar) belgilangan [4]

O‘zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to‘g‘risidagi Qonunga (№66-I-sonli qonun, kuchga kirish sanasi 01.06.1995 y., hujjat kuchini yo‘qotgan sana 05.09.2019 y.) asosan, deputatlar qonunlar va davlat hokimiyati yuqori organlari qarorlarining joylarda ijro etilishini nazorat qiladilar. Parlament nazoratining an’anaviy shakli bo‘lgan Deputat so‘rovi [5] tushunchasiga – sessiyada davlat organlari yoxud mansabdor shaxslarga ijtimoiy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan rasmiy tushuntirish berish yoki o‘z nuqtai nazarini bayon qilib berish haqida qo‘yilgan talabdir deb, izoh berildi.

Ikkinchi bosqich mamlakatimizda ikki palatali parlament shakllanishi xamda davlat va jamiyat boshqaruviga demokratik tamoyillar izchil joriy qilingan 2005- 2016-yillarni qamrab oladi. 2005-yilda Oliy Majlis ikki palatali tizim asosida shakllantirildi.

Doimiy asosda ishlovchi parlament huquqiy davlat amal qilishining asosiy sharti hisoblanadi. 2003-yildagi umumxalq referendumida kiritilgan Konstitutsiyaga kiritilgan O‘zgarishlar bilan ikki palatali parlamentning hukumatni shakllantirish va nazorat qilish borasidagi vakolatlari kengaydi. Oliy Majlis palatalari birgalikda Prezident taqdimotiga ko‘ra Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash vakolatiga ega bo‘ldi. Davlat organlari rahbarlarini, sud tizimi va maxsus xizmatlar rahbarlarini, chet mamlakatlardagi va xalqaro tashkilotlardagi diplomatik vakillarni tayinlash va tasdiqlash va ishdan ozod etish kabi Prezident vakolatlarining bir qismi Senatga o‘tkazildi. Senatning mutlaq vakolatlariga Bosh prokurorni, Tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi raisini va Markaziy bank raisini eshitish hamda amnistiya aktlarini qabul qilish kiritildi [7].

Konstitutsiyaning 86- va 87-moddalari bilan Qonunchilik palatasi Spikerining va Senat raisining O‘zbekiston Respublikasi qonunlari ijrosini nazorat qilishni tashkil etish bo‘yicha vakolatlari mustahkamlandi. 87-moddaga asosan Oliy majlis qo‘mitalari muhokamaga kiritiladigan masalalarni nafaqat ko‘rib chiqish va tayyorlash maqsadida balki qonun va qarorlar ijrosini nazorat qilish uchun ham tuzilishi belgilandi.

Uchinchi bosqich 2016-yildan boshlanib, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, jamoatchilik nazorati

mexanizmlarini amalda tatbiq etish vazifalarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

2016-yilda qabul qilingan “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi Qonun [8] parlament nazoratini tashkil etish va amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘lib, parlament nazorati subektlari, obekti, parlament nazorati shakllari aniq belgilab berilgan.

Qonunning 4-moddasiga ko‘ra, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining va ular organlarining qarorlarini, davlat dasturlarini ijro etish, shuningdek, o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarni amalga oshirish bo‘yicha faoliyati parlament nazorati obektidir.

Davlat budjeti ijrosining borishini ko‘rib chiqish, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan har yilgi ma’ruzasini ko‘rib chiqish kabi Parlament nazorati shakllari qatoriga Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasidan kelib chiqadigan, tegishli yilga mo‘ljallangan davlat dasturi bajarilishining borishi to‘g‘risidagi hisobotini ko‘rib chiqish, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy ma’ruzasini ko‘rib chiqish va parlament tekshiruvi kabi yangi vakolatlar kiritildi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqilishi jarayonida asosiy e’tibor davlat va jamiyat qurilishini tubdan isloh qilishga qaratildi. Mazkur demokratik islohotlar davrida parlament nazoratini jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini kuchaytirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari alohida ahamiyat kasb etadi. Oliy Majlis deputatlari, siyosiy partiyalar va O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan 2017 yil 12 iyulda O‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlament nazorati obektlarini kengaytirish,

“Hukumat soati” institutini joriy qilish zarurligi tO‘g‘risidagi g‘oyalarni ilgari surgan edi [1]. Harakatlar strategiyasi maqsadlaridan kelib chiqib “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni 2017-2021-yillar davomida parlament nazoratining amaliy ahamiyatini kuchaytiruvchi normalar bilan to‘ldirildi [8].

“Hukumatni shakllantirish tartibi demokratlashtirilishi va uning mas’uliyati kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79, 93, 98-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi [10].

Mamlakat davlat boshqaruvini takomillashtirishda asosiy e’tibor hukumatning parlament oldidagi hisobdorligini oshirish, hokimiyatlarning bo‘linish va o‘zaro tiyib turish prinsiplari asosida qonun chiqaruvchi organning vakolatlarini kengaytirish, uning mamlakat siyosiy hayotidagi rolini oshirishga qaratildi.

Bosh vazir o‘rinbosarlari, vazirlar va davlat qo‘mitalari raislari nomzodini Bosh vazir taqdimiga binoan Qonunchilik palatasi tomonidan ma’qullash va Prezident tomonidan tasdiqlash tartibi belgilandi.

Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida davlat boshqaruv organlari mutassadilarining hisobotlarini eshitish bo‘yicha “Hukumat soati” tashkil etildi.

Senatda O‘zbekistonning horijiy davlatlardagi elchilari hisobotini eshitish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Joylardagi real polatni o‘rganish va mavjud muammolarni hal qilish uchun kerakli choralarni ko‘rish, shuningdek, murojaatlarni amalda ko‘rib chiqish maqsadida parlamentariylarning o‘zi saylangan hududga har oyda tashrif buyurish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Doimiy asosda ishlovchi senatorlar hududlardagi mahalliy kengashlarga biriktirilib, har oyda joylarga chiqishi hamda mahalliy Kengashlar sessiyalarida ishtirok etishi amaliyoti joriy etildi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining doimiy asosda ishlaydigan kotibiyati tashkil etildi. Viloyat, tuman va shahar miqyosidagi davlat boshqaruvi organlari rahbarligiga nomzodlar tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadigan bo‘ldi.

Davlat budjeti ustidan samarali parlament nazoratini ta’minlashda deputat va senatorlarga professional, mustaqil va xolis axborot-tahliliy, ekspertlik xizmati ko‘rsatish maqsadida Davlat budjeti boshqarmasi tashkil etildi.

O‘zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyatni tizimli O‘zgartirishlar islohotlarning har bir bosqichida siyosiy tizim va uning asosiy elementlarining tegishli darajada rivojlanishiga ega bo‘lgan real tarixiy sharoit bilan bog‘liqlikda amalga oshirildi. Islohotlarning har bir bosqichi O‘zbekistonda demokratik institutlarning faoliyati samaradorligini oshirishga va rivojlangan fuqarolik jamiyatini shakllanishini ta’minlashga qaratilgan muvozanatli davlat apparati tizimini yaratilayotganligini ko‘rsatib berdi. O‘z navbatida mamlakatdagi demokratik o‘zgarishlar, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh etishda parlamentning o‘rni, uning nazorat funksiyasining samarali amalga oshirilishi imkoniyatlarini kengaytirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017, – 575-577 бет.

2. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаши ва Олий Мажлисининг қабул қилинган қонунлари ва қарорлари тўғрисидаги маълумотнома.– Ўзбекистон Олий Мажлиси котибияти Юридик бўлимининг жорий архиви. 1998. 06-03-сон иш, 65-бет.

3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. “Халқ сўзи” газетаси, 1992 йил 15 декабрь, 243(494)-сон.

4. “Ўзбекистон Республикасининг Олий Мажлиси тўғрисида”ги

Қонуннинг (№2011–XII-сонли қонун, кучга кириш санаси 16.10.1994 й., ҳужжат кучини йўқотган сана 14.01.2005 й.) [Интернет манба]. URL:lex.uz/docs/160213 (Мурожаат этилган сана: 15.07.2023 й.)

5. Ўзбекистон Республикасида депутатларнинг мақоми тўғрисидаги Қонунга (№66–I-сонли қонун, кучга кириш санаси 01.06.1995 й., ҳужжат кучини йўқотган сана 05.09.2019 й.) [Интернет манба]. URL:lex.uz/docs/114204 (Мурожаат этилган сана: 15.07.2023 й.)

6. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир / Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатининг 2005 йил 28 январда бўлиб ўтган қўшма мажлисидаги нутқ // “Халқ сўзи”. 2005 йил, 29 январь.

7. “Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни №470-II. 24 апрель 2003 й.// Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 2003. №3-4. – 38-бет.

8. Ўзбекистон Республикасининг “Парламент назорати тўғрисида”ги Қонуни https://lex.uz/docs/2929477

9. Хакимов.Р.Р. Контитуционно-правовой статус Олий Мажлиса Республики Ўзбекистон. Учебное пособие – Ташкент: ТГЮУ, 2020. – 104 стр.

10. “Ҳукуматни шакллантириш тартиби демократлаштирилиши ва унинг масъулияти кучайтирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. *“Халқ сўзи” 2019 йил 6 март.*

TAVAKKAL CHORIYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi a’zosi, filologiya fanlari nomzodi

ALISHER XURSANDOV,
Jamoat xavfsizligi universiteti “Tillarni O‘rganish” kafedrasi boshlig‘i, PhD, dotsent

KONSTITUSIYA – DYEMOKRATIK HUQUQ VA ERKINLIKLARNING YAGONA HUQUQIY MAKONI

Annotatsiya: Maqolada demokratik huquq va erkinliklarning yagona huquqiy makon sifatida Konstitutsyada aks ettirilganligi xususida fikr yuritilgan.

Kalit sozlar: Konstitutsiya, konstitutsiyaviy norma, huquq, inson, jamiyat, davlat, erkinlik, kafolat, modda, norma, yangi modaa, yangi norma shart-sharoitlar, ijtimoiy jamiyat, fuqaro, inson, manfaat, fuqarolik institutlari.

КОНСТИТУЦИЯ – ЕДИНОЕ ПРАВОВОЕ ПРОСТРАНСТВО ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ПРАВ И СВОБОД

Аннотация: В статье рассматривается отражение демократических прав и свобод в Конституции как единого правового пространства.

Ключевые слова: Конституция, конституционная норма, право, человек, общество, государство, свобода, гарантия, субстанция, норма, новая мода, новая норма, условия, социальное общество, гражданин, человек, интересы, гражданские институты.

THE CONSTITUTION IS A UNIFIED LEGAL SPACE OF DEMOCRATIC RIGHTS AND FREEDOMS

Annotation: The article considers the reflection of democratic rights and freedoms in the Constitution as a single legal space.

Keywords: Constitution, constitutional norm, law, person, society, state, freedom, guarantee, substance, norm, new fashion, new norm, conditions, social society, citizen, person, interests, civil institutions.

O‘zbekistonda insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash

davlatning oliy maqsadini tashkil etadi. Davlat inson hamda fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi. “Inson qadri uchun” degan tamoyilni ro‘yobga chiqarish maqsadida aholining ehtiyojmand qatlamlarining huquqlarini konstitutsiyaviy jihatdan himoya qilib, farovon hayot uchun barchaga yetarli shart-sharoitlar yaratadi.

Bular asosan, davlat aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarining hayoti sifatini oshirishga, ularga jamiyat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng ravishda ishtirok etishi uchun sharoitlar yaratish kafolati;

davlat ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi, davlat pensiyalarini, nafaqalarini va ijtimoiy yordam ko‘rsatishning boshqa turlarini tayinlash kafolati;

pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam ko‘rsatishning boshqa turlari rasman belgilangan eng kam iste’mol xarajatlaridan kam bo‘lishi mumkin emasligi kafolati.

Shuningdek, homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ularning ish haqini kamaytirishning taqiqlanishi;

bolalar mehnatining eng yomon shakllaridan foydalanish qonunga binoan javobgarlikka sabab bo‘lishi;

davlat oilani to‘laqonli rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratishi, ko‘p bolali oilalarga imtiyozlar hamda ijtimoiy kafolatlar berilishini ta’minlashi;

bola manfaatlari, bolalarning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish;

alohida ehtiyojlarga va individual imkoniyatlarga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiyani tashkil etish kablar huquqiy himoya va kafolatlardir.

Aytish joizki, istiqlol yillarida milliy davlatchilikni shakllantirishning puxta huquqiy asoslari yaratildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlari tashkil etildi, ijtimoiy va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Konstitutsiyaning 13-moddasida O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi

belgilandi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining tarixida ilk marotaba, xususan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yangi tahrirda qabul qilish jarayonida shaxsiy va huquqiy erkinliklarga tegishli o‘lim jazosi taqiqlanadi degan norma kiritildi. Shuningdek, ushlab turishga, hibsga olishga va hibsda saqlashga yoki erkinlikni boshqacha tarzda cheklashga faqat sudning qaroriga binoan yo‘l qo‘yilishi, sudning qarorisiz shaxs 48 soatdan ko‘p muddatga ushlab turilishi mumkin emasligi ham Konstitutsiyada aks ettirildi (27-modda). Aybdorlik borasidagi barcha gumonlar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerakligi tegishli norma bilan belgilandi (28-modda).

Qonunning qo‘llanilish chog‘ida yuzaga keladigan gumonlar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining foydasiga hal etilishi kerak degan konstitutsiyaviy kafolat belgilandi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkinligi belgilandi. Ushlab turilishi chog‘ida shaxsga o‘ziga tushunarli bo‘lgan tilda huquqlari va uning ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi kerakligi mustahkamlandi. Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lmasligi belgilandi.

Ta’kidlash joizki, keyingi yillarda mamlakatimizda jamiyatda ayollarning ijtimoiy maqomini kuchaytirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xotin-qizlarning jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, shuningdek, davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta’minlanishning qo‘shimcha kafolatlarini belgilagan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. 2023-yil 30-apreldagi referendum yakunlari bo‘yicha qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ta’minlashning yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi

konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi. Xususan, Konstitutsiyaning 58-moddasida davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi degan qoida mustahkamlandi.

Barchamizga ayyonki, Konstitutsiya hamda qonun ustuvorligini ta’minlash har qanday jamiyat taraqqiyotida eng muhim omillardan birini sanaladi. Qonun ustuvor bo‘lgan jamiyatda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan chiqarilayotgan hujjatlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq bo‘ladi. Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan xalqimizning orzu-umidlari, bugungi va kelajak manfaatlariga javob beradigan ustuvor tamoyillarning naqadar to‘g‘ri ekanligini amalda isbotladi.

Aytish joizki, inson huquqlari oliy qadriyat deb belgilangan Konstitutsiyamizda davlat ham, jamiyat ham, avvalo inson manfaatlariga xizmat qilishi, uning haq-huquqlarini himoya etishi ustuvor tamoyil sifatida belgilandi. Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari Konstitutsiya himoyasida o‘zaro hamjihatlik va totuvlikda yashab mehnat qilmoqda. Ularning o‘z tili, milliy an’ana va urf-odatlarini davom ettirishlari, O‘zbekiston fuqarosi sifatida emin-erkin yashashlari Konstitutsiya bilan kafolatlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi (15-modda). Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada “davlat – jamiyat – inson” tamoyilini “inson – jamiyat – davlat” deb o‘zgartirilishi O‘zbekistonda inson manafaati har narsadan ustun ekanligini bildiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta’kidlanganidek, “Davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik va adolatga asoslangan, odamlar manfaatiga xizmat qiladigan xalqparvar qarorlar qabul qilish tizimi shakllantirildi. Eng muhimi, biz ko‘p yillar davomida amal qilib kelingan “davlat – jamiyat – inson” tamoyilini o‘zgartirdik. Mamlakatimizda avvalo inson, keyin esa, jamiyat va davlat manfaati

barcha haraktlarimizning negiziga qo‘yildi. Hayotimizda “Davlat – insonlar uchun” degan xalqchil g‘oya izchillik bilan qaror topib bormoqda. Jamiyatiimizda demokratik tamoyillari, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilmoqda”.

Konstitutsiyaning 50–53-moddalarida ta’lim va uning huquqiy asos va kafolatlariga tegishli bo‘lgan ustuvor normalar belgilangan. 50-moddada O‘zbekistonda har kim ta’lim olish huquqiga ega ekanligi, davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlayotganligi, maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratida ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, 52-moddada davlat o‘quvchilarning sha’ni va qadri-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sish to‘g‘risida hamxo‘rlik qilishi eslatilgan.

Ushbu o‘rinda iklyuziv va dual ta’limi va uning milliy qonunchilikka, xususan Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyada aks ettirilganligi haqida to‘xtalib o‘tamiz. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasidagi “inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta’lim tashkiloti”, shuningdek, “inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning alohida ta’lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni sog‘lom muhitga uyg‘unlashtirish orqali ta’lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlar ta’minlanadi” degan normalar hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 20-moddasidagi “Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan”, shuningdek, “Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi” normalar yangi ifoda bayoni bilan konstitutsion norma sifatida Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks ettirilgan. Fikrimizni dalili sifatida konstitutsion normani aynan keltiramiz: “Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya

ta’minlanadi” (50-modda). Ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning 9 oy mobaynida davlat tomonidan 417 ta maktabda 734 nafar imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’limi yo‘lga qo‘yilgan. Inklyuziv ta’lim sohasida 250 nafarga yaqin pedagoglar safarbar etilgan.

Yana bir eng muhim masala, bu dual ta’limi masalasi va uning huquqiy asoslarini Konstitutsiyada belgilanishidir. Xabaringiz borki, umumiy o‘rta ta’lim tizmida 4+2 modeli o‘rnida 2+4 modelli joriy etildi. Ushbu model bo‘yicha professional ta’lim maktablarida kasb-hunar o‘rgatish saboqlari 4 kun korxona va tashkilotlar va qolgan 2 kun kasb-hunar maktabida o‘tkaziladi. Shu tariqa kasb-hunar o‘rganishga ishtiyoqi bo‘lgan yoshlar “Ustoz-shogird maktabi” da saboq olishga muyassar bo‘ladi. Ushbu ta’lim turiga bo‘lgan huquqiy asos Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaga, ya’ni ushbu norma ko‘rinishda “Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatilaydi” (50-modda) hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda esa “Dual ta’lim ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta’lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi” (17-modda) normalar bilan belgilab qo‘yilgan.

Xulosa qilib aytilganda, O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta’minlash, aholini tashabbusi, shijoati va salohiyatini ishga solish sifatida belgilangan. Konstitutsiyaga muvofiq, davlat va uning organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari fuqarolar oldida mas’uliyat bilan yondashib, doimiy ravishda xalq manfaati va yurt ravnaqiga bevosita hissa qo‘shilishi nazarda tutilgan. Amaldagi barcha qonunlar va boshqa hujjatlar Konstitutsiya negizida va unga muvofiq tarzda qabul qilinadi. Demoktratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tO‘g‘risida”gi O‘RQ–595-son Qonuni. https://lex.uz/docs/4646908.

2. “O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ–637-son Qonuni. https://lex.uz/docs/5013007.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagog xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishga to‘sqinlik qilinganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish” O‘RQ–826-son Qonuni. https://lex.uz/docs/6416492.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – B.80.

5. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-kitob. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – B.408.

6. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-kitob. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – B.536.

СОДИҚ ЮЛДАШОВ,
Жамоат хавфсизлиги университети профессори в.в.б., ю.ф.ф.д. (PhD)

МУРОЖААТ ҚИЛИШ ҲУҚУҚИ ИНСТИТУТИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ КАФОЛАТЛАРИ

Аннатоция. Ушбу мақолада мурожаат қилиш ҳуқуқи институтининг конституциявий кафолатлари, халқаро ҳуқуқий қоидалари, жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларига доир қонунчилик ҳужжатлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: мурожаат, мурожаат қилиш ҳуқуқи, мурожаатлар институти, жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари.

ИНСТИТУТ ПРАВА НА ОБЖАЛОВАНИЕ КОНСТИТУЦИОННЫХ ГАРАНТИЙ

Аннотация: В данной статье анализируются конституционные гарантии института апелляционного права, международно-правовые нормы, законодательные акты по обращениям физических и юридических лиц.

Ключевые слова: апелляция, право на апелляцию, институт апелляций, обращения физических и юридических лиц.

CONSTITUTIONAL GUARANTEES OF THE INSTITUTION OF RIGHT OF APPEAL

Abstract. This article analyzes the constitutional guarantees of the institution of the right of appeal, international legal regulations, legal documents on the appeals of individuals and legal entities.

Key words: appeal, right to appeal, institute of appeals, appeals of individuals and legal entities.

Мурожаат қилиш ҳуқуқи тарихий ва ижтимоий ҳодиса бўлиб, инсоният пайдо бўлган вақтдан бошлаб, кишиларнинг ўз ҳақ-ҳуқуқларини талаб қилиш ва амалга ошириш, давлат билан халқ ўртасида ўзаро муносабатни мустаҳкамлаш, бошқарувни такомиллаштириш, ҳукмдорлар фармонлари ижросини таъминлаш, коррупцияга қарши курашиш, мулозимларнинг лавозимига масъулият билан ёндашишини аниқлашда муҳим восита сифатида хизмат қилган.

Бугунги кунга келиб, бу ҳуқуқ халқаро миқёсда долзарб масалага айланганлиги боис, бу борада бир қанча ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган.

Жумладан, БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1966 йилнинг 16 декабрида қабул қилинган “Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт”нинг II қисми 2-моддаси 3-бандида ушбу Пактда иштирок этувчи давлатлар зиммасига: а) ушбу Пактда ҳуқуқлари ва эркинликлари тан олинган шахснинг – шу ҳуқуқлари ва эркинликлари бузулгудек бўлса, унга ҳуқуқий муҳофазанинг самарали воситалари таъминлаши, ҳатто бу бузилишлар расмий мавқеда ҳаракат қилган одамлар томонидан ҳам бузилган бўлса ҳам ана шундай муҳофазани таъминлаш; б) ҳуқуқий муҳофаза талаб қилаётган ҳар қандай шахс учун ана шундай муҳофаза ҳуқуқи нуфузли суд, маъмурий ҳокимият ёки бошқа қонунчилик ҳокимияти томонидан ё давлатнинг ҳуқуқий тизимида назарда тутилган бошқа ҳар қандай нуфузли орган томонидан белгилаб қўйилишини таъминлаш ва суд орқали ҳимоя имкониятларини кўпайтириш; с) ҳуқуқий муҳофаза воситалари берилган ҳолларда нуфузли ҳокимлик

томонидан буларни татбиқ этилишини таъминлаш [1;8]мажбуриятлари юклатилган.

Давлат органларига мурожаат қилиш ҳуқуқига бевосита алоқадор универсал даражадаги ягона ҳужжат БМТ Бош Ассамблеясининг 1998 йил 9 декабрдаги 53/144-сон резолюцияси билан тасдиқланган «Алоҳида шахслар, гуруҳлар ва жамият органларининг умум эътироф этилган инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларини рағбатлантириш ва ҳимоя қилиш ҳуқуқи ҳамда мажбуриятлари тўғрисида»ги декларация ҳисобланади.

Унда мурожаат қилиш ҳуқуқи инсон ҳуқуқлари ва эркинликларининг кафолати, уларни ҳимоя қилиш ва амалга ошириш шарти сифатида қаралади. Декларациянинг 8-моддасида шикоят қилиш ҳуқуқи тўғридан-тўғри демократия институти сифатида мустаҳкамланган бўлиб, унда қайд этилишича, ҳар бир шахс якка ёки бошқалар билан биргаликда давлат органлари ва муассасаларига, шунингдек жамоат ишлари билан шуғулланувчи ташкилотларга ўз фаолиятини такомиллаштириш юзасидан танқид қилиш ва таклифлар бериш, ўз фаолиятининг тарғиботига халақит берадиган ёки тўсқинлик қилиши мумкин бўлган ҳар қандай ҳолатга эътиборни жалб қилиш ҳуқуқи қайд этилган.

Шунингдек, Декларациянинг 9-моддасида ҳуқуқлари ёки эркинликлари бузилган ҳар қандай шахс шахсан ёки қонуний вакили орқали мустақил, холис ва ваколатли судга ёки бошқа давлат органларига шикоят бериш ҳуқуқига эгалиги, мазкур шахснинг ҳуқуқлари ёки эркинликлари бузилганлиги аниқланган тақдирда ваколатли орган тегишли қонунларга мувофиқ, белгиланган муддатда уни бартараф этиш ва етказилган зарарни қоплаш чораларини кўриш тўғрисида қарор қабул қилиши назарда тутилган [2].

Мазкур халқаро ҳужжатлар талаблари асосида қабул қилинган Ўзбекистон ССРнинг 1978 йилдаги Конституциясида ариза, таклиф ва шикоят бериш ҳуқуқи конституциявий хусусиятга эга бўлди. Чунки, ушбу Асосий қонуннинг 35, 47 ва 56-моддаларида мурожаат қилиш ҳуқуқининг конституциявий меъёрлари мустаҳкамлаб қўйилди [3;12-16]. Бироқ бу ҳуқуқий нормаларда давлат органларига

ва суд органларига мурожаат қилиш ҳуқуқи умумий тартибда белгиланган.

Конституцияда кўрсатилган мазкур ҳуқуқий нормаларни амалиётга татбиқ этиш борасида махсус қонунлар қабул қилинмаган. Бироқ давлат органларига мурожаат қилиш ҳуқуқига доир ижтимоий муносабатлар СССР Олий Совети Президумининг 1980 йил 4 мартдаги "*Гражданларнинг таклифлари, ариза ва шикоятларини кўриб чиқиш тартиби тўғрисида*"ги 1662-Х–сон Фармони [4;173-178] ҳамда ҳуқуқ ва эркинликларни суд орқали ҳимоя қилиш кафолати СССР Олий Суди Пленумининг 1986 йил 18 апрелдаги "*Гражданларнинг таклиф, ариза ва шикоятларини кўриб чиқиш тартибини бузганлик ва танқид учун таъқиб этганлик учун мансабдор шахсларнинг жавобгарлиги ҳақида қонунларни судлар томонидан қўлланилиши тўғрисида*"ги 9-сон Қарори [5;114-118] билан тартибга солинган.

Шуни таъкидлаш жоизки, мустабид тузум конституциясида «инсон ҳуқуқларининг чекланганлик моҳияти сиёсий соҳада: давлат ва шахс ўртасидаги сиёсий-ҳуқуқий муносабатларда давлат ҳуқуқи юқори бўлиб, инсон ҳуқуқлари иккинчи даражага қўйилган. Бу эса, сиёсий ҳуқуқлар чекланганлигини билдиради. Давлат жамият ҳаётидаги муҳим масалаларни ўзи ҳал қилган. Инсоннинг давлат бошқаруви ишларида иштирок этиш, ўз фикрини билдиришга эътибор берилса-да, асосий ҳал қилувчи ҳукмни давлат чиқарган. Бунинг натижаси халқнинг ўрни ва ролини камситишга олиб келди. Конституция ягона ҳукмрон партиянинг сиёсий дастурлари ва мафкурасига бўйсундирилган эди» [6;30-31].

Мамлакатимиз мустақиллигининг ўтган даври давомида инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилишнинг конституцион асослари яратилди. Уни амалиётга жорий этишнинг ҳуқуқий механизмлари мустаҳкамлаб қўйилди. Шунингдек, инсон ҳуқуқлари ва эркинликлари энг олий қадрият сифатида уни ҳимоя қилиш ва таъминлаш давлат органлари, турли мулк шаклидаги ташкилотлар ва демократик институтларнинг устувор вазифаларига айланди.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси II бўлимининг “Сиёсий ҳуқуқлар” деб номланган VIII бобини 40-моддасида: “Ҳар ким бевосита ўзи ва бошқалар билан биргаликда давлат органларига ҳамда ташкилотларига, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига, мансабдор шахсларга ёки халқ вакилларига аризалар, таклифлар ва шикоятлар билан мурожаат қилиш ҳуқуқига эга. Аризалар, таклифлар ва шикоятлар қонунда белгиланган тартибда ва муддатларда кўриб чиқилиши шарт”, деган алоҳида ҳуқуқий норма белгиланган.

Бу ҳуқуқ, *биринчидан*, жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини талаб қилиш ва рўёбга чиқаришга хизмат қилади, *иккинчидан*, бу ҳуқуқларни амалга ошиши учун давлат органларига масъулият ва мажбурият юклайди, *учинчидан*, мурожаат қилиш ҳуқуқини кафолатлайди. Энг муҳими, ушбу ҳуқуқ инсон ва фуқароларнинг барча, яъни шахсий ҳуқуқ ва эркинликлари, сиёсий ҳуқуқлари, иқтисодий, ижтимоий, маданий ва экологик ҳуқуқларини руёбга чиқаришда муҳим восита бўлиб хизмат қилади.

Ушбу конституциявий қоида янги таҳрирдаги “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги Қонуни [7] билан амалиётга жорий этилган бўлиб, унда давлат органлари, муассасалари, давлат иштирокидаги ташкилотлар, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари соҳасидаги муносабатларни тартибга солиб, унда мурожаатларни кўриб чиқишда жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқлари, давлат органларининг, ташкилотларнинг ва улар мансабдор шахсларининг ҳуқуқлари ва мажбуриятлари аниқ кўрсатилган.

Мазкур Қонунда белгилаб берилган вазифалар билан ишлаш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 5 январдаги «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларида жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тартиби тўғрисидаги Намунавий низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 7-сон Қарори [8] ва 2018 йил 7 майдаги «Давлат органларида, давлат

муассасаларида ва давлат иштирокидаги ташкилотларда жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тартиби тўғрисидаги Намунавий низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 341-сон Қарори [9]да белгилаб берилган.

Шунингдек, бу ҳуқуқни таъминлаш кафолати сифатида Конституциянинг 55-моддасида “Ҳар ким ўз ҳуқуқ ва эркинликларини қонунда тақиқланмаган барча усуллар билан ҳимоя қилишга ҳақли.

Ҳар кимга ўз ҳуқуқ ва эркинликларини суд орқали ҳимоя қилиш, давлат органларининг ҳамда бошқа ташкилотларнинг, улар мансабдор шахсларининг қонунга хилоф қарорлари, ҳаракатлари ва ҳаракатсизлиги устидан судга шикоят қилиш ҳуқуқи кафолатланади.

Ҳар кимга бузилган ҳуқуқ ва эркинликларини тиклаш учун унинг иши қонунда белгиланган муддатларда ваколатли, мустақил ҳамда холис суд томонидан кўриб чиқилиши ҳуқуқи кафолатланади.

Ҳар ким Ўзбекистон Республикасининг қонунчилигига ва халқаро шартномаларига мувофиқ, агар давлатнинг ҳуқуқий ҳимояга доир барча ички воситаларидан фойдаланиб бўлинган бўлса, инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилувчи халқаро органларга мурожаат этишга ҳақли.

Ҳар ким давлат органларининг ёхуд улар мансабдор шахсларининг қонунга хилоф қарорлари, ҳаракатлари ёки ҳаракатсизлиги туфайли етказилган зарарнинг ўрни давлат томонидан қопланиши ҳуқуқига эга”, деб мустаҳкамлаб қўйилди.

Жисмоний ва юридик шахсларнинг давлат органлари, ташкилотлар, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, мансабдор шахслар ёки халқ вакилларига ариза, таклиф ва шикоят билан мурожаат этиши – бу уларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини амалга ошириш, тиклаш ҳамда давлат ва жамият бошқарувида қатнашишининг амалий шаклидир.

Бу институтнинг долзарблиги мамлакатимизнинг узоқ йиллик истиқболини белгилаб берувчи ҳужжатларда ҳам ўз аксини топган. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон фармони билан тасдиқланган “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт

стратегияси”нинг “Инсон қадрини юксалтириш ва эркин фуқаролик жамиятини янада ривожлантириш орқали халқпарвар давлат барпо этиш” деб номланган I бандининг 1-мақсадида маҳалладан туриб барча давлат идораларига мурожаат қилиш тизимини яратиш, давлат ва ижтимоий хизматларни бевосита маҳаллада кўрсатиш ғояси илгари сурилган.

Жисмоний ва юридик шахслар ушбу ҳуқуқнинг моҳиятини очишда қуйидагиларни назарда тутиши керак: *биринчидан,* ариза, таклиф ва шикоятлар барча ваколатли давлат органлари, ташкилотлар, улар мансабдор шахсларига берилиши мумкин. Уларнинг раҳбарлари ва масъул шахслари ушбу мурожаатларни қабул қилишни рад эта олмайдилар; *иккинчидан*, ариза, таклиф ва шикоятларда нафақат давлат органлари фаолиятини такомиллаштиришга доир таклифлар, балки улар фаолиятидаги камчилик, хато ва нуқсонларни кўрсатувчи, шунингдек, кенг доирадаги ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, маданий, жамият ва давлат ишларини бошқариш масалалари бўйича таклифлар ҳам бўлиши мумкин; *учинчидан*, ушбу ҳуқуқ жисмоний ва юридик шахсларнинг давлат ва жамоатчиликка оид манфаатлар учун курашишларининг самарали воситаси ҳисобланади; *тўртинчидан,* жисмоний ва юридик шахсларнинг ариза, таклиф ва шикоятлари оғзаки, ёзма ва электрон шаклда берилиши мумкин.

Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари институти доирасини янада кенгайтирмасдан ва ривожлантирмасдан асосий мақсадимиз бўлган инсонпарвар демократик давлатни ва адолатли жамиятни барпо этиш ҳақида ҳеч қандай фикр бўлиши мумкин эмас.

Шу боис, бу институтнинг таъсирчан ва амалий механизмларини яратиш учун қуйидагиларни амалга ошириш тавсия этилади: *биринчидан,* жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларига доир қонунчиликни янада такомиллаштириш; *иккинчидан,* давлат органлари, шу жумладан мурожаатларни кўриб чиқувчи институционал тузилмаларнинг жисмоний ва юридик шахслар билан ҳуқуқий муносабатларини аниқ тартибга солувчи маъмурий процедураларни ривожлантириш; *учинчидан,* қонунлар ва

қонуности ҳужжатлари лойиҳаси бўйича кенг жамоатчилик таклифларини ўрганиш амалиётини жорий этиш; *тўртинчидан,* ваколатли давлат органлари томонидан қабул қилинган қонун ҳужжатлари устидан шикоят қилиш тартибини такомиллаштириш; *бешинчидан,* жисмоний ва юридик шахслар мурожаатларини коллегиал эшитиш механизмларини жорий этишни назарда тутувчи маъмурий адлия тизимини ривожлантириш; *олтинчидан,* “Электрон ҳукумат” тизимини такомиллаштириш орқали давлат хизматлари кўрсатишнинг самарадорлигини ошириш; *еттинчидан,* аҳолининг ўз ҳуқуқ ва эркинликларини тўлиқ англаб олишга йўналтирилган тарғибот тадбирларини кенгайтириш; *саккизинчидан,* мурожаатларни холисона, тўлиқ ва ўз вақтида кўриб чиқишда масъулиятсизликка йўл қўйган мутасаддиларнинг жавобгарлиги тўғрисидаги кўрилган чора-тадбирларни тизимли равишда ОАВ ва ижтимоий тармоқларда ёритиб бориш; *тўққизинчидан,* жисмоний ва юридик шахсларнинг жамият ва давлат ҳаётига оид жўяли таклифлари бўйича уларни рағбатлантириш чораларини кўриш; *ўнинчидан,* мурожаатларни кўриб чиқадиган тузилмалар фаолиятига ошкоралик бериш ва амалга оширган ишлари ҳақида аҳолини мунтазам хабардор қилиб бориш; *ўн биринчидан,* жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари институтига оид қонунчилик ижроси масалалари бўйича мутахассислар жалб этилган ҳолда ОАВда мунтазам мулоқотлар ташкил этишни ривожлантириш; *ўн иккинчидан,* жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари институтига оид услубий-ўқув қўлланмаларини чоп этиш, тегишли ўқув масканларида дарсликлар ҳажмини кўпайтириш.

Зеро, жисмоний ва юридик шахслар қанчалик ўз ҳуқуқ ва эркинликларини ҳамда қонуний манфаатларини англаб олсалар ва ундан самарали фойдалансалар, улар ўз ижтимоий фаолликларини намоён қила оладилар, давлат ва жамият ҳаётида юз бераётган ҳодиса ва воқеаларга тўғри муносабатда бўла оладилар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Инсон ҳуқуқлари тўғрисида халқаро билль. –Т.: «Адолат», 1992. –Б.8.

2.Резолюция Генеральной Ассамблеи ООН от 9 декабря 1998 г. N 53/144 «Декларация о праве и обязанности отдельных лиц, групп и органов общества поощрять и защищать общепризнанные права человека и основные свободы».

3.Ўзбекистон ССРнинг Конституцияси. –Т.: «Ўзбекистон», 1990. –Б.12-16.

4.СССР олий советининг ВЕДОМОСТЛАРИ.–Москва: СССР Олий Совети нашри, 1980 йил 12 март, №11(2033).–Б. 173-178.

5.Сборник постановлений Пленума Верховного суда СССР (1924-1986). –Москва: Издательство “Известия Советов народных депутатов СССР”,1987. –С. 114-118.

6.Ҳусанов О., Каримова О., Азизов Ҳ., Тўйчиева Ҳ., Каримов З. Инсон ҳуқуқлари. –Т.: «Шарқ», 1997. –Б. 30-31.

7.Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги Қонуни. –Т.:”Адолат”, 2017.

8.Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси. http://old.lex.uz/docs/3493184.

9.Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси. http://old.lex.uz/docs/3730228

ЖАҲОНГИР УРМОНОВ,

Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети “Иқтисодий фанлар” кафедраси бошлиғи, и.ф.д., проф.

ЎЗБЕКИСТОНДА СОЛИҚ ВА ЙИҒИМЛАР АДОЛАТЛИ БЎЛИШИ – КОНСТИТУЦИЯДА ҲУҚУҚИЙ МУСТАҲКАМЛАНДИ

Аннотация: Мақолада адолатли солиқ солишнинг назайрий ва ҳуқуқий асослари, солиққа тортиш тамойиллари, адолатли солиқ солишда фуқароларнинг конституцион ҳуқуқлари ҳамда мажбуриятларининг назарий ва ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш бўйича таклифлар ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: солиқлар, солиқ тизими, адолатли солиқ солиш, солиқ мажбурияти, солиқ механизми, солиқ сиёсати.

СПРАВЕДЛИВОСТЬ НАЛОГОВ И СБОРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ - ПРАВОВОЕ ЗАКРЕПЛЕНИЕ В КОНСТИТУЦИИ

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-правовые основы справедливого налогообложения, принципы налогообложения, а также разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию теоретико-правовых основ конституционных прав и обязанностей граждан в области справедливого налогообложения.

Ключевые слова: налоги, налоговая система, справедливое налогообложение, налоговая ответственность, налоговый механизм, налоговая политика..

THE FAIRNESS OF TAXES AND FEES IN UZBEKISTAN-LEGAL STRENGTHENING IN THE CONSTITUTION

Abstract: The article discusses the theoretical and legal foundations of fair taxation, the principles of taxation, and also develops proposals and recommendations for improving the theoretical and legal foundations of the constitutional rights and obligations of citizens in the field of fair taxation.

Key words: taxes, tax system, fair taxation, tax liability, tax mechanism, tax policy.

Маълумки, солиқлар давлатнинг молиявий ресурслари ва йиллик бюджетини шакллантиришнинг асосий манбаси ҳисобланади. Бюджетнинг асосий қисмини эса солиқлар ташкил этади. Давлатнинг асосий функциялари (таълим, тиббиёт, мудофаа, жамоат тартибини таъминлаш, давлат аппаратини таъминлаш ва х.к.) йиғилган солиқлар ҳисобига бажарилади.

Мамлакатимизда амалга оширилган конституциявий ислоҳотлар ўз мазмун-моҳияти билан **«инсон – жамият – давлат»** деган тамойилни конституциявий қоида сифатида муҳрлашга, халқпарвар давлат барпо этишга, инсон ҳуқуқ ва манфаатлари ҳимоясини кучайтиришга қаратилгани билан аҳамиятлидир.

Янгиланган Конституция жамиятимиз ҳаётининг барча йўналишларини комплекс тартибга солиш ҳамда мамлакатимизни демократик ривожлантириш йўлида энг муҳим ҳуқуқий пойдевор бўлиб хизмат қилади. Конституциявий қонун лойиҳасига киритилган янги нормалар барча соҳаларни тараққий эттиришга, шу жумладан, давлат ҳокимиятининг янада самарали ташкил қилинишига ёрдам беради.

Умумхалқ муҳокамаларида **220 мингдан** зиёд таклиф келиб тушди, уларнинг ҳар тўрттасидан биттаси лойиҳадан жой олди. Шу маънода айтиш керакки, янгиланаётган Конституция том маънода халқ Конституцияси бўлди.

Амалдаги Конституцияга **27 та** янги модда киритилиб, моддалар сони **128 тадан 155 тага** ошди. Конституциянинг амалдаги **275 та** нормаси **434 тага** кўпайиб, амалдаги Конституциямиз **65 фоизга** янгиланди.

Янгиланган Конституцияда тадбиркорлик фаолияти кафолатларини кучайтириш, бозор муносабатларини ривожлантириш, ҳалол рақобат учун шарт-шароит яратиш, қулай инвестициявий ва ишбилармонлик муҳитини таъминлаш, адолатли солиқ тизимини йўлга қўйиш, монополистик фаолиятни чеклаш орқали том маънода эркин бозор иқтисодиётини шакллантириш учун барқарор асос яратилди.

Таъкидлаш жоизки, сўнгги йилларда тадбиркорларга кенг имкониятлар яратиб бериш борасида амалга оширилаётган ислоҳотлар натижасида тадбиркорлик субъектлари сони ортди. Жумладан, 2016 йилга нисбатан кичик бизнес тадбиркорлари сони **2,5 баробар ошди**. Кичик тадбиркорликнинг ЯИМдаги улуши **51,8 фоизни** ташкил этди. Турли йўналишларда фаолият олиб борувчи ишбилармон доира вакиллари учун солиқ имтиёзлари, преференция ва имтиёзли кредитлар тақдим этилаётгани уларнинг фаолиятини янада кенгайтиришга имкон бермоқда.

Янги Конституциянинг 63-моддасига мувофиқ, “Фуқаролар қонун билан белгиланган солиқлар ва йиғимларни тўлаши шарт. Солиқ ва йиғимлар адолатли бўлиши ҳамда фуқароларнинг

конституциявий ҳуқуқларини амалга оширишига тўсқинлик қилмаслиги керак”лиги белгиланди.

Солиқ кодексининг 10-моддасига мувофиқ[2], солиқлар ва йиғимлар камситиш хусусиятига эга бўлиши ҳамда ижтимоий, ирқий, миллий, диний ва бошқа шу каби мезонлардан келиб чиққан ҳолда қўлланилиши мумкин эмаслиги. Мулкнинг шаклига, жисмоний шахсларнинг фуқаролигига ёки капиталнинг келиб чиқиш мамлакатига қараб фарқланган солиқ ставкаларини, солиқ имтиёзларини ёки бошқа афзалликларни белгилашга йўл қўйилмайди. Фуқароларнинг ўз конституциявий ҳуқуқларини амалга оширишига тўсқинлик қиладиган солиқларни белгилашга йўл қўйилмайди.

Шу билан бирга, давлат ҳам фуқаролар учун ортиқча ва оғир бўлган солиқлар ёки бошқа йиғимларни жорий этмаслик бўйича кафолат бериши, бу кафолат эса қонун билан мустаҳкамланиши керак бўлади.

Янги таҳрирдаги Конституцияга “**Солиқ ва йиғимлар адолатли бўлиши шарт”**, дея белгиланди. Бу нима дегани? Бу — давлат солиқ ва йиғимлар жорий этаётганда аҳоли ёки тадбиркор уни тўлай олишига қурби етишини албатта инобатга олади. Ортиқча ва мантиқсиз солиқлардан, турли йиғимлардан воз кечилади. *Масалан; аввалларида экология солиғи, жон солиғи, туёғ солиғи, бўйдоқлик солиғи каби солиқлар ҳам ундирилган.*

Қайд этиш жоизки, солиққа тортишнинг адолатлилик тамойили Соҳибқирон Амир Темур даврида “Темур тузукларида” ҳам белгилаб қўйилган. "Амр этдимки, раиятдан мол-хирож йиғишда уларни оғир аҳволга солиб қўйишдан ёки мамлакатни қашшоқликка тушириб қўйишдан сақланиш керак. Негаки, раиятни хонавайрон қилиш (давлат) хазинасининг камбағаллашишига олиб келади. Хазинанинг камайиб қолиши эса сипоҳнинг тарқалиб кетишига сабаб бўлади. Сипоҳнинг тарқоқлиги, ўз навбатида, салтанатнинг кучсизланишига олиб келади[7]" деб ёзилган.

Бундан ташқари, Конституцияда аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож тоифаларини қўллаб-қувватлаш, фуқароларнинг муносиб

турмуш даражаси ва сифатига эришишга, муҳтожларга ёрдам кўрсатишга қаратилган ижтимоий давлат белгилари ўз ифодасини топган. Давлат аҳолининг ижтимоий жиҳатдан эҳтиёжманд тоифаларини ижтимоий ҳимоя қилиши кафолатланган.

Солиқ солишда ижтимоий давлатнинг белгилари **“Темур тузукларида”** ҳам ёзилган бўлиб, “Кимки бирон саҳрони обод қилса ёки полиз қилса, ёки бирон боғ кўкартирса ёхуд бирон ҳароб бўлиб ётган ерни обод қилса, биринчи йили ундан ҳеч нарса олмасинлар, иккинчи йили раият ўз розилиги билан берганини олсинлар, учинчи йили (эса олиқ-солиқ) қонун - қоидасига мувофиқ хирож йиғилсин[7]” деб таъкидланган.

Шунингдек, "Амр қилдимки, ҳосил пишиб етилмасдан бутун раиятдан молу жиҳот олинмасин. Ҳосил етилгач, ҳосилни уч бўлиб олсинлар. Агар раият солиқ тўловчи юбормасдан, солиқни ўзи келтириб берса, у ҳолда у ерга солиқ тўпловчи юбормасинлар. Агарда солиқ олувчини юборишга мажбур бўлсалар, улар солиқларни буйруқ бериш ва яхши сўз билан олсинлар, калтак арқон ишлатиш, ишни уриш-сўкишгача олиб бормасинлар. Уларни банди этиб, занжир билан кишанламасинлар. Яна буюрдимки, хирожни раиятдан калтаклаш ва савалаш йўли билан эмас, балки огоҳлантириш ва тушунтириш йўли билан ундирсинлар[7] " деб белгиланган.

Яна бир муҳим масала, Конституциянинг 1-моддасида “Ўзбекистон - бошқарувнинг республика шаклига эга бўлган суверен, демократик, ҳуқуқий, ижтимоий ва дунёвий давлат” деб белгиланди. Демак солиқ муносабатларининг қонунийлиги, ҳуқуқийлиги ва дунёвийлиги икки томонга ҳам солиқ тўловчи ва солиқ ундирувчига ҳамда уларнинг хуқуқий маданиятига ҳам бевосита боғлиқдир. Яъни солиқ тўловчилар бугунги кунда **“Инсофли солиқ тўловчи”** ва солиқ ундурувчилар эса **“Солиқчи-кўмакчи”** тамойили асосида ишлаши талаб этилади. Фуқаролар солиқ тўлаш бўйича Коснтитуцион мажбуриятларини ўз вақтида бажарсалар, солиқ органлари эса давлат хизматчиси сифатида белгиланган вазифа ва мажбуриятларини аъло даражада бажаришлари керак бўлади. Бунда энг аввало, мажбурламасдан, маданият билан этика-эстетика

қоидаларига риоя қилган ҳолда солиқ тўловчиларга тушунтириш ва тарғибот-ташвиқот ишларини олиб боришлари лозимдир.

Киритилган яна бир янги **норма “Солиқ ва йиғимлар фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқларини амалга оширишига тўсқинлик қилмаслиги керак**”лиги белгиланди. Бу нима дегани? Бу — солиқлар фуқароларнинг Конституцияда белгиланган ҳуқуқлари, хусусан, сайлаш ва сайланиш, мулкдор бўлиши ва мулк дахлсизлиги, уй-жойли бўлиш, мехнат қилиш, дам олиш, таълим олиш, илм билан шуғулланиш, даволаниш ва тиббий хизматдан фойдаланиш ва х.к.лар каби ҳуқуқларидан фойдаланишига тўсқинлик қилмаслиги керак. Давлат Конституцияда инсон ҳамда фуқаронинг ҳуқуқ ва эркинликларини кафолатламоқда.

Демак, давлат солиқларни жорий қилиш ва ундиришда солиқ солишнинг адолатлилик, мажбурийлик, аниқлик ва солиқ органларининг солиқ тўловчилар билан ҳамкорлиги, солиқ тизимининг ягоналиги, ошкоралик ва солиқ тўловчининг ҳақлиги презумпцияси принципларига асосланиши лозим. Солиқ кодекси ва солиқ тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг қоидалари Конституцияга зид бўлиши мумкин эмас.

Таъкидлаш жоизки, охирги йилларда тадбиркорлар тўлайдиган солиқ турлари сони қисқартирилди, аҳолига, бизнесга солиқ имтиёзлари қўлланилди. Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи ставкаси тушурилиб 12 фоиз миқдорида белгиланиб, ҚҚС ставкаси 20 фоиздан 12 фоизга пасайтирилди. Хусусан, 2020 йилдан жорий қилинган янги таҳрирдаги Солиқ кодексига мувофиқ, 13 та турдаги солиқлар турлари 4 тага қисқартирилиб 9 тага камайтирилди.

Конституцияга киритилган ўзгариш эса ана шундай ижобий ўзгаришлар изчил ва тизимли давом эттирилиши учун ҳуқуқий асос бўлади.

Энг асосийси, Янги Ўзбекистон тараққиёти учун мустаҳкам ҳуқуқий пойдевор яратиш мақсадида амалга оширилган Конституцион ислоҳотлар ҳалқ фаровонлиги ва инсон қадри учун хизмат қилади.

Бундан ташқари, Янги Конституциянинг 149-моддасига

мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ягона солиқ тизими амал қилиши ва солиқлар жорий қилишга фақат Ўзбекистон Республикасининг Олий Мажлиси ҳақлиги белгилаб қўйилган.

Солиқлар хар қандай давлат шаклланишининг асосий молиявий манбаси ҳисобланади. Солиқлар – бу давлат ва солиқ тўловчилар ўртасидаги молиявий муносабатларни тартибга солувчи муҳим воситаси ҳисобланади. Солиқ механизми солиқ хуқуқи ва солиққа тортишни бошқариш асосларига таянган ҳолда солиқ муносабатларини тартибга солади[6].

Солиқ тизими Ўзбекистон Республикасининг бутун ҳудудида барча солиқ тўловчиларга нисбатан ягона эканлиги белгиланган. Солиқ кодексининг 8-моддасига кўра, ҳеч кимга Солиқ кодексида назарда тутилмаган ёхуд унинг нормалари бузилган ҳолда белгиланган солиқлар ва йиғимларни тўлаш мажбурияти юклатилиши мумкин эмаслиги белгиланган.

Янги солиқлар ва йиғимлар белгиланишини назарда тутувчи солиқ тўғрисидаги қонун ҳужжатлари расман эълон қилинган кундан эътиборан камида уч ой ўтгач амалга киритилади. Солиқ имтиёзларини бекор қилишни, янги мажбуриятларни жорий этишни, солиқ тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик учун жавобгарлик чораларини кучайтиришни ёки солиқ муносабатлари субъектларининг ҳолатини бошқача тарзда оғирлаштиришни назарда тутувчи солиқ тўғрисидаги қонун ҳужжатлари ҳам худди шундай тартибда амалга киритилади.

Солиқлар ва йиғимлар ставкаларининг ўзгартирилишини назарда тутувчи солиқ тўғрисидаги қонун ҳужжатлари, агар уларда кечроқ муддат кўрсатилмаган бўлса, улар расман эълон қилинган ойдан кейинги ойнинг биринчи кунидан эътиборан амалга киритилади.

Солиқ тўғрисидаги қонун ҳужжатлари Солиқ кодексидан ва бошқа қонун ҳужжатларидан иборат.Солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар Солиқ кодекси билан белгиланади, ўзгартирилади ёки бекор қилинади.

Ўзбекистон Республикаси солиқ тизимининг ҳуқуқий асослари,

солиқ тўловчиларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, солиқ қонучилигини бузганлик учун жавобгарлик Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси, қонунлар ва бошқа солиқ солиш масалаларига дахлдор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан тартибга солинади.

Солиқ кодекси - Ўзбекистон Республикаси қонуни мақомини олган норматив-ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланади. Солиқ қонунчилиги тизимида Солиқ кодекси асосий норматив-ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланиб, унинг негизида солиқ солиш масалаларига дахлдор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тизими шакллантирилади. Шу муносабат билан, барча норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар Солиқ кодекси қоидаларига мувофиқ бўлиши керак.

Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси ҳақида”ги Конституциявий Қонунига мувофиқ солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларни жорий қилиш Қонунчилик палатаси ва Сенатнинг биргаликдаги ваколатларига тегишлидир. Ушбу ҳуқуқ Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 25 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодексини тасдиқлаш тўғрисида”ги ЎРҚ-136-сон Қонуни билан қўлланилган. Янги таҳрирдаги Солиқ кодекси Ўзбекистон Республикасининг ЎРҚ-599-сонли Қонунига мувофиқ 2020 йил 1 январдан бошлаб амалиётга жорий этилди. 2020 йил 1 январдан амалдаги 13 та турдаги солиқлар турлари 4 тага қисқартирилиб 9 тага камайтирилди.

Миллий иқтисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш шароитида 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида “Макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш, давлат бюджети тақчиллигини қисқартириш, давлат бюджети даромадларидан самарали фойдаланиш, хусусий тадбиркорлик ривожлантириш, солиқ юкини камайтириш ва солиқ маъмуриятчилигини такомиллаштириш, 2026 йил бориб тадбиркорлик субйектларига солиқ юкламасини ялпи ички маҳсулотнинг **27,5 фоизидан 25 фоизи** даражасига камайтириш[3]” каби мухим устувор вазифалар белгиланган.

Маълумки, солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар давлат

бюджетининг асосий даромад қисмини ташкил қилувчи молиявий манба ҳисобланади. Шундай экан, молиявий ресурслардан самарали фойдаланиш, бюджет даромадларини ошириш ва харажатларининг мақсадлилигини таъминлаш устувор вазифа ҳисобланади. Республикада шаклланган солиқ сиёсати **“Халқ бой бўлса, давлат ҳам бой ва қудратли бўлади”**[4] деган принцип асосида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш муҳим роль ўйнайди ҳамда республикада амалга оширилаётган иқтисодий сиёсатнинг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

Ҳулоса қилганда, Янги тараққиёт стратегиясига мувофиқ, тадбиркорликни ривожлантириш ва қулай ишбилармонлик мухитини яратиш, солиққа тортишни соддалаштириш, солиқ юкини камайтириш ва солиқ маъмуриятчилигини шаффофлигини ошириш ва қўшимча солиқ базасини кенгайтириш орқали солиқ тушумларини ошириш мамлакат солиқ сиёсатининг асосий вазифаси ҳисобланади. Янги Ўзбекистон тараққиёти учун мустаҳкам ҳуқуқий пойдевор яратиш мақсадида амалга оширилган Конституцион ислоҳотлар халқ фаровонлиги ва инсон қадри учун хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2023.
2. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси: Расмий нашр -Т.: “Адолат”, 2023.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони. – www.lex.uz
4. Мирзиёев Ш.М. “Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз” – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 488б.
5. Вахобов А., Жўраев А. Солиқлар ва солиққа тортиш. Дарслик. – Т.: “Шарқ”, 2009,-448 б.
6. Майбуров И.А. и др.. Теория и история налогообложения.

2-е изд., перераб. и доп. - М.: — 422 с.. 2011
7. Темур тузуклари. Т.: «Чўлпон», 1991 й. 98-бет.

XUSHNUDBEK OLIMJONOV,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, yu.f.b.f.d. (PhD)

S.YAMANQULOV,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kursanti

KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARNING IJTIMOIY MUNOSABATLARGA TA’SIRI.

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi kun yangi islohotlar bosqichida mamlakatimizda huquqiy munosabatlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ijtimoiy munosabatlar tizimini rivojlantirishdagi o‘rni va roli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, huquqiy munosabatlar, siyosiy huquq, ijtimoiy huquq, ijtimoiy munosabat, islohot, qonun, farmon, qaror.

ВЛИЯНИЕ КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ОБЩЕСТВЕННЫЕ ОТНОШЕНИЯ.

Аннотация: В данной статье освещаются проводимые сегодня на этапе новых реформ в нашей стране реформы в сфере правоотношений, роль и место Конституции Республики Узбекистан в развитии системы общественных отношений.

Ключевые слова: Конституция, правоотношения, политическое право, социальное право, общественное отношение, реформа, закон, указ, постановление.

THE IMPACT OF CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS ON SOCIAL RELATIONS.

Annotation: this article covers the reforms carried out in the field of legal relations in our country today at the stage of new reforms, the role and role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in the development of the system of social relations.

Keywords: constitution, legal Relations, Political Law, Social law, social relations, reform, law, decree, decision.

Konstitutsiyaviy qonunchilikning manbalari qatorida Konstitutsiyani, konstitutsiyaviy qonunlarni, konstitutsiyaning matnida tilga olingan organik qonunlar, konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish predmetiga oidmasalalar bo‘yicha qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar kiritilishi to‘g‘ri bo‘ladi.

Ma’lumki, Jamiyatimizdagi ijtimoiy munosabatlarning muayyan qismi huquq vositasida tartibga solinadi. Ijtimoiy munosabatlar insonlar hamda ularning uyushmalari o‘rtasida birgalikdagi faoliyat jarayonida o‘rnatiladigan aloqalardir. Ana shu munosabatlarning eng muhimlari, ya’ni jamiyat ishlarini samarali boshqarish uchun davlat hokimiyatini tashkil qilish, davlat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar konstitutsiyaviy huquq yordamida tartibga solinadi.

1948 yil 10 dekabr kuni qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq, har bir inson jamiyat a’zosi sifatida milliy kuch-harakatlar hamda xalqaro hamkorlik vositasida va har bir davlatning tuzilishi, shuningdek, resurslariga muvofiq ijtimoiy ta’minotga va o‘zining qadr-qimmatini saqlash, shaxsning erkin rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi huquqini amalga oshirishga haqli.[1]

Konstitutsiyaviy huquqning manbalari yuridik adabiyotda ikki ma’noda talqin qilinadi: birinshisi – konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni yuzaga keltiruvshi kush, ya’ni muayyan siyosiy irodani o‘zida mujassam etgan davlat hokimiyati, ikkinshisi – mazkur normalarni ifodalovshi turli shakllardagi normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Ijtimoiy munosabatlar esa kishilarning iqtisodiyot, siyosat va madaniyat sohalaridagi aloqalari bo‘lib, ular muayyan qonuniyatlar asosida vujudga kelib, takrorlanib turadi, o‘zgaradi va rivojlanadi.

Mazkur munosabatlarning mazmunini, umumiy yig‘indisi jamiyatning tuzilishini tashkil etadi.

Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar yig‘indisini, ulardan eng muhimlarining tuzilish asoslarini tartibga solish konstitutsiyaning, shuningdek, konstitutsiyaviy huquq sohasining predmetidir. Real konstitutsiyaviy munosabatlar konstitutsiyaviy huquq sohasining normalari ta’sirida qaror topadi, rivojlanadi va tartibga solinadi.

Aniq ta’rif beradigan bo‘lsak, konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning amal qilishi natijasida vujudga keladigan, shakllanadigan va rivojlanadigan munosabatlar konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlardir, deb ataladi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar bu umumiy huquqiy munosabatlarning muhim turi ya’ni, tarkibiy qismi sifatida ular tavsiflanadigan barsha xususiyatlarga ega bo‘ladi. Dastlabki umumiy jihat shundan iboratki, huquqiy munosabat huquq normasi qo‘llanishi va amal qilishining natijasidir. Huquqiy munosabat sub’yektiv huquq va yuridik majburiyatlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan shaxslar (sub’yektlar) o‘rtasidagi huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosidagi aloqadir. Bu umumiy nazariy jihatlar konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning mohiyatini aniqlash va xususiyatlarini talqin etishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, fuqarolarga munosib turmush sharoitini yaratish, millatlararo totuvlikni ta’minlash va rivojlantirish, hokimiyat tizimini demokratlashtirish va fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylanib, “inson qadri uchun”[3] degan ulug‘ tushuncha markaziy o‘ringa qo‘yildi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar quyidagi xususiyatlari bilan boshqa turdagi huquqiy munosabatlardan ajralib turishi bilan farqlanadi;

birinshidan, ular konstitutsiyaviy huquq mavzuini tashkil qiluvshi alohida sohada vujudga keladi;

ikkinshidan, o‘z sub’yektlarining tarkibi bilan farqlanadi.

Xususan, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabat sub’yektlari orasida shundaylari borki, ularni boshqa turdagi huquqiy munosabatlarda ushratmaymiz (masalan, xalq, millatlar, siyosiy partiyalar, saylovshilar va hokazo);

ushinshidan, konstitutsiyaviy huquq boshqa huquq sohalaridan serqirraligi, turli-tuman huquqiy munosabatlarni qamrab olganligi bilan ajralib turadi;

to‘rtinshidan, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar aksariyat hollarda siyosiy munosabatlar va aloqalarning maxsus yuridik shakli sifatida maydonga shiqadi;

beshinshidan, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar jamiyatda siyosiy va davlat hokimiyati sohasidagi aloqalarni tartibga solishning huquqiy shakli hamda asosini tashkil etadi.

Vazifasi va maqsadiga koʻra, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar huquq oʻrnatuvshi va huquqni muhofaza etuvshi turlarga ajratiladi. Birinshi turida huquqiy munosabat qatnashshilari ixtiyoriy amalga oshiradigan huquq va majburiyatlar tushuniladi.

Ikkinshi turida esa muayyan huquqdan foydalanish va majburiyatlarni oʻtash orqali konstitutsiyaviy-huquqiy normada aks ettirilgan qoidani muhofaza qilish nazarda tutiladi.

Xususan, Konstitutsiyaning 54-moddacida “Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi”, deb qayd etilgan.[2]

Oʻzbekiston Respublikasidagi konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarni ularning ob’yekti va subyektlaridan kelib chiqib, quyidagi turlarga boʻlishi mumkin:

Oʻzbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosiy prinsiplarini hayotga tatbiq etish natijasida paydo boʻladigan huquqiy munosabatlar;

fuqarolar huquqiy holatining asoslari hamda ularning konstitutsiyaviy huquq va burchlarining amalga oshirilishi natijasida kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar;

jamiyat bilan shaxs oʻrtasida kelib chiqadigan konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar;

ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi sohasida kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar;

Oʻzbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini tashkil etish, davlat organlari tizimini belgilash, ular faoliyatining prinsiplari, vakolatlari va davlat hokimiyatining amalga oshirilishi natijasida kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar;

bevosita demokratiyani amalga oshirish natijasida kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning subyektlari. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar shu munosabatlarning ishtirokchilari orqali amalga oshiriladi. Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning subyektlari deb, ularning tomonlari sifatida ushbu munosabatlarda ishtirok etuvchilarga aytiladi. Har qanday huquqiy munosabatlar huquq va majburiyat bajaruvchi eng kamida ikkita subyektdan tashkil topadi.

Konstitutsiyaviy huquqning ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etishining asosiy vositasi ishtirokchilarning huquqiy layoqatini va maqomini belgilash hamda huquqiy munosabat orqali ularning huquq va majburiyatlarini amalga oshirishdir. Konstitutsiyaviy huquq jismoniy shaxslarga va ijtimoiy tuzilmalarga umumiy huquqlar beradi, ya’ni ularning huquqiy layoqati va muomala layoqatini belgilaydi. Konstitutsiyaviy huquqda huquqiy layoqat va muomala layoqati odatda bir vaqtda vujudga keladi hamda o‘zaro birikib ketadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning muhim jihatlaridan biri shundaki, ularning aksariyati huquq subyektlarining nomma-nom individuallashtirilishini nazarda tutmaydi. Ya’ni konstitutsiyaviy huquqning hamma subyektlari (yoki ularning muayyan guruhi) konstitutsiyaviy munosabatlarning ishtirokchilari hisoblanadilar.

Yuqorida ta’kidlanganidek, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar ko‘pgina siyosiy munosabatlarning maxsus shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, jamiyatdagi qator ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar, shaxsiy huquq va erkinliklar, mulkchilik munosabatlari va boshqalar konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning ob’yekti hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning tabiati ular ishtirokchilarining subyektiv huquqi va yuridik majburiyatlarida o‘z ifodasini topadi. Subyektiv huquq shaxsga konstitutsiyaviy huquq normasida belgilangan doirada faoliyat ko‘rsatish vakolatini beradi.

U ushbu doirada o‘z manfaatlarini qondirish uchun xatti-harakatlarni erkin amalga oshira oladi, lozim bo‘lgan taqdirda boshqa shaxslardan, shu jumladan davlat idoralaridan o‘z foydasi uchun tegishli xatti-harakatlarni

talab qila oladi. Bunda manfaatlar subyektiv huquqlar bilan uzviy bo‘ladi, albatta.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlardagi subyektiv yuridik majburiyatlar huquq sohibiga lozim bo‘lgan xulq-atvor, xatti-harakatni sodir etishni qat’iy talab darajasida qo‘yadi. Ushbu munosabatlarda subyektiv huquqlar bilan yuridik majburiyatlar o‘rtasida chambarchas bog‘liqlik va aloqadorlik mavjud.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi davlat idoralari, tashkilotlar, mansabdor shaxslarda aynan bir ob’yektga nisbatan ham huquq, ham majburiyat kelib chiqadi. Bunda subyektlar ham huquqdor bo‘lishlari, ham majburiyatni ado etishlari lozim bo‘ladi. Shunday vakolatlar ham borki, ular yo faqat huquq beradi, yo faqat majburiyat yuklaydi.

“O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti: qonunga o‘z e’tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo‘yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga haqli”.

Konstitutsiyada mazkur vakolatning yuridik oqibati ifodalangan: “Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahrirda tegishlicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan ma’qullansa, qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o‘n to‘rt kun ichida imzolanishi va e’lon qilinishi kerak”.

Bu o‘rinda birinchi holda huquq, ikkinchi holda majburiyat nazarda tutilgan.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar jamiyatda davlat hokimiyatini amalga oshirish sohasidagi aloqalarni huquqiy tartibga solishning asosini tashkil etadi. Zero, ana shu huquqiy tartibga solish darajasida konstitutsiyaviy-huquqiy normalar ijtimoiy hayotga tatbiq etiladi va natijada maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy munosabatlar shakllantiriladi.

Shunday qilib, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabat – konstitutsiya normalari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabat bo‘lib, uning mazmunini shu normada nazarda tutilgan subyektlar o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar orqali yuz beruvchi yuridik aloqadorlik tashkil etadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning tasnifi. Konstitutsiyaviy huquq mavzuining serqirra va rang-barangligi, normalarining turli yo‘nalishlarga oidligi konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar xilma-xilligiga sabab bo‘ladi. Huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi eng keng tarqalgan asos huquq normasining amalga oshirilishidir. Huquq normasi asosida aniq konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar yuzaga keladi. Bu munosabatlarda ishtirokchilar hamda ularning o‘zaro huquq va majburiyatlari aniq ifoda etiladi.

Konstitutsiyaviy huquqning prinsip-normalari, ta’rif-normalari, maqsad-normalari asosida yana turli-tuman huquqiy munosabatlar kelib chiqadiki, ular orqali ushbu normalardagi qoidalar hayotga joriy etiladi. Bular umumiy xususiyatga ega huquqiy munosabatlar bo‘lib, bunda munosabat subyektlari, ularning huquq va majburiyatlari aniqlashtirilmaydi.

Yuqoridagi nazariy mulohazani misol orqali tushuntirishga harakat qilamiz. Aytilgan fikr O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi asoslarini mustahkamlovchi prinsip-normalarning hammasiga tegishli. Xususan, davlat hokimiyati vakolatlarining bo‘linishi prinsipi nihoyatda murakkab huquqiy munosabatlar tizimi orqali o‘zining amaliy ifodasini topadi. Chunki, bu munosabatlarning subyektlari serqirra faoliyat sohiblari bo‘lmish qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati idoralaridir. Biroq bu boradagi barcha huquqiy munosabatlar o‘z ibtidosini yagona umumiy prinsip-normadan, ya’ni Konstitutsiyamizning 11-moddasidagi qoidadan oladi. Bu umumiy huquqiy munosabat bo‘lib, unda ishtirok etuvchi barcha subyektlar mazkur prinsipni amalga oshirishga mas’ul hisoblanadilar. Ushbu moddadagi qoidadan kelib chiquvchi huquq va burchlar, vakolatlar shu konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatning mazmunini tashkil etadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning alohida turi sifatida muayyan huquqiy holatlarni ajratib ko‘rsatish lozim. Ular umumiy xususiyatga ega huquqiy munosabatlardan subyektlarining qat’iy belgilanganligi bilan farqlanadi. Ammo subyektlar huquq va majburiyatlarining mazmuni aniq belgilanmaydi, u bir qator konstitutsiyaviy-huquqiy normalar yig‘indisidan kelib chiqadi.

Masalan, bu toifa huquqiy munosabatlarga fuqarolik holati, deputatlik maqomi (huquqiy holati) kabilar kiradi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarni doimiy va muvaqqat turlarga ajratish mumkin. Doimiy huquqiy munosabatlarning amal qilish muddati odatda cheksiz bo‘ladi. Biroq ular ma’lum shart-sharoitlar ta’sirida o‘z harakatini to‘xtatishi ham mumkin. Xususan, fuqaroning o‘limi uning fuqaroligi bilan bog‘liq munosabatlarning tugatilishiga sabab bo‘ladi.

Muvaqqat huquqiy munosabatlar aniq konstitutsiyaviy qoidaning amalga oshirilishi natijasida yuzaga keladi. Huquqiy munosabatda nazarda tutilgan huquqiy majburiyatlar bajarilishi bilan bu munosabat tugaydi. Saylov kompaniyasi davridagi munosabatlar muvaqqat konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarga misol bo‘ladi.

Saylovchi bilan uchastka saylov komissiyasi o‘rtasidagi munosabatlar komissiyaning saylov byulletenini berishi hamda ovoz berish uchun sharoit yaratishi bilan tugaydi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning alohida turi moddiy va protsessual munosabatlardir. Moddiy munosabatlarda huquq va burchlarning mazmuni o‘z ifodasini topadi. Protsessual munosabatlar orqali esa huquqiy xatti-harakatlarni amalga oshirishning tartibi (taomili) namoyon bo‘ladi.

Vazifasi va maqsadiga ko‘ra, konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar huquq o‘rnatuvchi va huquqni muhofaza etuvchi turlarga ajratiladi. Birinchi turida huquqiy munosabat qatnashchilari ixtiyoriy amalga oshiradigan huquq va majburiyatlar tushuniladi.

Xulosa muayyan konstitutsiyaviy munosabatni tartibga soluvchi huquqiy norma qanday shaklda ifodalanishi, amalga oshishi ikkinchi darajali masala emas.Chunki bu yerda manbalar o‘rtasida ziddiyatlarni bartaraf eta oladigan qat’iy tartib bo‘lmog‘i kerak. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maqomini o‘zgartirish farmon yoki hukumat qarori bilan amalga oshirilmaydi. Bu Konstitutsiya yoki konstitutsiyaviy qonunning predmetini tashkil etadigan masaladir. Shu o‘rinda Jahon tajribasiga ko‘ra, hozirgi zamon demokratik jamiyatlarda davlat hokimiyati konstitutsiya yordamida institutsional legitimlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948 yil 10 dekabr // https://constitution.uz/uz/pages/humanrights
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T., “O‘zbekiston” NMIU. 2017 – B.16-17.
3. Sh.M.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz / Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi. 06.11.2021. // www.president.uz

АЛИШЕР ЭРАНОВ,
Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академиясининг мустақил изланувчиси

ДАВЛАТ ХИЗМАТИДА САМАРАДОРЛИГИНИ БОШҚАРИШ ТИЗИМИ ҲАМДА УШБУ БОРАДА БИРЛАШГАН АРАБ АМИРЛИКЛАРИ ТАЖРИБАСИ ТАҲЛИЛИ

Аннотация: Ушбу мақолада Ходимлар фаолиятини бошқариш тизимининг мазмуни ва унинг хуқуқий асослари таҳлил қилинади, ташкилотларнинг стратегик мақсадларини ходимнинг шахсий мақсадлари билан қандай мувофиқлаштириш кераклиги, шунингдек, оралиқ ва йиллик иш фаолиятини баҳолашни ўтказиш ҳамда унинг роли таҳлил қилинади. Ходимлар фаолиятини бошқаришда модератор комиссияси, инсон ресурслари бошқармалари, ходим ва раҳбарларнинг вазифалари кўриб чиқилади. Шунингдек, шикоятлар ва уларни кўриб чиқиш жараёни, йиллик иш фаолиятни текшириш натижалари, иш ҳақи ва йиллик ўсишлар ўртасидаги боғлиқликлар келтириб ўтилади.

Калит сўзлар: давлат фуқаролик хизмати, ходимлар самарадорлигини бошқариш тизими, бошқарув самарадорлигини баҳолаш, хорижий тажриба, натижага асосан кўтарилиш, модератор комиссияси, иш фаолиятини режалаштириш, оралиқ ва йиллик хисобот.

АНАЛИЗ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬЮ НА ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЕ И ОПЫТ ОБЪЕДИНЕННЫХ АРАБСКИХ ЭМИРАТОВ

Аннотация: В данной статье анализируются содержание системы управления персоналом и ее правовая основа, способы согласования стратегических целей организации с личными целями работника, а также проведение промежуточной и годовой аттестации и ее роль. Обязанности модераторской комиссии, отделов кадров, сотрудников и менеджеров учитываются в управлении эффективностью сотрудников. Также упоминается взаимосвязь между жалобами и процессом их рассмотрения, результатами ежегодных обзоров эффективности, заработной платой и ежегодными повышениями.

Ключевые слова: государственная гражданская служба, система управления эффективностью сотрудников, управленческая оценка, зарубежный опыт, продвижение по службе, модераторская комиссия, планирование эффективности, промежуточный и годовой отчет.

ANALYSIS OF THE PERFORMANCE MANAGEMENT SYSTEM IN THE CIVIL SERVICE AND THE EXPERIENCE OF THE UNITED ARAB EMIRATES

Annotation: This article analyzes the content of the personnel management system and its legal basis, ways of coordinating the strategic goals of the organization with the personal goals of the employee, as well as the conduct of interim and annual performance evaluation and its role. The duties of the moderator commission, human resources departments, employees and managers are considered in performance management of employees. Also, the relationship between complaints and their review process, results of annual performance reviews, salary and annual increases are mentioned.

Key words: public civil service, employee performance management system, management performance evaluation, foreign experience, performance-based promotion, moderator commission, performance planning, interim and annual report.

Ўзбекистон халқининг иродасини акс эттирган янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг муқаддимасидаги барча олий мақсадларга эришиш учун бугун Ўзбекистон давлатчилиги олдига улкан ва мураккаб вазифлар қўйилган. Зероки, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 2-моддасида давлат халқ иродасини ифода этиб, унинг манфаатларига хизмат қилиши ҳамда давлат органлари ва мансабдор шахслар жамият ва фуқаролар олдида масъуллиги алоҳида белгиланган.

Конституцияла белгиланган олий мақсадларга эришиш учун охирги йилларда самарали ва сифатли давлат бошқарувини шакллантириш мақсадида фаол ислохотлар олиб борилмоқда. Давлат фуқаролик хизматчилари фаолияти самардорлигини ошириш эса мамлакатимизда амалга оширилаётган давлат бошқаруви соҳасидаги ислоҳотларнинг асосий мақсадларидан бири ҳисобланади. Анъанавий, ҳаракат ва натижадорлик ўртасидаги алоқа ва рағбатлантириш механизмларининг сустлиги бошқарув самарадорилигини баҳолашга ёндашувни қайта кўриб чиқишни талаб этмоқда. Дарҳақиқат, бугунги кунда давлат хизматида кадрлар фаолияти самарадорлигини оширишга қаратилган, улар фаолиятини баҳолаш тизимини ҳуқуқий асосларини шакллантириш ва мавжуд норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни амалиётда учраётган мавжуд муаммолардан келиб чиқиб, янада такомиллаштирилиши долзарб масалалардан бири бўлиб ҳисобланади.

Шунга кўра Ўзбекистонда ушбу сохани янада ривожлантириш, қонунчиликдаги мавжуд камчиликларни тўлдириш, ҳусусан юқори, тўлдирувчи ёки бўйсинувчи қонунлар ўртасидаги муносабатларни аниқлаш ва мувофиқлаштириш мақсадида ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 8 августдаги “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги 788-сонли қонун қабул қилинди. Жуда кўп музокараларга сабаб бўлган ҳамда ривожланган хорижий давлатлар тажрибалари ва соха экспертлари тавсияларига асосланган ушбу қонун давлат хизмати ва давлат хизматчиларининг малакаси, бурчлари ва ҳуқуқларини, шунингдек, уларнинг меҳнат шароитларини белгиловчи якдил восита сифатида қаралади. Хўш,

давлат фуқаролик хизмати тўғрисидаги қонун дунё тажрибасига асосан аслида нималарни ўз ичига олиши, қандай мақсадларни қамраб олиши керак?

Хорижий тажрибаларга асосан, Давлат фуқаролик хизмати тўғрисидаги қонун энг аввало давлат лавозимида назарда тутилган мажбуриятлар ва жавобгарликлар ҳамда ушбу лавозимни бажаришда касбий ҳалолликни таъминлайдиган ҳуқуқлар ўртасидаги мувозанатни сақлаши, шунингдек:

1. аҳоли эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда давлат хизматларини тезкор ва самарали кўрсатадиган, коррупция ва ҳокимиятни суистеъмол қилишдан холи, профессионал ва сиёсий жиҳатдан нейтрал давлат хизматини ташкил этиши;

2. давлат хизматчиларини бошқариш ваколатига эга бўлган ёки вазирлик ва идоралар томонидан амалга оширилган ҳолда уларнинг бошқарувини назорат қилиш ваколатига эга бўлган институтни шакллантирилиши;

3. давлат хизматига кириш номзодларнинг билим ва кўникмалари бўйича очиқ танлов асосида амалга оширилиши;

4. давлат хизматига кириш ва мартаба кўтарилиши учун тенг имкониятларни таъминлаши;

5. давлат хизматчилари учун ўз вазифаларини бажаришда сифатли, узлуксиз ва холисликни ҳамда жавобгарликни таъминлашга қаратилган мажбуриятлар тизимини яратиши;

6. юқори сифатли давлат хизматчиларини жалб қиладиган бир қатор ҳуқуқлар, имтиёзлар ва бошқа меҳнат шароитларини кафолатлаши муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикасининг “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги Қонуни ҳам юқоридаги муҳим жихатларни ўзида акс эттирган. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги – давлат органлари ва ташкилотларида инсон ресурсларини ривожлантириш ҳамда ходимларни бошқариш соҳасида ягона давлат сиёсатини амалга ошириш учун масъул бўлган давлат фуқаролик хизмати ишлари

бўйича ваколатли давлат органи ҳисобланади. Унинг ваколатига юқорида таъкидлаб ўтилган барча вазифалар юклатилган.

Хусусан, Қонуннинг 36-моддасига асосан давлат фуқаролик хизматчиси фаолиятининг самарадорлигини баҳолаш тизими жорий этилиши белгиланган. Унда давлат фуқаролик хизматчисини рағбатлантириш ҳамда хизматда лавозим бўйича кўтарилишини таъминлаш учун унинг фаолияти самарадорлигини энг муҳим кўрсаткичлар асосида баҳолаш тизими жорий этилиши белгиланган. Унга асосан, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги томонидан “Давлат фуқаролик хизматчилари фаолиятининг самарадорлигини энг муҳим кўрсаткичлар асосида баҳолаш услубияти” ишлаб чиқилган.

Шунингдек, 2022 йил 21 декабрда қабул қилинган “Янги Ўзбекистон маъмурий ислоҳотларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонда “республика ижро этувчи ҳокимият органи раҳбари ва унинг ўринбосарлари масъулият доираси ҳамда республика, вилоят ва туман даражасидаги бўлинмаларнинг вазифа ва функцияларини аниқ чегаралаш, шунингдек, ҳудудлар кесимида фаолият самарадорлиги ва натижадорлигини баҳолаш мезонлари ҳамда иш кўрсаткичлари (индикаторлари) белгиланиши алоҳида кўрсатиб ўтилди. Шу орқали, ихчам, профессионал бошқарув тамойилларига асосланган ва самарадорликка йўналтирилган яхлит тизимни шакллантириш белгиланди.

Аслида баҳолашга оид тизим яратиш бўйича нормалар Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 октябрдаги “Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5843-сон Фармони, 2020 йил 1 майдаги ПҚ-4702-сон “Ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги, 2021 йил 3 апрелдаги “Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларининг тузилмасини мақбуллаштириш ва штат бирликлари сонини қисқартириш тўғрисида”ги ПҚ-5053-сон, 2021 йил 22 июлдаги “Вазирликлар, давлат қўмиталари, давлат бошқарувининг бошқа органлари ва

хўжалик бирлашмалари раҳбарлари ўринбосарларининг фаолияти самарадорлигини баҳолаш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПҚ-5189-сон, 2021 йил 24 августдаги “Маҳаллий ижроия ҳокимияти органлари раҳбарлари ўринбосарларининг уларга юкланган вазифаларни бажаришда шахсий масъулиятини кучайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5230-сон қарорлари ҳамда 2019 йил 27 февралдаги “2019 йилда вазирликлар, давлат қўмиталари ва бошқа давлат бошқаруви органлари фаолияти самарадорлигини ҳамда мақсадли вазифаларга эришишларини баҳолашнинг асосий мезонлари тўғрисида” Ф-5445-сон фармойишида ҳам ўз аксини топган.

Бундан ташқари, Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 28 ноябрдаги 959-сон “Давлат бошқарувида илғор давлат менежменти ва “ақлли” бошқарув принципларини босқичма-босқич жорий этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги, 2021 йил 28 июлдаги 467-сон “Вазирликлар, давлат қўмиталари, давлат бошқарувининг бошқа органлари ва хўжалик бирлашмалари раҳбарлари ўринбосарларининг фаолияти самарадорлигини ҳамда мақсадли вазифаларга эришишларини баҳолашнинг асосий мезонларини тасдиқлаш тўғрисида”ги, 2021 йил 23 августдаги 536-сон “Ҳудудларни комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш бўйича секторлар фаолияти самарадорлигини баҳолаш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ва 2021 йил 28 августдаги “Маҳаллий ижроия ҳокимияти органлари раҳбарлари ўринбосарларининг функционал вазифалари ҳамда фаолиятининг энг муҳим самарадорлик кўрсаткичлари тўғрисидаги намунавий низомларни тасдиқлаш ҳақида”ги 548-сон қарорлари қабул қилинган.

Шунингдек, айрим соҳаларда баҳолашни амалга ошириш бўйича идоравий ҳужжатлар қабул қилинган. Жумладан, Адлия вазирининг 2020 йил 10 июндаги 129-МҲ-сон буйруғи билан “Давлат бошқарув органлари ва бошқа ташкилотлар ходимлари томонидан давлат хизматлари кўрсатилишида самарадорлик ва натижадорликнинг асосий кўрсаткичлари ҳамда уларнинг фаолиятини баҳолаш тартиби тўғрисида”ги Низом тасдиқланган.

Бугунги кунда мамлакатимизда амалга оширилаётган маъмурий ислоҳотлар ҳамда давлат фуқаролик хизматини тубдан янгилаш бўйича кўрилаётган чора-тадбирлар доирасида давлат фуқаролоик хизматчилари, шу жумладан раҳбар кадрлар фаолиятининг самарадорлигини баҳолаш бўйича, бир нечта норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг қабул қилинишига қарамасдан, амалиётдаги муаммолар ушбу қабул қилинган ҳужжатларда ҳамон айрим бўшлиқлар, зиддиятлар мавжудлиги ҳамда уларда баҳолашга оид барча жараёнларнинг тартибга солинмаганлиги, шунингдек айрим фаолият турларининг ўзига хос хусусиятларини инобатга олинмаганлиги кўзга ташланиб қолмоқда. Ушбу амалиётда юзага келаётган камчиликларни тўлдириш, давлат фуқаролик хизматчилари фаолияти самарадорлигини баҳолашни тўла қамровли ва ҳаққоний бўлишини таъминлашга эришишга мувофиқ равишда мазкур норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни янада такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқишга эҳтиёж юзага келган.

Юқоридагиларга кўра, ушбу борада изланишларни олиб бориш, шу жумладан, илғор хорижий мамлакатлар тажрибаси, улар эришган ютуқ ва камчиликларни чуқур таҳлил қилиш соҳани такомиллаштириш бўйича ташаббусларни илгари суришда муҳим аҳамият касб этади.

Давлат хизматчилари самарадорлигини бошқариш бўйича Бирлашган Араб Амирликларида (БАА) ҳам ўзига хос тажриба мавжуд.

Хусусан, БАА Федерал ҳукуматининг Ходимлар самарадорлигини бошқариш тизими уч босқичдан иборат:

1. Иш фаолиятини режалаштириш (Мақсадни белгилаш, хулқ-атвор компетенсияси) – одатда январь ва февраль ойларида амалга оширилади;

2. Оралиқ назорат (норасмий фикр-мулоҳазалар, лойиҳа самарадорлигини текшириш, оралиқ текшириш) – июнь ва июль ойларида олиб борилади;

3. Йиллик самарадорликни кўриб чиқиш (йиллик иш фаолиятини текшириш, модерация жараёни, шикоят ва апелляция,

самарадорликка асосида рағбатлантиришлар, молиявий бўлмаган эътироф, шахсий ривожланиш режалари ҳамда самарасиз фаолиятларни бошқариш) – ноябрь ва декабрь ойларида амалга оширилади.



График 1. *Ушбу график Ходимлар самарадорлигини бошқариш тизимида таркибий қисмлари ўртасидаги боғлиқликни кўрсатади*

Модерация жараёни юқоридаги уч босқичли бошқарув тизимини аниқ режалар асосида бажарилишини назорат қилади ва мувофиқлаштиради.

БАА давлат фуқаролик хизмати самарадорлигини бошқариш тизими “Федерал ҳукуматнинг инсон ресурслари тўғрисида"ги 11-сонли Федерал Қонуни ҳамда Ижроия Кенгашининг 2018 йилдаги 39-сонли “Дубай ҳукумати ходимларининг иш фаолиятини бошқариш тизими тўғрисида”ги қарорига асосланади. Ушбу Федерал Қонун ва қарор бир нечта юқори, тўлдирувчи ёки бўйсинувчи қонунлар ўртасидаги муносабатларни мувофиқлаштирган холда ишлаб чиқилган.

Жумладан, давлат хизматчиларини самарадорлигини белгилашда 39-сонли қарорнинг 3-моддасига асосан, қуйидаги асосий мақсадларга эришишга қаратилган вазифалар белгилаб олинган:

вазирлик ва идораларнинг таркибий тузилмалари ўз вазифалари ва функцияларини бажариш жараёнида унумдорлиги ва рақобатбардошлигини ошириш ҳамда ўз фаолиятини Ҳукумат фаолиятининг юқори самарадорлиги ва мукаммал ишлашини таъминлайдиган тарзда ошириш;

шахсий мақсадларни идоранинг стратегик мақсадлари билан мувофиқлаштириш;

самарадорликни бошқариш ва баҳолаш жараёнининг турли босқичларини белгилаш, ютуқларни тан олиш ва қўллаб-қувватлашнинг аниқ методологиясини ишлаб чиқиш орқали ходимларнинг иш фаолиятини холис ва адолатли баҳолаш усули ва қоидаларини аниқлаш;

ходимларнинг ривожланиши ва ўқитиш эҳтиёжларини аниқлаш орқали уларнинг фаолиятини ривожлантириш ва яхшилаш;

рағбатлантириш ва мукофотлаш тизими орқали индивидуал самарадорлик ва мукаммалликни тан олишни таъминлайдиган аниқ ва ўзига хос методологияни яратиш.

Шунингдек, ушбу қонун доирасида хар бир таркибий тузилманинг, ходимлар ҳамда раҳбарларнинг мажбуриятлари занжири аниқ келтириб ўтилган. Қарорнинг 5-моддасига асосан ҳар бир департамент қуйидагиларга масъул ва хисобдор хисобланади:

тизимни жорий этиш босқичларига ажратилган муддатларга мувофиқ ўзининг стратегик режасини ва ташкилий бўлинмаларининг йиллик операцион режаларини ишлаб чиқади ва тасдиқлайди;

ҳар бир ходимнинг шахсий мақсадлари таркибий тузилманинг стратегик мақсадларига мос келишини таъминлайди;

ҳар йил бошида йиллик фаолият кўрсаткичларини тақсимлаш фоизларини аниқлайди ва Дубай ҳукумати Инсон ресурслари агентлиги (FAHR)га ушбу фоизлар ва уларни тасдиқловчи асосларни тақдим этади;

процессуал қўлланмага, шу жумладан тизимни жорий этиш босқичларига ажратилган муддатларга риоя қилинишини таъминлайди;

ўз ходимларининг юксак ютуқларини эътироф этиш учун рағбатлантириш ва мукофотлаш тизимини ишлаб чиқади;

стратегик мақсадлари кўрсаткичларига эришиш фоизларини ўз ичига олган йиллик ҳисоботларни тақдим этади;

FAHRга тизимни жорий қилиш учун зарур бўлган маълумотлар ва хисоботларни тақдим этади.

Шу ўринда, Қарорнинг 6-моддасига биноан, инсон ресурсларини бошқариш бўлинмалари ҳам ваколати доирасида қуйидаги асосий вазифаларни бажаради:

идора томонидан тизимнинг барча босқичларини амалга ошириш ва бажарилишини мувофиқлаштириб бориш;

таркибий бўлинмаларни тизимни жорий этиш учун зарур бўлган форма ва шакллар билан таъминлаш;

тизимни жорий этиш учун масъул бўлган ташкилий бўлинмалар раҳбарларини зарур техник ёрдам ва малакасини ошириш билан таъминлаш;

ходимларни тизим билан таништириш ва унинг аҳамиятини ёритиш мақсадида семинарлар ташкил этиш;

модерация қўмитасига иш фаолиятини баҳолашни тақдим этиш;

ташкилий бўлинмалар раҳбарларига якуний тасдиқланган натижалар рейтингини тарқатиш;

бошқарма ходимлари ўртасида мукаммаллик, инновация ва ижодкорлик маданиятини юксалтириш учун зарур бўлган ташаббус ва дастурларни маъқуллаш;

тизимнинг жорий этилиши бўйича ҳисоботларни тайёрлаш ва тегишли ҳисоботларни раҳбарга тақдим этиш.

Юқоридагилардан шуни ҳулоса қилиш мумкинки, инсон ресурслари бўйича таркибий бўлинмалар ходимларнинг индивидуал мақсадларини ташкилотнинг умумий якдил мақсадларига мослаштириш ва ходимларни бунга тайёрлаш, уларни малакасини ошириш бўйича ваколатларга ва бир қатор мажбуриятларга эга.

Қарорнинг 7-моддаси раҳбарларнинг ўз йўналишларида самарадорликни ўлчаш бўйича қуйидаги масалаларга жавобгарлиги белгиланган:

самарадорликни бошқариш тизимини жорий этиш босқичлари ва муддатларга риоя қилиш;

ҳар бир ходим билан ҳамкорликда ушбу ходимнинг йиллик ишлаш режасини ишлаб чиқиш. Ушбу режа ходимнинг шахсий мақсадлари ва вазифалари, уларнинг вазнларини ўз ичига олиши ва бўлимнинг стратегик мақсадларига ва ходимнинг ташкилий бўлинмасининг операцион режасига мос келиши керак;

ходимларни бир-бири билан ҳамкорлик қилишга ундаши ва уларнинг жамоавий руҳини мустаҳкамлаши, уларда ҳалол ва ижобий рақобатнинг қадрият ва тамойилларини сингдириш; меҳнат вазифаларини бажаришда янгилик ва ижодкорлик маданиятини шакллантириш;

йил давомида доимий мураббийлик ва йўл кўрсатиш орқали ходимларнинг иш фаолиятини кузатиб бориш, инсон ресурслари бўлими билан келишилган ҳолда имкониятлар, муаммолар, ўқитиш ва ривожланиш эҳтиёжларини аниқлаш ва ҳал қилиш учун ҳужжатлаштириш ишларини олиб бориш;

ходимлар билан холис ва ошкора тарзда самарадорлик рейтингларини муҳокама қилиш ва тегишли муҳокамаларни ҳужжатлаштириш;

белгиланган фоизлар асосида ўз ташкилий бўлинмаси ходимларининг иш фаолиятини баҳолаш бўйича тақсимланган вазнларни белгилаш.

Шунингдек, ходимларнинг вазифалари ҳам ушбу Қарорнинг 8-моддасида келтириб ўтилган, унга кўра ходим қуйидагиларга масъул хисобланади:

тизимни жорий этишнинг барча босқичларида фаол иштирок этиш ва унинг тартиб-қоидаларига риоя қилиш;

келишилган ишлаш режасини амалга ошириш ва барча тегишли далиллар ва ҳужжатларни сақлаши;

бевосита раҳбари томонидан кўрсатилган мураббийлик асосида ўз фаолиятини ривожлантириши ва яхшилаш бўйича чоралар кўриши;

тасдиқланган ўқитиш ва ривожланиш режаларини амалга ошириш ва уларга риоя қилиши.

Ушбу умумий ташкилотлар ва ходимлар ўртасидаги занжирга асосланган жараёнлар ходимлар самарадорлигини бошқариш бўйича юқори натижаларга эришиш имконини бермоқда.

Шикоятлар ва эътирозлар

БАА Федерал Ҳукуматининг Инсон ресурслари тўғрисидаги Қонунига асосан ходимнинг шикоят ва шикоят қилиш ҳуқуқини кафолатлайди. Ушбу қонунга кўра, “яхшилаш керак” рейтингини олган ходим ушбу рейтингга рози бўлмаслиги мумкин ва қуйида келтирилган кўрсатмаларга риоя қилган ҳолда эътироз билдириш ҳуқуқига эга:

ходим баҳолаш натижаларини олган кундан бошлаб 5 иш куни ичида ўзининг раҳбарига шикоят аризаси билан мурожаат қилиши мумкин;

унинг раҳбари шикоят масаласини ходим билан муҳокама қилиши ва ҳал қилишга ҳаракат қилиши керак. Агар ҳал қилиш бўйича келишувга эришилмаса, ўзгартиришлар асосларини кўрсатган ҳолда ташкилотнинг HR директорига мурожаат қилади;

агар HR директорида ҳам қониқарли келишувга эришилмаса, ходим 5 иш куни ичида аризани кейинги иерархик даражадаги юқори турувчи раҳбарга топшириши мумкин. Ушбу директор ўз жавобини 10 иш куни ичида ёзма равишда етказиши керак (бу масалани HR директори билан муҳокама қилгандан кейин);

сўнгги чора сифатида, ходим 5 иш куни ичида вазирга (ёки тегишли ташкилотнинг энг биринчи турувчи раҳбарига) шикоят қилиши мумкин, ҳамду унга бир ой ичида жавоб берилади. Вазирнинг қарори якуний ҳисобланади.

Самарадорликни баҳолаш жуда мураккаб ва масъулиятли иш хисобланиб, якуний хулосалар холислик асосида амалга оширилади. Шунга қарамай баъзи холларда шикоят ва эътирозлар ҳам учраб туради. Бу каби эътирозларни олдини олиш мақсадида соҳани рақамлаштиришга катта эътибор берилмоқда.

Баҳолаш натижаларини расмийлаштириш ва рағбатлантириш

Баҳолаш натижаларига кўра ходимлар 4 та тоифага ажратилади: кутилган натижадан сезиларли даражада ошиши, кутилгандан ошиши, кутилган натижага эришиши ва фаолитини ривожлантириши зарур. Ҳар бир тоифа учун квоталар ажратилган.

Ходимларга яхши натижа кўрсатганларни эътироф этиш, бонус тўловлар тўлаш ва лавозимда кўтариш каби рағбатлантириш чоралари қўлланилади. Кутилган натижадан сезиларли даражада ошиши, кутилгандан ошиши, кутилган натижага эришиши тоифаларига тушган ходимларга мувофиқ равишда рағбатлантириш тўловлари тўланади. Кутилган натижадан сезиларли даражада ошган ходимлар икки поғонагача лавозимда кўтарилиш имкониятига эга бўлади.

Ўрганишлар асосида Ўзбекистонда раҳбар ходимлар бошқарув фаолияти самарадорилигини баҳолаш тизимига қуйидаги ўзгартиришлар киритиш тавсия этилади:

1) давлат хизматчиларининг иш ҳақини иш натижаларига боғлаш учун самарадорликка асосан тўлов тизимини жорий этиш;

2) самарали ижрочиларни самарасиз ижрочилардан фарқлаш учун баҳолашда квота ёки нисбий рейтингни қабул қилиш;

3) иш самарадорлиги баҳолаш натижалари юқори бўлган ўрта бўғин давлат фуқаролик хизматчилари учун “карьера модели бўйича кўтарилиш” имкониятини яратиш;

4) салоҳиятли кадрлар захирасига киритиладиган номзодлар рўйхатини шакллантириб боришда иш самарадорлик кўрсаткичи юқори бўлган давлат фуқаролик хизматчиларига кўпроқ устунлик бериш.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, раҳбар кадрлар фаолиятини баҳолашга оид давлат фуқаролик хизматининг самарали ҳуқуқий механизмларини яратиш, раҳбар кадрларда масъулият ва ташаббускорликни ҳамда улар фаолияти натижадорлигини оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 8 августда қабул қилинган “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги ЎРҚ-788-сон Қонуни // https://lex.uz/docs/6145972

2. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 8 августда қабул қилинган “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги ЎРҚ-788-сон Қонунининг 33-моддаси // https://lex.uz/docs/6145972

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги директорининг 2022 йил 21 ноябрдаги “Давлат фуқаролик хизматчилари фаолиятининг самарадорлигини энг муҳим кўрсаткичлар асосида баҳолаш услубияти”ги 2-2022-сон буйруғи

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 21 декабрдаги “Янги Ўзбекистон маъмурий ислоҳотларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-269-сон фармони

5. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 28 ноябрдаги 959-сон “Давлат бошқарувида илғор давлат менежменти ва “ақлли” бошқарув принципларини босқичма-босқич жорий этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорининг 4-банди. // http://old.lex.uz/docs/4621111

6. Executive Council Resolution No. (39) of 2018 Concerning the Performance Management System of Employees of the Government of Dubai//https://www.dghr.gov.ae/HumanResourcesLaw/ECR%2039%20of%202018%20_Performance%20Appraisal_English%2015052019_copy(1).pdf

7. Federal authority for government human resources, Employee performance management system, p.14 // https://mbrsgcdn.azureedge.net/cmsstorage/mbrsg/files/4e/4e9e8030-8b24-478c-914a-226a8b731cdd.pdf

Ш.ТУРДАЛИЕВ,
Фарғона вилояти, Олтиариқ тумани ҳокими

ЯНГИ ТАҲРИРДАГИ КОНСТИТУЦИЯДА МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ТАКОМИЛЛАШМОҚДА

Аннотация: Мазкур мақолада ҳокимнинг бир вақтнинг ўзида маҳаллий кенгаш раиси бўлиши нормасининг бекор қилиниши, маҳаллий даражада вакиллик ва ижро этувчи ҳокимият функциялари ажратилиши, халқ вакиллари ўзлари орасидан раҳбарлик қиладиган мустақил шахсни демократик тарзда сайлаб олиши, ҳокимларнинг кенгаш олдидаги масъулияти ва жавобгарлигининг кучайиши каби масалалар ёритиб берилган.

Таянч сўзлар: ҳоким, кенгаш, функция, ваколат, вазифа, фаолият, ислоҳот, бошқарув, депутат.

В НОВОЙ РЕДАКЦИИ КОНСТИТУЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОРГАНОВ МЕСТНОЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ УЛУЧШАЕТСЯ

Аннотация: В данной статье рассматриваются такие вопросы, как отмена нормы о том, что мэр является одновременно председателем местного кенгаша, разделение функций представительной и исполнительной власти на местном уровне, демократическое избрание независимого лидера из числа выделены представители народа, а также усиление ответственности и подотчетности хокимов перед кенгашом.

Ключевые слова: хоким, кенгаш, функция, полномочия, миссия, деятельность, реформа, управление, депутат.

IN THE NEW VERSION OF THE CONSTITUTION, THE ACTIVITIES OF LOCAL GOVERNMENT BODIES ARE IMPROVED

Abstract: This article discusses issues such as the abolition of the norm that the mayor is simultaneously the chairman of the local kengash, the separation of the functions of representative and executive power at the local level, the democratic election of an independent leader from among

selected representatives of the people, as well as strengthening the responsibility and accountability of khokims to the kengash .

Keywords: khokim, kengash, function, powers, mission, activity, reform, management, deputy

Янги таҳридаги конституциямизга киритилган ҳокимнинг бир вақтнинг ўзида маҳаллий кенгаш раиси бўлиши нормасининг бекор қилиниши, ҳокимиятлар бўлиниш принципининг ҳудудларда тўлақонли ижро этилишининг зарурий ҳуқуқий кафолати бўлиб хизмат қилади десак, хато қилмаган бўламиз. Бу концепцуал ўзгаришга мувофиқ, янги таҳрирдаги конституциянинг 120, 121-моддаларига, халқ депутатлари Кенгашига унинг депутатлари орасидан қонунга мувофиқ сайланадиган раис бошчилик қилиши; вилоят, туман, шаҳар ҳокими лавозимини эгаллаб турган шахс бир вақтнинг ўзида халқ депутатлари Кенгашининг раиси лавозимини эгаллаши мумкин эмаслиги; тегишли ҳудуддаги ижро этувчи ҳокимиятга вилоят, туман ва шаҳар ҳокими бошчилик қилиши каби муҳим нормалар белгилаб қўйилди[1].

Мазкур норма асосида маҳаллий даражада вакиллик ва ижро этувчи ҳокимият функциялари ажратилди. Ҳокимларнинг халқ депутатлари Кенгашларига бошчилик қилиши ҳақидаги қоиданинг чиқарилиши, уларнинг Кенгашлар олдида масъулиятини оширишга, ҳокимликлар фаолияти устидан Кенгаш ва депутатлар назоратини кучайтириш учун хизмат қилади. Қолаверса, мамлакатда амалга оширилаётган маъмурий ислоҳотларнинг тизимли **мантиқий давоми бўлди**.

Бу ислоҳотнинг жорий этилиши ҳокимият ваколатларини бўлиниш принципини маҳаллий даражада татбиқ этишга, маҳаллий кенгашлар фаолияти самарадорлигини, ҳокимларнинг халқ вакиллари олдидаги масъулиятини оширишга олиб келади. Қолаверса, ҳудудларда халқ манфаатларини тўлиқ таъминлашга, халқ депутатлари Кенгашларининг ҳудудлардаги мавжуд муаммоларни ҳал қилишдаги асосий бўғинга айлантиришга хизмат қилади.

Бу нима беради деган табиий савол туғилиши мумкин?

биринчидан, бир шахснинг иккита мустақил тизимга раҳбарлик

қилиш ҳуқуқи конституциявий жиҳатдан бекор қилинди;

иккинчидан, халқ вакиллари ўзлари орасидан раҳбарлик қиладиган мустақил шахсни демократик тарзда сайлаб олиш имконияти яратилди;

учинчидан, ҳокимларнинг кенгаш олдидаги масъулияти ва жавобгарлиги кучайтирилди;

тўртинчидан, ҳокимиятлар бўлиниши ва ўзаро тийиб туриш механизмини реал амалда ишлашига зарурий кафолат, қолаверса шу давргача маҳаллий давлат ҳокимияти тизимидаги мантиқсиз бошқарув тизимига сўзсиз чек қўяди;

бешинчидан, маҳаллий бошқарув тизимининг халққа яқинлашиш имкониятини кенгайтиради.

Маҳаллий даражада ҳокимиятлар бўлиниши принципини амалга ошириш ёки бошқача айтганда ижро ва вакиллик органи раҳбарлигини алоҳида мустақил шахсларга топшириш масаласи узоқ йиллардан буён кенг жамоатчиликнинг диққат эътиборида келди. Алоҳида таъкидлаш лозимки, Конституция қабул қилингандан буён ушбу масала актуал бўлиб келмоқда. Ҳокимлик институтининг ўзи 1992 йилдан бошлаб маҳаллий давлат бошқаруви тизимига кириб келган. Ўша давр учун муҳим саналаган, маҳаллий бошқарувга таянган ҳокимлик институти кенг ваколатлга эга бўлди, яъни ҳам ижро ҳам вакиллик органларига раҳбарлик қилиш имкониятига эга бўлди.

Охирги йилларда мазкур номақбул анъанага чек қўйиш мақсадида, Давлат раҳбари бошчилигида улкан амалий ислоҳотлар амалга оширила бошланди. Хусусан, 2017 йил 8 сентябрда қабул қилиган “Маъмурий ислоҳотлар концепцияси”да[2] маҳаллий давлат ҳокимияти тизимини ташкил этишда ҳокимиятлар бўлиниши принципининг амалий рўёбга чиқарилишини таъминлаш, алоҳида вазифа сифатида белгилаб қўйилди.

Демократик ўзгаришлар натижасида, маҳаллий вакиллик органларининг маҳаллий ижро ҳокимияти устидан вакиллик назоратини ўрнатиш ваколатлар кенгая борди. Эътироф этиш керакки, 2017 йил 14 сентябрда Маҳаллий давлат ҳокимияти

тўғрисидаги қонунга киритилган ўзгартиришларга мувофиқ, ижро органлари раҳбарлари, шу жумладан, соғлиқни сақлаш, адлия, ички ишлар органлари раҳбарларининг белгиланган муддатларда Кенгашлар олдида ҳисобот ва ахборот бериш тизими йўлга қўйилди.

Яна бир муҳим ўзгаришларга қарайдиган бўлсак, “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги Қонунга (ЎРҚ-636-сон, 14.09.2020 й.)[3], халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгаши фаолиятига ташкилий-техникавий ва бошқа жиҳатлардан хизмат кўрсатиш вазифаси ҳокимликлар тузилмасидан тегишли халқ депутатлари Кенгаши котибияти зиммасига юклатилиши бўйича янги норма киритилди. Бу ўзгаришлар ҳам албатта қайсидир маънода маҳаллий кенгашлар фаолиятига ўзининг ижобий таъсирини кўрсатди.

Таъкидлаш лозимки, маҳаллий даражада ижро ва вакиллик органини алоҳида тарзда ташкил этилиши ва бошқарилиши хорижий мамлакатлар амалиётида ҳам кузатишимиз мумкин. Масалан, Франция Республикасида ҳар бир ҳудудий бирлик иқтисодий, ижтимоий, маданий ва экологик масалалар учун масъул бўлган ва маҳаллий харажатларни назорат қилувчи Кенгаш (1986 йилдан бери тўғридан-тўғри сайловлар орқали сайланади) томонидан бошқарилади. Маҳаллий ижро ҳокимияти Президент томонидан тайинланадиган ва лавозимдан озод этиладиган энг юқори ижро этувчи мансабдор шахс – префект томонидан бошқарилади.

Қўшни давлатимиз Қозоғистон Республикасининг “Маҳаллий давлат ҳокимияти ва ўзини ўзи бошқариш тўғрисида”ги қонунига (2001 йил 23 январь) эътибормизни қаратадиган бўлсак, мазкур қонуннинг 19-моддасига кўра[4], Маслахат раиси (Қозоғистонда маҳаллий вакиллик органи раҳбари шундай номаланди) доимий асосда ишлайдиган мансабдор шахс ҳисобланади. У депутатлар орасидан очиқ ёки яширин овоз бериш йўли билан депутатлар умумий сонининг кўпчилик овози билан сайланади.

Шунингдек, мазкур қонуннинг 1-моддаси, тўртинчи бандига мувофиқ, маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органи — вилоят, республика аҳамиятидаги шаҳар ва пойтахт, туман (вилоят аҳамиятидаги шаҳар) ҳокими (Қозоғистонда Аким деб юритилади)

бошчилигидаги коллегиал ижроия органи бўлиб, тегишли ҳудуда ўз ваколатлари доирасида маҳаллий бошқарувни амалга оширади. Кўриб турганимиздек, Қозоғистонда маҳалий ижро ҳокимияти ва маҳаллий вакиллик органлари фаолият юритиши мустақил тарзда амалга оширилар экан.

Янги таҳрирдаги Конституциявий нормага асосан, **“Халқ давлат ҳокимиятининг бирдан-бир манбаидир”** конституциявий принципини амалга оширишга хизмат қилувчи ҳокимлик идоралари раҳбарларининг халқ депутатлари Кенгашлари олдида ҳисобот берадиган самарали тизим йўлга қўйилади. Энг муҳими, ҳокимларни ўзлари қарор қабул қилиб, ўзлари бошчилик қиладиган кенгашларда ушбу қарорларни тасдиқлатиш, кейинчалик унинг ижросини назорат қилиш каби амалиётга чек қўйилади.

Эътибор қаратадиган бўлсак, охирги йилларда маҳаллий кенгашларнинг фаолиятини самарали ташкил этиш мақсадида бир қанча ижобий ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Айтишингиз мумкин бу нималарда кўринмоқда?

Мисол тариқасида, 2022 йил давомида маҳаллий Кенгашлар томонидан ўтказилган **3 мингдан ортиқ сессия**ларда жами **31,3 мингдан** зиёд масала муҳокама этилган ҳамда тегишли қарорлар қабул қилинган. Ўтказилган сессияларда маҳаллий давлат бошқаруви органлари раҳбарларининг **17 мингдан зиёд ҳисобот ва ахборотлари эшитилган**. Бу албатта маҳаллий вакиллик фаолиятидаги ижобий кўтаришлар деб, баҳолашимизга имкон беради.

Қолаверса, маҳаллий кенгашларда нафақат расмиятчилик учун ҳисобот ва ахборотларни эшитиш, балким унга ҳуқуқий баҳо бериш масалаласига ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хусусан, эшитувлар натижасида раҳбарларга нисбатан тегишли чора кўриш бўйича 362 маротаба таклиф киритилган бўлиб, улардан **34 нафари** эгаллаб турган лавозимига нолойиқ деб топилган. Албатта, бу таҳлилардан ҳам кўриниб турибдики, маҳаллий ижро ҳокимиятининг кенгашлар ва депутатлар олидидаги масъулияти, жавобгарлигининг ошиб бораётганлигидан яққол нишонадир[5].

Биламизки, депутатлар бу халқ томонидан сайланадиган, унга

энг яқин кўмакдош, елкадош бўлган инсондир. Шундай экан қонун доирасида, ваколатлар кўмагида депутатлар халқнинг қалбига кириши лозим, яъниким улар ҳаётида учраётган муаммоларни қонуний ечимларини кўриш чораларни тизимли тарзда амала оширишлари лозим бўлади.

Таҳлилий маълумотларга эътиборимизни қаратадиган бўлсак, маҳаллий Кенгаш депутатлари томонидан ўрганишлар натижасида, аҳоли мурожаатлари асосида мутасадди идора ва ташкилотлар раҳбарларига **19 мингдан зиёд депутат сўрови** юборилган, сўров натижалари **216 марта** сессияларда муҳокама этилган. Натижа нима бўлган деган табиий саволга қуйидаги маълумотлар асосида жавоб қайтаришимиз мумкин бўлади. Маҳаллий кенгаш депутатларининг ўз сайлов округларида аҳоли вакиллари билан учрашувларда кўтарилган 72 мингдан ортиқ муаммоли масалаларнинг **61 мингдан ортиғи (85%)** ижобий ҳал этилган[6].

Хабарингиз бор, Давлат раҳбари томонидан жорий йилнинг 20 июнь санасида Конституциявий комиссия аъзолари билан учрашувда “ **...** ҳокимлар бир вақтнинг ўзида халқ депутатлари кенгашларига ҳам бошчилик қилиши ҳақидаги қоидани Конституциядан чиқариб ташлаш вақти келди, деб ҳисоблайман” дея таъкидлаб, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолиятидаги жиддий ўзгаришларни конституцияга киритиш таклифини берган эдилар.

Дарҳақиқат, 2022 йил 21 декабрда қабул қилинган, “Янги Ўзбекистон маъмурий ислоҳотларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонга мувофиқ, иккинчи босқичда маҳаллий давлат ҳокимияти органларини 2023 йил 1 апрелга қадар ислоҳ қилиш бўйича чоралар кўрилишини таъминлаш белгиланди[7].

Бу Фармон орқали, ижро этувчи ҳокимият органлари штат бирликлари, шу жумладан раҳбар лавозимларини 30 фоизгача мақбуллаштириш ва адолатли меҳнатга ҳақ тўлаш тизимини жорий этиш; республика ижро этувчи ҳокимият органларининг функцияларини тартибга солиш орқали уларни камида 10 фоизга қисқартириш; хусусий секторга ўтказиладиган давлат функциялари сонини камида 3 баробарга ошириш, раҳбарларнинг аҳоли

таклифлари асосида фаолиятини йўлга қўйиш ва жамоатчилик олдида ҳисобдорлигини кучайтириш каби муҳим вазифлар белгиланди.

Албатта, мазкур ислоҳотлар жойларда, самарали ва ихчам бошқарувни амалга ошириш, ортиқча сарф-харажатлар, қайтариладиган вазифа ва функцияларнинг олдини олади, энг муҳими ҳар томонлама самарадорликка эришиш имконияти эшигини очиб беради десак, хато қилмаган бўламиз.

Янги таҳрирда қабул қилинган Конституциянинг маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолиятини самарали ташкил этиш, шошма шошарликка йўл қўймаслик мақсадида ҳам аниқ бир нормалар белгиланди.

Хусусан, вилоят, туман, шаҳар ҳокими лавозимини эгаллаб турган шахс бир вақтнинг ўзида халқ депутатлари Кенгаши раиси лавозимини эгаллаши мумкин эмаслиги ҳақидаги қоидалар қуйидаги муддатларда амалга оширилади. Хусусан: вилоятлар ҳамда Тошкент шаҳар вакиллик ва ижро этувчи давлат ҳокимияти органларига нисбатан 2024 йилда халқ депутатлари вилоятлар ва Тошкент шаҳар Кенгашлари депутатларининг навбатдаги сайловлари якунлари бўйича; туман ҳамда шаҳар вакиллик ва ижро этувчи давлат ҳокимияти органларига нисбатан эса 2026 йил 1 январдан эътиборан амалга киритилади[8].

Мухтасар қилиб айтар эканмиз, илгари ҳоким бир вақтнинг ўзида ҳам ижроия, ҳам вакиллик ҳокимиятига раҳбарлик қилган. Эндиги киритилган ўзгартиришларга кўра, ҳоким фақат ижро ҳокимиятига, маҳаллий Кенгашларга эса ўзлари томонидан сайланадиган депутатлардан бири раис бўлади. Қолаверса, мазкур янги норма орқали маҳаллий ҳокимият органлари ваколатлари барча соҳаларда аниқ ва батафсил белгиланди, бу орқали айниқса, маҳаллий халқ депутатлари Кенгашларининг давлат ва жамият бошқарувидаги иштироки кучайтирилади, жойлардаги маҳаллий аҳолини манфаатларини амалда таъминлаш имкониятлари оширилади. Ушбу ўзгаришлар келгусида маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг самарали фаолият олиб боришига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023 й. – Б.91 -92.
2. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 37-сон, 979-модда.
3. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон.
4. https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z010000148_
5. https://Senat.uz/. Ўзбекисто Республикаси Олий Мажлис Сенатининг 2022 йилдаги фаолияти. Б.13.
6. https://Senat.uz/. Ўзбекисто Республикаси Олий Мажлис Сенатининг 2022 йилдаги фаолияти. Б.13.
7. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.12.2022 й., 06/22/269/1117-сон.
8. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

ANVARJON MIRKAMILOV,
“Taraqqiyot strategiyasi” markazi bo‘lim boshlig‘i,

O‘ZBEKISTONDA HUQUQIY, IJTIMOIY, DUNYOVIY DAVLAT BARPO ETISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING ISHTIROKI

Annotatsiya: Mazkur maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarining bugungi holati, ularning huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat barpo etishdagi ishtiroki, davlat dasturlari va strategik hujjatlarda ularga yuklatilgan vazifalar hamda yangi tahrirdagi konstitutsiyada ularning huquqiy kafolatlarining mustahkamlanishi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: nodavlat notijorat tashkilotlari, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat, fuqarolik jamiyati institutlari, konsepsiya, davlat dasturi, strategiya.

УЧАСТИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ПОСТРОЕНИИ ПРАВОВОГО, СОЦИАЛЬНОГО И СВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В данной статье описывается современное состояние негосударственных некоммерческих организаций, их участие в становлении правового, социального и светского государства, задачи, возложенные на них в государственных программах и стратегических документах, усиление их правовых гарантий в новой редакции конституции.

Ключевые слова: неправительственные некоммерческие организации, правовое, социальное, светское государство, институты гражданского общества, концепция, государственная программа, стратегия.

PARTICIPATION OF NON-GOVERNMENT NON-PROFIT ORGANIZATIONS IN THE BUILDING OF A LEGAL, SOCIAL AND SECULAR STATE IN UZBEKISTAN

Annotation: This article describes the current state of non-governmental non-profit organizations, their participation in the formation of a legal, social and secular state, the tasks assigned to them in government programs and strategic documents, and the strengthening of their legal guarantees in the new edition of the constitution.

Key words: non-governmental non-profit organizations, legal, social, secular state, civil society institutions, concept, state program, strategy.

Ma’lumki joriy yilning 30 aprel kuni “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo‘yicha bo‘lib O‘tgan referendum asosida yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Konstitutsiyaning 1-moddasida “O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”, deb qayd etildi [1]. huquqiy, ijtimoiy davlat prinsiplarini hayotga joriy etishda davlat tashkilotlari va idoralari bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlari ham birdek kamarbasta bo‘lib faoliyat olib

borayotganini e’tirof etish zarur. zero, nodavlat notijorat tashkilotlari turli yo‘nalishlari bo‘yicha faoliyat olib borib davlat va jamiyat o‘rtasida mustahkam bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tamoqda. raqamlarga e’tibor qaratsak, 1991 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra respublikada 95 ta nnt faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2000 yil 1 yanvarga kelib ularning soni 2585 taga, 2016 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra esa – 8417 taga, hozirgi kunda 9200 tani tashkil etmoqda.

Mamlakatimizda ilk bor yaqin va o‘rta muddatga qaratilgan istiqbollarni belgilab olish maqsadida 2021 — 2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy kafolatlarini ta’minlaydigan, zamonaviy demokratik talablarga va alqaro standartlarga javob beradian normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish vazifalari belgilab olindi [2].

Shu bilan birga davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish, 2025 yilda davlat ijtimoiy buyurtmalari miqdorini 13 mlrd. so‘mga yetkazish maqsad qilib belgilangan.

Ma’lumki respublikamizda bugungi kunda faoliyat yuritayotgan qator nodavlat notijorat tashkilotlari ijtimoiy foydali vazifalarni amalga oshirmoqda. Umuman olganda 2023 1 yanvar holatiga nodavlat notijorat tashkilotlarining sohalar kesimidagi tahliliga nazar tashlar ekanmiz, 642 ta tadbirkorlik va fermerlik, 107 ta ekologiya, 1 348 ta sport, 662 ta nogironlar huquqlarini himoya qilish, 616 ta yoshlar, 288 ta ayollar, 399 ta nuroniylar (faxriylar), 218 ta ta’lim, fan, texnika va ilmiy tadqiqot, 148 ta milliy madaniy markazlar, 83 ta do‘stlik jamiyatlari, 766 ta huquqiy-demokratik institutlar, 220 ta sog‘liqni saqlash, 366 ta favqulotda holatlar, 21 ta OAV va jurnalistika, 170 ta xalq hunarmandchiligi, 495 ta madaniyat, tarixva ma’rifat, 665 ta kasaba uyushmalari, 1 114 ta siyosiy partiya tashkilotlari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Aynan ushbu konsepsiyada nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan yuqori turuvchi tashkilotlarga qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan kiritilgan takliflar sonini 2025 yilda 5000 taga yetkazish maqsad qilingan.

Hususan, ohirgi yeti yilda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining 1820 ta loyihalarini qo‘llab-quvvatlash

maqsadida davlat byudjetidan 634,7 mlrd. so‘m miqdordagi mablag‘lar ajratilan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga ilk bor “fuqarolik jamiyati institutlari” iborasi kiritilib, uning XIII bobi “Fuqarolik jamiyati institutlari” deb nomlandi. Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlashi, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratishi kabi normalarning kiritilishi fuqarolik jamiyati asosoni tashkil etuvchi muhim institutsional tuzilmalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini konstitutsiyaviy darajada ta’minlanishi uchun kafolat bo‘ldi.

Shu bilan birga davlat organlari va mansabdor shaxslarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligi kabi normalarning asosiy qomusda ifodalanishi NNTlar samarali faoliyat yuritishi va rivojlanishi, ularning jamiyat hayotidagi o‘rnining oshishi uchun xizmat qiladi.

Mamlakat istiqboli bilan bog‘liq muhim strategik hujjatlar, davlat dasturlarida ham nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyatini kuchaytirish, ularni moddiy-ma’naviy qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Xususan, yuqorida qayd etilan konsepsida davlat dasturlarida ishtirok etayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari sonini 2025 yilda 50 taga yetkazish, O‘zbekiston – 2030 strategiyasida 2030 yilga borib 80 taga yetkazish maqsad qilingan [3]. Bu esa ma’lum mas’ul vazifalar bajarilishi ushbu institutsional tuzilmaga ishonch bilan yuklatilayotganligidan dalolat beradi. O‘z o‘rnida ta’kidlash lozimki har yilgi qabul qilinayotgan davlat dasurlarini jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish va ularni muntazam monitoring qilib boorish vazifasi tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha nodavlat notijorat tashkilot bo‘lgan “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va “Yuksalish” umummilliy harakati tomonidan amalga oshirib kelinmoqda.

Hulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, nodavlat notijorat tashkilotlari “uchinchi sektor” sifatida mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida muhim institut sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://lex.uz/docs/-6445145 O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
2. https://lex.uz/docs/5319756 O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
3. https://lex.uz/docs/6600413 O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

АХРОР ХУДОЙБЕРДИЕВ,

1-сонли Тошкент ИИВ лицейи Ҳуқуқий ва ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси бошлиғи, юридик фанлар доктори, профессор

ЯНГИ КОНСТИТУЦИЯ – ҚОНУНЧИЛИК ЖАРАЁНИНИНГ МУҲИМ МЕЗОНИ

Аннотация. Ушбу мақолада Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясида қонунчилик жараёни, қонунчилик ташаббускорлиги ва қонунларни қабул қилишнинг ўзига хос хусусиятлари ҳамда конституцияда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг қонунларни қабул қилишдаги муҳим ўзгаришлар илмий жиҳатдан таҳлил қилинган.

Калит сўзлар. Конституция, қонун, қонун ижодкорлиги, қонун ташаббускорлиги, қонунчилик жараёни, жамият, ҳуқуқий давлат.

НОВАЯ КОНСТИТУЦИЯ – ВАЖНЫЙ КРИТЕРИЙ ЗАКОНОДАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация. В данной статье законодательный процесс, законодательная инициатива и особенности принятия законов в новой редакции Конституции Республики Узбекистан, а также важные изменения в процессе принятия законов Олий Мажлисом Республики Узбекистан. в конституции научно проанализированы.

Ключевые слова. Конституция, закон, правотворчество, правовая инициатива, законодательный процесс, общество, правовое государство.

THE NEW CONSTITUTION IS AN IMPORTANT CRITERIA OF THE LEGISLATIVE PROCESS

Annotation. In this article, the legislative process, legislative

initiative and specific features of the adoption of laws in the new version of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, as well as important changes in the adoption of laws by the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan in the constitution are scientifically analyzed.

Key words. Constitution, law, law-making, law initiative, legislative process, society, legal state.

Бугунги кунда мамлакатимизда янги таҳрирдаги Конституция қоидаларига асосан демократик, ижтимоий ва ҳуқуқий давлатни қуриш бош мақсад сифатида белгиланди. Шундай экан, Конституция нафақат давлатнинг, қолаверса, бутун халқнинг бош қомуси сифатида майдонга чиқади. У тарихий ривожланиш ва миллий менталитетга қараб давлат шаклининг ўзига хос хусусиятларини акс эттиради, давлат ва жамият ўртасидаги ҳуқуқий муносабатларни мустаҳкамлайди.

Мамлакатимизни узоқ муддатли тараққиёт стратегиялари, юрт ва халқ фаровон ҳаётининг келажакдаги мустаҳкам ҳуқуқий асоси ва ишончли кафолатлари бевосита Бош Қомусимизда ифодаланган. Янги таҳрирдаги Конституцияда яна “Барчанинг қонун олдида тенглиги ва қонундан ҳеч ким устун эмаслигини таъминлаш, судлар томонидан адолатли қарорлар қабул қилиш ва умуман олганда давлат ҳокимияти органларининг халққа хизмат қилиши белгилаб берилди. Янги Конституцияда «давлат — жамият — инсон» тамойилини «инсон — жамият — давлат», яъни «инсон манфаатларини ҳамма нарсадан устун қўйиш» тамойилига ўзгартирилиши, мамлакатмизда олиб борилаётган кенг кўламли ислоҳотларни туб моҳияти аввало инсон ва унинг манфаатларига хизмат қилишини ифода этади. Шунингдек, мамлакатмизда инсон ҳуқуқларини таъминлаш, давлат органларининг ҳисобдорлиги ва очиқлигини кучайтириш ҳамда фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситаларининг роли, аҳоли ва жамоат бирлашмаларининг сиёсий фаоллигини ошириш бўйича тизимли ишлар амалга оширилди.

Янги таҳрирдаги Конституцияда парламент палаталарининг ваколатлари қайта кўриб чиқилиб янада такомиллаштирилди. Бунда тармоқлар ўртасида бир-бирини тийиш ва мувозанатни сақлаш

тизимининг самарали ишлашини таъминлаш мақсад қилиб олинган. Унга кўра, Қонунчилик палатаси ва Сенатнинг ваколатлари сезиларли даражада кенгайди, икки палата ишидаги такрорланишлар бартараф этилиб, ҳар бирининг масъулият соҳаси аниқ белгилаб берилди. Хусусан, Қонунчилик палатасининг мутлақ ваколатлари *амалдаги 5 тадан 12 тага, Сенатда эса, 12 тадан 18 тага* кўпайтирилди. Бундан ташқари, Бош вазир номзоди Президент томонидан Қонунчилик палатасига киритилиб, уни халқ вакиллари маъқуллаганидан сўнг лавозимга тайинлаш тартиби белгиланди. Энди давлат раҳбари томонидан Бош вазир номзоди фақатгина сайловда энг кўп овоз олган партия билан эмас, балки Қонунчилик палатасидаги барча сиёсий партиялар фракциялари билан маслаҳатлашгач, кўриб чиқиш учун киритилади. Ушбу киритилаётган ўзгартириш демократик талабларга тўлалигича мос келади.

Шунингдек, фаолияти қониқарсиз деб топилган вазирни лавозимидан озод этиш бўйича Қонунчилик палатаси Президентга таклиф киритиш таклиф қилинди. Ушбу ҳуқуқининг белгиланаётганлиги Ҳукумат аъзоларининг халқ вакиллари олдидаги ҳисобдорлигини янада оширишга хизмат қилади.

Олий Мажлис Сенати қўмиталари ваколатини қайта кўриб чиқилиб, сенаторлар сонини ҳозирги 100 нафардан 65 нафарга камайтириш белгилаб берилди. Бунда ҳар бир ҳудуддан 4 тадан сенатор сайланиши, Президент томонидан тайинланадиган сенаторлар сони эса 16 тадан 9 тага камайтириш масаласи Янги таҳрирдаги Конституцияда алоҳида белгилаб берилди.

Янги Конституцияда ҳуқуқ ижодкорлиги ва қонунчилик жараёнларига ҳам инсонпарварлик нуқтаи назаридан бир қанча янгиликлар киритилди.

Янги таҳрирдаги Конституцияда қонунчилик ташаббускорлиги ҳуқуқи субъектлари қаторига Ўзбекистон Республикаси халқи ҳам киритилди. Бу қоида эса демократик талабларга тўлиқ мос келади. Янги Конституциянинг 98-моддасига кўра “Қонунчилик ташаббуси ҳуқуқига Ўзбекистон Республикаси Президенти, давлат ҳокимиятининг олий вакиллик органи орқали Қорақалпоғистон

Республикаси, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси депутатлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси эгадирлар. Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий суди, Олий суди ва Бош прокурори ҳам ўз ваколатлари жумласига киритилган масалалар бўйича қонунчилик ташаббуси ҳуқуқига эгадир. Қонунчилик ташаббуси ҳуқуқи қонун лойиҳасини қонунчилик ташаббуси ҳуқуқи субъектлари томонидан Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатасига киритиш орқали амалга оширилади. Ўзбекистон Республикасининг сайлов ҳуқуқига эга бўлган, юз минг нафардан кам бўлмаган фуқаролари, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (омбудсман), Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси қонунчилик таклифларини қонунчилик ташаббуси тартибида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатасига киритишга ҳақли. Қонун лойиҳаларини, қонунчилик таклифларини киритиш ва кўриб чиқиш тартиби қонун билан белгиланади.

Юқорида қайд қилинганидек, энди янги қоидага кўра, Ўзбекистон Республикасида сайлов ҳуқуқига эга бўлган, *юз минг нафардан кам* бўлмаган фуқаролари ҳам қонунчилик ташаббусига эга бўлиши белгиланди.

Умуман олганда қонунлар ва уларнинг яратилиши хусусида фикр юритадиган бўлсак, қонунлар, қонунчилик жараёни давомида ишлаб чиқиладиган «маҳсулот»дир. Қонун ижодкорлиги эса, адабиётларда тўғри таъкидланганидек, «қонун ижодкорлигининг том маънодаги юридик моҳияти жамиятда амал қилувчи ҳуқуқнинг моҳияти ва ҳуқуқ ижодкорлигинг моҳияти билан чамбарчас боғлиқдир»[2].

Демак, қонун ижодкорлиги давлатнинг ҳуқуқий нормалар яратишга қаратилган махсус фаолияти бўлиб, бу фаолият натижасида ижтимоий муносабатлар тур ва сифат жиҳатидан умумлаштирилиб, ҳуқуқий норма яратилади. Шу жиҳатдан ҳуқуқий норма «ижтимоий муносабатлар ва одамлар хулқ-атворининг абстракт модели»[3]

эканлиги ҳақидаги фикрга қўшиламиз.

Ш.Якубовнинг фикрича эса, қонун ижодкорлиги жараёни – бу ижтимоий муносабатларни тартибга солиш учун зарур бўлган қонунларни халқ, жамият ва давлат эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда аниқлаш, уларни тайёрлаш, муҳокама қилиш ва қабул қилишдан иборат ҳуқуқ ижодкорлигининг бир қисмидир[4]. «Қонун ижодкорлиги қонунларни ишлаб чиқишга қаратилган давлат сиёсати бўлиб, махсус ваколатли орган (парламент) томонидан амалга ошириладиган, қонун лойиҳаларини ишлаб чиқиш, муҳокама қилиш ва қабул қилишдан иборат ҳаракатлар мажмуидир»[5].

Янгиланаётган Конституцияда қонунни қабул қилиш ва имзолаш босқичида яна бир холатга эътибор берадиган бўлсак, Асосий қонуннинг **99**-моддасида “Қонун Қонунчилик палатаси томонидан қабул қилиниб, Сенат томонидан маъқулланиб, Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан имзолангач ва қонунда белгиланган тартибда расмий манбаларда эълон қилингач, юридик кучга эга бўлади” деб кўрсатилган. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси томонидан қабул қилинган қонун қабул қилинган кундан эътиборан ўн кундан кечиктирмай Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенатига юборилади. Қонун Ўзбекистон Республикаси Олий *Мажлисининг Сенати томонидан олтмиш кун ичида кўриб чиқилади* ва маъқулланган тақдирда, имзоланиши ва эълон қилиниши учун Ўзбекистон Республикаси Президентига ўн кундан кечиктирмай юборилади. Агар Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати қонунни маъқуллаш ёки рад этиш тўғрисида *олтмиш кун ичида қарор қабул қилмаса*, Қонунчилик палатаси томонидан қонун имзоланиши ва эълон қилиниши учун Ўзбекистон Республикаси Президентига юборилади. Ўзбекистон Республикаси *Президенти қонунни олтмиш кун ичида имзолайди ва эълон қилади*. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати томонидан рад этилган қонун Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатасига қайтарилади. Агар Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати томонидан рад этилган қонунни қайта кўриб чиқишда

Қонунчилик палатаси депутатлар умумий сонининг учдан икки қисмидан иборат кўпчилик овози билан қонунни яна маъқулласа, қонун Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси томонидан қабул қилинган ҳисобланади ҳамда имзоланиши ва эълон қилиниши учун Ўзбекистон Республикаси Президентига Қонунчилик палатаси томонидан юборилади.

Хулоса ўрнида шуни алоҳида таъкидлаш мумкинки, давлатнинг олий органи томонидан қабул қилинаётган ҳар қандай қонун жамият, халқ ва давлат учун, қолаверса, уларнинг эрки ифодаси сифатида яратилади. Шундай экан қонунлар фуқаролар учун тушунарли, равон тилда баён этилиши лозим. Шундагина, қонунларимиз халқимиз томонидан ижобий баҳоланиш билан бир қаторда фуқаролар томонидан уларга амал қилиш ва ҳурмат муносабати шаклланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, https://lex.uz/docs/6445147.

2. Одилқориев Х.Т. Тультеев И.Т. Икки палатали парламент; / қайта ишланган ва тўлдирилган нашр; -Т.:Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2005. 79-бет.

3. Проблемы теории государства и права. – М.: Юристь, 2001. – С.586.

4. Якубов. Ш.У.Ўзбекистон ҳуқуқий тизимида ҳуқуқий қадрият ва тамойилларнинг шаклланиши. Юр.ф.н. дисс. автореф.

5. Бердияров Ш.Н. Юридик техника ва қонун ижодкорлиги. // Ўзбекистон Республикасида қонунчиликни такомиллаштиришнинг долзарб муаммолари: республика илмий-амалий конференция материаллари. –Т.: 2005 йил. 44-45-бетлар.

ERKIN SHADMANOV,
Jamoat xavfsizligi universiteti professori, i.f.d.,

AZIZJON ANARKULOV,
Jamoat xavfsizligi universiteti
“Iqtisodiy fanlar” kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari, i.f.b.f.d., (PhD) dotsent.

HUQUQIY KAFOLATLAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VOSITASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Konstitutsiyaning “Inson qadri barcha narsadan ulug‘dir” degan ezgu g‘oyaga qaratilganligi, ulkan ishlarning bosh tamoyili bo‘lgan “Inson-jamiyat-davlat” degan yondashuvni mazmun-mohiyati hamda xususiy mulk daxlsizligi bilan bog‘liq masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Konstitutsiya, inson qadri, taraqqiyot, ijtimoiy-huquqiy islohotlar, adolatli jamiyat, xususiy mulk va uning jaxlsizligi.

ПРАВОВЫЕ ГАРАНТИИ-ОСНОВНОЕ СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ

Аннотация. В этой статье освещается направленность Конституции на благородную идею “Человеческое достоинство превыше всего”, содержание подхода “человек-общество-государство”, который является главным принципом великих дел, а также вопросы, связанные с неприкосновенностью частной собственности.

Ключевые слова. Конституция, человеческое достоинство, прогресс, социально-правовые реформы, справедливое общество, частная собственность и ее неприкосновенность.

LEGAL GUARANTEES ARE THE MAIN MEANS OF ECONOMIC DEVELOPMENT

Annotation. This article highlights the focus of the Constitution on the noble idea of “Human dignity above all”, the content of the “man-society-state” approach, which is the main principle of great deeds, as well as issues related to the inviolability of private property.

Keywords. The Constitution, human dignity, progress, social and legal reforms, a just society, private property and its inviolability.

O‘zbekiston bugungi kunda o‘zi tanlagan taraqqiyot yo‘lini jadal rivojlantirish maqsadida dadil qadamlar tashlamoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-huquqiy islohotlarning amaliy ifodasi o‘laroq, Asosiy qonunimiz bo‘lgan konstitutsiyamizning yangi tahriri qabul qilindi. Bu shuni ko‘rsatadiki, konstitutsiyaviy islohotlar erishilayotgan taraqqiyot natijasi bo‘lib, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun juda muhimdir, ya’ni, adolatli jamiyat va ijtimoiy-huquqiy davlat qurish yo‘lidagi ulkan qadamlardir.

Konstitutsiya har bir taraqqiy etgan davlatning negizi bo‘lgan huquqiy, siyosiy va mafkuraviy hujjati – mamlakatning Asosiy qonuni hisoblanadi. Fuqarolarning barcha orzu-niyatlari, kafolatlangan huquqlari va hayotdagi oliy maqsadlari Konstitutsiyada to‘liq o‘zining ifodasini topmog‘i lozimdir.

Yangi tahrirda qabul qilingan konstitutsiyamizga qadar ham fuqarolarimizning asosiy huquq va erkinliklari va mustaqil demokratik davlatimiznig mustahkam huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilib kelgan. Shu bilan birga mustaqillik yillarida inson qadrini ulug‘laydigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish maqsadida keng qamrovli islohotlar, bosqichma-bosqich yangilanishlar amalga oshirilgan bo‘lib, bu borada boy milliy va xalqaro tajribalar to‘plandi.

Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlar odamlarimizning sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari bundan buyon jamikiy sohalarda ustuvor ekanligini davlatimizning qat’iy qoidasiga aylantirish, bir so‘z bilan aytganda, “Inson qadri barcha narsadan ulug‘dir” deb atalayotgan ezgu g‘oyasini hamda bunday ulkan ishlarimizning bosh tamoyili bo‘lgan “Inson-jamiyat-davlat” degan yondashuvni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatiga chuqur singdirilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangilangan Konstitutsiyada mulkchilik munosabatlarining shakllanishi bilan bog‘liq masalalarning ochiqlanishi, xususan mulkka egalik qilish huquqining davlat tomonidan kafolatlanishi va aniq belgilab qo‘yilishi xalqimizning o‘z mulkini erkin tasarruf etishdagi duch kelayotgan mavjud muammolarning qonuniy bartaraf etilishiga zamin yaratdi. Jumladan, mulkdor o‘z mulki ishonchli himoya qilishini bilsa va his qilsagina investitsiya kiritadi, tadbirkor biznesini rivojlantirishga bor

imkoniyatini safarbar qiladi. Chunki, mol mulkka egalik qilish fuqarolarning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi.

Mulkchilik munosabatlari har qanday jamiyat iqtisodiy tizimining asosiy munosabatlaridan birini tashkil qilib, insoniyat taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi. Mulkchilik munosabatlari moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish hamda jamiyat boyliklarini o'zlashtirish jarayonlarida vujudga keladi.

Lekin yaqin tariximizda ayrim mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning uy-joylarni buzish holatlari xalqimiz tilida "snos" deb nom oldi. Mazkur holatlar inson huquqlari va erkinliklarini qo'pol ravishda buzib, O'zbekistonning xalqaro imidjiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Bunday muammolarning mavjudligi natijasida "Huquq ustuvorligi" xalqaro reytingining "Hukumat sud qarorisiz va adolatli tovon pulisiz mulkni musodara qilmasligi" subindikatorida (2021 yil hisobotida) O'zbekiston maksimal 1 balldan 0.25 ball bilan 139 ta mamlakat ichida 138-o'rinni egallagan.

Shuning uchun qonunchilikda huquqlardan foydalanish amaliyotidagi xususiy mulkni himoya qilish bilan bog'liq mazkur muammoli vaziyatlar va bo'shliqlarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish va qonunchilikni takomillashtirish lozim hisoblanmoqda. Sababi, mulkiy-huquqiy munosabatlarni hamda mulkdorlar manfaatlarini samarali himoya qilish mexanizmlarini yaratmay turib, huquqiy demokratik jamiyat va barqaror bozor iqtisodiyotiga asoslangan faoliyatni amalga oshirish mushkuldir.

Shunday ekan, xususiy mulk va tadbirkorlik faoliyatini himoyalash maqsadida Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 65-moddasi quyidagi tahrirda qabul qilindi:

"Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlanadi.

Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas”.

Fuqarolarning mol-mulkidan sudning qarorisiz mahrum etish mumkin emasligi bo‘yicha konstitutsiyaviy norma mulkchilik munosabatlarini huquqiy jihatdan kafolatlash, xususiy mulkning daxlsizligini kuchaytirishga katta turtki bo‘ldi.

Shak-shubhasiz, yangilanayotgan Konstitutsiyada fuqarolarning mulki bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash, aholining uy-joyga bo‘lgan huquqlari daxlsizligini kafolatlash bilan bog‘liq normalarning mustahkamlanishi ham xalqimiz, ham hayot zarurati hisoblanadi.

Xususiy mulk daxlsizligi hamda undan sud qarorisiz mahrum etilishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi normalar Fransiya, Germaniya, Daniya, Indoneziya, Gruziya kabi davlatlar konstitutsiyalarida ham aks ettirilgan.

Xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, uni turli tajovuzlardan himoya qilish, xususiy mulkni saqlash va ko‘paytirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, mulkdorlarni qo‘llab-quvvatlashning eng muhim mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Jamiyatimizda xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritgan yoki yaratgan o‘z mulkining daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta’minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratilishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy negizlaridan biri hisoblanadi.

Bundan ko‘rinadiki, mulkdor qonun doirasida o‘z mulkiga o‘zi egalik qiladi, o‘zi foydalanadi va o‘zi tasarruf etadi. Bu mulkdorning konstitutsiyaviy huquqidir. Unga tashqi tomondan taziyq o‘tkazishga, uning ichki ishlariga aralashishga, mulkini olib qo‘yishga hech kim haqli emas. Bu esa tadbirkorlarga o‘z biznesi uchun bexavotir investitsiya kiritish, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko‘paytirish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyasining 65-moddasi mamlakatimizning tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini belgilab beruvchi

muhim jihat hisoblanib, mulkning daxlsizligi – xususiy mulkda ham, ommaviy mulkda ham mulkdorning o‘ziga tegishli mulkni faqat o‘zining manfaatlari yo‘lida xech qanday tashqi ta’sirlarsiz foydalanishi mumkinligi bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni 2023 yil 1 may, O‘RQ-837.

2. BMT Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrdagi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ni qabul qilish haqidagi 217 A (III) Rezolyutsiyasi.

3. https://yuz.uz/uz/news/referendum-nima

4. https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/27/referendum/

5. https://advice.uz/oz/document/2899

6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Referendum

БОТИРЖОН ЗОКИРОВ,

Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси

ЖИНОИЙ АКТИВЛАРНИ ҚАЙТАРИШНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация: мақолада жиноий активларни қайтариш юзасидан ташкилий масалалар, хусусан, соҳани ҳукумат доирасида мувофиқлаштириш, мазкур ҳаракатларни амалга оширувчи, бевосита ваколатли давлат органи, шубҳали активлар тўғрисидаги маълумотларни ўзида жамловчи махсус реестр ҳамда активларни текшириш масалаларини тартибга солувчи йўриқнома хусусида фикрлар ёритилган.

Калит сўзлар: жиноий актив, ваколатли идоралар, процессуал механизм, ҳукумат комиссияси, махсус реестр, активларни текшириш, йўриқнома

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫХ АСПЕКТОВ ВОЗВРАТА ПРЕСТУПНЫХ АКТИВОВ

Аннотация: В статье обсуждаются вопросы, связанные с организацией, который занимается возвратом активов, непосредственно уполномоченных государственных органов, сомнителые активы, а также Правил назначения и проведения проверки законности источников приобретения (происхождения) актива

Ключевые слова: преступный актив, уполномоченные органы, процессуальный механизм, правительственная комиссия, специальный реестр, проверка активов, инструкция.

ISSUES OF IMPROVING THE CONSTITUTIONAL AND LEGAL ASPECTS OF THE RETURN OF CRIMINAL ASSETS

Abstract: The article discusses issues related to the organization that deals with the return of assets, directly authorized state bodies, doubtful assets, as well as the Rules for the appointment and verification of the legality of the sources of acquisition (origin) of the asset.

Key words: criminal asset, authorized bodies, procedural mechanism, government commission, special register, asset verification, instruction.

Ноқонуний равишда олинган активларни давлатга қайтариш конституциявий аҳамиятга эга бўлган мақсадлардан бўлиб, шу аснода адолат, оқилона ва мутаносиблик тамойилларига қатъий риоя қилган ҳолда шахсий, жамоат ва давлат манфаатлари мувозанатини сақлашга қаратилгандир.

Мазкур йўналишни ташкилий жиҳатидан мустаҳкамлаш нафақат соҳани ҳуқуқий ривожланишига, балки бошқа соҳаларни ривожлантиришга ҳам туртки бўлади. Сабаби, активларни қайтариш-бу иқтисодий ривожланиш учун рағбат, шунингдек, хорижий инвесторлар, Жаҳон ҳамжамияти учун мамлакатимда адолатли ижтимоий муҳитни яратишга хизмат қилади.

Мутахассисларнинг фикрига кўра, мазкур соҳани ташкилий жиҳатдан мустаҳкамлаш учун, ҳукумат доирасида

мувофиқлаштириш, мазкур ҳаракатларни амалга оширувчи, бевосита ваколатли давлат органи, шубҳали активлар тўғрисидаги маълумотларни ўзида жамловчи махсус реестр ҳамда активларни текшириш масалаларини тартибга солувчи йўриқнома ҳамда қайтарилган активларни бошқарувчи агентлик бўлиши лозим [1].

Мазкур чора-тадбирларни амалга оширилиши келгусида мулк ҳуқуқи, бутун халқ манфаатлари йўлида иқтисодий ривожланиш билан боғлиқ масалаларни тизимли назорат қилиш ва тартибга солиш билан давлат фуқаролар ва жамият олдидаги ижтимоий-иқтисодий, экологик, сиёсий ва ҳуқуқий мажбуриятларини амалга ошириш, миллий хавфсизликнинг етарли даражада таъминлаш учун кўпроқ молиявий ва бошқа имкониятларга эга бўлади.

Қуйида айрим хорижий давлатлар тажрибасидан келиб чиқиб, активларни қайтаришни такомиллаштиришга қаратилган ташкилий чора-тадбирлар механизми ишлаб чиқилди.

Мисол учун, ҳукумат доирасида мазкур масалаларни мувофиқлаштириш учун Идоралараро комиссиясининг ўзи етарли эмас. У билан бир вақтда активларни бошқарувчи агентлик ҳам фаолият юритиши лозим [2]. Агентлик устав капитали юз фоиз давлат улушидан иборат бўлиб, асосий вазифаси қайтарилган активларни бошқариш, сақлаш ва реализациясидан иборат [3].

Махсус ваколатли орган томонидан қайтариш билан боғлиқ текширувлар, тезкор-қидирув тадбирларининг ташкиллаштирилиши ҳамда бошқа процессуал ҳаракатлар амалга оширилиши тўғридан-тўғри амалга оширилиши лозим бўлган вазифалардир. Ушбу вазифаларни амалга ошириш тегишли норматив-ҳуқуқий ҳужжат билан тасдиқланган қоидалар мажмуасидир[4]. Ушбу норматив-ҳуқуқий ҳужжатга асосан махсус реестрга маълумотлари киритилган шахсларнинг активлари текширилади. Буйруққа кўра, шахс деклорация топширганлиги ёки топширмаганлигидан қатъий назар текширишлар ўтказилиши мумкин.

Қуйида ушбу қоидалар мажумасининг асосий жиҳатлари кўриб чиқиш мумкин.

Текширувларни ўтказиш юзасидан ваколатли орган мустақил бўлинмаси бошлиғи, унинг ўринбосари ёки ушбу шахсларнинг лавозим мажбуриятларини вақтинча бажараётган шахслар ташаббус билдиришлари мумкин. Бу ҳақда тегишли билдирги расмийлаштирилгач, ваколатли орган раҳбари, бош прокурор ёки унинг ўринбосарлари томонидан текширувлар ўтказиш бўйича қарор қабул қилинади.

Текшируви ўтказиш юзасидан рухсат олиш билдиргисида қуйидагилар акс эттирилади:

- билдирги бераётган шахс фамилияси, исми, шарифи, лавозими ва сана;

- текширилиши назарда тутилган шахс ва унинг аффилланган алоқалари тўғрисида қисқача ммаълумотлар;

- текширилиши назарда тутилган шахс ва унинг аффилланган алоқаларини махсус реестрга киритилганлиги ҳақида маълумотлар, комиссия йиғилиши баёни рақами ва санаси;

- шахсни махсус реестрга киритилганлиги тўғрисидаги унга юборилган хабарнома;

- шахсни активлари тўғрисида деклорация топширган ёки топширмаганлиги ҳақида маълумот;

- келиб чиқиш манбалари қонунийлигини текшириш назарда тутилган активлар тўғрисида мааълумотлар;

- текшириш предмети бўлган активларнинг келиб чиқиш манбаларини текшириш даври ва давомийлиги;

- текшириш муддатлари;

Текшириш ўтказиш тўғрисидаги қарор ҳақуқий статистика ва махсус рўйҳатлардан ўтказилгач, тегишлилиги бўйича махсус ваколатли орган прокурорлари томонидан амалга оширилади.

Текширувлар ўтказиш тўғрисидаги қарорда қуйидагилар кўрсатилади:

- қарор санаси, рақами, имзолаётган ваколатли орган раҳбариянинг исми, фамилияси, шарифи, лавзоими;

- текширувлар ўтказилиши назарда тутилган активлар ҳақида маълумотлар, жойлаган жойи, эгалик қилаётган, тассарруф қилаётган

ва назорат қилаётган шахс ва унинг аффилланган шахслари тўғрисида маълумотлар;

- текширув предмети ва давоимийлиги;

- текшируви ўтказиш юклатилган шахснинг фамилияси, исми, шарифи ҳамда жалб қилинган мутахассислар ҳақида маълумотлар;

- текширув муддати;

- текширувлар ўтказилиши назарда тутилган активларга эгалик қилаётган, тассарруф қилаётган ва назорат қилаётган шахс ва унинг аффилланган шахсларининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари;

- қарор чиқараётган ваколатли шахс имзоси.

Қарор активга эгалик қилувчи ва унинг аффилланган шахсларига таништирилади.

“Ноқонуний орттирилган активларни давлатга қайтариш тўғрисида”ги қонунга асосан текширувлар хориждаги ва мамлакат ҳудудида бўлган шахс ва унинг аффилланган шахслари тасарруфидаги активларга нисбатан ўтказилади.

Реестрга киртилган шахсларнинг активлари юзасидан текширувлар, улар томонидан деклорация топширган ёки топширмаганлигидан қатъий назар ўтказилади.

Текшириш фақат текшириш тўғрисидаги қарорда кўрсатилган шахслар томонидан амалга оширилади. Шу билан бирга, текширувни ўтказаётган шахслар таркиби, текшириш предмети ва муддати текширувни тайинлаган активларни қайтариш бўйича ваколатли орган раҳбарининг ёки унинг вазифаларини бажарувчи шахснинг қарори билан ўзгартирилади (тўлдирилади).

Текшириш муддати ёки предметини ўзгартириш (тўлдириш) тўғрисида қарор қуйидаги ҳоллар қабул қилинади:

агар текшириладиган масалалар рўйҳатини ёки текшириладиган даврни ўзгартирмасдан (тўлдирмасдан) активни келиб чиқиш манбаларининг қонунийлигини баҳолашнинг иложи бўлмаса;

текшириш муддати ёки предмети билан боғлиқ бўлмаган қонун бузилиши фактлари аниқланган тақдирда;

текшириш тўғрисидаги қарорни шакллантириш ёки рўйҳатдан ўтказишдаги хатолар туфайли.

Зарурат бўлганда, аудиторлик текшируви доирасида хулосалар беришга давлат ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари, шунингдек, мулкчилик шаклидан қатъи назар, ташкилотлар мутахассислари жалб қилинади.

Текширув давомида, текширишни амалга ошириш учун муҳим бўлган қонунчиликнинг яширин бузилишларини аниқлашнинг бошқа имкониятлари мавжуд бўлмаган тақдирда, тезкор-қидирув тадбирларини ўтказиш зарурати тўғрисидаги масала ҳал қилинади.

Тезкор-тергов тадбирларини ўтказиш тўғрисидаги қарор бош прокурор ёки унинг активларни қайтариш бўйича ваколатли органни ишини назорат қилувчи ўринбосари томонидан имзоланади.

Бош прокуратура ҳузуридаги тезкор-қидирув, контрразведка фаолияти ва яширин тергов ҳаракатларининг қонунийлигини назорат қилиш бўлинмаси томонидан тезкор-қидирув тадбирларининг ўтказилиш жараёнлари амалга оширилган ишлар натижаларини эшитган ҳолда доимий назорат қилиб боради.

Текшириш доирасидаги экспертиза махсус илмий билимларни талаб қиладиган ва экспертиза ўтказмай туриб, текширишни амалга ошириш мумкин бўлмаган ҳолларда тайинланади.

Экспертиза тайинлаш тўғрисидаги қарор активларни қайтариш бўйича ваколатли орган раҳбари, унинг ўринбосарлари ёки вазифаларини бажарувчи шахслар томонидан қабул қилинади.

Экспертиза тайинлаш тўғрисидаги қарорда қуйидагилар кўрсатилади:

- экспертиза тайинлаган органнинг номи;
- экспертиза тайинланган вақт ва жойи;
- экспертиза тури;
- экспертиза тайинлаш учун асослар;
- экспертизага юборилган объектлар ва уларнинг келиб чиқиши тўғрисидаги маълумотлар, шунингдек экспертиза давомида ушбу объектларни тўлиқ ёки қисман йўқ қилиш, ташқи кўринишини ёки асосий хусусиятларини ўзгартириш имконияти бор ёки йўқлиги;

- суд экспертизаси органининг номи ва уни ўтказиш топширилган шахснинг фамилияси, исми, отасининг исми (агар мавжуд бўлса);

- эксперт томонидан ҳал қилинадиган масалалар.

Агар эксперт хулосасида жиноий, маъмурий ҳуқуқбузарлик ёки судга ариза бериш учун асос бўлган ҳолатлар тўғрисида хулосалар мавжуд бўлса, прокуратура текширувлари материаллари асосида экспертиза ЖПК, МЖтК, ФПК ва маъмурий тартиб-тамойиллар тўғрисидаги кодекслар доирасида ўтказилади.

Текширув давомида активларни қайтариш бўйича ваколатли қонунчиликда белгиланган тартибда давлат органлари, ташкилотлар, квази-давлат сектори субъектлари ва мансабдор шахслардан ҳолатлар, маълумотлар ва материалларни сўраш ва олиш ҳуқуқига эга.

Текширув давомида активларни қайтариш бўйича ваколатли органга қуйидагилар тақиқланади:

агар ҳужжатлар ва маълумотлар активни келиб чиқиш манбаларининг қонунийлигини текшириш предметига тааллуқли бўлмаса, уларнинг тақдим этилишини талаб қилиш;

текширишни белигланган муддатдан ошиб кетиши;

текширилаётган обектнинг нормал фаолиятига тўсқинлик қилиш, бунда қонунчилик ва жамоат тартибига, минтақадаги ижтимоий-иқтисодий барқарорликка, мамлакат конституциявий тузуми ва миллий хавфсизлигига таҳдид соладиган, шунингдек, одамларнинг ҳаёти ва саломатлиги ужиддий хавф ва тиклаб бўлмас зиён етказадиган ҳолатлар мустасно.

Ваколатли орган текшириш ўтказишда келиб чиқиши қонунийлиги текширилаётган активнинг эгаси, ишончли вакили, фойдаланувчиси бўлган фуқаролар, шу жумладан собиқ эгалирдан қонунбузилишларни тасдиқлаш мақсадида материаллар, бинолар ва тегишли активлар ҳақидаги ҳужжатларни талаб қилиб олиш ҳамда бу каби фактик маълумотларни тўплашда мавжуд техник воситалардан фойдаланади.

Фактик маълумотларни тўплаш ҳоалтга объектив буҳо бериш учун субъектни хабардор қилган ҳолда фото ва видеотасвирга олиш, ўлчовлар олиш, нусхалар олиш, намуналар олиш, назорат-харид ва бошқа тадбирларни ўтказиш орқали амалга оширилади.

Бундай ҳолда, фойдаланиш учун махсус рухсат талаб қилинадиган махсус техник воситалардан фойдаланишга йўл қўйилмайди.

Текшириш якунида унинг натижалари тўғрисидаги маълумотнома тузилади, унда қуйидагилар акс эттирилади:

Маълумотнома тузилган сана ва жойи, текширув асослари;

текшириш предмети бўлган активнинг номи, актив эгалигида, фойдаланувида ва (ёки) назорати остида бўлган шахс ҳамда унинг аффилланган шахслари тўғрисидаги маълумотлари;

текшириш мавзуси ҳақидаги умумий маълумот;

текшириш натижалари бўйича хулоса ва таклифлар;

текширувни ўтказган мансабдор шахснинг (шахсларнинг) имзоси.

Маълумотнома досье материалларига илова қилинади (агар мавжуд бўлса).

Текширув натижаларига кўра қуйидаги қарорлар қабул қилинади:

активларни келиб чиқиши асоссиз деб топиш тўғрисида судга даъво аризалари киритиш масаласини ҳал этиш учун активларни давлат ҳисобига қайтариш бўйича комиссия кўриб чиқиш учун топшириш;

қонунчиликда белгиланган тартибда активларни қайтариш бўйича ваколатли орган томонидан активларни мажбурий қайтариш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш;

терговга қадар тергов ўтказиш учун материалларни ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ёки махсус ваколатли давлат органларига топшириш;

активларни қайтариш билан боғлиқ даъволарни қўзғатиш, шунингдек амалдаги қонун ҳужжатларида назарда тутилган бошқа чора-тадбирларни амалга ошириш бўйича ташаббус;

Кечиктириб бўлмайдиган ҳолларда активларни қайтариш бўйича ваколатли орган томонидан текширувлар тугатилгунига ва унинг натижаларини сарҳисоб қилингунга қадар ҳам қарор қабул қилиниши мумкин.

Текширув натижалари юзасидан маълумотнома активларга эгалик қилувчи, тасарруфида бўлган ёки назорати остида бўлган шахсга ёки унинг аффилган шахсларига, ёки активлари келиб чиқиши қонунийлиги текширилаётган юридик шахс раҳбари текширув тугаганидан кейин 5 иш куни ичида юборилади ва таништирилади.

Юбориши ва таништириш етказиб беришнинг қуйидаги усуллари орқали амалга оширилади:

- Шахсан;
- почта орқали;
- электрон почта манзилига;
- электрон ҳукумат тизимидаги шахсий кабинетига.

Текшириш натижалари тўғрисидаги маълумотнома танишишдан бош тортиб қайтарилган тақдирда, шахс текшириш натижалари билан таништирилган ҳисобланади.

Текшириш натижалари бўйича эътирозлар 3 иш куни ичида ёзма равишда тақдим этилади.

Фойдаланилган адабиятлар:

1. https://www.zakon.kz/pravo/6399731;

2. Қозоғистон Бош вазирининг 21.09.2023 йилдаги 824-сон “Қайтарилган активларни бошқариш компаниясини ташкил этиш ҳақида”ги қарори/http://zan.gov.kz;

3. Закон республики казахстан “О возврате государству незаконно приобретенных активов”/ https://online.zakon.kz;

4. Қозоғистон бош прокурорининг 11.10.2023 йилдаги “Активларни келиб чиқиш манбааларини қонунийлиги бўйича текширишлар тайинлаш ва текширувларни ўтказиш қоидаларини тасдиқлаш ҳақида”ги 186-сонли буйруғи/https://online.zakon.kz;

ХУШНУДБЕК ОЛИМЖОНОВ,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети доценти, ю.ф.б.ф.д. (PhD)

ЎЗБЕКИСТОНДА КОНСТИТУЦИЯВИЙ ИСЛОҲОТЛАР – ИНСОН ҲУҚУҚ ВА ЭРКИНЛИКЛАРИ СОҲАСИДАГИ АҲАМИЯТИ

Аннотация: ушбу мақолада бугунги глобаллашув жараёнида янги ислоҳотлар босқичида мамлакатимизда инсон ҳуқуқлари соҳасида амалга оширилаётган ислоҳотлар, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг инсон ҳуқуқ ва эркинликлари тизимини ривожлантиришдаги ўрни ва роли ёритилган.

Калит сўзлар: Конституция, инсон ҳуқуқлари, сиёсий ҳуқуқ, ижтимоий ҳуқуқ, ижтимоий муносабат, ислоҳот, қонун, фармон, қарор.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ - ЗНАЧЕНИЕ В ОБЛАСТИ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА

Аннотация: в данной статье рассматриваются реформы, проводимые в области прав человека в нашей стране на этапе новых преобразований в процессе глобализации на сегодняшний день, роль Конституции Республики Узбекистан в развитии системы прав и свобод человека.

Ключевые слова: Конституция, права человека, политическое право, социальное право, общественные отношения, реформа, закон, декрет, решение.

CONSTITUTIONAL REFORMS IN UZBEKISTAN- SIGNIFICANCE IN THE FIELD OF HUMAN RIGHTS AND FREEDOMS

Annotation: this article covers the reforms carried out in the field of human rights in our country at the stage of new reforms in the process of globalization today, the role and role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in the development of the system of human rights and freedoms.

Keywords: Constitution, human rights, political law, Social law, social relations, reform, law, decree, decision.

Ҳозирги даврда мамлакатимиз ўзининг дунёда муносиб ўрнини эгаллагани аввало, истиқлол шарофати билан танланган йўл ва қабул қилинган Конституциямизнинг ҳаётий қоидалари самараси орқали дейишимиз мумкин.

Мамлакатимиз Президенти Ш.Мирзиёев лавозимга киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисидаги нутқида “Албатта, инсон қадри биз учун қандайдир мавҳум, баландпарвоз тушунча эмас. Инсон қадри деганда, биз, аввало, ҳар бир фуқаронинг тинч ва хавфсиз ҳаёт кечиришини, унинг фундаментал ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашни назарда тутамиз” – деб таъкидлаган.

Аввало, инсон, унинг ҳақ-ҳуқуқлари ва бахт саодати давлат сиёсати, барча давлат органлари фаолиятининг энг устувор мақсади бўлиши лозим. Жамият қурилиши ва давлат сиёсати ана шу ғояга таяниши ҳамда “Давлат - инсон учун” тамойили асосида ташкил этилиши даркор. Мазкур тамойилга амал қилиш эса, инсонни ва унинг манфаатларини давлат сиёсати ва ислоҳотларнинг асосий мезонига айлантириш лозимлигидан далолат беради. Бу нафақат юртимизда, балки бутун дунёда мазкур ислоҳотларнинг энг демократик тамойилларга мослиги, уларнинг пировард мақсади ва давлат сиёсатининг устувор йўналиши инсон манфаатлари, ҳақ-ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлашга қаратилганининг эътироф этилишига сабаб бўлмоқда [4].

Ўзбекистонда инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, фуқароларга муносиб турмуш шароитини яратиш, миллатлараро тотувликни таъминлаш ва ривожлантириш, ҳокимият тизимини демократлаштириш ва фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтириш давлат сиёсатининг устувор йўналишларига айланиб, “инсон қадри учун” [3] деган улуғ тушунча марказий ўринга қўйилди.

Дарҳақиқат, ҳозирги ривожланиш босқичлари шиддат билан авж олаётган даврда инсон қадрини улуғлаш, ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, уларнинг қобилиятлари ва

истеъдодларини қўллаб-қувватлаш демократик давлатларнинг бош мезонига айланди. Инсон қадри унинг тинч ҳаёт кечириши ва осуда умр кўриши, ҳуқуқ ва эркинликларини давлат томонидан ҳимояланганлиги, ижтимоий-ҳуқуқий жиҳатдан таъминланганлиги каби ҳолатлар инсон қадри улуғ неъмат эканлигини англатади.

Мазкур йўналишдаги ислоҳотларимизнинг туб моҳиятида эркин ҳуқуқий шароит, қонуний кафолат ётади. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси халқимизнинг истиқлол ва озодлик учун олиб борган машаққатли кураши натижаси, миллий манфаатларимиз ва интилишларимизга асосланган, халқаро ҳуқуқ нормаларига мос муҳим манба бўлиши билан бир қаторда, амалга оширилаётган демократик ислоҳотларнинг бош ҳуқуқий кафолати ҳисобланади.

1948 йил 10 декабрь куни қабул қилинган Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясига мувофиқ, ҳар бир инсон жамият аъзоси сифатида миллий куч-ҳаракатлар ҳамда халқаро ҳамкорлик воситасида ва ҳар бир давлатнинг тузилиши, шунингдек, ресурсларига мувофиқ ижтимоий таъминотга ва ўзининг қадр-қимматини сақлаш, шахснинг эркин ривожланиши учун зарур бўлган иқтисодий, ижтимоий ва маданий соҳалардаги ҳуқуқини амалга оширишга ҳақли [1].

Конституция мамлакатнинг асосий юридик ҳужжати бўлиб, унинг устувор нормалари давлат тузуми ва ижтимоий ҳаёт меъёрларини белгилаб беради. Бош қомусимиз умуминсоний демократик принципларни ўзида мужассам этувчи, инсонни, унинг ҳуқуқ ва эркинликларини олий қадрият деб эътироф қилувчи давлат ҳамда жамият тузумининг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамловчи юридик ҳужжатдир.

Халқимизга хос кечиримлилик, бағрикенглик ва олижаноблик тамойилларига амал қилган ҳолда, билиб-билмай жиноят содир этган, қилмишига чин дилдан пушаймон бўлиб, тузалиш йўлига қатъий ўтган шахсларга нисбатан афв институти мунтазам қўлланмоқда. Шу борадаги ишларимизнинг давоми сифатида Конституция куни арафасида яна бир фармонга имзо чекдим. Унга кўра, шу тоифага

мансуб **182 нафар** шахс муддатидан олдин озод қилиниб, эркин ҳаётга қайтарилмоқда [5] – деб таъкидлаб ўтди.

Ҳар бир давлатнинг Конституцияси ўзига хос жиҳатларига эга бўлиб, унинг миллий хусусиятлари, анъаналаридан келиб чиқади. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг мазмун-моҳиятига биринчи навбатда инсон қадри энг олий қадрият эканлиги сингдирилиб, унинг асосий мантиқий йўналиши “инсон-жамият-давлат” манфаатларини таъминлашга қаратилган.

Ҳақиқатданҳам, Конституцияда инсон ҳуқуқларининг устунлигига, фуқароларнинг муносиб ҳаёт кечиришига, инсонпарвар демократик ҳуқуқий давлат барпо этишга, халқ тинчлиги ва миллий тотувлик ғояларига алоҳида аҳамият берилган. Шунингдек, Конституцияда барча демократик давлатларда бўлгани каби барчанинг қонун олдида тенглиги, шахснинг давлатга нисбатан устуворлиги каби инсонпарварлик тамойилларига катта аҳамият берилган. Хусусан, Конституциянинг 54-моддасида “Инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш давлатнинг олий мақсадидир. Давлат инсон ҳамда фуқаронинг Конституция ва қонунларда мустаҳкамланган ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлайди”, деб қайд этилган [2].

Ушбу нормада мустаҳкамланган қоидаларнинг ҳаётимизда тўлиқ амалий ифодаси топганлигини бугунги кунда мамлакатимизда **130 дан** ортиқ миллат ва элат вакиллари ўзаро ҳамкорликда, дўстона ва ҳамжиҳатликда тинч ва фаровон яшаб келаётганликларидан ҳам, шунингдек **16 та** конфессияга мансуб диний ташкилотлар [9] эркин фаолият юритаётганидан ҳам кўришимиз мумкин.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган асосий мақсадлар, яъни, бозор иқтисодиётига асосланган мустақил демократик давлат қуриш, инсон манфаатлари, қонун устуворлиги ва давлатда истиқомат қилувчи турли миллат ва элат вакиллари учун уларнинг миллати, тили, дини, ирқи, жинси, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахсий ва ижтимоий мавқеидан қатъи назар қонун олдида тенглик тамойили таъминланадиган фуқаролик жамиятини такомиллаштиришни мустаҳкамлаш ҳисобланади.

Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази раиси А.Саидов ўзининг нутқида “Ўзбекистонда халқаро ҳуқуқнинг умумеътироф этилган принцип ва нормалари устунлиги конституциявий асосда эътироф этилади. Бугунги кунда мамлакатимиз инсон ҳуқуқлари бўйича **70 дан** зиёд халқаро ҳужжатлар, хусусан, БМТ томонидан инсон ҳуқуқлари бўйича қабул қилинган **10 та** мажбурий халқаро шартномаларни ратификация қилиб, ўзининг халқаро мажбуриятларини мунтазам равишда бажариб келмоқда” [8] – деб тўхталиб ўтди.

Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази Конституциямиз, қонунлар ва инсон ҳуқуқлари соҳасидаги умумеътироф этилган халқаро ҳуқуқ меъёрлари қоидаларини амалга ошириш стратегиясини ишлаб чиқиш, инсон ҳуқуқлари соҳасида Ўзбекистон Республикасининг халқаро ва миллий ташкилотлар билан ҳамкорлигини ривожлантириш, мамлакатимизда инсон ҳуқуқларига риоя этилиши, ҳуқуқларнинг ҳимоя қилишнинг турли жиҳатлари юзасидан тадқиқотлар ўтказиш каби вазифаларни амалга оширмоқда.

Мустақиллик йилларида миллий қонунчилигимизда инсонпарварлик тамойилларининг кучайтирилганлиги фуқаролар ҳуқуқ ва эркинликлари муҳофазасида муҳим аҳамият касб этмоқда. Зеро, инсон манфаатлари устуворлиги мустақиллик йилларида амалга оширилган барча ислоҳот ва янгиланишларнинг муҳим мезонига айланди.

Конституцияда мустаҳкамлаб қўйилганидек фуқаро ва давлат муносабатлари алоҳида аҳамият касб этиб, ўзаро ҳуқуқ ва мажбуриятлар билан боғланиши белгилаб берилган бўлиб, инсоннинг Конституция ва қонунларда белгиланган ҳуқуқ ва манфаатлари ҳамда эркинликларини одил суд қарорисиз ҳеч қайси йўл билан чеклаш мумкин эмас, улар дахлсиздир.

Ҳар бир инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари давлат томонидан таъминланади. Ҳуқуқ ва эркинликларни суд орқали ҳимоя қилиш, ҳар қандай ташкилот ва фуқароларнинг қонун бузилиш ҳолатлари устидан судга шикоят қилиш ҳуқуқлари мавжуд бўлиб, айрим

ҳолатларда уларга нисбатан кўрилган жазо чоралари юзасидан ҳимояланишлари мумкин.

Мамлакатимизда Конституциямиз қабул қилинган кун, яъни, 8 декабрь санаси – ҳар йили халқимиз томонидан кенг байрамона нишонланиб келинади. Айни шу кунда халқимизнинг эзгу орзу ва интилишларини ўзида ифода этадиган, жамиятимиз ривожига хизмат қиладиган энг устувор йўналишлар белгилаб олинади ва бу йўналишлар кенг ривожлантирилади.

Шу ўринда статистик маълумотларга тўхталиб ўтсак, 2017–2021 йилларда инсон ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича муҳим қадамлар ташланди. Жумладан, мамлакат аҳолиси учун узоқ йиллардан буён оғриқли масала бўлиб келган «прописка» тизими тубдан ислоҳ қилинди. Фуқаролик бериш тартибининг соддалаштирилиши натижасида 2018–2021 йилларда **70 минг**дан ортиқ шахс Ўзбекистон Республикаси фуқаролигига қабул қилинди.

Узоқ йиллар давомида мамлакат учун тамға бўлиб келган Жаслиқ жазони ижро этиш колонияси тугатилди. Қийноқларнинг олдини олиш масаласига давлат раҳбари томонидан алоҳида эътибор қаратилиб, бу борада 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикаси Президентининг **5 та** фармони ва **6 та** қарори қабул қилинди. Таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан афв этиш тизими йўлга қўйилди. 2017–2021 йилларда жазо муддатини ўтаётган **6 мингга** яқин маҳкумга нисбатан афв этиш актлари қўлланилди.

Эътибор қаратадиган бўлсак, охирги беш йилликда **3 513** нафар, фақат 2021 йилнинг ўзида **743** нафар шахсга нисбатан оқлов ҳукми чиқарилди. Шунингдек, **18 026** нафар шахс суд залидан озод қилиниб, **33 515** фуқарога нисбатан асоссиз қўйилган моддалар айбловлардан чиқарилди ёки ўзгартирилди [10].

Шунингдек, мамлакатимизда сўнгги йилларда гендер тенглик масалаларига катта эътибор қаратилмоқда. Ушбу соҳадаги ишларнинг самараси ўлароқ биргина мисол, Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутатларининг 48 фоизини аёллар ташкил қилмоқда. Бу эса, мамлакатимизда инсон ҳуқуқларининг айнан Конституциясbда

белгилаб қўйилганидек хотин-қизлар ва эркаклар тенг ҳуқуқларга эга эканлигини яққол намоён қилмоқда.

Мазкур таҳлиллар натижасидан мамлакатимизда инсон ҳуқуқлари соҳасида олиб борилаётган ишлар негизида инсон қадри энг юқори даражада турганлигини, фуқароларни ҳуқуқ ва эркинликларининг ҳимояси давлат томонидан таъминланаётганлигини, шунингдек, шахсий ҳуқуқ ва эркинликлар институти нормаларида инсоннинг яшаш ҳуқуқи, эркинлик ва шахсий дахлсизлик ҳуқуқи, айбсизлик ҳуқуқи, шаън ва обрўга қилинган тажовузлардан, шахсий ҳаётига аралашишдан ҳимояланиш ва турар жойи дахлсизлиги ҳуқуқи, бир жойдан иккинчи жойга кўчиш, фикр сўз ва эътиқод эркинлиги ҳуқуқи, ўз ҳуқуқ ва манфаатларига дахлдор бўлган ҳужжатлар, қарорлар ва бошқа материаллар билан танишиб чиқиш ҳуқуқи, виждон эркинлиги каби конституциявий тамойиллар ўз ифодасини топган бўлиб, бугунги кунда ушбу тамойиллар асосида мамлакатимизда амалга оширилаётган, хусусан, суд-ҳуқуқ тизимидаги ислоҳотларнинг бош мақсади инсон ҳуқуқлари ва уларнинг кафолатларига қаратилганлигини кўришимиз мумкин.

Халқимиз истиқлол йилларида эришган бундай ютуқлар, тинч-осойишта, тўкин ва фаровон ҳаётимиз – буларнинг барчасини негизида Конституциямиз турибди. Зеро, Асосий қонунимиз демократик ҳуқуқий давлат барпо этиш, инсон ҳуқуқлари устуворлигини, миллат ва элатлараро тинчлик-осойишталикни таъминлашдек улкан мақсадларга эришишнинг муҳим кафолатидир.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлашни янада такомиллаштиришга оид таклиф ва тавсиялар мавжуд, биринчидан, судлар фаолиятининг мустақиллигини янада мустаҳкамлаш, иккинчидан, адвокатлар фаолияти ваколатларини кенгайтириш, учинчидан, хотин-қизларнинг мамлакат бошқарувидаги рўлини янада ошириш лозим.

Шунингдек, инсон ҳуқуқлари ва эркинликлари олий қадрият ҳисобланади. Инсон ҳуқуқлари, озодлик, барқарорлик ва тараққиёт мажмуини ифодалайдиган демократик ҳуқуқий ва адолатли давлатни мустаҳкамлашлашнинг янги механизмларини жорий этиш, қонун

устуворлиги ҳамда қонунийликни мустаҳкамлаш, шахс ҳуқуқи ва манфаатларини ишончли ҳимоя қилишга қаратилган суд-ҳуқуқ тизимини изчил демократлаштириш ва либераллаштириш, инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлашга масъул бўлган ташкилотларнинг ҳамкорлигини янада кучайтириш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Бунинг натижасида мамлакатимизда инсон хуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, юртимизда демократия ва умуминсоний принципларга тўлиқ роия этишга қаратилган юксак мақсадлар амалиётини яратишими мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1) Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси 1948 йил 10 декабрь // https://constitution.uz/uz/pages/humanrights

2) Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Т., “Ўзбекистон” НМИУ. 2017 – Б.16-17.

3) Ш.М.Мирзиёев Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислоҳотлар йўлини қатъий давом эттирамиз / Янги сайланган Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг лавозимга киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисидаги нутқи. 06.11.2021. // www.president.uz

4) Ш.М.Мирзиёев ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. - Тошкент “O‘zbekiston”, 2021. – 464 бет.

5) Ш.М.Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 29 йиллигига муносабати билан Ўзбекистон халқига йўллаган байрам табриги. 07.12.2021. // www.president.uz

6) Ш.М.Мирзиёев Янги йил муносабати билан Ўзбекистон халқига йўллаган байрам табригидаги нутқи // 2022 yil «Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili» deb e’lon qilindi – Gazeta.uz.

7) Ш.М.Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони // www. lex.uz

8) Саидов А.Х. Инсон ҳуқуқларини таъминлаш — бош мақсадимиз // https://constitution.uz/uz/pages/maqola55

9) “Тараққиёт стратегияси” маркази Ахборот хизмати // https://strategy.uz/index.php?news=1014.

10) https://uza.uz/uz/posts/harakatlar-strategiyasi-bilan-besh-yil-islohotlar-sarhisobi_344372.

БАҲРИДДИН ҒИЁСОВ,

Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети доценти (PhD), капитан

ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ФАОЛИЯТИНИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация: Тезис жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятинининг конституциявий-ҳуқуқий масалаларини ўз ичига олган.

Калит сўзлар: Конституция, жамоат хавфсизлиги, миллий хавфсизлик, давлат хавфсизлиги, шахс хавфсизлиги, хавф-ҳатар.

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация: Тезис жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятинининг конституциявий-ҳуқуқий масалаларини ўз ичига олган.

Ключевые слова: Конституция, общественная безопасность, национальная безопасность, государственная безопасность, личная безопасность, риск.

CONSTITUTIONAL AND LEGAL ISSUES OF PUBLIC SECURITY ACTIVITIES

Annotation: Тезис жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятинининг конституциявий-ҳуқуқий масалаларини ўз ичига олган.

Key words: Constitution, public security, national security, State security, personal security, risk.

Конституция ҳар бир демократик давлатлатнинг асосий қомуси бош мезони ҳисобланиб, барча қонунлар ва қонуности ҳужжатлар Конституция асосида қабул қилинади.

Бош қомусимизнинг асл моҳияти, мақсад ва вазифаси ҳам айнан жамият ва фуқароларнинг тинчлиги ва осойишталигини таъминлаш ҳуқуқ ва эркинликларини рўёбга чиқариш, шахс, жамият ва давлат хавфсизлигини таъминлаш, ижтимоий муносабатларни ҳуқуқий тартибга солиш, бир сўз билан айтганда жамият хавфсизилигини кафолатлашдан иборат десак хеч муболаға бўлмайди.

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси муқаддимасида **Ўзбекистон халқи:** инсон ҳуқуқларига ва давлат суверенитети ғояларига содиқлигини тантанали равишда эълон қилиб, ҳозирги ва келажак авлодлар олдидаги юксак масъулиятини англаган ҳолда, ўзбек давлатчилиги ривожининг тарихий тажрибасига таяниб, демократия ва ижтимоий адолатга садоқатини намоён қилиб, халқаро ҳуқуқнинг умум эътироф этилган қоидалари устунлигини тан олган ҳолда, республика фуқароларининг муносиб ҳаёт кечиришларини таъминлашга интилиб, инсонпарвар демократик ҳуқуқий давлат барпо этишни кўзлаб, фуқаролар тинчлиги ва миллий тотувлигини таъминлаш мақсадида, ўзининг мухтор вакиллари сиймосида Ўзбекистон Республикасининг мазкур Конституциясини қабул қилади деган – сўзларининг битилиши бу бош қомусимизнинг нақадар мукаммаллиги ва хақчиллигидан, шу билан бирга конституциямизда инсон ва жамият манфаатларини ҳар томонлама таъминлаш ва ҳимоя қилиш бош мақсад сифатида белгиланганлигидан далолат беради [1].

Конституциямизнинг жамоат хавфсизлигини таъминлашдаги муҳим аҳамиятини англашдан аввал “хавфсизлик”, “хавф-ҳатар”, “таҳдид”, “жамоат хавфсизлиги”, жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасининг объекти, предмети ва субъектларига қисқача таъриф бериб ўтамиз.

Хавфсизлик тушунчасига кўплаб адабиётларда турлича изоҳлар келтириб ўтилган, хусусан Ўзбек тилининг изоҳли луғатида**:**

“хавфсизлик - хавф-ҳатарнинг йўқлиги; хавф бўлмаган ҳолат”;

“хавф (қўрқинч, қўрқиш, вахима, хадиксираш) – бирор хатарли ҳодиса ёки фалокат содир бўлиш эҳтимоллиги, хатар”;

“хатар (хавф, таҳлика, вахима хавотир)” – бирор бахтсизликка, халокатга олиб келиши мумкин бўлган шароит.

Хавфсизлик – бу хаётий муҳим манфаатларнинг ички ва ташқи таҳдидлардан ҳимояланганлик ҳолати.

Хавф-ҳатар - турли хил ташқи (ички) омиллар (материя, майдон, энергия, ахборот ёки уларнинг бирлашмаси ва бошқалар)нинг мураккаб тизимларга (мисол учун инсонга) таъсири натижасида унинг фаолияти ва ривожланишининг ёмонлашишига ёки тўхтатилишига олиб келиш ҳолати [2].

Маълум бир шарт-шароитларда инсон ҳаёти ва соғлиғига тўғридан-тўғри ёки билвосита зарарли таъсир қилувчи ҳодиса, воқеа, жараёнлар, объектлар ва бошқаларга хавф деб айтилади. Ҳар қандай энергияга, кимёвий ва (ёки) биологик фаол ташкил қилувчиларга эга бўлган, ҳамда параметрлари инсон ҳаёт - фаолият кечириш шароитларига тўғри келмайдиган кўрсаткичларга эга бўлган ҳар қандай тизим хавф туғдиради. Хавфлар яширин (потенциал) ва мавжуд, юзага келган (реал) турларга ажратилади. Потенциал хавф амалга ошиши, яъни реал хавфга айланиши учун “сабаблар” деб аталувчи шароитлар зарурдир. Хавфлар учун қуйидаги белгилар характерлидир: ҳаётга таҳлика солиш, соғлиққа зарар, инсон аъзолари ишлашининг қийинлашиши.

Сўзсиз хавфсизликни келтириб чиқарувчи асосий тушунча **тахдид бўлиб** – хавфсизлика (хаётий мухим манфаатларга) хавф туғдириши мумкин бўлган ҳар қандай воқеа, ходиса, жараён, шарт-шароитлар ва бошқа ҳолатлар тизими ҳисобланади [3].

Хавфсизликни қуйидаги босқичларга бўлишимиз мумкин: шахс хавфсизлиги, жамият хавфсизлиги, давлат хавфсизлиги, миллий хавфсизлик, халқаро хавфсизлик ва глобал хавфсизлик.

Ўзбекистон Республикасининг хавфсизлигини миллий ва давлат хавфсизлиги ташкил этиб Ўзбекистон Республикаси Миллий хавфсизлик концепциясида буларга қуйидагича таъриф берилган.

Миллий хавфсизлик — шахс, жамият ва давлатнинг хаётий мухим манфаатларининг ташқи ҳамда ички таҳдидлардан ҳимояланганлик ҳолати бўлиб, у шахс, жамият ва давлатнинг барқарор ривожланишини ҳамда фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқлари ва эркинликлари рўёбга чиқарилишини таъминлайди [4].

Давлат хавфсизлиги – давлатнинг хаётий муҳим манфаатларининг ташқи ва ички таҳдидлардан ҳимояланганлик ҳолати. Бунда асосан давлатнинг конституциявий тузумининг, суверенитети-нинг, ҳудудий яхлитлигининг ва бошқа давлат манфаатларининг ташқи ҳамда ички таҳдидлардан ҳимояланганлик ҳолати ҳисобланади [5].

Шу билан бирга миллий хавфсизликнинг асосий таркибий қисмларидан бири жамоат хавфсизлиги ҳисобланади.

Жамоат хавфсизлиги - бу жамиятнинг хаётий муҳим манфаатларининг ташқи ва ички таҳдидлардан ҳимояланганлик ҳолати. Бунда асосан жамиятнинг жиноятчилик, бошқа ҳуқуққа хилоф ҳаракатлар (ҳаракатсизликлар), фавқулотда ҳолатлар оқибатлари, ижтимоий низолар, табиий офатлар, эпидемия, эпизотия, йирик халокатлар, авариялар ва ёнғинлардан ҳимояланганлилк ҳолати ҳисобланади.

Шахс хавфсизлиги - бу индивидларнинг (инсонларнинг) хаётий мухим манфаатларининг ташқи ҳамда ички таҳдидлардан ҳимояланганлик ҳолати бўлиб. Бунда асосан ҳарбий шахснинг хаётий муҳим манфаатларининг (яшаш, озиқланиш, ҳаракатланиш ва бошқа-лар), ҳуқуқ ва эркинликларининг ҳимояланганлик ва кафолатланганлик ҳолати ҳисобланади.

Жамоат хавфсизлиги объектларига шахс, жамият ва давлат-нинг хаётий муҳим манфаатлар киради:

Шахс – унинг ҳуқуқ ва эркинликлари

Жамият – унинг моддий ва маънавий қадриятлари

Давлат – унинг конституциявий тузими, суверинетети ва ҳуду-дий яҳлитлиги [6].

Жамоат хавфсизлигининг субъектлари шахс, аҳоли ижтимоий гуруҳлари, жамоат уюшмалари ҳамда бирлашмалари, давлат ва жамият ҳисобланади.

Жамоат хавфсизлиги соҳасининг предметлари бўлиб шахс, жамият ва давлатнинг хаётий муҳим манфаатларини ташкил этувчи соҳалар ҳисболанади. Буларга қуйидагиларни киритишимиз мумкин ижтимоий соҳа, иқтисодий соҳа, сиёсий соҳа, ҳарбий соҳа, экологик соҳа, ҳуқуқий соҳа ва бошқалар.

Бизнинг фикримизча жамият хавфсизлиги бу жамиятнинг барча аъзоларининг хаётий муҳим манфаатларининг ташқи ва ички хавф ва таҳдидлардан ҳимояланганлик ҳолати ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси жамоат хавфсизлиги кафолати сифатидаги ўрни ва аҳамияти беқиёс бўлиб, Ўзбекистон Республикаси Конституциясида жамоат хавфсизлигини таъминлашга доир киритилган нормалар кучли фуқаролик жамияти қуришга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ("Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси", 1993 йил, 1-сон, 4-модда). - Тошкент.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (“Ўзбекистон Миллий инциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006-2008 йиллар). – Тошкент.
3. Хавфсизлик асослари ва геосиёсат (Ўқув қўлланма, 2021 йил) – Тошкент МГ ҲТИ.
4. Ўзбекистон Республикасининг Миллий хавфсизлик концепцияси (Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августдаги 467-I-сон қонуни) – Тошкент.
5. Федеральный закон РФ "О безопасности" (от 28.12.2010 N 390-ФЗ (последняя редакция)) – Москва.
6. Концепция общественной безопасности в Российской Федерации (утв. Президентом РФ 14.11.2013 N Пр-2685) – Москва.

АЗИЗ ИСМОИЛОВ,
Тошкент вилояти,Чирчиқ шаҳар прокурори ўринбосари

ЯНГИ ТАҲРИРДАГИ КОНСТИТУЦИЯДА ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИ ИНСТИТУТИНИНГ МУСТАҲКАМЛАНГАНЛИГИ

Аннотация: Мазкур мақолада конституцияда белгиланган жамоатчилик назоратининг ўрни, мазкур институт орқали давлат органлар фаолиятни тийиб туриш, жамоатчилик назорати субъектларининг ҳуқуқий мақоми, жамоатчилик назоратини амалга ошириш механизми каби масалалар атрофлича таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: конституция, референдум, жамотчилик, назорат, фуқаролар, қонун ҳужжатлари, мансабдор шахслар

УСИЛЕНИЕ ИНСТИТУТА ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ В НОВОЙ РЕДАКЦИИ КОНСТИТУЦИИ

Аннотация: В данной статье подробно анализируются такие вопросы, как место общественного контроля, определенное в конституции, ограничение деятельности государственных органов через этот институт, правовой статус субъектов общественного контроля, механизм осуществления общественного контроля.

Ключевые слова: конституция, референдум, общественность, контроль, граждане, законодательство, должностные лица.

STRENGTHENING OF THE INSTITUTE OF PUBLIC CONTROL IN THE NEW EDITORIAL CONSTITUTION

Abstract: This article analyzes in detail such issues as the place of public control defined in the constitution, restrictions on the activities of government bodies through this institution, the legal status of subjects of public control, and the mechanism for exercising public control.

Key words: constitution, referendum, public, control, citizens, legislation, officials.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 36-моддасига асосан, Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари жамият ва давлат ишларини бошқаришда бевосита ҳамда ўз вакиллари орқали иштирок этиш ҳуқуқига эгадирлар. Бундай иштирок этиш ўзини ўзи бошқариш, референдумлар ўтказиш ва давлат органларини

демократик тарзда ташкил этиш, шунингдек давлат органларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини ривожлантириш ва такомиллаштириш йўли билан амалга оширилади. Давлат органларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга ошириш тартиби қонун билан белгиланади[1].

Юқоридаги жамоатчилик назоратига оид конституциявий нормалар Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг айрим моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (32, 78, 93, 98, 103 ва 117-моддаларига) ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига асосан Конституцияга киритилган [2].

Бу орқали давлат жамоатчилик назорати институтининг қонун устуворлигини таъминлашда жуда муҳим эканлигини тан олиш билан бирга, уни энг юқори даражада ҳуқуқий мустаҳкамлади. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси мисолида асосий қонун ва жамиятда қонун устуворлигини таъминловчи энг замонавий ҳуқуқий механизм уйғунлигини кузатиш мумкин. Жамоатчилик назорати институтига ―конституциявий ҳуқуқий мақом берилганлиги, Ўзбекистонда бу масалага давлат ва жамият тараққиётининг муҳим шарти сифатида жиддий эътибор қаратилаётганлигини намоён этади.

Юқоридаги тизимли ислоҳотларнинг мантиқий давоми сифатида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси томонидан 2017 йил 15 ноябрда Ўзбекистон Республикасининг ―Жамоатчилик назорати тўғрисида‖ги Қонуни қабул қилинди. Ушбу Қонун 2018 йил 29 мартда Сенат томонидан маъқулланди. 2018 йил 12 апрель куни Президент томонидан имзоланиб, 13 апрелда оммавий ахборот воситаларида эълон қилинди [3].

Жамоатчилик назорати – давлат органлари ва уларнинг мансабдор шахслари фаолияти устидан кенг жамоатчилик томонидан олиб бориладиган назоратнинг алоҳида тури. Қонун устуворлигини таъминлашда жамоатчилик назорати институти энг муҳим мезон сифатида майдонга чиқади. Жамоатчилик назоратининг амалга самарали жорий этилиши орқали давлат органлари ва уларнинг мансабдор шахслари фаолиятида қонунларга риоя қилиниши

таъминланади. Давлат органлари самарали фаолият юритишида жамоатчилик назорати муҳим ўрин тутади. Мазкур институтнинг давлат органлари ходимлари қонунга риоя этиб, вазифа ва мажбуриятларини масъулият билан адо этишида таъсир доираси юқори. Зеро, халқ ҳокимиятчилиги принципи Конституциямизнинг асосий принципларидан биридир. Жумладан, фуқаролар жамият ва давлат ишларини бошқаришда иштирок этиш ҳуқуқига эга. Бу каби иштирок этиш йўлларидан бири – давлат органлари фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга оширишдир [4].

Дарҳақиқат, фуқаролар давлат органлари ва уларнинг мансабдор шахслари фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга ошириш орқали, мамлакатдаги қонун устуворлигини таъминлашга бевосита таъсир кўрсатадилар. Давлат ҳокимиятининг манбаи сифатида давлат бошқарувига, унда Конституция ва қонун устуворлиги таъминлашига муайян даражада ҳисса қўшадилар. Умуман олганда, жамоатчилик назорати шундай халқона, демократик назорат турики, у орқали фуқаролар давлатни, амалдорларни назорат қиладилар. Турли давлат назорати шаклларига муқобил механизм сифатида жамоатчилик назоратини ривожланиши фақат ва фақат мамлакат тараққиёти учун хизмат қилади. Жамоатчилик назоратининг конституциявий-ҳуқуқий асосларини таҳлил қилсак, аввало Ўзбекистон Республикаси Конституциясида акс этган фундаментал нормага эътибор қаратиш керак. Шунингдек, жамоатчилик назоратига унинг объекти ва субъекти нуқтаи назаридан баҳо берилиши муҳим аҳамиятга эга.

Янги таҳрирдаги Конституциянинг 36-моддасига асосан, жамоатчилик назоратининг объекти сифатида давлат органларининг фаолияти кўрсатилган. Мазкур масала айрим мулоҳазаларга, баҳсмунозараларга асос бўлмоқда. Айрим мутахассислар томонидан Жамоатчилик назорати фақат давлат органлари фаолияти билан чекланадими?, Фуқаролар конституциявий ҳуқуқларини таъминлаш билан бевосита боғлиқ бўлган соҳалар, хусусан, хўжалик бошқаруви органлари фаолияти жамоатчилик назоратидан четда қоладими?, деган ҳақли саволлар берилмоқда.

Фикримизча, кўплаб фуқароларимизнинг Конституцияда белгиланган ижтимоий-иқтисодий ҳуқуқларини таъминлашга хизмат қиладиган хўжалик бошқаруви органларининг фаолияти объект доирасига кирмаган. Бу назарий-ҳуқуқий жиҳатдан тўғри бўлиши мумкин. Лекин мамлакатимиздаги бугунги реал вазиятдан келиб чиқсак, хўжалик бошқаруви органларининг фаолияти ҳам объект доирасига кириши мақсадга мувофиқ бўлар эди. Жамоатчилик назоратининг субъекти бўлган оддий фуқаро ўзи ҳаёти давомида кўп тўқнашадиган Ўзтрансгаз, Ўзбекэнерго ва Ўзбекистон темир йўллари акциядорлик жамияти каби хўжалик бошқаруви органлари ва уларнинг мансабдор шахсларининг фаолияти устидан ҳам жамоатчилик назоратини амалга ошириши мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Чунки, фуқароларнинг, юридик шахсларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини, жамият манфаатларини ҳимоя қилиш соҳасидаги қонун ҳужжатлари талабларининг ижро этилишини таъминлаш бўйича; ўз зиммасига юклатилган социал ва ижтимоий манфаатларга дахлдор бўлган вазифалар ва функцияларни самарали бажариш бўйича; самарали ва сифатли хизматларни кўрсатиш бўйича уларнинг фаолияти ҳам жамоатчилик назорати объекти бўла олади. Бу масалани чуқур ўйлаб кўриш керак. Қолаверса, жамоатчилик назорати объекти доирасини кенгайтириш қандай фойда беради ёки зарар келтиришини чуқурроқ таҳлил қилиш керак деб ўйлаймиз. Масалан, объектни фақат давлат органи фаолияти билан чекласак, ҳозирда амалдаги ижобий самара бераётган ҳолатларчи?! Амалда нафақат, давлат органи, балки хўжалик, маҳаллий, вакиллик, нодавлат органлари, ҳаттоки, оддий фуқароларнинг хатти-ҳаракати ҳам кенг жамоатчилик назорати таъсири остига олинган.

Айниқса, сўнги вақтларда рақамли технологияларнинг ривожи, турли ижтимоий тармоқларнинг пайдо бўлиши, фуқаролар томонидан улардан фойдаланиш даражасининг ортиб бориши ҳар бир ҳаракат устидан назорат мавжудлигини, бирор-бир ножўя ҳаракат тезда ижтимоий тармоқлар орқали тарқалиб, кенг жамоатчиликнинг муҳокамасига сабаб бўлаётгани бу масалада янада кенгроқ

мушоҳадага чорлайди. Масаланинг айрим нозик жиҳатлари жамоатчилик назорати шиори остида ҳуқуқлар доирасидан четга чиқиб, бошқаларнинг ҳуқуқига зарар етказиш билан боғлиқ ҳолатлар ҳам афсуски, йўқ эмас. Бу ўринда жамоатчилик назорати субъектлари “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 15- моддасида белгиланган ҳуқуқ ва мажбуриятлар доирасида ҳаракат қилишлари зарур. Яна бир мулоҳазали масала шундаки, айрим экспертлар томонидан хўжалик бошқаруви органларини тадбиркорлик субъекти сифатида баҳолаб, улар фаолияти устидан олиб бориладиган жамоатчилик назоратини, тадбиркорлик фаолиятига асоссиз аралашувга сабаб бўлади, деган қарашлар, ёндашувлар ҳам мавжуд. Фикримизча, бу ўринда кўпроқ натижага эътибор қаратиш, ундан келиб чиқиб, қонунчиликни такомиллаштириш зарур. Агар, жамоатчилик назорати объекти доирасини кенгайтириш ҳисобига жамиятда тартиб, конституция ва қонун устуворлиги таъминланса, шу йўлдан бориш керак.

Ҳозирги амалиётда ҳам гарчи объект доираси фақат давлат органи бўлсада, бошқа соҳалар устидан ҳам олиб борилаётган жамоатчилик назорати фақат барчанинг масъулиятини оширишга хизмат қилмоқда. Жамоатчилик назоратининг конституциявий-ҳуқуқий асосларига кўра, субъектлар доирасини таҳлил қилсак, янги таҳрирдаги Конституциянинг 36-моддасига асосан, Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари жамоатчилик назоратининг субъекти ҳисобланади. “Ўзбекистон Республикасининг Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги қонунида жамоатчилик назорати субъектлари сифатида Ўзбекистон Республикаси фуқаролари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, шунингдек қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда рўйхатга олинган нодавлат нотижорат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари, шунингдек жамоатчилик кенгашлари, комиссиялар белгиланган [5]. Конституция орқали фуқароларга бундай ҳуқуқ берилганлиги жуда катта аҳамиятга эга.

Ўзбекистон Республикасининг фуқароси қонун устуворлигини таъминлаш мақсадида жамоатчилик назоратини амалга ошириши мумкин. Лекин, Конституцияда қайд этилган таҳрирда фуқаролар

иштироки ...давлат органларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини ривожлантириш ва такомиллаштириш йўли билан амалга оширилади. Асосий масала фуқароларга жамоатчилик назоратини амалга ошириш ҳуқуқига эгалигидадир. Юқоридаги фикр-мулоҳазалардан келиб чиқиб, қуйидагича таклиф ва тавсиялар илгари сурилади: биринчидан, жамоатчилик назоратининг конституциявий-ҳуқуқий асосларини янада такомиллаштириш, хусусан жамоатчилик назоратининг объекти доирасини кенгайтириш, давлат органлари билан бир қаторда хўжалик бошқаруви органларини ҳам объект сифатида киритилиши мақсадга мувофиқдир.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 36-модда, биринчи қисмидаги шунингдек давлат органларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини ривожлантириш деган сўзлар, шунингдек давлат ва хўжалик бошқаруви органларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини ривожлантириш деган сўзларга алмаштирилиши мақсадга мувофиқдир; иккинчидан, Ўзбекистон Республикасининг Жамоатчилик назорати тўғрисидаги Қонуни 4-моддасидаги Давлат органларининг, шу жумладан ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ва назорат қилувчи тузилмаларнинг ва улар мансабдор шахсларининг деган сўзлар, давлат ва хўжалик бошқаруви органларининг, шу жумладан ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ва назорат қилувчи тузилмаларнинг ва улар мансабдор шахсларининг деган сўзларга алмаштирилиши зарур; учинчидан, қонун ижодкорлари томонидан “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги қонунни ҳозирги амалиёт, ҳуқуқий тартибга солишнинг илғор усуллари, бошқарув соҳасига замонавий ахборот технологияларнинг кенг татбиқ этилаётганидан келиб чиқиб, такомиллаштириш масаласи ўйлаб кўрилса, мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.03.2019 й., 03/19/527/2706-сон, 05.09.2019 й., 03/19/563/3685-сон. https:lex.uz.

2.Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 16-сон, 176-модда. https:lex.uz. 40.

3.Халқ сўзи, 2018 йил 13 апрель.

4.Миракулов М. Жамоатчилик назорати: давлат органлари ходимларининг қонунга риоя этиши, вазифасига масъулият билан ѐндашишини таъминлайди. https://www.uza.uz.

5.Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2018, 15-сон, 304-модда.

SEVARA ABDIMANNOBOVA,
Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi mas’ul xodimi

HUQUQIY TA’LIM – HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING ZARUR SHARTI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim olish huquqining konstitutsiya va xalqaro hujjatlarda kafolatlanganligi, yoshlarning huquqiy ta’lim olish borasidagi muammo va kamchiliklar, O‘zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning roli tahlil qilindi, fuqarolarning huquqiy ong va madaniyatini oshirish borasida mamlakatimizda bugungi kunda amalga oshirilayotgan izlohotlar yoritib berildi. Bundan tashqari maqolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish, jamiyatda fuqarolar, ayniqsa yoshlarning huquqiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga doir muammolarga samarali yechim topish usullari o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, huquqiy ta’lim, huquqiy ong, huquqiy ma’daniyat, huquqiy negilizm, respondent.

ПРАВОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ – НЕОБХОДИМОЕ УСЛОВИЕ ПОВЫШЕНИЯ ПРАВОВОГО ОСВЕЩЕНИЯ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация: В данной статье анализируется то, что право на образование гарантируется Конституцией и международными документами, проблемы и недостатки правового воспитания молодежи, роль правового сознания и правовой культуры в построении демократического правового государства и формировании гражданское общество в Республике Узбекистан,

правосознание и культура граждан Реформы, проводимые сегодня в нашей стране в условиях повышения. Кроме того, в статье описаны пути поиска эффективных решений проблем формирования правового сознания и правовой культуры, формирования правовых знаний и умений граждан, особенно молодежи.

Ключевые слова: правовое государство, гражданское общество, юридическое образование, правосознание, правовая культура, правовой нигилизм, респондент.

LEGAL EDUCATION IS A NECESSARY CONDITION FOR INCREASING LEGAL AWARENESS AND LEGAL CULTURE

Annotation: This article analyzes the fact that the right to education is guaranteed by the Constitution and international documents, the problems and shortcomings of legal education of youth, the role of legal consciousness and legal culture in building a democratic rule of law state and the formation of civil society in the Republic of Uzbekistan, legal consciousness and culture of citizens Reforms being carried out today in our country in conditions of increase. In addition, the article describes ways to find effective solutions to the problems of forming legal consciousness and legal culture, forming legal knowledge and skills of citizens, especially young people.

Key words: rule of law, civil society, legal education, legal consciousness, legal culture, legal nihilism, respondent.

Ta’lim bizga atrofimizdagi dunyo haqida nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar beradi, bizda hayotga qarashni rivojlantiradi, bu esa bizga fikrlarni shakllantirishga yordam beradi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida “Ta’lim inson shaxsini to‘la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmog‘i lozim” [1] deb belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida Xalqaro Paktda ham har bir inson ta’lim olish huquqiga ega ekanligi, ta’lim inson shaxsining to‘liq rivojlanishi va uning qadr-qimmatini anglashiga qaratilgan bo‘lishi, ta’lim barchaga erkin jamiyatning foydali a’zolari bo‘lishga imkon yaratishi lozim ekanligi ta’kidlangan [2].

So‘ngi yillarda mamlakatimizda yoshlarning ta’lim olish sohasiga oid bir qator tizimli islohotlar yo‘lga qo‘yilib, jumladan Konstitutsiyamizda ham davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan

shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olish, ishga joylashish, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi kafolatlandi [3]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir” deb ta’kidlab o‘tdilar [4]. Darhaqiqat, barkamol avlodni tarbiyalash, ta’lim sifatini oshirish, ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish orqali mamlakatimiz taraqqiyoti yanada mustahkamlanadi.

Bugungi kunda “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!” degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishi uchun shart-sharoit yaratish, huquqiy ta’limga xorij amaliyotini joriy etish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o‘rnini va huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini yaxshilash, Konstitutsiya va qonunlar, yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarining mazmun-mohiyatini fuqarolarga yetkazish tizimini va **xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning zarur shartiga aylantirish, fuqarolar o‘rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish bilan** bog‘liq muammolarning ilmiy yechimini topish muhimdir. Shu sababdan ham huquqiy ta’lim tizimini takomillashtirish mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat qurishda hamda fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy ta’lim deganda shaxslarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, huquqiy bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash, qonunga itoatkor xulq-atvor odatlarini shakllantirishga qaratilgan ta’lim shakli tushuniladi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish huquqqa nisbatan ijobiy munosabat, qonun talablarini bajarish zarurligini anglash, amaldagi qonunlarni bilish, huquqni hurmat qilish va huquqiy normalariga rioya etishda namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish, mamlakatimizda Qonunlar ustuvorligini ta’minlash uchun avvalo jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish darkor.

Respublikamizda ta’lim tizimini takomillashtirish doir islohotlarni yanada jadallashtirish bilan bog‘liq vazifalar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida [5] **ham o‘z aksini topgan bo‘lib,** umumiy o‘rta ta’lim

tizimini yangi bosqichga olib chiqish, yangi darsliklar, pedagoglar uchun metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish, pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida ularni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish kabi bir qancha vazifalar belgilandi, albatta bu kabi vazifalarda huquqiy ta’lim tizimini ham qamrab olish joiz.

Aholining huquqiy ong va madaniyat haqidagi tushuncha va mulohazalari qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida yoshlar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilganda “Huquqiy ong va madaniyat haqida tushunchaga egamisiz?” degan mazmunda savol berilganida, ishtirokchilarning ko‘pchiligi (75%) “ha” deb javob berishgan bo‘lsa, afsuski qolgan respondentlar (25%) “yo‘q” degan javobni keltirishgan. Bundan tashqari so‘rovnomada qatnashgan 53 foiz respondentlar “Aholining huquqiy ongi va madaniyatini qay darajada deb baholaysiz?” degan savolga “past” deb javob berishgan bo‘lsa, “Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda qaysi usullar samarali deb o‘ylaysiz” degan savolga respondentlarning 48 fozi “Maktablarda huquqiy dars soatlarini oshirish”, 57 foiz respondentlar “Maktablarda huquqiy darslar o‘tilish darajasi qay darajada deb baholaysiz?” degan mazmunda savol berilganida, “past” deb javob berishgan. Ushbu ko‘rsatgichlar shuni ko‘rsatadi-ki, maktabda huquqiy fanlar uchun ajratilgan dars soatlarini nafaqat hajmini balki sifatini ham oshirish, o‘quvchilarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish uchun avvalo huquqiy fanlardan dars beruvchi professional pedagog kadrlarni yetishtirib chiqish, bunda, Oliy ta’lim muassasalarida huquq ta’limi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun zamon talablariga va xalqaro standartlarga mos o‘quv dasturlari asosida ta’lim berish tizimini yo‘lga qo‘yish, oliy ta’lim kesimida ham huquqiy fanlar sonini ko‘paytirish, huquqiy mavzular bo‘yicha ta’lim beruvchi pedagog-o‘qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizmini takomillashtirish lozim.

Ma’muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlarning sodir etilishi aholining huquqiy ongi va madaniyati bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularga asosiy omil fuqarolarning qonunchilikdan yetarli darajada habardor emasligi, o‘zgalar huquqini mensimasliklari hisoblanadi. Statistika ma’lumotlariga qaraganda jinoyat sodir etgan shaxslarning 3,4 foizini voyaga yetmaganlar tashkil etadi. 13-17 yoshdagilar aynan umumiy o‘rta ta’lim muassasasi yoshidagi bolalar bo‘lib, bu yoshdagi bolalar 2020-yilda 1276 ta jinoyat sodir etgan bo‘lsa, 2021-yilda 2595 tani, 2022-yilda esa 3112 tani tashkil etmoqda [6]. Sodir etilayotgan jinoyatlardan eng ko‘p sodir etilayotganlari Jinoyat

kodeksida belgilangan badanga qasddan og‘ir jarohat yetkazish (104-modda), o‘g‘rilik (169-modda), talonchilik (164-modda), bosqinchilik (166-modda), firibgarlik (168-modda), bezorilik (277-modda) hisoblanadi.

Qonunlardan behabar, shuningdek, jtimoiy og‘ir ahvolda qolgan voyaga yetmaganlarning qarovsiz va nazoratsiz qoldirilishi, ommaviy axborot vositalarida, telegramda, filmlarda zo‘ravonlik va shafqatsizliklarning targ‘ib qilinishi, ta’lim muassasalarida samarali ishlar olib borilmasligi, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etilmaganligi, yoshlarga o‘rnak bo‘lishi kerak bo‘lgan kattalar orasida yomon illatlarning avj olishi, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik bu kabi jinoyatlarga sabab bo‘lmoqda. Voyaga yetmaganlarning oilasidagi nosog‘lom muhit, moddiy va ma’naviy yetishmovchiliklar albatta ularning ta’lim olishga bo‘lgan huquqlarini chetlab o‘tmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanishi belgilab qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlarini Asosiy Qonunimizga muvofiqlashtirish maqsadida Jinoyat Kodeksi [7] 82^1-moddasini quyidagicha *“...Majburiy jamoat ishlari voyaga yetmaganlarning sog‘lig‘iga,* ***xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf solmasligi, uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qilmasligi lozim***”, 148^1-moddasini esa “*Voyaga yetmagan shaxs mehnatidan* ***sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qilinishi*** *mumkin bo‘lgan ishlarda foydalanish…*” tarzida to‘ldirish, bundan tashqari Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeks [8] ***47-moddasi*** (*Bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik*)da belgilangan sanksiya qismini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Bu avvalo ota-onalar mas’uliyatini oshirish va voyaga yetmagan shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish, ular tomonidan ma’muriy huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etishining oldini olishga xizmat qiladi.

Yuqorida huquqiy ta’lim tizimi oldida bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar sanab o‘tildi, bundan tashqari, huquqiy ta’limning sifat darajasi pastligicha qolayotganligi, maktab darsliklaridagi kamchiliklar va zamon talablariga javob bermayotganligini kuzatishimiz mumkin. Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish uchun yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan o‘quv materiallari tayyorlanishini va yoshlar

tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish maqsadida loyihalarni tashkil etish, aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma’rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish, aholini qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalashga, ularni huquqiy ongini va madaniyatini, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlardan fuqarolarning xabardorlik darajasini oshirish hamda bu sohada ommaviy axborot vositalarining huquqiy targ‘ibot faoliyatini yanada kuchaytirish lozim.

Shuningdek, bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, jamiyatda bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka toqatsizlik madaniyatini shakllantirish, ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni parvarishlash bo‘yicha muqobil noinstitutsionallashgan shakllarni joriy qilish, **zamonaviy talablarga** javob beradigan va **ilg‘or xalqaro yuridik tajribalarni tadbiq etish,** xorijiy huquqni o‘rganish, voyaga yetmaganlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish zarur. Bu kabi tizimli ishlarning joriy etilishi yoshlarimizning rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab olishlariga imkon yaratishi, yoshlarning kelajakdagi maqsadlariga erishish va huquqiy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish mamlakatimiz taraqqiyoti yuksalishiga sabab bo‘luvchi muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi // URL: https://constitution.uz/oz/pages/humanrights;

2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida Xalqaro Pakt // URL: https://lex.uz/docs/-2686000;

3. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan) // URL: https://lex.uz/docs/-6445145;

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // URL: https://president.uz/oz/lists/view/5774;

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni // URL: https://lex.uz/ru/docs/-6600413;

6. Statistika ma’lumotlari // URL: https://stat.uz/uz/rasmiy-

statistika/crime-and-justice-2;
7. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi // URL: https://lex.uz/docs/-111453;
8. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeks // URL: https://lex.uz/docs/-97664.

АЗИМЖОН ХЎЖАЕВ,
Ўзбекистон Республикаси Президенти администрацияси ходими, ю.ф.б.ф.д. (PhD)

ИСТЕЪМОЛЧИ ҲУҚУҚЛАРИ УСТУНЛИГИГА ОИД КОНСТИТУЦИЯВИЙ КАФОЛАТЛАРИНИНГ АМАЛДА ИФОДАЛАНИШИ

Аннотация: Мазкур мақолада истеъмолчилар ҳуқуқларининг конституция даражасида устувор аҳамият касб этганлиги, ваколатли идоларнинг истеъмолчиларни ҳар томонлама қўллаб - қувватлаш, сотувчи ва сотиб олувчи ўртасидаги муносабатлар каби масалалар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: истеъмолчи, ишлаб чиқариш, сифат, кўрсаткич, махсулот тури, асосий ҳуқуқлар.

ПРАКТИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ КОНСТИТУЦИОННЫХ ГАРАНТИЙ, КАСАЮЩИХСЯ ДОМИНИРОВАНИЯ ПРАВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ

Аннотация: В данной статье анализируются такие вопросы, как приоритет прав потребителей на уровне конституции, всесторонняя поддержка потребителей, отношения между продавцом и покупателем.

Ключевые слова: потребитель, производство, качество, показатель, вид продукции, основные права.

THE PRACTICAL EXPRESSION OF THE CONSTITUTIONAL GUARANTEES REGARDING THE DOMINANCE OF CONSUMER RIGHTS

Abstract: This article analyzes issues such as the priority of consumer rights at the constitutional level, comprehensive support for consumers, the relationship between seller and buyer

Key words: consumer, production, quality, indicator, type of product, fundamental rights.

Янги таҳрирдаги Конституциянинг 65-моддсида, давлат бозор муносабатларини ривожлантириш ва ҳалол рақобат учун шарт-шароитлар яратади, истеъмолчиларнинг ҳуқуқлари устуворлигини ҳисобга олган ҳолда иқтисодий фаолият, тадбиркорлик ва меҳнат қилиш эркинлигини кафолатлашлиги қатъий белиглаб қўйилган. Охирги йилларда ҳам олиб борилаётган ииқтисодий ислоҳотларнинг туб моҳиятида ҳам истеъмолчилар ҳуқуқларининг устуворлигига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш жараёнида истеъмолчиларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш долзарб аҳамият касб этади. Чунки истеъмолчи маҳсулот сотиб олар экан, унинг қандай сифатга эга эканлиги ушбу маҳсулот харид қилингунча қандай шароитда сақланганлигидан хабарсиз бўлади. Бу ҳолни фақатгина ушбу маҳсулот тури сотувчисигина билади. Шу маънода истеъмолчи бундай ҳолларда алданиб қолиши, унинг истеъмолчи сифатидаги ҳуқуқлари бузилишига олиб келади. Эътироф этиш лозимки, Ўзбекистонда истеъмолчи ҳуқуқларини ҳимоя қилиш борасидаги қонунчилик базаси яратилган.

1996 йил 26 апрелда ―Истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш 81 тўғрисидаги қонун қабул қилинган бўлиб, мазкур қонун ҳужжати бевосита истеъмолчининг товарлар (ишлар, хизматлар) ҳақида, шунингдек ишлаб чиқарувчи, ижрочи, сотувчи ҳақида тўғри ва тўлиқ маълумот олиш, товарлар (ишлар, хизматлар)ни эркин танлаш ва унинг тегишли даражада сифатли бўлиши, товарлар (ишлар, хизматлар)нинг хавфсиз бўлиши, ҳаёти, соғлиғи ва мол-мулки учун хавфли нуқсони бўлган товарлар (ишлар, хизматлар), шунингдек ишлаб чиқарувчи, ижрочи, сотувчининг ғайриқонуний ҳаракати (ҳаракатсизлиги) туфайли етказилган моддий зиён, маънавий зарарнинг тўлиқ ҳажмда қопланиши, бузилган ҳуқуқлари ёки қонун билан муҳофаза этиладиган манфаатлари ҳимоя қилинишини сўраб, судга, бошқа ваколатли давлат органларига мурожаат этиш, истеъмолчиларнинг жамоат бирлашмаларини тузиш

каби ҳуқуқ ва манфаатларини муҳофаза қилишга қаратилган бўлиб, мазкур жараён мамлакатимизда изчиллик билан амалга оширилиб келинмоқда. Истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш – бозор муносабатлари шароитида энг долзарб масалалардан ҳисобланади. Истеъмолчиларнинг ҳуқуқлари ва манфаатларини кафолатлайдиган қонунчилик базаси яратилганига қарамасдан, ҳанузгача сифати паст товарларни сотиш, талабга жавоб бермайдиган хизматларни кўрсатиш кўрсатиш каби ҳолатлар учрамоқда.

Бунинг сабабларидан бири – истеъмолчиларнинг ўз ҳуқуқларини етарли даражада билмаслигидир. Чакана савдо соҳаси аҳолини зарур товар билан таъминлашда муҳим ўрин тутади. Чакана савдодан товар сотиб олган фуқаролар истеъмолчи мақомига эга бўлади. Истеъмолчи сифатида эса фуқаролар чакана савдо соҳасида бир қатор ҳуқуқларга эга бўладилар. Бу ҳолат ―истеъмолчи доимо ҳақ қоидасидан келиб чиқади. Чунки, зарурий товарлар ҳам айнан аҳоли истеъмоли учун ишлаб чиқарилади. Ҳар қандай ҳолатда ҳам истеъмол бозори, истеъмолчи мавжуд бўлмас экан, товарлар ишлаб чиқариш ва савдо фаолияти ҳам мавжуд бўлмайди. Шундай экан, чакана савдо соҳасида истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш зарурати юзага келади. Зеро, мутахассисларнинг таъкидлашларича, чакана савдо 82 муносабатларининг заиф томонидан бу истеъмолчидир. Товар сотиб олиш ёки уни буюртма қилиш жараёнида истеъмолчи ўз ҳуқуқлари доираси ва ҳажмини билмаслиги ҳамда уни амалга ошириш бўйича тасаввурга эга бўлмаслиги мумкин. Шу боис унинг ҳуқуқлари бузилиши ҳолатилари кўп учрайди. Шу боис истеъмолчи ҳуқуқларини ҳимоя қилиш давлат ва жамият аҳамиятга эга бўлган муҳим масаладир.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 53-моддасида белгиланишича, давлат истеъмолчиларнинг ҳуқуқи устунлигини ҳисобга олиб, иқтисодий фаолият, тадбиркорлик ва меҳнат қилиш эркинлигини, барча мулк шаклларининг тенг ҳуқуқлилигини ва ҳуқуқий жиҳатдан баб-баравар муҳофаза этилишини кафолатлайди. Ўзбекистонда истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш борасида қонунчилик базаси яратилган ва институционал тузилмалар (турли

давлат ва нодавлат ташкилотлари) фаолият олиб боради. Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг Истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисидаги, Озиқ-овқат маҳсулотларининг сифати ва хавфсизлиги тўғрисидаги қонунлари ва Вазирлар Маҳкамасининг 2003 йил 13 февралдаги 75-сон қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида чакана савдо қоидалари бевосита чакана савдо соҳасида истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилишга оид қоидаларни назарда тутади. Ўзбекистон истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш жамиятлари федерациялари бевосита истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилишга кўмаклашади.

Истеъмолчиларни ҳимоя қилишга оид халқаро-ҳуқуқий ҳужжат сифатида БМТнинг Бош ассамблеясининг 1985 йил 9 апрелдаги 83 39/248- сон Истеъмолчилар манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича раҳбарий тамойиллари резолюцияси қабул қилинган ва унда истеъмолчиларнинг 8 та асосий ҳуқуқи санаб ўтилган. Хорижий мамлакатларда ҳам истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилишга қаратилган махсус қонунчилик тизими қабул қилинган ва давлат органлари фаолият юритади. Қолаверса, 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг “Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури лойиҳаси эълон қилинди. Дастурнинг III боби Иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришнинг устувор йўналишлари, деб номланган.

Унинг иқтисодиётда давлат иштирокини камайтириш, хусусий мулк ҳуқуқини ҳимоя қилиш ва унинг устувор мавқеини янада кучайтириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожини рағбатлантиришга қаратилган институционал ва таркибий ислоҳотларни давом эттириш бўлимида амалга оширилиши мўлжалланаётган қуйидаги чора-тадбирлар белгилаб олинмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 26 апрелдаги “Истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги қонунинг 4-моддасида, истеъмолчиларнинг асосий ҳуқуқлари санаб ўтилган бўлиб, унга кўра, истеъмолчилар қуйидаги ҳуқуқларга эга:

товар (иш, хизмат) ҳақида, шунингдек, ишлаб чиқарувчи (ижрочи, сотувчи) ҳақида тўғри ва тўлиқ маълумот олиш; товар (иш, хизмат)ни эркин танлаш ва унинг тегишли даражада сифатли бўлиши; товар (иш, хизмат)нинг хавфсиз бўлиши; 84 ҳаёти, соғлиғи ва мол-мулки учун хавфли нуқсони бўлган товар (иш, хизмат), шунингдек, ишлаб чиқарувчи (ижрочи, сотувчи)нинг ғайриқонуний ҳаракати (ҳаракатсизлиги) туфайли етказилган моддий зиён, маънавий зарарнинг тўлиқ ҳажмда қопланиши; бузилган ҳуқуқлари ёки қонун билан муҳофаза этиладиган манфаатлари ҳимоя қилинишини сўраб судга, бошқа ваколатли давлат органларига мурожаат этиш; истеъмолчиларнинг жамоат бирлашмаларини тузиш.

Истеъмолчи чакана савдо орқали товар харид қилаётганда товарни ишлаб чиқарувчи, чакана савдони амалга оширувчи хусусида маълумот олишга ҳамда товарнинг номи, унинг сифати, хусусиятлари, ишлаш тавсифи ва бошқа шунга ўхшаш маълумотларни сўраб олишга ҳақли ҳисобланади. Унинг мазкур талабларини бажармаслик эса жавобгарликни юзага келтиради. Истеъмолчининг асосий ҳуқуқларидан бири ҳисобланган сифати лозим даражада бўлган товарга нисбатан ҳуқуқлари БМТнинг Бош ассамблеяси томонидан чиқарилган Истеъмолчилар манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича раҳбарий тамойиллар, деб номланган (1985 йил 9 апрелдаги 39/248 сонли Резолюцияси)да, Европа иқтисодий ҳамжамиятининг қонунчилик дастурида, Ўзбекистон Республикасининг Истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисидаги Қонунида (қонуннинг 4-моддаси) ўз аксини топган.

Мазкур ҳуқуқ истеъмолчининг ҳар қандай товар сифати ва хавсизлигига нисбатан муайян талабларни ифодалаши имкон беради. Бошқача айтганда, истеъмолчи товар сифатига оид маълумотлар билан танишишга, товарнинг хавфсиз эканлигини текширишга ҳақли эканлиги ва унинг бу талаби ишлаб чиқарувчи ёки сотувчи томонидан бажарилиши лозимлигини англатади. Шу боис товар ишлаб чиқарувчилар товар сифатини белгилайдиган муайян қоидалар, талаблар ва шартларга риоя этишлари лозим бўлади. Амалиётда товар сифатида аниқлаш ва белгилаш кўрсаткичлари ва

мезонлари мавжудки, товарнинг бундай мезонлар, кўрсаткчилар ва талабларга риоя этилган ҳолда ишлаб чиқилганлиги унинг сифати даражасини аниқлайди [1]. Қоидага кўра, товар сифатига оид маълумотларнинг ҳар бир товарнинг сифат сертификатида ифодаланади. Сифат сертификати товарнинг таркибий тузилишини ифодалайди ва унинг шу турдаги товарларга қуйиладиган талабларга мос ёки мос эмаслигини аниқлаш имконини беради.

Сифат сертификатида товар тўғрисидаги бошқа маълумотлар: товарни ишлаб чиқарувчи, зарур ҳолатларда мурожаат этиш манзили, товарнинг стандартлаштириш талабларидан ўтганлиги, айрим ҳолатларда ундан фойдаланишга оид айрим кўрсатмалар бўлади. Айрим турдаги товарларнинг сифати сертификатида эса товардан фойдаланиш муддати (яроқлилик муддати) ҳақидаги маълумот ҳам мавжуд бўлиши мумкин. Амалдаги Фуқаролик кодексида товарнинг сифати хусусида бир қатор қоидалар белгиланган. Жумладан, ФКнинг товар сифати деб номланган 402-моддаси 1-қисмида белгиланишича, Сотувчи сотиб олувчига сифати олди-сотди шартномасига мос келадиган товарни топшириши шарт. Бошқача айтганда, сотиб олувчи – харидор ва айни пайтда истеъмолчига топширилаётган товар тарафлар ўртасида тузилган олди-сотди шартномасида назарда тутилган товар сифатига мос бўлиши керак.

Бу эса ўз-ўзидан товарнинг сифати шартнома шартларидан ҳам англашилиши мумкинлигини кўрсатади. Ҳар қандай ҳолатда ҳам сотувчининг истеъмолчига топширган товари сифатли бўлиши ва унинг сифати тарафларнинг ўзаро келишувидан англашилиши лозим. Агар сотувчи ва истеъмолчи ўртасидаги келишуви сифати юқори бўлмаган, муайян камчилик ва нуқсонларга эга бўлган товарни паст баҳода сотишга келишилган бўлса-ю, кейинчали истеъмолчи ўзига сифати лозим даражада бўлган товарни топширишни талаб қилса, бу ҳолатда истеъмолчи ноҳақ ҳисобланади. Чунки, бу ҳолатда сотувчи истеъмолчига ФКнинг 402-моддаси 1- қисми қоидаларидан келиб чиқиб, сифати олди-сотди шартномасига мос бўлган товарни топширган ва унга шу ҳолатдан келиб чиқиб нарх белгилаган бўлади. Қоидага кўра, олди-сотди шартномасида товарнинг сифати

тўғрисидаги шартлар кўрсатилмаганда, сотувчи сотиб олувчига белгиланган мақсадлар учун яроқли бўлган товарни топшириши шарт 86 (ФКнинг 402-моддаси 2-қисми). Мутахассисларнинг фикрича, агарда сотиб олувчи шартномада товарнинг махсус сифати тўғрисида шарт қўйилган бўлса, айни ҳолда товарнинг сифати бу турдаги товарлар одатда қайси мақсадларда фойдаланиш учун мўлжалланса, айни шу мақсадларда фойдаланишга яроқли бўлиши лозим. Бунда товарни тайинланиш мақсади бўйича фойдаланиш мумкин бўлган умумий сифатга эга бўлиши кифоя [2].

Харидор ноозиқ-овқат товар унга берилган пайтдан бошлаб 10 кун мобайнида, агар бундан узоқроқ муддат сотувчи томонидан эълон қилинмаган бўлса, сотиб олинган товарни айнан шундай ўлчам, шакл, габарит, фасон, рангдаги ёки комплектациядаги бошқа товарга харид қилинган жойда ва сотувчи томонидан эълон қилинган бошқа жойларда нархида тафовут бўлган тақдирда сотувчи билан зарур ҳисоб-китоб қилган ҳолда алмаштиришга ҳақлидир. Хулоса сифатида айтган, Конституциямизда белгиланган истеъмолчи ҳуқуқларининг устунлиги қоидаси амалдаги қонун ҳужжатларида тўлиқ ўз ифодасини топган ва мазкур Конституциявий қоида ҳуқуқни қўллаш амалиётида ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Дмитриев М.А. К вопросу о способах защиты прав покупателя по договору розничной купли-продажи. //Юрист. - 2013. - №9;

2.Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ. 2-жилд. –Т.: Baktria press, 2013

МУҚАДДАС АХМЕДОВА,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети профессори, ю.ф.д.,

Н.МУИНОВА,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси

ЎЗБЕКИСТОН АЁЛ ҲУҚУҚЛАРИ ВА ЭРКИНЛИКЛАРИНИНГ ТАЪМИНЛАНИШИНИНГ ҚОНУНИЙ АСОСЛАРИ

Аннотация. Ўзбекистонда аёл ҳуқуқларининг ҳимоясининг ҳуқуқий асослари, хотин-қизларга яратилиб берилаётган шароитлар ва бугунги кунда жамиятимизда тутган ўрни ҳақида сўз юритилган. Бундан ташқари, хотин-қизлар учун ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларида муносиб шарт-шароитларини яратиш, аёлларнинг оила ва жамият ҳаётидаги ўрни ва нуфузини юксалтириш, уларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан бирига айлангани таъкидланган.

Калит сўзлар. Аёл, оила, оилавий муносабат, аёл ҳуқуқи, инсон ҳуқуқлари, гендер тенглиги, хотин-қизлар ҳуқуқлари, аёлларнинг ҳуқуқий муносабати, аёлларнинг ижтимоийлашуви, сиёсий ҳаётдаги ўрни.

ПРАВОВАЯ ОСНОВА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВ И СВОБОД ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. Правовые основы защиты прав женщин в Узбекистане, условия, созданные для женщин и их роль в нашем обществе сегодня. Кроме того, отмечено, создание подходящих условий для женщин во всех сферах общественной жизни, повышение роли и влияния женщин в семейной и общественной жизни, защита их прав стало одним из важнейших направлений государственной политики.

Ключевые слова. Женщина, семья, семейные отношения, права женщин, права человека, гендерное равенство, права женщин, правовое обращение с женщинами, социализация женщины, роль в политической жизни.

LEGAL FRAMEWORK FOR ENSURING WOMEN'S RIGHTS AND FREEDOMS IN UZBEKISTAN

Annotation. Legal basis for the protection of women's rights in Uzbekistan, the conditions created for women and their role in our society today. In addition, it was noted that the creation of suitable conditions for women in all spheres of public life, increasing the role and influence of women in family and public life, and protecting their rights have become one of the most important areas of state policy.

Keywords. Woman, family, family relations, women's rights, human rights, gender equality, women's rights, legal treatment of women, socialization of women, role in political life.

Янгиланаётган Ўзбекистонда давлат ва жамият томонидан хотин-қизларнинг ижтимоий ҳаётдаги иштироклари, оилани ҳар томонлама ривожлангтириш, ёшлар тарбиясида оиланинг ва оналарнинг ўрнини янада юксалтириш каби қадриятларга муҳим эътибор берилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва амалдаги қонунларнинг барчасида аёлларнинг у ёки бу ҳуқуқлари, ижтимоий турмуш тарзи ҳимоя қилинишининг ўзи ҳам бу соҳага катта аҳамият берилаётганлигини англатмоқда. Шунга қарамай, хотин-қизлар аҳволи бугунги кунда ҳам бирмунча мураккаб бўлиб, бу соҳада айрим камчиликлар мавжуддир. Айниқса, бугунги кунда гендер тенглик, хотин-қизларни турли тазйиқ ва зўравонликлардан асраш, уларнинг жамиятдаги нуфузи юксалтириш масалалари муҳим аҳамият касб этмоқда.

Мустақилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб Ўзбекистон Республикаси ҳукумати, республика вазирлик ва идоралари, жамоат ташкилотлари томонидан хотин-қизларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, уларнинг мамлакат ижтимоий-сиёсий, социал-иқтисодий ҳаётидаги тўлақонли иштирокини таъминлаш юзасидан муайян ишлар олиб борилмоқда.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёеа Бирлашган Миллатлар ташкилоти Бош ассамблеясининг 78-сессиясидаги нутқида “Хотин-қизларнинг

жамият ва давлат бошқарувида фаол иштирок этиши бугунги куннинг долзарб масаласидир. Миллий сиёсатимиз марказида турадиган энг эзгу мақсад – оилалар мустаҳкамлигини, аёлларимизнинг ҳуқуқий ҳимояси ва осойишта ҳаётини таъминлашдан иборат”[1], - деб таъкидлаган.

Ўтган йиллар давомида бир қатор қонун, қарор ва фармонлар қабул қилиниб, уларда белгиланган вазифалар амалга тадбиқ этилди. Хусусан, хотин-қизларнинг оилада, давлат ва жамият қурилишидаги ролини кучайтириш, уларнинг ҳуқуқий, ижтимоий, иқтисодий ва маънавий манфаатларини ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш, хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликлардан асрашга қаратилган профилактика ишларини кучайтириш, уларни ижтимоий-ҳуқуқий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, оналик ва болаликни муҳофаза қилиш, аёлларни касбий, жисмоний, маънавий ва интеллектуал савиясини юксалтириш, соғлиғини сақлаш, соғлом оилани шакллантириш, аёллар ва оила спортини ривожлантириш, соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш, хотин-қизларни иш билан таъминлаш масалаларини ҳал этиш, айниқса, қишлоқ жойларида уларнинг меҳнат ва ўқиш шароитларини яхшилаш, аёлларни тадбиркорлик фаолиятига жалб этишга қаратилган дастурларни тайёрлаш ва амалга ошириш, хотин-қизларнинг нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятини мувофиқлаштириш ва улар билан самарали ҳамкорликни таъминлаш, бу ташкилотларнинг саъй-ҳаракатларини жамиятни модернизациялаш ва демократик янгилаш жараёнларида, Ўзбекистонда давлат ва жамият қурилиши хотин-қизларнинг ролини кучайтириш бўйича бир қатор чора-тадбирлар амалга оширилди.

Ҳозирги фуқаролик жамияти ва ҳуқуқий давлат қуриш жараёнларида аёлларнинг мавқеи ва нуфузини юксалтириш мақсадларида давлат ва унинг органлари, нодавлат нотижорат ташкилотлар, бошқа жамият институтлари қуйидаги йўналишларда чуқур ўзгартиришларга доир ислоҳотларни олиб бормоқда:

- оилани режалаштиришни ижтимоий вазифа даражасига кўтариш орқали аёлларнинг саломатлигини яхшилашнинг кенг тадбирларини ишлаб чиқиш;

- аёлларнинг маълумоти, касбий ва функционал саводхонлигини ошириш;

- аёлларнинг иқтисодий фаолиятини, айниқса тадбиркорлик ташаббуси ва фаолиятини амалда ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш;

- атроф муҳитни ҳимоя қилишда аёллар мавқеини ошириш, аёл жинсидаги экологик таназзул жараёнларини камайтириш;

- сиёсий жараёнларда, қонунлар ва қарорлар қабул қилишда, уларнинг ижросини таъминлашда аёлларнинг кенг иштирокини таъминлаш;

- қизларнинг ижтимоий ҳаётда фаол иштирокини таъминловчи махсус дастурлар ишлаб чиқиш;

- аёлларга нисбатан камситишлар, тазйиы ва зўравонликларнинг ҳар қандай кўринишига чек қўйиш учун махсус ҳуқуқий механизмлар ишлаб чиқиш.

Шуни қайд қилиш керакки, бугунги кунда хотин-қизларимизнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишда “Аёллар ижтимоий мослашув марказлари” муҳим аҳамият касб этмоқда.

Ушбу марказлар аёлларни турли вазиятларга тушиб қолганида руҳий ва психологик ёрдам кўрсатади. Бундан ташқари “Аёллар маслаҳат маркази”, “Аёллар ва болаларни ижтимоий ҳимоялаш” марказларининг ташкил этилгани хотин-қизларга кўрсатилаётган эътибор ва ғамхўрликнинг яна бир ёрқин ифодаси бўлди. Зотан, мазкур марказлар хотин-қизлар ўртасида тиббий маданиятни ошириш, уларнинг қонуний манфаатлари, ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, оила институтини ривожлантириш каби эзгу мақсадларга хизмат қилаётир.

Марказларда соғлом турмуш тарзини кенг тарғиб қилиш, хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан, турли ёт иллатлар таъсиридан асраш, қизларни миллий қадриятларимизга таянган ҳолда тўғри тарбиялаш, яқин қариндошлар ўртасидаги ва эрта никоҳнинг салбий оқибатларига бағишланган маънавий-маърифий тадбирлар мунтазам ўтказилмоқда.

«Ижтимоий фикр» жамоатчилик фикрини ўрганиш маркази томонидан «Ўзбекистон аёллари – 2017: ижтимоий мавқе ва кайфият»

мавзусида ўтказилган сўровда Ҳаракатлар стратегияси доирасида қабул қилинган аёлларнинг ижтимоий мавқеини юксалтиришга йўналтирилган чора-тадбирларнинг нечоғли самара бераётгани аниқланди. Шунингдек, аёлларнинг ижтимоий эҳтиёжлари ва мақсадлари ўрганилди. Шаҳар ва қишлоқ жойларда яшайдиган турли миллат, ижтимоий гуруҳга мансуб, ишлаб чиқаришнинг турфа соҳа ва жабҳаларида фаолият юритаётган 18 ва ундан катта ёшдаги аёллар қатнашган сўров натижалари аёлларнинг мамлакатимиз ижтимоий-иқтисодий тараққиётига муносиб ҳисса қўшаётгани, ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва маданий ҳаётнинг барча жабҳаларида фаолият юритаётгани, давлат идоралари ва жамоат ташкилотлари ишида фаол иштирок этаётганини кўрсатди. Тадқиқот натижаларига кўра, сўнгги йилларда аёлларнинг ўзларининг ҳуқуқий ҳимояланганига ишончи ортган. Респондентларнинг 81,1 фоизи ҳуқуқлари бузилса давлат, ижтимоий ва фуқаролик институтларидан кўмак олиши мумкинлигини билдирган.

Давлатимизнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясига асосланган мустаҳкам ҳуқуқий базаси аёлларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари самарали таъминланишини кафолатлайди. Гендер тенгликнинг таъминланиши аёлларнинг турли жабҳаларда меҳнат қилинишида ифодасини топган. Иштирокчиларнинг аксарияти аёллар уйдан ташқарида ҳақ тўланадиган ишга эга бўлиши лозим, деб ҳисоблайди. Бу аёлга оиланинг моддий фаровонлигига ҳисса қўшиш билан бирга, иқтисодий жиҳатдан мустақил бўлиш имконини тақдим этади. Тадқиқотлар аёлларнинг у ёки бу меҳнат фаолияти билан шуғулланишининг асосий сабабини аниқлади.

Респондентларнинг 41,7 фоизи маълумоти ва малакасига мос касбда фаолият юритади, 30 фоизини касбига хос ижодий хусусият жалб этган, улар ўзларини қизиқтирган фаолият билан машғул, ҳар ўнинчи аёл эса ишда ва оилада ўз мажбуриятини уйғунлаштириш учун эркин жадвал асосидаги иш ўринларини танлаган. Сўровда қатнашган аёлларнинг кўпчилиги ўзини фаолият турини ўзгартиришга, янги касбни эгаллашга қодир, деб ҳисоблайди. Ўзига бўлган ишонч туфайли меҳнат муносабатлари фаоллашган

респондентларнинг аксариятини ёшлар ташкил этади. Ўтказилган сўров натижасида Ўзбекистон аёлларининг фаол ишбилармонлик фаолиятига жиддий қизиқиши маълум бўлди: иштирокчиларнинг 20,2 фоизи тадбиркор сифатида фаолият юритади, 24,2 фоизи эса ўз ишини бошлаш истагида. Иштирокчиларнинг ҳаётдаги асосий мақсади оила қуриш, унинг фаровонлигини мустаҳкамлаш, фарзанд тарбияси, уларни мустақил ҳаётга тайёрлашдан иборатдир[2].

2021 йил 26 феврал куни бўлиб ўтган хотин-қизларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш ва муаммоларини ҳал қилиш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилишида хотин-қизларни ишга жойлаштириш, уларга ижтимоий, тиббий в психологик ёрдам кўрсатиш, ажралишлар олдини олиш бўйича чора-тадбирлар муҳокама қилинди. Президентимиз Ш.Мирзиёев: “Энг мураккаб масалалар хотин-қизларимизга тегишли...”, деб, яна бир бор таъкидладилар. Олий Мажлисга юборилган мурожаатномада давлатимиз бошлиғи Республика жамоатчилик аёллар кенгашини тузиш таклифини киритган эдилар[3]. Расмий релизга кўра, бугунги кунда 1 400 га яқин аёл республика ва вилоятлар, 43 мингдан зиёди туман ва шаҳарлар даражасидаги раҳбарлик лавозимларида ишламоқда. Талабаларнинг 48 фоизи – хотин-қизлар. Ўтган йили йўлга қўйилган тизимга мувофиқ, 950 нафар ижтимоий ҳимояга муҳтож қиз ОТМга давлат гранти асосида ўқишга қабул қилинди. Хотин-қизлар муаммоларини ўрганиш ва манзилли ҳал этиш мақсадида «аёллар дафтари» жорий этилди. Бу дафтарга 9 та мезон асосида 433 минг нафар хотин-қиз киритилиб, электрон база шакллантирилди. Бугунги кунгача уларнинг 80 мингининг муаммолари ҳал этилган, дейилади хабарда. Йиғилишда аёлларни иш билан таъминлаш, ижтимоий қўллаб-қувватлаш, уларга тиббий ва психологик ёрдам қамровини кенгайтириш, оилавий ажралишларнинг олдини олиш чоралари муҳокама қилинди. «Энг оғир, мураккаб масалаларимиз аёллар бўйича.

Халқимизнинг талаби ўсиб боряпти. Биз шу талабларга муносиб шароит яратиб беришимиз керак. Буни чуқур ҳис қилмаган одам раҳбар бўлиб ишлолмайди», – деди Шавкат Мирзиёев[4].

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2020 йил 12 февраль куни маҳалла тизимини такомиллаштириш, маҳаллаларда тинчлик-осойишталикни мустаҳкамлаш, жиноятчиликнинг олдини олиш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши ўтказилди. Унда бир қатор масалалар, хусусан, оила ва маҳаллалардаги ҳолат, хотин-қизлар билан ишлаш каби муаммолар кўтарилди. Таъкидланганидек: “маҳаллаларда 18 мингдан ортиқ ходим фаолият кўрсатиб келаётган бўлса-да, уларнинг иши самарали ташкил этилмаган. Оилаларда ижтимоий-маънавий муҳитга салбий таъсир кўрсатувчи ҳолатларнинг олдини олиш бўйича тизим йўлга қўйилмаган. Оқибатда айрим маҳаллаларда нотинч оилалар, ҳуқуқбузарликлар кўпайган. Шунингдек, хотин-қизлар ва вояга етмаганлар орасида ўз жонига суиқасд қилиш ҳолатлари учраётгани жуда ачинарли”. Йиғилишда оилавий ажримлар, ёшлар саломатлиги, эрта туғруқлар, маънавий-ахлоқий тарбия билан боғлиқ муаммолар кўрсатиб ўтилди[5].

“Оила – муқаддас” деган азалий ва эзгу ғоя қадрсизланиб, минг йиллик миллий қадриятларимиз завол топар экан, бу каби оғриқли ҳолатларни камайтириб бўлмайди. Бунинг учун маҳалла катта ижтимоий куч сифатида майдонга чиқиши керак. Чунки фаоллар, кўпни кўрган оқсоқоллар, тажрибали нуронийларимиз, агар истаса, жамоатчилик билан биргаликда ҳар қандай муаммони ҳал қилишга, хато қилган ёшларни тўғри йўлга солишга қодир”, – деди Шавкат Мирзиёев.

Маҳалла тизимида кадрлар қўнимсизлиги одатий ҳолга айланган. Маҳалла ходимларини уларга боғлиқ бўлмаган ишлар, йиғилиш ва бошқа тадбирларга жалб қилиш тақиқланган бўлса-да, бу борада сезиларли ўзгариш бўлмаяпти[6].

Ҳақиқатдан ҳам, маҳаллалардаги ходимлар фаоллигини кучайтириш, уларга кўмаклашувчи кўнгиллилар гуруҳларини тузиш, маҳаллалардаги оилалар, айниқса, хотин-қизларнинг аҳволини ўрганиш керак. Хотин-қизларимизнинг тазйиқ ва зўравонликларга дуч келмаслиги учун оилаларда тушунтириш ишлари, эркаклар билан суҳбатлар олиб бориш мақсадга мувофиқ бўларди. Зеро, оила тинч

бўлса, жамият ҳам тинч бўлади, оила бахтли бўлса, жамият ҳам бахтли бўлади.

Хулоса тариқасида шуни таъкидлаш жоизки, бугун жамиятнинг деярли ҳеч бир муаммосини, ҳатто келажаги буюк давлат қуриш вазифасини ҳам аёллар иштирокисиз ҳал қилиш мушкул.Келажаги буюк давлат қуриш борасида биз, энг аввало, ёш авлодга таянамиз.

Фарзандни камолга етказиш оилавий тарбияни тўғри йўлга қўйишдан бошланади. Оиладаги ўғил-қизларимизнинг қандай инсонлар бўлиб етишиши ҳаммадан бурун аёлларимизга боғлиқ.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар ташкилоти Бош ассамблеясининг 78-сессиясидаги нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси 2023 йил 20 сентябрь.

2. Ижтимоий сўровнома: Ўзбек аёлларининг ишбилармонлик фаоллиги ошди // Даракчи.25.01.2018. http://darakchi.uz/uz/42800

3. Мирзиёев назвал проблемы, с которыми сталкиваются женщины https://kun.uz/ru/news/2021/02/26/mirziyoyev-nazval-problemy-s-kotorymi-stalkivayutsya-jyenshchiny

4. Хотин-қизларга ҳар томонлама кўмаклашиш бўйича вазифалар белгиланди // https://kun.uz/news/2021/02/26/xotin-qizlarga-har-tomonlama-komaklashish-boyicha-vazifalar-belgilandi

5. Алибеков У.Ю., Маматов Ш.М. Ўзбекистон хотин-қизлари нуфузини ошириш йўллари. Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликлардан ҳимоя қилишнинг маънавий-ҳуқуқий асослари мавзусидаги халқаро илмий-амалий масофавий конференция материаллари. – Т. 2022. – Б. 182-187.

6. Президент йиғилиши: Ўзбекистонда Маҳалла ва оила масалалари вазирлиги ташкил этилади. 12.02.2020 // https://kun.uz/news/2020/02/12/prezident-yigilishi-ozbekistonda-yangivazirlik-tashkil-etish-taklifi-bildirildi

O‘TKIRBEK DAVLETOV,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘ining o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik

KONSTITUSIYA – MILLIY BIRLIK ASOSI

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishida Yangilangan Konstitusiyamizning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangilangan Konstitusiya, inson – jamiyat – davlat, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat, qonun ustuvorligi.

КОНСТИТУЦИЯ – ОСНОВА НАЦИОНАЛЬНОГО ЕДИНСТВА

Аннотация: В статье освещаются специфические аспекты нашей обновленной Конституции в создании долгосрочных стратегий развития страны, прочной правовой основы и надежных гарантий завтрашнего благополучия нашей страны и народа.

Ключевие слова: Согласно обновленной Конституции, человик-общество-государство, суверен, демократия, правовое, социальное и светское государство, верховенство закона.

THE CONSTITUTION IS THE BASIS OF NATIONAL UNITY

Annotation: The article highlights the specific aspects of our updated Constitution in creating long-term strategies for the development of the country, a solid legal framework and reliable guarantees for the future well-being of our country and people.

Keywords: According the updated Constitution, man-society-state, sovereign, democracy, legal, social and secular state, rule of law.

Konstitusiya asrlar davomida shakllangan milliy g‘oya va sharqona qadriyatlar aks etgan oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan, huquqni hamma tarmoqlari uchun qonunchilik bazasi hisoblangan, bir so‘z bilan aytganda, davlatni o‘ziga xos tanishtiruv hujjatidir.

Konstitusiya huquqiy davlatning asosiy belgisi hisoblanib, inson

huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjatlar talablariga to‘la mos holda mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy salohiyati yuksaltirishga hamda hayotimizning barcha jabhalarida amalga oshirilgan samarali islohotlarga asos bo‘lib, inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini kafolatlab beradi. Bu esa jamiyat a’zolarini o‘zaro kelishib, tinch-totuv, bahamjixat yashashlarini ta’minlash uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, har qanday davlatning dunyo mamlakatlari orasidagi nufuzi, mavqei, obro‘-e’tibori va salohiyati iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti bilan bir qatorda, qonunchilik va ularni amalga tadbiq etish jarayoni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi hamda fuqarolarni mavjud qonunchilikka munosabati bilan ham belgilanadi.

Jamiyatni qonun boshqarmas ekan, boshboshdoqlik, firibgarlik, aldov, poraxo‘rlik, tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik, mahalliychilik, ta’magirlik va boshqa ko‘plab illatlar tomir otadi. Bunday jamiyatda adolat o‘rnatish qiyindan-qiyin masala bo‘lib qolaveradi. G‘arb jamiyati buni asrlar davomida boshidan kechirgan. Yakunda, qonun, qonun va yana qonun deb xulosaga kelgan.

Amir Temur o‘z tuzuklarida – davlatni boshqarish qoidalari majmuida – bunday bashorat qilgan edi: “Zaruriy tartibot va qoidalarga rioya qilish taqdirim va muvaffaqiyatlarimning negizi bo‘ldi”.

Shu o‘rinda, florensiyalik yozuvchi, siyosatchi va huquqshunos olim Donte Aligeri shunday degan edilar: “Agar qonunlar bu qonun ostida bo‘lganlar baxt-saodatiga qaratilmagan bo‘lsa, ular nomigagina qonun hisoblanadi”. Zero, qonunlar odamlarning umumiy foydasi uchun ularni bir-biri bilan bog‘lashi kerak. U yana jamiyat hayotini tartibga soladigan eng zarur vosita bo‘lishi kerakligini alohida uqdiradi. Huquqiy tartibot adolat bilan bog‘lanishi kerak.

Tabiat qonun bilan yashar va yashnar ekan, inson ham qonun asosida kun kechirishga majbur. Chunki, inson ehtiyojlari cheksiz va behududki, agar yashashning maqbul qonun qoidalari ishlab chiqilmasa va unga amal qilinmasa, dunyoni jaholat egallaydi, odamlarning o‘rtasida vaxshiylik kuchaygandan kuchayadi. Shunday ekan, qonun insonning istagidan qat’i nazar uni tan olishga majbur qiladigan oliy kuch ekanligini unutmasligimiz

kerak.

Sir emas, o‘tgan davr ichida konstitusiyamiz jiddiy hayot sinovlaridan o‘tdi, halqimiz hayotida muhim bo‘lgan bu hujjatga kiritilgan 15 ta o‘zgartish va qo‘shimchalar asosida asrlar davomida yuz berishi mumkin bo‘lgan tengsiz o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Inson huquqlari muammosi bugungi kunda dunyo hamjamiyati oldida turayotgan eng dolzarb muammolardan biri sifatida, aynan inson huquqlarining ta’minlanganganlik darajasi bilan davlatning demokratik rivojlanganlik darajasi o‘lchanadi, inson huquqlari muayyan bir mamlakatda demokratik-huquqiy davlat barpo etish siyosatining o‘ziga xos parometridir. Zero, inson huquqlarini ta’minlash jamiyatning barcha jabhalardagi taraqqiyotning asosi, chunki inson huquqlari ta’minlangan jamiyatda raqobat muhiti paydo bo‘ladi, ijobiy o‘zgarishlar va yangilanishlar sur’atlari jaddalashadi, pirovardida suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish bo‘yicha strategik maqsadga erishiladi.

Ayni maqsad yo‘lida, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023 yilning 20 iyun kuni Konstitusiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda yangi Konstitusiya loyihasini qabul qilish uchun referendum o‘tkazilishini va unda fuqarolarning huquq va erkinliklari yo‘nalishida, tadbirkorlik va yerga oid masalalar, sud-huquq sohasida, davlat boshqaruvi, tashqi siyosat, oila instituti, ta’lim, tibbiyot, ekologiya, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlariga oid normalar hisobga olinishini taklif etdi. Shuningdek, prezident Konstitusiyaga kambag‘allikni qisqartirishni va ijtimoiy himoya bo‘yicha qator normalar kiritishni ham ilgari surdi.

Bu safar o‘zgarishlar qo‘lami kattaligi sababli hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Bir so‘z bilan aytganda, yangi tahrirdagi konstitusiya 65 foizga yangilandi.

Yangilanishning ijobiy tamonlarini quyida keltirilgan tahrirlar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi matnida respublika so‘zi – 390/470, O‘zbekiston – 354/444, qonun – 210/294, davlat – 98/174, huquq – 90/156, konstitusiya – 70/97, fuqaro – 66/87, Prezident – 62/72, shaxs – 32/70, erkinlik – 27/35, xalq –

24/62, inson – 9/41, yoshlar – 1/6 marotaba qo‘llangan.

Albatta, konstitusiya davlatni davlat, millatni millat sifatida qadrlaydigan bosh qomus, davlatning asosiy hujjati. Unda, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat sifatida kafolatlanadi. Davlat boshqaruvi, hukumat organlari faoliyatining tartib-tamoyillari inson – jamiyat – davlat farovonligiga asoslanadi.

Shu nuqtai-nazardan, yangilangan Konstitusiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Biz buni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023 yilning 20 iyun kuni Konstitusiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda e’tibor qaratgan to‘rtta ustuvor yo‘nalish misolida ham kuzatishimiz mumkin. Bular:

birinchi yo‘nalish, inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlari masalasi;

ikkinchi yo‘nalish, “O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” g‘oyasi;

uchinchi yo‘nalish, Konstitusiyada mahallaning maqomini hamda davlat organlarining bu boradagi vazifalarini aniq belgilash;

to‘rtinchi yo‘nalish, mamlakatimizda davlat boshqaruvini takomillashtirish, xalq hokimiyatchiligini kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, asosiy qonunimiz o‘zida nafaqat xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettirgan, balki unda yangilikning eskilik ustidan, erkinlikni zo‘ravonlik ustidan, adolatning haqsizlik ustidan, taraqqiyotning tanazzul ustidan g‘alabasi muhrlangan. U tom ma’noda xalqimiz tafakkuri va ijodi mahsulidir. Muxtasar aytganda, inson huquqlariga oid xalqaro prinsip va standartlarni o‘zida mujassam etgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining normalari va prinsiplari milliy qonunchilik negizini tashkil etdi hamda yurtimizda inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilishning barqaror huquqiy asoslarini yaratishda mustahkam poydevor bo‘ldi.

ГЎЗАЛ НУРМУҲАММЕДОВА,
доцент, ю.ф.ф.д. (PhD),

Ф.АМОНОВ,
мустақил изланувчи

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ КОНСТИТУЦИЯСИДА ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация: Мақолада республикада амалга оширилган конституциявий ислоҳотлар, уларнинг жамият ривожига бўлган ижобий таъсири, айниқса, жадаллик билан ривожланиб бораётган жамоатчилик назорати институти, уни амалга оширишнинг конституциявий ҳуқуқий асослари, Янги таҳрирдаги Конституцияда берилган кенг кўламдаги ваколатлар тўғрисида фикрлар билдирилган.

Калит сўзлар: Конституция, фуқаролик жамияти, жамоатчилик назорати, ошкоралик.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ В КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: В статье комментируются проводимые в Республике конституционные реформы, их положительное влияние на развитие общества, особенно динамично развивающийся институт общественного контроля, конституционно-правовая база для его реализации, широкий спектр полномочий, предоставленных в новой редакции Конституции.

Ключевые слова: Конституция, гражданское общество, общественный контроль, прозрачность.

SOME ISSUES OF PUBLIC CONTROL IN THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: The article comments on the constitutional reforms carried out in the Republic, their positive impact on the development of society, especially the dynamically developing institution of public control, the

constitutional and legal framework for its implementation, a wide range of powers granted in the new version of the Constitution.

Keywords: Constitution, civil society, public control, transparency.

Маълумки ҳар бир давлат хизматчиси ўз фаолияти доимий назорат остида эканини чуқур ҳис этиб бориши ҳуқуқий демократик давлат қуришнинг асосий шартларидан бири ҳисобланади. Айниқса, бундай назоратни бевосита халқнинг, жамоатчиликнинг ўзи олиб бориши жуда ҳам муҳим саналади.

Ўтган давр мобайнида мамлакатимизда мустақил фуқаролик институтларини ривожлантириш ва мустаҳкамлаш, уларнинг эркин фаолияти кафолатларини таъминлаш, давлат органларининг фуқаролар билан яқин ҳамкорлигини йўлга қўйиш, уларнинг очиқ, шаффоф ва ошкора фаолият кўрсатишини таъминлаш, давлат органлари фаолияти устидан таъсирчан жамоатчилик назоратини ўрнатиш юзасидан комплекс ва изчил ишлар амалга оширилди.

Республикамизда амалга оширилиб келинаётган суд-ҳуқуқ ислоҳотлари натижасида жамоатчилик назоратининг маълум турларини амалга ошириш жараёнини тартибга солувчи қатор нормалар қабул қилинган.

Айнан шу жиҳатдан олиб қараганда мамлакатимизда «Жамоатчилик назорати тўғрисида»ги Қонуннинг қабул қилиниши фуқаролик жамияти институтлари томонидан жамоатчилик назорати ўрнатилишида мустаҳкам ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилди.

Зеро, фуқароларнинг фаоллиги, ижтимоий ҳодисаларга бефарқ бўлмаслиги ҳамда ҳар бир давлат хизматчисининг ўз фаолиятини жамоатчилик назорати остида эканлигини чуқур ҳис этиб бориши фуқаролик жамиятини мустаҳкамлашнинг муҳим шартидир. Зеро, давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев «Одамларимиз давлат органлари, шунингдек, ўзлари сайлаган вакиллар нима билан шуғулланаётганини билишлари, уларнинг фаолиятига холисона баҳо бера олиши учун барча имкониятларни яратишимиз даркор»[1] лигини таъкидлаган эдилар.

Ҳуқуқий давлатнинг энг муҳим белгиларидан бири бу – жамият ва давлат ҳаётида қонун устуворлигининг сўзсиз тан олиниши, жамият аъзолари ўртасида юзага келадиган барча муносабатларда қонунга итоат ва ҳурмат руҳининг мавжудлигидир.

У.Э.Фозиловнинг фикрича, бугунги кунда «қонунлар ижросини таъминлаш, мамлакатда қабул қилинган ва амалда бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ҳаётга жорий қилишда давлат ҳокимияти органлари фаолияти устидан жамоатчилик назоратини кучайтириш жамиятда конституция ва қонун устуворлигини таъминлашнинг асосий йўналишларидан биридир»[2].

Шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, коррупцияга қарши курашишда айнан қонуний усул ва воситалар алоҳида аҳамиятга эгадир. Қонунлар жамиятнинг барча соғлом кучларини бирлаштира олиш хусусияти билан бирга, фуқаролик жамияти институтлари ва жамоатчиликнинг давлат органлари фаолиятини назорат қилиш орқали коррупцияга қарши курашишда кенг иштирок этишларида кўмаклашади.

Давлат бошқарув органлари фаолияти устидан жамоатчилик назоратини қарор топтиришнинг дастлабки белгиларидан бири ҳам уни шакллантиришга хизмат қиладиган воситаларнинг ҳуқуқий асослари қай даражада яратилганлигига боғлиқдир. Ўтган вақт давомида Ўзбекистонда фуқаролик жамияти ва нодавлат нотижорат ташкилотлари учун қулай ҳуқуқий муҳит яратиш бўйича 20 га яқин қонун, Ўзбекистон Республикаси Президентининг ҳужжатлари ва Ҳукуматнинг қарорлари қабул қилинди. Яратилган ҳуқуқий асослар натижасида, мамлакатда нодавлат нотижорат ташкилотларнинг эркин ва барқарор ривожланиши янада жадаллашди. Хусусан, 1991 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра республикада 95 та ННТ фаолият кўрсатган бўлса, 2000 йилнинг 1 январига келиб уларнинг сони 2585 тага, 2016 йил 1 январь ҳолатига кўра эса – 8417 тага, ҳозирга кунда эса 9200 га яқинни ташкил этмоқда. Хусусан, сўнгги 5 йилда Ўзбекистонда нодавлат нотижорат ташкилотларининг сони 64,5 фоизга ошгани эса, амалга оширилган саъй-ҳаракатлар натижасини яққол намоён этмоқда[3].

Сўнгги беш йилда республикамизда коррупцияга қарши курашиш ҳамда жамоатчилик назорати институтини такомиллаштириш борасида бир қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди. Хусусан, Ўзбекистон Репсубликасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуни, Коррупцияга қарши кураш бўйича 2017-2018, 2019-2020, 2021-2022 йилларга мўлжалланган давлат Дастурлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2021-2025 йилларда фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги, «Коррупцияга қарши муросасиз муносабатда бўлиш муҳитини яратиш, давлат ва жамият бошқарувида коррупциявий омилларни кескин камайтириш ва бунда жамоатчилик иштирокини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги, «Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги, «Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида»ги фармонлари, «Ўзбекистон Республикаси коррупцияга қарши курашиш агентлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида», «Давлат бошқаруви соҳасида коррупциявий хавф-хатарларни бартараф этиш механизмларини такомиллаштириш ва ушбу соҳада жамоатчилик иштирокини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорлари ва бошқалар шулар жумласидандир. Ушбу ҳужжатларнинг барчасида коррупцияга қарши курашиш фаолиятида фуқаролик жамияти институтларининг ўрни муҳим эканлиги таъкидланган. Жумладан, Коррупцияга қарши кураш бўйича 2021-2022 йилларга мўлжалланган давлат Дастурининг 17-бандида «Давлат бюджети ҳамда шунингдек, халқаро молия институтлари маблағлари ҳисобидан молиялаштириладиган лойиҳаларнинг амалга оширилиши устидан самарали жамоатчилик назоратини ўрнатиш»[4] лозимлиги алоҳида мустаҳкамланган.

Хорижлик экспертларнинг фикрича, фуқаролик жамияти иштирокида янги қонунлар лойиҳаларини пухта ишлаб чиқишнинг бундай самарали механизми Ўзбекистонда одамларнинг фуқаролик фаоллиги ортиб бораётгани, уларнинг онгида жамиятимизда рўй

бераётган ижобий ўзгаришларга дахлдорлик туйғуси шаклланаётганидан ёрқин далолат беради. Мисол учун, Нотижорат ҳуқуқи халқаро маркази вице-президенти Натали Боржеллининг (АҚШ) эътироф этишича: «Халқаро жамоатчилик Ўзбекистонда амалга оширилаётган демократик ислоҳотларни катта қизиқиш билан кузатиб бормоқда. Ушбу ислоҳотлар жадал тус олиб, фуқаролик жамиятининг ривожланишига кўмаклашадиган қонунчилик янада такомиллашиб бораётганининг гувоҳи бўлмоқдамиз. Бунинг учун мамлакатингизда сиёсий эркинлик мавжудлиги катта аҳамиятга эгадир»[5].

Статистик рақамларга мурожаат этадиган бўлсак, Ўзбекистонда 2010-2016 йилларда қабул қилинган қонунларнинг мазмун-моҳияти ва асосий мақсадларидан келиб чиқиб таҳлил қилинганда, уларнинг 22,5 фоизи давлат ҳокимият ва бошқарув органлари фаолиятининг очиқлиги ва жамиятда демократияни шакллантириш, сайлов эркинлиги янада таъминланиши ҳамда сайлов қонунчилигини ривожлантиришга; 5,1 фоизи жамиятда қонунийликни, жамоат тартиби ва хавфсизликни таъминлаш, ҳуқуқ тартиботни мустаҳкамлаш ва ҳуқуқбузарликларга қарши курашни кучайтиришга қаратилган[2].

Олий ҳуқуқий кучга эга бўлган Конституция бевосита универсал ҳуқуқий ҳужжат сифатида давлат ҳудудида вужудга келадиган ҳуқуқий мезон ва керакли хулқ-атвор намунаси, шунингдек субъектив ҳуқуқ ва мажбуриятларнинг асосий манбаи ҳисобланади[6]. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 2-моддасида «... давлат органлари ва мансабдор шахслар жамият ва фуқаролар олдида масъулдирлар»[7] деб белгилаб қўйилган.

Хусусан, Конституциянинг 36-моддасига Ўзбекистон фуқароларининг жамият ва давлат ишларини бошқаришдаги иштироки давлат органларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини ривожлантириш ва такомиллаштириш йўли билан ҳам амалга оширилишини назарда тутувчи норма киритилди. Мазкур норма фуқароларнинг жамият ва давлат ишларини бошқаришдаги иштирокининг муҳим шакли бўлмиш жамоатчилик назоратининг

конституциявий асосини ташкил этади. Шунингдек, Конституциянинг 36-моддаси иккинчи қисми «Давлат органларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга ошириш тартиби қонун билан белгиланади»[7] деган мазмундаги норма билан тўлдирилди. Ушбу норма мамлакатимизда давлат органларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга оширишнинг қонунчилик асосларини ривожлантиришга хизмат қилиб келмоқда.

Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида фуқаролик жамияти институтлари фаолиятининг асосий қонун даражасида мустаҳкамланиши алоҳида диққатга сазовор. Хусусан, янги таҳрирдаги Конституциянинг 13-боби 69-75-моддалари фуқаролик жамияти институтлари, улар фаолиятининг кафолатларига бағишланган. Мазкур ўзгаришларнинг аҳамияти нимада кўринади?

Биринчидан, Янги таҳрирдаги Конституцияга илк бор “фуқаролик жамияти институтлари” ибораси киритилди (XIII боб).

Иккинчидан, жамоат бирлашмалари ва бошқа нодавлат нотижорат ташкилотлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, оммавий ахборот воситалари фуқаролик жамияти институтлари қаторида қайд этилди (69-модда).

Учинчидан, Вазирлар Маҳкамасига фуқаролик жамияти институтларини, қўллаб-қувватлаш чораларини амалга ошириш вазифаси юклатилди (115-модда).

Тўртинчидан, фуқаролик жамияти институтларига Ўзбекистон Республикаси бюджетининг шакллантирилиши ва ижро этилиши устидан жамоатчилик назоратини амалга ошириш ваколати берилди (148-модда)[7].

Қолаверса, давлат органлари ва мансабдор шахсларнинг нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятига аралашишига, шунингдек нодавлат нотижорат ташкилотларининг давлат органлари ва мансабдор шахслар фаолиятига аралашишига йўл қўйилмаслиги асосий қонун даражасида мустаҳкамланди.

Жамоатчилик назорати ҳуқуқий асосларининг конституциявий мустаҳкамланиши фуқаролик жамиятини ривожлантиришнинг

ташкилий-ҳуқуқий асосларини янада такомиллаштириш, нодавлат нотижорат ташкилотларининг роли ва аҳамиятини, ижтимоий фаоллиги ва фаолиятининг самарадорлигини оширишга, уни давлат ва жамият қурилишининг энг муҳим институтларидан бирига айланишига, жамиятда халқ ҳокимиятчилигини таъминлашнинг ҳуқуқий механизмларини кучайтиришга хизмат қилади. Ушбу янгиликлар жамиятда қонун устуворлиги ва қонунийликни таъминлашга, аҳоли турли қатламлари манфаатларининг янада тўлароқ ҳимоя қилинишига, фуқаролар, фуқаролик институтларини жамият ва давлат ишларини бошқаришга янада кенгроқ жалб этишга кўмаклашади.

Жамоатчилик назорати жамият ва давлат ўртасидаги муносабатни ифодаловчи ҳодиса бўлиб, у бу икки ижтимоий институт ўртасида оммавий ва хусусий манфаатлар мувозанатини сақлашга хизмат қилади. Ҳозирги замон давлат тузилмалари жамоатчиликнинг фаол назоратисиз амал қила олмайди. Жамоатчилик назорати фуқаролик жамиятини шакллантириш ва ҳуқуқий давлат қуришнинг зарурий шарти сифатида майдонга чиқади.

Таъкидлаш жоизки, жамиятда қонунлар ижросини таъминлаш, мамлакатда қабул қилинган ва амалда бўлган меъёрий ҳужжатларни ҳаётга жорий қилишда, давлат ҳокимияти оргнлари фаолияти устидан жамоатчилик назоратининг ролини ошириш муҳим аҳамият касб этади. Бинобарин, жааотчилик назорати давлат органлари фаолиятида қонунийлик ва инсон ҳуқуқлариги риоя этишни кучайтиришга хизмат қилиши билан бирга, фуқаролик жамиятининг етуклик даражасини ҳам кўрсатади.

Қолаверса, мамлакатимизда жамоатчиликнинг давлат органларининг фаолияти ҳақидаги ахборотга эга бўлиш ҳуқуқи қатор конституциявий қоидалардан келиб чиқади. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 33-моддасида, ҳар ким ўзи истаган ахборотни излаш, олиш ва уни тарқатиш ҳуқуқига эга эканлиги белгилаб қўйилган. Бош қомусимизда фуқароларнинг бу соҳада ҳуқуқларини белгилаб берувчи махсус нормалар ҳам мавжуд. Жумладан Конституциянинг 34-моддасига мувофиқ, “Ўзбекистон

Республикасининг барча давлат органлари, жамоат бирлашмалари ва мансабдор шахслари фуқароларга уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларига дахлдор бўлган ҳужжатлар, қарорлар ва бошқа материаллар билан танишиб чиқиш имкониятини яратиб бериши лозим”[8].

Ҳақиқатан ҳам, жамоатчилик назоратини самарали амалга оширишнинг муҳим шартларидан бири фуқароларнинг давлат органлари фаолиятига оид маълумотларга эга бўлиши ҳисобланади. Бу каби ахборотга ўз вақтида ва тўлиқ эга бўлиш, яъни жисмоний ва юридик шахсларнинг давлат органлари фаолиятига оид маълумотлардан фойдалана олиши, жамоатчилик назоратининг самарали бўлишини таъминлайди.

Хулоса қилиб айтганда, Конституция давлат ҳокимиятини шакллантириш, фаолиятини ташкил этишда конституция ва қонунларга риоя этилишининг асосий қоидаларини ифода этиш билан бирга, жамият ҳаётининг барча соҳаларидаги ижтимоий муносабатларининг ривожланиши, жамиятдаги тинчлик ва осойишталикни таъминланиши, инсонлар онги ва тафаккурининг маънавий ва маърифий юксалиши учун пойдевор ҳисобланади. Жамиятнинг давлат ва ундаги фуқаролар билан мунтазам алоқаси самарадорлигини таъминлаш, инсонларнинг манфаат ва қизиқишлари, уларнинг мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотларга муносабатини аниқлашнинг муҳим муҳим элементларидан бўлган давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолияти устидан жамоатчилик назорати институтини ҳаётга оғишмай тўғри татбиқ этиб бориш, фуқаролик жамиятини шакллантиришда муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Ресрубликаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрь кунидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2017 йил 23 декабрь. 258 (6952)-сон.

2. Фозилов У.Э. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини ривожлантиришнинг назарий ва ҳуқуқий асослари: Ўқув қўлланма. – Т. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016 – 80 б.

3. https://strategy.uz/index.php?news=1379

4. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2021 йил 7 июль

5. https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=2311

6. Қаранг: Конституционное право России / отв. ред. А.Н. Кокотов, М.И. Кукишкин – М., 2003. – С. 23.

7. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон

MOHINUR MUHAMMADIYEVA,

Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

YANGI KONSTITUTSIYADA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijadorligini oshirish ko‘p jihatdan yangilanishlarning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlash, jamiyat va davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish masalalari bayon etilgan. Shuningdek Yangi konstitutsiyadagi islohotlar ko‘lamida korrupsiya illati bilan bog‘liq konseptual masalalar tahlili keltirib o‘tilgan.

Bugungi kunda Yangi Konstitutsiyada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlardan kelib chiqib bir qancha ilmiy nazariy fikrlar va taklflar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi Konstitutsiya, Konstitutsiyada nazarda tutilgan korrupsiya xavfini kamaytirishga qaratilgan strategik yondashuv, fuqarolik jamiyati korrupsiyani oldini olishdagi roli, korrupsiya illati bilan bog‘liq konseptual masalalar.

МЕРЫ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СФЕРЕ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В НОВОЙ КОНСТИТУЦИИ

Аннотация: В статье описываются вопросы повышения

эффективности реформ, проводимых в нашей стране на новом этапе развития Узбекистана, укрепления конституционных основ реформ, коренного улучшения деятельности в сфере общества и государственного управления. в статье.

Концептуальные вопросы, связанные со злом коррупции, также были проанализированы в рамках реформ новой конституции. Сегодня в Новой Конституции проанализирован ряд научно-теоретических мнений и предложений, основанных на мерах, направленных на повышение эффективности деятельности в сфере противодействия коррупции.

Ключевые слова: Новая Конституция, стратегический подход, направленный на снижение риска коррупции, предусмотренный Конституцией, роль гражданского общества в предотвращении коррупции, концептуальные вопросы, связанные со злом коррупции.

MEASURES AIMED AT INCREASING THE EFFECTIVENESS OF ACTIVITIES IN THE FIELD OF COMBATING CORRUPTION IN THE NEW CONSTITUTION

Abstract: In the article, the issues of improving the effectiveness of the reforms being carried out in our country at the new stage of development of Uzbekistan, strengthening the constitutional foundations of the reforms, fundamentally improving the activities in the field of society and state administration are described in the article. Conceptual issues related to the evil of corruption have also been analyzed within the scope of reforms in the new constitution.

Today, in the New Constitution, a number of scientific theoretical opinions and proposals based on measures aimed at increasing the effectiveness of activities in the field of combating corruption have been analyzed..

Key words and phrases: The new Constitution, the strategic approach aimed at reducing the risk of corruption provided for in the Constitution, the role of civil society in preventing corruption, conceptual issues related to the evil of corruption.

Korrupsiyaga qarshi kurashish O‘zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylanib ulgurdi. Buni so‘nggi yilllarda sohaga oid

qabul qilingan konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan ma’muriy islohotlar misolida ham ko‘rish mumkin. Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda islohotlarining asosiy hujjati hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan Yangi Konstitutsiyasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatidan va zamon talablaridan kelib chiqib, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi faolligiga alohida e’tibor qaratilayotganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Shu sababli yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun ham hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida mehnat qilayotgan insonlar, birinchi navbatda, rahbarlar, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarni puxta bilishi, ularning ijrosini to‘g‘ri tashkil etishi, bu qoidalarga butun jamiyat a’zolari qat’iy amal qilishi shart bo‘lgan muhitni yaratish g‘oyat muhim va dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Xususan, korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining maqsadlari qatoridan joy oldi.

Bunga qadar 1992 yildan buyon konstititutsiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan edi. Endilikda o‘zgarishlar ko‘lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, olganda, konstitutsiya 65 foizga yangilangan[1].

Yangi konstitutsiyadagi islohotlar ko‘lamida korrupsiya illati bilan bog‘liq konseptual masalalar ham nazardan chetda qolgan emas. Unga ko‘ra:

Korrupsiyaga va monopoliyaga qarshi kurashish organlari rahbarlarini prezident taqdimiga binoan saylash Senatning vakolatiga

kiritildi. Senat, shuningdek, eng yuqori rangdagi sud mansabdorlarini saylaydi, bosh prokuror va Hisob palatasi raisligiga nomzodlarni ko‘rib chiqib ma’qullaydi, DXX raisligiga nomzod bo‘yicha prezident bilan maslahatlashuv o‘tkazadi, Markaziy bank raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, xorijdagi asosiy diplomatlarni tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi (bularning barchasi prezident taqdimiga binoan amalga oshiriladi). Bundan tashqari, Senat mahalliy kengashlarning qonunga zid qarorlarini bekor qilish vakolatiga ega bo‘ldi.

Umuman olganda bugungi kunda O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda ishlar olib borilmoqda: birinchi yo‘nalish – huquqiy asoslar yaratildi; ikkinchi yo‘nalish – institutsiyaviy tizimga asos solindi; uchinchi yo‘nalish – ta’lim tizimi shakllantirilib, ma’rifiy-axborot va targ‘ibot ishlari yo‘lga qo‘yildi; to‘rtinchi yo‘nalish – monitoring olib borilmoqda; beshinchi yo‘nalish – xalqaro hamkorlik amalga oshirilmoqda[2].

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashda davlat va nodavlat tashkilotlarning ijtimoiy hamkorligi tobora kuchaymoqda. Bu borada jamiyatning muhim ijtimoiy bo‘g‘ini hisoblangan mahalla institutiga alohida e’tibor berilib, so‘nggi yillarda esa bu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlar yangi va yanada shiddatli bosqichga ko‘tarildi.

“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” , – degan tashabbus sababli, demokratik islohotlarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati va boshqa institutlarining faolligi sezilarli ravishda osha boshladi.

Ayni vaqtda O‘zbekistonda kuchli va erkin fuqarolik jamiyatini qurishning, davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasida natijador hamkorlikni tashkil etishning, shuningdek, islohotlar samaradorligini ta’minlashning muhim vositasi bu – jamoatchilik nazorati instituti ekani yangilangan siyosatning o‘zagini tashkil etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi PQ-4501-sonli qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha maslahat kengashi tashkil etildi.

Shuningdek, so‘nggi uch yil ichida NNTlar soni sezilarli o‘sib, 1991

yilda ular soni 100 ta bo‘lgan holda, 2017 yil – 8700, 2018 yilda – 9 235, 2019 yilda – 9 860, 2020 yilda – 10462 hamda 2021 yilda – 10 346 ta NNTlar va ularning 5000 dan ortiq filiallari ro‘yxatidan o‘tkazilgan[3].

Xususan, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun asosida xalqaro amaliyotda keng tarqalgan jamoatchilik nazoratining ta’sirchan shakllari joriy etilmoqda;

jamoatchilik nazorati shakllarini amalga oshirish mexanizmlarini batafsil reglamentatsiya qilish ularning amaliyotida samarali qo‘llanilmoqda;

davlat organlari va tashkilotlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyati, tegishli sohalardagi ishlarning holatini yaxshilashda, ularning roli va samarali ishtiroki masalalari bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish tavsiya etilib, mazkur masala yuzasidan tegishli vazifalar amalga oshirilmoqda.

Davlatning budjet siyosati ustidan jamoatchilik nazorati o‘rnatilgani, kamida yuz ming kishidan iborat va Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga qonunchilik takliflarini kiritish huquqiga ega bo‘lgan “xalq tashabbusi” instituti joriy etilgani eng muhim yangiliklardan bo‘ldi .

Davlat rahbari tomonidan mamlakatni o‘rta istiqbolda taraqqiy ettirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha bosh dasturi – Harakatlar strategiyasi taqdim etilar ekan, bu hujjatda ham jamiyat hayotida fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, ommaviy axborot vositalarini rolini oshirish, nodavlat tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, barcha sohalarda jamoatchilik nazorati tizimini amalga oshirishning ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va hayotga joriy etish masalalari asosiy vazifa sifatida qayd etilganini ko‘rish mumkin.

Shu bilan birga ommaviy axborot vositalari, fikrlar xilma-xilligi va so‘z erkinligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashimiz zarur. Ayniqsa, jurnalistning qonuniy professional faoliyatiga to‘sqinlik qilishga oid huquqbuzarliklarga nisbatan javobgarlikni belgilashimiz kerak[4].

Korrupsiya faktlari bo‘yicha jurnalistik surishtiruv ta’qibdan huquqiy va amaliy jihatdan himoyalanganligi darajasi yuzasidan **190 nafar ishtirokchi** o‘rtasida ijtimoiy so‘rov o‘tkazilganida, ularning **90 foizi** huquqiy jihatdan **himoyalanmaganligini** bildirishgan[5]**.**

Yuridik fanlar doktori, professor, **Zulfiqarov Sherzod Xurramovichning** - “Konstitutsiviy o‘zgarishlar – islohotlarning yangi bosqichida” mavzusidagi keng qamrovli, ilmiy-amaliy jihatga boy bo‘lgan ma’ruzalarida, hozirgi kunda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar, ilgarigi konstitutsiyaviy o‘zgarishlardan farq qilib, asosiy e’tibor inson qadrini ulug‘lash, unga xizmat qilish, inson manfaatlarining ustuvorligiga so‘zsiz rioya qilish kabi asosiy g‘oyalarni qamrab olishi to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tgan[6].

Darhaqiqat nafaqat inson manfaatlarining ustuvorligiga so‘zsiz rioya qilish balki fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va erkinliklari, kishilarning qonuniy manfaatlari himoyasi alohida ustuvor ahamiyat kasb etishi shart ekani, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishdagi maqsad - kishilar ongiga demokratik qadriyatlarni va ko‘nikmalarni izchillik bilan singdirib borishda o`z aksini topmoqda.

Korrupsiya nomli xavfli illatga qarshi kura olishda mazkur jamiyatlarning rolini oshirishning tashkiliy huquqiy masalalariga xam e’tibor qaratish kerakligini nazarda tutilmoqda.

Fikrimizga ko‘ra, Yangi konstitutsiyada keltirilgan konseptual vazifalardan kelib chiqib korrupsiyani oldini olishda fuqarolik jamiyati institutlari quyidagi jarayonlarga jalb etilishi tavsiya etiladi:

- dastlabki bosqichlarda davlat xizmati tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlariga;

- davlat xizmatiga fuqarolarni qabul qilish, ularni xizmat o‘tashi va adolatli ravishda munosib lavozimlarga tayinlash tartibi shaffof va halol bo‘lganligini nazorat qilishga;

- davlat xizmatchilari tomonidan o‘rnatilgan ma’muriy tartib taomillarga rioya etishi hamda ularga yuklatilgan vazifalarni holis va sifatli bajarishni kuzatishga.

Shu o‘rinda fuqarolik jamiyati tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishda to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin bo‘ladi:

1) Ikki xil ma’noni anglatuvchi qonunlar – ushbu vaziyat huquqni qo‘llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo‘llash

imkonini yaratadi, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma’muriy qonunchilikdagi tafovutli sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit holida yaratishi mumkin.

2) Aholining korrupsiyaga qarshi huquqiy savodxonligining pastligi – aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o‘zining shaxsiy manfaati yo‘lida qonunlardan foydalanishga qulay sharoit yaratadi.

3) Fuqarolarda davlat organlari faoliyati to‘g‘risida batafsil axborot olish imkoniyatining yo‘qligi – ko‘pchilik hollarda ularga bunday axborotni taqdim etish asossiz ravishda rad etilayotganligi xalqning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi mumkin.

4) korrupsion va umuman barcha jinoyatlar haqida berilgan anonim xabarlar murojaat sifatida qabul qilinmasligi – qonunchiligimizda bunday murojaatlarni ko‘rib chiqish hamda aniqlangan qonun buzilishlarga nisbatan choralar ko‘rish tartibiga doir huquqiy asoslar belgilanishi kerak.

5) korrupsiya faktlari bo‘yicha jurnalistik surishtiruv taqibdan huquqiy va amaliy jihatdan himoyalanlanishi masalasi, shu jumladan O‘zbekistonda jurnalist faoliyatiga to‘sqinlik qilganlik uchun javobgarlikni belgilash zarur.

Albatta yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlar doirasidagi ayrim muommalar ham yaqin kunlarda o‘z yechimini topadi. Sababi Yangi Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga oid normalar salmog‘i sezilarli darajada ko‘paygan bo‘lib, ular xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalariga to‘la mos keladi.

Shu sababli oldinda kutilayotgan muhim o‘zgarishlar jamiyat hayotiga yanada kengroq va chuqurroq kirib borishiga imkon yaratadi.

Фойдаланилган adabiyotlar:

1. Qarang: https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish.
2. Muhammadiyeva M. Коррупцияга қарши курашишда фуқаролик жамияти институтларининг ролини оширишнинг ташкилий-ҳуқуқий масалалари. автореферат 2023 й.
3. Qarang: https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/89960/.

4. Нарбаева Т. Халқаро рейтинг ва индекслар. https://yuz.uz/news/xalqaro-reyting-va-indekslar..
5. Muhammadiyeva M. Коррупцияга қарши курашишда фуқаролик жамияти институтларининг ролини оширишнинг ташкилий-ҳуқуқий масалалари. автореферат 2023 й.
6. Ўзбекистонда Конституциявий ислоҳотлар – халқчил, адолатпарвар давлат барпо қилиш йўлида https://mgjxu.uz/uz/news/konstitutsionnye-reformy-v-uzbekistane-na-puti-k-sozdaniju-narodno-spravedlivogo-gosudarstva

ЭЛДОР ХОМИДОВ,
Жамоат хавфсизлиги университети, Давлат ҳуқуқий фанлар кафедраси бошлиғининг ўринбосари, ю.ф.б.ф.д (PhD), доцент

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИ АКАДЕМИК ЭРКИНЛИК, ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ, ТАДҚИҚОТЛАР ЎТКАЗИШИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ–ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Аннотация: Мақолада давлат олий таълим муассасаларининг тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш йўллари, олий таълим муассасаларининг тадбиркорлик фаолиятининг истиқболлари, хозирги ҳолати ва уни бартараф этиш йўллари таҳлил қилиб ёритиб берилган.

Калит сўзлар: ОТМларнинг тадбиркорлик фаолияти, университет 3.0 тизими, молиявий ресурслар, интеллектуал мулк, ижтимоий тадбиркорлик, инновацион тадбиркорлик.

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ АКАДЕМИЧЕСКОЙ СВОБОДЫ, САМОУПРАВЛЕНИЯ И НАУЧНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Аннотация: В статье анализируются пути развития предпринимательской деятельности государственных высших учебных заведений, перспективы предпринимательской деятельности высших учебных заведений, современное состояние и пути ее устранения.

Ключевые слова: Предпринимательская деятельность высших учебных заведений, система Университет 3.0, финансовые ресурсы, социальная собственность, Социальное предпринимательство,

Инновационное предпринимательство.

CONSTITUTIONAL - LEGAL BASIS OF ACADEMIC FREEDOM, SELF-GOVERNANCE, AND RESEARCH OF HIGHER EDUCATION ORGANIZATIONS.

The article analyzes the ways of development of entrepreneurial activity of State Higher Educational Institutions, prospects of entrepreneurial activity of higher educational institutions, the current state and ways of its elimination.

Keywords: Entrepreneurial activity of Higher Education Institutions, University 3.0 system, financial resources, social property, Social Entrepreneurship, Innovation Entrepreneurship.

Ҳар бир мамлакатнинг тараққиётида унинг таълим тизими, хусусан, олий таълим тизими алоҳида ўрин тутади. Ижтимоий-иқтисодий ҳаётнинг барча соҳалари учун етук ва малакали кадрлар тайёрлаш базаси ҳамда илм-фан тараққиётининг фундаменти ҳам айнан олий таълим муассалари томонидан яратилади. Шу сабабли ОТМ фаолият йўналишининг асосий мақсади сифатида кўриладиган таълим ва фанни амалиёт билан интеграциялаш, 2.0 университетларидан 3.0 университет тизимига ўтиш, бунда илм-фан натижаларини тижоратлаштириш, ОТМларнинг тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш долзарб аҳамият касб этмоқда.

Айниқса, кейинги йилларда 3.0 университетини яратиш давлат ОТМ сиёсатининг бош ва устувор масалаларидан бири сифатида белгиланди.

Шу маънода Ўзбекистон Республикаси конституциясининг 52-моддасида ҳам “Олий таълим ташкилотлари қонунга мувофиқ академик эркинлик, ўзини ўзи бошқариш, тадқиқотлар ўтказиш ва ўқитиш эркинлиги ҳуқуқига эга” лиги белгилаб қўйилди.

Олий таълим ташкилотларига академик эркинлик беришнинг моҳияти “янги авлод университети” концепция асосида “тадбиркор университет”ларни яратиш ҳисобланади [1]. Маълумки, бугунги кунда давлат бюджети томонидан молиялаштиришнинг қисқартирилиши ОТМларнинг бюджетдан ташқари маблағларини жалб этиш йўлида изланишлар олиб боришини тақозо этади. Бунда

ОТМлар ўз фаолиятининг йўналишидан келиб чиқиб таълим тусидаги ёки бундай тусга эга бўлмаган, фақат тадбиркорлик асосидаги маблағларни жалб этишларига тўғри келмоқда[2].

“Тадбиркор университет” термини фаол қўлланилаётганлигига қарамасдан, бугунги кунда ушбу тушунчани моҳиятини аниқлаш борасида якдил ёндашувлар мавжуд эмас, чунки бу термин қуйидаги маъноларда тушунилиши кузатилади: таълим фаолиятини таъминлаш учун қўшимча молиявий ресурсларни жалб этишга лаёқатли бўлган ОТМ; таълимда инновацион методларни қўллаётган ОТМ; университет фани ишланмаларини амалиётга жорий этаётган бизнес билан узвий алоқа қиладиган ОТМ[3].

“Тадбиркор университет” терминини илмий муомалага 1998 йилда Б.Р.Кларк киритган ва бунда у мазкур терминнинг моҳиятига оид қуйидаги хусусиятларини очиб берган: 1) университетни бошқарув тузилмасини кучайтириш; 2) ОТМдан ташқаридаги гуруҳлар ва ташкилотлар билан алоқани кенгайтириш; 3) молиялаштириш манбаларини диверсификациялаш; 4) ОТМ бўлимларида тадбиркорлик фаоллигини рағбатлантириш; 5) ҳар томонлама тадбиркорлик маданиятини ривожлантириш [4].

Кларкнинг ушбу қарашларини таҳлил қилар экан, А.В.Барков, Я.С.Гришиналар қуйидаги тўхтамга келишади: Кларкнинг талқинида “тадбиркорлик” сифатдоши бошқарув усулига оид ва мавжуд ресурсларни оптималлаштириш ҳисобига ички алоқаларни нисбатан самарали кенгайтиришга ёрдам беради ва таълим фаолиятини рағбатлантиришга йўналтирилгандир. Бунда асосий эътибор даромад олишга эмас, балки тадбиркорлик маданиятини ривожлантиришга қаратилмоқда [5].

Қайд этиш лозимки, мазкур ғоя ижтимоий тадбиркорлик мафкураси билан уйғун бўлиб, Америка, Европа ва Жанубий-Шарқий Осиёнинг турли муаммоли ижтимоий масалаларини, шунингдек, таълимни ҳал этишда ижтимоий давлат ва постиндустриал иқтисодиёт қуриш йўлини танлаган кўплаб мамлакатлар ҳуқуқий тартиботида қўлланилади. Стэнфорд университети профессори Дюк, (АҚШ университети) ижтимоий тадбиркорликни ривожлантириш

Маркази директори Г.Диз илмий муомалани “ижтимоий тадбиркорлик” термини билан бойтиб, қуйидагиларни таъкидлаган: бизнинг замонимиз ижтимоий муаммоларни “тадбиркорлик” воситасида ҳал қилиш даражасигача етилди [6]. Г.Диз ижтимоий тадбиркорлик ажратувчисини қуйидаги бешта омил орқали ажратиб кўрсатади: 1) ижтимоий қадрият (неъмат)ни яратиш ва қўллаб-қувватлаш миссиясини ўзига қабул қилиш; 2) танланган миссияни реализация қилиш учун янги имкониятларни аниқлаш ва улардан фойдаланиш; 3) инновация, адаптация (кўникма) ва ходимларни ўқитишнинг узлуксиз жараёнини амалга ошириш; 4) мавжуд ресурслар билан чекланмайдиган ҳаракатларнинг қатъийлиги; 5) тадбиркорнинг ўз фаолияти натижалари учун бевосита мижозлари ва бутун жамият олдидаги юқори масъулияти [7].

Дарҳақиқат, ОТМлар томонидан амалга оширилаётган тадбиркорлик – ижтимоий тадбиркорликнинг бир кўриниши бўлсада, асосан инновацион йўналтирилганлиги билан ажралиб туради. Зеро ОТМ, хусусан, давлат ОТМлари тадбиркорликнинг асосий йўналиши ва қисми инновацион тадбиркорлик, бошқача айтганда, интеллектуал мулкдан фойдаланиб амалга ошириладиган тадбиркорлик ҳисобланади. ОТМларда мавжуд бўлган илмий база ва илмий-педагог кадрлар инновацион тадбиркорликни амалга оширишда бевосита иштирок этадилар.

Бироқ бу таърифда инновация бошқа кўринишда, яъни ижтимоий инновация кўринишида мавжуд бўлиши инобатга олинмаган. Мазкур вазиятда гап фуқаролик-ҳуқуқий муомалага киритилган интеллектуал фаолият натижалари ҳақида эмас, ижобий ижтимоий ўзгаришларга етаклайдиган ва ижтимоий аҳамиятга эга бўлган муаммоларни ҳал қилишга кўмаклашадиган янги ғоялар, услублар ва технологиялар ҳақида бормоқда.

Экспертларнинг фикрича, ҳозирги шароитда жаҳон тажрибасини ҳисобга олган ҳолда “билимлар иқтисодиёти” моделини қуриш ОТМнинг вазифалари ҳақидаги анъанавий тасаввурларни сезиларли даражада ўзгартирилишини тақозо этади. Агар дастлабки версия - “Университет 1.0”да ОТМлар кадрлар тайёрлаш ва

иқтидорлиларни ахтаришга йўналтирилган бўлса, “Университет 2.0” версиясида ОТМларнинг вазифаси иқтисодиёт талабларидан келиб чиқиб тадқиқотларни амалга ошириш ва лойиҳаларни экспертизадан ўтказиш ҳисобига мураккаблаштирилди, “Университет 3.0” концепциясини амалга оширишда эса тадбиркорлик экотизимига ихтисослашувни шакллантиришга йўналтирилди. Бунда ОТМлар шаҳарни ташкил этувчи иқтисодий кластер марказларига айланувчи инновацияларни асосий етказиб берувчиларга айланадилар. ОТМларни инновацион тадбиркорликдаги иштироки интеллектуал фаолият натижаларини бошқаришга лаёқатли ва янги бозорлар шаклланиши шароитида муваффақиятли қатнашадиган иқтисодий агентлар, йирик компаниялар ролига тенглаштирилди [8]. Бу эса университетни бевосита тадбиркорлик субъектига айлантирмайди, балки тадбиркорлик фаолиятини ташкил этувчи вазифасини бажаришини юзага келтиради.

Шунга қарамасдан, “тадбиркорлик” тушунчасининг ижтимоий ва инновацион жиҳатларини ҳисобга олмасдан туриб “Университет 3.0” ва “Тадбиркор университет” [9] лойиҳаларни уйғунлаштириш нотўғри бўлар эди. Мазкур фаолиятни ижтимоий тадбиркорлик фаолияти сифатида баҳолаш мумкин. Бунда ОТМлар пулли таълим хизмати кўрсатиш билан бирга, инновацион тадбиркорликни амалга оширишлари, яъни ўзларининг интеллектуал фаолияти натижаларини ишлаб чиқаришга интеграция қилишлари мумкин бўлади. Ривожланган давлатларда ижтимоий тадбиркорликни, хусусан ОТМларнинг тадбиркорлигини ривожлантириш масаласига алоҳида эътибор қаратиб келинади. Хусусан, 2006 йилда Буюк Британия Вазирлар Маҳкамасида Ижтимоий тадбиркорлик департаменти шакллантирилган; 2010 йилда эса Жанубий Кореяда ҳукумат қуйи Ижтимоий тадбиркорликни ривожлантириш Агентлигини тузган. 2011 йилда Европа Иттифоқи мамлакатларида “Европа-2020” киризисга қарши стратегик дастурининг чораларидан бири сифатида Еврокомиссия томонидан ижтимоий тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш мақсадида “Ижтимоий бизнес” ташаббуси илгари сурилган[10]. АҚШ “иқтисодиётнинг тўртинчи сектори”ни

шакллантиришни эълон қилди ва унинг негизида ижтимоий тадбиркорлик инновациясидан фойдаланиб кўплаб ижтимоий муаммоларни ҳал этиш масаласини назарда тутди.

Ижтимоий тадбиркорлик ғояси ривожланиши билан хорижий олимларнинг асарларида “тадбиркор университет” концепциясининг эволюциясида ҳам ўз ифодасини топди. Стэндфорд университети профессор Г.Ицковиц Л.Лейдесдорф билан ҳаммуаллифликда ушбу концепцияни ривожланишига қаратилган “уч қиррали спирал” (*Triple Helix*) назариясини яратди. Ушбу назарияда инновацион ривожланиш университет, бизнес ва ҳукумат муносабатларининг динамикаси орқали тавсифланади. “Уч қиррали спирал” модели учта сектор: фуқаролик жамияти (университет, фан), давлат ва бизнеснинг инновацион маҳсулотни яратишнинг ҳар бир босқичидаги ўзаро ташкилий алоқаларини намойиш этади. Университетлар таълим ва ижтимоий тадбиркорлик миссияларини бажарар экан, илмий тадқиқот билан шуғулланади, инновацион маҳсулотни истъемол қилиниш даражасигача етказади (университет инкубаторларида юқори технологияли корпорацияларни ташкил этиш йўли билан) ва шу орқали мамлакатнинг иқтисодий-ижтимоий ривожланишига ҳисса қўшади. Давлат ўзининг анъанавий қонунчилик ва қўллаб-қувватлаш ролига қўшимча равишда оммавий буюртмачи ва венчурли инвестор сифатида бу жараёнларда иштирок этади. Бинобарин, бу муносабатларда етакчилик ва ташкил этувчилик роли университетга берилади ва у бизнес учун инновацияларни ишлаб чиқариш ва реализация қилишга йўналтирилган малакали инновцион тадбиркорларни тайёрлайди [11].

Мазкур концепция, ҳамда ОТМларни ўзини ўзи таъминлаш даражасига етказиш бугунги кунда мамлакатимизда ҳам долзарб тусига эга. Зеро, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 9 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармонида “олий таълим муассасаларида таълим, фан, инновация ва илмий-тадқиқотлар натижаларини тижоратлаштириш фаолиятининг узвий боғлиқлигини назарда тутувчи “Университет

3.0” концепциясини босқичма-босқич жорий этиш” [12] назарда тутилган.

Таъкидлаш лозимки, ОТМ тадбиркорлик фаолиятни ривожлантириш ва уни янги босқичга олиб чиқиш ҳамда, юқорида олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясида белгиланган мақсадлар ва қўйилган марраларга эришиш учун, ОТМларни бошқарув усули ва уларнинг юридик шахс сифатида ташкилий-ҳуқуқий мақомини ҳам ўзгартириш масаласини ўйлаб кўриш вақти келди.

Тадқиқотларга кўра, “**Times Higher Education World University Rankings**” рейтингида 2020 йил натижаларига кўра биринчи ўринни эгаллаб турган Буюк Британиянинг Оксфорд университетини тадбиркорлик фаолиятидан келадиган даромадлари қуйидаги манбалардан шаклланиши аниқланди:

- университетнинг 26 фоиз даромад манбаи, хайрия ташкилотларидан, фондлар, илмий кенгашлар, трестлар ва саноат ташкилотларига илмий тадқиқот натижаларини тижоратлаштиришдан;

- университетнинг14 фоиз даромади, ўқиш учун тўловлар (талабалар учун), шунингдек ўқув шартномаларидан;

- университетнинг 8 фоиз даромади, Англиянинг талабалар ва тадқиқотлар бюроси орқали давлат грантларидан келиб тушадиган тушумлардан;

- университетнинг 52 фоизи даромади таълим соҳасидаги нашриёт ишлари, муҳтожларга ёрдам берувчи хайрияларни тижоратлаштиришдан, инвестиция маблағларидан шаклланар экан.

Кўриниб турибдики, университетнинг йиғма даромад ҳисобида энг юқори улушни нашриёт хизматларидан тушган маблағлар ташкил этса, иккинчи ўринда эса, илмий изланишлар ва шартномалардан тушган маблағлар ташкил этади. Бу эса, мазкур университетда илмий ишланмаларни тижоратлаштириш ҳиссасининг юқори эканлигини тасдиқлайди.

Бизда ҳам, айрим ОТМларнинг Республика миқёсидаги ва халқаро грант лойиҳаларида фаол иштирок этиши ҳамда турли

инновацион лойиҳаларни тижоратлаштиришда ҳам иштирок этаётганлиги эътиборга моликдир. Бироқ, Ўзбекистон Республикаси Фан ва технологиялар агентлиги томонидан жорий этиладиган лойиҳаларни ўзи билан чекланиб қолиш мақсадга мувофиқ эмас. ОТМ фаолиятини таъминловчи манбалардан яна бири бу халқаро таълим дастурлари ва лойиҳалари доирасида молиялаштириш ҳисобланади. Бунда ОТМ олган маблағлар ҳисобидан асбоб-ускуналар, жиҳозлар, компьютер техникаси ва бошқа жиҳозларни олиши, ходимларни рағбатлантириши, шу жумладан хорижий илмий хизмат сафарларига юбориши мумкин.

Бугунги кунда юртимизда кўплаб халқаро илмий лойиҳалар бўйича ишлар олиб борилмоқда. Масалан, 2011 йилнинг 23 ноябрида 2014-2020 йиллар учун Эрасмус барча учун (Erasmus for All) янги дастури илк бора Европа Комиссиясининг Европа Советига муҳокама учун тақдим этилган эди. Таклифни тайёрлаш жараёнида дастурнинг формати ва асосий тавсифини қўллаш ҳамда ҳамкор-давлатлардаги олий таълим муассасалар учун кенг имкониятларнинг мавжудлиги инобатга олинди. Айнан институционал ҳамкорлик бўйича таклиф қилинаёгтан “Capacity Building Projects” Tempus форматига ўхшашдир.

Бугунги кунда давлат олий таълим муассасалари бюджет муассасаси ҳисобланганлиги боис, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 3 сентябрдаги 414-сон Қарори билан тасдиқланган Бюджет ташкилотлари харажатларини молиялаштириш (тўлаш) тартибига мувофиқ тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланади [16]. Фикримизча, мазкур тартибнинг мазмуни бироз эскирган. Ушбу тартибнинг 29-бандида назарда тутилган қоида қуйидаги муаммоларни юзага келтиради:

биринчидан, пуллик хизматлар кўрсатиш ва молиялаштиришнинг қўшимча манбаларидан тушган маблағларнинг кўпи билан 25 фоизи иш ҳақи фондига сарфланишини эътиборга олсак, бундай ҳолда тажрибали ва малакали мутахассисларнинг меҳнатини рағбатлантирган тарзда ҳақ тўлашни имкони бўлмайди; *иккинчидан,*тажрибали ва малакали мутахассисларнинг меҳнатига ҳақ

тўлаш имкони яратилган тақдирда, пуллик хизматлар кўрсатиш бўйича тўловлар миқдорини ошириш керак бўлади; *учинчидан,* пуллик хизматлар кўрсатиш бўйича тўловлар миқдори юқори бўлса, етарлича истеъмолчи (талабгор)ларни жалб этиб бўлмайди.

Бундан ташқари, бюджет ташкилотларининг фаолият турлари бўйича ишлаб чиқарган товарлар (ишлар, хизматлар)ни реализация қилишда хусусий тадбиркорлик субъектлари билан рақобатлашишини ҳисобга олган ҳолда қўшимча молиялаштириш манбаларини излаб топиш учун ташаббускор, профессионал ва малакали мутахассисларни жалб қилиш муҳим саналади. Шу боисдан, моддий рағбатлантириш махсус жамғармаси маблағларидан устамалар белгилаш қўшимча хизматлар кўрсатишдан олинган даромадларга дахлдор бўлмайди. Ушбу ҳолатга эса етарлича эътибор қаратилмаган.

Фикримизча, бюджет ташкилоти бюджет маблағлари харажатлари сметасига моддий-техника базасини мустаҳкамлаш учун кўпроқ маблағ сўрашга сабаб бўлади, – деган нуқтаи назардан ёндашилмаслиги зарур. Чунки, мавжуд тартиб кескин ўзгаришга учрамасдан, балки ўзгарувчан нисбатда бўлиши ва қатъий белгиланган чекловдан воз кечишга имкон бериш лозим. Натижада бюджет ташкилотининг эҳтиёжидан келиб чиқиб, олинган даромадлардан моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ёки моддий рағбатлантиришга йўналтириш мумкин бўлади.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 3 декабрдаги “Олий таълим муассасаларини босқичма-босқич ўзини ўзи молиялаштириш тизимига ўтказиш тўғрисида”ги 967-сон Қарорида илмий педагогик салоҳияти юқори, молиявий фаолияти барқарор, моддий-техника базаси етарли даражада, таълим хизматлари бозорида бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликларига талаб юқорилигини инобатга олиб, 2020 йил 1 январдан бошлаб, тажриба-синов тариқасида ўзини ўзи молиялаштириш тизимига ўтаётган олий таълим муассасалари рўйхати тасдиқланди [13].

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, ОТМнинг ўзини ўзи

молиялаштириш тизимига ўтиши ўз ўзидан бўлмайди. Чунки, ОТМ бошқа юридик шахслар каби муайян сақлаб туриш ҳаражатлари мавжуд бўлишини, қўшимча турли хизматлар кўрсатиш тизимини кенгайтиришни, тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш имкониятлари мавжуд бўлишини тақазо этади. Бу эса, тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш учун зарур шарт-шароитлар яратиш билан бир қаторда ОТМнинг функционал вазифалардан оғишмаслик ҳамда рақобатли бозор шароитларига мослашишга ундайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Университеты 3.0: будущее рядом? URL: http://www.gaidarforum.ru/ program/14-yanvarya/universitety-3-0-budushchee-ryadom

2. Нюхаев Д.В. Особенности предпринимательской деятельности на рынке образовательных услуг // Вестник ТГУ. 2010. Вып. 4 (84). – С. 36-42.

3. Константинов Н.Г., Филонович С.Р. Что такое предпринимательский университет // Вопросы образования. 2007. № 1. – С. 52.

4. Clark B.R. Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation. - N. Y., 1998.

5. Барков А.В., Гришина Я.С. «Университет 3.0»: Правовая модель участия вуза в инновационном предпринимательстве // Вестник Балтийского федерального университета им. И.Канта. Сер.: Гуманитарные и общественные науки. 2017. № 3. – С. 5-15.

6. (7) Dees J.G. The meaning of social entrepreneurship // Center for the Advancement of Social Entrepreneurship / Duke University’s Fuqua School of Business. 2001 (revised vers.) URL: http://www.caseatduke.org/documents/dees_sedef.pdf .

7. Университеты 3.0 в экономике знаний. URL: http://izvestia.runews/ 650622

8. Университет 3.0. URL: http://wrf.tpu.ru/events/inst

9. Communication from the commission to the european parliament, the council, the european economic and social committee and the committee of the regions entrepreneurship 2020. Action plan. URL:

http://qps.ru/Q3p9x

10. Ицковиц Г. Тройная спираль. Университеты – предприятия – государство. Инновации в действии / пер. с англ; под ред. Уварова А. Ф.. Томск, 2010.

11. https://lex.uz/docs/4545884

12. Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг қарорлари тўплами, 1999 й., 9-сон, 51-модда.

13. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 12.07.2019 й., 07/19/4391/3411-сон.

MAXSATULLO MAXSADOV,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), podpolkovnik

MUDOFAASI VA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY– HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada mudofaasi va xavfsizlikni ta’minlashning konstitutsiyaviy– huquqiy asoslari o‘rganilgan hamda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Qurolli Kuchlar, xavfsizlik, milliy xavfsizlik, konstitutsiya, qonunchilik, suverenetet va boshqalar.

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБОРОНЫ И БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация: В данной статье изучаются и анализируются конституционно-правовые основы обороны и безопасности.

Ключевые слова: Вооруженные Силы, безопасность, национальная безопасность, конституция, законодательство, суверенитет и т.д.

CONSTITUTIONAL AND LEGAL BASIS OF PROVIDING DEFENSE AND SECURITY

Annotation: In this article, the constitutional-legal foundations of defense and security are studied and analyzed.

Key words: Armed Forces, security, national security, constitution, legislation, sovereignty, etc.

O‘zbekistonning suveren davlat sifatida dunyo xaritasida qaror topishi uning mustaqilligini saqlash zaruriyati bilan bog‘liq. Bu esa mantiqan davlatning o‘z qurolli kuchlari, armiyasi bo‘lishini nazarda tutadi.O‘zbekiston Qurolli kuchlari mavjud bo‘lishining dastlabki huquqiy asosi – 1991-yil 31-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida” gi konstitutsiyaviy qonunda o‘z tasdig‘ini topdi. Unda davlatimiz o‘z milliy gvardiyasi (armiyasi) ga ega bo‘lishi ta’kidlandi. Prezidentning 1992 yil 14 yanvardagi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasidagi sobiq Ittifoqning harbiy qismlari, qo‘shilma, harbiy-o‘quv yurtlari, muassasa, tashkilot va boshqa harbiy tuzilmalari mustaqil davlatimiz ixtiyoriga olinib, ular Qurolli kuchlarimiz o‘zagini tashkil etdi. O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrdagi Konstitutsiyasi[1] mamlakat Qurolli Kuchlari tuzilishi va faoliyati uchun konstitutsiyaviy asos hosil qildi.

Harbiy xavfsizlik sohasi ijtimoiy munosabatlarning bir xildagi turini tashkil etadi, uni huquqiy jihatdan tartibga solish bir xildagi huquqiy normalarning alohida majmuasiga tayangan holda amalga oshiriladi. Harbiy huquq tarmog‘ining o‘zi majmuaviy xususiyatga ega bo‘lib, bu sohadagi bir qator munosabatlar huquqning boshqa tarmoqlari, masalan, ma’muriy, moliyaviy, erga oid, jinoyat to‘g‘risidagi va shu kabi huquqiy normalar vositasida tartibga solinadi.

Mudofaa va davlatning harbiy faoliyatini tashkil etish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinishi bilan harbiy huquq boshqa tarmoqlardan farqlanadi. Bu munosabatlar qamrov doirasi bo‘yicha bo‘linadi. Avvalo, ular qurilish, boshqaruv, ta’minot, Qurolli kuchlarni, boshqa qo‘shinlarni, harbiy bo‘linmalar va organlarni hozirlash hamda mamlakat mudofaasi maqsadlarida qo‘llanish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlardir. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining umumiy harbiy majburiyatni ijro etishi va harbiy xizmatni o‘tashi bilan bog‘liq munosabatlar alohida guruhni tashkil etadi. Harbiy intizomni saqlash, huquq-tartibotni, harbiy adliya organlari faoliyatini yo‘lga qo‘yishda yuzaga keluvchi munosabatlar boshqa bir guruhni tashkil etadi. Xalqaro huquqning harbiy hamkorlik masalalari, harbiy harakatlar olib borish bilan, shuningdek, gumanitar huquqning normalarini buzganlik uchun

javobgarlik bilan bog‘liq normalari yordamida boshqariladigan munosabatlar keyingi guruhga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining harbiy huquq manbalari orasida Konstitutsiya alohida o‘rin tutadi. Unda harbiy sohani tartibga soluvchi yo‘nalishlarning normalari aks ettirilgan. Bu faqatgina 152, 153-moddalardagina emas, balki 64, 71, 109-moddalarda ham o‘z aksini topgan. Bu normalarning barchasi mudofaani tashkil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasini bevosita qurolli himoya qilishga va qurolli himoya qilishga qaratilgan tadbirlardan iboratdir.O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari mudofaa maqsadlarida tashkil qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish hamda oldini olish O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo‘shilmalar va qismlarni, shuningdek, boshqa harbiy tuzilmalarni o‘z ichiga oladi.

Konstitutsiyaning 152 va 153-moddalariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun ("O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari to‘g‘risida"gi qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qonunchilik faoliyati rejasiga kiritilgan va u ishlab chiqish jarayonida turibdi) bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun etarli darajada Qurolli Kuchlariga ega. Konstitutsiyaning 109-moddasi 20-bandiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo‘mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo‘mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi.

Vatan oldidagi harbiy mas’uliyat va javobgarlik hissini kuchaytirgan holda 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonun[2] ning 9 - moddasiga muvofiq,

“Harbiy burchni jiddiy tarzda buzganlik, hokimiyatni suiiste’mol qilganlik zimmasiga qonunlar va harbiy ustavlar bilan yuklatilgantalablar va majburiyatlarni favqulodda vaziyatlarda bajarmaganlik uchun katta ofitserlar va generallar tarkibidagi shaxslarning harbiy unvonlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti - O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo‘mondonining qarori bilan pasaytirilishi mumkin”.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 2-bandiga muvofiq Prezident fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining, O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafilidir, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi.

Qurolli Kuchlarni tashkil etish harbiy tadbirlardan biri bo‘lib, fuqarolarning harbiy xizmatga bo‘lgan munosabatini aniqlash prinsipi ham shular jumlasiga kiradi. Konstitutsiyaning 64-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish - O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar. “Bugungi kunda milliy armiyamiz ming-minglab o‘g‘lonlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik maktabiga aylangani, hech shubhasiz, shu yo‘lda erishgan eng katta yutuqlarmizdir”[3].

Konstitutsiya mudofaani tashkil etishda harbiy tadbirlardan tashqari siyosiy tadbirlarni ham nazarda tutadi. Siyosiy tadbirlarga urush holatini e’lon qilish, harbiy holatni joriy etish, xavfsizlikni kafolatlash va boshqalar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e’lon qilish va qabul qilgan qarorni uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig‘iga kiritish ham Respublika Prezidenti vakolatiga kirishi belgilab berilgan.

Siyosiy tadbirlar jumlasiga qurollangan guruhlar, uyushmalar, urushni targ‘ib etuvchi birlashmalarni man qilish ham kiradi. SHunday qilib, Konstitutsiya harbiy huquqning eng muhim manbasi hisoblanadi.

Harbiy huquqning boshqa manbaalari qatoriga ochiq qabul qilingan “Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi, “Mudofaa to‘g‘risida”gi, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida”gi, “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi, “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlar, Umumiy qo‘shin nizomlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va hukumat qarorlari va shu kabi hujjatlar kiradi.

SHuningdek, harbiy huquqning maxsus manbalari ham bo‘lib, ular jumlasiga harbiy boshqaruvning normativ-huquqiy hujjatlarini, chunonchi – buyruqlar, qoidalar, yo‘riqnomalar va boshqalarni kiritish mumkin.Ular qonunosti va farmoyish tusidagi hujjatlardir.Mamlakatimizda mudofaaning huquqiy asoslarini rivojlantirish uch bosqichda o‘tdi. Birinchi bosqichda «Mudofaa to‘g‘risida”gi, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Shuningdek, Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi (2019 y. №PF-4447) farmoni[4] va boshqa hujjatlar ham shular jumlasidandir.

Bu davrda mamlakatimiz harbiy tizimi murakkab bir holatda edi. Aslini olganda, milliy Qurolli Kuchlarni qayta tashkil etish, milliy harbiy doktrinani shakllantirish va umuman harbiy qurilish zamirida nima yosa, ularning barchasini qaytadan qurishga to‘g‘ri kelardi.Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab tezkor, yaxshi tayyorgarlikdan o‘tgan va zamonaviy qurollangan armiyani tashkil etish harbiy qurilishning bosh yo‘nalishiga aylandi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qilarkan, o‘zining tinchliksevar davlat ekanligini baralla oshkor etdi hamda o‘zining mudofaa siyosati batamom tinch-totuv yashash, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ularning suvereniteti va mustaqilligini hurmatlash, shuningdek, mavjud davlatlaro chegaralarning daxlsizligi va o‘zgarmasligi prinsiplariga asoslanishini ma’lum qildi. Davlatimizning asosiy sa’y harakati barcha davlatlar bilan ikki va ko‘p tomonlama aloqalar o‘rnatish va rivojlantirishga, yalpi tinchlikka, hamma erda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik o‘rnatilishiga erishishga va harbiylashtirishga barham berishga

qaratildi. Shu bilan birga, mamlakatimiz o‘z fuqarolarining hayotini va qadr-qimmatini himoya qilishga bo‘lgan ajralmas huquq BMTning Ustaviga muvofiq amalga oshirilishini ta’minlash vazifasini o‘z zimmasiga oldi.

Davlatning mudofaa qudrati asosida mamlakat iqtisodiy salohiyatini mustahkamlab borish maqsadi yotadi.90-yillarning o‘rtalarida O‘zbekistonda qo‘shinlarning ustuvor turlari uchun yuqori malakali ofitserlarni tayyorlash maqsadiga xizmat qiladigan bir qator harbiy o‘quv yurtlari tashkil etildi. To‘rtta harbiy bilim yurti, shu jumladan, uchuvchilar bilim yurtidan tashqari 1993-yilda Toshkent aloqa elektrotexnika instituti (hozirgi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti) huzurida aloqa xizmati mutaxassislarini tayyorlaydigan harbiy fakultet ochildi. 1994-yilda Qurolli Kuchlar Akademiyasi tashkil etilib, bu erda oliy harbiy malakali ofitser kadrlar tayyorlashga kirishildi. Shuningdek, armiyaning texnik jihozlanishini mustahkamlash chora-tadbirlari ko‘rildi.

Harbiy xavfsizlik huquqiy asoslarini rivojlantirishning ikkinchi bosqichi harbiy infratuzilmaning rivojlantirilishi va harbiy qurilish huquqiy bazasining yanada mustahkamlanishi, harbiy sohada xalqaro hamkorlikning kengaytirilishi bilan tavsiflanadi. Mazkur bosqich O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Milliy xavfsizlik kengashining tuzilganligidan boshlandi. (Bu Kengash O‘zbekiston Reaspublikasi Prezidentining 1995 yilda 1 mayda e’lon qilingan PF-1149-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik kengashi to‘g‘risida”gi Farmoni[5]ga binoan tashkil topdi). Masalan, 1995 yilning 30-avgustida Harbiy doktrina qabul qilinib, unda davlatlararo harbiy mojaro va ziddiyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etishda faol qatnashish belgilangan bo‘lib, bunda qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi sabablarini diplomatik yo‘l bilan hal etishga urg‘u berilgan edi. O‘zbekiston Respublkasining “Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-458-son qonun qabul qilingach, “Harbiy doktrina” o‘z kuchini yo‘qotdi.

Mudofaa doktrinasiga ko‘ra, Mudofaa va harbiy qurilish sohasida yagona davlat siyosatini o‘tkazish hamda rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini chuqur o‘rganish asosida Qurolli Kuchlar ustidan samarali fuqarolik nazoratini o‘rnatish maqsadida Mudofaa vazirligi hamda

respublikaning mudofaa va xavfsizlikni ta’minlovchi boshqa tuzilmalari oldida turgan vazifalar qayta ko‘rib chiqildi. Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi tashkil etildi va u O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti hamda hududiy yaxlitligini qurolli himoya qilish bo‘yicha qarorlarni ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi yagona qo‘mondonlik organiga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va respublikaning harbiy xavfsizligiga tajovuzlarga qarshi harakatlarni tashkil etishda, mamlakatni mudofaaga tayyorlash borasidagi davlat faoliyatini, O‘zbekiston Respublikasining hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilish uchun Qurolli Kuchlarni qo‘llashni tartibga soluvchi qonunlarga asoslanar ekan, BMT Ustavidan, Xelsinkida imzolangan ikkitomonlama va ko‘ptomonlama shartnomalar hamda bitimlardan, xalqaro huquqiy hujjatlarning umume’tirof etilgan normalaridan kelib chiquvchi barcha xalqaro majburiyatlarga qat’iy rioya etilishini kafolatlaydi, tashqi harbiy tahdidning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo‘yicha ikkitomonlama va ko‘ptomonlama munosabatlarni yo‘lga qo‘yish zarur ekanligini qayd etib o‘tadi.

Mudofaa va xavfsizlik sohasidagi tashqi siyosat Qo‘shilmaslik harakati prinsiplariga ham tayanadi. Bu prinsiplar milliy qonunchiligimizda ham o‘z ifodasini topgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 11 mayda yangi tahrirda qabul qilingan “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasi misolida ko‘rishimiz mumkin. Mazkur prinsip mantiqan kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik prinsipidan kelib chiqadi hamda umuman olganda Konstitutsiyaning ruhiga, uning tinchliksevar mohiyatiga va mafkuralashtirishdan xoli yo‘nalishiga muvofiq keladi.

Milliy xavfsizlik manfaatlari xalqaro hamkorlikning ittifoqlar, hamdo‘stliklar va boshqa davlatlararo tuzilmalar shaklidagi asosiy yo‘nalishini belgilab beradi. Milliy xavfsizlikni ta’minlash manfaatlarini ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining NATO bilan hamkorligi rivojlanib bormoqda, bu ish 1994-yildan beri “Tinchlik yo‘lida sheriklik” dasturida ishtirok etish orqali ta’minlanmoqda. Mazkur dastur NATO a’zolari bo‘lmagan mamlakatlar uchun yaratilgan. Ushbu sheriklik nafaqat harbiy

vazifalarni (bularga quyidagi vazifalar kiradi: milliy mudofaani rejalashtirishda va harbiy budjetni shakllantirishda ko‘proq ochiq-oshkoralikka erishish; Qurolli Kuchlar ustidan demokratik nazoratni mustahkamlash; milliy salohiyatni qo‘llab-quvvatlash va tinchlik o‘rnatish operatsiyalariga hissa qo‘shishga shaylik; SHimoliy Atlantika Ittifoqi bilan birgalikdagi harbiy tayyorgarlik va mashqlarni rejalashtirish hamda o‘tkazish bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirish; sherik-davlatlar armiyalari, shuningdek, NATO mamlakatlari Qurolli Kuchlari bilan hamkorlikni rivojlantirish), balki noharbiy ruhdagi favqulodda vaziyatlar sharoitida harakatlarni rejalashtirish sohasida, ilmiy va iqtisodiy dasturlarni amalga oshirishda hamkorlikni ta’minlash; sherik davlatlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishda yordam ko‘rsatish vazifalarini ham qamrab oladi.

O‘zbekiston 1995 yildan boshlab yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (EXHT)ning Vena hujjatini harbiy sohadagi ishonch mezonlari bo‘yicha ham amalga oshirishda qatnashib kelmoqda, EXHT Kotibiyatiga o‘z harbiy kuchlari va mudofaa sohasidagi rejalari to‘g‘risida axborot yo‘llab turibdi.SHu asnoda respublikaning chet el mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar bilan samarali harbiy-siyosiy va harbiy-texnikaviy hamkorligi jarayonlari kuchaydi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining mudofaa qobiliyatini oshirish, uni zamonaviy qurol- yarog‘lar va texnika bilan ta’minlash, qo‘shinlarning moddiy –texnik bazasini mustahkamlash,shuningdek, harbiy qurilishning ilg‘or tajribasini o‘rganish, harbiy kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan, rivojlangan xorijiy davlatlarning armiyasi bilan harbiy hamda harbiy – texnikaviy hamkorlikning chuqurlashuviga ko‘maklashish.

Harbiy qonunchilikni rivojlantirish siyosati o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, boshqa qo‘shinlar, harbiy tuzilmalar va organlari tizimining qurilishi jarayonini aks ettiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi (04.03.1996 y. №PF-1378), «O‘zbekiston Respublikasi umumqo‘shinlar Nizomini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (09.10.1996 y. №PF-1571), “O‘zbekiston Respublikasi

Qurolli Kuchlarining intizom qismi haqidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi (09.10.1996 y. №PF-1572), 2022 yil 28 yanvardagi PF-60son “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023 yil 13 martdagi PF-34-son “Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019 yil 12 sentyabrdagi PQ-4447-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” qarori shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari jangovar tayyorgarligini ta’minlashning ustuvor vazifalari orasida qo‘shinlarni tayyorlashda milliy g‘oya, milliy mustaqillik mafkurasiga tayangan holda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning butun tizimini qayta tuzishga kirishilganligini alohida ta’kidlash zarur.

Kompyuter texnologiyalaridan, modellashtirish, chalg‘itish uslublaridan va boshqa zamonaviy ta’lim shakllaridan foydalaniladigan, harbiy xizmatchilarni tayyorlashning mutlaqo yangi shakllari hisoblanadigan serjantlar maktablari va tayyorlov markazlari joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan fuqarolarga davlatimiz tomonidan bir qancha imtiyozlar yaratib kelinmoqda.

Milliy xavfsizlikni ta’minlashga doir huquq tizimini rivojlantirish jarayoni hali nihoyasiga etganicha yo‘q. Huquqiy jihatdan tartibga solish predmeti o‘zgarmoqda, uning mexanizmi takomillashmoqda. Yangi muammolar ham vujudga kelmoqda, ularni hal etish uchun ilmiy asoslangan yangicha yondashuvlar talab qilinayotir. Tabiiyki, ijtimoiy munosabatlar rivoji yuridik munosabatlar rivojiga nisbatan ildamroq bo‘ladi. Qonunchilik hamisha siyosiy-huquqiy va iqtisodiy madaniyatning yig‘ma mahsuloti, tegishli ijtimoiy munosabatlarga izmini o‘tkazishning yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan chegarasini belgilashga nisbatan jamiyatning anglab etilgan ehtiyojlarining amalga oshirilishidir.

Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi qonunchilikning rivoji, shuningdek, qabul qilinayotgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish

mexanizmlarining samaradorligini oshirish, bizning nazarimizda, O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik konsepsiyasida ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishishning asosiy omillaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi //Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni // Lex.uz.
3. Ш.М.Мирзиёев Миллий тараққиётимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. “Қуролли Кучлар – Ватанимиз ва халқимизнинг мустаҳкам қўрғони” – Ватан ҳимоячилари куни ва Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганининг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик нутқи. 2017 йил 13 январь. 221 б.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi (2019 y. №PF-4447) farmoni //Lex.uz.
5. O‘zbekiston Reaspublikasi Prezidentining 1995 yilda 1 mayda e’lon qilingan PF-1149-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik kengashi to‘g‘risida”gi Farmoni // Lex.uz.

DILMUROD MAXMUDOV,

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MUDOFAA VA XAVFSIZLIKNI AHAMIYATI VA MOHIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada mudofaa va xavfsizlik, ushbu tushunchalarning mohiyati hamda mamlakat uchun ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Mudofaa, xavfsizlik, qurolli kuchlar, armiya, BMT, suverenetet va boshqalar.

ЗНАЧЕНИЕ И СУЩНОСТЬ ОБОРОНЫ И БЕЗОПАСНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: В данной статье анализируется оборона и безопасность, сущность этих понятий и их значение для страны.

Ключевые слова: Оборона, безопасность, вооруженные силы, армия, ООН, суверенитет и т.д.

SIGNIFICANCE AND ESSENCE OF DEFENSE AND SECURITY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation: This article analyzes defense and security, the essence of these concepts and their importance for the country.

Key words: Defense, security, armed forces, army, UN, sovereignty, etc.

Bugungi kunda Qurolli Kuchlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, qo‘shinlarning jangovar shayligi va ruhiy tayyorgarligini oshirish, bo‘linmalarni zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnikalar bilan ta’minlash yo‘nalishlarida mamlakatimizda keng islohotlar amalga oshirilmoqda.

Barcha kuch tuzilmalarining o‘zaro hamkorlikdagi axborot-kommunikatsiya tizimlari Qurolli Kuchlarni boshqarish jarayonlariga izchil integratsiya qilinmoqda. Davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilish tizimini takomillashtirish, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar muntazam amalga oshirilmoqda. Qurolli Kuchlar boshqaruv organlari va qo‘shinlarni birgalikda tayyorlash tizimiga xorijiy armiyalarning ijobiy tajribalari joriy etilmoqda.

«Xalq va armiya – bir tanu bir jondir» degan ezgu tamoyil o‘z natijasini bermoqda. Harbiy-ma’muriy sektorlar faoliyati samarasida harbiy shaharchalar infratuzilmasi to‘liq yangilanib, yangi o‘quv poligonlari barpo etildi.

Vatan himoyachilarining ijtimoiy-huquqiy himoyasi ham mustahkamlanmoqda. Harbiy ayollar mehnatini rag‘batlantirish maqsadida “to‘maris” nishoni ta’sis etildi.

Shu bilan birga, hozirgi shiddatli geosiyosiy qarama-qarshiliklar sharoitida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, axborot xavfsizligi va boshqa sohalarda keskin muammolar paydo bo‘lmoqda. Murakkab xalqaro

vaziyat, xavfsizlikka nisbatan xavf-xatar va tahdidlarning kuchayishi Markaziy Osiyoda ham kuzatilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «Eng katta boyligimiz bo‘lgan tinch hayotni asrash, xalqimiz farovonligini ta’minlash, kelajak rejalarimizni belgilashda ana shu holatlarning barchasini inobatga olishimiz zarur. Biz har qanday vaziyatda ham O‘zbekistonning davlat suvereniteti, uning sarhadlari daxlsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlashimiz shart. Bu – bizning tarix va kelajak avlodlar oldidagi muqaddas burchimiz va majburiyatimizdir»[1].

Milliy xavfsizlikni ta’minlash jarayonini tartibga solish turli tarmoqlar va institutlarga taalluqli bir turkum huquqiy normalar orqali amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan milliy xavfsizlikni ta’minlashning huquqiy asoslarining yaxlit tizimini hamda uning tarkibidagi maxsus tarmoqlar va tegishli institutlarning rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Milliy xavfsizlikni ta’minlash faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuining vujudga kelishi jarayonini nazariy jihatdan chuqur idrok etish milliy huquq va qonunchilik tizimini shakllantirishning dolzarb masalasi hisoblanadi. Boshqa tomondan olib qaraganda, mazkur sohaga daxldor qonunchilikning ilmiy tahlili huquq tizimi to‘la va aniq namoyon bo‘lishida nazariy-metodologik asos vazifasini o‘taydi.

Bugungi dunyoda jadal o‘zgarib borayotgan vaziyat va jarayonlar, mavjud mojarolarning keskinlashuvi va yangi qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishi, ba’zi mintaqalarda etnik va konfessiyalararo tafovutlar negizida vujudga kelayotgan to‘qnashuvlarning kuchayishi jiddiy tahdid va xatarlarni keltirib chiqarmoqda. Yadroviy texnologiyalar va ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalib ketish xavfi, -murosasizlik, radikalizm va ekstremizmning o‘sishi, yangi keskinlik o‘choqlarining paydo bo‘lishi jahon mamlakatlariga jiddiy tashvish uyg‘otmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida bunday jarayonlarning barchasi jahondagi yirik davlatlarning manfaatlari o‘zaro to‘qnashadigan mintaqamizning xavfsizligi, barqarorligi va rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi kundek ravshan.

Bugungi kunda milliy xavfsizlikni ta’minlash sohasida davlat oldida turgan vazifalar orasida ekstremizm va radikalizmning har qanday ko‘rinishlariga, xalqaro terrorizmga qarshi izchil kurashish uchun butun kuchlarni safarbar etishdek o‘ta muhim vazifa ham borligini alohida aytib o‘tish kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganidek, *«...biz notinch zamonda, notinch bir mintaqada yashamoqdamiz. Shu sababli, Vatanimiz himoyasini ishonchli kafolatlayotgan, mudofaa qobiliyatimizni mustahkamlayotgan va davlat chegaralarimiz daxlsizligini ta’minlayotgan tizimli chora-tiadbirlar kompleksini joriy etishni qat’iyat bilan davom ettirishimiz zarur» [2]*.

Darhaqiqat, “Mintaqamizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash, shu muqaddas zaminimizda hukm surayotgan tinch-osoyishta hayotni saqlash kabi biri-biridan mas’uliyatli va keng ko‘lamli bir qator vazifalar borki, yurtimizning, jondan aziz farzandlarimizning bugungi va ertangi kuni ana shu masalalarni qanchalik muvaffaqiyat bilan hal etishimizga bog‘liqdir”[3].

Davlatning milliy xavfsizlikni ta’minlash sohasidagi faoliyati vazifalari hamda yo‘nalishlari doirasi anchagina kengdir. Dunyoda narkotrafik muammolar jiddiy tus olmoqda, yadroviy va boshqa ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalish xavfi bartaraf etilgani yo‘q. Ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar, ilmiy-texnikaviy, texnologik va axborot tarqatish hamda ekologik sohalarda ham ko‘pgina muammolar mavjudki, ular kuchayib, milliy xavfsizlikka tahdidga aylanishi mumkin. Mamlakatning o‘z milliy xavfsizligini ta’minlashga tayyorligi mezonlaridan biri etarli darajada qudratli siyosiy, iqtisodiy va harbiy salohiyatning mavjudligi bilan bir qatorda, shunga batamom muvofiq keladigan tegishli huquqiy bazaning takomillashib borishi hamdir. U O‘zbekiston Respublikasining eng muhim hayotiy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini mujassam etganligi uchun ham xavfsizlikni ta’minlashning eng asosiy yO‘nalishlaridandir.

Mabodo mintaqaviy yoki global xavfsizlikning huquqiy negizlari, asosan, xalqaro taomil va odatlar, ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama

shartnomalar, bitimlar hamda shu kabi boshqa hujjatlarning natijalari asosida qaror topadigan bo‘lsa, milliy xavfsizlikni ta’minlashning huquqiy asoslarini milliy qonun hujjatlari negizida shakllantiriladi (lekin bu qonun hujjatlari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga zid bo‘lmasligi, ayrim hollarda esa umuman ularga asoslangan bo‘lishi lozim). O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlikni ta’minlashga doir qonun hujjatlari tizimi bugungi kunda murakkab tuzilma sifatida shakllanmoqda va u huquqiy normalarning tarmoqlararo majmuiga aylanmoqda. Bir tomondan, bu o‘rinda gap harbiy, ekologik, gumanitar, jinoyat qonunchiligi singari mustaqil tarmoqlarning va har biri o‘z sohasida xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq munosabatlar tizimini boshqaradigan boshqa tarmoqlarning rivojlanib borishi ustida bormoqda.

Ikkinchi tomondan, terrorizmga, siyosiy va diniy ekstremizmga, giyohvandlik moddalarini tarqatishga qarshi kurash olib boradigan tarmoq va tarmoqlararo tashkilotlar, siyosiy, iqtisodiy, oziq-ovqat, texnologik va axborot xavfsizligini ta’minlaydigan, shuningdek, aholi sog‘lig‘igagina emas, balki bir vaqtning o‘zida iqtisodiyotga, jamiyatning ma’naviy asoslariga o‘nglab bo‘lmas darajada zarar etkazib, millatning jismoniy sog‘-omonligini xatar ostida qoldiradigan bir qator yuqumli kasalliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish bilan shug‘ullanadigan sohalar ham nazarda tutilmoqda.

Zotan, Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ta’kidlaganidek, “O‘zbekiston bugungi kunda o‘zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu – har tomonlama chuqur o‘ylab tanlangan yo‘ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O‘zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir. O‘zbekiston o‘zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlashning qat’iy tarafdoridir”[4].

Darhaqiqat, mudofaa va xavfsizlik mamlakat uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari esa O‘zbekiston

Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган йиғилиши. 13.01.2023.
2. Ш.М.Мирзиёев Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги нутқ. 2016 йил 8 сентябрь. 11 б.
3. И.А.Каримов. Жаҳон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. – Тошкент: “ Ўзбекистон”, 2010.– Б.130.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 19 сентябрь куни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи / Халқ сўзи. 2017 йил 20 сентябрь.

VALIJON UMARALIYEV,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy universitet dots., y.f.f.d.

YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI – XOZIRGI DAVRDAGI FUQAROVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARNING ASOSIY NEGIZI

Аннотация: Мақолада Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси нормааларида белгиланган, ҳозирги даврда мавжуд фуқаровий-ҳуқуқий муносабатларнинг янги турлари моҳияти, фуқаролармизга Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан жорий йилда қабул қилинган бир қатор фармонлари асосида амалга киритилган янги кафолатлар тўғрисида сўз юритилади.

Калит сўзлар: Янги таҳрирдаги Конституция, Президент фармони, кафолатлар, фуқаровий-ҳуқуқий муносабатлар, уй-жой даҳлсизлиги, имтиёзлар, мулк ҳуқуқи, мулк дахлсизлиги, мулкий ҳуқуқлар, номулкий ҳуқуқлар, фуқаролик судлари, суд қарорининг

ижроси, давлат божи.

КОНСТИТУЦИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В НОВОЙ РЕДАКЦИИ – КАК ОСНОВА ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы касающиеся новых форм гражданско-правовых отношений закрепленных в нормах Конституции Республики Узбекистан, особое внимание уделяется конкретным гарантиям предоставленным гражданам указами Президента Республики Узбекистан, которые были приняты в текущем году.

Ключевке слова: Конституция в новой редакции, Указ Президента, гарантии, гражданско-правовые отношения, неприкосновенность жилья, льготы, имущественной права, неимущественные права, гражданские суды, исполнение судебных решений, государственная пошлина,

THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN THE NEW EDITION – AS THE BASIS OF CIVIL RELATIONS

Annotation: This article discusses issues related to new forms of civil legal relations enshrined in the norms of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, special attention is paid to specific guarantees provided to citizens by decrees of the President of the Republic of Uzbekistan, which were adopted this year. This is a series of guarantees that are aimed at measures to ensure the inviolability of property, housing of citizens, tax benefits in the field of education, strengthening measures to protect the property and non-property rights of citizens, which were taken on the initiative of the President of the Republic of Uzbekistan.

Key words: Constitution in the new edition, Presidential Decree, guarantees, civil law relations, inviolability of housing, benefits, property rights, non-property rights, civil courts, execution of court decisions, state duties.

Таъкидлаш лозимки, 2023 йил 30 апрельда бўлиб ўтган умумхалқ референдуми натижаларига кўра, Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг (1) қабул қилиниши

Янги Ўзбекистонни шакллантириш учун мустаааҳкам ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилшии шубҳасиздир.

Бу ўринда, амалдаги конституциявий нормалар жамиятимиз ривожланишининг янги босқичи бошланганлигидан далолат беради.

“Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдага чора-тадбирлар тўғрисида” ги 2023 йил 8 майдаги ПФ-67 сонли,(2) шунингдек, “Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида” ги 2023 йил 7 ноябрдаги ПФ-188-сонли(3) Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармонлари мамлакатимизда 2023 йил 30 апрель куни бўлиб ўтганган референдумда янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилиниши давлатимиз тараыыиётиининг жуда муҳим даврида унинг устувор йўналишлари мустаҳкамланди.

Жумладан,, ҳозирги пайтда амалдаги қонунчилик ҳужжатларини янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси нормалари талабларига мувофиқлаштириш масаласини ҳал этиш долзарб вазифа қилиб белгиланди.

Улар жумласига, мулк ҳуқуқининг конституциявий кафолатларини таъминлаш, шу жумладан, мулкдор ўз мол-мулкидан қонунда белгиланган тартибдан ташқари, фақатгина суднинг қарорига асосан маҳрум этилиши мумкинлиги тўғрисидаги конституциявий норманинг белгиланиши муҳим аҳамиятга эгадир.

Қайд қилиш керакки, давлат органлари томонидан инсонга нисбатан қўлланиладиган ҳуқуқий таъсир чоралари мутаносиблик тамойипига асосланиши ва қонунларда назарда тутилган мақсадларга эришиш учун етарли бўлиши лозимлиги тўғрисидаги конституциявий нормадан келиб чиққан ҳолда, хал қилиниши лозимлиги принципи мустахкамланди.

Бундан ташқари, уй-жой дахлсизлиги ҳуқуқини таъминлаш бўйича белгиландики, суднинг қарорисиз ҳеч ким уй-жойидан маҳрум этилиши мумкин эмаслиги кафолатланди.

Фуқароларнинг мулкий ҳуқуқларини ишончли муҳофаза қилишни таъминлаш амалдаги Конституциямизнинг 41, 65, 67-моддаларига кўра, мулкий муносабатларга асосланмаган аралашувнинг олдини олиш мақсадида, чакана савдо ва хизмат кўрсатиш объектлари фаолиятидаги мавжуд бир қатор чекловлар 2023 йилнинг 1 июнидан бекор қилинди.

Шунингдек, амалдаги Конституциясининг 50-моддасига асосан, фуқароларнинг таълим олиш ҳуқуқлари кафолатларини кучайтириш мақсадида, 202 йил 1 августдан бошлаб солиқ тўловчилар ёшидан қатъий назар, фарзандларининг республикамиз таълим муассасаларида ўўўқишлари учун сарфланадиган тўловлар солиқ солинмайдиган даромадлар категориясига ўтказилди.

“Ўзбекистон – 2030” стратегиясини 2023 йилда сифатли ва ўз вақтида амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги қарорига асосан, 2023 йил 1 октябрь кунидан қийин ҳаётий аҳволга тушиб қолган ёхуд шу аҳволга тушиб қолиш хавфи юқори бўлган бўлган оила бўйича махсус, алоҳида – ижтимоий хизмат ишини амалга ошириш тартиби жорий қилинди.

Бу тартибга кўра, юқорида қайд этилган оилалар учун қулай турмуш шароитларини яратиш, жумладан, уларга тиббий ёрдам кўрсатиш, дори-дармон билан таъминлаш, уларнинг болаларини мактабгача ўрта мактаб муассасаларига жойлаштириш, шунингдек, уларга моддий жиҳатдан ёрдам бериш сингари масалаларни бевосита ҳал этиш белгиланди.

Амалдаги Конституциямизнинг 53-моддасига асосан, интеллектуал мулк қонун билан муҳофаза қилиниши фуқаровий-ҳуқуқий муносабатларнинг конституциявий кафолати сифатида акс этиши муҳим аҳамиятга эгадир.Ушбу йўналишда қабул қилинган қонун ҳужжатлари, ратификация қилинган ҳалқаро конвенциялар ва шартномалар, шунингдек, ташкил этиоган ваколатли орган – Интеллектуал мулк агентлиги фаолияти ҳам янги босқичга ккўтарилганидан далолат беради.

Қайд қилиш керакки, фуқаровий ҳуқуқйи муносабатларнингг

Янги таҳрирдаги Конституциямизда мустаҳкамланган нормалар ҳлзирги даврда мавжуд бўлган янги шаклдаги фуқаровий-ҳуқуқий муносабатларнинг асоси эканлиги билан бир қаторда, фуқаролик қонунчилигини такомиллаштиришга ҳам ижобий таъсир этиши шубҳасиздир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Ўзбекистон нашриёти, 2023.

2.Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисидаги 2023 йил 8 майдаги ПФ-67 сонли Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони. Халқ сўзи, 2023 йил 10 май.

3.Ўзбеккистон – 2030 стратегиясини 2023 йилда сифатли ва ўз вақтида амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Қарори. 2023 йил 11 сертябрь. Халқ сўзи 2023 йил 12 сентябрь.

KHURSHID ABDULLOEV,

Head division of Department of Spiritual-Educational Work and Personnel Support of the Ministry ofInternal Affairs of the Republic of Uzbekistan

IMPROVING THE PROCEDURE FOR WORKING WITH THE PERSONNEL OF INTERNAL AFFAIRS BODIES AND ORGANIZING THEIR WORK

Abstract: The article describes systematic work to improve the procedure for working with the personnel of internal affairs bodies and the organization of their service. Reforms being implemented in the sphere of internal affairs bodies and adopted regulatory documents were also discussed.

Key words: law enforcement agencies, code, social stability, spiritual and moral values.

Annotatsiya: Maqolada ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini takomillashtirish bO‘yicha tizimli ishlar yoritilgan. Hamda ichki ishlar organlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlar haqida tO‘xtalib O‘tilgan.

Kalit so‘zlari: huquq-tartibot idoralari, kodeks, ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy-axloqiy fazilatlar.

Аннотация: В статье описывается системная работа по совершенствованию порядка работы с личным составом органов внутренних дел и организации их службы. Также были обсуждены реформы, реализуемые в сфере органов внутренних дел, и принятые нормативно-правовые документы.

Ключевые слова: правоохранительные органы, кодекс, социальная стабильность, духовно-нравственные качества.

In our country, the processes of protecting the rights, freedoms and legitimate interests of citizens, the property of individuals and legal entities, the constitutional system, ensuring the security of individuals, society and the state, as well as the prevention and prevention of crimes are becoming more and more complex and becoming increasingly urgent tasks. The processes for effectively performing these tasks are directly related to the activities of working with the personnel of internal affairs bodies.

The reforms implemented in the system, firstly, are capable of ensuring the effective implementation of new tasks assigned to internal affairs bodies based on the requirements of the time, and secondly, law enforcement agencies with the names of international law, as well as civil servants based on the requirements of national legislation, in particular, internal affairs bodies, requires employees of bodies to be professional specialists with high moral, ethical and professional qualities.

In this regard, Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated on January 20, 2023, No. 10 “On additional measures to transform internal affairs bodies into a people’s professional structure and orienting their work to a closer interaction with the population”[1] is a logical continuation of these reforms.

This resolution approved the Code of Professional culture and service discipline for employees of Internal Affairs bodies [2]. Each employee is obliged to know the rules and requirements set forth in this Code and strictly and unconditionally follow them. Failure to comply with the rules and requirements of the Code or gross violation of them will

result in disciplinary action up to and including dismissal from the internal affairs bodies.

It is noted that the rules and requirements specified in the code are aimed at early warning of possible violations, abuses and corruption in internal affairs bodies, and not at creating conflict situations that negatively affect the reputation of the law enforcement system. Employees are required to comply with this Code regardless of the date of hire, the position they hold and the nature of the work performed.

In addition, this Presidential Decree approved the Regulations on the Department of Spiritual-Educational Work and Personnel Support of the Ministry of Internal Affairs, the Roadmap for comprehensive measures to increase the personnel potential of internal affairs bodies.

In addition, the document approved the code “On professional culture and service discipline of employees of internal affairs bodies”[3], the regulations of the Department of Spiritual and Educational Work and Personnel Support of the Ministry of Internal Affairs were approved.

According to him, the Ministry of Internal Affairs has created a Department of Spiritual and Educational Work and Personnel Support, which is responsible for selecting candidates for service in the internal affairs department, ensuring transparency of the system, working with personnel, and digitizing the system of spiritual and educational work.

In general, we can say that as a result of reforms implemented in the internal affairs bodies, a system of public administration in the field of internal affairs is being created that is capable of identifying and effectively solving problems of a socio-political nature. and socio-economic development over time and meets global trends in innovative development.

Over the past period, a lot of work has been done to improve the system of internal affairs bodies. In particular, significant work has been done to develop and strengthen the lower level of internal affairs bodies, created to maintain public order in residential areas, ensure the safety of citizens, prevent offenses and fight crime.

Legitimacy and law and order in society are established by the lawful behavior of citizens, compliance with laws by all government bodies and

public associations and their correct application. Establishing stability, peace and tranquility in society, ensuring unconditional respect for human rights and freedoms is an important condition for achieving the goals set by large-scale reforms that are being implemented for the further development of the country in socio-economic terms, improving the well-being of the population and building a legal democratic state.

The republic has created a comprehensive legal system to protect the rights, freedoms and legitimate interests of citizens, maintain public order, ensure the safety of individuals, society and the state, prevent and prevent crimes; so internal affairs bodies play an important role.

As we mentioned above, internal affairs bodies perform tasks to strengthen law and order, protect the rights and legitimate interests of citizens, and fight crime. As we mentioned above, internal affairs bodies perform tasks to strengthen law and order, protect the rights and legitimate interests of citizens, and fight crime. Ensures peace and security of humanity in work within its competence. The importance of implementing the tasks of internal affairs bodies increases even more in the conditions of the establishment of the rule of law and the emergence of civil society.

References

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated on January 20, 2023, No. 10 “On additional measures to transform internal affairs bodies into a people’s professional structure and orienting their work to a closer interaction with the population”.https://lex.uz/docs/-6364837?otherlang=1

2. Code “On professional culture and service discipline of employees of internal affairs bodies.https://lex.uz/docs/-6364837?otherlang=1

3. This source https://lex.uz/docs/-6364837?otherlang=1

SHERZOD XOLBOYEV,
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

ELBEK USANOV,
Toshkent shahar Ichki ishlar Bosh boshqarmasi mas'ul xodimi

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADA INSON VA FUQAROLAR HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlari, huquq va erkinliklarini himoya qilish tartib, vakolatli davlat orgalarining faoliyati, O‘zaro hamkorligi kabi masalalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: inson, fuqaro, kafolat, tezkor-qidiruv faoliyat, huquqiy davlat, qonun ustuvorligi, axborot, xavfsizlik

ГАРАНТИИ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА И ГРАЖДАН В НОВОЙ КОНСТИТУЦИИ

Аннотация: В данной статье анализируются такие вопросы, как конституционные гарантии прав и свобод человека, порядок защиты прав и свобод, деятельность компетентных государственных органов, взаимное сотрудничество.

Ключевые слова: человек, гражданин, гарантия, оперативно-розыскная деятельность, правовое государство, правопорядок, информация, безопасность.

GUARANTEES OF RIGHTS AND FREEDOMS OF HUMAN AND CITIZENS IN THE NEW CONSTITUTION

Abstract: This article analyzes issues such as constitutional guarantees of human rights and freedoms, the procedure for protecting rights and freedoms, the activities of competent government bodies, and mutual cooperation.

Key words: person, citizen, guarantee, operational investigative activity, rule of law, law and order, information, security.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 20 iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda “Faqat

huquqiy davlat sharoitidagina insonning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini to‘liq ta'minlash, tom ma'noda xalqparvar boshqaruv tizimini shakllantirish mumkin”, deb ta'kidlagan edi. Shu oliy maqsadda, Konstitutsiyamizning 1-moddasida “O‘zbekiston – huquqiy davlat” degan tamoyil mustahkamlanmoqda.

Konstitutsiyada O‘zbekistonni huquqiy davlat ekanligini alohida belgilash – davlat o‘z faoliyatini, jamiyat va fuqarolar yashash tarzini faqat Konstitutsiya va qonun hujjatlari asosidagina amalga oshirilishini ta'minlaydi. Pirovardida, davlat organlari va mansabdor shaxslar qonun ustuvorligi asosida xalq manfaatlari uchun ishlaydi, unga xizmat qiladi. Ta'kidlash lozimki, Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar tomonidan tezkor-qidiruv faoliyati davomida olingan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlariga, sha’ni va sha’niga daxl qiluvchi ma’lumotlarni oshkor qilish ham taqiqlanadi. Fuqaroning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘siga putur etkazadigan ma'lumotlarning tarqalish nafaqat muayyan jismoniy shaxsning ma'naviy azoblanishi, balki yuridik shaxslarning moliyaviy-xo‘jalik aloqalarini yo‘qotishi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin[1].

Huquqiy faoliyatda provokatsiya deganda, ma'lum guruhlarni, tashkilotlarni og‘ir oqibatlarga olib keladigan harakatlarga undash tushuniladi. Provokatsiya qilishda boshqa shaxs ishontirish, pora berish, tahdid qilish yoki boshqa yo‘l bilan jinoyat sodir etishga moyil bo‘ladi. Provokator o‘zining boshqa shaxsni jinoyatga undayotganini anglabgina qolmay, bu maqsadiga noqonuniy yo‘l bilan erishmoqchi bo‘ladi[2].

Provokatsiya uchun jinoiy javobgarlik Jinoyat kodeksining 2-qismida ko‘zda tutilganligiga qaramasdan, uni amalga oshirish giyohvandlik vositalari, o‘q-dorilar, ogirlik va boshqa jinoyatchilarni saqlagan shaxslarni fosh qilishda mumkin. Operatsion eksperimentdagi provokatsion faoliyatdan farqli o‘laroq, operativ xodimning ongi jinoiy tajovuzdan himoya qilish bo‘yicha harakatlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi va iroda ijtimoiy foydali xulq-atvor harakatini amalga oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash nuqtai nazaridan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini buzadigan tezkor

qidiruv tadbirlari paytida shaxs huquqlarini cheklashning qonuniyligi va asosliligi ustidan sud nazoratini joriy etish katta ahamiyatga ega. Ayni paytda “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 27-moddasida ushbu nazoratni amalga oshirish mexanizmi nazarda tutilgan. Bunday ishlarni ko‘rib chiqish O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar tomonidan, qoida tariqasida, tezkor qidiruv materiallari joylashgan joyda yoki ularni yuritish to‘g‘risida ariza bergan organ joylashgan joyda amalga oshiriladi. Ushbu materiallar vakolatli prokurorlar tomonidan yakka tartibda va darhol ko‘rib chiqiladi. Prokuror, agar ular taqdim etilgan bo‘lsa, ularni ko‘rib chiqishni rad etishga haqli emas.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklash to‘g‘risidagi materiallar, birinchi navbatda, tuman, shahar prokuraturasi tomonidan ko‘rib chiqilishi kerak. Ikkinchidan, tartib-qoidaga rioya qilish kerak, unga ko‘ra, tezkor qidiruv tadbirlarini amalga oshirishga ruxsat olish uchun, birinchi navbatda, bunday tadbirlar o‘tkaziladigan joydagi prokuraturaga (tuman prokuraturasi), fuqaroning yashash joyi va prokuraturasiga murojaat qilish kerak.

Materiallarning zudlik bilan ko‘rib chiqilishi shuni anglatadiki, ish vaqtida ushbu qarorni qabul qilish mas'uliyati bo‘lgan prokuror, agar u sud muhokamasida ishtirok etmasa, ushbu masalani mohiyatan ko‘rib chiqishni etarli asoslarsiz keyinga qoldirishga haqli emas. Tezkor qidiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi masalani prokuror tomonidan ko‘rib chiqish uchun tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbarlaridan birining asoslantirilgan qarori asos bo‘ladi. Bunday rahbarlarning ro‘yxati qonun hujjatlariga muvofiq idoraviy normativ hujjatlar bilan belgilab qo‘yilganligi sababli vakolatli prokuror yoki uning rahbari ushbu normativ hujjatlar bilan tanishish huquqiga ega.

Tezkor xizmatlar tomonidan taqdim etilgan materiallar faqat prokuror tomonidan ko‘rib chiqiladi va qonuniylikni hisobga olgan holda ichki ishonchiga ko‘ra baholanadi. U yozma hujjatlarni o‘rganish bilan cheklanib qolishga, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ vakillaridan ularga aniqlik kiritishni yoki qo‘shimcha materiallar taqdim etishni talab qilishga haqli. Agar tezkor qidiruv tadbirlari qo‘zg‘atilgan

jinoyat ishi asosida amalga oshirilsa, jinoyat protsessining materiallari ham prokurorga taqdim etilishi mumkin. Prokuror fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklash to‘g‘risidagi materiallarni ko‘rib chiqishni rad etishga haqli emas, balki faqat tezkor bo‘lim boshlig‘idan olingan taklif asosida tezkor qidiruv tadbirlari o‘tkazishga ruxsat berishga majbur emas.

Tezkor-qidiruv bo‘linmalari prokurorga tezkor va rasmiy hujjatlarni taqdim etadi, uyushgan jinoiy guruhlarga a’zo bo‘lgan shaxslar, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning doimiy shtatdagi maxfiy xodimlari hamda ularga maxfiy asosda yordam bergan shaxslar tezkor-qidiruv faoliyatini tashkil etish va o‘tkazish taktikasi to‘g‘risidagi materiallar bundan mustasno.

Tezkor qidiruv tadbirlarini o‘tkazishga ruxsat berish yoki rad etish to‘g‘risidagi prokurorning qarori asoslantirilgan qaror shaklida rasmiylashtiriladi. Qarorning nusxalari soni haqiqiy ehtiyojga qarab belgilanadi. Rasmiy muhr bilan tasdiqlangan qaror tezkor qidiruv tadbirlariga so‘rov bergan organ vakiliga u taqdim etgan barcha materiallar sudyaning tanishganligi to‘g‘risidagi belgisi bilan qaytarilishi bilan bir vaqtda beriladi.

Prokuror qarorning amal qilish muddatini tekshirilgan faktik ma'lumotlarni va voqea tashabbuskorining qarorida keltirilgan iltimosnomani hisobga olgan holda belgilaydi. Muddat qaror chiqarilgan kundan boshlab olti oydan oshmasligi kerak, qarorda uning amal qilish muddati qisqaroq bo‘lishi ham mumkin. Zarur hollarda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbari tezkor qidiruv tadbirlarini amalga oshirish muddatini uzaytirish to‘g‘risida prokurorga iltimosnoma kiritish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Boshqa materiallar bilan bir qatorda prokurorga ilgari belgilangan muddatda olingan tezkor qidiruv materiallari natijalari to‘g‘risidagi ma'lumotnoma taqdim etiladi. Prokurorning bunday ma'lumotnomani taqdim etish talabi voqea tashabbuskori uchun tavsifdir.

Chorani amalga oshirish muddati uning bajarilishini kechiktirish yoki to‘xtatib turish yoki to‘xtatish bilan to‘xtatilmaydi va jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritishning jinoyat-protsessual muddatlariga va bu borada qabul qilingan qarorga bog‘liq emas. Voqea yoki jinoyat tarkibining yo‘qligi

sababli ishni tugatish yoki sudlanuvchini oqlash to‘g‘risidagi qaror istisno hisoblanadi.

Olti oylik muddat o‘tgandan keyin aniq tezkor qidiruv materiallarini o‘tkazishga ruxsat berish to‘g‘risidagi arizani sudga qayta qo‘zg‘atishga alohida hollarda, yangi aniqlangan faktik ma’lumotlar mavjud bo‘lganda yo‘l qo‘yiladi. Bu yangi jinoyatlar sodir etilganligi yoki jinoiy faoliyat bilan shug‘ullangan shaxslar to‘g‘risidagi ma'lumotlar bo‘lishi mumkin.

Prokurorning tezkor qidiruv tadbirlarini o‘tkazishni rad etish to‘g‘risidagi qarori ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilinishi mumkin. Tadbirni o‘tkazish zarurati va asoslarini tasdiqlovchi boshqa materiallar bilan bir qatorda tadbirni o‘tkazishga ruxsat berishni rad etish to‘g‘risidagi tuman prokurorining qarori ham taqdim etilishi kerak. Agar bunday qaror voqea tashabbuskoriga berilmagan bo‘lsa, u qarorda quyi prokurorga iltimosnoma qachon berilganligi va rad etish to‘g‘risidagi qaror qanday asoslarga ko‘ra qonunga xilof deb topilishi kerakligini ko‘rsatishi shart.

Shuningdek, qonunda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklovchi shoshilinch hodisa to‘g‘risida prokuratura (prokuror)ni 24 soat ichida xabardor qilish majburiyati ham nazarda tutilgan. Og‘zaki xabar berish imkoniyatini beruvchi qonun matnida xabar berishning o‘ziga xos shakli ko‘rsatilmagan. Agar prokurorning qarori 24 soat ichida olinmasa, boshlangan voqea darhol to‘xtatilishi kerak.

Agar prokuror allaqachon boshlangan tezkor qidiruv tadbirlarini o‘tkazishga ruxsat berishdan bosh tortsa, bu uning keyingi davom etishini taqiqlash va uning boshlanishining noqonuniyligini tan olish sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Bunda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organ rahbarining hodisani o‘tkazish to‘g‘risidagi qarori asossiz deb topilishi va yuzaga kelgan oqibatlarga qarab qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlik choralarini qo‘llashga sabab bo‘lishi kerak. Boshlangan tadbir davomida olingan natijalar isbotlovchi ahamiyatga ega bo‘lmaydi. 24 soat ichida shoshilinch tezkor qidiruv tadbirlari (turar joyni yashirin tekshirish yoki pochta orqali zaharlanishni bir martalik nazorat qilish) o‘tkazish uchun prokurorning yozma ruxsati ham olinishi kerak.

Fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularni tezkor

qidiruv tadbirlari davomida olingan materiallar bilan tanishtirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibi orqali ta'minlanadi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasiga ko‘ra[3], Davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari har kimga o‘z huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta'minlashi shart. Bunday ma’lumotlarni taqdim etishdan bosh tortish jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 144-moddasi).

Fuqarolarning o‘z konstitutsiyaviy huquqidan foydalanishi uchun barcha axborot resurslarini ro‘yxatga olish va ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni e’lon qilish O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunida nazarda tutilgan. Qonunda hujjatlashtirilgan ma'lumotlarning egasi u tegishli bo‘lgan shaxslarning iltimosiga binoan uni bepul taqdim etishi shart (14-modda). Konstitutsiyaviy talablar tegishli ma'lumotlarni Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risidagi qonunning 7-moddasida faqat tezkor qidiruv tadbirlari natijasida olingan, huquqbuzarlik bilan bog‘liq bo‘lmagan ma'lumotlardan fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini cheklash uchun foydalanish mumkin emasligi ko‘rsatilgan.

Aytish lozimki, shaxsga o‘zi to‘g‘risida olingan tezkor-qidiruv ma’lumotlar to‘g‘risida ma’lumot talab qilish huquqini beruvchi shartlar tezkor-qidiruv organi tomonidan jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun asoslar yo‘qligining aniqlanishi va tezkor-qidiruvning tugatilishi hisoblanadi. Shunday qilib, tezkor-tergov tekshiruvini o‘tkazish jarayonida jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun asoslar mavjudligini rasman tasdiqlamaslik va bu borada tezkor yozuvlar ishni tugatish (jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risidagi jinoyat protsessual qarori qabul qilingan taqdirda ham) fuqarolarga tezkor tergovni amalga oshiruvchi organdan ular to‘g‘risida olingan ma’lumotlarni talab qilish huquqini beradi.

Fuqaroning o‘ziga tegishli ma'lumotlarni taqdim etish to‘g‘risidagi arizasi (talabi) yozma ravishda tezkor qidiruv tadbirlarini bevosita amalga oshirgan organga yoki yuqori turuvchi bo‘linmaga yuboriladi. Shu bilan

birga, tegishli organ maxfiylik talablari ruxsat etilgan darajada va davlat sirlarini oshkor qilish imkoniyatini istisno qiladigan darajada taqdim etishi shart.

Shuni ta'kidlash kerakki, “Tezkor qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunda fuqaroni operativ va xizmat hujjatlari bilan tanishtirish buyrug‘i tartibga solinmagan. Uni qiziqtiradigan ma'lumot sertifikat, hujjatlardan ko‘chirma, buxgalteriya hisobi yoki boshqa operativ va rasmiy hujjatlardagi ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan ma'lumotlar bilan ifodalanishi mumkin.

Ayblari isbotlanmagan shaxslarga nisbatan tezkor-qidiruv materiallari (xabarlar, ma’lumotnomalar, audio va video yozuvlar, fotosuratlar va boshqalar mavjud) uchun cheklangan saqlash muddati – bir yil belgilanadi. Operatsion materiallarni saqlash muddati, agar bu adolat yoki mansabdorlik manfaatlari talab qilsa, uzaytirilishi mumkin. Ushbu shart tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga idoraviy normativ hujjatlarda xizmat manfaatlaridan kelib chiqqan holda alohida tezkor hujjatlar va tezkor hujjatlarni saqlashning uzoqroq muddatlarini belgilash huquqini beradi.

Xizmat manfaatlari deganda, eng avvalo, jinoyatchilikka qarshi kurash manfaatlari, shuningdek, tezkor faoliyat ustidan nazoratni amalga oshirish zarurati va imkoniyati tushunilishi kerak. Tezkor materiallarni uzoqroq saqlash zarurati, qoida tariqasida, tezkor vositalar bilan to‘plangan ma'lumotlar shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun etarli bo‘lmasa, lekin uning jinoiy faoliyatini ko‘rsatsa amalga oshiriladi. Tezkor ish yuritish asossiz ekanligi, ya'ni shaxsning jinoyat sodir etishga to‘liq jalb qilinmaganligi aniqlangan hollarda materiallarni saqlash muddatlari qonun hujjatlarida belgilangan chegaradan oshmasligi kerak.

Prokurorning qarori asosida amalga oshirilgan tezkor qidiruv tadbirlari yo‘q qilingan taqdirda, bunday ruxsat bergan prokuror, u yo‘qligida esa prokuror ishlagan prokuratura organi rahbari bu haqda xabardor qilinishi shart. Xabarnomaning yozma va og‘zaki shakllariga ruxsat beriladi.

Axborotni oshkor qilish deganda, uni og‘zaki yoki yozma, shu jumladan ommaviy axborot vositalari orqali ommaga etkazish tushunilishi

kerak. Tezkor qidiruv tadbirlarini amalga oshirish jarayonida mansabdor shaxslar va jalb qilingan fuqarolar odamlarning shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi juda keng ma'lumotlardan xabardor bo‘lishlari mumkin, shuning uchun ushbu qonun ustuvorligiga rioya qilish mexanizmini yaratish juda muhimdir. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 88-moddasi 3-qismi[4] talabiga o‘xshab, tezkor qidiruv tadbirlari ishtirokchilarini fuqarolarning shaxsiy daxlsizligiga daxldor ma’lumotlarni oshkor qilishga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risida ogohlantirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov V. Maxsus ishlarda qonuniylikni ta'minlash muammolari // Jinoyatchilikka qarshi kurashda tezkor apparatlarning ta'minlovchi omillari: Ilmiy maqolalar tuplami. -T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009, 21-25-b.

2. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism. -T.: IPTD "O‘qituvchi", 2004, 318-b.

3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.-Тошкент, “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023 й. – Б.22 - 23.

4. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. Қонунчилик маълумотлар базаси.01.11.2023 й.

ШУҲРАТ ХОЛИҚОВ,

ЎзР Жамоат хавфсизлиги университети катта ўқитувчиси

КОНСТИТУЦИЯ ВА ИНТЕРНЕТ

Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикаси янгиланган Конституциясига интернет, ахборотни излаш, олиш ва тарқатишга бўлган ҳуқуқ масалалари тадқиқ қилинади. Келтирилган масалалар бўйича Жаҳоннинг илғор ривожланган мамлакатлари тажрибалари таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: Конституция, интернет, ижтимоий тармоқ, ахборот технологиялари, ҳуқуқ ва эркинликлар.

КОНСТИТУЦИЯ И ИНТЕРНЕТ

Аннотация: В данной статье обновленная Конституция

Республики Узбекистан рассматривает вопросы Интернета, права на поиск, получение и распространение информации. Анализируется опыт передовых развитых стран мира по указанным вопросам.

Ключевые слова: Конституция, Интернет, социальная сеть, информационные технологии, права и свободы.

THE CONSTITUTION AND INTERNET

Abstract: In this article, the updated Constitution of the Republic of Uzbekistan examines issues of the Internet, the right to search, receive and disseminate information. The experience of the advanced developed countries of the world on these issues is analyzed.

Key words: Constitution, Internet, social network, information technology, rights and freedoms.

Ўзбекистон Республика Президенти Шавкат Мирзиёев “Бугунги шиддатли давр биздан замонга мос ҳаракат ва ўзгаришларни талаб этмоқда. Ана шундай талабга жавоб берадиган мукаммал Конституцияга эга бўлиш учун Асосий қонунимизнинг янги лойиҳасини тайёрлашимиз, уни умумхалқ муҳокамасига қўйиб, билдирилган таклифлар асосида такомиллаштириш, ушбу муҳим сиёсий ҳужжатни қабул қилиш, ўйлайманки, миллий давлатчилик анъаналаримизга, халқимиз манфаатларига муносиб иш бўлади” деган эди [6].

Бугунги кунда дунё ахборот маконига айланганлиги Ўзбекистонда ахборот, ундан фойдаланишнинг ҳуқуқий асосларини ривожлантириш, Конституцияга халқимиз манфаатларини таъминлайдиган ўзгартиришлар киритилиши зарурлигидан дарак берарди. Жумладан, аввалги конституциямизнинг 29-моддасида ҳар ким фикрлаш, сўз ва эътиқод эркинлиги, ўзи истаган ахборотни излаш, олиш ва уни тарқатиш ҳуқуқига эгалиги, фикр юритиш ва уни ифодалаш эркинлиги фақат давлат сири ва бошқа сирларга тааллуқли бўлган тақдирдагина қонун билан чекланиши мумкинлиги белгиланган. Шу ўринда амалдаги конституциявий тузумга қарши қаратилган ахборот ва қонун билан белгиланган бошқа чеклашлар бундан мустаснолиги ҳам қайд этилган.

Асосий қомусимизда ахборот олиш ҳуқуқи инсоннинг асосий

ҳуқуқларидан бири сифатида эътироф этилган. Лекин ўттиз йил олдин қабул қилинган бу норма жамият ҳаётида рўй бераётган улкан ўзгаришларни, ахборот технологияларининг ижтимоий-иқтисодий муносабатларга таъсирини ҳар жиҳатдан қамраб ололмаслиги кўриниб турарди.

XXI асрда, инсонларнинг, айниқса ёшларнинг фикр ва сўз эркинлиги, ўзи истаган ахборотни излаш, олиш ва уни тарқатиш сингари ҳуқуқларини қандай амалга оширилиши уларнинг ахборот ресурслари, коммуникация технологиялари, хусусан, Интернетдан эркин фойдаланишларига бевосита боғлиқ.

Шундай экан, **ҳаёт тарзимизнинг, касбий фаолиятимизнинг салмоқли бир бўлаги, комил инсон шаклланишининг асосий омилларидан бири бўлаётган Global интернет тармоғидан эркин фойдаланиш ҳуқуқининг асосий қомусимиз – Конституцияга кирилгани айни муддао ҳисобланади.** Бу халқаро ҳуқуқ нормаларида, ривожланган давлатлар конституцияларида мустаҳкамланган ва ўзининг самарасини кўрсатаяпти.

Масалан, БМТнинг 2016 йил 5 июлдаги резолюциясида Интернетдан фойдаланиш асосий инсон ҳуқуқларидан бири экани таъкидланган.

2022 йилнинг апрель ойида АҚШ, Европа иттифоқига аъзо давлатлар ва бошқа 32 мамлакатлар томонидан «Интернет келажаги Декларацияси»да қабул қилинди. Унда замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш, Интернетнинг «очиқ, ишончли ва хавфсиз»лигини таъминлаш масалаларга катта эътибор қаратилган. Бу, энг аввало, Интернетнинг жамият ва инсоният тараққиётидаги ўрни ва роли нақадар юксалаётганидан далолатдир. Финландия, Эстония, Испания сингари давлатларда замонавий ахборот технологиялардан эркин фойдаланиш давлат томонидан кафолатланиши белгиланган. Франция Конституциявий кенгаши 2009 йили интернет ва ахборотдан фойдаланишни инсон ҳуқуқларининг ажралмас қисми сифатида эътироф этган.

Бугун жадал суръатлар билан ривожланаётган, ўз жамияти,

иқтисодиёти, умуман барча соҳаларни рақамлаштиришга киришган Янги Ўзбекистон бу сиёсий жараёнлардан четда қолмаслик учун фаол ҳаракат қилмоқда. Бу – ҳозирги давр талаби.

Масаланинг яна бир диққатга сазовор жиҳати бор. Ахборот ва алоқа технологияларининг доимий, узлуксиз ривожланишиб бориши, улардан фойдаланишнинг янги шакл ва воситаларининг доимо пайдо бўлиши кибермаконда ҳуқуқбузарликлар, жиноятлар сонини кўпайишига олиб келиши мумкин ва бу вазият уларга қарши курашнинг янги, замонавий, ниҳоятда такомиллашган усулларини яратишни, тартибга солишнинг янги механизмларини ишлаб чиқишни талаб қилиши табиий. Яъни миллий қонунчилигимизда ахборот хавфсизлиги, киберхавфсизлик масалаларига оид нормаларни тизимли равишда ахборот технологиялари ривожига параллел равишда такомиллаштиришиб боришимиз кераклигини даврнинг ўзи тақазо қилмоқда. Бунинг учун ҳуқуқий асос яратилиши керак. Янги конституцияда интернетдан эркин фойдаланиш ҳуқуқининг мустаҳкамланиши миллий қонунчилигимиздаги шу соҳадаги муносабатларни тартибга солиши, яъни барча муносабатлар қонун доирасида бўлишини таъминлаш учун зарур платформа бўлади.

Бундан ташқари Интернет тармоғидан ахбророт олиш ва уни тарқатишдаги суистеъмолликларни, инсон ҳуқуқларининг поймол бўлиши, ёшларимизнинг ноанъанавий таҳдидлар таъсирига тушиш ҳолларининг олдини олиш, бошқа шахсларнинг барча конституциявий ҳуқуқларини ҳимоя қилиш мақсадида, шахсий сир, давлат сири ёки бошқа соҳаларга тааллуқли сир деб эътироф этилган ахборотларни олиш ва тарқатишни қонунга мувофиқ чеклаш лозим. Бошқа барча холатларда ҳар бир фуқаро ахборот ресурслари, коммуникация технологиялари, интернетдан эркин фойдаланиш имкониятига эга бўлишлари керак.

Конституцияга киритилган янги ўзгартишлар қаторида “*Ҳар ким исталган ахборотни излаш, олиш ва тарқатиш ҳуқуқига эга. Давлат Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланишни таъминлаш учун шарт-шароитлар яратади.*

Ахборотни излаш, олиш ва тарқатишга бўлган ҳуқуқни чеклашга фақат қонунга мувофиқ ҳамда фақат конституциявий тузумни, аҳолининг соғлиғини, ижтимоий ахлоқни, бошқа шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, жамоат хавфсизлигини ҳамда жамоат тартибини таъминлаш, шунингдек давлат сирлари ёки қонун билан қўриқланадиган бошқа сир ошкор этилишининг олдини олиш мақсадида зарур бўлган доирада йўл қўйилади" деган жумлаларни ёдга олиш даркор [1].

Шуни эътироф этиш керакки, 2023 йил январь ҳолатига кўра Дунёда интернет фойдаланувчилари сони 5,16 млрд.дан ошди, бу дунё аҳолисининг 67 % ни ташкил қилади. Ушбу кўрсатгич Ўзбекистон Республикасида 31 миллиондан ошди, бу эса 86 % (Ўзбекистонда аҳоли сони 36 миллиондан ортиқ)ни ташкил қилади [4].

Интернет ижтимоий тармоқлари фаол фойдаланувчилари сони 2023 йил февраль ҳолатига кўра дунёда 4.74 млрдан ошди, бу дунё аҳолисининг 59 %ни ташкил қилади. Ушбу кўрсатгич Ўзбекистон Республикасида 7 миллион ошди, бу эса аҳоли сонининг 19 %ни ташкил қилади [5].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 33 modda.

2. https://www.statista.com/statistics/617136/digital-population-worldwide/

3. https://stat.uz/uz/59-foydali-ma-lumotlar/5859-o-zbekiston-aholisi-3.

4. https://www.statista.com/statistics/278414/number-of-worldwide-social-network-users/

5. https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/15/internet-users/

6. https://www.gazeta.uz/uz/2021/12/24/amendments/

ШАРОФИДДИН АМИРҚУЛОВ,
Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Қашқадарё вилояти, Қўриқлаш бошқармаси катта инспектори

ЯНГИЛАНГАН КОНСТИТУЦИЯ – МАМЛАКАТИМИЗ ТАРАҚҚИЁТИ ВА ФАРОВОНЛИГИНИНГ МУҲИМ ТАЯНЧИ

Аннотация: Мазкур мақолада Конституция мамлакат тараққиётининг муҳим ҳуқуқий пойдевори эканлиги, унинг ўзига хусусиятлари, барча ислоҳотларнинг асосий манбалиги, инсон ҳуқуқ ва эркинликларни таъминловчи ҳужжат эканлиги, каби масалалар атрофлича таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Конституция, қонун, суверен, фуқаро, юридик ҳужжат, шаън, қадр –қиммат.

ОБНОВЛЕННАЯ КОНСТИТУЦИЯ – ВАЖНАЯ ОПОРА РАЗВИТИЯ И ПРОЦВЕТАНИЯ НАШЕЙ СТРАНЫ

Аннотация: В данной статье подробно анализируются такие вопросы, как то, что Конституция является важной правовой основой развития страны, ее характеристики, главный источник всех реформ, а также то, что она является документом, обеспечивающим права и свободы человека.

Ключевые слова: Конституция, закон, суверен, гражданин, правовой документ, достоинство, уважение.

THE UPDATED CONSTITUTION IS AN IMPORTANT PILLAR OF THE DEVELOPMENT AND PROSPERITY OF OUR COUNTRY

Abstract: This article analyzes in detail such issues as the fact that the Constitution is an important legal basis for the development of the country, its characteristics, the main source of all reforms, and also the fact that it is a document ensuring human rights and freedoms.

Key words: Constitution, law, sovereign, citizen, legal document, dignity, respect.

Таъкидлаш лозимки, конституциявий ислоҳотлардан кўзланган асосий мақсад ҳам давлат ва жамият бошқаруви тизимидаги ёндашувни ва фаолият тамойилларини тубдан ўзгартиришга, Янги

Ўзбекистонда ўзаро муносабатларнинг асоси сифатида “давлат-жамият-инсон” тамойили ўрнига “инсон-жамият-давлат” ғоясини асос қилиб қўйишга қаратилган.

Дарҳақиқат, янги таҳрирдаги Конституцияда “Ўзбекистон – республика бошқарув шаклидаги суверен, демократик, ҳуқуқий, ижтимоий давлат” [1] деб белгиланишининг ўзи давлат ўз олидга улкан мақсад ва вазифалар қўйганлигидан далолат беради.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Конституциямиз қабул қилинганлигининг 28 йиллиги муносабати билан йўллаган табригида, ўтган қисқа даврда жамиятимизнинг сиёсий-ҳуқуқий ва ижтимоий-иқтисодий қиёфаси, одамларимизнинг дунёқараши бутунлай ўзгаргани, ҳар бир юртдошимиз мамлакатимизнинг тараққиётига муносиб ҳисса қўшаётгани Бош қомусимизнинг ҳаётбахш қудрати ва улкан салоҳиятидан далолат беради” деган фикрга алоҳида эътибор қаратдилар.

Инсон ўз ҳаётини борлиққа, унинг қонунларига эътибор бермай ташкил эта олмайди. Шунинг учун ўзини кашф қилишда, ўрганишда, унинг хусусиятларини, меъёрини кенгроқ билишга интилади.

Хабарингиз бор, янги таҳрирдаги Конституциямиз 2023 йил 30 апрелда бўлиб ўтган, умумхалқ овози (референдум) йўли билан қабул қилинди. Биз мазкур Асосий қонунимизни баралла Халқ конституция дейишимизга тўлиқ асосларимз бор. Негаки, аосий киритилган нормалар халқимиз томонидан таклиф этилган 222 мингдан ошиқроқ таклифлар асосида шакллантирилди” [2].

Конституция атамаси қадимда сиёсий тузум маъносини англатган. Конституция ҳуқуқий давлатнинг асосий белгиси ҳисобланади. Унда жамиятнинг ижтимоий-сиёсий ҳусусияти, тараққиётнинг бош мезонлари, мамлакат ички ва ташқи сиёсатининг асосий йўналишлари ўз ифодасини топган бўлади.

Тарихан эътибор қаратадиган бўлсак, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси МДҲ давлат орасидан биринчилардан бўлиб қабул қилинган Конституцияси ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1990 йил 20 июнда бўлган иккинчи сессиясида мустақиллик декларацияси қабул қилинди. Деклорацияда

Ўзбекистоннинг давлат мустақиллиги эълон қилинди. 1991 йил 31 августда Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисида Қонун қабул қилинди. Бунда Мустақиллик Декларацияси ва Баёнот асос бўлиб хизмат қилди. Мазкур ҳужжатда Ўзбекистоннинг мустақил давлат сифатида қўйган илк қадамларининг ҳуқуқий асоси яратилди. Мазкур қонуннинг ютуғларидан бири биринчи марта Ўзбекистон Республикаси фуқоролиги жорий этилди. У шбу қонунда Ўзбекистон Республикасининг барча фуқаролари миллатидан қатъий назар бир ҳил фуқаролик ҳуқуқларига эгалиги ҳамда уларнинг Республика Конституцияси ва Қонунлари ҳимоясида бўлиши қайд этилди.

Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн иккинчи чақириқ, ўн биринчи сессиясида (1992йил, 8-декабрь) ҳуқуқий ва аҳамиятга молик хужжат-Мустақиллик конституцияси қабул қилинди. У иқтисодиётда, ижтимоий-сиёсий муносабатлар ва маънавий хаётда чуқур ислоҳотлар ўтказиш учун пухта ҳудудий пойдевор яратди.

Конституцияда энг аввало, ўзбек миллатининг тарихий анъаналари, худудий тафаккури ўз аксини топган.

Мустақил Ўзбекистон Конституцияси жахон ҳамжамиятининг инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ютуғларини тўла мужассам қилади. Ушбу Конституция инсон ҳуқуқлари соҳасидаги барча муҳим қоидаларни: инсоннинг яшаш, эркинлик ва шаҳсий дахлсизлик ҳуқуқи, мулкдор бўлиш ҳуқуқи ва бошқа шу каби ҳуқуқларни ўз ичига олгандир.

Бизнинг Конституциямиз нафақат юридик ҳужжат, балки у миллий мафкурамизнинг ижтимоий-сиёсий, маънавий асосини ташкил этувчи умуминсоний ғояларга хизмат қилади.

Давлат ва жамият ривожланишининг муҳим йўналишларини ва уларнинг тузилишларини белгилаб берадиган, тартибга келтирадиган олий юридик ҳужжат конституциядир.

Мустақил Ўзбекистон Конституцияси тарихда синалган умуминсоний, умумбашарий қадриятларни ўзида мужассам этган ҳамда ривожланган давлатларнинг тарихий тажрибасига таянган

ҳолда яратилган.

Ўзбекистон Конституцияси жаҳондаги йирик сиёсатшунослар-экспертлар томонидан халқаро меъёрларга тўла жавоб берадиган мукаммал ҳужжат сифатида тан олинган.

Халқ манфаатларини кафолатловчи Бош Қомусимиз бошқа янги мустақил давлатлар конституцияларидан тубдан фарқ қилиб, ўтиш давригагина мўлжалланмасдан, балки давлат ва жамият фаолиятининг барча йўналишларини белгилаб берувчи дасурий ҳужжат сифатида ҳам юксак эътиборга сазовардир.

Фаровон турмушимиз ривожида, Ватанимиз ва халқимиз тақдирида Конституциянинг аҳамияти тобора ортиб бормоқда.

Конституциямизни нафақат тарифлаганда, балки қоидаларни моддама-модда рўёбга чиқариш асосида уни ҳаётимиз қомуси деб билишимиз ва қадрлашимиз катта аҳамиятни касб этади. Конституциямизда халқимизнинг ҳуқуқий демократик давлат адолатли фуқаролик жамияти, эркин ва фаровон ҳаёт қуришдек орзу-ҳаваси ўзининг тўла ифодасини топган. Унда ҳаётимизнинг гарови бўлмиш тинчлик, осойишталик, тотув ҳаётнинг асослари белгилаб берилган. Фуқароларнинг ҳуқуқ ва бурчлари бир – бирига уйғунлаштирилган. Энг муҳими, инсон ҳуқуқи, инсон эркинлиги мустаҳкам муҳрлаб қўйилган.

Конституциямизда энг олий қадрият сифатида асосий эътибор давлат ва ижтимоий тузумга эмас, балки инсон манфаатларига қаратилган. Унинг 13-моддасида, Ўзбекистон Республикасида демократия умуминсоний принципларга асосланади, уларга кўра инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни, қадр-қиммати ва бошқа ажралмас ҳуқуқлари олий қадрият ҳисобланади[3], деб белгилаб қўйилган.

Бундан ташқари инсон ва фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари эълон қилинибгина қолмасдан, шу модданинг ўзида демократик ҳуқуқ ва эркинликлар Конституция ва қонунлар билан ҳимоя қилишни ҳам мустаҳкамланган.

Янги таҳрирдаги Коснтитуцимяда инсон ва фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари мазмунини бевосита очиб берувчи

3 баравардан ортиқроқ янги нормалар киритилди. Унинг муқаддимасидан тортиб, якунловчи қоидаларига қадар инсон тўғрисида, унинг фаровонлиги тўғрисида ғамхўрлик ғоялари сингдирилган. Ҳар қандай давлат органининг, ҳар қандай мансабдор шахснинг фаолияти инсон манфаатларига бўйсундирилади.

Халқимиз ва давлатимизнинг Конституцияси аҳамиятини аниқ тасаввур қилдик ва аввало нимадан воз кечиб, нималарни қўлга киритишимизни англаб етдик. Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки шу билан бирга уни ҳимоя қилувчи қалқон жамиятимизнинг асосий ҳуқуқий пойдевори ҳисобланади. Энг муҳими конституция туфайли Ўзбекистон Республикаси янги демократик давлат сифатида дунё сиёсий харитасидан муносиб ўрин эгаллади.

Дунёдаги ривожланган демократик давлатларда ҳеч бир фуқаро, ҳеч бир одам ўз ижтимоий шахсий хаётини ўз қонуний манфаатларини ҳимоя қилиши конституциясиз тасаввур эта олмайди.

Демократия тамойилларига асосланган миллий давлатчилик ва ҳуқуқ тизими шакллантирмокда, ижтимоий-маданий соҳа барқарор ривожланиб, кишиларимизнинг маънавий қиёфаси янгиланмоқда, уларнинг онгига истиқлол ғояси тобора чуқурроқ сингиб бормоқда, мустақил ёш давлатимиз халқаро жамиятда ўзининг муносиб ўрнини эгалламоқда.

Мухтасар қилиб айтганда, Конституциямиз мамлакатимиз тинчлиги, барқарорлиги, халқимиз фаровонлигини таъминлаб берувчи энг муҳим ҳуқуқий, ижтимоий, сиёсий, иқтисодий ҳужжатдир. Биз албатта доимий тарзда конституциямиз билан фахрланишимиз, ғурурланишимиз ва унга нисбатан алоҳида эътиборда бўлишимиз лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Тошкент, “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023 й. – Б.4.

2. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.

3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.-Тошкент, “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023 й. – Б.8.

DILMUROD IRGASHEV,
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, i.f.b.f.d., (PhD),

SHOXRUX QADAMOV,
Jamoat xavfsizligi universiteti Bakalavriat fakulteti 401-A-O‘quv guruhi kursanti

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA MAMLAKAT TARAQQIYOTINING ISHONCHLI GAROVI

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif O‘zbekiston Respublikasida yangi qabul qilingan konstitutsiyasinig moddalari tahlili va milliy qadriyatlarimiz adolatli fuqarolik jamiyati ijtimoiy davlat qurish, yangilangan konstitutsiyaning asosiy yo‘nalishi milliy qadriyatlarimiz adolatli fuqarolik jamiyati sari yo‘l ochib berishi va ijtimoiy davlat qurish, yangi konstitutsiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad insonni va uning hayotini e’zozlash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, ijtimoiy jamiyat, qadr-qimmat, intelektual huquq, burch, erkinlik, qonun, referendum, inson qadri, modda, milliy qadriyat, diniy erkinlik.

ОБНОВЛЕННАЯ КОНСТИТУЦИЯ-НАДЕЖНЫЙ ЗАЛОГ РАЗВИТИЯ СТРАНЫ

Annotation. В данной статье освещаются вопросы анализа статей вновь принятой Конституции Республики Узбекистан и построения социального государства с национальными ценностями и справедливым гражданским обществом, основной направленностью обновленной Конституции является то, что наши национальные ценности прокладывают путь к справедливому гражданскому обществу и построению социального государства, основной целью новой Конституции является уважение к человеку и его жизни.

Key words: Конституция, социальное общество, достоинство, интеллектуальные права, долг, свобода, закон, референдум, человеческое достоинство, субстанция, национальная ценность, свобода вероисповедания.

THE UPDATED CONSTITUTION IS A RELIABLE GUARANTEE OF THE COUNTRY'S DEVELOPMENT

Аннотация. This article highlights the issues of analyzing the articles of the newly adopted Constitution of the Republic of Uzbekistan and the construction of a social state with national values and a just civil society, the main focus of the updated Constitution is that our national values pave the way to a just civil society and the construction of a social state, the main purpose of the new Constitution is respect for a person and his life.

Ключевые слова: Constitution, social society, dignity, intellectual rights, duty, freedom, law, referendum, human dignity, substance, national value, freedom of religion.

Ma’lumki, o‘tgan davr mobaynida Respublikamiz iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar, islohotlar, qanchadan-qancha bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayotganligi hamda bevosita Konstitutsiyamizga bog‘liqligi, huquqiy fuqarolik jamiyati qurishda hukumatimizning Konstitutsiya va qabul qilingan qonunlar asosida faoliyat olib borayotganligi, mustaqilligimiz bilan bir qatorda Konstitutsiyamizning qabul qilinganligini ham har yili nishonlanishi bejiz emas, albatta. Shuni ta’kidlash lozimki, jamiyatimizda har qaysi oila va fuqarolarimiz hayotida qanday ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bo‘lsa, bularning barchasini Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilgan talab va qoidalarning hayotimizdagi amaliy ifodasi deb, qabul qilishimiz kerak albatta. Zero, Konstitutsiyamiz tarixan sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan hujjatdir. Asosiy qonunimiz eng rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgandir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining g’oyasi, maqsadi, ruhi – har bir qoidasi inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, asrlar mobaynida shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik, shuningdek, bir necha ming yillardan buyon avloddan avlodga meros bo‘lib kelayotgan o‘zbekona va sharqona davlatni idora etish hamda xalq bilan bamaslahat siyosat olib borish an’analarini o‘zida to‘la mujassamlashtirgan. Prezidentimizning “Hammamizni tarbiyalagan,

voyaga yetkazgan – shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham – shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak – odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak – avvalo xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo‘ladi. Xalq rozi bo‘lsa, ishimizda unum va baraka bo‘ladi. Xalq bizdan rozi bo‘lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo‘ladi”[1], degan fikrlari xalq bilan bamaslahat siyosat olib borish an’analari davom etayotganligining amaliy isbotidir. Yangi O‘zbekiston Yangi Konstitutsiyasining qabul qilinishi milliy qadriyatlarimizni adolatli ijtimoiy jamiyat, inson qadir qimmati va intelektual huquqlarini himoya qiladigan va qo‘llab quvvatlaydigan jamiyat qurish yo‘llarini belgilab beradi.

O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasi huquqiy tizimimizda ijobiy yangilanishlar, fuqarolarga ko‘dan ko‘p yengilliklar va ularning huquqlarini izchil himoya qiladigan shu jumladan bir necha yillardan buyon dolzarb muammolardan biri hisoblanib kelayotgan shaxsning intelektual huquqiy daxlsizligini taminlaydi(Yangilan Konstitutsiyaning 31-moddasi). Bugungi yangilanayotgan O‘zbekistonda bu moddaning konstitutsiga kiritilishi insonlarning yashash erkinligining kafolatlaridan biri desak adashmagan bo‘lamiz. Taniqli fizik olim Albert Eynshteyn “Konstitutsiyaning kuchi butunlay har bir fuqaroning uni himoya qilishga qat’iyat bilan intilishidadir. Konstitutsiyaviy huquqlar har bir fuqaro ushbu himoyaga hissa qo‘shishni o‘z burchi deb bilsagina himoya qilinadi”[2], deb Konstitutsiya kuchi haqida o‘z fikrlarini bildirgan.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarini doimiy olib borish lozimdir. Shuningdek, yoshlarni qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalash, maktab davridan ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish eng muhim masalalardan biri bo‘lib turibdi, fuqarolarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish uchun albatta birinchi navbatda Konstitutsiyada belgilangan normalarni bilishdan boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yangilangan Konstitutsiyaning muqaddimasida O’zbekistonning yagona xalqi:inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e’lon qilib,demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g’oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo’shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanib, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko’paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O’zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo’shni davlatlarbilan do’stona munosabatlarini hamkorlik, o’zaro qo’llab-quvvatlash,tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib,fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko’p millatli jonajon O’zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda har bir moddaning qabul qilinishida aholi vakillar mas’ulyat bilan ishtirok etishlari kerak ekanligini tushuntirish ishlarni yanada jadallashtirish kerak ekanligini aytib o‘tmoqchimiz. Xalqimizda “Kengashli to‘y tarqamas” degan g’oyat ibratli bir maqol bor. Ijtimoiy hayotimizning qaysi bir jihatiga e’tibor qaratmaylik, mana shu hikmatga amal qilinishini kuzatishimiz mumkin. Qaysi bir joyda ibratli bir ish bo‘lsa, u kengashilgan tadbirning natijasi ekaniga guvoh bo‘lamiz. Bu bejiz emas, zotan biz ulug’vor o‘tmishimizdan shunday saboq olganmiz.

Sohibqiron Temur o‘z tuzuklarida shunday ta’lim beradi: “Davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur... Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to‘g’ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin... Har kimdan so‘z olib kengash so‘rar edim. Lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon

tomonlari haqida o‘ylab ko‘rgach, to‘g’ri va savoblirog’ini tanlab olardim”.Bu haqda mashhur nemis tarixchisi F.Shlosser ham shunday ma’lumot beradi: “... sarkarda, hokim va qonunchi sifatida buyuk talant egasi edi. Yolg’onni yomon ko‘rar, bilimga muhabbat qo‘yishdan mahrum emas edi. Uning manzilida shoirlar, olimlar, mashshoqlar va mistiklar (so‘filar) ko‘p bo‘lardi... u odil sudya, ilm-fan do‘sti, birga suhbatlashishni xush ko‘radigan, rassomlar va olimlarning homiysi edi”.Bu fikr to‘g’ridan-to‘g’ri xalqning xohish-irodasini qonunlarda ifoda etish, bayoni uning tomonidan saylangan vakillar orqali bajarilishi lozimligini bildiradi. Shuning uchun ham “Davlatning yagona manbai xalq” degan qoida barcha zamonlarda o‘z dolzarbligini saqlab kelgan. Jan Jak Russo: “Qonunga itoat etguvchi xalq uning ijodkori ham bo‘lmog’i lozim” deydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir”[3], deb ta’kidlagan edi.

Darhaqiqat, suveren Respublikamiz Konstitutsiyasi – inson va fuqaro huquqlarining demokratik xartiyasi bo‘lib, u huquqiy va insonparvar davlatni shakllantirishning strategik dasturi vazifasini o‘tab kelmoqda. Konstitutsiya - davlatimiz mustaqilligining huquqiy zamini, xalq xohish-irodasining oliy ifodasi sifatida maydonga chiqdi. U eng taraqqiy topgan, rivojlangan davlatlarning konstitutsiyaviy tajribalariga tayanish bilan birga, tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan huquqiy hujjat. Bugun yurtimiz haqida fikr yuritilganda “Yangi O‘zbekiston”, ”Taraqqiyotning yangi bosqichiga kirib borayotgan mamlakat” kabi sharafbaxsh iboralar ishlatilyapti. Bu qo‘lga kiritayotgan ulkan muvaffaqiyatlarimizning amaliy samarasi, desak mubolag’a bo‘lmaydi. Demak, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil harakatdamiz. Yuksalish esa raqamli iqtisodiyotga o‘tish, ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, innovatsion g’oyalar va texnologiyalar bilan boyitish, shu bilan birga o‘zligimizni, ma’naviyatimizni, milliy qadriyatlarimizni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan, har bir yurtdoshimiz bugun mamlakatimizda barq urib turgan bebaho ne’mat - tinchlik, totuvlik, barqarorlikning qadriga yetib, Uchinchi Renessans davri poydevoriga g’isht qo‘yish, ya’ni yurtimiz

taraqqiyotiga munosib xissa qo‘shish uchun astoydil harakat qilmog’i lozim.

Xulosa o‘rnida shuni ayta olamizki, bugungi, har tamonlama rivojlanib bora-yotgan dunyoda, yetakchi va ilg’or mamlakatlar qatoridan o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun zamon ruhi bilan hamnafas bo‘lgan, har jabhada mukammal, ijtimoiy davlat qurishga asoslangan, oddiy xalq vakillarining muammolarini yechishga qodir bo‘la oladigan qonun tizimi bo‘lmog’i zarur. Xuddi mana shunday yuqorida ta’kidlaganlarimizni umumlashtirgan holda, bugungi zamon ruhiga mos bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining yangilangan tahriri o‘zbek xalqi tomonidan referendumda tasdiqlandi. Yangilangan konstitutsiyamizda xalqimiz uchun bir qancha yengilliklar yaratildi. Inson qadr-qimmati yuqori o‘ringa ko‘tarildi. Shuningdek asrlar mobaynida sharafli kasb hisoblanib kelgan – o‘qituvchilarning huquqlari yangilangan qomusimizda belgilab qo‘yildi. Yillar mobaynida majburiy mexnatga jalb qilingan, o‘z kasbi bo‘lmish barkamol avlodni yetishtirish qolib dalada paxta tergan o‘qituvchilarning qadr - qimmati adolatli tarzda o‘z o‘rniga qo‘yildi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi halqimizda vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalaydi, davlatimiz ramzi bo‘lmish O‘zbekiston madhiyasi, bayrog‘i va gerbida o‘z ifodasini topgan baxt saodat sari yetaklaydi. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlarni tizimli va uzviy olib borish taqozo etmoqda. Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otishga jiddiy yondoshish lozim.

Bugungi kunda, Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabussi bilan qabul qilinayotgan yangi qonunlar va ularning natijasida amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi, yurtimizda tinchlik va adolat hukm surayotganining natijasidir, bunda esa Konstitutsiyamiz o‘rni beqiyosdir.Shu jumladan yangilangan qomusimizda inson ilmiy

salohiyatli, o‘z aqliy mehnat mahsulini himoyalay olish huquqiga ham ega bo‘ ldi. Qisqa qilib shuni ayta olamiz-ki, yangilangan konstitutsiyamiz muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan tamoyilga asoslangan ijtimoiy davlat qurishning asosiy kalit bo‘lib xizmat qiladi desak mubolag’a qilmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 80. b.
2. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yilning 14-dekabrida Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisi.
3. Konstitusiya – xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsuli ilmiy maqola.
4. To‘ra qizi Madina. Konstitutsiyamiz – huquq va erkinligimiz kafolati ilmiy maqola.

RUSTEM OMIRZAKOV,
teacher, Karakalpak State University

A NECESSITY FOR A SOCIETY: CONSTITUTIONAL GUARANTEES OF ENSURING QUALITY EDUCATION, GUARANTEED HEALTH CARE AND DECENT WORKING CONDITIONS

Abstract: The provision of quality education, guaranteed health care, decent working conditions, fair wages, pensions, and benefits, and a system of social assistance and services is fundamental to building a just society. This article examines the importance of these elements and their impact on individuals and society.

Key words: quality education, guaranteed health care, social assistance, society.

JAMIYAT UCHUN ZARURAT: SIFATLI TA'LIMNING, KAFOLATLANGAN TIBBIY YORDAM VA MUNOSIB MEHNAT SHAROITLARI KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI

Annotatsiya: Sifatli ta’lim, kafolatlangan tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti, adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, shuningdek, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimini ta’minlash adolatli jamiyat

qurishning asosiy shartidir. Ushbu maqolada ushbu elementlarning ahamiyati va ularning shaxs va jamiyatga ta'siri ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: sifatli ta'lim, kafolatlangan tibbiy yordam, ijtimoiy yordam, jamiyat.

НЕОБХОДИМОСТЬ ДЛЯ ОБЩЕСТВА: КОНСТИТУЦИОННЫЕ ГАРАНТИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КАЧЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ, ГАРАНТИРОВАННОГО МЕДИЦИНСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ И ДОСТОЙНЫХ УСЛОВИЙ ТРУДА

Аннотация: Обеспечение качественного образования, гарантированного медицинского обслуживания, достойных условий труда, справедливой заработной платы, пенсий и пособий, а также системы социальной помощи и услуг является основополагающим условием построения справедливого общества. В данной статье рассматривается важность этих элементов и их влияние на человека и общество.

Ключевые слова: качественное образование, гарантированное медицинское обслуживание, социальная помощь, общество.

A just society is one that ensures the provision of quality education, guaranteed health care, decent working conditions, fair wages, pensions, and benefits, and a system of social assistance and services. These elements are essential for individuals to live a dignified life and contribute to society. The provision of these elements is not only a moral obligation but also an economic necessity. Access to quality education, guaranteed health care, decent working conditions, fair wages, pensions, and benefits, and a system of social assistance and services is fundamental to building a just society. This article examines the importance of these elements and their impact on individuals and society.

Constitutional guarantees play a crucial role in shaping the fundamental rights and privileges of citizens in a society. Ensuring quality education, guaranteed health care, and decent working conditions are essential components of a thriving and equitable society.

The Constitution of the Republic of Uzbekistan and the laws adopted on its basis created a solid legal framework for reforming all spheres of

society and state activities. It is worth noting that the basic principles of the Universal Declaration of Human Rights - the United Nations , which is one of the first international legal documents added after the Republic of Uzbekistan gained independence, are reflected in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. [1]

In a referendum held in our country on April 30, 2023, the new Constitution was adopted by 90.21% of the citizens who voted "for". In its new version, the Constitution created a political and legal framework for the strategy of the New Uzbekistan and identified priority areas for further development of the state and society at a historically important stage in the development of national statehood.

In particular, the Constitution defines a new strategic goal of state building as the construction of a social state, introduces the principles of social justice and solidarity, and strengthens the constitutional framework with entirely new mechanisms for the protection of human rights and freedoms.[2] The idea of "For Human Dignity" which is the basis of our country's reforms, and the Human-Society-State approach, which is the basic principle of our current reforms, are deeply rooted in the content of our Constitution. In the life of the new Uzbekistan, human dignity, honor, and pride come first in all spheres. A significant part of the norms provides for in the new version of the Constitution relate to the fundamental rights, freedoms and obligations of man and citizen.

According to Article 50, Everyone shall have the right to education. The State shall ensure the development of a continuous education system, its various types and forms, state and non-state educational organizations. The State shall create conditions for the development of pre-school education and upbringing.

In accordance with Article 48, Everyone shall have the right to health and qualified medical care. Citizens of the Republic of Uzbekistan shall have the right to receive a guaranteed, extensive medical assistance in the manner prescribed by law at the expense of the state. The State shall take measures to develop the healthcare system, its state and non-state forms, various types of medical insurance, ensuring sanitary and epidemiological well-being of the population. The State shall create conditions for the

development of physical culture and sports, the formation of a healthy lifestyle among the population. [3]

Constitutional guarantees for quality education can lead to a more educated and skilled workforce, contributing to economic growth and innovation. Guaranteed health care can result in better health outcomes, reduced healthcare disparities, and improved overall well-being. Similarly, constitutional protections for decent working conditions can lead to fair wages, safe working environments, and greater job satisfaction.

Access to quality education, guaranteed health care, decent working conditions, fair wages, pensions, and benefits, and a system of social assistance and services is essential for individuals to live a dignified life and contribute to society. The provision of these elements is not only a moral obligation but also an economic necessity. Policymakers should prioritize the provision of these elements to ensure a just society.

Policymakers should prioritize the inclusion of constitutional guarantees for quality education, guaranteed health care, and decent working conditions in order to promote a more equitable and prosperous society. Additionally, efforts should be made to ensure that these guarantees are effectively implemented and enforced to benefit all members of the population.

In conclusion, constitutional guarantees for quality education, guaranteed health care, and decent working conditions are essential for the well-being and prosperity of society. By prioritizing these guarantees, policymakers can create a more equitable and thriving environment for all citizens.

References/ Iqtiboslar /Сноски:

1. Presidential Decree No. PF-5434 of 05.05.2018 "On the program of events dedicated to the 70th anniversary of the Universal Declaration of Human Rights"

2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan of 08.05.2023 "On priority measures for realization of the Constitution of the Republic of Uzbekistan" № PF-67// National Database of Legislative Information, 10.05.2023, № 10. 23.06.67.0269

3. THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN // URL: https://lex.uz/docs/6451070

ABBOS MURODULLAYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti izlanuvchisi, podpolkovnik

MILLIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY PRINSIPLARI VA NORMALARI TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy xavfsizlikni ta’minlashning konstitutsiyaviy prinsiplari va normalari O‘rganilgan hamda m tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: xavfsizlik, milliy xavfsizlik, konstitutsiya, qurolli kuchlar, norma, suverenetet, prinsip va boshqalar.

АНАЛИЗ КОНСТИТУЦИОННЫХ ПРИНЦИПОВ И НОРМ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация: В данной статье изучаются и анализируются конституционные принципы и нормы обеспечения национальной безопасности.

Ключевые слова: безопасность, национальная безопасность, конституция, вооруженные силы, норма, суверенитет, принцип и т. д.

ANALYSIS OF THE CONSTITUTIONAL PRINCIPLES AND NORMS OF PROVIDING NATIONAL SECURITY

Annotation: In this article, the constitutional principles and norms of ensuring national security are studied and analyzed.

Key words: security, national security, constitution, armed forces, norm, sovereignty, principle, etc.

Milliy xavfsizlikni, asosan davlat va jamiyat qurilishi sohasida ta’minlashning tayanch prinsiplari hamda normalarini, shuningdek, mafkuraviy qoidalarini belgilab beradigan konstitutsiyaviy huquq asoslari bu tizimda alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining Kostitutsiyasi oliy normativ-huquqiy manba sifatida milliy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy masalalari bo‘yicha muhim milliy manfaatlar hamda ustuvor prinsiplar va normalarni, shuningdek, mafkuraviy qoidalarni belgilab beradi. Mohiyat e’tibori bilan, undagi ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu masalalariga doir har bir

modda mazkur munosabatlarning asosiy subyekti – inson, jamiyat, davlat himoyasiga qaratilgandir.

Mintaqamizda murakkab vaziyat vujudga kelayotgan sharoitda, uzoq va yaqin atrofimizda turli qarama-qarshiliklar tobora kuchayib borayotgan bir paytda mamlakatimiz tinchligi va farovonligini saqlash, yon-atrofimizdagi davlatlar va xalqlar bilan o‘zaro bir-birini tushunish va hamjihatlikda yashash uchun shart-sharoitlarni ta’minlashga qaratilgan ana shunday tashqi siyosatgina xalqimizning asl orzu-umid va intilishlariga mos keladi.

Jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida milliy xavfsizlikni muhofaza etishning tashkiliy-huquqiy tizimini shakllantiruvchi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar Konstitutsiya asosida ishlab chiqiladi. Davlat va jamiyat qurilishi sohasida milliy xavfsizlikni ta’minlashning tayanch prinsiplari va normalarini, shuningdek, mafkuraviy qoidalarini belgilab beradigan konstitutsiyaviy huquq asoslari alohida ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda mintaqamizda va dunyoda hukm surayotgan, oldindan aytib bo‘lmaydigan murakkab sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlash, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini barchamiz chuqur anglaymiz. Bu esa o‘tgan davr mobaynida erishgan yutuqlarimiz va yo‘l qo‘ygan kamchiliklarimiz, to‘planib qolgan muammolarni chuqur tahlil qilish, bugun hayotning o‘zi ilgari surayotgan talablarni hisobga olishni taqozo etmoqda.

Ayni shu asosda mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlashni Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Taraqqiyot strategiyasiga binoan 2022-2026-yillarda boshqa sohalar qatorida harbiy qurilish borasida ham keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari bevosita mudofaa maqsadlarida tashkil qilinib, urushlar va qurolli mojarolarni bartaraf etish hamda ularning oldini olish, O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va aholining tinch hayotini himoya qilish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan harbiy birlashmalar, qo‘shilmalar hamda qismlarni, shuningdek, boshqa harbiy tuzilmalarni o‘z

ichiga oladi.

Avvalambor, Konstitutsiya mamlakatni demokratik yo‘ldan rivojlantirishning asosiy va mustahkam negizi – xalq hokimiyati prinsipi va tizimini kafolatlaydi hamda himoya qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir, deyilgan.

Shunga mos tarzda jamiyatimizning siyosiy tizimi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari ham ushbu konstitutsiyaviy prinsipdan kelib chiqqan holda yaratiladi.

Jamoat birlashmalariga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tish tartib-tamoyilini majburiy qilib qo‘yuvchi norma ham shundan kelib chiqadi. Davlat faoliyatida siyosiy fikrlar xilma-xilligini, demokratik huquqlar va erkinliklarni, inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga, ijtimoiy adolat va qonuniylikni, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va hokazolarni ta’minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy prinsiplar hamda normalarning barchasi siyosiy xavfsizlikni ta’minlash institutini tashkil etadi. Masalan, Asosiy Qonunning 12-moddasida siyosiy fikrlar xilma-xilligi kafolatlanadi va unda: “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas”[1], deb ta’kidlangan.

Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni va siyosiy tizimning izchil rivojlanishini ta’minlash Konstitutsiyaning eng asosiy vazifalaridan biridir. Yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan hodisalarning mohiyatini ifodalar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va fuqarolar amal qilishlari lozim bo‘lgan xavfsizlik mezonlarini belgilab beradi. Masalan, Konstitutsiyaning 71-moddasida: “Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, O‘zbekistonning davlat suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va xavfsizligiga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga, aholining sog’lig’iga, ijtimoiy axloqqa tajovuz qiluvchi siyosiy partiyalarning, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining,

shuningdek milliy va diniy belgilariga ko‘ra siyosiy partiyalarning, harbiylashtirilgan birlashmalarning tashkil etilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va birlashmalar tashkil etish taqiqlanadi”, deb ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizligi konsepsiyasida ekologik tanazzul hozirgi davrning o‘ziga xos xususiyati sifatida belgilangan. Orol dengizining muammolari ham qo‘shilib chuqurlashib borayotgan noxush ekologik vaziyat, shuningdek, suv resurslari hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun yaroqli bo‘lgan erlarning cheklanganligi O‘zbekistonning jug‘rofiy siyosiy ahvoliga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar qatorida ko‘rsatib o‘tilgan.

Ekologiya shaxs, jamiyat va davlatning eng muhim hayotiy manfaatlarini belgilash mezonidir, inson hayoti va faoliyati uchun oqilona ekologik sharoitlarni ta’minlash, kishilar salomatligini saqlash hamda barqaror ekologik vaziyatni, shu jumladan mintaqamizda barqaror ekologik vaziyatni yaratish ushbu manfaatlarning mazmunini tashkil etadi.

Konstitutsiya tashqi siyosatning asosiy mezonlarini belgilab beradi, bu mezonlar orasida xavfsizlik manfaatlari alohida o‘rin tutadi. Tashqi siyosiy faoliyat, chunonchi, davlatlararo tuzilmalarda ishtirok etish avvalo xavfsizlik manfaatlaridan kelib chiqqan holda olib borilmog‘i zarur. Mohiyatan olganda, Konstitutsiyaning har qanday prinsipial qoidasi, milliy manfaatlarning oliy siyosiy-huquqiy ifodasi bo‘lib, bundan “davlatning, xalqning oliy manfaatlari, uning farovonligi va xavfsizligi” – bu, avvalo, Konstitutsiyaning o‘zi, uning qoidalarini himoya qilish, uning ustuvorligi va mustahkamligi ekanligi kelib chiqadi.

Tashqi siyosat O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlat faoliyatining sohasi sifatida belgilangan bo‘lib, unga xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga sodiqlik, shuningdek,, davlatlararo tuzilmalarda ishtirok etish nuqtayi nazaridan qaraladi hamda u oliy milliy manfaatlardan kelib chiqib amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi ko‘p tomonlama hamkorligining asosiy yo‘nalishlari asosan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi ikkinchi qismida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unda: “O‘zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning

farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin”[1] deyiladi.

Xalqaro tashkilotlarga (ittifoqlar, hamdo‘stliklar va boshqa davlatlararo tuzilmalarga) a’zolikka nisbatan belgilangan bu norma-prinsip mamlakatimizning integratsiya jarayonida yanada faolroq ishtirok etishini ta’minlashga, boshqa davlatlarning huquqiy tizimlari bilan tegishli shartnoma munosabatlarini yo‘lga qo‘yish va o‘zaro uyg‘un hamkorlik qilish uchun keng istiqbollar yaratishga da’vat etilgandir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 18-moddasining ikkinchi qismidagi tushunchadan shu narsa kelib chiqadiki, respublika, agar milliy manfaatlarga zid bo‘lsa, xalq farovonligi va xavfsizligiga zarar etkazadigan bo‘lsa, davlatlararo tuzilmalarda ishtirok etmaydi.

Shuningdek, Konstitutsiya ikki tomonlama munosabatlarning ham asosiy prinsiplarini belgilab beradi. Garchi ikki tomonlama davlatlararo munosabatlar masalalari xalqaro huquq doirasida va asosan tegishli shartnomalar negizida hal etilsada, shunga qaramay, xalqaro shartnomalarni tuzish va ularning bajarilishini ta’minlashning davlatimiz ichkarisidagi tartibini Konstitutsiya belgilab beradi. Aynan Konstitutsiya xalqaro shartnomalarning milliy qonun hujjatlari tizimidagi maqomi va o‘rnini belgilaydi hamda vakolatlar bermagan holda xalqaro shartnomalarni tuzish va ularni ratifikatsiya qilish huquqiga ega bo‘lgan sub’ektlar doirasini belgilaydi.

Bundan tashqari, Konstitutsiya muhofaza qiluvchi vazifasini bajaradi, masalan, davlatning tashqi siyosatini yo‘lga qo‘yishga aralashuvga yo‘l qo‘ymagan holda fuqarolar va davlat manfaatlariga zid bo‘lmagan xususiy yoki guruh manfaatlarini ham himoya qiladi; tashqi siyosiy faoliyatning “siyosat – siyosat uchun” degan birdan-bir maqsadga aylanib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bunda Konstitutsiya nisbatan kuchli davlat bilan o‘ta qulay iqtisodiy aloqalarni ham, agar bunday davlat salmoqli moliyaviy iqtisodiy yordam (hatto beg‘araz bo‘lsada) evaziga O‘zbekistonning suverenitetiga xilof bo‘lgan turli xil yon berishlarga erishishga harakat qiladigan bo‘lsa, rivojlantirishga yo‘l qo‘ymaydi va hokazo.

O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil dekabr oyida qabul qilingan “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni[2] milliy xavfsizlikni ta’minlashda katta ahamiyatga egadir. Mazkur Qonunda tegishli qilmishlarni kriminallashtirish to‘g‘risidagi normalar, terrorchilik harakatlarining oldini olish hamda terrorchilar va ularning sheriklarini jinoiy ta’qib etish bo‘yicha protsessual choralar nazarda tutilgan.

Terrorchilik faoliyati uchun jinoiy javobgarlik O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining quyidagi moddalarida ko‘zda tutilgan:

155-modda. Terrorizm;

245-modda. SHaxsni garov sifatida tutqunlikka olish;

264-modda. Temir yo‘lning harakatlanadigan tarkibini, havo, dengiz yoki daryo kemasini olib qochish yoki egallab olish;

152-modda Xalqaro himoyaga olingan shaxsga yoki muassasaga hujum qilish.

2004 yil avgust oyida O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni[3] qabul qilindi (u 2006 yil 1-yanvardan e’tiboran amalga kiritildi). Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo‘yiladigan maxsus vakolatli davlat organi pul mablag‘lari yoki o‘zga mol-mulk bilan operatsiyalarning amalga oshirilishi ustidan nazorat qiladi. Qonunda asosiy normalar qatorida tegishli axborotdan erkin foydalanishni majburiy tarzda nazorat qilish va cheklash choralari belgilab qo‘yilgan. SHunga muvofiq tashkilotlar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq o‘z faoliyatlarida yuridik va jismoniy shaxslarni ularga nisbatan olib borilayotgan majburiy nazoratdan xabardor qilishga haqli emaslar.

Bundan tashqari, Qonunda maxsus vakolatli organning vakolatlari ochib beriladi, pul mablag‘lari yoki o‘zga mol-mulk bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning majburiyatlari belgilanadi, shuningdek, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik masalalariga doir bir qator blanket normalar, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va

terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi nizolar hamda tegishli qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari konstitutsiyaviy prinsiplar va normalarga, shu jumladan fuqarolarning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan konstitutsiyaviy prinsiplar va normalarga qat'iy tarzda muvofiqdir.

Biroq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida faqat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining milliy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi faoliyatigina emas, balki fuqarolarning o'z mamlakatini himoya qilish majburiyatlari ham belgilangan. Chunonchi, 64-moddaga muvofiq "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar".

Milliy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida xalqaro tuzilmalarda ishtirok etish konstitutsiyaviy prinsipi O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 22 mayda qabul qilingan "Mudofaa to'g'risida"gi, 2000 yil 15 dekabrda qabul qilingan "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi, 2018 yil 9 yanvarda O'zbekiston Respublikasi «Mudofaa doktrinasi to'g'risida"[4] qonunlarida yanada rivojlantirildi. Chunonchi, etish, shuningdek, mudofaa vazifalarini hal etish uchun tashqi siyosiy xarakterdagi choralarni ko'rishdan iborat ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, Qonunda "O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning yakka tartibda va kollektiv tarzda mudofaalanishdan iborat bo'lgan huquqni mustahkamlovchi umume'tirof etilgan normalari va prinsiplariga asoslanib, harbiy qurilish, tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish sohasida boshqa davlatlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi" deb aytilgan 23-modda ham bor. Shu bilan birga, bu faollik mafkuraviy jihatdan fikrini o'zgartirishlarga asoslanmasligi lozim. Bunday yo'l bugungi kunda ham kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, "milliy xavfsizlik"ning qamrov doirasidagi asosiy vazifasi uning obyekti va subekti tushunchasini belgilashdan iboratdir. Binobarin, har bir davlat o'zi duch kelayotgan xavf-xatarni engib o'tishga mintaqaviy va dunyo miqyosidagi omillar ta'siri doirasida va o'z imkoniyati darajasidagi mavjud barcha resurslarni yo'naltiradi.

Bundan tashqari, “milliy xavfsizlik” tushunchasi o‘z ichiga tashqi siyosatda milliy manfaatlarni himoya qilish, texnogen va ekologik xavfsizlikni ta’minlash, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy hayotida shaxs kamoloti va jamiyatning barqaror rivoji singari bir qator sohalarni ham qamrab oladi.

Mazkur masala O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta’kidlanganidek, “Oldimizda turgan navbatdagi muhim vazifa – yaratib berilagn imkoniyat va vakolatlardan to‘liq foydalanib, fuqarolarimiz, jamiyat va davlatimiz xavfsizligini hamda konstitutsiyaviy tuzum himoyasini ta’minlashdan iborat”[5].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 153-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun etarli darajada Qurolli Kuchlariga ega” deb mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va respublikaning harbiy xavfsizligiga nisbatan tajovuzlarga qarshi harakatlarni tashkil etish uchun mamlakatni mudofaaga tayyorlash borasidagi davlat faoliyatini,O‘zbekiston Respublikasining hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilish uchun Qurolli Kuchlarni qo‘llashni tartibga soluvchi qonunlarga asoslanar ekan, BMT Ustavidan, Xelsinkida imzolangan Yakunlovchi hujjatdan, Stokgolm konferensiyasi hujjatidan, shuningdek, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar hamda bitimlardan, xalqaro huquqiy hujjatlarning umume’tirof etilgan normalaridan kelib chiquvchi barcha xalqaro majburiyatlarga qat’iy rioya etilishini kafolatlaydi, tashqi harbiy tahdidlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo‘yicha ikki tomonlama hamda ko‘p tomonlama mШириноYunosabatlarni yo‘lga qo‘yish zarur ekanligini qayd etib o‘tadi[6].

O‘zbekiston Respublikasini, uning hududiy yaxlitligi va mustaqilligini himoya qilish – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchidir.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga, shuningdek, o‘z mulkidagi binolar, inshootlar, transport va aloqa vositalari hamda boshqa mol-mulklarini urush davrida mudofaa ehtiyojlari uchun qonunda belgilangan tartibda berib turishga majburdirlar, qilingan xarajatlarning o‘rni O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda keyinchalik qoplanadi.Fuqarolar mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga ko‘maklashuvchi jamoat birlashmalari tuzish huquqiga ega.

Shunday qilib, mamlakat mustaqilligi, suvereniteti va xavfsizligini, uning mudofaasini ta’minlashda Qurolli Kuchlar katta rol o‘ynaydi. Qurolli Kuchlar maxsus harbiy tashkilot bo‘lib, qonunchilikda mustahkamlangan o‘z tashkiliy tuzilishiga, ichki harbiy bo‘ysunuv munosabatlariga va mas’uliyatlarga ega davlat tuzilmasidir. Taktik, tezkorlik va strategik miqyoslarda harbiy harakatlar olib borishga qodir alohida tashkilotdir. Ularni qo‘llab-quvvatlash va muntazam modernizatsiya qilib borish davlat hamda jamiyat manfaatlariga mos ishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil dekabr oyida qabul qilingan “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni // Lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2004 yil avgust oyida “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni // Lex.uz.

4. Ўзбекистон Республикаси «Мудофаа доктринаси тўғрисида”ги қонуни. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.01.2018 й., 03/18/458/0537-сон

5. Ш.М.Мирзиёев Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. “Халқимиз биздан қонун ва адолат усуворлигини амалда таъминлашни кутмоқда” – Прокуратура ходимлари ва фахрийлари билан учрашувдаги маъруза. 2017 йил 7 январь. 207 б.3

6. Ўзбекистон Республикаси Конституциясига шарҳ. – Т., 2022, 487-бет.

MAVLUDA ERGASHEVA,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

JADIDLAR KONSTITUTSIYASI – DEMOKRATIK ASOSIY QONUN

Annotatsiya: Mazkur maqola jadidlar tomonidan qabul qilingan, fuqarolar tengligi va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan Buxoro Xalq Respublikasi Konstitutsiyasiga bag`ishlangan. Ushbu masala mohiyatini ochib berishga Buxoro Konstitutsiyasi va O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari qiyosiy tahlil e’tilgan.

Kalit so`zlar: jadid, Konstitutsiya, davlat, tenglik, adolat, huquq, erkinlik.

КОНСТИТУЦИЯ ДЖАДИДОВ - ДЕМОКРАТИЧЕСКОЙ ОСНОВНОЙ ЗАКОН

Аннотация: Данная статья посвящена Конституции Бухарской народной республики, принятой джадидами, основанной на принципах гражданского равенства и социальной справедливости. Для раскрытия сути данного вопроса был проведен сравнительный анализ норм Бухарской Конституции и Конституции Республики Узбекистан.

Ключевые слова: Джадид, Конституция, государство, равенство, справедливость, право, свобода.

JADID CONSTITUTION-DEMOCRATIC

Annotation: this article is devoted to the Constitution of the Bukhara people's Republic, adopted by the jadids, based on the principles of civil equality and social justice. To reveal the essence of this issue, a comparative analysis of the norms of the Constitution of Bukhara and the Constitution of the Republic of Uzbekistan was paid.

Key words: jadid, Constitution, State, equality, justice, law, freedom.

Ta’kidlash kerakki, milliy huquqiy meros millatimizning, xalqimizning benazir boyligidir. Bu boylik eng katta qadriyat hisoblangan buyuk mutafakkirlarimiz, alloma ajdodlarimiz asarlarida, g‘oyalarida chuqur ifodasini topgan.

Benazir huquqiy qadriyat hisoblangan Konstitutsiyamiz buyuk mutafakkirlarimiz, alloma ajdodlarimiz merosidagi boy huquqiy g‘oyalarga,

bilimlarga asoslangandir.

Konstitutsiyani yaratishda bobokalonlarimizning asrlar mobaynida yaratgan donishmandlik xazinasiga qattiq tayanildi, xalqimizning madaniy, tarixiy va milliy an’analari merosidan foydalanildi. Konstitutsiyaning har bir normasi mazmuni xalqimiz qadimiy ma’naviyati va madaniyatiga bevosita yoki bilvosita bog‘liqdir. Shu ma’noda, Konstitutsiyamiz-ajdodlarimizning hozirgi zamon sivilizatsiyasiga xizmat qilib kelayotgan bebaho merosiga, jumladan, jadid mutafakkirlarimizning ham boy ilmiy qadriyatiga, teran huquqiy tafakkurlariga asoslanadi, deb ayta olamiz. Zotan, o‘zbek taraqqiyparvar ziyolilari - jadidlar va ularning rahnamolari o‘z davrida demokratik ruhdagi Konstitutsiya va qonunlar ishlab chiqish hamda qabul qilishda nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy tomondan katta kuch-g‘ayrat sarfladilar. Ularning jangovar tarixiy tajribalari, mazkur tajribadan chiqargan hayotiy saboqlari, fikr-g‘oyalari, xulosalari yangi milliy davlatchiligimiz qonunchiligini yaratishdagi asoslardan biri sifatida xizmat qildi desak, yanglishmaymiz. Shu o‘rinda 1920 yil sentabrda Buxoroda xalq - demokratik davlati vujudga kelib, uning ijtimoiy va davlat tuzumini qonuniy mustahkamlashga jiddiy e’tibor berilganligini tahlil qilishga harakat qilamiz.

1921 yil 23 sentabrda Butun Buxoro xalq vakillarining II-Qurultoyida[6] Abdurauf Fitrat tahriri ostida fuqarolar tengligi va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan demokratik ruhdagi Buxoro Xalq Sho‘rolar Jumhuriyatining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Mazkur Konstitutsiya milliy davlatchiligimiz tarixiy tajribasida alohida o‘rin tutadi.

Buxoro Konstitutsiyasi 79 moddadan iborat bo‘lib, 5 bo‘lim va 16 bobni o‘z ichiga oldi. Konstitutsiyada davlatni idora etish shakllari, oliy va mahalliy hokimiyat idoralarining tizimi va faoliyati, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari ifoda qilinadi. Ushbu Konstitutsiya fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklarini qonun yo‘li bilan mustahkamladi. Konstitutsiyada davlatni idora etishda xalqning barcha tabaqa vakillarining ishtiroki ta’minlandi va bunda xususiy mulk hamda savdo-sotiq erkinliklari o‘z ifodasini topdi.

Jumladan, uning 6-moddasida ko‘rsatilishicha, "sotib olingan va

meros bo‘lib qolgan xususiy mulkni fuqaroga istagancha tasarruf qilish va undan foydalanish huquqi” berildi[2].

Konstitutsiya cheklanmagan xususiy mulkchilikka keng yo‘l ochib berdi. Asosiy Qonunda "barcha fuqarolar ko‘chmas mulkni, shu jumladan, yerga bo‘lgan xususiy mulkchilikni tasarruf qilish va undan foydalanishda cheklanmagan huquqlarga ega ekanliklari to‘g‘risidagi moddalar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi.

Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi. O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanadi.

Xususiy mulk daxlsizdir. Mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas[1] deb belgilab qo‘yilgan 65-moddasi va" Mulkdor o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkka o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak" deyilgan 66-moddasi bilan mazmun-mohiyat jihatidan nihoyatda mushtarakdir. Ma’lumki, mulkiy jihatdan mustaqil bo‘lgan shaxsgina davlat, davlat idoralari bilan teng ravishda huquqiy munosabatga kirisha oladi, zarur hollarda sudda o‘z mulki yuzasidan majburiyatlar o‘tashi ham mumkin bo‘ladi. Demak, jadid allomalarimizning xususiy mulk to‘g‘risidagi qarashlari hozirgi mustaqil davlatimiz Konstitutsiyasidagi mulkchilik nuqtai nazari bilan hamohangdir. Hatto, ular bir-birining uzviy, mantiqiy davomi desak yanglishmaymiz.

E’tiborga loyiq tomoni yana shundaki, Butun Buxoro xalq vakillarining II- Qurultoyida milliy-siyosiy g‘oyaga muvofiq yer siyosatiga tuzatishlar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilindi, u yer-mulk

islohotida ijobiy qadam bo‘ldi. Mazkur masalaga bag‘ishlab, Buxorodagi jadidchilik harakatining taniqli namoyandasi Abdulqodir Muhitdinov Qurultoyda quyidagilarni ta’kidlaydi: "Shariatga binoan, musulmonning hech qanday mulki uning roziligisiz tortib olinishi mumkin emas. Men yer egalarining qo‘lida mavjud bo‘lgan yerlarini avvalgi holida qoldirishni yoklab fikr bildiraman[3]. Yer masalasiga doir mazkur taklif Qurultoy delegatlari tomonidan yakdillik bilan qabul qilindi. Bu taklif qishloqda asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblangan o‘rta hol dehqonlarning qonuniy manfaatlariga, yerdan foydalanishning asriy an’analariga muvofiq kelardi. Zotan, insonning eng katta va asosiy boyligi yer hisoblanadi. Demak, insonning yerga egalik huquqi jadidlar tomonidan ijobiy hal etilgan.

Buxoro Konstitutsiyasi fuqarolarga teng siyosiy huquqlar berib, milliy tengsizlikni yo‘qotdi. Milliy bag‘rikenglik va tolerantlik fazilatlarini namoyon etdi. Buxoro ko‘p millatli davlat bo‘lgani uchun Buxoro Respublikasi MIK qoshida Turkman bo‘limi tuzildi. Bo‘lim turkman millati manfaatlarini yoqlab, ularning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga yordam berishi va MIK siyosatini turkmanlar orasida o‘tkazish uchun xizmat qilar edi. Konstitutsiyaning 5-15 moddalariga asosan Butun Buxoro xalq vakillari Qurultoyi-oliy hokimiyat organi kilib belgilandi. Qurultoy har ikki ming saylovchiga bir vakil saylanadigan 350 a’zodan iborat edi.

Konstitutsiyaga ko‘ra, Butun Buxoro xalq vakillari Qurultoyi yilida bir marta chaqirilar va unda respublika Asosiy Qonunini qabul qilish, o‘zgartirishlar kiritish, hukumatning hisoboti va davlat budjetini tasdiqlash, umuman, mamlakat hayoti, boshqaruvi va rivojlanishiga oid muhim masalalarni ko‘rib chiqish hamda rejalar qabul qilish kabi muhim masalalar ko‘rilar edi. Butun Buxoro xalq vakillari Qurultoyi juda katta vakolatga ega edi. U respublikadagi davlat hokimiyatining asosiy vazifalarini bajarardi. Mazkur organning vakolatlari Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yildi[7].

Qonunning VII-XIV boblari saylov huquqi, saylov o‘tkazish tartibi, uni nazorat qilish, bekor qilish, deputatlarini chaqirib olish, mahalliy sho‘rolarning huquqiy holati, ularning tarkibiy qismlari va ijroiya komitetlariga doir masalalarga bag‘ishlangan edi. Yigirma yoshga yetgan

fuqarolar (erkak va ayollar) saylovda qatnashish huquqiga ega edilar. Qasddan sodir etgan jinoyati uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar, mahbuslar, ruhiy kasallar, katta yer egalari, Amir va uning davlati amaldorlarining qarindosh-urug‘lari saylovda qatnashish huquqidan mahrum etiladi, katta yer egalari, Amir va uning davlati amaldorlarining qarindosh-urug‘lari saylovdan mahrum etilishidan maqsad demokratik tamoyillar ko‘zlangan. Ushbu tamoyil saylov halol va adolatli o‘tishiga qaratilgan. Unda nomzodlar va saylovchilarning teng huquq hamda teng kuchga ega bo‘lishi lozimligi nazarda tutilgan.

Buxoro Respublikasida sho‘ro sudlari bilan birga qozi sudlari ham fao- liyat olib borar, mazkur sudlar tuman va shahar sho‘rolari ijroiya komi- tetlari tomonidan saylanar, xalq maslahatchilari bilan birgalikda jinoyat va fuqarolik ishlarini kollegial hal qilar edilar. Ish ko‘rilayotganda ular faqat sho‘ro qonunlari bilan emas, balki shariat va odat normalariga ham asoslanardilar[5]. BXShJ Konstitutsiyasida fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari ham belgilab berilgan: barcha huquq sub’ektlarining teng huquqliligi, ular tomonidan majburiyat huquqiga muvofiq o‘z sub’ektiv huquqlarini amalga oshirilishining kafolatlanganligi; fuqarolar huquq va erkinliklarining ta’minlanganligi, jumladan, yashash joyi va faoliyat turini tanlash erkinligi, o‘z mol-mulklaridan erkin foydalana olish, mulkiy munosabatlarga kirishish va boshqalar. Ularda, xalq va respublika bisoti ko‘rinishida boylikning ayrim turlariga davlat mulkchiligi barqaror etilgan. Masalan, BXShJ 1921 yil 23 sentabrdagi Konstitutsiyasining 18 § ida xalq deputatlari Kengashining Umumbuxoro s’ezdi huquq doirasiga “umumiy davlat xo‘jalik rejalarini belgilash" kiritilgan edi[4].

Ta’kidlash joizki, Rossiya Konstitutsiyasining proletariat diktaturasi haqidagi 9-moddasi Abdurauf Fitratning tashabbusi bilan Buxoro Konstitutsiyasiga kiritilmagan. Chunki, Buxoro proletariat diktaturasi hukmronligidagi sotsialistik davlat emas, balki **demokratiya asosida tashkil topgan Xalq Respublikasi edi** (ta’kid bizniki-M.E.). Bu mustamlakachilik tuzumidagi yangi yosh bir Respublikaning davlat va huquq nazariyasi hamda amaliyotida o‘ziga xos, amaliy yangilik, favqulodda katta ijtimoiy jur’at, jasorat namunasi edi. Bu - mustadiblar iskanjasida turib, mustaqillik va istiqbol sari rivojlanishning juda muhim

va dadil huquqiy islohoti edi.

Buxoro Xalq Respublikasi yosh buxorolik jadid arboblarining alohida fidoyiliklari tufayli demokratik islohotlar va o‘zgarishlar joriy qilinayotgan, jamiyatni erkin taraqqiyot sari olib boruvchi siyosiy faoliyat amalga oshirilayotgan mamlakatga aylana boshladi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 65-66-модда. T..”O`zbekiton”, 2023.
2. Болтабоев Ҳ Абдурауф Фитрат/ Олий ва ўрта махсус ўқув юртлари учун қўлланма. Т: Жумҳурият ўқув - услуб идораси. 1992-йил, 20-б.
3. Бухоро ахбори. 1921 йил, 25-сентябр.
4. Закиров И. Становление и развитие советского гражданского право в БНСР и ХНСР. Е: “Фан”, 1988 г. С.50-51.
5. Ишанов А. Создание Бухарской Народной Советской Республики. Т: ”Ўзбекистон”, 1969 г, с. 131-132.
6. Съезды Советов в документах (1917-1922гг) Т. 2 – М:1960 г, с.554.
7. Эргашева М. Жадидларнинг давлат-ҳуқуқий қарашлари/ Монография “Бухоро нашр”, 2022 йил. 95-б
8. Қаюмов Р. Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий ҳуқуқи. Т: “Академия”, 1998 йил, 68-б.

SALAMAT UTEBAEV,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti,

MUNIRA AZBERGENOVA,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

INSON MANFAATLARINI USTUN QO‘YGAN - YANGILANGAN KONSTITUTSIYA

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning jamiyat va inson hayotida tutgan o‘rni, fuqarolarning huquq va erkinliklarining kafolatlanganligi, yangi kiritilgan o‘zgarishlarning huquqni qo‘llash amaliyotiga tatbiq etilgan yondashuvlari va inson huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normalar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: konstitutsiya, reforma, davlat, shaxs**,** huquq, qonun, norma.

ПРИОРИТЕТ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ИНТЕРЕСОВ – НОВАЯ КОНСТИТУЦИЯ

Аннотация: В данной статье анализируется роль нашей Конституции, принятой в новой редакции, в жизни общества и человека, гарантированность прав и свобод граждан, подходы, применяемые к правоприменительной практике недавно внесенных изменений, нормы, направленные на защиту прав и интересов человека.

Ключевые слова: Конституция, реформа, государство, личность, право, закон, норма.

PRIORITY OF HUMAN INTERESTS - THE NEW CONSTITUTION

Annotation: this article analyzes the role of our Constitution adopted in society and human life in the new edition, the guarantee of the rights and freedoms of the fukaros, the approaches of the newly introduced changes applied to the practice of applying the Huquq, and the norms aimed at protecting human rights and interests.

Keywords: Constitution, reform, state, person, law, regulation, norm.

Bugungi kunda yangilanib borayotgan mamlakatimizda jamiyat va davlat hayotini modernizatsiya qilishga yo‘naltirilgan demokratik islohotlar izchil davom etmoqda. Bu esa o‘z navbatida davlat tuzumining o‘zgarishiga, milliy davlatchilikning rivojlanishiga, yangi hokimiyat institutlari paydo bo‘lishiga shuningdek, bor bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarning o‘zgartirilishiga va qo‘shimchalar kiritilishiga olib kelmoqda. Bu yangilanishlarga hamohang tarzda Bosh qomusimiz bo‘lgan Konstitutsiyamizga ham o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bilan bog‘liq islohotlar amalga oshirilmoqda.

Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2022 yilning 20 iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda ta’kidlaganidek: «Chinakam xalq mafkurasini, millatning eng muqaddas orzu-intilishlarini faqat uning Bosh hujjati Konstitutsiyasida to‘liq ifoda etish mumkin» [1]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi oliy darajadagi qonun sifatida davlatimiz qiyofasini, boshqaruvning demokratik prinsiplarini, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy strategik yo‘nalishlarini,

fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlanganligini o‘zida namoyon etadi.

Mamlakatimizda demokratik qadriyatlarni ro‘yobga chiqarishda, inson huquq va manfaatlarini qo‘riqlashda, ijtimoiy faolligini oshirishda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta’minlashda olib borilayotgan islohotlar muhim rol o‘ynamoqda. Sh.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tgan, “…millati, tili va dinidan qat’iy nazar, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning, butun xalqimizning farovonligini ta’minlashga xizmat etadigan «Yangi O‘zbekiston - xalqchil va oliyjanob mamlakat» g‘oyasining amalga oshirilgani ham ahamyatlidir [2].

Shu bilan birgalikda, biz yillar, asrlar davomida amal qilib kelingan "davlat-jamiyat-inson" tamoyilini "inson-jamiyat-davlat" tamoyiliga o‘zgartirganimiz, yurtimizda "Davlat - inson uchun" g‘oyasi amal qila boshlashi ham insonning qadr-qimmati, sha’ni va g‘ururi bundan buyon barcha sohalarda birinchi o‘rinda turishidan darak beradi [3, 464]. Xalq bilan bevosita muloqot qilish, uning dardu tashvishlari, muammolarini ijobiy hal etish bo‘yicha mutlaqo yangi tizim - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi faoliyatini yo‘lga qo‘ylganligi, davlat tashkilotlari faoliyatida "mahallalar kesimida ishlash", "xalq ichiga kirish", uning "dardiga quloq solish", "tashvishiga sherik bo‘lish" va "muammolarni joyida hal etish" tamoyillari o‘rnatilganligi buning yorqin misolidir.

Keltirilib o‘tilgan fikirlar, olib borilgan izlanishlar natijasida Yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yilning 1 may sanasidan qonuniy kuchga kirdi. O‘z navbatida, ushbu Konstitutsiyamizga 27 ta yangi modda kiritilib, moddalar soni 128 tadan 155 taga oshti, bu esa Konstitutsiyamizdagi normalar soni 434 taga ko‘payganini va uning 65 foizga yangilanganligidan darak beradi. Yangilangan Konstitutsiyamiz jamiyatimiz hayotining barcha yo‘nalishlarini kompleks tartibga solish hamda mamlakatimizni demokratik rivojlantirish yo‘lida eng muhim huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu jumladan, mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratti. Aslida ham Konstitutsiya keng ma’noda

«Inson va fuqarolar huquqlari, erkinliklarini mustahkamlovchi, kafolatlovchi, shuningdek, ijtimoiy tuzum, boshqaruv shakli va davlat tuzilishi, hokimiyatning markaziy va mahalliy organlarini tashkil etish asoslarini, ularning vakolatlari va o‘zaro munosabatlarini belgilaydigan qonun hujjatidir» [4, 252].

Ta’kidlash kerakki, Yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qilish– bu shunchaki xohish-istak, oddiy hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos tarizda, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan, demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume’tirof etilgan norma va prinsiplarga qat’iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do‘stona hamkorlik tamoyillari uzida aks ettirgan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan ob’ektiv zaruriyat edi.

Bu zaruriyat esa Konstitutsiyamizning prembula qismida o‘z tastig‘ini topdi, ya’ni O‘zbekistonning yagona xalqi: inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatimizni anglagan holda, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilganini kurishimiz mumkin.

Yangilangan Konstitutsiyamizga muvofiq O‘zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy davlat sifatida Konstitutsiya va qonunlarning ustuvor bo‘lishi, ularda birinchi navbatda inson huquqlari, erkinliklari, manfaatlari ustuvorligini ta’minlashda, davlatning barcha resurs va imkoniyatlari shaxs farovonligga va fuqorlarning hayot sifati darajasini oshirish uchun yo‘naltirishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda, “Inson qadri uchun” g‘oyasini hamda hozirgi islohotlarimizning bosh tamoyili bo‘lgan «Inson–jamiyat– davlat» degan yondashuv Yangilangan Konstitutsiyamizning mazmuniga chuqur singdirilgan bo‘lib, insonning qadr-qimmati, sha’ni va g‘ururi, huquq va manfaatlarining barcha sohalarda himoya qilinishi o‘z aksini topgan.

Ya’ni, Prezidentimizning 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekstonning rivojlanish strategiyasi to‘g‘risidagi» PF-60-son farmonida mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillari rivojlanishning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish maqsadi belgilangan, jumladan Strategiyaning 20-maqsadida «Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o‘rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissin shakllantirish; xalqning huquqiy madaniyatini va ongini ko‘tarish, bu borada mamlakat organlarning fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta’lim tashkilotlari bilan o‘zaro samarodor hamkorligini yo‘lga qo‘yish kabi belgilangan maqsadlar Yangilangan Konstitutsiyamizda o‘z tasdig‘ini topganini ko‘rishimiz mumkin» [5].

Shuningdek, ushbu Bosh qomusimizda insonning shaxsiy huquqlari va erkinliklari xalqaro standartlarga muvofiq kuchaytirilganining guvohi bulamiz. Ya’ni, shaxsning sud qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi, ushbu muddat ushlab turish qonuniyligi va asosliligi sudda isbotlanmasa, shaxs darhol ozod qilinishi (“Xabeas korpus” instituti) hamda shaxsni ushlab turish chog‘ida uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari unga tushunarli tilda tushuntirilishi kerakligi (“Miranda qoidalari”), shuningdek, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o‘ziga qarshi ko‘rsatma bermaslik, ya’ni «sukut saqlash» huquqi belgilagan bulib, bu qoidalar o‘z navbatida shaxsiy erkinlik daxlsizligini va insonlarni noqonuniy hibsga olishga yo‘l qo‘ymasligni kafolatlaydi. Yana bir muhim o‘zgarishlarning biri shaxs qarindoshlarining sudlanganligi asosi bilan huquqlari cheklanishi mumkin emasligi qat’iy belgilanishi inson o‘zining yaqinlari yo‘l qo‘ygan xatolar uchun javob bermasligini ta’minladi hamda aybsizlik prezumpsiyasi, yuridik yordam olish huquqiga oid masalalar Konstitutsiya darajasida belgilab qo‘yilishi, surishtiruv, tergov, sud hamda jazoni ijro etish jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlar ishidagi kamchiliklarni bartaraf etishda huquqiy poydevor yaratti. Konstitutsiyamizning tegishli normalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi, Konstitutsiyamizning kuchsizlanishiga emas, aksincha, bu muhim huquqiy hujjatning yanada takomillashuviga, avvalo shaxs huquqlari ustuvorligini ta’minlashga, xalq manfaatlari, qadr-qimmatining kafolatlanishiga, huquq ijodkorligi va

huquqni qo‘llash amaliyotini yanada rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida zamonaviy davlatchiligimizga xos xususiyatlar yordamida jamiyatni demokratlashtirish, insonlarning huquq va manfaatlarining himoya qilinish va to‘liq ta’minlanish, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonga davlat va jamiyat g‘amxo‘rligini yanada kuchaytirish, jahonda davlatimizning nufuzini yanada oshirish kabi ezgu maqsadlar yotibdi. Bu maqsadlarni ro‘yobga chiqarishda yangi tahrirdagi Konstitutsiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022 йил 20 июнь куни Президент Шавкат Мирзиёев Республика Конституциявий комиссияси аъзолари билан учрашувидаги маърузаси. Https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/21/president-suggestions/
2. https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/21/president-suggestions mahalla va ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyati institutlari sifatidagi o‘rni – "odil sudlov"
3. Янги Ўзбекистон стратегияси [Матн] / Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: "o‘zbekiston" нашриёти, 2021.- 464 б.
4. Ўзбекистон юридик энциклопедияси / Муаллифлар жамоаси. – Т., 2010. – 252 б.
5. 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси https://lex.uz/docs/5841063 10.02.2023 й., 06/23/21/0085-сон
6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси https://lex.uz/docs/6445145 01.05.2023 й.,03/23/837/0241-сон

ШОҲСАНАМ ИСЛОМҚУЛОВА,
ТДЮУ таянч докторанти

ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТАЛАШ - ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ КАФОЛАТИ

Аннотация. Ушбу тезисда врачнинг касбий жавобгарлигини суғурталаш уларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишнинг энг мақбул усули ҳамда конституциявий кафолати эканлиги хусусида сўз боради.

Калит сўзлар. врач, касб, жавобгарлик, касбий жавобгарлик, суғурта, касбий жавобгарликни суғурта қилиш, врачнинг касбий жавобгарлигини суғурта қилиш.

СТРАХОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ВРАЧА – КОНСТИТУЦИОННАЯ ГАРАНТИЯ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. В данной диссертации отмечается, что страхование профессиональной ответственности врачей является лучшим способом защиты их прав и законных интересов и является конституционной гарантией.

Ключевые слова. врач, профессия, ответственность, профессиональная ответственность, страхование, страхование профессиональной ответственности, страхование профессиональной ответственности врача.

DOCTOR’S PROFESSIONAL LIABILITY INSURANCE - CONSTITUTIONAL GUARANTEE OF HUMAN RIGHTS

Annotation. This dissertation notes that professional liability insurance for doctors is the best way to protect their rights and legitimate interests and is a constitutional guarantee.

Keywords. doctor, profession, responsibility, professional liability, insurance, professional liability insurance, doctor's professional liability insurance.

Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституцияси жамиятнинг ишончли ҳуқуқий кафолатларини янада мустаҳкамлаш йўлидаги катта қадам бўлди. Янги таҳрирдаги Конституциянинг қабул қилиниши ижтимоий ва давлат қурилишининг барча жабҳаларидаги муносабатларни, миллий қонунчилигимизнинг

тартибга солинмаган айрим соҳаларини ҳам қамраб олган аниқ ҳуқуқий тизимни ташкил этди.

Конституцияда фуқароларнинг малакали тиббий хизматдан фойдаланиш ҳуқуқи кафолатланган эди. Янги таҳрирдаги Конституцияда ушбу кафолатларнинг янада кенгайтирилиши эса бугунги кунда фуқароларнинг саломатлигини таъминлашда бевосита давлатнинг роли муҳимлигини, тиббиёт ходимларига бўлган эътироф ва эътиборнинг кучайганлигини яққол кўрсатиб берди.

Конституциянинг 48-моддасида Ўзбекистон Республикаси фуқаролари тиббий ёрдамнинг кафолатланган ҳажмини қонунда белгиланган тартибда давлат ҳисобидан олишга ҳақлилиги, давлат соғлиқни сақлаш тизимини, унинг давлат ва нодавлат шаклларини, тиббий суғуртанинг ҳар хил турларини ривожлантириш, аҳолининг санитария-эпидемиологик осойишталигини таъминлаш чораларини кўриши каби кафолатлар назарда тутилган.

Буларнинг барчаси фуқароларимизнинг тиббий ёрдамнинг кафолатланган ҳажмини давлат маблағлари ҳисобидан бепул олишга бўлган Конституциявий ҳуқуқларини таъминлаш имконини бермоқда. Чунки, аҳолининг айрим қатламлари пулли асосда ёки хусусий шифохоналар хизматидан фойдаланишга имконияти етмаслиги мумкин. Бундай, вазиятда давлат ўз фуқаросини кафолатланган тиббий хизмат билан таъминлаш мажбуриятини ўз зиммасига олгани, айниқса, моддий шароити яхши бўлмаган фуқароларнинг соғлиғини сақлашга давлат ғамхўрлик қилишдан тўхтамаслигини англатади.

Рус олими Э.А.Русецкая таърифига кўра, мажбурий тиббий суғурта ҳар бир фуқаронинг ижтимоий-иқтисодий мақомидан қатъи назар, ижтимоий суғурта шаклларидан бири бўлиб, барча аҳолига бепул тиббий ёрдам кўрсатишда давлат кафолатларини беришга мўлжалланган [1].

Бундай кафолатларга Конституция орқали замин яратилиши нафақат фуқароларнинг, балки тиббиёт ходимларининг ҳам ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини давлат томонидан ҳимоя қилинишидир.

Чунки даволаниш жараёнида беморлар соғлиғининг ёмонлашиши, улар ҳаётига солинаётган хавф эҳтимоли бу ишда фақат шифокорнинг айбдор эканлигини англатмайди. Аммо охирги пайтларда тиббиёт ходимларининг хатти-ҳаракатларидан норозилик, уларнинг фаолияти устидан судларга берилаётган даъволардан келиб чиқадиган низолар сони ортиб бормоқда. Бу эса ўз навбатида шифокорнинг ҳам касбий ҳам мулкий манфаатларига дахл қилмоқда.

Бундан ҳимояланишнинг энг мақбул усули, албатта, врачнинг касбий жавобгарлигини суғурта қилишдир.

Мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Конституциясига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаларида шифокорлик касбини эгаллаш осон иш эмаслигини, бу инсондан машаққатли меҳнат, мустаҳкам ирода ва матонат талаб этади дея, таъкидлаган эдилар. Шу билан бирга тиббиёт ходимларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш, уларга муносиб меҳнат шароитлари яратиш ҳамда рағбатлантириш тизимини янада такомиллаштириш зарурлигини, аҳолига кафолатланган тиббий ёрдам кўрсатишни таъминлаш мақсадида келгусида мажбурий тиббий суғурта тизимини жорий этиш кераклиги, Ўзбекистондаги ижтимоий ҳимоя моделини реал талаблар асосида умумэътироф этилган халқаро стандартлар даражасига кўтариш зарурлиги масаласига алоҳида тўхталиб ўтган эдилар[2].

Бундай эътиборнинг самараси ўлароқ, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 декабрдаги ПҚ-5590-сон “Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорида Соғлиқни сақлаш вазирлигига “Тиббий фаолият ва тиббий ходимларнинг мажбурий жавобгарлигини суғурталаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни лойиҳасини ишлаб чиқиш вазифаси топширилди.

Бугунги кунда тиббиёт ходимларининг касбий жавобгарлигини суғурта қилиш қонунчилик орқали тартибга солиниши билан қуйидаги ижобий натижаларга эришиш мумкин:

беморларга зарар етказилган тақдирда зарарни қоплаш, буни пул

маблағларини тўлаш орқали кафолатлаш;

етказилган зарарни қоплаш натижасида тиббиёт ташкилотларининг йўқотишларини камайтириш;

маблағ етишмаслиги туфайли қарздорликни тўлаш имкони бўлмаганлиги сабабли тиббиёт ташкилотларининг банкротлиги ва тугатилиш хавфини камайтириш;

таъсис этган муассаса ва ташкилотларда улуш эгаси сифатида давлат (ғазна, бюджет)га қаратилган жавобгарлик туфайли маблағлар йўқотишларининг миқдорини камайтириш;

кўрсатилаётган хизматлар сифатини яхшилаш, тиббий ташкилотларда низолар вужудга келишини камайтириш;

тиббиёт ходимларининг мулкий манфаатлари бузилишидан ҳимоя қилиш.

Демак эътибор қаратишимиз керакки, врачнинг касбий жавобгарлигини суғурталашда унинг мулкий манфаатларини ҳимоя қилиш муҳим аҳамият касб этади.

Хорижий олимлар А.Жалинский ва А.Рерихтларнинг таъкидлашича, “Касбий жавобгарликни суғурталаш иккита мақсадни кўзлайди: мижозни йўқотишларга сабаб бўлган профессионал субъектнинг тўловга қодир эмаслигидан ҳимоя қилиш ва касбий хатолик юз берган тақдирда ушбу субъектни вафот этишидан ҳимоя қилиш” [3; С. 280].

Касбий жавобгарлик суғуртаси касбий фаолиятни амалга ошириш жараёнида йўл қўйилган ҳар қандай камчиликлар, назоратсизликлар, бепарволик ҳолатлари юзага келган тақдирда тақдим этилади. Бунда суғурта объекти - ўз касбий мажбуриятларини бажаришда учинчи шахсларга зарар етказган шахснинг мулкий манфаатлари ҳисобланади.

Конституцияда ҳам фуқароларнинг мулкий манфаатларини, хилма-хил шаклдаги мулкларини ҳимоялаш кафолати белгиланган.

Жумладан, 65-моддада Ўзбекистон Республикасида барча мулк шаклларининг тенг ҳуқуқлилиги ва ҳуқуқий жиҳатдан ҳимоя қилиниши таъминланиши, хусусий мулк дахлсизлиги, мулкдор ўз мол-мулкидан қонунда назарда тутилган ҳоллардан ва тартибдан

ташқари ҳамда суднинг қарорига асосланмаган ҳолда маҳрум этилиши мумкин эмаслиги назарда тутилган.

Хулоса қиладиган бўлсак, касбий жавобгарлиги суғурталанган врачга беморлар мурожаат қилишганида ўз қонуний ҳуқуқларини тез ва самарали амалга оширишнинг қўшимча кафолатларига эга бўладилар. Малакали тиббий хизматдан фойдаланиш ва тиббий суғуртанинг Конституция доирасида кафолатланиши эса сўнгги йилларда давлатимиз томонидан соҳага берилаётган юксак эътибор ва инсон қадр-қимматининг устунлиги далолатидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Русецкая Э.А. Формирование и развитие системы медицинского страхования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. (Специальность 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит). Ставрополь, 2004.
2. https://uzlidep.uz/news-of-party/12359
3. Введение в немецкое право / Жалинский А.Э., Рерихт А.А. - М.: Спарк, 2001. С. 280.

ASADBEK TOSHMUXAMMATOV,
Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi o‘qituvchisi

RIZOYEV FERUZ,
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

OMMAVIY TADBIRLARNI O‘TKAZISH FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mamlakatimizda o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlar soni yildan-yilga o‘sib borishi. O‘zbekiston bo‘ylab o‘tkazilayotgan ommaviy tadbirlar sonining ortib borayotgani sayyohlik jadal rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri ekanligi. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini ta’minlash juda murakkab jarayon hisoblanishi. Buning sababi esa, jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayonida vazifalar hajmi va ular oldida turgan funksiyalar jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladigan

kuchlar ishtirok etishi, shuningdek, muayyan harakatlar usullari aniq voqea va vaziyatga qarab belgilanishi kerakligi haqida aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ommaviy tadbir, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi, Milliy gvardiya, integratsiya, inklyuziv.

ПЕРСПЕКТИВЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ МАССОВЫХ МЕРОПРИЯТИЙ.

Аннотация: В данной статье количество массовых мероприятий, проводимых в нашей стране, увеличивается с каждым годом. Растущее количество массовых мероприятий по всему узбекистану является одним из основных факторов, способствующих стремительному развитию туризма. Обеспечение общественного порядка и общественной безопасности во время массовых мероприятий считается очень сложным процессом. Было отмечено, что причина этого заключается в том, что в процессе обеспечения общественного порядка и общественной безопасности задействованы силы, принципиально отличающиеся друг от друга по объему стоящих перед ними задач и функций, а также по определенным методам действий. Должны определяться в зависимости от конкретного события и ситуации.

Ключевые слова: публичное мероприятие, общественный порядок, общественная безопасность, Национальная гвардия, интеграция, инклюзивность.

PROSPECTS FOR EFFECTIVE ORGANIZATION OF PUBLIC EVENTS

Annotation: In this article, the number of public events held in our country is increasing year by year. The growing number of public events across Uzbekistan is one of the main factors contributing to the rapid development of tourism. Ensuring public order and public safety during public events is considered a very complicated process. It was mentioned that the reason for this is that in the process of ensuring public order and public safety, forces that are fundamentally different from each other in terms of the scope of tasks and functions before them are involved, as well as certain methods of action should be determined depending on the specific event and situation.

Key words: public event, public order, public safety, National Guard, integration, inclusive.

Bugungi kunda fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash va turli xarakterdagi va yo‘nalishdagi ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini saqlash keyingi yillarda faoliyatning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi turli xil xalqaro va milliy miqyosda ommaviy tadbirlarning ko‘payib borishi ham, mamlakatimizga bo‘lgan ishonchning ortishidan dalolat beradi. Bu esa o‘z navbatida jamoat xavfsizligini ta’minlashni takomillashtirish va samarali mexanizmlarni ishlab chiqishni taqazo etadi.

Mamlakatimizning tinchligi, osoyishtaligi va xavfsizligi, huquqbuzarliklarning, ijtimoiy-maishiy tusdagi jinoyatlarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurash, ularga chek qo‘yish, sodir etilganlarini fosh etish, jamoat tartibini saqlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasida tizimli va samarali chora-tadbirlari amalga oshirilishida sezilayotgan kamchiliklar, tizimli ishlarning sustligi, bu borada ishlarning samarali tashkil etish maqsadida yana bir organ — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etilgan bo‘lib, uning huquqiy asosi, ya’ni “O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi [1].

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimiz tinchligi va jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikning oldini olish borasidagi kelgusi vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida shu haqda to‘xtalib, Jumladan, jamoat xavfsizligi va shaxsiy mulk daxlsizligini ta’minlashga Ichki ishlar vazirligi bilan bir qatorda Milliy gvardiya ham bab-baravar javobgar ekanligini ta’kidladi [2].

Mamlakatimizda Milliy gvardiya organlari tashkil etilganligining yana bir dolzarbligini butun dunyo va respublika bo‘ylab e’lon qilingan koronavirus pandemiyasi sharoitidagi ko‘rsatgan jonbozligi va soha xodimlarining tun-u kun tinim bilmay qilgan mehnatlarida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Milliy gvardiya to‘g‘risida qonunning qabul qilinishi bilan Milliy gvardiyaning faoliyatini huquqiy tartibga solindi va unda organning huquqiy maqomi hamda asosiy vazifalari belgilab berildi [3].

Shu bilan birga, mazkur qonun bilan Milliy gvardiya faoliyatining asosiy prinsplari etib qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish, yagonalik, mustaqillikdan iboratligi, Milliy gvardiya harbiy xizmatchisining (xodimining) o‘z vakolatlari doirasida qo‘yilgan qonuniy talablari, shu jumladan qonunga rioya etish, hujjatlarni, tekshiruv materiallarini va boshqa ma’lumotlarni taqdim etish, mutaxassis ajratish, Milliy gvardiyaga kelish hamda aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish to‘g‘risidagi, qoidabuzarliklarni, shuningdek ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish haqidagi qonuniy talablari barcha davlat organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiyligi o‘rnatildi hamda Milliy gvardiyaning huquq va majburiyatlari, harbiy xizmatchilarning (xodimlarining) huquqiy va ijtimoiy himoya qilish kabi normalar mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va hamkor vazirliklarning jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashdagi hozirgi kunda olib borayotgan samarali ishlari natijasida respublikamizda tinchlik va osoyishtalik hukm surmoqda, bu esa o‘z navbatida mamlakatimizda demokratik islohotlarni davom ettirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga imkon yaratadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarni jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash borasidagi barcha harakatlari avvalom bor O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari asosida bo‘lishini ta’minlash lozim.

Bu borada Davlatimiz rahbarining quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli bo‘ladi, “Mustaqil taraqqiyot yillarida Konstitutsiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashida

mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda”[4] deya ta’kidlab o‘tgandilar.

Respublikamizda har yili o‘tkaziladigan o‘rtacha 16 mingdan ziyod ommaviy tadbir davrida Milliy gvardiya bo‘linmlari jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etadilar. Agar biz bu ommaviy tadbirlarda 50 milliondan ortiq fuqarolarni ishtirok etishini inobatga olsak[5], Milliy gvardiya va hamkor organlar tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy, tashkiliy va amaliy tadbirlarni fuqarolar xavfsizligini ta’minlashdagi mas’uliyati hamda murakkab tomonlarini yaqqol anglashimiz mumkin.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston mashhur sayyohlik maskaniga aylanib borayotganligi, buning natijasida, dunyoning barcha burchaklaridan tashrif buyuruvchilarni o‘ziga tortayotganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zining boy tarixi, jonli madaniyati va hayratlanarli manzaralari bilan mamlakat juda ko‘p narsalarni taklif qiladi. O‘zbekiston bo‘ylab o‘tkazilayotgan ommaviy tadbirlar sonining ortib borayotgani sayyohlik jadal rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biridir. Ushbu tadbirlarning muvaffaqiyatini yanada oshirish va tashrif buyuruvchilar va mahalliy aholi uchun unutilmas tajriba bilan ta’minlash uchun ularni tashkil etish va amalga oshirishning turli jihatlarini yaxshilashga e’tibor qaratish juda muhimdir.

Inklyuziv muhit yaratish ommaviy tadbirlarni takomillashtirish yo‘lidagi birinchi qadamdir. O‘zbekiston o‘zining rang-barang madaniy merosi bilan faxrlanadi. Ushbu xilma-xillikni ommaviy tadbirlarga integratsiya qilish nafaqat inklyuzivlikni targ‘ib qiladi, balki tashrif buyuruvchilarga mamlakatning ko‘plab madaniy qirralarini qadrlash imkoniyatini beradi. Tadbir tashkilotchilari O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi turli etnik guruhlarning urf-odatlari va an’analarini aks ettiruvchi chiqishlar, ko‘rgazmalar va namoyishlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu nafaqat mamlakatning madaniy xilma-xilligini nishonlaydi, balki mahalliy aholiga o‘z ildizlari bilan qayta bog‘lanish imkoniyatini beradi, g‘urur va birdamlik tuyg‘usini uyg‘otadi.

Ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan yana bir muhim jihat - ommaviy tadbirlar o‘tkazishni tartibga solinganligi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda

infratuzilmani yaxshilash borasida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Biroq hali ham takomillashtirish uchun ehtiyojlar mavjud. Tadbir o‘tkaziladigan joylar nogironlar uchun qulay bo‘lishini ta’minlash, belgilangan to‘xtash joylari va panduslarni taklif qilish va Brayl alifbosidagi ma’lumotlarni taqdim etish tadbirlarni yanada qamrab olish yo‘lidagi muhim qadamdir. Nogironlarga yordam berish uchun tadbir xodimlarini o‘qitish va jamoatchilikni foydalanish imkoniyatining muhimligi haqida xabardor qilish inklyuziv muhitni yaratishga yordam beradi.

Bundan tashqari, mahalliy hamjamiyatlarni ommaviy tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishga jalb qilish ularning muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Jamiyatning ishtiroki mahalliy aholida egalik va g‘urur tuyg‘usini uyg‘otadi, bu esa barcha ishtirokchilar uchun tadbirlarni yanada mazmunli va qiziqarli qiladi. Mahalliy hunarmandlar, musiqachilar va ijrochilarni tadbir tarkibiga jalb qilish ularning iste’dodlariga e’tibor qaratib, ularga munosib baho berishi mumkin. Bu yondashuv nafaqat madaniy almashinuvni rag‘batlantiradi, balki iqtisodiy imkoniyatlarni ta’minlash orqali mahalliy hamjamiyatlarga kuch beradi.

Ommaviy tadbirlarga tashrif buyuruvchilarni jalb qilishda targ‘ibot va xabardorlik muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy media, an’anaviy media va sayyohlik veb-saytlari kabi turli platformalardan foydalanish shov-shuvni yaratishga va mahalliy va xalqaro ishtirokchilarni jalb qilishga yordam beradi. Ta’sir o‘tkazuvchilar, bloggerlar va ommaviy axborot vositalari xodimlarini ushbu tadbirlarda ishtirok etish tajribasi bilan o‘rtoqlashish uchun jalb qilish, shuningdek, potensial tashrif buyuruvchilar orasida qiziqish uyg‘otishga yordam beradi. Bundan tashqari, sayyohlik agentliklari va turoperatorlarni tadbirlarni rag‘batlantirishga jalb qilish ularning sayyohlik marshrutlariga(madaniy-ma’rifiy, sport musobaqalari, xalq sayllari, milliy bayramlar va boshqalar) kiritilishini ta’minlashi va tashrifni yanada oshirishi mumkin.

Qolaversa, O‘zbekistonning tabiiy go‘zalligini asrab-avaylash va yashil kelajakni ta’minlash uchun ommaviy tadbirlarga barqaror

amaliyotlarni kiritish muhim ahamiyatga ega. Tadbir tashkilotchilarini ekologik toza materiallardan foydalanishga, qayta ishlashni targ‘ib qilishga va chiqindilarni kamaytirishga undash ushbu yig‘ilishlarning atrof-muhitga ta’sirini minimallashtirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, ishtirokchilarni barqaror turizm amaliyotlari va ularning mamlakatning tabiiy resurslarini saqlashdagi roli haqida ma’lumot berish ongli va ekologik jihatdan mas’uliyatli tashrif buyuruvchilar bazasini yaratishi mumkin.

Hozirgi kunda davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi davlat xavfsizligi tizimini zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda, shu jumladan ommaviy tadbirlar paytida: ijtimoiy-siyosiy, sport, madaniy va ko‘ngilochar tadbirlarda o‘zbek jamiyatining ajralmas mexanizmi sifatida tartibga solishdir.

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilar va xodimlari tomonidan ommaviy tadbir davrida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash tadbirlari Jamoat xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205 – sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiyasining 2020-yil «26» fevraldagi 8 –sonli qo‘shma qarori va boshqa normativ–huquqiy hujjatlar asosida olib borilmoqda.

Bundan tashqari Milliy gvardiya harbiy xizmatchilar va xodimlari tomonidan ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash borasidagi ishlari “Milliy gvardiya tog‘risida”gi qonun, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida” qonun, “Favqulotda holat to‘g‘risida” gi qonun va boshqa normativ huquqiy hujjatlar bilan ham tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiyasining 2020-yil «26» fevraldagi 8 –sonli qo‘shma qaroriga asosan uch bosqichda amalga oshiriladi:

1) tayyorgarlik ko‘rish bosqichi;

2) o‘tkazish bosqichi;

3) yakuniy bosqich.

Qonuniy olib boriladigan, ya’ni ruxsat etilgan ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida Milliy gvardiya xodimlari va harbiy xizmatchilari tomonidan aniq belgilangan ishlar va tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlarni tashkillashtirish, nazorat qilish, xizmatga jalb etiladigan kuch va vositalarni boshqarish shu yo‘nalish bo‘yicha tuzilgan shtab ishchi guruhining ish faoliyati tashkil etish. Tadbirning maqsadi, uni o‘tkazish joyi va vaqti, kirish-chiqish eshiklarining soni, transport vositalari harakatlanadigan yo‘llar, to‘xtab turish joylariga, aniqlik kiritishlari lozim.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida xavfsizlikni ta’minlovchi organlar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar tashkiliy, tezkor-qidiruv, profilaktik, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash va yong'in xavfsizligini ta’minlashdan iborat. Ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish davrida jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolar xavfsizligini ta’minlash vazifalari bevosita ichki ishlar organlariga yuklatilgan bo‘lib, hozirgi kunda ushbu vazifa va funksiyalarini bajarishda ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan ma’muriy huquqiy majburlov choralari qo‘llaniladi.

So‘nggi yillarda ommaviy tadbirlar sonining yanada oshib borishi, bu sohadagi qonunchilikni takomillashtirishni taqazo etmoqda. Mavjud normalar zamon bilan hamnafas bo‘lmas ekan. Jamiyatimizda o‘rnatilgan normalardagi huquqiy bo‘shliqlar ortib boraveradi. Bu esa o‘z navbatida Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishdagi qiyinchiliklarni kuchayishiga sabab bo‘ladi. Qolaversa, bugungi kunda Milliy gvardiya tizimida mavjud me’yoriy hujjatlar qayta ishlab chiqilishiga ehtiyojning mavjudligi ham mavjud holatni yanada qiyinlashtiradi.

Hozirda amalda bo‘lgan 2014-yil 29-iyulda qabul qilingan 205-sonli Qarorda[6] keltirib o‘tilgan ayrim normalar dolzarbligi jihatidan talab darajasida emas. Xususan, Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini bugungi jamiyatimizdagi ijtimoiy-siyosiy hayotni to‘la qamrab olmaganligni ko‘rishimiz mumkin. Qabul qilinadigan me’yoriy hujjatlarda “ommaviy

tadbirlar o‘tkazishda jamoat xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan keng qamrovli maqsadli maxsus rejalarni qabul qilish va ularning ijrosini ta’minlash;

ommaviy tadbirlar o‘tkazish vaqtida guruhiy va ommaviy tartibsizliklar kelib chiqishining barvaqt oldini olish, ularning asosiy omillarini aniqlash va bartaraf etish;

ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan obektlarni va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqaro muhofazasi, yong‘in xavfsizligini ta’minlashda tadbir tashkilotchilari, obekt ma’muriyati va ishtirokchilarning ko‘nikmalarini shakllantirish hamda doimiy takomillashtirib borish;

ommaviy tadbirlar o‘tkazish obektlari va hududlarida jamoat tartibini saqlash hamda xavfsizligini ta’minlashga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini keng joriy etish;

ommaviy tadbirlar o‘tkazishda jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun mas’ul bo‘lgan davlat organlari kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta’minlash, tezkorligini oshirish, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, shuningdek, ularning shaxsiy tarkibini huquqiy va ijtimoiy himoyalash darajasini oshirishni ommaviy tadbirlarni o‘tkazish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilash”kabi normalar mavjud bo‘lishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz”.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda ommaviy tadbirlarni takomillashtirish ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi, bunda inklyuzivlik, qulaylik, jamoatchilik ishtiroki, targ‘ibot va barqarorlikka qaratilgan bo‘lishi lozim. Ushbu strategiyalarni tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishga kiritish orqali O‘zbekiston sayyohlik maskani sifatidagi obro‘sini yanada oshirishi va tashrif buyuruvchilarga chinakam unutilmas madaniy tajribalar taqdim etishi mumkin. Ommaviy tadbirlarni takomillashtirishga doimiy intilishi bilan O‘zbekiston inklyuziv, rang-barang va barqaror yig‘inlarni o‘tkazish bo‘yicha jahon yetakchisiga aylanish salohiyatiga ega ekanligni ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1) “Yangi O‘zbekiston” gazetasi tahririyati» DUK 2020-yil 24-dekabr Sh. Shakirov,

2) 14-yanvar 2019-yil “Xalq so‘zi” gazetasi

3) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.11.2020 y., 03/20/647/1569-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022 y., 03/22/770/0424-son; 07.06.2022 y., 03/22/775/0477-son)

4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.

5) Milliy gvardiya markaziy devoni ma’lumotlari. 2022-2023 yillar.

6) VM 29.07.2014. 205-sonli “ Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.

SHOHRUH JAHONOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI USTIDAN JAMOATCHILIK NAZORATI O‘RNATISHINING HUQUQIY MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. OAV, jamoatchilik nazorati, davlat hokimiyati.

ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ СМИ НАД ОРГАНАМИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ

Абстрактный. В данной статье анализируется осуществление общественного контроля над органами государственной власти со стороны средств массовой информации.

Ключевые слова. СМИ, общественный контроль, государственная власть.

LEGAL MECHANISMS OF PUBLIC CONTROL OF MASS MEDIA OVER STATE AUTHORITIES

Abstract. This article analyzes the implementation of public control over public authorities by mass media.

Keywords. Media, public control, state power.

Bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko‘lamli islohatlar amalga oshirilmoqda, jumladan, huquqiy sohada ham ko‘plab o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Huquq ham davlat bilan birgalikda rivojlanib, takomillashib borishi hech kimga sir emas. Huquq va davlatning birgalikda rivojlanib borishi ijobiy holder. Chunki qonunlarsiz davlat o‘z yo‘lidan og’ishadi. Biz qurmoqchi bo‘lgan fuqarolik jamiyatining bosh g’oyasi ham fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, tashabbuskor fuqarolar guruhini shakllantirish, jamiyatning o‘zini o‘zi nazorat qilishi hisoblanadi.

Shu o‘rinda bir narsaga e’tibor berishimiz lozimki, ommaviy axborot vositalarining davlat organlari ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishi ba’zida kutilgandek natija bermaydi, ya’ni ba’zi holatlarda davlat organlari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkonsiz bo‘lib qoladi. Buni biz ommaviy axborot vositalarining ma'muriy jihatdan davlat organlariga bo‘ysunishida ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari o‘z faoliyatini boshlashi uchun avvalo davlat ro‘yxatidan o‘tishi kerak. Bu o‘ziga xos bo‘lgan bir protsedurani tashkil qiladi. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalri faoliyatini ham davlat organlari nazorat qilib boradi. Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari sohasida vakolatli organ Axborot va ommaviy komminikatsiyalar agentligi hisoblanadi. Biz haqiqiy mustaqil va erkin bo‘lgan, davlat organlari ustidan jamoatchilik nazoratini olboroladigan ommaviy axborot vositalarini xohlasak, avvalo bu uchun huquqiy bazani mustahkamlash lozim. Quyida MDH davlatlarida ommaviy axborot vositalarining davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tajribasini ko‘rib chiqamiz.

Mamlakatimizda “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2006-yil 11-oktabrdagi 214-son qaroriga muvofiq OAVni

davlat ro‘yxatidan o‘tkazish “Davlat xizmatlari markazi”ga onlayn yoki oflayn ariza bilan murojaat qilish orqali amalga oshiriladi. Arizaga esa quyidagilar ilova qilinadi: Ustav, muassis, OAV nomi va turi, OAV tili, OAV maqsadi va vazifalari, ixtisoslashuvi, tarqatish hududi, davriyligi, moliyalashtirish manbai, tahririyat joylashgan joy, tahririyat pochta manzili, telefon, faks, eliktron pochta manzili. 15 kun muddatda vakolatli organ davlat ro‘yxatish to‘g’risida qaror va davlat boji miqdorini yuboradi. Murojaatchi davlat bojini to‘laydi va guvohnomani qo‘lga oladi [1].

Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 16.10.2015-yildagi qaroriga ko‘ra, ommaviy axborot vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun arizani qo‘lda yoki pochta orqali yuborish mumkin. Murojaat ro‘yxatga olingan kundan boshlab yetti kun ichida murojaat yuborgan fuqaroga javob qaytariladi. Har bir ommaviy axborot vositasi uchun alohida ariza to‘ldiriladi va tegishli hujjatlarning alohida to‘plami ilova qilinadi.

Ilova qilinadigan hujjatlar quyidagilar:

1. “Muassis(lar)”
2. “Ommaviy axborot vositalarining nomi”
4. “Tahririyat”
5. “Til (lar)”
6. “Mutaxassislik”
7. “Mavzu”
8. “Tarqatish hududi”
9. “Moliyalashtirish manbalari”
10. Davlat boji to‘langanligi to‘g’risidagi ma’lumotlar
11. Ommaviy axborot vositalarini ro‘yxatga olish yozuviga kiritilgan o‘zgartirishlar to‘g’risidagi ma’lumotlar
14. “Aloqa ma’lumotlari”.

Shuni yodda tutish kerakki, ariza beruvchi ro‘yxatga olingan ommaviy axborot vositalari reestridan ko‘chirmani shaxsan o‘zi yoki pochta orqali olish niyati to‘g‘risida ma’lumot bo‘lmagan taqdirda, ko‘chirma ta’sischiga uning yuridik manzili bo‘yicha pochta orqali yuboriladi [2].

Tojikiston Respublikasida ommaviy axborot vostilari Matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi qonun asosida (1990,

2002-yil o‘zgartirishlarish va qo‘shimchalar kiritilgan) ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Ommaviy axborot vositalari o‘zlari joylashgan joydagi davlat notarial idorasiga ariza berilgan kundan e’tiboran bir oy muddatda ro‘yxatga olinadi.

Ommaviy axborot vositalariga faoliyatini olib borishi uchun ro‘yxatdan o‘tkazilganligi haqida guvohnoma bir yilga beriladi. Agar ushbu muddat o‘tkazib yuborilgan bo‘lsa, ro‘yxatga olish guvohnomasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun quyidagi hujjatlar kerak bo‘ladi:

- davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun ariza;
- ta’sis shartnomasi (agar bir nechta ta’sischilar bo‘lsa);
- nizom;
- huquqiy hujjatlarning ta’sischisi, ya’ni Tojikiston Adliya vazirligi beradi;
- statistika organlari tasniflagichining kodi;
- korxonaning joylashgan joyini tasdiqlovchi guvohnoma;
- davlat boji to‘langanligi to‘g’risidagi kvitansiyalar;
- Madaniyat vazirligidan xulosa.

Ommaviy axborot vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g’risidagi arizada quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak:

1) muassis;
2) ommaviy axborot vositalarining nomi, tili (tillari), joylashgan joyi;
3) maqsadli auditoriya;
4) dastur maqsadlari va vazifalari;
5) chiqarishning taxminiy davriyligi, moliyalashtirish hajmi va manbalari [3].

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, MDH davlatlarining barchasida OAVni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayoni deyarli bir xil, Tojikiston Respublikasida esa byurokratik to‘siqlar birmuncha ko‘p, Qirg’iziston Respublikasida esa hujjatlarni ko‘rib chiqish muddati uzoqroq ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu bilan birga bu jarayon xorijiy davlatlar tajribasida sal boshqacharoq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ba’zi davlatlarda OAV

davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsa, ba’zi davlatlarda OAV o‘zini faoliyatini hech qaysi davlat organini ogohlantirmasdan, ro‘yxatdan o‘tmasdan boshlashi mumkin ekan.

Fikr erkinligi, so‘z erkinligi barcha rivojlangan G'arb mamlakatlarida va Germaniyada bosma ommaviy axborot vositalarining eng muhim atributlaridan biridir. Federal qonunchilikda bevosita ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq qonunlar mavjud emas, bundan (tuhmat va shaxsiy hayotga aralashish bilan bog'liq qonunlar bundan mustasno),

Germaniyada bosma ommaviy axborot vositalarini tartibga solish ancha liberal xarakterga ega. Bosma ommaviy axborot vositalarini yaratish hech qanday ruxsatnoma talab qilinmaydi, shu bilan birga ular bir nechta rasmiy talablarga rioya qilish kerak (tahririyat xodimlari ro‘yxati, nashriyotning nomi va manzili) [4].

Bir vaqtning o‘zida maxsus mustaqil tuzilma o‘z-o‘zini tartibga solish tamoyillari bo‘yicha - Matbuot kengashi (Pressenrat) matbuot faoliyatini nazorat qilib boradi. Kengashning vazifalari “matbuot erkinligini himoya qilish va shu bilan birga muayyan chegaralarga rioya qilishini ta'minlash» , buning uchun ular 1973 yilda Matbuot kodeksini ishlab chiqdi. Hujjat asosiy axloqiy me'yorlarni va jurnalistlar va noshirlar uchun xulq-atvor standartlarini belgilaydi.

Matbuot kengashi matbuot shikoyatlarini ro‘yxatga oladi (sudga berilishi mumkin) va matbuot erkinligini targ‘ib qiladi.

Kodeks qoidalari buzilgan taqdirda, sanksiya qo‘llaniladi. Sanksiya esa aybdor nashriyot tomonidan e'lon qilinishi majburiy bo‘lgan ommaviy tanbeh hisoblanadi. Bu tanbehni chop etish uchun ixtiyoriy shartnoma imzolanadi [5].

Amerika Qo‘shma Shtatlarida ham gazeta yoki jurnal chiqarish uchun hech qanday shart yo‘q. Ruxsat olish ham shart emas. Matbuot ustidan tashqi nazorat Konstitutsiyaga kiritilgan birinchi tuzatish bilan cheklangan, unda shunday deyilgan: “Kongress so‘z yoki matbuot erkinligini buzuvchi qonun qabul qilishi mumkin emas” [6]. Tuzatish nafaqat AQSh Kongressiga taalluqli, balki kafolat vazifasini ham bajaradi.

Xususan, Avstraliya, Kanada, Germaniya, Niderlandiya, AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarda OAVni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish amaliyoti

yo‘q. Masalan, Niderlandiyada 1892-yildayoq bu amaliyot Oliy sud tomonidan Konstitutsiyaga zid deb topilib, bekor qilingan. Polshada esa, bosma ommaviy axborot vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish instituti amalda saqlanib qolgan, lekin boshqa davlatlardan farqli jihati shundaki, OAVni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun sudga murojaat qilinadi, ya’ni sudlar fuqarolarning murojaatlarini qabul qilish bilan birga OAVni ham ro‘yxatdan o‘tkazadi [7].

Shuningdek, Gruziya va Armanistonda ham bu amaliyot bekor qilingan. Estoniya, Latviya va Litva kabi davlatlarda ro‘yxatga olish xabarnomasi tizimi joriy qilingan bo‘lib, OAV ro‘yxatdan o‘tish uchun davlat organiga kerakli hujjatlarni taqdim etishi kerak bo‘ladi.

Yuqoridagilardan ko‘rishimiz mumkinki, MDH davlatlari va Yevropa va AQShning ommaviy axborot vositalariga munosabat turlicha ekan. Ommaviy axborot vositalrini ro‘yxatga olish Yevropa va AQShda o‘xshash bo‘lsa, MDH davlatlarida go‘yoki ko‘proq nazoratda ushlashga harakat qilingandek.

Yuqoridagilardan kelib chiqib bizda ham rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda ommaviy axborot vositalari o‘z faoliyatini boshlash uchun guvohnoma olib, tegishli tashkilotlardan ruxsat olmasdan faqatgina My.gov.uz platformasi orqali faoliyatini boshlayotgani haqida xabardor qilgan holda o‘z faoliyatini boshlashi mumkin bo‘lgan tizimni joriy qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ommaviy axborot vositalari to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 15.01.2007 yildagi O‘RQ-78-son. https://lex.uz/docs/-1106870
2. https://rkn.gov.ru/mass-communications/smi-registation
3. https://www.legislationline.org/ru/documents/id/14361
4. Проект CNTR 985886. URL: http://www.medialaw.ru/laws/other_laws /european/conc.htm
5. Self-regulation of digital media converging on the internet: industry codes of conduct in sectoral analysis. URL: http://ec.europa.eu/information_society/activities/sip/archived/docs/pdf//projects/iapcode_final_report.pdf

6. Законы и практика СМИ в Европе, Америке и Австралии (сравнительный анализ) /Пер. с англ.; 2-е изд., испр. и доп. — М.: «Права человека», 2000.
7. https://baj.by › registracija_smi_mirovaja_praktika1

КУАТБАЙ МИРЗАБАЕВ,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети
мустақил изланувчиси (PhD)

ИХЧАМ ВА ПРОФЕССИОНАЛ ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ТИЗИМИНИ ЯРАТИШДА ДАВЛАТ ХИЗМАТИ СОҲАСИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИ

Аннотация: Мазкур илмий ишда давлат хизмати соҳасини модернизациялашда соҳага оид Конституциявий-ҳуқуқий нормаларнинг жаҳон стандарти асосида такомиллашуви жараёнини ошиб беришга қаратилган. Шунингдек, илмий мақолада хорижий мамлакатлар ҳамда ташкилотлар қонунчилиги ҳамда ҳуқуқшунос ва сиёсатшунос олимларнинг илмий ишлари ҳамда бу соҳада Ўзбекистон Республикасида олиб борилаётган ислоҳотлар ва қонунчилик қиёсий таҳлил этилди.

Калит сўзлар; *Давлат хизмати, Конституция, Ҳаракатлар стратегияси, Тараққиёт стратегияси, қонун ижодкорлиги, демократия, Сиёсий ҳуқуқ.*

ПРОЦЕСС СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВОЙ ОСНОВЫ СФЕРЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ В СОЗДАНИИ КОМПЛЕКСНОЙ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация: Данная научная работа направлена на активизацию процесса совершенствования конституционно-правовых норм, связанных с данной сферой, на основе мирового стандарта модернизации государственной службы. Также в научной статье были проведены сравнительный анализ законодательства зарубежных стран и организаций, а также научных трудов ученых-правоведов и

политологов, а также реформы и законодательство, проводимые в Республике Узбекистан в этой области.

Ключевые слова; Государственная служба, Конституция, Стратегия действий, Стратегия развития, Законотворчество, Демократия, Политическое право.

THE PROCESS OF IMPROVING THE CONSTITUTIONAL AND LEGAL FRAMEWORK OF THE CIVIL SERVICE IN THE CREATION OF AN COMPREHENSIVE AND PROFESSIONAL PUBLIC ADMINISTRATION SYSTEM

Annotation: This scientific work is aimed at activating the process of improving constitutional and legal norms related to this area, based on the world standard for the modernization of the public service. The scientific article also contained a comparative analysis of the legislation of foreign countries and organizations, as well as scientific works of legal scholars and political scientists, as well as reforms and legislation carried out in the Republic of Uzbekistan in this area.

Keywords; Public service, Constitution, Action strategy, Development strategy, Lawmaking, Democracy, Political law.

Мустақиллик йилларида Конституция асосида инсон қадри улуғланадиган демократик ҳуқуқий давлат ва адолатли фуқаролик жамиятини қуриш мақсадида кенг қамровли янгиланишлар ва ислоҳотлар амалга оширилди, бу борада бой тажриба тўпланди.

Стратегик тараққиётимизнинг ҳозирги палласида мамлакатимизни ислоҳ этиш ва модернизация қилиш жараёнлари янада кучайтирилиб, пировард стратегик мақсадимиз-ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётига асосланган ҳуқуқий демократик давлат барпо этиш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш йўлидаги ҳаракатлар изчил равишда амалга оширилмоқда.

Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида белгиланган адолатли ва халқпарвар давлат барпо этиш йўлида долзарб аҳамиятга эга бўлган вазифаларни тўлақонли амалга ошириш унинг мақсади, кўламига монанд ва муносиб бўлган янги мустаҳкам конституциявий маконни шакллантириш зарурияти Бош Қонунимизни янги таҳрирда

қабул қилинишини даврнинг ўзи талаб этди, десак муболаға бўлмайди.

Ўз ўрнида қайд этиш жоиз, бугун мамлакатимизда рўй бераётган сиёсий модернизация жараёнлари ўз таркибига қуйидаги муҳим жиҳатларни қамраб олмоқда:

-биринчидан, қонун ижодкорлиги фаолиятини янада ривожлантириш орқали, Конституциямиз нормаларига таянган ҳолда демократик ислоҳотларни ва фуқаролик жамиятини қарор топтириш эҳтиёжлари ва аниқ мақсадларидан келиб чиқиб, янги қонун ва қонунчилик ҳужжатларини қабул қилиб бориш ишларини янада ривожлантириш;

-иккинчидан, қонунларни ҳаётга жорий қилишнинг янада самаралироқ механизмларини ишлаб чиқиш;

-учинчидан, демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштиришнинг муҳим омили ва воситаси сифатида жамоатчилик назоратини амалга ошириш тизимини ривожлантириш ва шакллантириш [1].

Мазкур ғояларни босқичма-босқич ва изчиллик билан жамиятимиз ҳаётига татбиқ этиб борилаётганлиги боис ҳозирги вақтга келиб, мамлакатимизда амалга оширилаётган сиёсий ислоҳотлар ўз таркибига моҳиятан давримизнинг энг замонавий мезонларига мос келувчи янги асосларини қамраб олмоқда. Бунинг заминида юртимиз мустақил демократик тараққиётининг устувор йўналиши ва мақсади бўлган фуқаролик жамиятини чуқур қарор топтириш учун ҳуқуқий-ижтимоий заминлар кучли даражада мустаҳкамланди, Конституциявий-ҳуқуқий асослари ривожлантирилди.

Мамлакатимизда олиб борилаётган ҳуқуқий ва сиёсий ислоҳотлардан келиб чиққан ҳолда ривожланган Ғарб мамлакатларидаги давлат ҳокимиятини модернизациялаш тажрибасини таҳлилий ва танқидий нуқтаи назардан ўрганиш долзарб масалалардан ҳисобланади. Ғарб мамлакатларида давлат ҳокимиятини модернизациялаш жараёнини тугал воқелик сифатида баҳолаб бўлмайди. Чунки бу мамлакатларда ҳам давлат ҳокимияти

органлари ва фуқаролик жамияти институтларининг ҳамкорлигини таъминлаш борасида янги конструктив ғояларни ишлаб чиқишга бўлган эҳтиёж тобора ортиб бормоқда. АҚШ, Германия, Швеция каби давлатларнинг бу борадаги тажрибаси бошқа мамлакатлар учун муайян сиёсий парадигма вазифасини ўташи мумкин.

Ўзбекистон Республикасида “Ҳаракатлар стратегияси” ва “Тараққиёт стратегияси”ни амалга ошириш унда кўзда тутилган вазифаларни бажариш мақсадида қабул қилинган қонунлар, Президент фармонлари, қарорлари, ҳукумат қарорлари, уларни амалга ошириш натижалари жамиятнинг барча соҳаларини ривожланишига ижобий таъсир қилди.

Жумладан, мамлакатимизда давлат хизматининг ҳуқуқий асослари Конституция, “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги Қонун ва бошқа кўплаб қонун ҳужжатларида мустаҳкамлаб қўйилди. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси[2]нинг 2-моддасида “Давлат халқ иродасини ифода этиб, унинг манфаатларига хизмат қилади. Давлат органлари ва мансабдор шахслар жамият ва фуқаролар олдида масъулдирлар” деб ўрнатиб қўйилган. Бундан ташқари, Конституциянинг 7-моддасида “Халқ давлат ҳокимиятининг бирдан-бир манбаидир.

Ўзбекистон Республикасида давлат ҳокимияти халқ манфаатларини кўзлаб ва Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ҳамда унинг асосида қабул қилинган қонунлар ваколат берган идоралар томонидангина амалга оширилади” деб ўрнатиб қўйилган [3].

Яъни, давлат органлари, мансабдор шахслар собиқ Совет тизимида бўлганидай қандайдир гуруҳ (партия) манфаатларига эмас, балки халқ манфаатларига хизмат қилиши кераклиги ўрнатилган.

Айниқса, Конституциямизнинг 37-моддасида “Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари давлат хизматига киришда тенг ҳуқуққа эгадирлар”, деган қоида киритилди. Ушбу қоида Конституциянинг “Сиёсий ҳуқуқлар” бобида акс этаётганлиги муҳим амалий ва сиёсий-ҳуқуқий асосга эга.

БМТнинг 1948 йил 10 декабрда қабул қилинган Инсон

ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси [4] 21-моддасида “Ҳар бир инсон ўз мамлакатида давлат хизматига киришда тенг ҳуқуққа эга”, деб белгиланган. Шунингдек, “Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида”ги Халқаро пактнинг 25-моддаси мазмунида ҳам ҳар бир фуқаро ҳеч бир камситишсиз ва асосланмаган чеклашларсиз ўз мамлакатида умумий тенглик шартларида давлат хизматига кириш ҳуқуқи ҳамда имкониятларига эга бўлиши кераклиги мустаҳкамланган.

Шунингдек, Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт[5]нинг 25-моддасида “ҳар бир фуқаро ҳеч бир камситишсиз ва асосланмаган чеклашларсиз ўз мамлакатида умумий тенглик шартларида давлат хизматига кириш” ҳуқуқига эгалиги белгиланган.

Ўхшаш нормалар **Италия, Латвия** ва бошқа давлатлар конституцияларида ҳам ўз аксини топган.

Мазкур сиёсий ҳуқуқнинг янги таҳрирдаги Конституцияда акс этаётгани халқаро ҳуқуқ нормаларининг миллий конституциявий қонунчиликда имплементация қилинаётгани сифатида баҳоланади[6].

Энг асосийси, бундай ҳуқуқнинг берилиши фуқароларга давлат хизматига киришда ортиқча талаблар қўйилишининг, коррупциявий ҳолатлар, маҳаллийчилик, таниш-билишчилик, қариндош-уруғчилик каби иллатларнинг олдини олишга, Ўзбекистон фуқароларининг давлат хизматига киришда тенг имкониятларга эга бўлиши давлат хизматининг жозибадорлиги ва рақобатдошлиги ошишига хизмат қилади, ўз навбатида, давлат органлари фаолияти самарадорлиги, хизмат кўрсатиш сифати, давлат хизматининг очиқлиги ва профессионаллигини оширади.

Янгиланган Конституция билан таниш-билишчилик ёки шахсий садоқат белгилари бўйича танлаш каби салбий иллатлар бекор бўлиб, кадрларнинг билим ва салоҳиятини замонавий услублар асосида баҳолаш йўли билан танлашга замин яратилди.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг бир неча моддалари бевосита давлат хизмати билан боғлиқ бўлиб, унинг асосий принципларини мустаҳкамлайди. Масалан, давлат хизматида қонунийлик, инсон ва фуқаролар ҳуқуқлари ва

эркинликларининг устунлиги, давлат хизматида иштирок этувчи фуқароларнинг тенглиги ва бошқа конституциявий принципларини кўрсатиб ўтиш мумкин.

Ўзбекистонда сўнги йилларда амалга оширилаётган ислоҳотлар натижасида юқоридаги кўрсатиб ўтилган ҳолатларнинг қонун доирасида тартибга солинишига, давлат хизматчиларини кучли ижтимоий ҳимоя, шунингдек хизмат пиллапоялари бўйича ўсиши адолат мезонлари асосида таъминлашга, давлат хизматини замон эҳтиёжларига мос равишда малакали мутахассислар билан таъминлашга асос яратилди.

Зеро, Президентимиз Ш.Мирзиёев таъкидлаганларидек, “Бугунги кунда мамлакатимизда олиб борилаётган ислоҳотлар самараси, авваламбор, юксак маънавиятли, мустақил фикрлайдиган, Ватанимиз тақдири ва истиқболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир ёш кадрлар сафини кенгайтиришга бевосита боғлиқ” [7].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзабаев К., “Янги Ўзбекистонда давлат хизмати соҳаси такомиллашуви жараёнлари”. ФарДУ Илмий хабарлари журнали, -Ф.: 2023. № 4 сон. Б.141-148.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси / https://lex.uz/docs/6445145
3. “Ўзбекистон Республикасида давлат хизматини ислоҳ этишнинг ҳуқуқий асослари (давра суҳбати материаллари)”. -Т.: Baktria press, 2015. -Б.15
4. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси, Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг Резолюция 217 А (III) билан 1948 йил 10 декабрда қабул ва эълон қилинган / https://constitution.uz/uz/pages/humanrights
5. Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида, 1966 йил 16 декабрь, Нью-Йорк / https://lex.uz/docs/2640479
6. Манба. http://nhrc.uz/uz/news/davlat-xizmatiga-kirishda-tenglik-konstitutsiyaviy-asosda-mustahkamlanadi

7. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // “Жамият ва бошқарув”. -Т.: 2017, №4. -Б. 5-19.

Н.МУИНОВА,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси

АЁЛЛАР ТАЪЛИМ ОЛИШ ҲУҚУҚИ – ИЖТИМОИЙ ҲУҚУҚЛАРИНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМИ СИФАТИДА

Аннотация. Мақолада Ўзбекистон Республикасида аёлларнинг таълим олиш ҳуқуқи кафолатлари ва унинг ҳуқуқий асослари ҳақида сўз юритилиб, қиз болаларнинг таълим ва тарбия олиш ҳуқуқи билан боғлиқ ижтимоий муносабатларни тартибга солишда ҳамда бу борадаги давлат сиёсати ҳам қисман ёритилган. Бундан ташқари, Республикамизда аёлларнинг оила ва жамият ҳаётидаги ўрни ва нуфузини юксалтириш, уларнинг давлат бошқаруви фаолиятидаги ролини ошириш ҳамда бу фаолиятни оилавий юмушлар билан уйғун тарзда юритиш учун кенг имкониятлар яратиш давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан бири экани таъкидланган

Калит сўзлар. Аёл, аёл ҳуқуқлари, оила, фарзанд, қиз болалар ҳуқуқлари, таълим олиш ҳуқуқи, таълим ва тарбия, давлат сиёсати, илм-фан, мактаб.

ПРАВО ЖЕНЩИНЫ НА ОБРАЗОВАНИЕ – КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЧАСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРАВ

Аннотация. В статье говорится о гарантиях прав женщин на образование в Республике Узбекистан и его правовой основе, регулировании общественных отношений, связанных с правом на образование и воспитание девочек, частично освещена государственная политика в этом отношении. Кроме того, было отмечено, что одним из важнейших направлений государственной политики является повышение положения и престижа женщин в

жизни семьи и общества в нашей республике, повышение их роли в деятельности государственного управления, создание широких возможностей для ведения этой деятельности в гармонии с семейными делами.

Ключевые слова. Женщина, права женщин, семья, ребенок, права девочек, право на образование, образование и воспитание, государственная политика, наука, школа.

WOMAN'S RIGHT TO EDUCATION – AS AN ESSENTIAL PART OF SOCIAL RIGHTS

Annotation. The article talks about guarantees of women's rights to education in the Republic of Uzbekistan and its legal basis, regulation of social relations related to the right to education and upbringing of girls, and partially highlights state policy in this regard. In addition, it was noted that one of the most important directions of state policy is to increase the position and prestige of women in the life of the family and society in our republic, to increase their role in public administration, and to create ample opportunities for conducting this activity in harmony with family affairs.

Keywords. Woman, women's rights, family, child, girls' rights, right to education, education and upbringing, public policy, science, school.

Ҳар бир мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, маданий ва маънавий тараққиётида аёлларнинг жамиятда тутган мавқеи, давлатнинг аёлларга қаратилган сиёсати муҳим аҳамият касб этиб, у шу жамиятнинг демократик тараққиёт даражасини кўрсатувчи асосий мезон, давлатнинг маданияти ва инсонпарварлигини белгиловчи барометр вазифасини бажаради. Айтиш мумкинки, аёллар ҳуқуқини қонунда ва амалда лозим даражада таъминлай олмаган давлат ва жамиятни демократик ҳуқуқий давлат ва эркин фуқаролик жамияти сифатида тан олиб бўлмайди. Шу сабабдан, ҳар бир давлатда аёлларнинг жамият ҳаётида тутган ўрни, улар ҳуқуқининг таъминланганлик даражаси ва уларга боғлиқ муносабатлар барча ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, маданий ва маънавий воқеликларнинг марказида турувчи асосий масалалардан бири ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси аҳолисининг 50 фоизи, яъни 17 миллион 200 мингдан ортиғини бугунги кунда хотин-қизлар ташкил этади. Шу сабабдан, Ўзбекистон Республикасида бугунги кунда амалга оширилаётган туб ислоҳотлар жараёнида хотин-қизлар учун ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларида муносиб шарт-шароитларини яратиш, аёлларнинг оила ва жамият ҳаётидаги ўрни ва нуфузини юксалтириш, уларнинг давлат бошқаруви фаолиятидаги ролини ошириш ҳамда бу фаолиятни оилавий юмушлар билан уйғун тарзда юритиш учун кенг имкониятлар яратиш давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан бирига айланди. Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш.М.Мирзиёев ҳақли равишда таъкидлаганидек, “давлат ва жамият бошқарувида аёлларнинг ўрни ва мавқеини янада мустаҳкамлаш - ислоҳотларимизнинг энг устувор йўналишларидан биридир”.

Таълим олиш аёлларнинг ижтимоий ҳуқуқлари таркибида асосий ҳуқуқларидан бири ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонунига кўра, ҳар кимга жинси, тили, ёши, ирқий, миллий мансублиги, эътиқоди, динга муносабати, ижтимоий келиб чиқиши, хизмат тури, ижтимоий мавқеи, турар жойи, Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қанча вақт яшаётганлигидан қатъий назар, билим олишда тенг ҳуқуқлар кафолатланган. Миллий қонунчилик ҳужжатларида белгиланган бу ҳуқуқ таълим олиш ҳуқуқини белгиловчи барча халқаро ҳужжатлар талабларига мос келади.

Чунончи, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг 26-моддасида ўрнатилишича, ҳар бир инсон таълим олиш ҳуқуқига эга. Таълим олишда ҳеч бўлмаганда бошланғич ва умумий таълим текин бўлиши лозим. Бошланғич таълим мажбурий бўлиши керак. Халқаро ҳуқуқнинг ушбу нормаси талабидан келиб чиққан ҳолда таълим масаласи давлатимизнинг Асосий қонунида мустаҳкам ўз ўрнига эга бўлди.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси янги таҳрирдаги Конституциясининг 50-моддасида ҳар ким билим олиш ҳуқуқига эгалиги, бепул умумий таълим олиш давлат томонидан

кафолатланиши, мактаб ишлари давлат назоратида эканлиги ўрнатилди.

Таълим олиш ҳуқуқининг конституциявий асослари тўғрисида гапирганда Асосий қонуннинг 4-моддасида Ўзбекистон Республикаси ўз ҳудудида истеъқомат қилувчи барча миллат ва элатларнинг тиллари, урф-одатлари ва анъаналари ҳурмат қилинишини таъминлайди, уларнинг ривожланиши учун шароит яратади, деб белгиланганлиги ва бу байналминал аҳамият касб этувчи ушбу устувор қоидадан келиб чиқиб, мамлакатимизда мактаб таълими 7 та тилда: ўзбек, қорақалпоқ, рус, қозоқ, қирғиз, туркман ва тожик тилларида олиб борилаётганлигини таъкидлаш лозим.

Қиз болаларнинг таълим ва тарбия олиш ҳуқуқи билан боғлиқ ижтимоий муносабатларни тартибга солишда Ўзбекистон Республикасининг «Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида»ги қонуни алоҳида аҳамият касб этади. Ушбу қонунда мактабгача таълим ва тарбиянинг асосий принциплари, таълим ва тарбия соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари, таълим ва тарбия олишга доир давлат кафолатлари ўрнатилган бўлиб, унга биноан ҳар бир бола мактабгача таълим ва тарбия олиш ҳуқуқига эга. Давлат ҳар бир боланинг умумий ўрта таълим ташкилотига ўқишга киришидан бир йил олдин давлат мактабгача таълим ташкилотларида умумий ўрта таълимга мажбурий бир йиллик тайёргарликдан ўтишга бўлган ҳуқуқини кафолатлайди. Ушбу қонунга кўра, мактабгача таълим ташкилотларидаги гуруҳлар уларда болаларнинг бўлиши давомийлигига қараб болалар қисқа вақт бўладиган гуруҳлар (кунига 3-4 соат); тўлиқ кунли гуруҳлар (кунига 9, 10,5 ва 12 соат); болалар кечаю кундуз бўладиган гуруҳлар бўлиши мумкин.

Таълимни давлат томонидан бошқариш органлари ва таълим муассасалари аёлларни мажбурий меҳнатга ва ғайриижтимоий хулқ-атворга жалб қилиш ҳолатларига доир фактлар тўғрисида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга хабар қилиш, таълим муассасаларида таҳсил олувчилар орасидан хотин-қизларга нисбатан тазйиқ ўтказиш ва зўравонлик содир этишга мойил шахсларни аниқлаш ҳамда уларнинг хулқ-атворини тузатиш, шунингдек тазйиқ ва

зўравонликдан жабрланганларни ижтимоий реабилитация қилиш ҳамда мослаштириш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш, таълим муассасаларида бўш вақтни мазмунли ўтказишни таъминлаш мақсадида тадбирлар ташкил этиш, тегишли ваколатли органлар ҳамда ташкилотлар билан ҳамкорлик қилиш масалалари билан шуғулланади.

Давлатнинг аёлларга оид сиёсатини амалга ошириш соҳасида Ўзбекистон Республикасининг Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги махсус давлат бошқаруви органи ҳисобланади. Ушбу Вазирлик Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги ПФ-5938-сон “Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони асосида ташкил этилди.

Ушбу фармонга асосан Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги тизимида унинг Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар, Тошкент шаҳар ва туман (шаҳар) бўлинмалари фаолият юритади. Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлигининг асосий вазифа ва фаолият йўналиши сифатида хотин-қизларни қўллаб-қувватлашга доир давлат сиёсатининг самарали амалга оширилишини таъминлаш, уларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, мамлакат ижтимоий-сиёсий ҳаётидаги роли ва фаоллигини ошириш, хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқук ҳамда имкониятлар кафолатларини таъминлаш; хотин-қизларнинг муаммоларини ўз вақтида аниқлаш, ёрдамга муҳтож бўлган ва оғир ижтимоий аҳволга тушиб қолган хотин-қизларга, шу жумладан ногиронлиги бўлган аёлларга ижтимоий-ҳуқуқий, психологик ва моддий ёрдам кўрсатиш; хотин-қизларнинг бандлигини таъминлаш, меҳнат шароитларини яхшилаш, хотин-қизларни, айниқса, қишлоқ жойлардаги ёш қизларни оилавий ва хусусий тадбиркорликка, ҳунармандчиликка кенг жалб этиш масалаларида ҳар томонлама манзилли қўллаб-қувватлаш; ёлғиз кексалар, ижтимоий ҳимояга муҳтож ва кам таъминланган оилаларга

моддий кўмаклашиш, ижтимоий қўллаб-қувватлашни таъминлашда ҳуқуқий, услубий ва амалий ёрдам кўрсатиш, нуронийларнинг билим ва бой ҳаётий тажрибасидан ёшлар маънавиятини юксалтириш, уларда ватанпарварлик руҳини мустаҳкамлаш масалаларида самарали фойдаланиш белгиланди.

Таълим, илм-фан ҳамда маданият соҳасида хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларнинг мавжудлиги гендер тенглигининг муҳим йўналишидан биридир. Давлат таълим олиш ҳуқуқини амалга оширишда хотин-қизлар ва эркакларга тенг имкониятлар яратилишини таъминлаши керак. Таълим соҳасидаги ваколатли орган таълим дастурлари, таълим муассасаларининг дастурларини ҳамда режаларини уларнинг хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатларини таъминлаш принципига мувофиқлиги жиҳатидан экспертизадан ўтказиши, олий таълим муассасаларининг таълим дастурлари ва малака ошириш курслари хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш бўйича курсни ўз ичига олиши керак.

ТЕМУР АЙБЕРГЕНОВ,
мустақил тадқиқотчи

МИЛЛИЙ ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

Аннотация: ушбу мақолада миллий хавфсизлик концепциялари, унинг замонавий тенденциялари, ушбу соҳада айрим хорижий мамлакатлар тажрибаси илмий ўрганилган. Миллий хавфсизликни таъминлашва унинг тизими қиёсий таҳлил этилган ва Ўзбекистон қонунчилигига тадбиқ этиш бўйича таклифлар тақдим этилган.

Калит сўзлар: концепция, миллий манфаат, миллий хавфсизлик, стратегия, суверенитет, таҳдид.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НОРМАТИВНО-ПРАВОВОЙ БАЗЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация: в статье научно изучаются концепции

национальной безопасности, ее современные тенденции, опыт некоторых зарубежных стран в этой области. Проведен сравнительный анализ обеспечения национальной безопасности и ее системы и представлены предложения по применению к законодательству Узбекистана.

Ключевые слова: концепция, националный интерес, национальная безопасность, стратегия, суверенитет, угроза.

FOREIGN EXPERIENCE IN IMPROVING THE LEGAL FRAMEWORK FOR ENSURING NATIONAL SECURITY

Annotation: the concepts of national security, its modern trends, the experience of some foreign countries in this field are scientifically studied in this article. Provision of national security and its system were comparatively analyzed and proposals were presented on the application to the legislation of Uzbekistan.

Key words: concept, national interest, national security, strategy, sovereignty, threat.

Бугунги кунда мустақил давлатларнинг дунё харитасида ўз ўрнини сақлаб қолиши, халқаро майдонда миллий давлатчиликка, суверенитетга бўлаётган турли хил таҳдидларга қарши туриб, уларни бартараф этиш учун, **миллий хавфсизликни таъминлаш**га алоҳида жиддий эътибор қаратиши, ушбу масалада хориж тажрибасини мунтазам ўрганиб, унинг илғор жиҳатларини таҳлил этиш ҳамда концепциялар кўринишида шахс, жамият ва давлатни ҳимоялашда муайян ғояга мувофиқлаштиришни талаб этади.

***Маълумот учун**: Миллий хавфсизликни таъминлаш – шахс, жамият ва давлатнинг ҳаётий муҳим манфаатларига бўладиган турли хил эҳтимолий таҳдидларни бартараф этишга қаратилган сиёсий, иқтисодий, ижтимоий (таълим, соғлиқни сақлаш, маданият, ишсизлик ва б.), ахборот-психологик, маънавий, ҳарбий, ҳуқуқий ва бошқа тадбирлар мажмуасидир.*

Хорижий давлатлар миллий хавфсизлик концепцияларининг таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, улар кенг жамоатчилик учун очиқ характерга, ўзига хос тузилиш ва мазмунга эга бўлиб, миллий

манфаатлар ва хавфсизликка таҳдидлар, шунингдек, жаҳон ва минтақадаги ўзгариб бораётган вазиятдан келиб шакллантирилади.

Шу ўринда, хавфсизлик соҳалари бўйича алоҳида концептуал ҳужжатларнинг мавжудлиги, уларда таҳдидларнинг таснифланиши ва хавфларни баҳолашда индикатив ёндашувнинг қўлланилиши, асосийси ошкоралиги ҳам муҳим ҳисобланиб, бу каби хусусиятлар АҚШ, Буюк Британия, Япония, Россия Федерацияси *(РФ)*, Беларусь каби мамлакатларнинг ҳужжатларида ўз аксини топган.

Хусусан, Ғарбда янги концепция ёки долзарб муаммолар бўйича мамлакат раҳбарининг позицияси, қарашлари умумий тарзда кенг жамоатчиликка *(жумладан, хавфсизлик соҳасида етакчи экспертларнинг мақолалари орқали)* етказилади. Бундан ташқари, концептуал ҳужатларни ишлаб чиқиш жараёнида *(АҚШ, Буюк Британия, РФ)* нафақат кучли ахборот-таҳлилий имкониятга эга разведкавий ёки бошқа ҳукумат муассасалари, балки мустақил илмий-тадқиқот институтлари ҳам жалб этилади.

Постсовет маконидаги аксарият давлатлар концепцияларида умумий қоидалар, миллий хавфсизликка нисбатан ички ва ташқи таҳдидлар, уларни нейтраллаштириш ҳамда миллий манфаатларни ҳимоялашнинг асосий йўналишлари, миллий хавфсизликни таъминлаш тизими каби принциплар ўз аксини топган.

Масалан, “Қозоғистоннинг миллий хавфсизлик тўғрисида”ги қонуни миллий хавфсизлик соҳасидаги ҳуқуқий муносабатларни тартибга солиб, инсон ва фуқаро, жамият ва давлат хавсизлигини таъминлаш принциплари, Қозоғистон миллий хавфсизлигини таъминлаш тизими, мақсади ва йўналишларини аниқлаб берган.

“Озарбайжоннинг миллий хавфсизлик тўғрисида”ги қонуни асосан давлат миллий хавфсизлик сиёсатининг ҳуқуқий асосларини ишлаб чиқишга йўналтирилган бўлиб, унда миллий хавфсизликни таъминлаш тизими, асосий принциплари, миллий манфаатлар ва таҳдидлар, миллий хавфсизликни таъминловчи ваколатли давлат органлари, уларнинг ваколатлари, куч ва воситалари, миллий хавфсизлик соҳалари, миллий хавфсизликни таъминлашда фуқаролар иштироки ва бу жараёнда улар ҳуқуқларининг ҳимояси каби

масалалар тартибга солинган.

Дунёда иқтисодий ва ҳарбий етакчиликка интилаётган Хитой Халқ Республикасининг “Миллий хавфсизлик тўғрисида”ги қонунида хавфсизликни таъминлаш фаолиятининг бош мақсади – аҳоли хавфсизлигини сақлаш белгиланган. Шунингдек, хавфсизлик соҳалари орасида асосий эътибор сиёсий ва иқтисодий хавфсизликни таъминлашга қаратилган. Давлат суверенитети, бирлиги ва ҳудудий яхлитлиги барча Хитой фуқароларининг умумий мажбурияти ҳисобланади.

Миллий хавфсизлик Стратегиялари орасида АҚШ тажрибаси таҳлили унинг интеллектуал ҳужжат сифатида қатор таркибий қисмлардан иборатлигини кўрсатмоқда. Булар:

– ҳаётий муҳим миллий манфаатлар - миллатнинг маданий-тарихий бирлик тариқасида ўзлигини сақлаб қолиш, миллий қадриятларни, ижтимоий ва давлат институтларини ҳимоя қилиш, суверенитетни ҳамда шахс, жамият ва давлатнинг барқарор ривожланишини таъминлаш борасида англанган эҳтиёжлари;

– мамлакатнинг замонавий босқичдаги муҳим вазифаси, яъни хавфсизлик субъектлари, аввало, давлат *(унинг тимсолида давлат раҳбари)* томонидан миллий хавфсизликнинг мақсади, вазифалари ва устувор йўналишлари, миллий манфаатларни ҳимоялаш борасидаги сиёсатни тушуниш ҳамда амалга ошириш;

– миллий хавфсизликни таъминлаш мақсадида давлат ва жамоат институтлари, эксперт ва мутахассислар ҳамда хавфсизликнинг бошқа субъектлари томонидан ишлаб чиқилиб, ҳаётга тадбиқ этиладиган аниқ мақсадли кўрсатма ва дастурлар.

Таъкидлаш лозимки, хорижий мамлакатлар миллий хавфсизлик стратегияларида давлат ташқи сиёсий фаолиятининг устувор йўналишлари, унинг ҳамкорлари ва иттифоқчилари ҳамда халқаро ташкилотлари фаолиятидаги иштироки каби масалалари ҳам тартибга солинган.

Масалан, АҚШ, Буюк Британия, РФ, Украина, Арманистон ва Озарбайжон давлатлари миллий хавфсизлик концепцияларида мазкур давлатларнинг минтақавий ва халқаро хавфсизликнинг долзарб

масалалари бўйича расмий нуқтаи назари, унинг халқаро муносабатлардаги ҳамкорлари ва иттифоқдошлари қайд этилган.

Бундан ташқари, халқаро амалиётда миллий хавфсизлик соҳаларининг кенгайтирилиб борилаётганлиги ҳамда мамлакат қонунчилик асосларини такомиллаштиришда муҳим йўналишлар белгиланаётганлиги кузатилмоқда.

Хусусан, миллий хавфсизликнинг анъанавий ҳисобланган иқтисодий, ижтимоий, ҳарбий хавфсизлик каби соҳалари билан бир қаторда, хавфсизликнинг нисбатан янги йўналишлари: ахборот-психологик, биологик, демографик, илмий-технологик, киберхавфсизлик, озиқ-овқат хавфсизлиги, транспорт, энергетика, чегаравий каби соҳалари ҳам мустаҳкамланмоқда.

Мазкур соҳалар муайян давлат органлари томонидан қабул қилинадиган норматив ва концептуал ҳужжатларда ўз аксини топади ёки соҳани тартибга солувчи конкрет қонун ҳужжатлари қабул қилинади. Мисол учун, РФнинг “Озиқ-овқат доктринаси”, “Транспорт хавфсизлиги концепцияси”, Озарбайжоннинг “Экологик хавфсизлик тўғрисида”ги қонуни шулар жумласидандир.

***Маълумот учун**: Ўзбекистон Республикаси Миллий хавфсизлик концепциясида хавфсизликнинг 7 та устувор соҳалари кўрсатилган бўлиб, улар анъанавий соҳалар ҳисобланади, шунингдек аксарият соҳаларнинг қонунчилик ва концептуал асосларини ишлаб чиқишга зарурат мавжуд.*

Дунёнинг етакчи мамлакатлар миллий хавфсизлик концепцияларида давлат хавфсизлигининг устувор соҳалари сифатида геосиёсий жараёнларни ҳам ўзида акс эттиради.

Хусусан, 2021 йил тасдиқланган РФ миллий хавфсизлик стратегиясида, геосиёсий беқарорлик ва давлатлараро қарама-қаршиликларнинг ўсиши шароитларида Россия халқаро муносабатларнинг барқарор тизимини таъминлашга қаратилган “изчил, мустақил, очиқ ва прагматик ташқи сиёсатни” юритиши ҳамда Россия хорижий давлатларнинг нодўстона хатти-ҳаракатларига жавобан тегишли чораларни кўриши белгиланган.

2022 йил октябрь ойида эълон қилинган АҚШ миллий

хавфсизлик стратегиясида Хитойнинг Америка учун энг жиддий геосиёсий муаммо эканлигини, Россия эса Европадаги минтақавий хавфсизлик тартибига бевосита ва доимий таҳдид эканлиги акс эттирилган ҳамда мамлакатнинг хавфсизлик соҳасидаги мақсадлари ва уларга эришиш механизмлари кўрсатилган.

2023 йил июнь ойида Германия илк бор миллий хавфсизлик стратегиясини қабул қилди, унда потенциал таҳдидлар баҳоланган, ресурслар тақсимланган, РФ Евро-Атлантика минтақасида тинчлик ва хавфсизликка энг жиддий таҳдид сифатида қайд этилган.

2022 йил декабрда эълон қилинган Япониянинг Миллий хавфсизлик стратегиясида ўз мудофаа қобилиятига тааллуқли бир қатор амбицияли лойиҳаларни ўз ичига олган бўлиб, унда мақсадлар сифатида “миллий мудофаа учун Япониянинг ўз архитектурасини мустаҳкамлаш”, “Япония-АҚШ иттифоқининг тажовузларга биргаликдаги жавоб бериш қобилиятини янада кучайтириш”, “иттифоқдош мамлакатлар билан ҳамкорликни мустаҳкамлаш” белгиланган бўлиб, мамлакат хавфсизлилигига Хитой энг катта хавф сифатида кўрилган.

Таъкидлаш лозимки, илғор хорижий давлатларда миллий хавфсизликнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириб боришга катта эътибор берилиши, хавфсизлик соҳалари бўйича алоҳида концептуал ҳужжатларнинг мавжудлиги, таҳдидларнинг таснифланиши ва давлат хавфсизлигини баҳолашда индикатив ёндашувнинг қўлланилиши, ташқи сиёсий фаолиятининг устувор йўналишлари, унда минтақавий ва халқаро хавфсизликнинг долзарб масалалари бўйича расмий нуқтаи назари ёритилиши билан аҳамиятлидир.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, тобора кескинлашиб бораётган хавфсизлик муҳитида, мавзунинг долзарблигини эътиборга олиш, хавфсизликни таъминлашнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштиришда хориж тажрибасини чуқур ўрганиш керак. Хусусан:

–“Ўзбекистон Республикасининг Миллий хавфсизлик концепцияси”ни янги таҳрирда қабул қилиш, миллий хавфсизлик

архитектурасини мустаҳкамлаш, хавфсизликни таъминлашнинг янги соҳаларини *(ахборот-психологик, биологик, технологик тараққиёт, транспорт, энергетика ва б.)* киритиш, анъанавий *(фақат давлатга таъсир қилувчи)* ва ноанъанавий таҳдидларни *(шахсга, жамиятга ва давлатга, шу жумладан бутун инсониятга таъсир қилувчи)* кўриб чиқиш лозим;

– Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида белгиланган давлат суверенитети принципини амалга тўлиқ тадбиқ этиш мақсадида, “демократик давлат”, “ҳуқуқий жамият”, “ижтимоий давлат” ва “дунёвий давлат” тўғрисидаги алоҳида концепцияларни ишлаб чиқиш ва қабул қилиш. Шу жумладан, “Ўзбекистон Республикасининг Дунёвий давлат концепцияси тўғрисида”ги қонуни дунёвий давлат тамойилини тўлиқ рўёбга чиқариш борасидаги давлат сиёсатининг мақсади, вазифалари, тамойиллари, устувор йўналишларини белгиловчи расмий қарашлар тизимини ўзида акс эттирувчи сиёсий-ҳуқуқий ҳужжат бўлиши даркор.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Бобокулов И.И., Умаров Х.П. Хавфсизлик асослари. Ўқув қўлланма. - Т.: ЖИДУ, 2011. –Б. 137 б.

2. М.Зеленков. Зарубежные концепции национальной безопасности.zelenkov.ucoz.ru/PONB/lekcija_6_zarubezhnye_koncepciii_nacbezopasnosti.doc

3. Бажанов П. Закон КНР «О государственной безопасности» - http://pavel.bazhanov.pro/translations/other/china_state_security_law_

4. https://www.bloomberg.com/news/articles/2023-06-14/german-coalition-approves-inaugural-national-security-strategy

5. https://www.csis.org/analysis/japans-new-national-security-strategy-and-contribution-networked-regional-security

TO‘LQIN MAMATALIYEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

TA’LIM OLISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI: MASOFAVIY TA’LIM DAVRIGA MOSLASHISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada masofaviy ta’limning huquqiy asoslari paydo bo‘lishi va o‘rnatilishi, ta‘lim sohasidagi islohatlarning konstitutsiyaviy asoslari ilmiy tahlil qilingan. An’anaviy oliy ta’lim muassasalaridan farqli o‘laroq, masofaviy ta’lim geografik chegaralardan oshib, joylashuvi yoki jismoniy cheklovlaridan qat’i nazar, ta’lim olish imkoniyatini berishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, masofaviy ta’lim, ta’lim olish huquqi, ta’lim landshafti.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ ГАРАНТИИ ПРАВА НА ОБРАЗОВАНИЕ: АДАПТАЦИЯ К ПЕРИОДУ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. В данной статье научно анализируются возникновение и становление правовой основы дистанционного образования, конституционные основы реформ в сфере образования. В отличие от традиционных высших учебных заведений, дистанционное обучение выходит за рамки географических границ и обеспечивает доступ к обучению независимо от местоположения или физических ограничений.

Ключевые слова: человеческий капитал, дистанционное образование, право на образование, образовательный ландшафт.

CONSTITUTIONAL GUARANTEES FOR THE RIGHT TO EDUCATION: ADAPTING TO THE ERA OF DISTANCE LEARNING

Annotation. In this article, the emergence and establishment of the legal basis of distance education, the constitutional basis of reforms in the field of education are scientifically analyzed. Unlike traditional higher education institutions, distance learning transcends geographic boundaries and provides access to learning regardless of location or physical

limitations.

Key words: human capital, distance education, right to education, educational landscape.

Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan strategik vazifalardan biridir[1]. Masofaviy ta’limga oid asosiy normativ-huquqiy hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasining 20.04.2021-yildagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” gi O‘RQ-682-son Qonun 6-moddasida belgilangan normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasi asosida bir qator tizmlashtirib olish lozim.

Masofaviy ta’limga oid normativ-huquqiy hujjatlarga O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi[2], O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni[3], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni 2-ilovasining 212-213-bandlari[4], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022-yildagi “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida” 80-son qarori[5], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.10.2022-yildagi 559-son qarori va shu kabi bir qancha normativ-huquqiy hujjatlarni keltirib utish mumkin[6].

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 50-moddasida har kim ta’lim olish huquqiga ega ekanligi, davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlashi mustahkamlanib qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 50-moddasida har bir shaxsning bilim olish huquqi kafolatlangan. Bu huquqni konstitutsiyada mustahkamlab, davlatni inklyuziv va samarali ta’lim tizimini yaratish va qo‘llab-quvvatlash majburiyatini yuklaydigan huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Barcha insonlar uchun sifatli ta’limni ta’minlash, turli ta’lim landshaftini ilgari surish va fuqarolarning ehtiyojlarini qondirish uchun ta’lim tizimini doimiy ravishda rivojlantirish majburiyatini aks ettiradi.

O‘zbekistonda masofaviy ta’limning huquqiy asoslarining shakllantirilishi mamlakatda ushbu ta’lim yondashuvining o‘zgaruvchan salohiyati e’tirof etilganidan dalolat beradi. Hukumat me’yoriy-huquqiy bazani yaratish orqali sifat standartlarini ta’minlash, pedagogik yaxlitlikni saqlash, talabalar huquqlarini himoya qilish va masofaviy ta’lim amaliyotini keng joriy etishni rag‘batlantirishni maqsad qilgan. Ushbu huquqiy asoslar, shuningdek, ta’lim muassasalari, sanoat manfaatdor tomonlari va siyosatchilar o‘rtasidagi hamkorlikni osonlashtiradi, masofaviy ta’lim tashabbuslarini va hamkorlik muhitini rag‘batlantiradi.

O‘zbekistonda masofaviy ta’limning huquqiy asoslarini yaratishning dolzarbligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi global yutuqlar ta’lim tizimlariga milliy chegaralardan chiqib ketish imkonini bermoqda, bu esa xalqaro hamkorlik va sherikliklarning paydo bo‘lishiga olib keladi. O‘zbekistondagi aniq huquqiy bazalarni ishlab chiqish mamlakatning masofaviy ta’lim amaliyotini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtiradi, transchegaraviy ta’lim almashinuvini osonlashtiradi va O‘zbekistonni raqamli ta’lim markazi sifatida keng e’tirof etilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, masofaviy ta’limning huquqiy asoslarini yaratish ushbu ta’lim shaklida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni hal qiladi. Akkreditatsiya, intellektual mulk huquqlari, talabalarning maxfiyligi, ma’lumotlar himoyasi va sifat kafolati kabi masalalar huquqiy kafolatlarni talab qiladigan muhim masalalardir. Texnologiya taraqqiyoti va ijtimoiy ehtiyojlar o‘zgarib borar ekan, qonunchilik bazasi ta’lim amaliyotlari dolzarb, adolatli va inklyuziv bo‘lib qolishini ta’minlab, zamonga moslashishi kerak.

O‘zbekistonda masofaviy ta’limning huquqiy asoslarining paydo bo‘lishi va dolzarbligi mamlakatning ta’lim sohasida texnologiya imkoniyatlaridan foydalanishga intilishidan dalolat beradi. O‘zbekiston mustahkam me’yoriy-huquqiy bazani yaratish orqali talabalarga sifatli ta’lim imkoniyatlarini taqdim etishga, hamkorlikni rivojlantirishga va masofaviy ta’limning global landshaftining yetakchi ishtirokchisi sifatida o‘zini namoyon qilishga intiladi. Qonunchilik asoslarini kiritish orqali O‘zbekiston masofaviy ta’limning rivojlanishi va o‘sishini ta’minlash, shu

bilan birga barcha manfaatdor tomonlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishnishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Masofaviy ta’limning huquqiy asoslari masofaviy ta’lim muassasalari va pedagoglarning aniq qonuniy huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Bu masofaviy ta’lim dasturlari adolatli va oshkora amalga oshirilishini ta’minlashga, talabalarni har qanday mumkin bo‘lgan huquqbuzarlik va buzilishlardan himoya qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi (president.uz).

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.Mazkur yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30- aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. https://lex.uz/uz/docs/6445145.

3. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni https://lex.uz/docs/-5013007Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son. lex.uz/docs/5841063

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022-yildagi “Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida”gi 80-son Qarori https://lex.uz/docs/5870213

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.10.2022-yildagi “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini

joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 559-son qarori Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.10.2022-y., 09/22/559/0884-son

LOCHINBEK SUYUNDIKOV,
Milliy gvardiya 65921-harbiy qism Moliya xizmati katta ofitseri, kapitan

YANGI QABUL QILINGAN KONSTITUTSIYANING XALQ FAROVONLIGINI TA’MINLASHDA DAVLAT BYUDJETI TIZIMINI OCHIQLIK PRINSIPINI AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangilangan Konstitutsiyaning xalq manfaatlariga xizmat qilishi, aholi turmush farovonligini yanada yaxshilash, hamda joylardagi muammolarni tizimli hal etishda tashabbusli byudjet orqali moliyalashtirishni mazmun-mohiyati yortilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, ochiq byudjet portali, milliy manfaatlar, ochiqlik prinsipi, jamoatchilik nazorati.

ЗНАЧЕНИЕ ПРИНЦИПА ОТКРЫТОСТИ ГОСБЮДЖЕТНОЙ СИСТЕМЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НОВО ПРИНЯТОЙ КОНСТИТУЦИИ

Аннотация. В данной статье рассматривается важность обновленной Конституции для служения интересам народа, дальнейшего повышения благосостояния населения и системного решения местных проблем посредством инициативного бюджета.

Ключевые слова: гражданское общество, портал открытого бюджета, национальные интересы, принцип открытости, общественный контроль.

THE IMPORTANCE OF THE PRINCIPLE OF OPENNESS OF THE STATE BUDGET SYSTEM IN ENSURING THE WELFARE OF THE NEWLY ADOPTED CONSTITUTION

Abstract. This article highlights the importance of the updated Constitution to serve the interests of the people, to further improve the well-being of the population, and to systematically solve local problems through initiative budget financing.

Keywords: civil society, open budget portal, national interests, principle of openness, public control.

Bugungi kunda Konstituysiyamiz va qonunlarimiz talabiga ko‘ra so‘z, axborot, e’tiqod, fikr va g‘oyalar erkinligi hamma fuqarolarga tegishli hisoblanadi. Davlatimiz rahbari Muhtaram Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “fuqarolarning fikr, so‘z erkinligiga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlash – rivojlangan demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishning muhim shartidir”. Darhaqiqat, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari roli va ahamiyatini tubdan oshirish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

“Inson – jamiyat – davlat degan tamoyil Konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlanayotgan, hamda yangilanayotgan Konstitutsiyada davlat ahamiyatiga molik masalalarga oid qarorlar qabul qilishda xalqning, fuqarolarning ishtirokini oshirishga alohida e’tibor qaratilgani g‘oyat ahamiyatlidir.”

“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasiga faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish va jamoatchilik nazorati institutini yanada rivojlantirishga qaratilgan muhim normalar kiritilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad mamlakatimizda ochiqlik siyosatini yangi bosqichda izchil davom ettirishdir.

Bu o‘rinda, avvalo, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga fuqarolik jamiyati institutlariga bag‘ishlangan alohida bob kiritilayotgani va ular faoliyatining kafolatlari belgilanayotganini ta’kidlash lozim. Bularning barchasi, o‘z navbatida, jamiyatda ochiqlik, oshkoralik va qonuniylik muhitini, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni rivojlantirish hamda kuchli jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 148-moddasi ikkinchi qismida O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini shakllantirish, hamda ijro etish tartib-tamoyillari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yilmoqda.

Yangilanayotgan Konstitutsiyaga Davlat budjeti va uning shaffofligi xususida tegishli modda ham kiritilayotgan bo‘lib, ushbu modda odamlar budjet qanday shakllanishi, qanday sarflanishi ustidan nazorat o‘rnata olishlariga xizmat qiladi.

148-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti respublika budjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetini shakllantirish hamda ijro etish tartib-taomillari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Fuqarolarning hamda fuqarolik jamiyati institutlarining budjet jarayonida ishtirok etishi tartibi va shakllari qonun bilan belgilanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Ochiq byudjet” davlat siyosati, byudjet ustidan jamoatchilik nazorati samarali amalga oshirish va bu borada to‘liq axborot olish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, davlat byudjetiga oid axborotlarni joylashtirishni nazarda tutuvchi. “Ochiq byudjet” portali ishga tushirildi. 2019 yildan boshlab byudjet mablag‘lari taqsimlanishda fuqarolar ishtirokining tuman va shaharlar byudjetlari qo‘shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamaotchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirishni nazarda tutadigan mexanizm joriy etildi.

Bu bejizga emas, albatta inson manfaatlarini ta’minlashda byudjet mablag‘lari kattta ro‘l o‘ynaydi. Bu mablag‘lar fuqarolarning to‘lagan soliqlaridan shakllantiriladi, agarda byudjet ochiq bo‘lsa va insonlar bu jarayonda bevosita ishtirok etsa, ularni qiynayotgan malalarlar o‘z yechimini topishi ham osonlashadi.

Fuqarolarni byudjet jarayoniga jalb qilish mexanizmining ishga tushirilishi joylarda aholini qiynab kelayotgan muammolarning yechimini topish va jamoatchilikni budjet jarayonining ishtirokchisiga aylantirishda alohida vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

2021-yilda o‘tkazilgan tashabbusli budjetlashtirish jarayonida fuqarolardan kelib tushgan murojaatlarda bayon etilgan o‘rinli va dolzarb muammolarni qisqa muddatlarda bartaraf etish, davlat budjetini shakllantirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish loyihalarini

ishlab chiqish jarayoniga aholini faol jalb etish maqsadida Muhtaram yurtboshimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning 2021-yil 22-sentyabrgi PQ-5250-sonli “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori imzolandi.

Shu nuqtai nazaridan, xalqning, jamoatchilikning birlamchi ehtiyojini qanoatlantirishga ajratiladigan byudjet mablag‘larining birinchi navbatda qayerga, nima uchun sarflanishi xalqning o‘zi hal qilishiga yo‘l beradigan loyihalarining bardavomligini ta’minlash g‘oyatda muhimdir. Konstitutsiyaga kiritilayotgan o‘zgarishlar davlat byudjetini shakllantirish, uni daromad va xarajat qismlarini belgilash, ijrosini ta’minlashda fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarini jlab qilish, ularga bu jarayonda keng va faol qatnashishga imkon beradi.

Yangi Konstitutsiyada davlat byudjetini shakllantish va ijro etish ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy o‘sish va aholi turmush farovonligini ta’minlashda hal etuvchi omillardan biri davlat byudjeti mablag‘lari natijaga yo‘naltirilgan holatda sarf etilishi, bunga esa, faqatgina ochiqlik va shoffoflik prinsiplarga amal qilish orqali erishish mumkindir.

Davlat byudjetini shakllantish va ijro etishdagi ochiqlik va shaffoflik prinsiplariga amal qilish konstitutsiyaviy qoidasini ahamiyati shundaki, birinchidan, Davlat byudjetini shakllantirish, ko‘rib chiqish va qabul qilish tartib taomillarining jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligida, shunigdek byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirok etishida, ikkinchidan, tasdiqlangan Davlat byudjeti va uning ijrosi to‘g‘risidagi axborotni ommaviy axborot vositalarda e’lon qilinishida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, Davlat byudjeti loyihasini jamoatchilik muhakamasida qo‘yilishi va keyinchalik Oliy Majlis va mahalliy xalq deputatlari Kengashlari tominidan ko‘rib chiqilishi va qabul qilinishi,ularni tegishli davradagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni eshitib borilishi, byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi usidan nazoratni olib borilishi ham ochiqlik va shoffoflikni ta’minlaydi.

Shu kabi talablar Xalqaro valyuta fondi, Iqtisodiy hamkorlik va

taraqqiyot tashkilot tavsiyalar ham ko‘zda tutilgan. Shuningdek, Avstriya, Belgiya kabi davlarda konstitutsiyalarida ham byudjet shaffofligiga oid normalar belgilangan.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish kerakki, ushbu o‘zgarishlar byudjet xarajatlari ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytrishga, mazkur yo‘nalishida korrupsion omillarni kamayishiga, mamlakat moliyaviy tizimiga aholi ishonchini kuchayishiga, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga hamda, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat byudjeti mablag‘larini yanada adolatli taqsimlanishini, hamda xalq va fuqaro manfaatlari yo‘lida maqsadli va samarali ravishda sarflanishini ta’minlaydi.

Alohida ta’kidlash joizki, fuqarolarning budjet jarayonida ishtirok etish tartibi ham paydo bo‘ldi. Ya’ni tashabbusli budjet — aholining tashabbuslarini hisobga olgan holda budjet mablag‘larining muayyan bir qismini sarflash bo‘yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlar qabul qilish hamda qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishini kuzatish amaliyoti joriy etildi.

Ushbu amaliyot orqali aholi o‘zini qiynayotgan muammolar, shu jumladan mahalladagi muammolar (yo‘llar, bolalar maydonchalar va h.k.) byudjetga kiritish va ularni tezlik bilan hal qilish imkon yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PF-67-son;

2. “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5250. 2023-yil 21-sentyabr;

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2023-yil 10-iyundagi Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish va tushuntirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida 3271-IV/KQ-520-IV-sonli Qo‘shma qarori;

4. “Obod qishloq” va “obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik

fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomni tasdiqlash haqidaVazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-maydagi 183-son qarori.

RAVSHANOV ULUGBEK,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

XALQARO GUMANITAR HUQUQ NORMALARINI IMPLEMENTATSIYA QILISHNING XALQARO VA MILLIY MEXANIZMLARINING AYRIM JIHATLARI

Xalqaro gumanitar huquq normalarining implementatsiyasi o‘zida har bir mamlakatning ichki qonunlari hamda xalqaro gumanitar huquq normalari bilan uzviy bog‘liqdir. Xalqaro shartnomalarning mamlakat tomonidan imzolanishi uni xalqaro huquq subyekti sifatida butunligicha huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishligini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga xalqaro gumanitar huquq qoidalarining tartibga solinadigan munosabatlarga o‘ziga xos ta’siri bilan bog‘liq jarayonlar paydo bo‘ladi. O‘ziga xoslikning mohiyati shundan iboratki, ma’lum bir huquqiy normalar to‘plamini belgilovchi xalqaro shartnoma turli xil tartibdagi munosabatlarning ikki turini keltirib chiqaradi, bir tomondan, bular xalqaro shartnoma ishtirokchilari o‘rtasidagi huquq va unda nazarda tutilgan majburiyatlarga oid munosabatlardir. Bu davlatning o‘zi bajarishi lozim bo‘lgan munosabatlar shartnomaviy normalar majmui bilan tartibga solinadi. Boshqa tomondan, bu xalqaro shartnomada ishtirok etuvchi davlatning tegishli organlari o‘rtasidagi shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish bo‘yicha munosabatlardir. Ushbu munosabatlar ichki qonunchilik normalari bilan tartibga solinishi kerak, shuning uchun tegishli shartnoma normalari o‘z-o‘zidan bajarilmaydi.

Xalqaro gumanitar huquqni amalga oshirishning xalqaro mexanizmi – bu xalqaro gumanitar majburiyatlarda belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan xalqaro gumanitar huquq subyektlarining birgalikdagi tashkiliy-huquqiy faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro gumanitar huquq normalari majmui. Huquqiy munosabatlarning subyekti butun davlat bo‘lib, uning nomidan maxsus vakolatli organlar yoki

mansabdor shaxslar vakillik qiladi. Bunda huquqiy munosabatlar bevosita shartnoma normalari va xalqaro tashkilotlarning qarorlari bilan tartibga solinadi. xalqaro gumanitar huquq amalga oshirish mexanizmi xalqaro gumanitar huquq normalari buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik, xalqaro qurolli mojarolarni barvaqt oldini olish va o‘zining xalqaro gumanitar huquq doirasidagi majburiyatlarini bajarish, xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish uchun mo‘ljallangan. Aynan mana shu holatlarda BMTning Xavfsizlik Kengashi katta rol o‘ynaydi.

Xalqaro gumanitar huquqni qabul qilish va amalga oshirish jarayonlari maxsus protsessual qoidalar to‘plami bilan tartibga solinadi. Ular tomonidan tartibga solinadigan munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, vazifalari va mavjud me’yoriy materialni hisobga olgan holda xalqaro huquqning yangi tarmog‘i – xalqaro protsessual huquqning huquq ijodkorligini tartibga soluvchi normalar majmui sifatida shakllanishi to‘g‘risidagi masalani to‘g‘ri qo‘yishda ko‘rinadi. Huquqni qo‘llash jarayonidagi protsessual qoidalar: a) xalqaro gumanitar huquq qoidalarini yaratish va amalga oshirish bo‘yicha qonun bilan belgilangan shakllardagi subyektlarning o‘zaro hamkorligini b) xalqaro huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati (Xalqaro Sud, BMT Xavfsizlik Kengashi); d) me’yoriy ko‘rsatmalarning nisbati, ularning vaqt va makondagi ta’siri, amalga oshirish tartibi, talqin qilish qoidalari, javobgarlikni amalga oshirish, majburlov choralarini qo‘llash. Protssesual qoidalar Millning moddiy qoidalarining haqiqiyligini ta’minlash bilan bog‘liq hosilaviy munosabatlarni tartibga soladi. (shu jumladan, xalqaro tashkilotlarning ichki tashkiliy munosabatlarini)

Xalqaro gumanitar huquq normalarini implementatsiya qilishning milliy mexanizmi quyidagilar majmiudir: xalqaro gumanitar huquq normalarini amalga oshirishning protsessual tartibini belgilovchi, davlat organlarining tashkiliy-huquqiy faoliyatini va xalqaro gumanitar huquq normalarini amalga oshirish bilan bog‘liq huquqni qo‘llash amaliyotini tartibga soluvchi ichki huquq normalarini davlat tomonidan qabul qilinadigan xalqaro majburiyatlarning amalda bajarilishini ta’minlash. [1] Tashkiliy-huquqiy faoliyatning mazmuni – bu ichki huquq sohasidagi davlat hududida xalqaro gumanitar huquq normalarini ikkinchisining

yordami bilan ma’lum bir tarzda amalga oshirish. Bunda vujudga keladigan huquqiy munosabatlar ichki huquq normalari bilan tartibga solinadi. Bu holda xalqaro shartnoma ichki qonunlar ishlab chiqish va tegishli tartibda uning tatbig‘iga oid davlatlararo munosabatlarni taqozo etuvchi yuridik fakt sifatida harakat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi xalqaro gumanitar huquq va O‘zbekiston Respublikasining ichki qonunchiligi o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi. Shuni ta’kidlash kerakki, garchi ular obyektiv ravishda mavjud bo‘lsa ham konstitutsiyaviy huquq protsessual normalar majmuisini alohida ajratmaydi.

Xalqaro gumanitar huquq normalarini amalga oshirishning ichki mexanizmida shartli ravishda ikki bosqichni ajratish mumkin. Birinchi, amaldagi qonunni tahlil qilish, hali kuchga kirmagan O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasiga rozilik bildirish bosqichida uning xalqaro gumanitar huquq me’yorlariga muvofiqligini aniqlash. Shartnomalar loyihalarini muzokaralar olib borish bo‘yicha takliflar, boshqa hujjatlar bilan bir qatorda, quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak: a)xulosa. Adliya vazirligi tomonidan shartnoma loyihasining O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga (birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga) muvofiqligi; b) qabul qilinadigan, o‘zgartirilishi, to‘ldirilishi kerak bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlari ro‘yxati; d) xalqaro gumanitar huquq normalarini realizatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish bo‘yicha takliflar. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish, dastlabki bosqichda, umuman olganda, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish, xalqaro gumanitar huquq standartlarini joriy etish bo‘yicha dastlabki bashoratni yaratishga imkon beradi. Ichki davlat huquqiy munosabatlarning ma’lum bir guruhini tartibga solish zarurati bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy hujjatlar loyihalari xalqaro shartnomani qondirish bilan bir qatorda muhokama qilinishi va qabul qilinishi kerak.

Ikkinchi bosqichda – O‘zbekiston Respublikasi uchun xalqaro shartnoma qoidalaridan kelib chiqadigan xalqaro majburiyatlarni amalga oshirishga qaratilgan tegishli davlat organining normativ-huquqiy hujjatlarini tayyorlash va qabul qilishdan iborat (ya’ni xalqaro shartnomalarni amalga oshirish bosqichida). Shu bilan birga, qonun

hujjatlarini tahlil qilish zarurati, ayniqsa, majburiy bo‘lgan shartnoma normalariga nisbatan yaqqol namoyon bo‘ladi. Xalqaro gumanitar huquq normalarini amalga oshirishni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar quyidagilardan iborat: a) xalqaro shartnomani amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan yoki uning bajarilishini muvofiqlashtiruvchi davlat organini (mansabdor shaxsni) aniqlash; b) vakolatli davlat organiga tegishli takliflarni kiritishni topshiradi.

O‘zbekiston Respublikasining joriy qonunchiligiga ko‘ra, implementatsiya aktini qabul qilish uchun hech qanday zarurat tug‘dirmaydi. Amaliyotda bu esa xalqaro majburiyatlarni realizatsiya qilish uchun normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlashda qiyinchiliklar tug‘diradi. Davlat organlarining bunday turdagi savollar yuzasidan tashabbuskorligi kamdan-kam uchraydi. Bunday holatda amalda o‘z kuchida bo‘lmagan normalarni qo‘llash orqali xalqaro gumanitar huquq normalarini realizatsiya qilishini ta’minlamaydi. Hozirda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga xalqaro huquq normalarini implementatsiya qilishni asoslarini aniqlash zarurati mavjud. Bizning fikrimizcha, bunday asoslarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: a) xalqaro shartnoma qatnashchilarining o‘zlari bu turdagi davlatning ichki qonunlarini qabul qilishni kelishishgan (bu holda ushb turdagi qonunlarni qabul qilmaslik ularning xalqaro majburiyatlarini bajarmaganligini bildiradi); b) xalqaro shartnoma predmeti davlat qonunchiligi bilan tartibga solinayotgan va tartibga solinmaydigan munosabatlarni aniqlashtirish masalasini qo‘yadi; d) xalqaro majburiyatlarni davlatning ichki qonnlarini qabul qilmay turib bajarish mumkin emas (asosan xalqaro gumanitar huquq normalarini).

Xalqaro gumanitar huquq ham, davlatning ichki qonunchiligi ham implementatsion aktlar turlari to‘g‘risidagi savolni tartibga solmagan. Xalqaro shatnomalar xalqaro maydonda xalqaro huquq normalarini aniqlashtirishga qaratilgan aktlar sirasiga kiradi. Davlatning ichki huquqi darajasida esa umumtan olingan tamoyillar va xalqaro huquq normalari va xalqaro shartnomalar davlatdagi norma ijodkorligiga chorlaydi, yangi huquqiy munosabatlar o‘rnatishga sabab bo‘luvchi yuridik fakt sifatida kuchga kiradi. Bu aktlar sirasiga konstittsiyaviy qonunlar, qonunlar, Prezident qaror, farmon, farmoyishi, hukumatning qarorlari va boshqa

ijroiya organlarining huquqiy hujjatlari kiradi. Implementatsiya vazifalari haqidagi masalalarga oid normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, ularga o‘zgartirish kiritish, to‘ldirish va bekor qilish kabilar boshqa hujjatlar bilan solishtirganda deyarli farq qilmaydi.

Xalqaro gumanitar huquq normalari davlatning ichki qonunchiligiga qorishib ketmaydi, u alohida o‘rin tutadi. Mamlakat huquq tizimining bir qismi hisoblanib, o‘rnatilgan protsessual tartib asosida o‘z maqsad va tamoyillari doirasida qo‘llanilib kelinadi. Ular xalqaro gumanitar huquq bilan aloqalarni saqlab qolgan holda alohida tartib asosida qabul qilinadi va o‘zgartirish kiritiladi. Shubhasiz, bularning barchasiga funksional maxsus implementatsiya huquq tizimi kerak. P.N.Arsibasov “transformatsiya” terminini qo‘llab aytadiki: “Xalqaro huquq normalarini mamlakat qonunchiligiga transformatsiya qilish mexanizmi davlat o‘z hududida xalqaro majburiyatlarini o‘zida aks etgan milliy qonunlarni bajarilishini ta’minlash orqali ta’minlanadi”.[2] Bunga qo‘shimcha qilib bunday normalarning realizatsiya qilish chora-tadbirlarini o‘rnatishni kiritsak bo‘ladi.

Muallif xalqaro va davlatning ichki qonunlarining implementatsiya qilish vositalarining turli xil qarashlarini tahlil qilib, davlatning ichki qonunchiligi eng ishonchli va samarali vosita degan xulosaga keldi. Bu shularda namoyon bo‘ladiki: a) davlatning ichki huquqi yordamida ko‘pchlik xalqaro huquqiy hujjatlarning ijrosi ta’minlanadi; b) davlatning ichki huquqi vositasi yordamida ta’minlanadigan kelishuv normalari samarali bajariladi, ya’ni har bir davlat o‘z zimmasiga mavjud qonunchiligiga zid bo‘lmagan tarzda xalqaro huquq normlarini bajarish majburiyatini oladi; davlatning ichki huquqi o‘z ichiga xalqaro gumanitar huquq normalarini bajara oladigan aniq tashkiliy tizim va mexanizmlarni oladi.

Muallif O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari tizimi va ulardagi o‘rnatilgan faoliyat protsedurasi xalqaro gumanitar huquq normlarini realizatsiya qilinishini ta’minlaydi. Bunda ularning barcha faoliyati butunligicha imkoni bor, haqiqiy, ikkilanishlarsiz ma’nolarini anglatuvchi “ta’minlash” termini bilan qamrab olinadi. [3] Implementatsiya mexanizmining quyidagi elementlarini belgilaymiz: 1) xalqaro huquq

normalarini butunligicha va xalqaro gumanitar huquq normlarini qisman konstitutsiyaviy ta’minlanishini bajarish; 2) xalqaro gumanitar huquq bajarilishining qonuniy ta’minoti; 3) xalqaro gumanitar huquq bajarilishining ma’muriy ta’minoti; 4) xalqaro gumanitar huquq normlarini bajarishning sud ta’minoti.

O‘zbekiston Respublikasida xalqaro gumanitar huquq normalari bajarilishining konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlari joriy qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi qonunining 2-moddasi 3-qismida “Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo‘llaniladi” va 3-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir” [4].

Xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish degan vakolat mamlakat Konstitutsiyalarda uchramasligi juda kamdan-kam holatdir. Bu yerda ikki xil variant mavjud: 1) imzolangan shartnoma davlat qonunchiligiga o‘zgartirish kiritish, qoidlarini almashtirish kabi muhim o‘zgarishlarga olib keladi; 2) shartnoma mavjud qonunchilikka o‘zgartirish kiritmagan holda faqatgina ayrim holatlar uchun istisno tarzida amal qiladigan boshqa qoidalarni kiritadi. Ikkinchi holatda shartnoma Qonundan ustun ko‘rilmaydi, aniq holatlar uchun qo‘llanilishi muhim ekanligi inobatga olinadi. Bir tomondan ushbu holatda mavjud qonunchilikning turg‘unligi hamda ijro hokimiyatiga hurmat ta’minlanadi, boshqa tomondan esa davlat manfaatlaarining aniq sharoitlarda ta’minlanish imkoniyatini kengaytiradi.

Ratifikatsiya qilingan shartnomalar konstitutsiyaviy qonunlardan tashqari har qanday huquq normasini bekor qilishi yoki yangi huquq normasi kiritishi mumkin. O‘zbekiston hukumati tomonidan imzolangan shartnomalar barcha boshqaruv va unga bo‘ysunuvchi idoralar uchun ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan teng maqomga ega. Shuni aytib o‘tish kerakki, davlat ham, hukumat ham, idoralararo xarakterterdagi xalqaro shartnomalarning javobgarligini o‘z zimmasiga

olmaydi.

Xalqaro shartnomalarda Konstitutsiyalarda qonunlarni qabul qilishning umumiy qoidalari tarqaladi. Faqatgina rasman nashr ettirilgan shartnomalar bevosita kuchga kirishi mumkin. “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi qonunda bu kabi shartnomalarni 2 turga, ya’ni o‘z-o‘zidan ijroga qaratiladigan (biron-bir normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi shart emas) va o‘z-o‘zidan ijroga qaratilmaydigan (shartnoma qoidlari kuchga kirishi uchun albatta qonun qabul qilinishini talab etuvchi) turlarga bo‘linishi ko‘rsatilgan. Shuni aytib o‘tish kerakki, XALQARO GUMANITAR HUQUQ ishlash mexanizmi davlatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri faqat davlatlarga qo‘llanilishida ko‘rinadi. Jismoniy shaxslarga to‘g‘ridan-to‘ri qo‘llanilish holatiga ko‘ra esa yuqorida aytib o‘tilgan mexanizmni tashkil qilish uchun istisno tariqasida davlatlar o‘rtasida tuzilgan shartnomlar asosida bo‘lishi mumkin. Bunga misol qilib Nyurenbergdagi Xalqaro harbiy tribunal Ustavini keltirish mumkin.

Mamlakat huquq tizimining bir qismi bo‘ladigan xalqaro shartnoma qoidalari davlat organlarining ham faoliyatini tartibga solishi mumkin. Xalqaro gumanitar huquq normalarining qonunchilik hokimiyatiga ta’sirini unga zid bo‘lgan qonunlar qabul qilinib bo‘lmasligida ko‘rinadi. Davlatning qonun chiqaruvchi hokimiyati xalqaro majburiyatlar bilan vakolatlarining ta’sir doirasi cheklanib qoladi. U qaytaga xalqaro gumanitar huquq normalarini implementatsiya qilish zarur bo‘lgan qonunlarni qabul qilishga majbur bo‘lib qoladi.

Shartnomalar sud hokimiyatiga ham bevosita ta’sir etishi mumkin, masalan, mavjud ishlarni aynan qaysi sudlar ko‘rishi mumkinligini aniqlab beradi. Shartnoma shartlariga muvofiq xalqaro tashkilotlarga ham murojaat berish, xalqaro suda da’vo masalasida murojaat qilish imkonini ham nazarda tutib o‘tadi. Afsuski, hali O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ushbu qoidalar o‘rin olmagan. Konstitutsiya bunday holatlarda xalqaro shartnoma orqali davlatning ayrim vakolatlarini xalqaro tashkilotlarga yuborish imkoniyatini nazarda tutadi.

Ushbu implementatsion aktga misol qilib, O‘zbekiston Respubliikasining “Kimyoviy qurollarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, to‘plash va ularni yo‘q qilishga qarshi Konvensiyani ratifikatsiya qilish

to‘g‘risida”gi qonunini keltirishimiz mumkin. [5] Bu qonun o‘zida barcha xususiyatlarini aks etgan implementatsion aktning yaqqol namunasi hisoblanadi. Birinchidan, Konvensiya shartlaridan kelib chiqqan O‘zbekiston Respublikasining majburiyatlarini davlat hokimiyati organlari tomonidan o‘z vajkolatlari doirasida bajarish tartibini o‘rnatadi. Bunda Prezidentning, Hukumatning, Oliy Majlisning, davlat hokimiyati organlarining vakolatlari aniq chegaralar bilan belgilab qo‘yilgan. Ikkinchidan, kimyoviy qurolsizlantirish bo‘yicha davlatga byudjet tomonidan moliyalashtirish vazifasini ham yuklagan. Konvensiyada belgilangan tadbirlarni moliyalashtirish masalalari aholini ijtimoiy himoya qilish va atrof-mhitni muhofaza qilishga qaratilganidan dalolat beradi. Uchinchidan, Hukumatning ushbu Konvensiya shartlari qay darajada bajarib kelinayotganligi bo‘yicha hisobot berish majburiyati ham aytib o‘tilgan. To‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi o‘z davlat manfaatlarini inobatga olgan holda ushbu Konvensiya qoidalarini bajarishni to‘xtatib turishi yoki umuman denonsatsiya qilishi mumkinligi ham belgilab berilgan.

Qonuniylik prinsipiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan hokimiyat organlari o‘z faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ham ichki ham xalqaro huquq doirasida ham o‘zaro bog‘langan. [6] Bundan shu narsa kelib chiqadi, davlat hokimiyati organlari nafaqat xalqaro huquq normalariga rioya qilishlari, balki ularning realizatsiyasi uchun zarur chora-tadbirlar ham ko‘rishi lozim. Maxsus sohalarda xalqaro aloqalarni kengaytirish va ularni xalqaro-huquqiy tartibga solish uchun ham ijro hokimiyatining organlarining roli oshib boradi. Odatda ushbu maqsadlarni amalga oshirish tomonlar maxus organga ega bo‘lishlari lozim. Ba’zi holatlarda davlat o‘z tashabbusi bilan bunday organlarni tashkil qiladi. Ushbu normalarni amalga oshirish uchun Qurolli Kuchlar va ularning qo‘mondonligi zarur bo‘ladi. 1949-yilgi “Harakatdagi armiyalardagi urush qurbonlari va jarohatlanganlarni himoya qilish bo‘yicha” Jeneva Konvensiyasining 45-moddasi qurolli nizo holatida bo‘lgan tomonlarning qo‘mondonligiga ushbu Konvensiya moddalarini ularning tamoyillari bilan birga hurmat qilishni yuklaydi. Qo‘shimcha protokolning 87-moddasi harbiy komandirlarga va ularning

bo‘ysunuvchilari bilan munosabatlarda quyidagilarni o‘rnatadi: harbiy qo‘mondonlarning o‘z bo‘ysunuvchilari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburiyatlari: Konvensiya va Protokol qoidalarini buzmaslik, harbiy komandirlarning o‘z bo‘ysunuvchilarga nisbatan qonunbzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik va ular sodir bo‘lganda esa vakolatli organlarni xabardor qilish, qo‘l ostidagi xodimlarni o‘zlariga yuklatilgan vazifalarga tarbiyalash choralarini ko‘rish, shuningdek huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ygan shaxslarni ta’qib qilish.

Bugungi kunda idoraviy normativ hujjatlar muammosi alohida dolzarb masalaga aylangan. Idoraviy norma ijodkorligi holatini ko‘rib chiqish va ayrim tarmoqlar uchun amalda bo‘lgan idoraviy-normativ hujjatlarni taqdim qilish huquq tizimi dinamikasidagi qonuniylik va maqsadga muvofiqlikni o‘zaro aloqasini muhokama qilish kerakligini keltirib chiqaradi. Bu kabi aktlar huquqni qo‘llash mexanizmining komponenti hisoblanadi. Ular obyektga yetib borguncha qonunni talab qiladi va ushbu talablarning bajarilishini realizatsiya qiladi (alohida bittya qonun o‘zining idoraviy mansubligiga ko‘rab to‘g‘ri keladigan boshqa bir idoraviy-normativ hujjatsiz realizatsiya qilinishi mumkin emas). Idoraviy-normativ hujjatlar o‘z ichiga realizatsiya qilinadigan ya’ni normativ qoidalarni kuchaytirish va zaiflashtirish, tartibga soladigan predmeti, o‘zaro subyektlari bilan munosabatlariga ta’sir qilgan holda normalarning qo‘shimcha detallarining ham mexanizmini oladi. Idoraviy-normativ hujjatlar manfaatlar, vakolatlar chegaralarini belgilash kabi savollarda alohida o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лукашук И.И. Международное право. Общая часть. Учебник. М.,2007, с.111.

2. Арцибасов И.Н., Егоров С А Вооруженный конфликт: право, политика, дипломатия. М, 1989, с.176.

3. Ожегов С.И. Словарь русского языка. М., 1968, с 413.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi qonuni

5. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami

6. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami

ШОХИСТА МИРАЗОВА,
магистрант Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

КРИМИНАЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАССЛЕДОВАНИЯ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ

Аннотация: В статье рассмотрены криминалистические особенности практики расследовании киберпреступлений, установлены препятствия и барьеры по раскрытию таких видов преступлений и фишинга. На основе анализа отечественного и международного практического опыта были разработаны тактические приемы производства следственных действий при расследовании киберпреступлений с использованием информационных технологий, сети Интернет, онлайн платежных систем.

Ключевые слова: фишинг, киберпреступление, интернет, информационно-коммуникационные технологии, онлайн банкинг

КИБЕРЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИНГ КРИМИНАЛИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация: мақолада кибержиноятларни тергов қилишнинг криминалистик хусусиятлари, муаммолари, бундай жиноят турлари ва фишингни тергов қилиш учун тўсиқлар ва муаммолар тахлил этилган. Миллий ва халқаро амалий тажрибани таҳлил қилиш асосида ахборот технологиялари, Интернет, онлайн тўлов тизимларидан фойдаланган ҳолда содир этилган кибержиноятларни тергов қилишда ўтказиладиган тергов ҳаракатларнинг тактик усуллари ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: фишинг, кибержиноят, Интернет, ахборот-коммуникатция технологиялари

CRIMINALISTIC FEATURES OF CYBERCRIME INVESTIGATION

Abstract: The article examines the criminalistic features of the practice of investigating cybercrimes, and establishes obstacles and barriers to the disclosure of such types of crimes and phishing. Based on the analysis of domestic and international practical experience, tactical

methods of conducting investigative actions in the investigation of cybercrimes using information technology, the Internet, online payment systems were developed.

Keywords: phishing, cybercrime, Internet, information and communication technologies, online banking

Киберпреступления на сегодняшний день являются очень распространенным видом преступления, отличительной особенностью которого является высокая адаптация к существующим условиям, видоизменяемость, быстрое преобразование в новые формы. Охват потерпевших, использование возможностей современных технологий с минимизацией визуального контакта с потерпевшими, а также возможностью удаленного доступа к их денежным средствам привело к увеличению количества киберпреступлений, который увеличился в 3 раза за аналогичный период 2019 года, не говоря о количестве потерпевших в рамках одного уголовного дела.

Как справедливо отметила Морозова Е.А. «одним из основных «бедствий» последних лет, связанных с повсеместным распространением информационных технологий стало киберпреступлений. Обусловлено это высоким уровнем латентности данного вида преступлений, а также существенных трудностей, возникающих в процессе его раскрытия и расследования»[1].

Опасность киберпреступлений определяется недостаточным уровнем их изученности, отсутствием новых методик по их расследованию, незнания способов их совершения, а также мер по их предотвращению, также проблемой является недостаточность квалифицированных IT-специалистов для оказания содействия следственным подразделениям. Так, согласно официальному сообщению Государственного унитарного управления Узбекистана «Центр кибербезопасности» [3] от 28 декабря 2020 года, специалисты данного центра предупредили пользователей корпоративной электронной почты об осуществляемых кибепреступниками целевых фишинговых атаках на адреса корпоративной электронной почты,

что, несомненно является ноу-хау в рамках региональной преступности, так как такого рода преступность была распространена в основном только в западных странах.

Несколько слов о целевых фишинговых атаках. Фишеры при попытке совершить фишинговую атаку на определенную фирму или предприятие, проводят исследование переписки, ведения дел, также изучают сотрудников, их увлечения по аккаунтам в социальных сетях. Целью является составление целевого фишингового письма, особенно данный метод применяется, когда в качестве жертвы выбирают самого руководителя, так как в отличие от простого сотрудника, доступ к его данным может предоставить возможность получить более ценную информацию, которая впоследствии может принести большую прибыль. Поэтому необходимо быть осторожным при выкладывании частной информации, особенно о месте работы и обговаривать данный пункт (соблюдение конфиденциальности) при составлении договора при найме на работу.

В практике противодействия киберпреступлений и их расследования имеются некоторые проблемы, требующие всестороннего тщательного рассмотрения:

- по изученным материалам доследственной проверки и уголовным делам касательно новых видов мошенничества (фишинг, киберпреступлений), по которым отсутствует методика расследования, в большинстве случаев сбор материалов доследственной проверки ограничивался лишь приобщением заявления потерпевшего, истребованием от него объяснительных и имевшихся у него документов (детализаций звонков, скриншотов переписок в социальных сетях, квитанций о перечислении денежных средств, копии транзакций и т.д.), направлением запросов сотрудникам уголовного розыска. С такими скудными материалами рассматривался вопрос об отказе в возбуждении уголовного дела, нежели в возбуждении и полноценном расследовании него, посредством производства более широкого спектра следственных действий, которые возможно провести во время предварительного расследования. Даже в случае возбуждения уголовного дела,

следственные действия ограничивались допрос потерпевшего, признания предъявленных документов вещественными доказательствами. Другие же следственные действия в большинстве случаев не проводились;

- данным видам мошенничества присуще отсутствие идеальных следов преступления, характерное для «обычных» мошенничеств ввиду бесконтактного выуживания необходимой информации и вследствие денежных средств, находясь в значительном отдалении от жертвы преступления (в некоторых случаях находясь на территории другой страны), что делает фактически трудно достижимым установление личности всех участников преступления;

– передача денежных средств совершается бесконтактным путем, то есть посредством систем онлайн банкинга (Click, Payme) либо электронных систем платежа (UzCard, Humo), электронных денег (WebMoney, QiWi, Яндекс. Деньги);

- мошенники, используя новые виды мошенничества, используют главным образом невнимательность, неосведомленность и доверчивость потерпевших, пользователей виртуального пространства;

– по некоторым нераскрытым уголовным делам по делам о мошенничестве (киберпреступлений, с использованием электронных платежных систем) имелись формальные «на бумаге» планы оперативно-розыскных мероприятий и следственных действий от имени начальника ОВД, которое сам же следователь или дознаватель и составлял;

– в ряде случаев, даже при наличии сведений об аккаунте либо профиле в социальных сетях лица, на чье имя аккаунты были зарегистрированы, не были установлены (даже не было запроса в отдел уголовного розыска для установления таковых);

– по некоторым эпизодам не направлялись запросы в банки или организации, осуществляющие денежные переводы, дознаватели и следователи ссылались на необходимость получения санкции прокурора либо необходимость направления в Центральный банк Узбекистана так как в большинстве случаев злоумышленники

находились в другой области страны или перевод был осуществлен за границу, а истребовать данные о получателе транзакции нет возможности ввиду отсутствия заключенных межгосударственных договоров и наличия бюрократических препятствий (сложная процедура направления запроса в другие страны);

– уголовные дела приостанавливались, даже в случае установления личности преступника ввиду недостаточности доказательств (лицо не вступало в прямой контакт с мошенником, переписка велась по социальной сети Telegram и была удалена злоумышленником (именно в Telegram имеется такая функция одностороннего удаления переписки), заявление подозреваемого лица о незнании источника, откуда на его счет поступили денежные средства);

- в некоторых случаях имелось место неоднократного перенаправления уголовных дел якобы по территориальной подследственности, со ссылкой на место нахождения отправителя либо получателя, места обналичивания денежных средств и т.д. вместо производства качественного расследования.

По мнению Антонова И.О., Шалимова А.Н. «повышение эффективности предварительного расследования по уголовным делам о киберпреступлений невозможно без определения факторов, которые способны оказывать заметное негативное влияние на качество процедуры расследования уголовного дела. Во-первых, это касается несовершенства норм отечественного уголовного права, предусматривающих ответственность за киберпреступлений. Во-вторых, отсутствует в полной мере адекватное сложившейся криминогенной ситуации криминалистическое обеспечение процедуры расследования этой категории уголовных дел (как на уровне криминалистической методики, так и на уровнях криминалистической тактики и техники)»[2].

Решением данной проблемы по противодействию, а также предотвращению киберпреступлений, в частности фишинга может быть:

- разработка научно обоснованных рекомендаций по выявлению и расследованию фишинга, разработка новой, отвечающей современным требованиям, опробованной на практике методики расследования современных видов мошенничества, разработке нового алгоритма производства следственных действий в ходе доследственной проверки и предварительного расследования, порядка и тактики их производства;

-привлечение высококвалифицированных IT-специалистов (выпускников университетов информационных технологий, найм на работу в систему МВД на конкурсной основе специалистов с высокими навыками в IT сфере);

- разработка новых вопросов для производства судебной компьютерно-технической экспертизы в зависимости от объекта исследования;

- повышение осведомленности населения с обучением со школьной скамьи мерам защиты и безопасности в виртуальном пространстве по примеру некоторых западных стран;

- в структуре и системе организации (корпорации, ООО) при найме на работу новых штатных работников проводить инструктаж во время испытательного срока по мерам противодействия фишингу (целевому), с письменным уведомлением и ознакомлением с правилами, что в случае фишинговой атаки на компанию по вине сотрудника, он несет персональную ответственность за принесенные убытки;

- установление иерархии среди сотрудников, в соответствии с которой в зависимости от важности и конфиденциальности информации, к каждой категории выдается допуск к той или иной информации как в военных учреждениях.

При производстве следственных действий при расследовании фишинга хотелось бы акцентировать внимание на действиях следователя либо дознавателя на стадии доследственной проверки по делам о киберпреступлениях. Во-первых, необходимо получить объяснительные от потерпевшего. Следует установить следующие основные обстоятельства: способ совершения мошенничества, как

мошенники связались с жертвой (социальная сеть (Telegram, Instagram, Whatsapp), электронная почта (рассылка писем), по номеру телефона);

-наименование и номер его аккаунта (ID), телефонного номера, электронной почты, а также имя аккаунта злоумышленника, направившего фишинговое сообщение с подробным описанием как выглядел сайт, по ссылке, к которой он перешел, от кого было отправлено данное письмо, какие данные вынудили ввести, какие именно ссылки нажимал, наименование ссылки, данные введенной пластиковой карты или адреса электронной почты, к которой была прикреплена онлайн платежная система,

– с какой целью была отправлена рассылка, то есть предмет мошенничества (покупка товара, обмен, приобретение услуги, выигрыш в лотерее, нигерийское письмо), а также был ли знаком преступник, кем он представился, предмет уговора, какие действия предусматривало выполнение отправленное письмо либо сообщение, сумма уговора

– способ передачи денежных средств: если блиц-переводом – на чье имя (Ф.И.О.), адрес этого лица; если через посредника – в какое время и в каком месте осуществлялась передача денег; подробное описание лица, которому были переданы деньги (может ли потерпевший его опознать и составить фоторобот); был ли посредник на автомобиле (описание транспортного средства, государственный номер автомобиля); если переводом на счет определенного номера сотового телефона или банковского счета – куда, когда и каким образом были зачислены денежные средства; – иные обстоятельства, имеющие значение для уголовного дела.

Далее необходимо произвести осмотр профиля потерпевшего в зарегистрированной социальной сети, его профиля, переписки, с обязательным уточнением даты получения письма, имени отправителя, заголовок сообщения, аккаунта отправителя, его ID, содержание переписки, тема разговора с построчным указанием всего содержания письма в точности до точки с поочередным внесением сообщений: отправитель-получатель, с приложением к протоколу

осмотра распечатки скриншота профиля аккаунта потерпевшего (после возбуждения уголовного дела дальнейшее признание его вещественным доказательством);

- если денежные средства были переведены злоумышленнику самим пользователем, истребование у потерпевшего распечатки транзакций и получения письма от непосредственно платежных систем UzCard, HUMO, OSON, UPay и систем онлайн банкинга Click, Payme либо направление запроса самим органов, производящим доследственную проверку (необходимо уточнить с какой целью он отправил денежные средства). Необходимо произвести осмотр данных квитанций и в протоколе указать: когда и на какой счет были переведены денежные средства, кто являлся получателем (пишется, как правило, фамилия, банковский счет получателя, посредством какой платежной системы, либо онлайн банкинга были переведены денежные средства), сумма переведенных средств, была ли успешна транзакция и дополнительные данные с приложением квитанции к протоколу в качестве вещественного доказательства. Установив фамилию, имя, отчество получателя денежных средств, владельца банковской карты необходимо проверить его по базе данных форма №1, имеющейся во всех следственных подразделениях структуры. В случае обнаружения нескольких подпадающих под данное описание лиц, направить запрос в отделы уголовного розыска. Данный протокол осмотра в дальнейшем будет основанием направления запроса в банковские учреждения для наложения ареста на банковский счет с целью дальнейшего предотвращения растраты денежных средств.

Далее необходимо провести осмотр электронных доказательств (непосредственно аккаунтов пользователя либо электронной почты), непосредственно компьютерной техники либо телефона, с которого осуществлялся вход в данные профили, а также истребовать документы у потерпевшего (справка о проведенных банковских операциях, транзакциях) и осмотреть их. В случае перевода денежных средств через почтовые отделения либо международным

платежным системам (Юнистрим, Золотая корона) истребование квитанции, а также паспортных данных получателя.

Обязательно направление запроса в платформы онлайн-объявлений по купле-продаже или обмену товарами, предоставления услуг, такие как OLX, UyBor, Olcha.uz, bulavka.uz, mediapark.uz для установления номера телефона, прикрепленного к аккаунту, наличие объявлений пользователя, местность, в которой он зарегистрировался (Ташкент, Сырдарья и т.д.), доступ к его аккаунту и переписке для установления возможных потерпевших. Также необходимо решить вопрос о блокировке аккаунта злоумышленника, после установления личности владельца аккаунта, распечатке всех сообщений рассылок от данного пользователя, установлении владельцев получателей данных рассылок по номеру телефона оперативным путем (позвонить, пригласить в отделение органов внутренних дел, истребовать объяснительные для установления не стали ли они жертвами злоумышленников). Данные меры могут проводиться совместно с сотрудниками уголовного розыска путем направления оперативного задания либо самим следователем или дознавателем.

Если в ходе доследственной проверки устанавливается, что злоумышленники получили доступ к аккаунтам социальных сетей либо электронной почте, к которой была прикреплена онлайн платежная система (Яндекс.Деньги или Webmoney), то вместе с потерпевшим произвести осмотр данной страницы либо аккаунта с участием понятых с протоколированием с фото, видеозаписью либо прикреплением скриншотов производимых действий с обязательным установлением когда злоумышленник взломал аккаунт, какие действия он произвел путем взлома либо получения доступа к нему, были ли переведены деньги с онлайн платежных систем, если да, то в каких целях они были потрачены (переведены для оплаты услуг, покупки товара или на другой банковский счет). Необходимо связаться с администрацией данных платежных систем для выявления получателя, отправителя и всех необходимых данных. Хотя следует отметить об отсутствии каких-либо заключенных договоров либо соглашений по поводу предоставления по решению

суда сведений о зарегистрированных пользователях, что создает трудности в ходе расследования дел.

Истребование документов от потерпевшего о произведенных банковских операциях с его счета либо после возбуждения уголовного дела направление запроса в банк для установления сведений о банковских операциях со счета потерпевшего, а также установление данных получателя денежных средств с банковского счета отправителя на момент совершения мошенничества с целью дальнейшего установления его личности и приостановления всех операций с данного банковского счета для предотвращения растраты и обналичивания денежных средств.

В случае установления владельца телефонного номера либо владельца пластиковой карты, на которую были переведены денежные средства, направить повестку, вызвать в орган внутренних дел и истребовать объяснительную. Необходимо установить личность, род деятельности, не связан ли с IT-сферой, имеет ли он аккаунт в социальных сетях либо онлайн платформах купли-продажи имущества или иных товаров, услуг. Если да, то с кем, когда он переписывался, номер его банковской карты, с какой целью он получил на свой счет в определенный день денежные средства, какие товары он продавал либо покупал на онлайн платформах, с какого периода он зарегистрирован там. С какой целью он вступил в переписку с потерпевшим, какова цель и мотив переписки, кто создал фишинговое сообщение, как была создана ссылка, имеются ли сообщники, кому еще он направлял данное сообщение, какова схема работы фишинга, как создавался сторонний сайт, к какому номеру был прикреплен аккаунт, его ник, сколько денежных средств он получил посредством фишинговых атак, как он сбывал денежные средства (путем снятия денежных средств через банкоматы либо оплату товаров).

Киберпространство стало неотъемлемой частью общества, которое является как средством общения, так источником информации. Однако наряду с явными преимуществами, оно стало носителем угрозы не только для отдельного государства, но и

международного сообщества в целом. В современном мире, существует глобальная проблема распространения киберпреступности, в частности киберпреступлений. Помимо сложностей расследования киберпреступлений, обусловленного спецификой киберпространства, отсутствует правовое регламентирование уголовной ответственности за их совершение и особенности их расследования. В связи с этим необходимо внести соответствующие изменения в действующее уголовное и уголовно-процессуальное законодательство.

Исползаванное литературы:

1. Морозова Е.А. Мошенничество в киберпространстве: уголовно-правовая характеристика. - Белгород. 2019. С. 3

2. Антонов И.А., Шалимов А.Н. Актуальные проблемы расследования мошенничества с использованием компьютерной информации. Ученые записки Казанского университета. Казань. 2015. С. 214

3. https://tace.uz/

SALAMAT UTEBAEV,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti,

MUNIRA AZBERGENOVA,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

INSON MANFAATLARINI YUKSALTIRAYOTGAN - SUD-HUQUQ ISLOHATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish sohasida odil sudlov tizimida amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar, shu bilan birga, davlatimiz tomonidan belgilab berilayotgan strategiyalar doirasidagi o‘garishlar va sud-huquq sohasida odil sudlovga erishish darajasini oshirish sohadagi ustuvor vazifalar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: konstitutsiya, huquqiy davlat, odil sudlov, sud hokimiyati, huquq, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi

ПРОДВИГАЯ ИНТЕРЕСЫ ЧЕЛОВЕКА-СУДЕБНО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ

Аннотация: В данной статье проанализированы проводимые реформы в системе правосудия в области обеспечения верховенства закона, надежной защиты прав и свобод граждан, а также изменения в рамках стратегий, определяемых нашим государством, и приоритетные задачи в области повышения уровня правосудия в судебно-правовой сфере.

Ключевые слова: Конституция, правовое государство, правосудие, судебная власть, право, права и свободы граждан, верховенство закона.

RAISING HUMAN INTERESTS-JUDICIAL AND LEGAL REFORMS

Annotation: this article analyzes the reforms carried out in the justice system in the field of ensuring the rule of law in our country, reliable protection of rights and freedoms of citizens, at the same time changes in the framework of strategies established by our state and increasing the level of achievement of justice in the field of judicial and judicial priorities.

Keywords: constitution, legal State, Justice, Judiciary, Law, rights and freedoms of citizens, rule of law

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida inson huquqlarini amalga oshirish va uni himoya qilishni ta’minlash demokratik huquqiy davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangani hammamizga ma’lum. Mamlakatimizda ham amalga oshirilayotgan sud huquq sohasidagi islohotlarining eng muhim vazifasi sifatida, insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minlash, inson huquqlarini samarali himoya qilishning eng muhim kafolati sifatida sud hokimiyatining nufuzini mustahkamlash, sudlarning chinakam mustaqilligini ta’minlash borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Prezidentimiz ham sudlarning chinakam mustaqilligini ta’minlash biz uchun eng ustuvor vazifa ekanligini, sud biron-bir mansabdor shaxsning qo‘li etadigan idoraga aylanib qolishiga mutlaqo yo‘l qo‘ymaslik shartligini ta’kidlaydi [1].

Shuningdek, «Yangi O‘zbekiston — yangi sud» tamoyili doirasida aholining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish sud-huquq tizimini isloh qilishni jadallashtirishni, sohaga ilg‘or xalqaro standartlarni joriy etishni taqazo etmoqda.

Buning dalili sifatida davlatimizning xalqaro maydonlardagi reytinglardagi tegishli o‘rinlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni O‘zbekiston qonun ustuvorligi indeksi (worldjusticeproject)ning 2022 yilgi reyting natijalari bo‘yicha 140 davlat ichida 0,50 ball bilan 78 o‘rinni egallagan bo‘lsa, shundan fuqarolik odil sudlov indikatori bo‘yicha - 75, jinoiy odil sudlov indikatori bo‘yicha – 65 o‘rinni egallagan [2].

Shuningdek, yaqinda Heritage Foundation tadqiqot markazi tomonidan «Iqtisodiy erkinlik indeksi – 2023» hisoboti e’lon qilindi. Unda O‘zbekiston 176 ta mamlakat orasida 56,5 ball bilan 109-o‘rinni egallagani qayd etilgan. So‘nggi hisobotga ko‘ra, mamlakat reytingi 0,8 ballga yaxshilanib, 8 pog‘onaga yuqorilagan bo‘lsa-da, iqtisodiyoti erkin bo‘lmagan mamlakatlar guruhidan joy olgan. Iqtisodiy erkinlik indeksida respublika 12 ta indikatorning 7 tasida ijobiy o‘zgarishlarni qayd etgan, 5 ta indikatorda esa salbiy o‘zgarishlar kuzatilgan. Reytingdagi umumiy ko‘tarilishga investitsiyalar erkinligi (+10 ball) va moliyaviy erkinlik (+10 ball) bo‘yicha vaziyat sezilarli darajada yaxshilangani ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, davlat xarajatlari (-3,2 ball) va fiskal salomatlik (-11,3 ball) bo‘yicha holat yomonlashgan. “2023 yil "Iqtisodiy erkinlik" reytingida beshta indikator – davlat xarajatlari (-3,2), mulkchilik huquqi (-0,7), biznes erkinligi (-0,2) va ***sud faoliyati samaradorligi*** (-0,1) ko‘rsatkichlari pastlashda davom etgan. Aytish kerakki, mazkur indikatorlar o‘tgan yilgi reytingda ham sezilarli ko‘rinishda yomonlashgandi [3]. Bundan ko‘rinib turibdiki, sud tizimi va uning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish lozim.

Bu borada davlatimizdagi qonun ustivorligini taminlash sohasida rivojlangan davlatlardan sezilarili darajada orqada qolmaqda. Bu esa huquqiy demokratik davlatning muhim va ajralmas belgisi bo‘lgan qonun ustivorligini ta’minlashda bir qator muammolarga sabab bulmoqda. Bu masalalarni hal qilish, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash yo‘lida sudlarning o‘rni muhimdir. Bu haqida hurmatli Prezidentimiz ham

ta’kidlab o‘z nutqlarining birida shunday degan edi: «Adolat va qonun ustivorligini taminlashda sud xokimiyati hal qilivchi o‘rnini egallaydi» [4].

Ma’lumki, O‘zbekiston inson huquqlari bo‘yicha 60-dan ortiq xalqaro shartnomalarni, shu jumladan, EXHT shartnomalarini imzolagan, BMTning inson huquqlari bo‘yicha oltita shartnomaviy organlarida ishtirok etadi va ularga 20-tadan ortiq milliy ma’ruzalar taqdim qilgan. O‘zbekiston Hukumati BMTning ustaviga oid, shartnomaviy organlari, hamda Inson huquqlari bo‘yicha Kengashning maxsus protsedura va mexanizmlari bilan muloqot olib boradi [5]. Shuningdek, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Kengashiga 2008 yilda universal davriy kuzatish uchun taqdim qilingan birinchi milliy ma’ruzasida O‘zbekiston Respublikasi shuni ma’lum qildiki, O‘zbekistonda inson huquqlari sohasidagi siyosat quyidagi tamoyillarga asoslangan holda amalga oshiriladi:

- ❖ inson huquqlariga oid umum e’tirof qilingan g‘oyalar va qadriyatlarga, shuningdek inson huquqlari sohasidagi o‘zining xalqaro majburiyatlariga sodiqlik;
- ❖ davlatning inson huquqlari sohasidagi siyosati huquqiy davlatchilik va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga asoslangan asosiy milliy manfaatlardan kelib chiqadi;
- ❖ shaxs manfaatlari ustuvorligi sharoitida O‘zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari muvozanati tamoyili;
- ❖ amalga oshirilayotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va sud islohotlarining evolyusion, bosqichma-bosqich va tizimli xarakteri;
- ❖ alohida fuqarolar toifalarining: bolalar, yoshlar, xotinqizlar, nogironlar va yoshi katta avlodning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini himoya qilish ustuvorligi;
- ❖ oshkoralik va transparentlilik;
- ❖ davlatning fuqarolik jamiyati institutlari va OAV bilan ijtimoiy hamkorligi;
- ❖ inson huquqlari sohasidagi faol xalqaro hamkorlik [6].

Ko‘rinib turibdiki, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, xoh u ijtimoiy-iqtisodiy, xoh madaniy-ma’naviy yoki sud-huquq, ulardan

ko‘zlangan oliy maqsad fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishdan iboratdir.

Ma’lumki, mustaqil va xolis sudni talab qilish har bir insonning huquqi hisoblanadi. Bu huquq Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasida tasdiqlangan «Har bir inson huquq va burchlarini belgilash va unga qo‘yilgan jinoiy aybning qanchalik darajada asosli ekanligini aniqlashi uchun to‘liq tenglik asosida uning ishi oshkora va adolat talablariga rioya qilingan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqiga ega»[7]. Bu norma o‘z navbatida mamlakatimiz qonunchiligida o‘z aksini topgan yani Yangilangan Konstitutsiyamizning 55-moddasiga muvofiq «Har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi». Shuningdek, Konstitutsiyamizning 130-moddasiga ko‘ra «O‘zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadi» [8]. Bu esa faqat mustaqil sudgina har bir fuqaroning ishini sudda xolis va oshkora ko‘rish orqali toptalgan haq-huquqlarni himoya qilishi mumkinligiga ishonch uyg‘ota oladi.

O‘tgan qisqa davrda O‘zbekistonda barcha sohalar qatori sud-huquq yo‘nalishida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib, sud-huquq tizimini isloh etishga bo‘lgan qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquq-manfaatlarini himoya qilish borasida muxum qadamlar tashlandi. Xususan, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, odil sudlovga erishish darajasini oshirish, sud-huquq tizimini isloh qilish sohasida davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi.

Shuningdek, davlat va jamiyat hayotin tubdan modernizatsiya qilishda, eng avvalo, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonning

qabul qilinishi, mamlakatimiz odil sudlov tizimida insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarda tub burilish yasaydigan tarixiy davr bo‘ldi. «Harakatlar strategiyasidan –Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat Taraqqiyot strategiyasining ikkinchi ustuvor yo‘nalishi, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishdek o‘ta muhim, shu bilan birga dolzarb masalaga bag‘ishlandi [9].

Shuningdek, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirish maqsadida, 2023 — 2026 yillarga mo‘ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi qabul qilindi. Unga muvofiq «Inson qadri uchun» g‘oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo‘naltirish; adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalar siymosida o‘zining ishonchli himoyachisini ko‘rishiga erishish; fuqarolar hamda tadbirkorlarga o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qila olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sud ishlarini yuritishda tortishuv va taraflarning tengligi tamoyillarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, sudlarning xolisligini amalda ta’minlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish; sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlarini kuchaytirish, sudga hurmatsizlik qilish va sud ishiga aralashish holatlarining oldini olish bo‘yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish; sud qarorlarining qat’iy ijrosini ta’minlash, bu borada davlat organlari va mahalliy hokimliklarning mas’uliyatini oshirish; sudyalar va sud xodimlarida yuksak muomala madaniyatini shakllantirish orqali sudga murojaat qilgan har bir fuqaro va tadbirkorda suddan, pirovardida esa davlatdan rozilik hissini uyg‘otish kabi bir qator vazifalari belgilanib olindi.

Shu bilan birga, davlatimiz raxbari Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiya kunida «Biz sud-huquq sohasini tubdan isloh qilishda alohida ahamiyat

berayotganimiz bejiz emasligini. Shunki Konstitutsiyamizda mustaxkamlangan inson huquqlarini ta’minlash ushbu isloxatlarning amaliy natijasi bilan bevosita bog‘liq ekanligini» ta’kidlab o‘tkanlar [10].

Bu fikrning tastig‘i sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tamonidan 2023-yili 11-sentyabrda PF-158-sonli «O‘zbekiston— 2030» strategiyasi to‘g‘risida farmoni qabul qilindi. Farmonning 86 maqsadida: sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta’minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish; ma’muriy huquqbuzarliklarga oid ishlarni ko‘rib chiqish natijalari ustidan sudlarga yuborilayotgan shikoyatlarning 50 foizini elektron shaklda kelib tushishiga erishish; tadbirkorlik sub’ektlariga nisbatan ko‘rilayotgan jinoyat ishlarining 100 foizida himoyachi yoki jamoat himoyachisi ishtirokini ta’minlashga erishish; sud tizimini boshqarishga sudyalarning o‘zini o‘zi boshqarish tamoyilini to‘laqonli joriy etish hamda sudyalar hamjamiyati organlari tizimini to‘liq shakllantirish; jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeksi bo‘yicha 0,64 ballni to‘plashga erishish; boshqaruv sifati indikatorlarining Huquq ustuvorligi yo‘nalishi bo‘yicha 61,5 ballni to‘plashga erishish kabi yaqin kelajakdagi vazifalar belgilab olindi [11].

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan bor bo‘lgan kamshiliklarni bartaraf etish, sud-huquq sohasida inson huquq va erkinliklarni ta’minlash, odil sudovga erishish borasida yana bir muxim hujjat qabul qilindi. Yani joriy yilning 27-sentabr sanasida «Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘RQ-869-son Qonuni imzolandi va 2024-yilning 1-yanvaridan kuchka kirishi belgilandi. Ushbu qonunga muofiq, JPK ishlarni taftish tartibida qayta ko‘rib chiqishni belgilovchi bob bilan to‘ldirilmoqda. Xususan, birinchi instansiya sudining apellyatsiya yoki kassatsiya, tegishli taftish tartibida ko‘rib chiqilgan hukmlari, ajrimlari, shuningdek apellyatsiya yoki kassatsiya, tegishli taftish instansiya sudlarining hukmlari, ajrimlari ustidan taftish tartibida shikoyat berish mumkin.

Agar shikoyatda yoki protestda mahkumning ahvoli yomonlashishiga olib keladigan o‘zgarishlar haqidagi masala qo‘yilgan bo‘lsa, sudning ayblov huqmini yoxud ajrimini taftish tartibida ko‘rib chiqishga, shuningdek sudning oqlov hukmini yoki ishni tugatish to‘g‘risidagi ajrimini taftish tartibida qayta ko‘rib chiqishga faqat u qonuniy kuchga kirgandan keyin bir yil ichida yo‘l qo‘yiladi. Birinchi instansiya, apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan tekshirilmagan dalillar sud tomonidan qabul qilinadi, bunda shaxs bu dalillarni o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan qanday sabablarga ko‘ra birinchi instansiya, apellyasiya yoki kassatsiya instansiyasi sudiga taqdim etish imkoniyati bo‘lmaganligini tushuntirib berishi kerak [12]. Bu yangi kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar amaliyotda o‘rganilib, har taraflama ko‘rib chiqilib kuchka kirishi ko‘zda tutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, davlatimizda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirishga, odil sudlovni amalga oshirishda fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta’minlashga, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimga bag‘ishlangan «Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir» nomli ma’ruza. Toshkent.7 dekabr 2019 y

2. WJP Rule of Law Index | Global Insights (worldjusticeproject.org)

3. https://m.kun.uz/news/2023/03/07/ozbekiston-dunyo-iqtisodiy-erkinlik-indeksida-8-pogona-yuqoriladi. mineconomy.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 y. 29 dekabr https://president.uz/uz/lists/view/4057

5. Inson huquqlari bo‘yicha kengashning № 5/1 rezolyusiyasining ilovasi 15 a) bandiga ko‘ra taqdim qilingan Milliy ma’ruza, O‘zbekiston, 2008yil 1–15 dekabr, A/HRC/WG.6/3/UZB/1,19band.

6. Inson huquqlari bo‘yicha kengashning № 5/1 rezolyusiyasining ilovasi 15 a) bandiga ko‘ra taqdim qilingan Milliy ma’ruza, O‘zbekiston, 2008yil 1–15 dekabr,A/HRC/WG.6/3/UZB/1,12band.

7. https://www.ohchr.org/sites/default/files/UDHR/Documents/UDHR_Translations/uzb.pdf

8. https://lex.uz/docs/-6445145 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

9. https://lex.uz/docs/-5841063 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son)

10. https://constitution.uz/oz/pages/prezident_maruzasi_25yil

11. PF-158-son 11.09.2023. «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida (lex.uz) 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son)

12. O‘RQ-869-son 27.09.2023. Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (lex.uz) 27.09.2023 y., 03/23/869/0730-son

QUVONDIQ SHEROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASINING QONUN LOYIHALARI MUHOKAMALARINI O‘TKAZISH BO‘YICHA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya: Mamlakatimizda ishlab chiqilayotgan qonunlarni qabul qilish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi alohida o‘ringa ega. Bugungi kunda qonun loyihalarining jamoatchilik muhokamalarini tashkil qilishda Qonunchilik palatasi tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda, qonun loyihalari palataning rasmiy veb saytiga joylashtirilib, fuqarolar ishtirokida muhokamalar tashkil qilinmoqda.

Kalit so‘zlar: qonun, normativ-huquqiy hujjat, taklif, onlayn, portal,

muhokama, loyiha.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЗАКОНОДАТЕЛЬНОЙ ПАЛАТЫ ОЛИЙ МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПО ОБСУЖДЕНИЮ ПРОЕКТОВ ЗАКОНОВ

Аннотация: Законодательная палата Олий Мажлиса Республики Узбекистан занимает особое место в процессе принятия разрабатываемых в нашей стране законов. Сегодня Законодательная палата проводит ряд мероприятий по организации общественного обсуждения проектов законов, законопроекты размещаются на официальном сайте Палаты, организуются обсуждения с участием граждан.

Ключевые слова: закон, нормативно-правовой акт, предложение, онлайн, портал, обсуждение, проект.

ISSUES RELATED TO IMPROVING THE ACTIVITIES OF THE LEGISLATIVE CHAMBER OF THE OLIY MAJLIS (PARLAMENT) OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN CONCERNING THE DISCUSSION OF DRAFT LAWS

Annotation: The Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan plays a special role in the process of adopting laws produced in our country. Currently, the Legislative Chamber is carrying out several activities in organizing public discussions of draft laws, with draft laws being posted on the official website of the chamber and discussions being held with the participation of experts.

Key words: law, regulatory legal document, proposal, online, portal, discussion, project.

Demokratik davlatlarda qonunlarni xalqning xohish-irodasini aks ettirgan holda qabul qilish tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, qonunlar o‘zida xalqning irodasini, orzu-istaklarini, intilishlarini mujassam qiladi. Qonunlarning eng katta va asosiy vazifasi bu – mamlakatda tartib-intizom o‘rnatish hamda barqarorlikni ta’minlashdan iborat. Bugungi kunda qabul qilinayotgan qonunlarning samaradorligini oshirish uchun jamoatchilik manfaatlarini aniqlash hamda barchaning manfaatini o‘zida mujassam

etgan qonunlarni qabul qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o‘z navbatida qonun ijodkorligida jamoatchilik muhokamalarining ahamiyatini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida [1] O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egaligi mustahkamlab qo‘yilganligi jamoatchilik muhokamalari muhim ahamiyatga egalini anglatadi.

Qonunlarni qabul qilish jarayonida davlatning oliy organi hisoblangan Parlamentning o‘rni beqiyos. H.T. Odilqoriyevning fikricha, qonunchilik jarayoni – davlat oliy vakillik organining Konstitutsiyada belgilangan tartibda yangi qonunlar yaratishga, amaldagi qonunlarga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritishga qaratilgan, shuningdek eskirgan qonunlarni bekor qilish borasidagi harakatlari yig‘indisi bo‘lib, u qonun bilan tartibga solinishi zarur bo‘lgan munosabatlarni aniqlash, qonun loyihasini tayyorlash, uni muhokama etish va qabul qilishni o‘z ichiga oladi [2].

O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to‘g‘risida”gi 522-II-son Qonunining [3] 15-moddasida “qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida keng muhokamaga, shu jumladan joylarda fuqarolar ishtirokidagi keng muhokamaga chiqarilishi mumkin” deya belgilangan. Shunga ko‘ra, Qonunchilik palatasi tomonidan qonun loyihalari parlamentning rasmiy veb-sayti (parliament.gov.uz)da jamoatchilik muhokamasiga qo‘yib kelinmoqda. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi [4] qonun loyihalari shular jumlasidan. Biroq, ushbu qonun loyihalari yuzasidan fuqarolarning takliflari ko‘rib chiqilganligi hamda qabul qilinganligi yoki rad etilganligi to‘g‘risida hech qayerda

ma’lumot e’lon qilinmagan.

Shuningdek, qonun loyihalarining muhokamalari onlayndan boshqa shakllarda o‘tkazilmaganligi muhokamalarning samarasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 1607–III-son Qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 9-bandida qonun loyihalari yuzasidan jamoatchilik muhokamalarini tashkil etishning quyidagi shakllari belgilangan:

majlislar, konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, davra suhbatlari va suhbatlar o‘tkazish;

bosma nashrlarda e’lon qilish, shuningdek, teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlar tashkil etish;

qonun loyihasini Internet jahon axborot tarmog‘iga joylashtirish.

Biroq, amalda Qonunchilik palatasi tomonidan qonun loyihalarini majlislar va davra suhbatlari orqali muhokama qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yilmagan. Milliy tadqiqotchilar ham g‘oyalarni birgalikda muhokama qilishni o‘zaro ishonchning ortishi, axborot almashinuvi, axborot tizimining kengayishi va innovatsion rivojlanishning tamoyili hisoblashadi [5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi PF-5505-son Farmoni [6] bilan tasdiqlangan Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasida fuqarolarga qonun loyihalarini barcha bosqichlarda ko‘rib chiqish va qabul qilish jarayoni haqidagi axborotni moneliksiz olish imkonini beruvchi qonun hujjatlari ma’lumotlari bilan ishlashning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va Oliy Majlis palatalari faoliyatiga tatbiq etish vazifasi belgilangan edi. Biroq, bugunga qadar ushbu tizim amaliyotga joriy qilingani yo‘q.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qonun loyihalari muhokamalarini o‘tkazish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha quyidagilar taklif etiladi:

birinchidan: O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to‘g‘risida”gi 522-II-son Qonunining 15-moddasi 8-xatboshisini quyidagi tahrirda bayon qilish taklif etiladi:

“Birinchi o‘qishda qabul qilingan qonun loyihasining matni, qoida tariqasida, Qonunchilik palatasining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi, zarur bo‘lgan hollarda esa, Qonunchilik palatasining qaroriga ko‘ra ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi. Bunda eng muhim ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan qonun loyihalari Qonunchilik palatasining uni birinchi o‘qishda qabul qilish haqidagi qaroriga muvofiq qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida palataning rasmiy sayti hamda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali orqali keng muhokamaga, shu jumladan joylarda fuqarolar ishtirokidagi keng muhokamaga chiqarilishi mumkin.”

ikkinchidan: deputatlar tomonidan o‘zi saylangan hududda fuqarolar ishtirokida qonun loyihalarining muhokamalarini tashkil etish amaliyotini yo‘lga qo‘yish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. https://old.lex.uz/docs/-6445145
2. Odilqoriyev H.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. - T.: Sharq, 2002. - B. 250.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 29-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to‘g‘risida”gi 522-II-son Qonuni. http://old.lex.uz/docs/-39573
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining rasmiy veb-sayti. https://parliament.gov.uz/regulation/status/3
5. Egamberdiyev A. Innovatsiya – ijtimoiy fenomen // Ilmiy xabarnoma, ADU, №1, 2018. – B. 56.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi PF-5505-son Farmoni. https://old.lex.uz/docs/-3858817

SHODIYA ERGASHEVA,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvichisi

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA INGLIZ TILIDA KASBIY TA’LIM BERISH BILAN BOG‘LIQ MEHNAT BOZORLARI MAVQEYINING O‘SISHI

Annotatsiya: Maqolada yangi Konstitutsiyada belgilangan huquqiy normalarning turli ishlab chiqarish sohalari va kasbiy-professional pedagogik ta’limning rivojlanish xususiyatlariga qilgan ijobiy ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Dizayner, kasbiy mahorat, professional ta’lim, kasb-hunar ta’limi, ishlab chiqarish sohalari, mehnat bozori.

РОСТ ПОЗИЦИЙ НА РЫНКАХ ТРУДА, СВЯЗАННЫЙ С ПРОФЕССИОНАЛЬНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ В УСЛОВИЯХ КОНСТИТУЦИОННОЙ РЕФОРМЫ

Аннотация: В статье Анализируется положительное влияние правовых норм, закрепленных в новой Конституции, на особенности развития различных сфер производства и профессионально-профессионального педагогического образования.

Ключевые слова: Дизайнер, профессиональные навыки, профессиональная подготовка, профессиональная подготовка, производственные площади, рынок труда.

GROWTH IN THE POSITION OF LABOR MARKETS ASSOCIATED WITH PROFESSIONAL EDUCATION IN THE ENGLISH LANGUAGE IN THE CONTEXT OF CONSTITUTIONAL REFORMS

Annotation: The positive impact of the legal norms enshrined in the new Constitution on the features of the development of various spheres of production and vocational pedagogical education is analyzed.

Key words: designer, professional skills, vocational training, vocational training, production facilities, labor market.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari va ularning iqtisodiyoti uchun

eng muhim vazifalardan biri – bu barqaror o‘sish va rivojlanishni ta’minlashdir. Ushbu rivojlanishning muhim jihati shundaki, mehnat bozori va ta’lim tizimi o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashning zarurati oshib bormoqda. Mehnat bozorida ish beruvchilarning vakolatlaridagi mavjud ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tegishli darajadagi ta’lim va tayyorgarlikka ega bo‘lgan malakali mutaxassislar kerak.

Xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarni o‘rganadigan bo‘lsak, ular milliy malaka tizimini joriy qilish va bunga xorijiy tillarni implementatsiya qilish orqali yuzaga kelgan muammoni hal qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xorijiy milliy malaka tizimi dastlab Yevropa mamlakatlarida joriy qilindi. Bu tizimni joriy qilishning asosiy sabablaridan biri Yevropa mamlakatlari o‘zlarining mehnat resurslaridan foydalanishdagi muammolarni bartaraf qilish hisoblanadi. Yevropaning bir davlatida olingan diplom (kvalifikatsiya) ikkinchi davlatda tan olinishidagi muammolar, mehnat resurslaridan samarali foydalanish hisoblanadi [1].

Xorijiy mamlakatlarda milliy malaka tizimi bugungi kunda dunyodagi 155 ta davlatda joriy qilingan bo‘lib, mazkur mamlakatlar shu tizim asosida o‘zining mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlagan holda quyidagilarni o‘z ichiga olib kelmoqda:

- xorijiy tilni bilish darajasini yanada kengaytirish;
- kasbiy standartlarni o‘rnatish;
- ta’lim dasturlarini rivojlantirib borish;
- kerakli natijaga erishgan xodimlarni sertifikatlash [2].

Milliy malaka tizimini joriy qilishning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, bu tizim kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan aniq talablarni belgilab beradi. Mazkur milliy malaka tizimini joriy qilishning huquqiy asoslari paydo bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni [3] asosida kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan talablar belgilandi va tabaqalashgan professional ta’lim tizimi joriy qilindi.

Bundan tashqari, ushbu farmonda milliy kvalifikatsiya tizimiga

muvofiq xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchi kasblari klassifikatorini qayta ko‘rib chiqish, ilg‘or xorijiy tajriba asosida milliy malaka ramkasini, tarmoq malaka ramkalarini va milliy-professional standartlarni ishlab chiqish topshiriqlari berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi 2020-yil 15-maydagi 287-son qarori bilan milliy malaka ramkasi tasdiqlandi. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunda[4] tarmoq kengashlari, kasbiy standartlar, malakani baholash va malaka darajalari kabi tushunchalar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi PQ-4939-son Qarori [5] bilan Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo‘yicha kengash, malakaga erishish sxemasi va tarmoq kengashlari tasdiqlandi. Bugungi kunda yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda tarmoq malaka ramkalari va kasbiy standartlar ishlab chiqilmoqda.

Aslini olganda, kasbiy standart – malaka va bilimning darajasiga, mehnatning mazmuniga, sifatiga va shart-sharoitlariga doir talablarni belgilaydigan, asosiy mehnat vazifalari tavsifini va ularni bajarish shartlarini o‘z ichiga olgan standart hisoblanadi.

Milliy malaka ramkasi esa, tarmoqlar malaka ramkalarini, kasbiy standartlar va boshlang‘ich, o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim dasturlarni ishlab chiqishga, milliy va xalqaro darajada kvalifikatsiyalarni tan olishini ta’minlaydigan, olingan malakalarni tarmoqlararo va xalqaro miqyosda taqqoslashni ta’minlovchi va kasbiy kompetensiyani baholash tizimini joriy qilish va ish o‘rinlarini sertifikatlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, milliy kvalifikatsiya ramkasi mehnat bozori va ta’lim tizimi integratsiyasini ta’minlab beradi. Milliy malaka tizimini amaliyotga joriy qilish quyidagilarni ta’minlab beradi:

– mehnat bozoridagi ishchi kasb va lavozimlarga mehnat funksiyalaridan kelib chiqib talablarni bilim, ko‘nikma va mehnat harakatini belgilash;

– ta’lim dasturlarini kasbiy standartlar talablari asosida ishlab chiqish natijasida mehnat bozori talablariga integratsiyasini ta’minlash;

– malakani baholash tizimini yo‘lga qo‘yish, mahalliy va xorijiy mehnat bozori talablariga integratsiya qilish; korxona, tashkilot va muassasalarga ishga qabul qilishda, xodimlar lavozimlarining o‘sishini belgilash;

– ish o‘rinlarini sertifikatlash;

– xodimlarning malakasini doimiy ravishda oshirishga qo‘yiladigan talablarni belgilab berish.

Bugungi kunda ishchi kasb va xizmatchilarning lavozimlari bo‘yicha kasbiy standartlar ishlab chiqilmoqda. Kasbiy standartlar bu bugungi kunda amaliyotda bo‘lgan tarmoq tarif-malaka ma’lumotnomalari, lavozim yo‘riqnomalari va malaka talablari o‘rniga joriy qilinmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun ta’lim dasturlarini, ularni baholash indikatorlarini tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish imkonini beradi. Ish o‘rinlari sertifikatlanib, malaka tan olinadi.

Demak, milliy malaka ramkasi davlatning mehnat bozorida va ta’lim tizimi integratsiyasini ta’minlab bersa, tarmoq kvalifikatsiya ramkasi qaysidir bir sohaning kadrlarga qo‘yiladigan talablarini belgilab beradi. Milliy malaka tizimining joriy qilinishi “Ta’lim ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda informal ta’lim shaklining joriy qilinishiga huquqiy asos yaratdi. Informal ta’lim aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta’limdan ko‘ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan bo‘lib, oiladagi, ishdagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o‘quv faoliyatini o‘z ichiga olishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, milliy malaka tizimni joriy qilish: tarmoqlararo, milliy va xorijiy mehnat bozorida malakalarning tan olinishini va ularning integratsiyasini ta’minlaydi, professional va oliy ta’limda kadrlar tayyorlashda sifatni ta’minlash imkoniyatini beradi, xodimlarning malakasini oshirish va ularni malakalarini baholash tizimini yo‘lga qo‘yish imkoniyatini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, malakalarni baholash markazlarida kasbiy malakasi, bilim va ko‘nikmalarini baholashdan o‘tishni xohlovchi shaxslarning kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalarini baholashdan o‘tkazish natijasida malakalarni tan olish

ya’ni sertifikatlash imkoniyatini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Стефани А. “Национальные системы квалификационных стандартов: внедрение и результаты”. Бюро МОТ для стран Восточной Европы и Центральной Азии. – М.: 2011 год. С. 142

2. Совершенствование системы профессиональных квалификаций “Реформирование системы профессиональных квалификаций в странах-партнерах ЕФО”. Европейский фонд образования, 2014 г.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni // https://lex.uz/docs/4500926

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi 2020-yil 15-maydagi 287-son qarori // https://lex.uz/ru/docs/-4814154

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4939-son Qarori // https://lex.uz/docs/-5203490

АҚЛИДДИН САЙФИДДИНОВ,
ТДЮУ магистранти

ХАЛҚ ДЕПУТАТЛАРИ ВИЛОЯТ, ТУМАН, ШАҲАР КЕНГАШЛАРИ ДЕПУТАТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ АСОСЛАРИ

Аннотация: Ушбу мақолада маҳаллий вакиллик органлари депуталарининг Конституциявий мақоми, уларнинг маҳаллий ижро ҳокимяти устидан назорати, махаллий вакиллик органлари фаолиятини такомиллиштириш масалалари муҳокама қилинади.

Калит сўзлар: депутат, маҳаллий вакиллик органи, маҳаллий ижро ҳокимяти, ҳоким, референдум.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕПУТАТОВ ОБЛАСТНЫХ, РАЙОННЫХ, ГОРОДСКИХ СОВЕТОВ НАРОДНЫХ ДЕПУТАТОВ

Аннотация: В данной статье рассматривается конституционный статус депутатов местных представительных органов, их контроль над местной исполнительной властью, совершенствование деятельности местных представительных органов.

Ключевые слова: Депутат, местный представительный орган, местная исполнительная власть, хаким, референдум.

CONSTITUTIONAL BASES OF ACTIVITY OF DEPUTIES OF REGIONAL, DISTRICT, CITY COUNCILS OF PEOPLE'S DEPUTIES

Annotation: This article discusses the constitutional status of Deputies of local representative bodies, their control over the local executive authority, improvement of the activities of local representative bodies.

Key words: Deputy, local representative body, local executive authority, governor, referendum.

Дастлаб, махаллий кенгашлар шаклланишининг тариҳига назар солсак, мазкур холат асрлар давомида Ўзбекистон давлатчилик тарихида шаклланган давлат бошқарув ишларида халқ билан маслаҳатлашув, уларни давлат бошқарувида иштирок етишини таъминлаш шаклининг минг йиллар давомида шаклланган кўриниши хисобланади. Ўзбекистон Республикаси мустақилликка еришганининг дастлабки йилларидаёқ мамлакатимизминг биринчи президенти И.А.Каримов Ўзбекистон Республикасида ҳокимятнинг вакиллик органларини шакллантириш тўғрисида "... ана шу ҳокимятни сайлаш ва шакллантиришда халқ хоҳиш иродасининг еркин намоён бўлишини таъминлай олмасак, енг етук, юксак демократик тамойилларга жавоб берадиган сайлов тизимини марказда ҳам, жойларда ҳам жорий етмасак, буларнинг барчаси қуруқ гап бўлиб қолади" [1] деб таъкидлаган еди.

Ўзбекистон Республикасида маҳаллий ҳокимят тизими муносабатларининг ўзига хослиги шундан иборатки, бу муносабатлар

маҳаллий ҳокимят тизими органлари фаолияти билан узвий боғлиқ ва шу органлар орқали амалга оширилади. Бу давлат ҳокимятининг юқори ва маҳаллий органлари ҳамда ўзини ўзи бошқариш органлари ўртасидаги муносабатлардир. Бундай муносабатлар натижасида тегишли ҳудуд аҳолиси бевосита ўз депутатлари корпуси орқали халқ депутатлари Кенгашларини, яъни маҳаллий давлат ҳокимятини амалга оширувчи органларни ташкил етади. Депутат ўзига сайловчилардан тушган мурожаатларни қонунчиликда белгиланган тартибда кўриб чиқади, уларни ҳал етиш чора-тадбирларини кўради, жисмоний шахсларни ва юридик шахсларнинг вакилларини қабул қилиши депутатнинг сайловчилар билан олиб борадиган ишларининг бир қисми ҳисобланади [2].

Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 30 апрел куни ўтказилган референдумида умумхалқ овоз бериш орқали қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституцияси Халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар Кенгашлари депутатлари фаолиятини сифат жихатдан янги босқичга олиб чиқиш, шунингдек мамлакатимизда маҳаллий давлат ҳокимяти тизимида бошланган ислоҳотларнинг хуқуқий асоси бўлди десак муболаға бўлмайди. Аввало, мазкур янги тахрирдаги Конституциянинг 36-моддасида, “Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари жамият ва давлат ишларини бошқаришда бевосита ҳамда ўз вакиллари орқали иштирок етиш ҳуқуқига ега. Бундай иштирок етиш ўзини ўзи бошқариш, референдумлар ўтказиш ва давлат органларини демократик тарзда шакллантириш, шунингдек давлат органларининг фаолияти устидан жамоатчилик назорати воситасида амалга оширилади” деб белгилаб қўйилган. Бундан кўринадики, Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари ўзларининг сиёсий ҳуқуқларини бевосита ўзлари ёки ўз сайлаб қўйган вакиллари орқали амалга оширадилар. Фуқаролар ўз сиёсий ҳуқуқларини ўз вакиллари орқали амалга ошириши дейилганда, уларнинг ўз сайлаган депутатлари орқали мамлакат сиёсий ҳаётида иштирок етишларини тушуниш мункин. Ўзбекистон Республикасида давлат ҳокимяти олий ҳамда маҳаллий органларга ажратилади. Ўз навбатида махаллий давлат

ҳокимяти маҳаллий ижро ҳамда вакиллик органларига бўлинади. Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституциясининг 120-моддасида: "Вилоятлар, туманлар ва шаҳарларда (туманга бўйсунадиган шаҳарлардан ташқари) халқ депутатлари Кенгашлари давлат ҳокимияти вакиллик органларидир" деб белгилаб қўйилганлиги, 121-моддасида еса тегишли ҳудуддаги ижро етувчи ҳокимиятга вилоят, туман ва шаҳар ҳокими бошчилик қилиши белгилаб қўйилганлиги, маҳаллий ҳокимятнинг ижро ҳамда вакиллик органларига бўлинишини конституциявий асоси ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасининг эски тахрирдаги Конституциясининг 99-моддасида қуйидагилар, яъни: “Вилоятлар, туманлар ва шаҳарларда (туманга бўйсунадиган шаҳарлардан ташқари) ҳокимлар бошчилик қиладиган халқ депутатлари Кенгашлари ҳокимиятнинг вакиллик органлари бўлиб, улар давлат ва фуқароларнинг манфаатларини кўзлаб ўз ваколатларига тааллуқли масалаларни ҳал этадилар” [3] деб белгилаб қўйиш орқали, махаллий ижро ҳокимяти рахбарларига, яъни вилоят, туман ва шаҳар ҳокимларига тегшили маҳаллий вакиллик органларига рахбарлик қилиш ҳуқуқи берилган эди. Натижада, ҳокимятларнинг бўлиниш принсипи бузилиб, ҳам ижро, ҳам вакиллик органи рахбари сифатида жойларда ҳокимлар фаолият юритиб келагн эдилар. Мазкур холат махаллий вакиллик органларининг иш самарадорлиги ҳамда сифатини тушириб келмоқда эди. Мамлакатимизда ўтказилган Конституциявий ислохотлар натижасида, янги тахрирда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 120-моддасида қуйидагилар, яъни: “Вилоятлар, туманлар ва шаҳарларда (туманга бўйсунадиган шаҳарлардан ташқари) халқ депутатлари Кенгашлари давлат ҳокимияти вакиллик органларидир. Халқ депутатлари Кенгашига унинг депутатлари орасидан қонунга мувофиқ сайланадиган раис бошчилик қилади. Вилоят, туман, шаҳар ҳокими лавозимини эгаллаб турган шахс бир вақтнинг ўзида халқ депутатлари Кенгашининг раиси лавозимини эгаллаши мумкин эмас” [4] деб белгилаб қўйилди. Мазкур модданинг иккинчи қисмида махаллий вакиилик органлари фаолиятига мазкур депутатлар

орасидан сайланган раис бошчилик қилиши, учинчи қисмида эса вилоят, туман, шахар ҳокими лавозимини эгаллаб турган шахс бошчилик қила олмаслиги қатъий конституциявий норма тариқасида киритилиши билан формал миқёсда тегишли ҳокимлар ҳам ижро, ҳам вакиллик органлари рахбари бўлиш амалиёти тўлиқ тугатилди. Натижада, махаллий вакиллик органлари ўз фаолиятида янги босқичга кўтарилиб, улар чинакам халқ вакиллари сифатида, ўз сайловчиларининг хуқуқ ва манфаатларини ҳудудий миқёсда ҳимоя қилувчи вакиллик органларига айланмоқда.

Бизнингча, махаллий вакиллик органлари фаолиятини яна ҳам самарали йўлга қўйиш учун қуйидаги таклифларни илгари сурмоқчиман:

биринчидан, бугунги кунда халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар Кенгашлари депутатлари жамоатчилик асосида фаолият юритади. Натижада депутатлар ўз лавозим мажбуриятларини ҳамда депутатлик фаолиятини бир вақтда амалга ошириб келмоқдалар. Мазкур омил, маҳаллий вакиллик органлари депуталари иш фаолиятини самарали йўлга қўйишга қийинчилик туғдирмоқда. Маҳаллий вакиллик органларида ҳам профессионал (доимий) тарзда ишловчи депутатлар корпусини шакллантириш орқали махаллий вакиллик органларини хам таъсирчан механизмга айлантириш, энг асосийси ҳудулардаги муоммоларни тезкорлик билан хал қилиш механизмини яратиш;

иккинчидан, ҳудуларда маҳаллий вакиллик органлари томонидан ижро органлари фаолятини таъсирча назорат қилиш мақсадида “Халқ депутатлари Кенгашлари назорати тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни қабул қилиш, ҳамда мазкур қонунда маҳаллий депутатлар ваколатини кенгайтирш орқали, ҳудудий ижро органлари устидан назоратни кучайтириш;

учунчидан, туман, шахар ҳокими лавозимига номзод кўрсатиш тартибини қайта кўриб чиқиш, бунда ҳокимликка номзод маҳаллий кенгашда ҳудудни ривожлантириш бўйича ўз дастурини ҳимоя қилиб, лавозимга тасдиқланиш тартибини жорий қилиш.

Хулоса қилиб айтганда, Халқ депутатлари Кенгашларини

ҳудудларда мавжуд муаммоларни ҳал қилишдаги асосий боғинга айлантириш ҳамда маҳаллий давлат ҳокимяти фаолиятини замон талабларига мослаштириш, бир сўз билан айтганда маҳаллий давлат ҳокимяти вакиллик органларини халқнинг чинакам овозига айлантириш бугунги кунда маҳаллий давлат ҳокимятитизимида амалга оширилаётган ислохотларнинг пировард мақсади хисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каримов И.А. Биз танлаган йўл демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли Т.11.-Т.; Ўзбекистон, 2003. -225 б

2. Дехқонов Н.Б. Ўзбекистонда махаллий давлат ҳокимяти вакиллик органларининг шаклланиш тарихи. Монография./-Т.: “Иқтисодиёт”, 2015. -156

3. «Халқ сўзи» газетаси, 1992 йил 15 декабрь, 243 (494)-сон;

4. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон; https://lex.uz/docs/6445145

УМИДБЕК НУРУЛЛАЕВ,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги Университети магистратура тингловчиси, катта лейтенант

ЙЎЛ ҲАРАКАТИ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЯНГИ КОНСТИТУЦИЯ НОРМАЛАРИ ТАЛАБЛАРИГА РИОЯ ЭТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Аннотация. Ушбу илмий мақолада йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш тизимини такомиллаштиришда самарали жамоатчилик назоратини ўрнатиш, давлат органлари ва ташкилотлари фаолиятида очиқлик ва шаффофликни таъминлаш каби масалалар ўрганилиб таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: йўл ҳаракати қоидалари, йўл ҳаракати хавфсизлиги, йўл белгиси ўрнатиш, махсус ваколатли давлат органлари, тақиқловчи йўл белгилари

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВЫХ МЕХАНИЗМОВ ПРИ

ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ СЛЕДУЯ ТРЕБОВАНИЯМ НОРМ НОВОЙ КОНСТИТУЦИИ

Аннотация. В данной научной статье изучены и проанализированы такие вопросы, как установление эффективного общественного контроля, обеспечение открытости и прозрачности деятельности государственных органов и организаций по совершенствованию системы безопасности дорожного движения.

Ключевые слова: правила дорожного движения, безопасность дорожного движения, установка дорожных знаков, специально уполномоченные государственные органы, запрещающие дорожные знаки.

IMPROVEMENT OF LEGAL MECHANISMS FOR ENSURING ROAD SAFETY FOLLOWED BY THE REQUIEREMENTS IN THE NORMS OF THE NEW CONSTITUTION

Annotation. This scientific article studies and analyzes such issues as establishing effective public control, ensuring openness and transparency of the activities of government bodies and organizations in order to improve the road safety system.

Key words: traffic rules, traffic safety, road sign installation, specially authorized state bodies, prohibiting road sign

Барчамизга маълумки, амалиётда йўл ҳаракати хавфсизлиги соҳасида ечимини топиш лозим бўлган тизимли муаммолар ҳалигача мавжуд. Бу борада, фуқаролар ҳамда ваколатли давлат органларини ўйлантириб келаётган бугунги куннинг асосий муаммолардан бири йўлларда ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш ва унинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини замон талабларига мос равишда такомиллаштириш масаласидир.

Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш тизимини такомиллаштиришда самарали жамоатчилик назоратини ўрнатиш, давлат органлари ва ташкилотлари фаолиятида очиқлик ва шаффофликни таъминлашни муҳим аҳамият касб этади.

2022 йил 11 феврал куни Ўзбекистон Республикаси Президенти

Шавкат Мирзиёев раислигида "Хавфсиз ва равон йўл" тамойили асосида йўлларда инсон хавфсизлигини таъминлаш борасидаги ишларни янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирларига бағишланган видеоселектор йиғилиши ўтказилди. Унда Президент йўл ҳаракати қоидалари эскирганини таъкидлаб, уларни халқаро стандартлар асосида, мутахассислар ва ҳайдовчилар фикрини ўрганган ҳолда янгилаш бўйича топшириқ берди.[1] Шунингдек унда: "Қонунчиликка киритиладиган ҳамма янгиликлар депутатлар, экспертлар ва жамоатчилик билан бамаслаҳат ишлаб чиқилади", деди Президент [2].

Ўзбекистон Республикасида 2023 йил 30 апрел куни бўлиб ўтган референдум натижасига кўра 11 та моддадан иборат “Ўзбекистон Республикаси Конституцияси тўғрисида”ги ЎРҚ-837-сон Ўзбекистон Республикаси Конституциявий Қонуни қабул қилиниб, ушбу қонуннинг 1-моддасига илова қилинган Конституциянинг янги таҳрири 2023 йил 1 майдан кучга кирди. Муҳокамалар жараёни натижасида, Бош қомусдаги моддалар сони 128 тадан 155 тага, ундаги нормалар эса 275 тадан 434 тага ошди.

Умуман айтганда, Конституция 65 фоизга янгиланган. Конституцияда юз берган бир қанча йўналишлардаги ўзгаришлардан бири инсон ҳуқуқлари ижтимоий ахлоқ ва жамоат тартибини сақлаш мақсадида чекланиши мумкинлигидир. Жумладан, янги таҳрирдаги Конституциянинг 21-моддасида: “Инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари фақат қонунга мувофиқ ва фақат конституциявий тузумни, аҳолининг соғлиғини, ижтимоий ахлоқни, бошқа шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, жамоат хавфсизлигини ҳамда жамоат тартибини таъминлаш мақсадида зарур бўлган доирада чекланиши мумкин” [3], деган қоида мустаҳкамланиб қўйилган.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида жамоат хавфсизлигини, хусусан, йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш соҳасига доир ижтимоий муносабатлар “Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида”ги Қонуни, Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 24 декабрдаги 370-сон Қарори билан тасдиқланган “Йўл ҳаракати қоидалари” ва бошқа бир қанча норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан

тартибга солиниб келинмоқда. Бинобарин, инсон ҳаёти ва соғлиғини йўл-транспорт ҳодисаларининг аянчли оқибатларидан ҳимоя қилиш барчамизнинг пировард мақсадимиздир.

Шу сабабдан дунёда йўл ҳаракати хавфсизлигини ҳуқуқий таъминлаш асосларини янада такомиллаштириш юзасидан бир қанча илмий изланишлар олиб борилмоқда. Айниқса, пиёда ва велосипедчилар автомобиль йўлида аниқ кўринишини таъминлаш, соҳани тартибга солиш юзасидан давлат ва жамоатчилик ўртасидаги ўзаро ҳамкорликни янада такомиллаштириш, йўл ҳаркати қатнашчиларининг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш ва йўл хавфсизлигини таъминлашда жамоатчилик назоратини кенг қўллаш орқали йўл ҳаркати хавфсизлигини ҳуқуқийни такомиллаштириш бугунги кундаги кечиктириб бўлмас вазифалардан ҳисобланади.

Ўзбекистонда сўнгги йилларда йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш соҳасида амалга оширилган кўплаб ижобий ўзгаришлар ўз самарасини кўрсатаётган бир вақтда бу борада тизимли ислоҳотлар давом этмоқда.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони билан тасдиқланган “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” [4]га мувофиқ “Инсон қадри учун” тамойили асосида Ўзбекистонда йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш орқали инсонларнинг соғлиғи ва ҳаётини ишончли ҳимоя қилиш мақсадида соҳага доир барча йўналишларда кенг қамровли дастурий тадбирлар белгиланган.

Бу, ўз навбатида, йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш соҳасини тартибга солувчи тарқоқ қонунчилик ҳужжатларини кодификациялаш, жазо чораларини қоидабузарликларнинг ижтимоий хавфлилик даражасига мувофиқлаштириш, ҳайдовчилар тайёрлашда инсон омилисиз бир неча босқичли ва чекловлар билан амалга ошириш, йўлларда хавфсизликни таъминлашга жамоатчиликни жалб этиш ва рағбатлантириш ҳамда йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашда юқори натижаларга эришган илғор хорижий давлатларнинг усул ва тажрибаларини амалиётга жорий этишни

илмий тадқиқ этиш зарурлигини тақозо этмоқда.

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари муҳокамаси порталида “Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунига йўл ҳаракатини тартибга солишнинг шаффофлиги ва очиқлигини оширишга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақидаги ID-81246 Ўзбекистон Репсубликасининг Қонуни лойиҳаси [5] муҳокамага қўйилган. Муҳокама якунига кўра уч нафар фуқаро мазкур қонун лойиҳасининг 9-бандига, яъни тақиқловчи белгилар ўрнатилиши тегишли тартибда ҳокимларнинг қарори асосида ўрнатилишига қарши фикр билдирган. Бунга маълум маънода сабаблар бор, албатта. Мисол тариқасида, Жиззах вилояти Мирзачўл тумани ҳокимининг 24.08.2020 йилдаги 564-сон қарори [6]га эътибор қаратсак, мазкур қарор Мирзачўл туман ободонлаштириш бошқармасининг 2020 йил 21 майдаги 112-сонли хати (аҳолига хизмат кўрсатувчи ташкилотлар олдида транспорт воситаларининг тўхтаб туриш сони ортиб бораётганлигини) инобатга олинган ҳолда Мизачўл тумани, Ўзбекистон кўчасининг Хўжамқулов кўчаси билан туташган қисмидан туман ИИБ биноси рўпарасигача бўлган йўлга 3.27 «Тўхташ таъқиқланган» тақиқловчи йўл белгиси ўрнатишга рухсат этиш тўғрисида чиқарилган. Ўзбекистон Республикасининг 10.04.2013 йилдаги ЎРҚ-348-сон “Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида”ги Қонуни [7] 5-моддасида йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги давлат бошқаруви Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ва махсус ваколатли давлат органлари томонидан амалга оширилиши, йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги махсус ваколатли давлат органларига Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлиги, Автомобиль йўллари қуриш ва фойдаланиш ташкилоти, Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг Давлат йўл ҳаракати хавфсизлиги хизмати кириши кўрсатилган.

Юқоридаги ҳолатни, Мизачўл тумани, Ўзбекистон кўчасининг Хўжамқулов кўчаси билан туташган қисмидан туман ИИБ биноси рўпарасигача бўлган йўлга 3.27 «Тўхташ таъқиқланган» тақиқловчи йўл белгиси ўрнатишга қонуний асослар борлиги ваколатли орган

томонидан ўрганилмасдан туриб инсонларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари чеклашга йўл қўйилган, бу ўз навбатида Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21-моддасига зид деб ҳисобласа бўладиган мисоллардан бири сифатида келтиришимиз мумкин.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашда янги Конституция нормалари талабларига риоя этишнинг ҳуқуқий механизмларини такомиллаштириш, таклиф этилаётган янги нормалар йўл ҳаракатини тартибга солиш техник воситаларининг самарадорлигини, шунингдек жамоатчилик назоратининг таъсирчанлигини ҳамда мазкур соҳада очиқлик ва шаффофликни янада таъминлашга хизмат қилиши, йўл ҳаракатини тартибга солиш техник воситалари ўрнатилишидан олдин унинг ўрнатилиши қонуний бўлиши ҳамда зарурати ҳақида жамоатчилик олдиндан хабардор қилиниши керак бўлади.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси, “Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида”ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 20 сентябрдаги “Йўл ҳаракати хавфсизлиги соҳасидаги ҳуқуқбузарликларга қарши курашиш самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 747-сон, 2018 йил 1 декабрдаги “Йўл-патруль хизмати ходимларининг йўл ҳаракти катнашчилари билан ўзаро муносабатлари ҳамда махсус мосламалардан фойдаланиши тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш тўғрсида”ги 975-сон, 2018 йил 19 майдаги “Ўзбекистон Республикаси йўл хавфсизлигини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 377-сон, 2015 йил 24 декабрдаги “Йўл ҳаракти қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 370-сон қарорлари ва соҳага доир бошқа ҳужжатларни такомиллаштириш лозим бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. 2023 Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти. https://president.uz/uz/lists/view/4977

2. “Review.uz.” сайти. https://review.uz/oz/post/prezident-ishtirokida-yollarda-harakat-xavfsizligini-taminlash-masalasida-yigilish-otkazildi

3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. https://lex.uz/docs/6445145

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони. https://lex.uz/5841063

5. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари муҳокамаси портали. https://regulation.gov.uz/uz/d/81246

6. Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси. https://lex.uz/uz/docs/5123641

7. Ўзбекистон Республикасининг 10.04.2013 йилдаги ЎРҚ-348-сон “Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисида”ги Қонуни. https://lex.uz/docs/2153411

МУҲИДДИН ҚАЛАНДАРОВ,

Стратегик таҳлил ва истиқболни белгилаш олий мактаби тингловчиси

ЎЗБЕКИСТОНДА СИЁСИЙ ПАРТИЯЛАР ФАОЛИЯТИНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Аннотация: Сиёсий партиялар фаолиятини ҳуқуқий тартибга солиш ҳозирда жадал ривожланаётган жараёнлардан бири ҳисобланади. Сўнгги йилларда фуқароларнинг сиёсий фаоллиги ортиши, ҳокимиятни амалга оширишда сиёсий партиялар иштирокининг кенгайиши натижасида ҳуқуқнинг сиёсийлашуви тенденцияси намоён бўлмоқда, аниқроқ ифода этадиган бўлсак сиёсий муносабатларни ҳуқуқий тартибга солиш соҳаси кенгаймоқда.

Калит сўзлар: Сиёсий партия, Конституция, молиялаштириш, ҳуқуқий тартибга солиш

ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: С целью легализации деятельности политической

партии в отношении быстро развивающейся японской партии проводится расследование. В последние годы в результате повышения политической активности граждан, расширения общественного сотрудничества при осуществлении власти проявляется тенденция легализации, расширяются возможности переработки более четко выраженного общественного мнения в правовую форму.

Ключевые слова: Политическая партия, Конституция, финансирование, правовое регулирование.

FEATURES OF LEGAL REGULATION OF THE ACTIVITIES OF POLITICAL PARTIES IN UZBEKISTAN

Abstract: In order to legalize the activities of a political party, an investigation is being conducted against a rapidly developing Japanese party. In recent years, as a result of increased political activity of citizens and the expansion of public cooperation in the exercise of power, a tendency towards legalization has emerged, and the possibilities for processing more clearly expressed public opinion into legal form have expanded. .

Key words: Political party, Constitution, financing, legal regulation.

Республикамизда сиёсий партияларнинг ўз ғоя ва дастурларини амалга ошириши, сайловларда тенглик, очиқлик ва холислик тамойиллари асосида фаол иштирок этиб, парламент, маҳаллий вакиллик органларида ўз фракциялари ва партиявий гуруҳларини шакллантириши ҳамда мамлакатимиз сиёсий-ижтимоий ҳаётида фаол иштирок этиши учун барча қонуний асослар яратилмоқда. Шу билан бирга сўнги йилларда сиёсий партиялар ўз электоратига берган ваъдаларини бажаришда, сайловолди дастурларини тўла ва самарали бажаришида, мамлакатимиз ижтимоий-сиёсий ҳаётида, фуқаролар онгида ўзининг мустаҳкам ўрнини эгаллашдаги саъй ҳаракатлари ижобий тарафга ўзгармоқда.

Барча демократик давлатларда сиёсий партияларнинг роли ва фаолияти давлат ривожланишида муҳим аҳамият касб этади. Ўзбекистон мустақилликка эришгач ўз фуқароларини муносиб ҳаёт

кечиришини, миллатлараро ва конфессияларо тотувликни, кўп миллатли жонажон юртимизнинг фаровонлигини ва гуллаб-яшнашини таъминлашни мақсад қилган ҳолда ўзини демократик ва дунёвий давлат деб Бош қомусимиз Конституцияда белгилади.

Мустақилликнинг илк кунларидан бугунга кунга қадар демократик жараёнларнинг фаол иштирокчиси сифатида Сиёсий партиялар мамлакат фуқароларининг энг фаол, дунёқараши, мақсади, фикрлари муштарак бўлган муайян қисмини ўз сафида бирлаштирган ва умумхалқ манфаатлари йўлида сиёсий ҳокимият учун курашадиган сиёсий ташкилот бўлиши учун давлатимиз томонидан тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Мамлакатда мустақиллик йилларидан бошлаб сиёсий партиялар фаолиятини ривожлантириш, унинг мустақиллиги ва эркинлигини таъминлаш, нуфузини ошириш, давлатнинг тўлақонли демократик ривожланиш йўлида фуқароларнинг эзгу-мақсадларини амалга оширишда кўмакчи ва таянч бўлиши мақсадида ҳукумат томонидан бир қанча норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилиб ижрога йўналтирилди.

Хусусан,

-“Ўзбекистон Республикасида жамоат бирлашмалари тўғрисида”ги Қонун (1991 й.);

- Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (1992 й.; 2023 й.);

- “Сиёсий партиялар тўғрисида”ги Қонун (1996 й.);

- “Сиёсий партияларни молиялаштириш тўғрисида”ги Қонун (2004 й.);

- “Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида”ги Конституциявий қонун (2007 й.);

- Ўзбекистон Республикасининг Сайлов Кодекси (2019 й.) шулар жумласидандир.

Ўзбекистон Республикасининг **“Сиёсий партиялар тўғрисида”**ги қонунида сиёсий партиялар тузиш ва уларнинг фаолият кўрсатиш принциплари белгиланган бўлиб, уларга кўра, сиёсий партиялар фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини амалга

ошириш мақсадида, хоҳиш-иродани эркин билдириш, партияга ихтиёрий равишда кириш ва ундан чиқиш, аъзоларининг тенг ҳуқуқлилиги, ўзини ўзи бошқариш, қонунийлик ва ошкоралик асосида тузилиши ва фаолият кўрсатиши назарда тутилади.

Мазкур қонунга кўра Ўзбекистон Республикаси Президенти республика фуқароларининг барча ҳуқуқ ва эркинликларига риоя қилинишининг кафили сифатида президентлик ваколатларини бажариш муддати давомида сиёсий партияга аъзоликни ёки унда иштирок этишни тўхтатиб туриши ёхуд бутунлай тўхтатиши шартлиги белгиланган.

Шу билан бирга судьялар, прокурорлар ва прокуратура терговчилари, ички ишлар органлари, давлат хавфсизлик хизмати ходимлари, миллий гвардия, барча ҳарбий хизматчилар, хорижий давлатларнинг фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар сиёсий партияларга аъзо бўла олмасликлари белгилаб ўтилган.

Мамлакатимиздаги сиёсий партиялар Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан рўйхатга олинади. Агар сиёсий партиянинг устави, мақсадлари, вазифалари ва фаолият услуби Ўзбекистон Республикаси Конституциясига, бошқа қонун ҳужжатларига зид бўлса ёки олдинроқ худди шундай номдаги сиёсий партия ёки жамоатчилик ҳаракати рўйхатдан ўтган бўлса, бу партия рўйхатга олинмайди [1].

Ўзбекистон Республикасининг Конституциясининг **12, 39, 70, 71** ва **74**-моддаларида сиёсий партиялар фаолиятига оид тушунчалар келтирилган бўлса, 2023 йил 30 апрелда бўлиб ўтган референдум орқали тасдиқланган **янги Конституциянинг 39, 70, 71, 74, 118, 130, 136** ва **145**-моддаларида кенгайтирилган ҳолдаги тушунчалар келтирилган.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 39-моддасида фуқароларнинг сиёсий партияларга аъзо бўлиб уюшиш ҳуқуқига эга эканликлари ва уларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда қадр-қимматини ҳеч ким камситиши мумкин эмаслиги белгиланган. 70-моддада эса сиёсий партиялар жамоат бирлашмалари сифатида эътироф этилиши ва ушбу бирлашмаларни фаолиятини чеклаб ёки

тўхтатиб қўйиш фақатгина суд қарори билан амалга оширилиши назарда тутилади.

Сиёсий партияларга фақатгина Конституциясининг 71-моддасидаги Конституциявий тузумни зўрлик билан ўзгартиришни мақсад қилиб қўювчи, Ўзбекистоннинг давлат суверенитетига, ҳудудий яхлитлигига ва хавфсизлигига қарши чиқувчи, урушни, ижтимоий, миллий, ирқий ҳамда диний адоватни тарғиб қилувчи, фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқлари ва эркинликларига, аҳолининг соғлиғига, ижтимоий ахлоққа тажовуз қилувчи сиёсий партияларнинг, бошқа нодавлат нотижорат ташкилотларининг, шунингдек миллий ва диний белгиларига кўра сиёсий партияларнинг, ҳарбийлаштирилган бирлашмаларнинг ташкил этилиши ва фаолияти тақиқланади.

Шунингдек, 74-моддада Сиёсий партиялар турли ижтимоий табақа ва гуруҳларнинг сиёсий иродасини ифодалаши ва ўзларининг демократик йўл билан сайлаб қўйилган вакиллари орқали давлат ҳокимиятини тузишда иштирок этадилар. Сиёсий партиялар ўз фаолиятининг молиялаштирилиши манбалари ҳақида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатасига ёки у ваколат берган органга белгиланган тартибда ошкора ҳисоботлар тақдим этишлари кўрсатилган. 118-моддага кўра эндиликла Бош вазир номзоди Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан барча сиёсий партиялар фракциялари билан маслаҳатлашувлар ўтказилганидан сўнг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатасига тақдим этилади. 136 ва 145-моддаларга кўра судялар ва прокуратрура органлари ўз ваколатлари даврида сиёсий партияларга ва сиёсий мақсадларни кўзловчи бошқа жамоат бирлашмаларига аъзоликни тўхтатиб турадилар [2].

Ўзбекистон Республикасининг **“Сиёсий партияларни молиялаштириш тўғрисида”**ги қонунига мувофиқ сиёсий партияларни молиялаштириш манбалари сифатида кириш ва аъзолик бадаллари; қонун ҳужжатларига мувофиқ тадбиркорлик фаолиятидан олинган даромадлар; Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетидан ушбу Қонунга мувофиқ ажратиладиган маблағлар; Ўзбекистон

Республикаси юридик шахслари ва фуқаролари томонидан ушбу Қонунга мувофиқ бериладиган хайрия ёрдами белгиланган.

Сиёсий партияларнинг уставда назарда тутилган фаолиятини молиялаштириш учун ажратиладиган давлат маблағларининг йиллик ҳажми шу маблағларни ажратиш мўлжалланаётган йилдан олдинги йилнинг 1 январидаги ҳолатга кўра белгиланган энг кам иш ҳақининг икки фоизини Қонунчилик палатасига ўтказилган охирги сайловда сайловчилар рўйхатига киритилган фуқаролар сонига кўпайтмаси миқдорида шакллантирилади.

Сиёсий партияларнинг Қонунчилик палатасига ва давлат ҳокимиятининг бошқа вакиллик органларига сайловда иштирок этишини молиялаштириш белгиланган тартибда фақат ана шу мақсадлар учун ажратиладиган давлат маблағлари ҳисобидан амалга оширилади. Сиёсий партияларни сайловда бошқа маблағлар ҳисобидан молиялаштириш ва моддий жиҳатдан ўзгача тарзда қўллаб-қувватлаш тақиқланади [3].

2017 йилдан бошлаб очиқлик ва ошкоралик йўлини қатъий танлаган Янги Ўзбекистонни шакллантириш ислоҳотларида сайлов тизимини ривожлантириш ва демократлаштиришга алоҳида эътибор қаратилган ҳолда 2019 йилда Сайлов кодекси ишлаб чиқилиши сайлов қонунчилиги боғлиқ бир қанча норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни оптималлаштирди ва олдингилари ўз кучини юқотиб ягона ҳужжат асосида тартибга солинди. Ушбу кодекс асосида сайлов жараёнларини ташкил этиш ва Сиёсий партияларнинг сайловолди ташвиқотларини олиб бориш турлари, шакллари ва усуллари бўйича батафсил тартиб-қоидалар кўрсатилди.

Юқоридагилар асосида хулоса қилинадиган бўлса Ўзбекистонда сиёсий партиялар фаолиятини ривожлантириш, уларнинг ҳуқуқий мақомини ошириш, адолатли тенг имкониятлар асосида рақобатни йўлга қўйиш, давлат ҳокимиятини тузишда иштирок этишлари ва ташаббусларини амалиётга татбиқ этишлари мақсадида ҳукумат томонидан уларнинг манфаатдорликлари доирасида норматив ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. “Сиёсий партиялар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни 26.12.1996й. 337-I-сон
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси
3. “Сиёсий партияларни молиялаштириш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни 30.04.2004й. 617-II-сон

ZOIR XOTAMOV,

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi, kapitan

KONSTITUTSIYA-INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARI KAFOLATI

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligi, davlat o‘z faoliyatini ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsipi asosida faoliyat yuritishi, har bir fuqaroning huquqiy jihatdan tengligi, jamiyatimizda demokratiyaning o‘rni va ahamiyatini ochib berildi.

Kalit so‘zlar. Konstitutsiya, demokratiya, jamiyat, Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, insonning huquqlari va erkinliklari, ijtimoiy adolat va qonuniylik.

Аннотация. В данной тезисе демократия в Республике Узбекистан основана на общечеловеческих принципах, неприкосновенности человеческого право, государство действует на основе принципа социальной справедливости и законности, юридического равенства каждого гражданина, роль и значение демократии в нашем обществе.

Ключевые слова. Конституция, демократия, общество, Всеобщая декларация прав человека, права и свободы человека, социальная справедливость и законность.

Annotation. In this thisis, democracy in the Republic of Uzbekistan is based on universal principles, the inviolability of human dignity and dignity, the state operates on the basis of the principle of social justice and

legality, the legal equality of every citizen, the role and importance of democracy in our society.

Key words. Constitution, democracy, society, Universal Declaration of Human Rights, human rights and freedoms, social justice and legality.

Konstitutsiyamiz mustaqilligimizni mustahkamlash, xalqimizning tinch-osuda, farovon hayotini ta’minlashning muhim asosidir. Uning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini keng targ‘ib etish, aholi, ayniqsa, yoshlar ongu shuurida Vatanga sadoqat, qonunlarimizga hurmat tuyg‘usini mustahkamlash maqsadida o‘tkazilayotgan uchrashuv, davra suhbati, ochiq muloqot va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlar yuksak samaralar bermoqda. “Inson huquqlari – eng oliy qadriyat”, “Inson, uning qadr-qimmati, haq-huquqi oliy qadriyat”, “Konstitutsiya – baxtimiz poydevori”, “Adolat – qonun ustuvorligida”, “Konstitutsiya va ma’naviyat mushtarakligi”, “Konstitutsiya – faxrimiz, g‘ururimiz” kabi mavzularda tashkil etilayotgan tadbirlarga taniqli olimlar, huquqshunoslar, shoir-yozuvchilar, san’atkorlardan iborat ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot guruhlari jalb etilgan.

Huquqiy targ‘ibotchilar uchrashuv va tadbirlar samaradorligini ta’minlash uchun viloyat adliya boshqarmasi tomonidan tayyorlangan o‘n yo‘nalishdagi targ‘ibot materiallaridan unumli foydalanmoqda. Unda Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyati va huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish asoslari, fuqarolarning huquq va burchlari sodda tilda chuqur sharhlab berilgan.

O‘zbekistonning 65 foizga yangilangan va ancha “to‘lishgan” bosh qomusi 1 maydan e’tiboran kuchga kirdi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 maydan e’tiboran kuchga kirdi. Bunga 30 aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo‘ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan.[1]

Bunga qadar 1992 yildan buyon konstititutsiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmonida “Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalshlarini belgilab berdi”[2] deya ta’kidlangan.

Quyida yo‘nalishda ro‘y bergan o‘zgarishlar hujjatdagi ketma-ketlik bo‘yicha keltirib o‘tiladi.

1. O‘zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Konstitutsiyaning 1-moddasidagi “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” jumlasi quyidagicha o‘zgartirilmoqda: O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Boshqaruvning respublika shakli – davlat hokimiyatining oliy organlari xalq tomonidan muayyan muddatga saylanishini anglatadi.

2. Konstitutsiya to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi. 15-moddaga quyidagicha qo‘shimcha qo‘shildi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi. Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita konstitutsiyadagi normalarga ham asoslangan holda ish olib borishga, xususan sudga murojaat qilishga imkon beradi.

3. Imtiyozlar qonunda yozib qo‘yilishi shart emas. Yangi konstitutsiyaning 19-moddasi – fuqarolarning jinsi, millati, mavqeyi va hokazolardan qat’i nazar qonun oldida tengligi haqida. Bu moddaning 2-qismi quyidagicha o‘zgarmoqda: Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.

4. Barcha noaniqliklar – inson foydasiga Konstitutsiyaning yangi tahririga asosan: Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

Bundan tashqari, turli hujjatlarni yuritishda davlat organlari tomonidan xato-kamchilik o‘tgan taqdirda, masalan pensiya tayinlashda tegishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak.

5. Inson huquqlari ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash maqsadida cheklanishi mumkin. Huquq va erkinliklarning cheklanishi masalasi avvalgi konstitutsiyada quyidagi ikkita norma bilan tartibga solingan edi: Insonning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.

6. O‘qituvchilar alohida e’tirofda. Konstitutsiyaga o‘qituvchilar haqida modda qo‘shildi. U ikki banddan iborat: O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi. Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

7. Yer xususiy mulk bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonda 2022 yildan e’tiboran qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish boshlangan. Shu bilan deyarli bir vaqtda, o‘tgan yili e’lon qilingan yangi konstitutsiya loyihasining birlamchi versiyasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni xususiylashtirish mumkin emasligiga ishora qilingan edi.

8. OAV faoliyatiga to‘sqinlik qilish javobgarlikka sabab bo‘ladi. Avvalgi konstitutsiyaning “Ommaviy axborot vositalari” nomli bobi bitta moddadan iborat edi. Unda shunday deyilgandi: “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi”. Yangi konstitutsiyaga ko‘ra, bu bob ikkita moddadan iborat bo‘ldi: Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot

vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

9. Mahalliy davlat hokimiyatidagi o‘zgarishlar. Hokimlar kengash raisligidan ketadi. Mahalliy davlat boshqaruvida vakillik va ijro etuvchi organlar bir-biridan ajratilmoqda. Bu boradagi hozirgi tartib hokimiyatning bo‘linish va hokimiyat bo‘g‘inlarining o‘zaro tiyib turish prinsipiga zid. Bosh qomusning yangi tahririga asosan, bunga barham berilib, mahalliy kengashlar saylanadigan vakillik organlari, hokimliklar esa ijro organlari deb belgilanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagilardan korinib turibdiki, davlatimizning inson huquqlarini himoya qilish yuzasidan Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo‘yilgan normalarni hayotga izchil tadbiq etish yo‘lida olib borilayotgan siyosati inson va uning huquqlarini ta’minlashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasida hechkimning huquqi sud organining asoslantirilgan qaroridan tashqari hech bir organ yoki mansabdor shaxs tomonidan cheklanishi mumkun emas. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bizning fuqaroligimizning huquq va erkinliklarini ifodalovchi asosiy hujjatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni https://lex.uz/docs/-6461609.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi https://lex.uz/docs/-6445145.

HOJIBOY ADASHOV,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistrature bosqichi tinglovchisi, leytenant

HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI KONSTITUTSIYANING O‘RNI VA ROLI

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasida yangi qabul qilingan konstitutsiyasinig moddalari tahlili huquqiy asosi, huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari, uni amalga oshiruvchi organlar, bu sohadagi islohotlar va sohani rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavfsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Huquqbuzarliklar profilaktikasi, huquqiy asos, profilaktika turlari, amalga oshiruvchi organlar, hamkorlik.

Аннотация. В данной дипломной работе анализ статей вновь принятой Конституции Республики Узбекистан и наших национальных ценностей заключается. Целью является уважение человека и его жизни, даны предложения и разъяснения по совершенствованию этой сферы в теоретическом и практическом плане.

Ключевые слова: Предупреждение преступности, правовая основа, виды профилактики, органы реализации, реформы, инспектор профилактики, предложения, охрана общественного порядка, сотрудничество.

Annotation. In this thesis, the analysis of the articles of the newly adopted constitution of the Republic of Uzbekistan and our national values is to build a just civil society and social state. suggestions and explanations were given for improving the field theoretically and practically.

Key words: Crime prevention, legal basis, types of prevention, implementing bodies, reforms, prevention inspector, proposals, cooperation.

Huquqbuzarlik barvaqt profilaktikasi konstitutsiya, qonun va qonun osti hujjatlari asosda olib boriladi. Konstitutsiya huquqiy tartib, huquqiy

davlat va jamiyatning huquqiy tartibini ta’minlash, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va huquqiy tartibni buzishni oldini oluvchi tashqi va ichki xavf-xatarlarni oldini oluvchi tadbirlarni amalga oshirishni belgilaydi. Huquqbuzarlik profilaktikasi konstitutsiya bilan ta’minlangan huquqiy tartibni himoya qilish, uning buzilishini oldini oluvchi tadbirlarni amalga oshirish va jamiyatning huquqiy tartibini saqlash uchun zarur bo‘lgan qonun hujjatlari va tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Konstitutsiya tuzumining huquqiy tartibni saqlash va uning buzilishini oldini oluvchi tadbirlarni amalga oshirishning asosiy qonuniy bazasini shakllantiradi [1].

Yangi konstitutsiya huquqbuzarlik profilaktikasining tashkil etishdagi o‘rnini belgilab, uning amalga oshirish va huquqiy tartibni saqlash uchun zarur bo‘lgan qonun hujjatlari va tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bu bilan jamoatning huquqiy tartibini himoya qilish, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va huquqiy tartibni buzishni oldini oluvchi tadbirlarni amalga oshirishning qonuniy bazasini shakllantiradi. Yangi konstitutsiya huquqbuzarlik profilaktikasining muhim vazifalari va huquqiy tartibni saqlashning asosiy prinsiplarini belgilaydi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblanib kelingan. Inson tinch va xotirjam yashashni hohlaydi. Tinchlik bo‘lgan joyda baraka va rivojlanish bo‘ladi.

Har bir davlat bor ekanki, o‘z huquq tizimi va qonunlari mavjud. Barcha fuqarolar belgilangan qonunlarga birdek amal qilishi va boshqalarning huquqlariga putur yetkazmasligi lozim. Bu davlatning rivoji va tinchligi uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Qonundan chetga chiqish esa huquqbuzarlikni keltirib chiqaradi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar sodir etilgan huquqbuzarlikka qarshi kurashishadi: aybdorni topishadi, so‘roq qilishadi, sabablarni aniqlashadi va hokazo. Buning uchun ko‘p mablag‘ va ishchi kuchi kerak bo‘ladi. Shu sabab huquqbuzarlik sodir bo‘lishidan avval uni oldini olgan ma’qul. Bunday holatda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasi bizga yordamga keladi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng huquqbuzarliklar sohasini amalga oshirishga oid, yanada takomillashtirishga oid juda ko‘plab qonun va qarorlar qabul qilingan. Ammo, 2014-yil 14-mayda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun bu sohada haqiqiy

tub burilish bo‘lib xizmat qildi. Chunki shu sanaga qadar huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasini tartibga soluvchi yagona rahbariy qonun hujjati yo‘q edi. Bu qonunda ilk bora huquqbuzarliklar profilaktikasi nima ekanligi, uning prinsiplari, turlari, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar haqida batafsil ma’lumotlar berib o‘tilgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-mart kungi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2833-son qarori hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-fevral kungi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4166-son qarori qabul qilindi.

Buni davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham quyidagi gaplari orqali ta’kidlab o‘tgan: “Profilaktika inspektorlari faoliyatini takomillashtirish, ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish, sodir etilgan har bir jinoyatni tahlil qilish, jinoyatchilikni professional darajada aniqlash lozim. Profilaktika inspektorlari xizmat uylari, imtiyozli kreditlar asosida mashinalar bilan ta’minlanayotgani ular mahallaning har bir xonadoni bilan samarali ishlashida muhim ahamiyat kasb etmoqda” [2]. Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasini yanada rivojlantirish yo‘llari. Huquqbuzarliklar profilaktikasini sohasini yanada takomillashtirishga oid quyidagi shaxsiy fikrlarni bayon etsak: Birinchidan, sohada yuridik kadlar juda ham oz miqdorda. Shu sabab yuqoridagidek huquqbuzarliklar profilaktikasiga yuridik kadrlarni tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini maqsadli ko‘paytirish lozim. Ikkinchidan, profilaktika inspektorining ish yuklamasi va ish soatini qayta ko‘rib chiqish lozim. Bunda profilaktika inspektorlariga har qanday tegishli bo‘lmagan mansabdor shaxs yoki davlat organi tomonidan o‘z xizmat faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan vazifalar berilishini qat’iyan taqiqlash shart. Ish soati ko‘pligidan esa oilasi va boshqa ishlarga vaqt topa olmaydi.

Bu haqida Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning quyidagi jumlalarini keltirib o‘tish o‘rinli: “Qaysi hokim profilaktika inspektorini qabul qilib, gaplashdi? Uning bir kunlik ishini, oilaviy

sharoitini o‘rgandi? Agar unga sharoit yaratsak, u davlatdan rozi bo‘lib ishlasa, ko‘p masalalar hal bo‘ladi”. sohaga faqatgina yetarli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan nomzodlarni qabul qilish tizimini yo‘lga qo‘yish va ularning muomala madaniyatiga alohida e’tibor qaratish lozim [3].

2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida O‘zbekistonning jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi maqsadlari aniq va ravshan bayon etildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining har bir chiqishlarida sohaga mas’ul bo‘lgan idoralarning asosiy vazifasi jinoyatchini topish va jazolash emas, balki jinoyat sodir etilishiga sharoit yaratib bergan holatlarni aniqlash, ayniqsa tizimli muammolar bilan ishlashga alohida urg‘u qaratishni ko‘p bora ta’kidlab o‘tgan.

Davlatimiz rahbarining doimiy diqqat markazida turgan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida belgilangan vazifalar ijrosi, bu borada mavjud muammolar va ularni hal etish masalalari Prezidentimiz raisligida 27-28 iyul kuni o‘tkazilgan videoselektorda ham atroflicha muhokama qilindi [4].

E‘tirof etish kerakki, huquqbuzarliklarning bir qismi tayin bir ish joyiga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan sodir etilmoqda. Bunday shaxslar tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishini oldini olishda aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu haqda gap ketganda, mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yuritish, tadbirkorlar oldida turgan muammolarni bartaraf qilish, ularga keng imtiyoz va imkoniyatlar berish borasida ulkan ishlar amalga oshirilayotganligini misol qilishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasiga qaratilayotgan e’tibor natijasida hozirgi kunga kelib huquqbuzarliklarning sodir etilish darajasi sezilarli kamayib bormoqda va ishonamizki, yaqin yillar ichida bu ko‘satkichlar bundanda ijobiyroq ko‘rinishga keladi. Shu sabab sohaga e’tiborni bir zumga ham kamaytirmaslik lozim. Tinchlik bu buyuk ne’mat. Tinchlikni saqlovchilar esa bu ne’matning qanchalik muhim va totli ekanligini juda yaxshi

bilishadi. Aholi ham bu ne’matning qanchalik muhim va kerak ekanligini anglab yetmoqda, shu sabab jamiyat, davlat rivojlanmoqda va yuksalmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

2. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. (2022).

3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hay’atining kengaytirilgan yig‘ilishidagi Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqi.

4. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston nashryoti, 2021. 62,453-betlar.

ABBOSXON ORALOV,

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi, mayor

YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI KONSTITUTSIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi globallashuv jarayonida yangi islohotlar bosqichida mamlakatimizda inson huquqlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson huquq va erkinliklari tizimini rivojlantirishdagi o‘rni va roli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, inson huquqlari, siyosiy huquq, ijtimoiy huquq, ijtimoiy munosabat, islohot, qonun, farmon, qaror.

НОВАЯ КОНСТИТУЦИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: в данной статье рассматриваются реформы, проводимые в области прав человека в нашей стране на этапе новых преобразований в процессе глобализации на сегодняшний день, роль Конституции Республики Узбекистан в развитии системы прав и свобод человека.

Ключевые слова: Конституция, права человека, политическое право, социальное право, общественные отношения, реформа, закон, декрет, решение.

NEW CONSTITUTION OF NEW UZBEKISTAN

Annotation: this article covers the reforms carried out in the field of human rights in our country at the stage of new reforms in the process of globalization today, the role and role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in the development of the system of human rights and freedoms.

Keywords: Constitution, human rights, political law, Social law, social relations, reform, law, decree, decision.

Ma’lumki, har qanday davlatni-davlat, millatni-millat sifatida dunyoga tanitadigan albatta bu - uning bosh qomusidir. Konstitutsiya xalqning hohish-irodasi, ijtimoiy ongi, orzu-istagi va madaniyatini o‘zida aks etiradi. Shuningdek, xalq tafakkurining mahsuli bo‘lishi shart.

O‘zbekiston Respublikasining ancha “to‘lishgan” Konstitutsiyasini yangi tahriri 2023-yil 1-maydan e’tiboran kuchga kirdi. Bunga 2023-yil 30 aprel kuni bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumi natijasiga ko‘ra 155 ta moddadan iborat yangi konstitutsiyaning qabul qilinishi maqul ko‘rilganligi asos bo‘ldi.

O‘tgan davrda yani 1992-yildan 2023-yilga qadar bosh qomusimizga jami 15 marta o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘lamining kattaligi, zamonning talabi qolaversa inson qadriga qaratilgan davlat siyosatining bir so‘z bilan aytganda xalqimizning hohish-irodasini yanada yaqqol namoyon qilish sababli konstitutsiyaning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusimizdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga ko‘paydi. Umuman olganda, rasmiy jihatdan qaraladigan bo‘lsa, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

Bizning etiborimizni tortgan eng muhim o‘nta yo‘nalishda ro‘y bergan o‘zgarishlarni ketma-ketlik bo‘yicha keltirib o‘tishni joiz deb topdik.

1. O‘zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat

Konstitutsiyaning 1-moddasidagi “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” jumlasi quyidagicha o‘zgartirildi:

O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Boshqaruvning respublika shakli – davlat hokimiyatining oliy organlari xalq tomonidan muayyan muddatga saylanishini anglatadi.

Suveren davlat – o‘z hududida to‘la-to‘kis mustaqil hukmronlik va mutlaq yurisdiksiyaga ega bo‘lish demakdir.

Demokratiya esa xalq hokimiyatini ifoda etib, davlat boshqaruvida saylanish va o‘z vakillarini saylash orqali barchaning teng huquqli ishtiroki ta’minlanishini ko‘zda tutadi.

Huquqiy davlatda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko‘z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo‘ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo‘ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta’minlaydi.

O‘zbekiston o‘zini ijtimoiy davlat deb e’lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta’lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo‘llovga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag‘al oilaning bolalarida ham sog‘-salomat o‘sib-ulg‘ayib, yaxshi ta’lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo‘lishi kerak.

Dunyoviy davlatda davlat va din bir-biridan ajratilgan bo‘ladi. Davlat diniy e’tiqodidan qat’i nazar barchaga bir xil munosabatda bo‘ladi, dinga oid masalalarda neytral pozitsiyani egallaydi.

Yangi konstitutsiyaning 154-moddasi bilan, 1-moddadagi qoidalarni qayta ko‘rib chiqish mumkin emas, deb belgilandi. Xuddi shuningdek,

154-moddaning o‘zidagi aynan shu qoidadan iborat band ham qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas.

Boshqacha aytganda, bu norma – O‘zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga yoki islomiy respublikaga aylanmasligini nazarda tutadi.

2. Konstitutsiya to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi

15-moddaga quyidagicha qo‘shimcha qo‘shildi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita konstitutsiyadagi normalarga ham asoslangan holda ish olib borishga, xususan sudga murojaat qilishga imkon beradi.

Referendumda qabul qilingan qonunga binoan, Oliy sud 3 oy ichida tegishli Plenum qarorini qabul qilishi kerak. Bu qaror asosida sudlar tomonidan konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiluvchi hujjat sifatida qo‘llash yuzasidan yagona sud amaliyoti joriy etiladi.

3. Imtiyozlar qonunda yozib qo‘yilishi shart emas

Yangi konstitutsiyaning 19-moddasi (avvalgi 18-modda) – fuqarolarning jinsi, millati, mavqeyi va hokazolardan qat’i nazar qonun oldida tengligi haqida. Bu moddaning 2-qismi quyidagicha o‘zgarmoqda:

Eski: Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.

Yangi: Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.

Bu bilan konstitutsiyaning amalda ishlamay kelgan normalaridan biri real voqelikka moslashtirilmoqda. Amaliyot shundayki, turli jabhalardagi imtiyoz

va preferensiyalar nafaqat qonunlar asosida, balki ko‘p holatlarda qonunosti hujjatlar – qaror va farmonlar asosida berib kelinyapti.

4. Barcha noaniqliklar – inson foydasiga

Konstitutsiyaning yangi tahririga asosan:

Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

Ijtimoiy munosabatlar cheksiz shakllarga ega, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda to‘liq kodifikatsiya qilib chiqish amalda imkonsiz.

Endilikda, qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal etiladi.

Bundan tashqari, turli hujjatlarni yuritishda davlat organlari tomonidan xato-kamchilik o‘tgan taqdirda, masalan pensiya tayinlashda tegishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak.

5. Inson huquqlari ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash maqsadida cheklanishi mumkin

Huquq va erkinliklarning cheklanishi masalasi avvalgi konstitutsiyada quyidagi ikkita norma bilan tartibga solingan edi:

Insonning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.

Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

Konstitutsiyaning yangi tahririda yuqoridagi ikkita norma deyarli o‘zgarishsiz saqlab qolindi. Shu bilan birga, quyidagicha yangi norma qo‘shildi:

Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin.

Huquqlar cheklanishiga doir bu meyorlar, yangi konstitutsiyaning boshqa bir moddasiga asosan, so‘z erkinligi huquqiga ham tegishli. Ya’ni axborot izlash, olish va tarqatish huquqi faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholi sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligi va tartibini ta’minlash,

davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirning oshkor etilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida cheklanishi mumkin.

Ta’kidlash lozim, “ijtimoiy axloq” tushunchasi O‘zbekiston qonunchiligiga hali kiritilmagan. Ushbu tushuncha hamda mazkur modda bo‘yicha inson huquqlari “jamoat tartibini ta’minlash maqsadida” cheklanishi bo‘yicha vakolatli organning huquqiy sharhiga zarurat bor. Huquqlar ta’minlanishi bilan ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash o‘rtasidagi oltin o‘rtalik aniq belgilab qo‘yilishi kerak. Shu bilan birga, yuqorida aytganimizdek, konstitutsiyaga binoan endilikda barcha noaniqliklar inson foydasiga hal etiladi.

Shu o‘rinda, namoyishlarga oid moddani ham eslatib o‘tish o‘rinli. Bu modda avvalgi holida, o‘zgarishlarsiz saqlab qolindi:

Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

6. O‘qituvchilar alohida e’tirofda

Konstitutsiyaga o‘qituvchilar haqida modda qo‘shildi. U ikki banddan iborat:

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo‘lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi. Konstitutsiyada nomi keltirilgan o‘qituvchilardan boshqa kasb egalarining barchasi – huquq sohasi vakillari (sudyalar, prokurorlar va advokatlar). Boshqa holatlarda kasb egalari emas, sohalar haqida gap ketgan (masalan, ommaviy axborot vositalari, turli jamoat birlashmalari).

7. Yer xususiy mulk bo‘lishi mumkin

O‘zbekistonda 2022-yildan e’tiboran qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish boshlangan. Shu bilan deyarli bir vaqtda, o‘tgan yili e’lon qilingan yangi konstitutsiya loyihasining birlamchi versiyasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni xususiylashtirish mumkin emasligiga ishora qilingan edi. Yakuniy talqindan bunday cheklov olib tashlandi va yerni xususiylashtirishga oid norma quyidagicha shaklga keltirildi:

Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin.

Bosh qomusning o‘tgan yili e’lon qilingan birinchi loyihasida unga quyidagicha jumlani kiritish taklif etilgan edi: “Iqtisodiy faoliyatda insofsiz raqobatga, monopollashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi”. Yakunda bu boradagi normalar quyidagicha ko‘rinish oldi:

Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi.

Hujjatning birlamchi loyihasida mavjud bo‘lgan: “Xususiylashtirish natijalari qayta ko‘rib chiqilmaydi hamda bekor qilinmaydi” degan normani konstitutsiyaga kiritmaslikka qaror qilindi. Eslatib o‘tamiz, amaldagi qonunchilikda ham bunaqa qoida yo‘q.

8. OAV faoliyatiga to‘sqinlik qilish javobgarlikka sabab bo‘ladi

Avvalgi konstitutsiyaning “Ommaviy axborot vositalari” nomli bobi bitta moddadan iborat edi. Unda shunday deyilgandi: “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi”.

Yangi konstitutsiyaga ko‘ra, bu bob ikkita moddadan iborat bo‘ldi:

Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.

Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Asosiy yangilik – OAV faoliyatiga to‘sqinlik uchun javobgarlik konstitutsiya darajasida belgilandi. MJTK va Jinoyat kodekslariga tegishli javobgarlik kiritilishi haqida 4-5 yildan beri gapirib kelinar edi, lekin ularning barchasi og‘izda va qog‘ozda qolib ketar edi.

Endilikda, referendumda qabul qilingan qonunga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasi qonunchilikni yangi konstitutsiyaga moslashtirish dasturini 2 oy muddat ichida ishlab chiqib, parlamentga kiritishi kerak bo‘ladi.

9. Davlat boshqaruvidagi o‘zgarishlar. Prezidentning vakolat muddati 7 yil bo‘ldi

O‘zbekistonning yangi tahrirdagi konstitutsiyasiga binoan:

Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. Prezidentning “davlat boshlig‘i” maqomi, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq prezident bo‘lishi mumkin emasligi, prezidentning qasamyodi matni va prezidentga taalluqli boshqa aksariyat normalar o‘zgarishsiz qoldirildi. Ma’lumot uchun, prezidentning vakolat muddati 2003 yilda ham 5 yildan 7 yilga uzaytirilgan, 2011-yilda esa qaytib 7 yildan 5 yilga tushirilgan edi.

Bosh vazir nomzodini endi prezident taqdim etadi. Prezident bosh vazir nomzodini taqdim etishdan oldin parlamentga kirgan barcha partiyalarning fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazishi belgilandi. Qonunchilik palatasi prezident taqdim etgan nomzodni ko‘rib chiqadi, agar deputatlarning yarmidan ko‘pi ma’qullasa, bosh vazir lavozimga tasdiqlanadi. Agar deputatlar nomzodni uch marta rad etsa, prezident bosh vazirni tayinlab, Qonunchilik palatasini tarqatib yuborishga haqli. Avvalgi tartibga ko‘ra, bosh vazir nomzodini Qonunchilik palatasida eng ko‘p o‘rinni egallagan partiya taklif qilar, prezident ma’qullagach, nomzod ikki palata tomonidan tasdiqlanishi talab etilardi.

Senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushiriladi. 14 ta hududdan 6 nafardan emas, 4 nafardan senator saylanadi, prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni 16 nafardan 9 nafarga qisqaradi. Bu o‘zgarish 2024-yilda bo‘ladigan parlament saylovi vaqtida kuchga kiradi.

Qonunchilik palatasi deputatlari sonini (150 nafar) oshirmaslikka, o‘zgarishsiz qoldirishga qaror qilindi.

Bosh vazirni tayinlash va unga ishonchsizlik votumi bildirishda Senatning ishtiroki bekor qilindi. Endilikda buning uchun deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismi ovoz berishi yetarli (avval har ikki palata a’zolarining uchdan ikki qismi ovoz berishi zarur edi; eslatib o‘tamiz, ishonchsizlik votumi e’lon qilinsa, prezident bosh vazirni lavozimidan ozod etadi). Bosh vazir va hukumat a’zolarining hisobotlarini eshitish ham quyi palataning vakolatiga o‘tkazildi.

Korrupsiyaga va monopoliyaga qarshi kurashish organlari rahbarlarini prezident taqdimiga binoan saylash Senatning vakolatiga kiritildi. Senat, shuningdek, eng yuqori rangdagi sud mansabdorlarini saylaydi, bosh prokuror va Hisob palatasi raisligiga nomzodlarni ko‘rib chiqib ma’qullaydi, DXX raisligiga nomzod bo‘yicha prezident bilan maslahatlashuv o‘tkazadi, Markaziy bank raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, xorijdagi asosiy diplomatlarni tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi (bularning barchasi prezident taqdimiga binoan amalga oshiriladi). Bundan tashqari, Senat mahalliy kengashlarning qonunga zid qarorlarini bekor qilish vakolatiga ega bo‘ldi.

Qonunchilik palatasi qonunlar bo‘yicha qo‘shimcha vakolat oldi. Unga ko‘ra, endilikda Senat qonunni ma’qullash yoki rad etish to‘g‘risida 60 kun ichida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi qonunni prezidentga yuboradi. Qonunlarning prezident tomonidan imzolanishi va e’lon qilinishi uchun belgilangan muddat 30 kundan 60 kunga uzaytirildi. Prezident tomonidan qaytarilgan qonun parlament palatalari tomonidan yana qabul qilingan taqdirda, prezidentning bu qonunni imzolash va e’lon qilish muddati o‘zgarishsiz (14 kun) qoldirildi.

Prezident muddatidan ilgari prezident saylovini tayinlashga haqli ekani belgilandi. Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi va Senatga o‘zini o‘zi tarqatib yuborish vakolati berildi (palata a’zolarining kamida uchdan ikki qismining ovozi talab etiladi). Shuningdek, mamlakat hayotiga tegishli jiddiy voqealar ro‘y berganida, ikki palata qo‘shma qaror qabul qilgan holda parlament tekshiruvi o‘tkazishi mumkinligi yozib qo‘yildi.

Sudyalar muayyan ishlar bo‘yicha hisobdor bo‘lmaydi. Konstitutsiyaga qo‘shilgan bu norma bo‘yicha ham huquqiy sharhga zarurat bor. “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunda “hisobdor” tushunchasi uchramaydi. Sudyalarning o‘zlari chiqargan qarorlari bo‘yicha hisobdor bo‘lmasligi odil sudlovni ta’minlashga qanday ta’sir qilishi – izohtalab holat, bizningcha. Bu kabi mavxum qoidalar pirovardida yangi konstitutsiyani uning targ‘ibotida ko‘p marta aytilgan va hujjatning o‘zida ham belgilangan to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlaydigan qonun bo‘lishini savol ostida qoldiradi.

Konstitutsiyaviy sud sudyalari 10 yil muddatga saylanadi va qayta saylanishi mumkin bo‘lmaydi. Avvalgi tartibga ko‘ra, bu muddat birinchi marta saylanganida 5 yil, keyingisida 10 yil edi.

Ayni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq bitta lavozimni egallashi mumkin emasligi haqidagi qoida, prezidentdan tashqari, Senat raisi, Qonunchilik palatasi spikeri, Oliy sud raisi va o‘rinbosari, Sudyalar oliy kengashining raisi va o‘rinbosari, Markaziy saylov komissiyasi raisi, bosh prokuror, hokimlar va kengashlar raislariga nisbatan ham tatbiq etiladigan bo‘ldi.

Referendumda qabul qilingan qonunning 7-moddasi bilan, barcha darajadagi davlat mansabdorlarining ayni paytga qadar egallab kelgan muddatlari nollashtirildi. Ular lavozimlarini egallab kelayotganining surunkali muddatlari sonidan qat’i nazar, boshqa fuqarolar bilan teng ravishda xuddi shu lavozimlarga saylanish va tayinlanishga haqli, deb belgilandi [1].

10. Mahalliy davlat hokimiyatidagi o‘zgarishlar. Hokimlar kengash raisligidan ketadi

Mahalliy davlat boshqaruvida vakillik va ijro etuvchi organlar bir-biridan ajratilmoqda. Bu boradagi hozirgi tartib hokimiyatning bo‘linish va hokimiyat bo‘g‘inlarining o‘zaro tiyib turish prinsipiga zid. Bosh qomusning yangi tahririga asosan, bunga barham berilib, mahalliy kengashlar saylanadigan vakillik organlari, hokimliklar esa ijro organlari deb belgilanmoqda.

Shunga muvofiq, quyidagi sanalardan boshlab, hokimlarning kengashlarda raislik qilishiga barham beriladi:

viloyatlarda va Toshkent shahrida 2024 yilgi deputatlik saylovlari yakunlari bo‘yicha;

tuman va shaharlarda 2026 yil 1 yanvardan boshlab.

Mahalliy kengashlar raislari kengash deputatlari orasidan 5 yil muddatga saylanadi. Hokimlar esa 5 yil muddatga tayinlanadi, tayinlangan hokimni kengashlar tasdiqlaydi. Shu tariqa, kengash raislari ham, hokimlar ham to‘g‘ridan to‘g‘ri aholi tomonidan saylanmaydi.

Kengashlarning vakolatlariga, jumladan, quyidagilar kiradi:

mahalliy budjetni ko‘rib chiqish va qabul qilish, uning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash;

Hokimlarning vakolatlari esa, jumladan, quyidagilardan iborat bo‘ladi:

konstitutsiya va qonunlarni, parlament palatalarining qarorlarini, prezidentning farmonlari, qarorlari va farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining, yuqori turuvchi hokimlarning va tegishli xalq deputatlari kengashlarining qarorlarini bajarish;

hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish.

Hokimlar va mahalliy kengashlarning faoliyatini tashkil etish tartibi bo‘yicha alohida qonunlar qabul qilinadi. Mahalliy masalalar bo‘yicha ularning vakolatlari qanday taqsimlanishi ana shu qonunlarda aks etadi.

Yuqoridagilardan tashqari, konstitutsiyaga boshqa ko‘plab normalar ham qo‘shilgan, jumladan:

O‘zbekistonda o‘lim jazosi taqiqlanadi.

Agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.

Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Har kim o‘z shaxsiga doir noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga

ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Davlat internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev konstitutsiya islohoti haqida 2021-yil 6 noyabr kuni, ikkinchi prezidentlik muddatiga kirishishi yuzasidan inauguratsiya marosimidagi nutqida birinchi marta aytib o‘tgan edi. Davlat rahbari o‘sha yili dekabr oyida, konstitutsiya bayrami arafasida xalqqa yo‘llagan tabrigida: “konstitutsiyani yangilashdek g‘oyat muhim, strategik vazifani hal etishda yetti marta emas, yetmish marta o‘ylash” zarurligini ta’kidlagan edi. 2022-yil may oyida konstitutsiyaviy komissiya tuzilib, hujjatni yangilash jarayoni boshlandi [2].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi, zamonaviy va juda muhim normalarning hayotga qat’iy hamda izchil tatbiq etilishi, xususan, sudlar tomonidan ana shu konstitutsiyaviy qoidalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanishi yurtimiz va xalqimiz tarixida inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari va qadr-qimmatini ulug‘lash borasida yangi davrni boshlab bermoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz”.

Xulosa qilib aytganda, bugun Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e’tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilganini ishonch bilan ta’kidlash mumkin. Yangi tahrirdagi Asosiy Qonunning qabul qilinishi bilan bu borada yanada mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asos yaratildi. Binobarin, Yangi O‘zbekiston o‘zining ushbu sohalardagi xalqaro majburiyatlariga qat’iy sodiqligini yana bir bor namoyon etdi [3].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “O‘zbekiston nashriyoti” - 2023 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (eski tahrir) “O‘zbekiston nashriyoti” - 2021 y.www.kun.uz

PAYZIYEV ABBOS,
Jamoat xavfsizligi universiteti “Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi, mayor

O‘ZBEKISTON VA DUNYO KONSTITUTSIYALARIDA SHAXSNING PROTSESSUAL HUQUQLARINING TA’MINLANGANLIGI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalaridagi o‘zgarishlar, inson qadrini ulug‘lash va aholi farovonligini yanada oshirishga qaratilgan barcha sa’y-harakatlar adolatli jamiyat va ijtimoiy davlat barpo etishga qaratilgandir.

Darhaqiqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar zamirida konstitutsiyamiz mustahkam poydevor ekanligini alohida ta’kidlash lozim. Yangi O‘zbekiston – yangi islohotlar sharoitida inson huquq va erkinliklarining oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi, davlat organlarining xalq manfaatlariga xizmat qilishi taraqqiyotimizning yuksalish mezonini belgilab beruvchi muhim omildir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hokimiyat bilan shaxsning o‘zaro munosabatlarini, davlat organlari tizimining faoliyat yuritishini, fuqarolarning huquqiy maqomini, shuningdek, jamiyatning boshqa ijtimoiy tuzilmalari holatini belgilovchi asosiy qoidalarni mujassam etgan asosiy qonundir.

Dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir shaxs, hech bir fuqaro o‘z ijtimoiy-shaxsiy hayotini, o‘zining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur qila olmaydi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, inson qadri, uning huquqlari ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan biron-bir jinoyatda gumon qilib ushlash, guvohlik qilish kabi huquqlarini ta’minlash mamlakatlarning bosh qonuni – Konstitutsiyalarida aks etganligini ko‘rish mumkin.

Jumladan: Singapur Konstitutsiyasining 6-moddasida “Agar shaxs hibsga olingan bo‘lsa, u hibsga olish sabablari to‘g‘risida imkon qadar tezroq xabardor qilinishi va o‘zlari tanlagan advokat bilan maslahatlashish

va himoya qilish uchun ruxsat berilishi kerak. Agar shaxs hibsga olingan va ozod etilmagan bo‘lsa, u hech qanday sababsiz kechiktirmasdan va har qanday holatda 48 soat ichida sudya huzuriga keltirilishi kerak va sudyaning qarorisiz qo‘shimcha hibsga olinishi mumkin emas”;

Yaponiya Konstitutsiyasining 31-moddasida “Hech kim hayotdan yoki ozodlikdan mahrum etilishi yoki qonunda belgilangan tartibdan tashqari hech qanday jazoga tortilishi mumkin emas”;

32-moddasida “Hech kim o‘z ishini sudda ko‘rish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas”;

33-moddasida “Hech kim hibsga olinishi mumkin emas, hibsga olish jinoyat sodir etilgan joyda amalga oshirilgan hollar bundan mustasno, sud hokimiyati vakolatli xodimining hibsga olish uchun sabab bo‘lgan jinoyat ko‘rsatilgan farmoyishi bundan mustasno”;

34-moddasida “Hech kimni zudlik bilan ayblash va advokat bilan maslahatlashish huquqi berilmasa, hibsga olinishi yoki qamoqqa olinishi mumkin emas. Xuddi shunday, hech kim tegishli asoslarsiz ushlab turilishi mumkin emas, bu haqda tegishli iltimosnoma bo‘lsa, qamoqqa olingan shaxs va uning advokati ishtirokida o‘tkaziladigan ochiq majlisda darhol xabar qilinadi”;

38-moddasida “Hech kim o‘ziga qarshi guvohlik berishga majburlanishi mumkin emas. Tazyiq, qiynoq yoki tahdid ostida, asossiz uzoq muddat hibsga olingan yoki qamoqqa olingandan keyin qilingan iqrorlik dalil sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Hech kimning aybiga iqror bo‘lishi unga qarshi yagona dalil bo‘lgan hollarda ayblanishi yoki jazolanishi mumkin emas”;

Germaniya Konstitutsiyasining 104-moddasida “Shaxsning erkinligi faqat parlament akti asosida va faqat unda ko‘rsatilgan rasmiyatchiliklarga rioya qilgan holda cheklanishi mumkin. Hibsga olinganlarga ruhiy va jismoniy shafqatsiz munosabatda bo‘lish mumkin emas. Ozodlikni cheklash muddatini qabul qilish va uzaytirish to‘g‘risida faqat sudya qaror qabul qilish huquqiga ega. Erkinlik sudyaning buyrug‘iga asoslanmagan holda cheklangan taqdirda, sudyaning qarori darhol olinishi kerak. Politsiya o‘z vakolatiga ko‘ra, hech kimni hibsga olingandan keyingi kunning oxirigacha uzoqroq ushlab turishi mumkin emas. Tafsilotlar

qonun bilan tartibga solinadi. Jinoyat sodir etishda gumon qilinib, vaqtincha ushlab turilgan har bir shaxs ushlab turilgandan keyingi kundan kechiktirmay sudya huzuriga keltirilishi kerak, u ushlangan shaxsni ushlab turish sabablari to‘g‘risida xabardor qilishi, so‘roq qilishi va unga imkoniyat yaratishi shart. E’tirozlarini bildirish. Sudya darhol yo hibsga olish to‘g‘risida asoslantirilgan yozma qaror chiqarishi yoki qamoqqa olinganni ozod qilish to‘g‘risida buyruq berishi kerak. Sudyaning ozodlikni cheklash yoki uni cheklash muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qarori to‘g‘risidagi har bir holat yuzasidan qamoqqa olinganning qarindoshi yoki uning ishonchli vakili darhol xabardor qilinishi shart”;

Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 22-moddasida “Har bir inson erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Qamoqqa olishga, qamoqqa olishga va qamoqqa olishga faqat sud qarori bilan yo‘l qo‘yiladi. Sud qaroriga qadar shaxsni 48 soatdan ortiq ushlab turish mumkin emas”.

48-moddasida “Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam bepul taqdim etiladi.

Qamoqqa olingan, qamoqqa olingan, jinoyat sodir etishda ayblanayotgan har bir shaxs ushlangan, qamoqqa olingan yoki ayblov e’lon qilingan paytdan boshlab tegishli ravishda advokat (himoyachi) yordamidan foydalanishga haqli”;

49-moddasida “Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir ayblanuvchi federal qonunlarda nazarda tutilgan va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan belgilangan tartibda uning aybi isbotlanmaguncha aybsiz hisoblanadi.

Ayblanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas.

Shaxsning aybiga oid bartaraf etilmaydigan shubhalar ayblanuvchi foydasiga talqin etiladi”;

50-moddasida “Hech kim bir xil jinoyat uchun qayta hukm qilinishi mumkin emas.

Odil sudlovni amalga oshirishda federal qonunni buzgan holda olingan dalillardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir shaxs federal qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuqori sud tomonidan hukmni qayta ko‘rib chiqish, shuningdek avf etish yoki jazoni engillashtirishni so‘rash huquqiga ega”;

Xitoy Xalq Respublikasi Konstitutsiyasi 37-moddasida “Xitoy Xalq Respublikasi fuqarosining shaxsiy erkinligi daxlsizdir. Hech bir fuqaroni hibsga olish mumkin emas, bundan mustasno, xalq prokuraturasi yoki xalq sudining ruxsati yoki qarorisiz va qamoqqa olish jamoat xavfsizligi organi tomonidan amalga oshirilishi kerak. Shaxsni har qanday noqonuniy ushlab turish, fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish yoki cheklash, fuqarolarni noqonuniy tintuv qilish taqiqlanadi” deb belgilab qo‘yilgan.

Yuqorida sanab o‘tilgan mamlakatlar qatorida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham inson qadrini ulug‘lash, shaxsiy huquq va erkinliklar xalqaro huquq normalariga to‘la mos ravishda belgilab qo‘yilgan, jumladan, bosh qomusimizning 27-moddasida “Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas.

Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas.

Shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart”;

28-moddasida “Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o‘zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta’minlanadi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin.

Hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas.

Agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga xos bo‘lgan sha’ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega.

Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emas”;

29-moddasida “Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatiladi.

Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e’tiboran o‘z tanloviga ko‘ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to‘g‘risida xabardor qilinish, unga qarshi yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so‘roq qilinishini talab etish, tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi huquqiga, shuningdek afv etish yoki jazoni yengillashtirish to‘g‘risida iltimos qilish huquqiga ega.

Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalanishni va odil sudlovdan foydalanishni ta’minlaydi, ularga yetkazilgan zararning o‘rni

qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi” deb belgilab qo‘yilganligini misol keltirish mumkin.

Ayni bu masalaga xalqaro huquq normalaridan ham to‘xtalib o‘tilgan, masalan, BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yurkda 1988-yil 9-dekabrda bo‘lib o‘tgan 76-yalpi majlisida tasdiqlangan “Har qanday shaklda ushlangan yoki qamoqqa olingan barcha shaxslarni himoya qilish tamoyillarining to‘plami” muvofiq hech kim o‘z xohishiga qarshi guvohlik berishga majbur emasligini belgilash xalqaro umumetirof etilgan huquq normalari o‘z aksini topadi. Ushbu hujjatga asosan har qanday shaklda ushlangan yoki qamoqqa olingan shaxsning insoniy qadr-qimmatini hurmat qilish, huquqlarini amalga oshirish kabi prinsiplar belgilangan.

Shunday ekan mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta’minlashni yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohatlarimizni davom ettirib, bosh qomusimizga “Hech bir shaxs qonunda belgilangan yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas” degan yangi normani singdirish maqsadga muvofiq.

Bu bilan, xalqaro huquqning umumetirof etilgan normalarini milliy qonunchiligimizga singdirish bilan bir qatorda, ko‘p millatli mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barchaning huquq va erkinliklarini ta’minlashning konstitutsiyaviy kafolatini yana bir bor mustahkamlashga erishgan bo‘lamiz.

ШЕРАЛИ ЯРЛАКОБОВ,
Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси магистри

ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИДА КАДРЛАР СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Аннотация: ушбу мақолада мамлакатимизда ички ишлар органларида кадрлар сиёсатини амалга оширишнинг ҳуқуқий асослари ҳамда унинг ўзига хос ҳуқуқий жиҳатлари илмий назарий жиҳатдан таҳлил этилган. Шунингдек, мавжуд ҳуқуқий механизмлар таҳлил этилиб, уларнинг аҳамияти ва юридик табиати тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: ички ишлар органлари, ички ишлар органларида кадрлар сиёсати, ички ишлар органларининг маънавий-маърифий

ишлар ва кадрлар билан таъминлаш департаменти, ички ишлар органлари ходимлари, конституциявий нормалар, маънавий-маърифий ишлар, низом, қонун.

Аннотация: в данной статье с научной и теоретической точки зрения анализируются правовые основы реализации кадровой политики в органах внутренних дел нашей страны, а также ее специфические правовые аспекты. Кроме того, проанализированы существующие правовые механизмы, исследованы их значение и правовая природа.

Ключевые слова: органы внутренних дел, кадровая политика в органах внутренних дел, департамент по морально-воспитательной работе и кадровому обеспечению органов внутренних дел, сотрудники органов внутренних дел, конституционные нормы, морально-воспитательные работы, устав, закон.

Abstract: this article analyzes the legal basis for the implementation of personnel policy in the internal affairs bodies of our country, as well as its specific legal aspects, from a scientific and theoretical point of view. In addition, existing legal mechanisms are analyzed, their meaning and legal nature are explored.

Key words: internal affairs bodies, personnel policy in internal affairs bodies, department for moral and educational work and staffing of internal affairs bodies, employees of internal affairs bodies, constitutional norms, moral and educational work, charter, law.

Туб ислоҳотларни амалга ошираётган Янги Ўзбекистонда ички ишлар органларини халқчил профессионал тузилмага айлантириш устувор вазифалардан саналади. Бу борада табиийки масала соҳада замонавий кадрлар тайёрлашга бориб тақалади. Ички ишлар органлари ходимларини юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, ўз бурчига содиқ, ватанпарвар ва халқпарвар этиб тарбиялаш нафақат замон талаби балки давлатимизнинг “Инсон қадри учун” тамойили асосидаги фаолиятининг устувор йўналишларидан биридир.

Мамлакатимизда ички ишлар органларида кадрлар сиёсатини амалга оширишнинг ҳуқуқий асослари дастлаб 2023 йил 30 апрелда

референдум йўли билан қабул қилинган янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида тегишли нормалар орқали мустаҳкамланган. Жумладан, Асосий қонунимиз муқаддимасининг учинчи бандида давлатнинг инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги шаъни ва қадр қимматини таъминлашдаги масъулияти[1] белгиланган. Шунингдек, Конституциянинг 1-моддасида Ўзбекистон бошқарувнинг республика шаклига эга бўлган суверен, демократик, ҳуқуқий, ижтимоий ва дунёвий давлат эканлиги ёхуд унинг 2-моддасида давлат органлари ва мансабдор шахслар жамият ва фуқаролар олдида масъуллиги, 7-моддасида республикамизда давлат ҳокимияти халқ манфаатларини кўзлаб ва Конституция ҳамда унинг асосида қабул қилинган қонунлар ваколат берган органлар томонидангина амалга оширилиши ҳамда 14-моддасида[2] давлат ўз фаолиятини инсон фаровонлигини ва жамиятнинг барқарор ривожланишини таъминлаш мақсадида қонунийлик, ижтимоий адолат ва бирдамлик принциплари асосида амалга ошириши мустаҳкамланган. Тўғри. Бир қарашда ушбу конституциявий нормаларда ички ишлар органлари ходимларининг хизмат вазифаларига алоқаси камдек кўринади. Лекин моҳиятан, конституциявий нормалар мантиғи ва давлатнинг конституциявий мажбуриятлари, юридик табиати нуқтаи назаридан қараганда, ички ишлар органлари ходимлари олдига Конституция бугунги давр талабидан келиб чиқиб, муҳим вазифаларни қўйганини тушуниш мумкин. Айнан шу сабабдан ҳам Конституция ички ишлар органларида кадрлар сиёсатини амалга оширишнинг муҳим ва асосий ҳуқуқий манбаи ҳисобланади.

Ички ишлар органларида кадрлар сиёсатини амалга оширишнинг яна бир манбаси республикамизда 2016 йилнинг 16 сентябрида қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги қонуни саналади. Чунки бу қонун ўз олдига ички ишлар органларининг асосий вазифалари фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини, жисмоний ва юридик шахсларнинг мулкини, конституциявий тузумни ҳимоя қилишдан, қонун устуворлигини, шахс, жамият ва давлатнинг хавфсизлигини

таъминлаш, шунингдек, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва профилактика қилиш вазифаларини қўяди[3].

Бундан ташқари, ушбу қонун ички ишлар органлари фаолиятининг асосий йўналишларини ўзида аниқ белгилаб қўйгани билан ҳам аҳамиятли саналади. Унга кўра қонуннинг 4-моддасида ўн бешта бандни ўзида мужассам этган ички ишлар органлари фаолияти билан боғлиқ қоидалар соҳа вакилларининг қандай шахсий ва хизмат фазилатларига эга кадрлар бўлиши талабини белгилайди. Ва бу талабларнинг ҳар бири ички ишлар органларида кадрлар салоҳияти бевосита қонунда белгиланган вазифаларни шахс - жамият – давлат манфаати йўлида профессионал тарзда амалга ошириши билан чамбарчас боғлиқлигида намоён бўлади.

Шунингдек, ушбу қонуннинг ички ишлар органлари ходимларининг ҳуқуқ ва мажбуриятларига бағишланган учинчи бобининг 16-17-моддалари ёхуд улар томонидан айрим мажбурлов чораларининг қўлланилиши билан боғлиқ нормаларни ўзида белгилаган, тўртинчи бобининг 18-20-моддалари ҳамда ички ишлар органлари ходимлари томонидан жисмоний куч ишлатиш, махсус воситаларни ва ўқотар қуролни қўллаш тарибини назарда тутувчи бешинчи бобнинг 21-24-моддалари ёки ички ишлар органларида хизматни ўташ тартиби ва шартларига бағишланган олтинчи бобнинг 25-33-моддалари, шу ўринда ички ишлар органлари ходимларини ҳуқуқий ва ижтимоий ҳимоя қилишни белгиловчи 34-43-моддалардаги ҳуқуқий нормалар ҳам айнан ички ишлар органларида кадрлар сиёсатини амалга ошириш ҳамда такомиллаштиришнинг яна бир ҳуқуқий асос ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 20 январдаги “Ички ишлар органларини халқчил профессионал тузилмага айлантириш ва аҳоли билан янада яқин ҳамкорликда ишлашга йўналтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-10-сон қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш департаменти тўғрисида”ги Низом ички ишлар органларида кадрлар сиёсатини амалга ошириш, маънавий-маърифий

ва мукофотлаш ишларини ташкил этиш, хизматни ўташ қоидалари ва меҳнат муносабатларига амал қилиш, кадрлар тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш бўйича қоидаларни ўзида белгилаган[4]. Асосийси, ушбу Низомда ўрнатилган тартибларни амалга оширувчи яъни Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги марказий аппаратининг махсус тузилмаси Ички ишлар органларининг маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш департаменти ташкил этилиб, унинг зиммасига айнан шу масалалар билан шуғулланиш юклатилган. Департамент таркибига унинг қуйи тузилмалари, ҳарбий тузилмалар, таълим, ўқув ва тиббиёт муассасаларининг маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш бўлинмалари (бошқарма, бўлим, бўлинма, гуруҳ) кириши ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамланган.

Департаментнинг асосий вазифа ва функцияларини амалга оширишни назарда тутувчи ушбу Низомда ички ишлар органлари учун профессионал кадрлар тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг доимий равишда малакасини оширишни ташкил этиш ҳамда ички ишлар органлари шахсий таркиби кадрлар билан таъминлаш соҳасидаги қонунчиликни, фаолият шакллари ва усулларини янада такомиллаштиришга доир таклифлар ишлаб чиқиш ва амалга ошириш асосий вазифалар сифатида белгиланган. Департаментнинг функцияларига эса кадрлар билан ишлаш бўлинмалари фаолиятини мувофиқлаштириш, комплекс таҳлил қилиш, баҳолаш, уларга амалий ва услубий ёрдам кўрсатиш борасида: кадрлар билан ишлаш бўлинмалари фаолияти устидан ташкилий-услубий раҳбарликни амалга ошириш ҳамда кадрлар билан ишлаш бўлинмаларининг яқин ҳамкорликда самарали ишлашини ташкил этиш ёхуд кадрлар билан ишлаш бўлинмалари фаолияти устидан идоравий назоратни амалга ошириш ва жойларга чиққан ҳолда, уларнинг ишларини ўрганиш, назорат текширувларини ўтказиш, аниқланган камчиликлар ва муаммоларни бартараф этиш чораларини кўриш кабилар кириши белгиланган.

Аслида ички ишлар органларида кадрлар сиёсатини амалга оширишнинг ҳуқуқий асослари бундан бошқа қонуности норматив-

ҳуқуқий ва локал ҳужжатлар билан ҳам тартибга солинади. Уларнинг саноғи бир неча ўнтани ташкил этади. Биз фақат мазмун ва моҳиятан уларнинг асосийлари таҳлилига тўхталдик. Умуман олганда, ички ишлар органлари ходимларининг кадрлар сиёсатини амалга оширишнинг таҳлил этилган асосларини мантиқан тушуниб ўзлаштириши, уларнинг ўз ҳуқуқ ва мажбуриятларини чуқур билиши билан бирга, соҳа ходимларининг кадрлар сиёсатини такомиллашувига ҳам хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент» “O‘zbekiston” нашриёти, 2023. – 3-бет.

2.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент» “O‘zbekiston” нашриёти, 2023. – 3-9-бетлар.

3.ЎзбекистонРеспубликаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й. 38-сон, 438-модда; 2017 й., 24-сон, 487-модда, 37-сон, 978-модда, Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.05.2019 й., 03/19/542/3177-сон, 2019 й., 2-сон 47-модда, 05.09.2019 й., 03/19/575/3972-сон, 25.12.2019 й., 03/19/597/4193-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон; 14.03.2022 й., 03/22/759/0213-сон, 01.06.2022 й., 03/22/772/0460-сон, 07.06.2022 й., 03/22/772/0477-сон; 28.10. 2022 й., 03/22/797/0967-сон.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 20 январдаги “Ички ишлар органларини халқчил профессионал тузилмага айлантириш ва аҳоли билан янада яқин ҳамкорликда ишлашга йўналтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-10-сон қарори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.01.2023 й., 07/23/10/0043-сон; 22.08.2023 й., 07/23/282/0631-сон.

XO‘JAMBERDIYEV FARRUX KOMILOVICH,
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA INSON, UNING HUQUQ VA ERKINLIKLARI OLIY QADRIYAT

Har qanday davlatda xavfsizlik siyosatining muvaffaqiyatli olib borilishi qonun hujjatlari holati va takomillashtirilishiga bevosita bog‘liq. Shunday ekan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi qonunchilik

hujjatlarini bosqichma-bosqich va tizimli takomillashtirib borish davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, “qonun – zamonaviy jamiyat huquqiy hayotining asosiy fenomeni va o‘zak yuridik tushunchasidir. O‘zida tizimlashgan ijtimoiy manfaatlarni ifodalagan holda qonun ijtimoiy munosabatlarning bosh tartibga soluvchisi, shaxs huquq va erkinliklarining kafili sifatida namoyon bo‘ladi. Qonun mazmunida va uni hayotga tatbiq etishda huquqiy mafkura namoyon bo‘ladi hamda huquqiy siyosat amalga oshiriladi”[1].

Shuni ta’kidlash joizki, mamlakat va uning ma’muriy-hududiy birliklarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, birinchi navbatda, huquqbuzarliklarning, jumladan, jinoyatlarning barvaqt oldini olishga xizmat qiladi.

2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi[2] da “Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish” ikkinchi yo‘nalishi doirasida huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish hamda jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini yaratish vazifasi alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

Ta’kidlash joizki, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash ham huquqiy demokratik davlat qurishning eng muhim mezoni hisoblanadi. Shu bilan birga, Taraqqiyot strategiyasi[2] asosida mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samaradorligi, tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois, bugungi kunda Konstitutsiyada norma sifatida mustahkamlangan davlat organlarining “xalq manfaatlari yo‘lida xizmat qilish” majburiyatining amalda amalga oshirish hozirgi kunda o‘ta muhim va dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda.

Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi unda xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganligidan dalolat bermoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Referendum ko‘p millatli buyuk xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga qat’iy qaror qilganligining ishonchli ifodasi bo‘ldi.

Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi — ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Mamlakatni demokratik yangilash, inson huquqlari va erkinliklari ishonchli himoyasining eng muhim kafolatlari sifatida **Konstitutsiya** va qonun **ustuvorligini** ta’minlashning **konstitutsiyaviy mexanizmlari** sezilarli darajada **mustahkamlandi.**

Bunda, asosiy qonun mamlakatning **butun hududida oliy yuridik kuchga ega**, **to‘g ʻridan-to‘g ʻri amal qilishi** va **yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishi**, O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va** uni ijro etish uchun qabul qilinishi, shuningdek **fuqarolar va yuridik shaxslar**, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, sudda ko‘rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o‘ziga nisbatan qo‘llanilgan **qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi shikoyat bilan** bevosita O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga **murojaat qilish huquqi**[4] belgilandi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Konstitutsiyada qarorlari **yakuniy va shikoyat qilinmaydigan Konstitutsiyaviy sudga** fuqarolarning **bevosita murojaat qilish** huquqini mustahkamlash inson huquqlari va erkinliklarining eng muhim kafolati bo‘lib xizmat qiladi, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlaydi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, inson va fuqaroning asosiy shaxsiy huquq va erkinliklarini ta’minlashning konstitutsiyaviy kafolatlari

kuchaytirildi. Xususan, O‘zbekistonda insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etilishi va kafolatlanishi, inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘lishi belgilab qo‘yildi. Shuningdek, Yangi Konstitutsiyada insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qilishi, qonunlarning, davlat organlari, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilashi, davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo ‘lishi kerak[4] ligini aks etuvchi normalar o‘z aksini topdi.

Mazkur eng muhim xalqaro-huquqiy prinsip Konstitutsiyaning huquq va erkinliklar to‘g‘risidagi qoidalari ijtimoiy munosabatlarga bevosita tartibga soluvchi ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Bunda qonunchilik hujjatlari huquq va erkinliklarni aniqlashtirish, ularni samarali amalga oshirish qoidalari, mexanizmlari va tartiblarini belgilash maqsadida qabul qilinganligidan qat’i nazar, huquq va erkinliklar bevosita amal qiladi deb tan olinadi.

Konstitutsiyada ilk marotaba har bir inson o‘z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega ekanligi va hech kimga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emasligini nazarda tutuvchi norma o‘z aksini topdi.

Bunda, insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkinligi belgilanmoqda[4].

Mazkur norma Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi[5] hamda Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda[6] belgilangan inson huquqlari va erkinliklarini cheklash shartlariga doir qoidalarga asosan kiritilganligini e’tirof etish maqsadga muvofiq.

Ushbu normalar fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning davlat kafolatlarini mustahkamlash imkonini yaratadi, shuningdek xorijda

yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirish, xalqaro maydonda O‘zbekiston Respublikasining ijobiy imidjini shakllantirish uchun sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz kerak-ki, bugungi kunda mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlar inson va fuqarolar uchun munosib sharoitlar yaratish, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilganini alohida ta’kidlash lozim. eng muhimi, Konstitutsiyada mustahkamlangan insonparvar huquqiy davlatni shakllantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Имамов А.Э. Механизм реализatsii закона в Республике Узбекистан: вопросы теории и практики: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Ташкент: Академия МВД, 2004. – С.9.
2. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы» от 28.01.2022 г. № УП-60 // lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. www.lex.uz (murojaat sanasi: 30.11.2023)
4. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларatsiяси. https://constitution.uz/uz/pages/humanrights (murojaat sanasi: 30.11.2023)
5. “Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида”ги халқаро пакт. www.lex.uz (murojaat sanasi: 30.11.2023)

АНАРКУЛОВ АЗИЗ,
заместитель наачальника кафедры экономических дисциплин,
кандидат экономических наук, доцент

НОВАЯ КОНСТИТУЦИЯ СТРАНЫ КЛЮЧ К НОВЫМ ГАРАНТИЯМ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕК

Конституция Республики Узбекистан - важный политико-правовой документ нашей страны, отражающий правовые основы прав и свобод граждан, государства и общества. Известно, что основная цель Конституции - построение гуманного демократического государства, основанного на верховенстве закона.

Правовое демократическое государство не может быть сформировано без граждан с высоким уровнем правосознания и правовой культуры.

Стоит подчеркнуть, что в целях сформировании граждан с высоким уровнем правосознания и правовой культуры выполнены значительные работы. В частности второе из семи приоритетных направлений стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, утвержденное Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», - превращение принципов справедливости и верховенства закона в основополагающее и необходимое условие развития страны, является ярким примером, приоритетными направлениями которого являются обеспечение верховенства закона и конституционной законности, а также определение чести и достоинства человека в качестве главного критерия данного процесса, развитие активного гражданского общества и формирование среди граждан чувства уважения к закону и законопослушания.[1]

Однако в первые годы независимости был принят ряд законов по этим вопросам, в том числе постановление Олий Мажлиса Республики Узбекистан «О Национальной программе повышения правовой культуры в обществе» и программа на ее основе.

Узбекистан уверенно идет по пути построения демократического правового государства и формирования справедливого гражданского общества, занимает прочные позиции в мировом сообществе. Стабильность и порядок, межнациональное согласие и гражданская сплоченность снискали доверие и уважение к молодому государству.

В стране развернулись широкомасштабные реформы в сферах экономики, политики, государственного строительства, правовой системы и духовного преобразования общества. Создана законодательная база осуществляемых реформ. Последовательно укрепляются и совершенствуются правовые основы общественно-политической жизни.

Поступательное движение общества и успех реформ во многом зависят от уровня правосознания и правовой культуры народа. Политическая активность личности, ее истинно гражданская позиция, восприимчивость к демократическим преобразованиям являются важнейшими факторами достижения намеченных целей.

Наряду с этим проведена системная работа по обеспечению прав человека, усилению подотчетности и открытости государственных органов, повышению роли институтов гражданского общества, средств массовой информации, политической активности населения и общественных объединений.

В направлении реформирования национальной экономики приняты действенные меры по либерализации внешнеторговой, налоговой и финансовой политики, поддержке предпринимательства и гарантированию неприкосновенности частной собственности, организации глубокой переработки сельскохозяйственной продукции, а также обеспечению ускоренного развития регионов.

Необходимо отметить, что высокая правовая культура является основой демократического общества и показателем зрелости правовой системы. Она является фактором, оказывающим активное воздействие на регулирование всего многообразия жизненных процессов в обществе, способствующим консолидации граждан, всех социальных групп, поддерживающим и укрепляющим целостность общества, порядок в нем. Уважение к закону является одним из основных требований правового общества, эффективного функционирования политической и правовой систем.

Правовая культура — неотъемлемая составная часть общей культуры. В сознании людей должно укорениться убеждение, что культурным и образованным может считаться только тот, кто обладает правовыми знаниями и умеет применять их на практике.

Современное состояние развития общества и государства требует всемерного повышения правовой культуры, правовой грамотности всех участников правоотношений. Правовая культура как сплав правового знания, правового убеждения и активной

практической деятельности призвана обеспечить успешное решение стоящих перед обществом и государством задач.

Поэтому, учитывая актуальность данного вопроса, 9 января 2019 года был принят Указ Президента Республики Узбекистан «О коренном совершенствовании системы повышения правосознания и правовой культуры в обществе» и «Концепция повышения правовой культуры в обществе».

Эта концепция включает в себе:

– формирование системы последовательного доведения до населения сути и значения осуществляемых в стране социально-экономических реформ, принимаемых актов законодательства и государственных программ, укрепление в сознании граждан жизненной идеи «Утверждение в обществе духа уважения к законам — залог построения демократического правового государства!»;

– повышение правосознания и правовой культуры в обществе с особым вниманием, прежде всего, к осуществлению системной и взаимосвязанной образовательно-воспитательной работы, глубокое утверждение правосознания и правовой культуры во всех слоях населения, начиная с системы дошкольного образования, широкую пропаганду идеи сохранения баланса личных и общественных интересов;

– глубокое утверждение в сознании молодого поколения понятий прав и обязанностей, честности и добросовестности, этических норм, обучение важным положениям Конституции с раннего возраста;

– организацию среди населения правовых просветительских мероприятий по формированию правовой культуры в гармоничном сочетании с изучением истории, религии, национальных ценностей нашего народа, а также усиление в каждом гражданине сопричастности к судьбе страны, патриотизма через формирование чувства гордости за государственные символы;

– повышение правосознания и правовой культуры государственных служащих, формирование у них нетерпимого отношения к коррупции и другим правонарушениям;

– укрепление взаимодействия органов государственной власти и управления, в том числе правоохранительных органов, а также институтов гражданского общества в осуществлении адресной правовой пропаганды;

– налаживание на системной основе широкого и эффективного использования принципов социального партнерства в организации мероприятий по повышению правосознания и правовой культуры в обществе;

– усиление роли средств массовой информации в обеспечении правовой информацией, широкое применение инновационных методов правовой пропаганды, в том числе расширение использования современных информационных технологий;

– совершенствование юридического образования, а также развитие системы подготовки, переподготовки и повышения квалификации юридических кадров;

– глубокое исследование научных основ повышения правосознания и правовой культуры в обществе.[3]

Известно, что обеспечение верховенства Конституции и закона является важнейшим критерием построения правового демократического государства в нашей стране.

Эффективность широкомасштабных реформ, осуществляемых в стране, основная гарантия мира и прогресса также непосредственно связаны с обеспечением верховенства Конституции и закона. Поэтому чрезвычайно важной и актуальной задачей становится создание среды, в которой соотечественники, а в первую очередь руководители, работающие во всех отраслях и сферах нашей жизни, граждане обязаны хорошо знать Конституцию и законы, правильно организовывать их исполнение, все члены общества без исключения должны строго их соблюдать.

Именно этого также требует отображение в основе обновлений и преобразований, осуществляемых в нашей стране ускоренными темпами, такой благородной цели, как воплощение на практике закрепленной прежде всего в Конституции нормы об обязательстве государственных органов служить интересам народа.

В данном направлении имеет важное значение принятие множества новых законов и подзаконных актов для обеспечения исполнения задач, определенных в Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан.

В то же время обеспечение верховенства Конституции и закона требует эффективной борьбы против негативных последствий правонарушений, а также формирования действенной системы, направленной на раннее предотвращение таких случаев.

Повышение правосознания и правовой культуры в обществе имеет чрезвычайно важное значение в укреплении законности, что ставит на повестку дня в качестве важнейшей задачи формирование у каждой личности уважительного отношения к законам, правам и свободам человека, а также создание атмосферы нетерпимости к правонарушениям.

Вместе с тем в достижении верховенства Конституции и закона особое значение также имеют внедрение действенных форм общественного контроля, недопущение притеснения в любой форме законных прав представителей средств массовой информации.

В целях усиления эффективности проводимых реформ, безусловного обеспечения верховенства закона, повышения правосознания и правовой культуры в обществе, внедрения эффективных форм общественного контроля в развитии гражданского общества, а также расширения участия средств массовой информации в этих процессах утверждена «Программа мер по обеспечению верховенства Конституции и закона, усилению общественного контроля в данном направлении, а также повышению правовой культуры в обществе», основными целями которого являются:

– обеспечение верховенства Конституции и закона, полного соответствия законам решений государственных органов и действий должностных лиц, эффективная организация исполнения законов;

– поднятие на новый этап работ по повышению правосознания и правовой культуры в обществе, доведение до широких масс правовой информации посредством современных методов, формирование у

каждого гражданина и должностных лиц чувства уважения к Конституции и законам;

– в целях достижения верховенства Конституции и закона совершенствование механизмов общественного контроля за деятельностью государственных ведомств, оказание поддержки независимым и объективным средствам массовой информации, дальнейшее развитие институтов гражданского общества;

– дальнейшее совершенствование системы правосудия, повышение авторитета и обеспечение подлинной независимости судебной власти;

– усиление принципов открытости и гласности в государственном и общественном управлении, повседневной деятельности государственных органов, превращение правоохранительных органов в служащие интересам народа ведомства;

– дальнейшее укрепление в качестве высшей ценности человека, его жизни, свободы, чести, достоинства и других неотъемлемых прав, определенных в Конституции и законах, гарантирование неприкосновенности собственности. [4].

Принятие Конституции Республики Узбекистан в новой редакции на проведенном в нашей стране 30 апреля 2023 года референдуме 90,21 процента голосов участвовавших граждан свидетельствует об отражении в ней надежд и устремлений нашего народа на пути построения Нового Узбекистана.

Конституция в новой редакции создала политико-правовые основы реализации Стратегии Нового Узбекистана, определила приоритетные направления дальнейшего развития государства и общества на исторически важном этапе совершенствования национальной государственности.

Референдум стал убедительным проявлением единства и сплоченности нашего многонационального великого народа, его твердого решения построить суверенное, демократическое, правовое, социальное и светское государство.

В частности, в Конституции определено, что новой стратегической целью государственного строительства является

построение гуманного демократического государства, открытого и справедливого общества, в котором высшей ценностью является человек, его жизнь, свобода, честь и достоинство[4], а также внедрены принципы социальной справедливости и единства, закреплены конституционные основы, предусматривающие абсолютно новые механизмы защиты прав и свобод человека.

С учетом современной концепции принципа разделения властей и системы сдержек и противовесов перераспределены полномочия между Олий Мажлисом, Президентом Республики Узбекистан и Правительством. Предусмотрена новая модель организации государственной власти, основанной на распределении полномочий хокимов и Кенгашей народных депутатов на местах.

Делая вывод необходимо отметить, что радикальные реформы во всех сферах жизни государства и общества в нашей стране, проводимые сегодняшние дни направлены на создание достойных условий для людей и граждан, повышение их правосознания и правовой культуры и, самое главное, формирование гуманного правового государства, закрепленного в Конституции. Опыт большинства развитых стран мира показывает, что гуманное демократическое правовое государство не может быть сформировано в короткие сроки и без определенных условий. Для построения такого государства, прежде всего, необходимо создание справедливой правовой системы в обществе, устранение правового нигилизма, высокая правовая грамотность и правовая культура, а также организации целенаправленной и эффективной работы государственных и негосударственных органов на благо общества.

Иқтибослар/Сноски/References

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы» от 28 января 2022 года.

2. Национальная база данных законодательства, 10.01.2019 г., № 06/19/5618/2452, 11.12.2019 г., № 06/19/5892/4134.

3. Национальная база данных законодательства, 14.12.2019 г., № 07/19/4551/4162.

4. Конституция Республики Узбекистан. (дата обращения: 02.12.2023 г.)

ASHUROVA NILUFAR O‘KTAMOVNA,
Jinoiy-huquqiy fanlar kaferdrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

KONSTITUTSIYADA JINOIY JAZOLARNI LIBERALLASHTIRISH MASALALARI

Ma’lumki, mamlakatimizda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash demokratik huquqiy davlat barpo etishning bosh mezoni bo‘lib kelmoqda.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun ham hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida mehnat qilayotgan insonlar, birinchi navbatda, rahbar xodimlar, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarni puxta bilishi, ularning ijrosini to‘g‘ri tashkil etishi, bu qoidalarga butun jamiyat a’zolari qat’iy amal qilishi shart bo‘lgan muhitni yaratish g‘oyat muhim va dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Mamlakatimizda jadal sur’atlar bilan olib borilayotgan o‘zgarish va yangilanishlar negizida, avvalambor, Konstitutsiyamizda belgilangan davlat organlarining xalq manfaatlariga xizmat qilishi lozimligi haqidagi qoidani amalda tatbiq etishdek ezgu maqsad mujassam ekani ham aynan shuni taqozo etmoqda.

Ayni vaqtda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash qonun buzilishi bilan bog‘liq salbiy oqibatlarga qarshi samarali kurashishni hamda bunday holatning barvaqt oldini olishga qaratilgan ta’sirchan tizimni shakllantirishni talab etmoqda.

Qonuniylikni mustahkamlashda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu har bir shaxsda qonunlarga, inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishni hamda huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirishni kun tartibiga eng asosiy masala qilib qo‘ymoqda.

Shu bilan birga, Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga erishishda jamoatchilik nazoratining ta’sirchan shakllarini joriy etish, ommaviy axborot vositalari vakillarining qonuniy haq-huquqlariga har qanday shaklda tazyiq o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaslik ham alohida ahamiyatga egadir.

Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi unda xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganligidan dalolat bermoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Referendum ko‘p millatli buyuk xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga qat’iy qaror qilganligining ishonchli ifodasi bo‘ldi.

Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi — ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi hamda o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining zamonaviy konsepsiyasini hisobga olgan holda, Oliy Majlis, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati o‘rtasida vakolatlar qayta taqsimlandi. Joylarda hokimlar va xalq deputatlari Kengashlari vakolatlari taqsimlanishiga asoslangan davlat hokimiyatini tashkil etishning yangi modeli nazarda tutildi.

Ta’kidlash joizki, dunyoda qaysi davlat bo‘lmasin, ular fuqarosini o‘z hududidan majburan chiqarib yubormaslik yoki boshqa davlatga berib yubormaslik majburiyatini olgan. Xususan, O‘zbekistonning Yangi Konstitutsiyasining
23-moddasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emasligi belgilab o‘tilgan[1].

Zero, **1930-yillarda 5,5 mingdan** ziyod oilalar siyosiy tuzumning qurbonlariga aylanib, **“quloq”** qilinganligi, zo‘ravonlik bilan o‘z Vatanidan, qarindosh-urug‘laridan judo etilganligi ham bor haqiqat. Shuning uchun butun jahon afkor-ommasi hech kim o‘z yashab turgan mamlakatidan erki-xohishiga zid ravishda siyosiy, diniy, milliy, mafkuraviy, madaniy va boshqa qarashlari yoki faoliyatini asos qilib majburiy chiqarib yuborilmasligini belgilaydi. O‘z fuqarosini o‘zga davlatda sodir etgan jinoyati uchun o‘sha davlatga ushlab berilmasligi xalqaro huquqda umume’tirof etilgan qoidaga aylangan. Shu bilan birga, xalqaro shartnomalarga asosan, davlatlar o‘z fuqarolarini ushlab berishni rad etishi jinoyatchini jazosiz qolishini anglatmaydi.

Xolbuki, mazkur yangi norma fuqarolarimizni doimiy ravishda davlat himoyasida ekanligiga ishonchini mustahkamlashga, o‘z yurtidan chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga **berib yuborilishi** kabi holatlarning oldini olishga xizmat qiladi, davlat va uning mas’ul organlarining o‘z fuqarolari taqdiriga befarq emasligini namoyon etadi.

Konstitutsiyasining 23-moddasining 3-qismida Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to‘g‘risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g‘amxo‘rlik qilishi belgilab o‘tilgan[1].

Vatanimizda tug‘ilgan, yashagan, hozirda esa xorijda yashayotgan, O‘zbekiston fuqarosi bo‘lmagan shaxslar – vatandoshlar ham o‘zini jonajon mamlakatimiz ahil va inoq oilasining ajralmas bo‘lagi sifatida his etadi. Davlatning vatandoshlar haqida g‘amxo‘rlik qilish majburiyatining Konstitutsiya darajasida belgilanishi ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan jamiyat va davlat manfaatdor ekanligini anglatadi.

Bir qator davlatlarda xorijdagi vatandoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanadi. Mazkur norma O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘si va ijobiy imijini mustahkamlashga, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, shuningdek, turli davlatlarda yashayotgan, ishlayotgan, o‘qiyotgan vatandoshlarimiz bilan aloqalarni

rivojlantirishga hamda o‘zlarining tarixiy Vatani – O‘zbekistonning obro‘sini yanada oshirishga o‘z hissasini qo‘shishga imkon beradi.

Zero, O‘zbekiston barchamizniki. **Komil insonda Vatan bitta bo‘ladi**, bu ham bo‘lsa uning kindik qoni to‘kilgan, u yashab faoliyat yuritayotgan muqaddas zaminidir.

O‘zbekiston Respublikasi sud-huquq tizimini isloh qilishning eng muhim vazifasi jinoyat, jinoyat-protsessual qonun hujjatlari, jinoiy jazo tizimini izchillik bilan bosqichma-bosqich liberallashtirish hisoblanadi.

So‘nggi yillarda qabul qilingan “Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga, sudlar to‘g‘risidagi, prokuratura to‘g‘risidagi qonunlarga, boshqa bir qancha qonun hujjatlariga muvofiq jinoyatlarning tasniflanishi o‘zgartirildi, o‘ta og‘ir jinoyatlar jumlasiga kiritilgan jinoyatlar ro‘yxati kamaytirildi, sodir etilgan jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan muqobil jazo turlari, yarashuv instituti joriy etildi. Jinoiy jazolar tizimini liberallashtirishga qaratilgan boshqa bir qancha dasturiy chora-tadbirlar qabul qilindi.

Jinoyatga oid siyosatda, huquqni qo‘llash amaliyotidagi tub o‘zgarishlar mamlakatda ijtimoiy-siyosiy, kriminogen vaziyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yashash huquqi har bir insonning ajralmas va tabiiy huquqi hisoblanadi. O‘zbekistonda 2008-yildan barcha jinoyatlar uchun o‘lim jazosi bekor qilingan. Lekin, Konstitutsiyada emas, balki jinoyat qonunchiligida o‘z aksini topgan edi. O‘lim jazosini taqiqlashni konstitutsiyaviy darajada belgilanishi insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligini kafolatlaydi. Ushbu norma bilan davlatimiz bu o‘ta jiddiy masalada hech qachon ortga qaytmasligini, insonparvarlik g‘oyalariga sodiq ekanligini butun dunyoga namoyon qiladi.

Misol sifatida, bugungi kunda 106 ta davlatda (Kanada, Argentina, Daniya, Fransiya, Italiya, Norvegiya, Shvesiya, Bolgariya, Polsha va boshqa) o‘lim jazosi barcha jinoyatlar uchun bekor qilingan. Ayrim

davlatlar o‘z tajribasida o‘lim jazosini qonunlar bilan bekor qilsa-da, Konstitutsiyasida bo‘lmaganligi bois, uni jazo sifatida qayta tiklash holatlari ham kuzatilgan. Shuningdek, sudlar ham xatolarga yo‘l qo‘yishi xavfini inkor etib bo‘lmaydi. Shunday ekan, o‘lim jazosi tayinlangan shaxsga sud kelgusida oqlov hukmi chiqaradigan bo‘lsa, nohaq ayblangan inson hayotini ortga qaytarishning hech qanday imkoni yo‘q!

Shu nuqtai nazardan, Konstitutsiyamizga kiritilayotgan O‘zbekistonning qat’iy pozitsiyasi mamlakatimizda inson hayoti va qadri yuqori darajada himoya qilinishini yana bir bor tasdiqlaydi. Konstitutsiyamizga kiritilayotgan mazkur qoida mamlakatimizda inson hayoti va qadri yuqori darajada himoya qilinishini yana bir bor tasdiqlaydi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotimizda mazkur jazo turini qaytarish va qo‘llash bo‘yicha har qanday tashabbuslarni qat’iy ravishda cheklaydi. Pirovardida, har bir inson, hatto u jinoyat sodir etgan bo‘lsa ham, uning yashash huquqini kafolatlanishiga xizmat qiladi.

Konstitutsiyasining 27-moddasida Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, **ushlab turilishi, qamoqqa olinishi,** qamoqda saqlanishi yoki **uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi** mumkin emas. **Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yilishi** belgilab o‘tilganligi[1], mamlakatda adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Zero, inson huquqlarini sud orqali himoya qilish bo‘yicha muhim institutlardan biri **“Xabeas korpus akt”** – shaxs erkinligini cheklash bilan bog‘liq har qanday harakat faqatgina sudning qarori asosida amalga oshirilishi shartligi talabidir. Bu qoida shaxsiy erkinlik daxlsizligini kafolatlab, tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan.

Bu yangi normaning ahamiyati shundaki, sud-tergov jarayonlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlarni noqonuniy harakatlardan tiyib turishga, shaxsni asossiz hibsga olinishi holatlarini bartaraf etishga, natijada tergov davomida insonning ozodligini cheklash bilan bog‘liq bo‘lgan xatolarga yo‘l qo‘yilmasligiga xizmat qiladi. Natijada, jinoyat ishi yurituvida insonning qadr-qimmati, shaxsiy hayoti daxlsizligi, qonunga va

sudga ishonchi, emin-erkin harakat qilish huquqi mustahkam kafolatlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, yangilanayotgan Konstitutsiya eski tuzumdan meros bo‘lib qolgan sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar fuqarolarni jazolovchi yondashuvidan inson huquqlarini hurmat qiluvchi va himoyalovchi, poymol qilingan huquqlarni tiklovchi, rag‘batlantiruvchi yondashuviga o‘zgartirmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston xalqining irodasi bilan qabul qilingan Yangi Konstitutsiyasi “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida chinakam adolatli qonunchilik tizimini shakllantirish bunda xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo‘naltirish, adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, fuqarolarga o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qila olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sud ishlarini yuritishda tortishuv va taraflarning tengligi tamoyillarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. www.lex.uz (murojaat sanasi: 30.11.2023).

ТЛЕУБАЕВ ЕРПОЛАТ НАЖИМОВИЧ
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети
магистратура тингловчиси

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ КОНСТИТУЦИЯСИДА ФУҚАРОЛАРНИНГ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ ВА УНДА ИШТИРОК ЭТУВЧИ СУБЪЕКТЛАРНИНГ ВАЗИФАЛАРИ

Аннотация: Тезисда конституцияда фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш, бу йўналишда Миллий гвардия ва Фавқулодда вазиятлар вазирлиги бўлинмалари вазифалари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: конституция, жамоат хавфсизлиги, фуқароларнинг шахсий хавфсизлиги, фавқулодда ҳолат, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Миллий гвардия ва бошқалар.

Аннотация: В тезисе проанализированы задачи Национальной гвардии и подразделений Министерства по чрезвычайным ситуациям

по обеспечению безопасности граждан в Конституции

Ключевые слова: конституция, общественная безопасность, личная безопасность граждан, чрезвычайное положение, Министерство по чрезвычайным ситуациям, Национальная гвардия и другие.

Annotation: The thesis analyzes the tasks of the National Guard and units of the Ministry of Emergency Situations to ensure the safety of citizens in the Constitution.

Key words: constitution, public safety, personal safety of citizens, state of emergency, Ministry of Emergency Situations, National Guard and others.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар инсоннинг шаъни, қадр-қиммати, ҳуқуқ ва эркинликлари бундан буён барча соҳаларда устувор аҳамият касб этишини қатъий қоидага айлантириш, бир сўз билан айтганда, “Инсон – жамият – давлат” деган ёндашув ва бугунги ислоҳотларнинг бош тамойили бўлган “Инсон қадри учун” ғояси асосида амалга оширилмоқда.

Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 2023 йил 30 апрель куни ўтказилган Ўзбекистон Республикаси референдумида умумхалқ овоз бериш орқали қабул қилиниб, жорий йилнинг 1 май санасидан кучга кирди. Унинг моддалари 128 тадан 155 тага кўпайиб, нормалари 275 тадан 434 тага, яъни 65 фоиздан кўпроққа ошди.

Конституцияда Ўзбекистон – суверен, демократик, ҳуқуқий ва ижтимоий давлат экани қатъий белгилаб қўйилмоқда.

Ўзбекистон ўзини ижтимоий давлат деб эълон қилиши билан, ҳар бир фуқаросига муносиб турмуш кечириши учун шарт-шароит яратиш мажбуриятини олмоқда. Бу – мавжуд ресурсларни ижтимоий адолат тамойиллари асосида тақсимлаш, жамиятда кучли табақаланиш авж олишига йўл қўймаслик, энг заиф қатламлар учун ҳам сифатли таълим ва тиббиёт кафолатланиши, самарали ижтимоий ҳимоя дастурлари ишлаши, имконияти чекланган ва қўлловга муҳтож фуқароларни қўллаб-қувватлаш, адолатли меҳнат қонунчилиги ва

жозибадор пенсия тизими кабиларни англатади. Оддийроқ айтганда, энг камбағал оиланинг болаларида ҳам соғ-саломат ўсиб-улғайиб, яхши таълим олиб, фаровонликка эришиш имконияти бўлиши керак.

Конституциянинг 109-моддаси 19-бандида Ўзбекистон Республикаси Президенти “Алоҳида ҳолларда (реал ташқи хавф, оммавий тартибсизликлар, йирик ҳалокат, табиий офат, эпидемиялар) фуқароларнинг хавфсизлигини таъминлашни кўзлаб, Ўзбекистон Республикасининг бутун ҳудудида ёки унинг айрим жойларида фавқулодда ҳолат жорий этади ва қабул қилган қарорини уч кун ичида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг палаталари тасдиғига киритади”[1] деб белгилаб қўйилган.

Фавқулодда ҳолат – Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг, чет эл фуқароларининг ҳамда фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларига, шунингдек юридик шахсларнинг ҳуқуқларига нисбатан ушбу Конституциявий Қонунда назарда тутилган айрим чекловлар белгилашга йўл қўядиган ҳамда уларнинг зиммасига қўшимча мажбуриятлар юклайдиган, Ўзбекистон Республикаси Конституциясига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг бутун ҳудудида ёки айрим жойларида вақтинча жорий қилинадиган давлат бошқаруви органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, нодавлат нотижорат ташкилотлари ҳамда ташкилий-ҳуқуқий ва мулкчилик шаклидан қатъи назар, бошқа ташкилотлар, уларнинг мансабдор шахслари фаолиятининг алоҳида ҳуқуқий режими.[2]

Фавқулодда ҳолат Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ҳаётига, соғлиғига ва хавфсизлигига, Ўзбекистон Республикасининг конституциявий тузумига ва (ёки) ҳудудий яхлитлигига бевосита таҳдид соладиган ҳамда фавқулодда чоралар қўлламасдан бартараф этиш мумкин бўлмаган ҳолатлар мавжуд бўлган тақдирда, алоҳида ҳолларда жорий этилади. Бундай ҳолатлар жумласига қуйидагилар киради:

– реал ташқи хавф, Ўзбекистон Республикасининг конституциявий тузумини ва (ёки) ҳудудий яхлитлигини зўрлик

билан ўзгартиришга уринишлар, оммавий тартибсизликлар, террорчилик ҳаракатлари, шунингдек зўравонлик ҳаракатлари билан бир вақтда юз берадиган, фуқароларнинг ҳаётига, соғлиғига ва хавфсизлигига, давлат органларининг, бошқа ташкилотларнинг кундалик фаолиятига бевосита таҳдид солувчи ўта муҳим ҳамда тоифаланган объектларни ёки айрим жойларни тўсиш ёки босиб олиш, қонунга хилоф қуролли тузилмаларни тайёрлаш (ташкил этиш) ва уларнинг фаолияти, миллатлараро, конфессияларо ва чегаравий низолар;

– кенг қамровли авария-қутқарув ишлари ва бошқа кечиктириб бўлмайдиган ишлар амалга оширилишини талаб этадиган йирик ҳалокатлар, табиий офатлар, эпидемиялар ҳамда бошқа табиий ва техноген хусусиятга эга фавқулодда вазиятлар, фавқулодда экологик вазиятлар.[3]

Фавқулодда ҳолат режимини таъминловчи субъектларга қуйидагилар киради:

– Ички ишлар вазирлиги:
– Миллий гвардия;
– Давлат хавфсизлик хизмати;
– Фавқулодда вазиятлар вазирлиги;

Ўзбекистон Республикасининг Фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва ҳаракат қилиш давлат тизимига кирувчи бошқа давлат органлари ҳамда ташкилотлари.

Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси ва Фавқулодда вазиятлар вазирлиги ҳамда тегишли вазирликлар жамоат тартибини, ўта муҳим ва тоифаланган объектларни ҳамда аҳолининг ҳаёт фаолиятини ва транспортнинг ҳаракатланишини таъминловчи объектларни муҳофаза қилишни кучайтириш вазифаларини амалга оширади. Фуқаролар ўз фуқаролик позициясидан келиб чиққан ҳолда, киритилган чекловлар ва фавқулодда чораларга бўйсуниши талаб этилади.

Бунда асосий кўзланган мақсад, Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг хавфсизлигини ҳамда Ўзбекистон Республикасининг конституциявий тузуми ва ҳудудий яхлитлиги ҳимоя қилинишини таъминлаш, шунингдек фавқулодда ҳолатни жорий этиш учун асос бўлиб хизмат қилган ҳолатларни бартараф этишдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Т-2023. // Lex.uz
2. Ўзбекистон Республикасининг “Фавқулодда ҳолат тўғрисида” конституциявий қонуни 2021 йил 15 декабрь, ЎРҚ-737-сон. // Lex.uz
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва бундай вазиятларда ҳаракат қилиш давлат тизими фаолиятини самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 171-сон қарори.

XO‘JAMBERDIYEV FARRUX KOMILOVICH,
Jinoiy-huquqiy fanlar kaferdrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH TIZIMINING KONSTITUTSIONAL ASOSLARI

Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimining muammolarini hal etishning hozirgi bosqichida davlatda jamoat xavfsizligini ta’minlash siyosatining huquqiy-tashkiliy jihatlarini takomillashtirish sohasida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada, ayniqsa, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasini takomillashtirish chora-tadbirlarini o‘z ichiga olgan samarali vositalarni ishlab chiqish, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasini huquqiy tartibga solish, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida faol vatanparvar fuqarolarni rag‘batlantirish, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni o‘zaro uyg‘unlashtirish, jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlar orqali davlat xavfsizligi sohasidagi huquqiy mexanizmni takomillashtirishning ilmiy-nazariy va amaliy yechimini topish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatning bosh qomusi, asosiy qonuni sifatida milliy qonunchilik, shu jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi qonunchilikning rivojlanishi, xususan, tizimlashtirilishi uchun muhim huquqiy asos hisoblanadi.

Konstitutsiyaning Asosiy qonun sifatida normativ-huquqiy hujjatlar tizimidagi ustuvor o‘rin egallashi, avvalambor, Konstitutsiyamizning o‘zida, xususan, uning 15-moddasidagi O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan

olinishi hamda 16-moddasi ikkinchi qismidagi Birorta qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emas[1]ligi to‘g‘risidagi qoida mazmunidan kelib chiqadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq norma O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning “Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” nomli ikkinchi bo‘limi 21-moddasining 3-qismida aks etgan bo‘lib, unga muvofiq insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin[1]ligi belgilab o‘tilgan.

Mazkur norma Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi[2] hamda Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda[3] belgilangan inson huquqlari va erkinliklarini cheklash shartlariga doir qoidalarga asosan kiritilganligini e’tirof etish maqsadga muvofiq.

Ushbu normalar fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning davlat kafolatlarini mustahkamlash imkonini yaratadi, shuningdek xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirish, xalqaro maydonda O‘zbekiston Respublikasining ijobiy imidjini shakllantirish uchun sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash joizki, kodifikatsiyalash natijasida yangi qonun hujjati yaratilishi ko‘zda tutiladigan bo‘lsa, u konstitutsiyaviy talablarni kafolatlashga qaratilgan normalarni qamrab olishi lozim bo‘ladi. Ya’ni, “huquq ijodkorligi faoliyati Konstitutsiyani amalga oshirishning huquqiy vositasi hisoblanadi” .

Holbuki qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish huquqiy tizim amal qilishining, muntazam rivojlanib borishining sharti hamda amaldagi qonunchilik hujjatlarini tartibga solish, mantiqiy umumlashtirishning shaklidir[4]. Mavjud qonunchilik hujjatlarini kodeks shaklida tartibga solingan hujjatlar bilan almashtirib borish, qonunlar majmuini yaratish, mamlakat huquqiy klassifikatorini takomillashtirish, shuningdek, qonunchilik resurslaridan foydalanish tizimini zamonaviy global elektron axborot tarmog‘i imkoniyatlari bilan ta’minlashga qaratilgan yaxlit, uzluksiz ilmiy-nazariy hamda amaliy faoliyatdir.

Konstitutsiyaning 33-moddasida ilk bor davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi haqida konstitutsiyaviy normaning kiritilishi o‘z o‘rinida mazkur tarmog‘dan foydalanish insonning uzviy huquqi ekanligini belgilab berdi. Ta’kidlash joizki, 2011-yil 3-iyundagi Rezolyusiyasiga muvofiq BMT Internetdan foydalanish huquqini insonning ajralmas huquqlaridan biri sifatida e’tirof etadi. Demak, ayrim hududlarni internetdan uzib qo‘yish inson huquqlarini buzilishi holati yuzaga kelishi mumkin. Zero, internetga kirish bir qancha mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq insonning ajralmas huquqi sifatida tan olingan. Xususan, 2000-yilda Estoniya parlamenti Internetga kirishni insonning ajralmas huquqi sifatida tan olgan qonunni qabul qildi. 2009-yil iyun oyida Fransiya Konstitutsiyaviy Kengashi Internetga kirishni insonning ajralmas huquqi deb tan oldi. 2010-yil 1-iyuldan boshlab Finlyandiya hukumati har bir fuqaroning internetga kamida 1 Mbit/s, 2015-yildan esa kamida 100 Mbit/s tezlikda kirish huquqiga ega bo‘lishini ta’minlash majburiyatini oldi[5].

B.P. Kondrashovning ta’kidlashicha, “fuqaro va shaxsning jamoat xavfsizligi sohasidagi huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini kafolatlash bo‘yicha huquqiy normalar muhim tartibga soluvchi rol o‘ynaydi” [6]. Shu bois, fuqaro o‘zining huquqiy savodxonligi darajasidan kelib chiqib, huquqlarining buzilishiga oid tegishli huquqiy normani qidirib topa olmasligi mumkin. Fikrimizcha, jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida fuqarolarning huquqlari va burchlari bilan bog‘liq normalarni qonunchilik tizimida alohida bo‘lim sifatida ajratish maqsadga muvofiq.

Zero, fuqaroning o‘zi izlagan qonunni tez va oson topishiga erishish qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirishning eng asosiy maqsadidir[7].

Normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish davlat mexanizmi va huquqiy tizim jo‘shqin maromda ishlashining zaruriy shartidir[7]. Shu bois, mamlakatimizda mavjud jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq qonunchilikni tizimlashtirish jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini oqilona yo‘lga qo‘yish uning nazariy va metodologik asoslari hamda mukammal mexanizmini ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 apreldagi PF-6218-son Farmoni[8]ga asosan “2022 – 2025

yillarda normativ-huquqiy hujjatlarni qonunchilik tarmoqlari bo‘yicha tizimlashtirish dasturi” ishlab chiqilgan. Dasturga muvofiq jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini muhofaza qilish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish 2025 yil II choragigacha amalga oshirish rejalashtirilgan.

Fikrimizcha, qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish orqali demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishda Konstitutsiya va qonun ustuvorligi, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishga hamda hokimiyatlarning o‘zaro muvozanati va hamkorligini ta’minlovchi mexanizmning shakllanishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. www.lex.uz (murojaat sanasi: 30.11.2023)
2. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. https://constitution.uz/uz/pages/humanrights (murojaat sanasi: 30.11.2023)
3. “Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида”ги халқаро пакт. www.lex.uz (murojaat sanasi: 30.11.2023)
4. Марченко, М.Н. Проблемы общей теории права и государства/Под. общ. ред. проф. В.С. Нерсесянца.– М., 2008. – С. 347; Теория права / Под. ред. проф. М.Н. Марченко. – М., 1998. – С. 197–198.
5. https://legalclinic.uz/digrights_ru/tpost/3aa4tk1b11-pravo-na-internet (murojaat sanasi 03.12.2023-yil).
6. Кондрашов, Б.П. Общественная безопасность и административно-правовые средства её обеспечения. Дис. д-ра юрид. наук: 12.00.02. -М.: РГБ, 2003 (Из фондов Российской Государственной библиотеки).
7. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – T: “Adolat”, 2018. – B. 329.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-aprel kunidagi “Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6218-son Farmoni // lex uz. (murojaat sanasi 04.09.2022-yil).

MUNDARIJA

KIRISH 4

МИРЗАЮСУП РУСТАМБАЕВ, ***..... 6***

ИНСОН ҲУҚУҚИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ АСОСЛАРИ 6

РОБАХОН МАХМУДОВА, ***..... 13***

ОДИЛ СУДЛОВНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИ НОРМАЛАРИНИНГ ТЎҒРИДАН-ТЎҒРИ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ: ДАСТЛАБКИ НАТИЖАЛАР ТАҲЛИЛИ 13

ЭРКИН САЛИХОВ ***..... 19***

ГРАЖДАНСКИЙ КОНТРОЛЬ НАД ВООРУЖЕННЫМИ СИЛАМИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НАЦИОНАЛЬНЫЙ ОПЫТ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ 19

ДЖАХОНГИР ШИРИНОВ ***..... 26***

НОДАВЛАТ НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРИ ҲУҚУҚЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ 26

OYBEK TURG‘UNOV ***..... 35***

KONSTITUTSIYA – FUQAROLARNING SIYOSIY HUQUQLARI KAFOLATI 35

ОЗОД ХУСАНОВ ***..... 43***

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЯНГИ ТАҲРИРДАГИ КОНСТИТУЦИЯСИ ВА “КОНСТИТУЦИЯВИЙ ҲУҚУҚ” ФАНИ ОЛДИДАГИ ВАЗИФАЛАР. 43

DAVRON AXMEDOV ***..... 49***

YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA DEMOKRATIK PRINSIPLARNING USTUVORLIGI VA XALQ MANFAATLARI BEVOSITA OLIY QADRIYAT SIFATIDA 49

МУҲАММАДИ УСМОНОВ, ***..... 59***

ФУҚАРОЛАРНИНГ ҚУЛАЙ АТРОФ ТАБИИЙ МУҲИТГА ЭГА БЎЛИШ ҲУҚУҚИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ КАФОЛАТЛАРИ 59

АХТАМ ТУРСУНОВ, ***..... 68***

ШЕРЗОД ЗУЛФИҚАРОВ, ***68***
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИДА САЙЛОВ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ 68
РУСТАМ РЎЗИЕВ, ***82***
ХУСУСИЙ МУЛК ДАХЛСИЗЛИГИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ ҲУҚУҚИЙ КАФОЛАТИ ХУСУСИДА 82
ШУҲРАТ ЁҚУБОВ, ***91***
КОНСТИТУЦИЯВИЙ ИСЛОҲОТЛАР: ИНСОН КАПИТАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ДАВЛАТНИНГ ИШТИРОКИ..... 91
МУБОРАК УСМАНОВА, ***100***
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИ – ИЖТИМОИЙ ДАВЛАТНИНГ ҲУҚУҚИЙ КАФОЛАТИ 101
М.Б.ЮСУПОВ, ***109***
КОНСТИТУЦИЯ УСТУНЛИГИ ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ КАФОЛАТИ СИФАТИДА..... 109
AYUB MUXAMMADIYEV, ***118***
YETIM VA OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARNING HUQUQ VA MANFAATLARI JAMIYAT VA DAVLAT HIMOYASIDA 118
ЭШМУҲАММАД ҚОДИРОВ, ***124***
КОНСТИТУЦИЯВИЙ ИСЛОҲОТЛАР - ЁШЛАРГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСИ 124
МАВЛЮДА АБДУЛЛАЕВА, ***133***
ОСОБЕННОСТИ ЭКОНОМИКИ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА 133
TO‘LQIN KARIMOV, ***139***
PARLAMENT NAZORATI INSTITUTI HUQUQIY ASOSLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI 139
TAVAKKAL CHORIYEV, ***147***
ALISHER XURSANDOV, ***147***

KONSTITUSIYA – DYEMOKRATIK HUQUQ VA ERKINLIKLARNING YAGONA HUQUQIY MAKONI 147
СОДИҚ ЮЛДАШОВ, ... 153
МУРОЖААТ ҚИЛИШ ҲУҚУҚИ ИНСТИТУТИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ КАФОЛАТЛАРИ..... 153
ЖАҲОНГИР УРМОНОВ, ... 161
ЎЗБЕКИСТОНДА СОЛИҚ ВА ЙИҒИМЛАР АДОЛАТЛИ БЎЛИШИ – КОНСТИТУЦИЯДА ҲУҚУҚИЙ МУСТАҲКАМЛАНДИ..... 161
XUSHNUDBEK OLIMJONOV, ... 170
S.YAMANQULOV,..... 170
KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARNING IJTIMOIY MUNOSABATLARGA TA’SIRI..... 170
АЛИШЕР ЭРАНОВ, ... 178
ДАВЛАТ ХИЗМАТИДА САМАРАДОРЛИГИНИ БОШҚАРИШ ТИЗИМИ ҲАМДА УШБУ БОРАДА БИРЛАШГАН АРАБ АМИРЛИКЛАРИ ТАЖРИБАСИ ТАҲЛИЛИ..... 178
Ш.ТУРДАЛИЕВ,..... 192
ЯНГИ ТАҲРИРДАГИ КОНСТИТУЦИЯДА МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ТАКОМИЛЛАШМОҚДА 192
ANVARJON MIRKAMILOV, ... 199
O‘ZBEKISTONDA HUQUQIY, IJTIMOIY, DUNYOVIY DAVLAT BARPO ETISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING ISHTIROKI ... 199
АХРОР ХУДОЙБЕРДИЕВ,..... 203
ЯНГИ КОНСТИТУЦИЯ – ҚОНУНЧИЛИК ЖАРАЁНИНИНГ МУҲИМ МЕЗОНИ 203
ERKIN SHADMANOV,..... 209
AZIZJON ANARKULOV, ... 209
HUQUQIY KAFOLATLAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VOSITASI..... 209
БОТИРЖОН ЗОКИРОВ,..... 213

ЖИНОИЙ АКТИВЛАРНИ ҚАЙТАРИШНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ 213
ХУШНУДБЕК ОЛИМЖОНОВ,..... 222
ЎЗБЕКИСТОНДА КОНСТИТУЦИЯВИЙ ИСЛОҲОТЛАР – ИНСОН ҲУҚУҚ ВА ЭРКИНЛИКЛАРИ СОҲАСИДАГИ АҲАМИЯТИ 222
БАҲРИДДИН ҒИЁСОВ, ... 230
ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ФАОЛИЯТИНИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ..... 230
АЗИЗ ИСМОИЛОВ, ... 235
ЯНГИ ТАҲРИРДАГИ КОНСТИТУЦИЯДА ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИ ИНСТИТУТИНИНГ МУСТАҲКАМЛАНГАНЛИГИ..... 235
SEVARA ABDIMANNOBOVA, ... 241
HUQUQIY TA’LIM – HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING ZARUR SHARTI..... 241
АЗИМЖОН ХЎЖАЕВ,..... 247
ИСТЕЪМОЛЧИ ҲУҚУҚЛАРИ УСТУНЛИГИГА ОИД КОНСТИТУЦИЯВИЙ КАФОЛАТЛАРИНИНГ АМАЛДА ИФОДАЛАНИШИ..... 247
МУҚАДДАС АХМЕДОВА,..... 254
Н.МУИНОВА,..... 254
ЎЗБЕКИСТОН АЁЛ ҲУҚУҚЛАРИ ВА ЭРКИНЛИКЛАРИНИНГ ТАЪМИНЛАНИШИНИНГ ҚОНУНИЙ АСОСЛАРИ 254
O‘TKIRBEK DAVLETOV,..... 262
KONSTITUSIYA – MILLIY BIRLIK ASOSI..... 262
ГЎЗАЛ НУРМУҲАММЕДОВА, ... 266
Ф.АМОНОВ,..... 266
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ КОНСТИТУЦИЯСИДА ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ..... 266
MOHINUR MUHAMMADIYEVA, ... 274

YANGI KONSTITUTSIYADA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR 274
ЭЛДОР ХОМИДОВ, ***..... 281***
ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИ АКАДЕМИК ЭРКИНЛИК, ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ, ТАДҚИҚОТЛАР ЎТКАЗИШИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ–ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ 281
MAXSATULLO MAXSADOV, ***..... 291***
MUDOFAASI VA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY–HUQUQIY ASOSLARI 291
DILMUROD MAXMUDOV, ***..... 300***
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MUDOFAA VA XAVFSIZLIKNI AHAMIYATI VA MOHIYATI 300
VALIJON UMARALIYEV, ***..... 305***
YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI – XOZIRGI DAVRDAGI FUQAROVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARNING ASOSIY NEGIZI 305
KHURSHID ABDULLOEV, ***..... 309***
IMPROVING THE PROCEDURE FOR WORKING WITH THE PERSONNEL OF INTERNAL AFFAIRS BODIES AND ORGANIZING THEIR WORK 309
SHERZOD XOLBOYEV, ***..... 313***
ELBEK USANOV, ***..... 313***
YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADA INSON VA FUQAROLAR HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLARI 313
КОНСТИТУЦИЯ ВА ИНТЕРНЕТ 320
ШАРОФИДДИН АМИРҚУЛОВ, ***..... 325***
ЯНГИЛАНГАН КОНСТИТУЦИЯ – МАМЛАКАТИМИЗ ТАРАҚҚИЁТИ ВА ФАРОВОНЛИГИНИНГ МУҲИМ ТАЯНЧИ 325
DILMUROD IRGASHEV, ***..... 330***
SHOXRUX QADAMOV, ***..... 330***

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA MAMLAKAT TARAQQIYOTINING ISHONCHLI GAROVI 330
RUSTEM OMIRZAKOV, ... 336
A NECESSITY FOR A SOCIETY: CONSTITUTIONAL GUARANTEES OF ENSURING QUALITY EDUCATION, GUARANTEED HEALTH CARE AND DECENT WORKING CONDITIONS 336
ABBOS MURODULLAYEV, ... 340
MILLIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY PRINSIPLARI VA NORMALARI TAHLILI 340
MAVLUDA ERGASHEVA,..... 349
JADIDLAR KONSTITUTSIYASI – DEMOKRATIK ASOSIY QONUN 349
SALAMAT UTEBAEV, ... 354
MUNIRA AZBERGENOVA,..... 354
INSON MANFAATLARINI USTUN QO‘YGAN - YANGILANGAN KONSTITUTSIYA 354
ШОҲСАНАМ ИСЛОМҚУЛОВА, ... 360
ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТАЛАШ -ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ КАФОЛАТИ 360
ASADBEK TOSHMUXAMMATOV,..... 364
RIZOYEV FERUZ,..... 364
OMMAVIY TADBIRLARNI O‘TKAZISH FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI 364
SHOHRUH JAHONOV,..... 373
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI USTIDAN JAMOATCHILIK NAZORATI O‘RNATISHINING HUQUQIY MEXANIZMLARI 373
КУАТБАЙ МИРЗАБАЕВ, ... 379
ИХЧАМ ВА ПРОФЕССИОНАЛ ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ТИЗИМИНИ ЯРАТИШДА ДАВЛАТ ХИЗМАТИ СОҲАСИНИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИ 379

Н.МУИНОВА, ***385***
АЁЛЛАР ТАЪЛИМ ОЛИШ ҲУҚУҚИ – ИЖТИМОИЙ ҲУҚУҚЛАРИНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМИ СИФАТИДА 385
ТЕМУР АЙБЕРГЕНОВ, ***390***
МИЛЛИЙ ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ 390
TO‘LQIN MAMATALIYEV, ***397***
TA’LIM OLISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI: MASOFAVIY TA’LIM DAVRIGA MOSLASHISH 397
LOCHINBEK SUYUNDIKOV, ***401***
YANGI QABUL QILINGAN KONSTITUTSIYANING XALQ FAROVONLIGINI TA’MINLASHDA DAVLAT BYUDJETI TIZIMINI OCHIQLIK PRINSIPINI AHAMIYATI 401
RAVSHANOV ULUGBEK, ***406***
XALQARO GUMANITAR HUQUQ NORMALARINI IMPLEMENTATSIYA QILISHNING XALQARO VA MILLIY MEXANIZMLARINING AYRIM JIHATLARI 406
ШОХИСТА МИРАЗОВА, ***415***
КРИМИНАЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАССЛЕДОВАНИЯ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ 415
SALAMAT UTEBAEV, ***425***
MUNIRA AZBERGENOVA, ***425***
INSON MANFAATLARINI YUKSALTIRAYOTGAN - SUD-HUQUQ ISLOHATLARI 425
QUVONDIQ SHEROV, ***433***
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASINING QONUN LOYIHALARI MUHOKAMALARINI O‘TKAZISH BO‘YICHA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 433
SHODIYA ERGASHEVA, ***438***

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA INGLIZ TILIDA KASBIY TA’LIM BERISH BILAN BOG‘LIQ MEHNAT BOZORLARI MAVQEYINING O‘SISHI 438
АҚЛИДДИН САЙФИДДИНОВ, ... 442
ХАЛҚ ДЕПУТАТЛАРИ ВИЛОЯТ, ТУМАН, ШАҲАР КЕНГАШЛАРИ ДЕПУТАТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ АСОСЛАРИ 442
УМИДБЕК НУРУЛЛАЕВ, ... 447
ЙЎЛ ҲАРАКАТИ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЯНГИ КОНСТИТУЦИЯ НОРМАЛАРИ ТАЛАБЛАРИГА РИОЯ ЭТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 447
МУҲИДДИН ҚАЛАНДАРОВ, ... 453
ЎЗБЕКИСТОНДА СИЁСИЙ ПАРТИЯЛАР ФАОЛИЯТИНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ 453
ZOIR XOTAMOV, ... 459
KONSTITUTSIYA-INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARI KAFOLATI 459
HOJIBOY ADASHOV, ... 464
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI KONSTITUTSIYANING O‘RNI VA ROLI 464
ABBOSXON ORALOV, ... 468
YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI KONSTITUTSIYASI 468
PAYZIYEV ABBOS, ... 480
O‘ZBEKISTON VA DUNYO KONSTITUTSIYALARIDA SHAXSNING PROTSESSUAL HUQUQLARINING TA’MINLANGANLIGI 480
ШЕРАЛИ ЯРЛАКОБОВ, ... 485
ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИДА КАДРЛАР СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ 485
XO‘JAMBERDIYEV FARRUX KOMILOVICH, ... 490
JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA INSON, UNING HUQUQ VA ERKINLIKLARI OLIY QADRIYAT 490

АНАРКУЛОВ АЗИЗ, ***494***
НОВАЯ КОНСТИТУЦИЯ СТРАНЫ КЛЮЧ К НОВЫМ ГАРАНТИЯМ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕК 494
ASHUROVA NILUFAR O‘KTAMOVNA, ***502***
KONSTITUTSIYADA JINOIY JAZOLARNI LIBERALLASHTIRISH MASALALARI 502
ТЛЕУБАЕВ ЕРПОЛАТ НАЖИМОВИЧ ***507***
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ КОНСТИТУЦИЯСИДА ФУҚАРОЛАРНИНГ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ ВА УНДА ИШТИРОК ЭТУВЧИ СУБЪЕКТЛАРНИНГ ВАЗИФАЛАРИ 507
XO‘JAMBERDIYEV FARRUX KOMILOVICH, ***511***
JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH TIZIMINING KONSTITUTSIONAL ASOSLARI 511

“XALQ KONSTITUSIYASI BILAN HUQUQIY, IJTIMOIY, DUNYOVIY DAVLAT SARI: ILMIY TAHLIL VA AMALIY YECHIMLAR”

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

2023-yil 4-dekabr

МАТЕРИАЛЫ

международной научно-практической конференции

“К ПРАВОВОМУ, СОЦИАЛЬНОМУ, СВЕТСКОМУ ГОСУДАРСТВУ С НАРОДНОЙ КОНСТИТУЦИЕЙ: НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ”

MATERIALS

of the international scientific and practical conference

TOWARDS A LEGAL, SOCIAL, SECULAR STATE WITH THE PEOPLE'S CONSTITUTION: SCIENTIFIC ANALYSIS AND PRACTICAL SOLUTIONS

Muharrir: Murakayeva Z.I.
Texnik muharrir: Ravshanov U.M.

Bosishga ruxsat etildi: 28.11.2023. y. Buyurtma: № 204. Format 60x90/16.
Times New Roman garniturasi bilan raqamli bosma usulida bosildi.
Hisob nashriyot t.: 24,64. Shartli b.t. 32,75. Adadi: 5 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi